BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

TILLARNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISH:

MUAMMO VA YECHIMLAR



2026-yil 21-oktabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

TILLARNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

“ПОВЫШЕНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ ОЦЕНИВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ”

Сборник международной научно-практической конференции

“IMPROVING STUDENTS' FUNCTIONAL LITERACY BASED ON INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS: PROBLEMS AND SOLUTIONS”

Collection of international scientific and practical conferences

BUXORO - 2026-yil, 21-oktabr

Ilmiy konferensiya dasturiy qo‘mitasi

A.A.Xamidov –	Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, rais
G.R.Muqimova –	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, a’zo
B.Y. Axmedov –	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, a’zo
G.Y.Hamidova -	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, a’zo
R.A.Ergasheva -	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, a’zo
R.I.Bakayeva –	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
A.B.Ortiqova –	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Ilmiy konferensiya tashkiliy qo‘mitasi a’zolari

G.R.Muqimova –	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri
M.M.Boboyev –	Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha direktor o'rinbosari
R.I.Bakayeva –	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
A.B.Ortiqova –	Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
N.G’.Hamroyeva -	Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi, ona tili va adabiyot fani metodisti.
T.O.Avezov –	Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi AKT o‘qituvchisi

Mas’ul muharrir

G.R.Muqimova - Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri

So‘zboshi

TIL – MILLAT MA’NAVIYATI TIMSOLI

Assalomu alaykum, hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz ustozlar, muhtaram olimlar, xalqaro ekspertlar va ta’lim sohasi vakillari!

Avvalo, barchangizni Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilayotgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyamizda ko‘rib turganimizdan mamnunmiz. Sizlarni samimiy qutlab, barchangizga chuqur hurmat va ehtiromimizni bildiramiz!

Fursatdan foydalanib, barchangizni xalqimiz ma’naviy hayotida alohida o‘rin tutadigan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun bilan chin qalbimdan muborakbod etaman!

Ona tili — millatning ruhi, tarixiy xotirasi, ma’naviy boyligi va o‘zligini namoyon etuvchi bebaho qadriyatdir. Tilimizda xalqimizning asrlar davomida shakllangan tafakkuri, urf-odatlari, orzu-intilishlari va ezgu qadriyatlari mujassam. Shu bois ona tilimizni asrab-avaylash, uning boy imkoniyatlarini keng targ‘ib etish, yosh avlodning tilga bo‘lgan hurmati va mehrini yuksaltirish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Ayniqsa, ta’lim sohasi vakillari zimmasiga bu borada katta mas’uliyat yuklanadi. Chunki yosh avlodning ona tilida ravon va mantiqiy fikrlashi, o‘z qarashlarini aniq ifodalashi, matnlarni chuqur tushunishi va tahlil qilishi uning nafaqat til kompetensiyasi, balki umumiy funksional savodxonligi rivojida ham muhim ahamiyatga ega.

Til bayrami munosabati bilan o‘tkazilayotgan bugungi konferensiyamizning mazmun-mohiyati ham aynan shu maqsadlar bilan chambarchas bog‘liq.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — o‘quvchilarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularni egallagan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, muammolarga yechim topadigan, axborotni tahlil qiladigan

va asosli qarorlar qabul qiladigan shaxslar etib tarbiyalashdir. Aynan shu jihatlar funksional savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Bugungi kunda ta’lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlar va baholash dasturlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlar o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan bir qatorda, ularning bilimlarni amaliyotda qo‘llash, matnni tushunish, matematik va ilmiy fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotlar natijalari ta’lim tizimidagi yutuqlarni aniqlash, mavjud muammolarni ko‘rish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun muhim tahliliy asos yaratadi. Eng muhimi, xalqaro baholash natijalarini shunchaki raqamlar yoki reytinglar sifatida emas, balki ta’lim sifatini yaxshilashga yo‘naltiruvchi amaliy imkoniyat sifatida qabul qilishimiz zarur.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi konferensiyamiz mavzusi nihoyatda dolzarbdir. Chunki funksional savodxonlikni rivojlantirish o‘qituvchidan yangicha pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni, o‘quv topshiriqlarini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashni, o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishni talab etadi.

Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil mushohada yuritishi, turli manbalardagi axborotlarni solishtirishi, matn mazmunini anglab, o‘z fikrini dalillar bilan asoslay olishi hamda egallagan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llashi uchun sharoit yaratish muhimdir. Bu esa ona tilimizning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshiradi.

Bugungi ilmiy-amaliy konferensiyamizning asosiy maqsadi xalqaro baholash dasturlari bilan bog‘liq tajribalarni o‘rganish, funksional savodxonlikni rivojlantirishdagi dolzarb muammolarni muhokama qilish, samarali metodik yechimlarni ishlab chiqish hamda ilg‘or tajribalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishdan iborat.

Ishonamizki, konferensiya davomida bildiriladigan ilmiy qarashlar, amaliy tavsiyalar va o‘zaro fikr almashuvlar ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy

mahoratini rivojlantirish hamda o‘quvchilarning xalqaro talablarga mos kompetensiyalarini shakllantirishga munosib hissa qo‘shadi.

Hurmatli ishtirokchilar!

Ta’lim taraqqiyoti — uzluksiz izlanish, yangilanish va hamkorlik jarayonidir. Har bir ilg‘or g‘oya, har bir samarali metodik yondashuv va har bir puxta tahlil kelajak avlodning bilimli, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh shaxs bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, bugungi uchrashuvimizni yangi ilmiy g‘oyalar, samarali hamkorlik va amaliy natijalar sari tashlangan muhim qadam sifatida baholaymiz.

Fursatdan foydalanib, konferensiyani tashkil etishda ishtirok etgan barcha hamkorlarimizga, o‘z ilmiy izlanishlari va tajribalari bilan o‘rtoqlashish uchun tashrif buyurgan ekspertlar, olimlar va pedagoglarga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Yana bir bor barchangizni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun bilan tabriklayman! Ona tilimizning nufuzi yanada yuksalsin, uning boyligi va jozibasi kelajak avlodlar qalbida hamisha yashasin! Yurtimizda tilga, ilmga va ma’rifatga bo‘lgan e’tibor tobora ortib boraversin.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyamiz ishiga muvaffaqiyat tilayman! Bildiriladigan fikrlar, takliflar va tavsiyalar ta’lim amaliyotida o‘zining munosib ifodasini topsin.

E’tiboringiz uchun rahmat! Konferensiyamizni ochiq deb e’lon qilaman!

Xamidov Akmal Amrulloyevich

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, p.f.b.f.d (PhD)

1-SHO‘BA: XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, PIRLS, TIMSS) VA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

РАЗДЕЛ 1: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ (PISA, PIRLS, TIMSS) И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ

SECTION 1: INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS (PISA, PIRLS, TIMSS) AND THE THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING FUNCTIONAL LITERACY

PISA 2025 NATIJALARIDAN PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KASBIY RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Pardayeva Mehriniso Doniyarovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent, Ta’limni rivojlantirish
respublika ilmiy-
metodik markazi boshqarma boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada PISA 2025 natijalarini kompetensiya bo‘shliqlarini aniqlash, maktab darajasida aniqlashtirish va pedagoglarning maqsadli kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirish mexanizmi taklif etiladi. PISA ma’lumotlarini “natija – diagnostika – sabab – pedagogik yechim – monitoring – qayta baholash” sikliga, KRK (kasbiy rivojlanish kuni), KRS (kasbiy rivojlanish soati) va Metodik marafonni esa funksional savodxonlikni rivojlantirish vositasiga integratsiya qilish asoslanadi.

Kalit so‘zlar: PISA 2025, funksional savodxonlik, pedagogik diagnostika, kasbiy rivojlanish, KRK, KRS, Metodik marafon, 4K.

Annotatsiya. В статье предлагается механизм использования результатов PISA 2025 для выявления дефицитов компетенций и организации целевого профессионального развития педагогов. Обосновывается интеграция данных PISA в цикл «результат – диагностика – причина – педагогическое решение – мониторинг – повторная оценка», а ДПР (день профессионального развития), ЧПР (час профессионального развития) и Методический марафон рассматриваются как инструменты развития функциональной грамотности.

Ключевые слова: PISA 2025, функциональная грамотность, педагогическая диагностика, профессионалное развитие, методический марафон, модель 4К.

Abstract. The article proposes a mechanism for using PISA 2025 results to identify competency gaps and translate them into targeted teacher professional development. PISA evidence is integrated into a “result – diagnosis – cause – pedagogical response – monitoring – reassessment” cycle, while KRK, KRS and the Methodological Marathon are considered tools for strengthening functional literacy.

Keywords: PISA 2025, functional literacy, pedagogical diagnostics, professional development, Methodological Marathon, 4C model.

Kirish. Xalqaro baholash dasturlari ta’lim tizimining holatini qiyosiy ko‘rsatish bilan birga, o‘quvchining bilimni real vaziyatda qo‘llashi, ma’lumotni tahlil qilishi va muammoni hal etish qobiliyatini baholaydi. Shu bois PISA

natijalarini faqat reyting yoki yakuniy ball sifatida talqin qilish ularning pedagogik qiymatini cheklaydi. Amaliy jihatdan muhim vazifa — tizim darajasida aniqlangan kompetensiya bo‘shliqlarini maktab diagnostikasi orqali aniqlashtirib, pedagogning aniq kasbiy rivojlanish vazifasiga aylantirishdir.

PISA tizim darajasidagi tanlanma baholash bo‘lgani uchun u alohida maktab yoki pedagogga bevosita baho bermaydi. Natijalar mahalliy diagnostikaga yo‘nalish beruvchi signal sifatida qo‘llanib, qarorlar maktabdagi dalillar bilan aniqlashtirilishi lozim. Tadqiqotda OECDning PISA 2022 va PISA 2025 bo‘yicha O‘zbekiston mamlakat qaydlari, Education GPS ko‘rsatkichlari hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga oid milliy hujjatlar ikkilamchi tahlil qilindi.

PISA 2025da O‘zbekistonning tabiiy fanlar bo‘yicha o‘rtacha natijasi 438 ball bo‘lib, PISA 2022dagi 355 ballga nisbatan 83 ball yuqori. Ikkinchi daraja va undan yuqori natijaga erishgan o‘quvchilar ulushi 19 foizdan 65 foizga oshdi; bazaviy darajaga yetmaganlar ulushi 81 foizdan 35 foizga kamaydi. 2025-yilda 5–6-darajadagi o‘quvchilar ulushi Education GPSda 0,5 foiz sifatida qayd etilgan. Hisoblashga asoslangan muammolarni hal qilish bo‘yicha o‘rtacha natija 402 ballni, o‘z tabiiy fanlar natijasidan kutilganidan yuqori ko‘rsatkichga erishganlar esa 23,3 foizni tashkil etdi.

Mazkur ma’lumotlar umumiy ball o‘sishi barcha funksional kompetensiyalar bir xil rivojlanganini anglatmasligini ko‘rsatadi. Shu bois keyingi tahlil kompetensiya kesimiga yo‘naltirilishi zarur.

1-jadval. O‘zbekistonda PISA tabiiy fanlar natijalarining 2022–2025-yillardagi o‘zgarishi

Ko‘rsatkich	PISA 2022	PISA 2025	O‘zgarish
O‘rtacha ball	355	438	+83 ball
2-daraja va undan yuqori	19%	65%	+46 foiz band
2-darajadan past	81%	35%	−46 foiz band

“Baholashdan rivojlanishga” mexanizmi olti bosqichdan iborat:

1) xalqaro, milliy va maktab natijalarini yig‘ish;

2) umumiy ball o‘rniga kompetensiyalar kesimidagi diagnostik profilni shakllantirish;

3) muammo sababini — bilim bo‘shlig‘i, metod, o‘quv materiali, motivatsiya, resurs yoki maktab muhitini — aniqlash;

4) aniq pedagogik yechim va kasbiy rivojlanish vazifasini belgilash;

5) qisqa siklli monitoring;

6) natijani qayta baholab, keyingi qarorni yangilash. Shu tariqa “o‘quvchi ehtiyoji-pedagog ehtiyoji-kasbiy rivojlanish-dars amaliyotidagi o‘zgarish-o‘quvchi natijasidagi o‘zgarish” zanjiri shakllanadi.

1-rasm. “Baholashdan rivojlanishga” olti bosqichli mexanizm



Mexanizmning muhim jihati shundaki, kasbiy rivojlanish mavzusi umumiy tarzda emas, o‘quvchi kompetensiyasidagi aniq bo‘shliqdan kelib chiqadi. Masalan, o‘quvchi ilmiy dalilni talqin qilishda qiynalsa, pedagog uchun dalil bilan ishlash, tajriba natijasini tahlil qilish va ochiq javobli topshiriqlarni loyihalash bo‘yicha aniq rivojlanish vazifasi belgilanadi. KRK pedagogning yangi metodik yondashuvni o‘zlashtirishiga, KRS esa uni darsda qo‘llash, kuzatish va refleksiya qilishga xizmat qiladi. Shu bois ular kompetensiya bo‘shliqlarini maqsadli kasbiy rivojlanishga aylantirish vositasidir.

Metodik marafon tabiiy-ilmiy, matematik va o‘qish savodxonligi hamda boshlang‘ich ta’limdagi 4K — kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya — ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. PISA muammoni

ko‘rsatadi, maktab diagnostikasi uni aniqlashtiradi, KRK va KRS esa metodik yechimni amaliyotga olib kiradi.

Maktab darajasida amalga oshirishda maktab rahbariyati ustuvor kompetensiyalarni rivojlanish rejasiga kiritadi, metodik birlashma va mentorlar diagnostika asosida pedagogning aniq kasbiy vazifasini belgilaydi. Monitoringda test natijasi bilan birga bilimni qo‘llash, ma’lumotni talqin qilish va hamkorlik indikatorlari kuzatiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, PISA 2025dagi ijobiy dinamika bilan birga saqlanayotgan kompetensiya bo‘shliqlari natijalarni mahalliy diagnostika va maqsadli kasbiy rivojlanish bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. “Natija – diagnostika – sabab – pedagogik yechim – monitoring – qayta baholash” siklini KRK, KRS va Metodik marafon bilan integratsiya qilish “o‘quvchi ehtiyoji – pedagog ehtiyoji – kasbiy rivojlanish – dars amaliyotidagi o‘zgarish – o‘quvchi natijasidagi o‘zgarish” zanjirini shakllantirib, pedagogik faoliyat samaradorligini real natija bilan bog‘lash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Future-Ready Students. Paris: OECD Publishing, 2026. DOI: 10.1787/73451bc5-en. OECD

2. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Uzbekistan. Country Note. Paris: OECD Publishing, 2026. OECD

3. OECD. PISA 2022 Results (Volumes I and II): Country Note — Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2023. OECD

4. OECD Education GPS. Uzbekistan: Student Performance (PISA 2025). 2026. gpseducation.oecd.org

5. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Results for Countries and Economies. Paris: OECD Publishing, 2026.

PISA, PIRLS VA TIMSS MEZONLARI ASOSIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Azizova Qizlarxon Mashrabovna
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD)., dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mezonlari asosida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Funksional savodxonlikning o‘quvchilarning egallagan bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy, o‘quv va muammoli vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati sifatidagi mazmuni yoritilgan. PISA dasturida o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni amaliy kontekstlarda qo‘llash, PIRLS dasturida matnni anglash, tahlil qilish va mazmunni talqin etish, TIMSS dasturida esa matematik va tabiiy-ilmiy bilimlarni qo‘llash hamda fikrlash jarayonlariga yo‘naltirilgan yondashuvlarning funksional savodxonlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro baholash mezonlariga mos topshiriqlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, axborotni tahlil qilish va amaliy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati asoslangan. Maqolada PISA, PIRLS va TIMSS tajribalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik imkoniyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, xalqaro baholash dasturlari, funksional savodxonlik, o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli vaziyat, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, amaliy kompetensiya, baholash mezonlari, pedagogik imkoniyatlar.

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности развития функциональной грамотности учащихся на основе критериев международных исследований PISA, PIRLS и TIMSS. Раскрывается содержание функциональной грамотности как способности учащихся применять приобретённые знания и умения в различных учебных, жизненных

и проблемных ситуациях. Рассматриваются возможности использования подходов PISA к развитию читательской, математической и естественно-научной грамотности, подходов PIRLS к пониманию, анализу и интерпретации текста, а также подходов TIMSS к применению математических и естественно-научных знаний и развитию мыслительных процессов. Обосновывается педагогическое значение заданий, соответствующих международным критериям оценивания, моделирования проблемных ситуаций, развития критического и логического мышления, анализа информации и принятия практических решений. Освещаются методические возможности интеграции элементов международных исследований PISA, PIRLS и TIMSS в образовательный процесс с целью повышения уровня функциональной грамотности учащихся.

Ключевые слова: PISA, PIRLS, TIMSS, международные исследования, функциональная грамотность, читательская грамотность, математическая грамотность, естественно-научная грамотность, компетентностный подход, проблемная ситуация, критическое мышление, логическое мышление, практическая компетентность, критерии оценивания, педагогические возможности.

Abstract: This article analyzes the pedagogical opportunities for developing students’ functional literacy based on the assessment criteria of the international studies PISA, PIRLS, and TIMSS. Functional literacy is considered as students’ ability to apply acquired knowledge and skills in various educational, real-life, and problem-solving contexts. The article examines the potential of the PISA approach to developing reading, mathematical, and scientific literacy; the PIRLS approach to reading comprehension, text analysis, and interpretation; and the TIMSS approach to applying mathematical and scientific knowledge and developing cognitive processes. The pedagogical significance of assessment tasks aligned with international criteria, problem-based learning situations, critical and logical thinking, information analysis, and practical decision-making is substantiated. The

article also highlights methodological opportunities for integrating elements of PISA, PIRLS, and TIMSS into the educational process to enhance students’ functional literacy.

Keywords: PISA, PIRLS, TIMSS, international assessments, functional literacy, reading literacy, mathematical literacy, scientific literacy, competency-based approach, problem situation, critical thinking, logical thinking, practical competence, assessment criteria, pedagogical opportunities.

Kirish. Zamonaviy dunyoda ta’lim sifatini baholash va o‘quvchilarning egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash masalasi ta’lim siyosati va pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat muayyan fan doirasidagi bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki mazkur bilimlarni kundalik hayot, o‘quv faoliyati va turli muammoli vaziyatlarda samarali qo‘llay olishi muhim hisoblanadi. Shu jihatdan funksional savodxonlik shaxsning ta’lim jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, axborotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va maqbul yechimlarni topish imkoniyatini ifodalovchi muhim ta’limiy natija sifatida namoyon bo‘ladi. Funksional savodxonlik tushunchasining mazmuni xalqaro ta’lim tadqiqotlarida ham keng qo‘llanilib, o‘quvchilarning bilimlarni reproduktiv tarzda qayta tiklashidan ko‘ra, ularni turli kontekstlarda qo‘llash qobiliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, OECD tomonidan tashkil etiladigan PISA xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi ularning real hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish imkoniyatlari bilan bog‘liq holda baholanadi. Bu yondashuv funksional savodxonlikni rivojlantirishda o‘quv topshiriqlarining amaliy yo‘nalganligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida esa o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlari bilan bir qatorda, ushbu bilimlarni qo‘llash va fikrlash jarayonlari ham muhim o‘rin egallaydi. Matematik yoki tabiiy-ilmiy bilimlarni real vaziyatlarga tatbiq etish, ma’lumotlarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini

aniqlash va masalalarga asoslangan yechimlarni ishlab chiqish funksional savodxonlikning amaliy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli TIMSS mezonlari asosidagi topshiriqlar o‘quvchilarning bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish uchun metodik imkoniyat yaratadi.

PISA, PIRLS va TIMSS dasturlarining mazmuni va baholash yondashuvlarida ayrim farqlar mavjud bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihatlardan biri o‘quvchining bilimni shunchaki egallashi emas, balki undan foydalanish qobiliyatini aniqlashga qaratilganligidir. PISA ko‘proq bilim va ko‘nikmalarni turli kontekstlarda qo‘llash, PIRLS matnni tushunish va undan ma’no chiqarish, TIMSS esa matematik va tabiiy-ilmiy bilimlarni qo‘llash hamda fikrlash jarayonlarini baholashga e’tibor beradi. Ushbu yondashuvlarning uyg‘unligi funksional savodxonlikning kompleks mazmunini ochib berishga imkon yaratadi. Xalqaro baholash dasturlarining mezonlari ta’lim jarayonida o‘quv topshiriqlarini loyihalashga ham muayyan talablarni qo‘yadi. Jumladan, o‘quvchidan tayyor formulani yoki ta’rifni takrorlashni talab qiladigan topshiriqlardan tashqari, axborotni izlash va tahlil qilish, bir nechta manbalar bilan ishlash, dalillarni taqqoslash, muammoli vaziyatni baholash, xulosa chiqarish va o‘z qarorini asoslashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish zarur. Bunday topshiriqlar o‘quvchining mustaqil fikrlashi, bilimlarni transfer qila olishi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantiradi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari mezonlaridan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchining metodik faoliyatini qayta ko‘rib chiqishni ham taqozo etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning faqat yakuniy javobini emas, balki muammoni qanday anglagani, ma’lumotlarni qanday tahlil qilgani, yechimga qanday kelgani va o‘z fikrini qanday asoslaganini ham hisobga olishi lozim. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim va baholash tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish ta’lim sifatini tahlil qilish, o‘quvchilarning savodxonlik darajasini xalqaro mezonlar bilan qiyoslash hamda ta’lim mazmunini takomillashtirish uchun muhim ma’lumotlar bazasini shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, PISA, PIRLS va TIMSS mezonlarini

o‘rganish va ularning metodik imkoniyatlarini ta’lim jarayoniga moslashtirish funksional savodxonlikni rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mezonlari asosida funksional savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning metodik yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Mavzuni tadqiq etishda xalqaro baholash mezonlari, funksional savodxonlikning tarkibiy komponentlari, kompetensiyaviy yondashuv hamda amaliy yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mazmuni va mezonlari funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish uchun muhim metodik imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu dasturlarda o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni qay darajada egallagani emas, balki mazkur bilimlarni turli o‘quv va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, axborotni tahlil qilishi, muammolarni aniqlashi, xulosa chiqarishi va o‘z qarorini asoslay olishi kabi ko‘nikmalar muhim o‘rin tutadi. PISA mezonlari o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini real kontekstlar bilan bog‘lash imkonini beradi. PIRLS yondashuvi o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, talqin etish va o‘qilgan ma’lumotlardan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun metodik asos yaratadi. TIMSS esa matematik va tabiiy-ilmiy bilimlarni qo‘llash, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda turli fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Shu jihatdan ushbu uch xalqaro baholash dasturining metodik elementlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish funksional savodxonlikning turli tarkibiy jihatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Funksional savodxonlikni rivojlantirishda topshiriqlarning mazmuni va tuzilishi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchini tayyor bilimni takrorlashga emas, balki axborotni izlash, saralash, taqqoslash, tahlil qilish, muammoli vaziyatni baholash, dalillarga

asoslangan xulosa chiqarish va amaliy qaror qabul qilishga undaydigan topshiriqlar o‘quvchilarning funksional kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzudan kelib chiqib bir nechta tavsiyalar berishni lozim deb topdik:

1. **O‘quv topshiriqlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish.** Dars jarayonida PISA, PIRLS va TIMSS yondashuvlariga mos, real hayotiy va o‘quv vaziyatlarini aks ettiruvchi topshiriqlar ulushini oshirish.

2. **Fanlararo topshiriqlardan foydalanish.** O‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlantiruvchi integrativ topshiriqlarni ishlab chiqish.

3. **Muammoli vaziyatlardan foydalanishni kengaytirish.** O‘quvchilarga tayyor algoritmni qo‘llashdan ko‘ra, muammoni mustaqil aniqlash, mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish va bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqishni talab qiladigan vazifalarni berish.

4. **Matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.** PIRLS yondashuviga muvofiq turli janrdagi matnlar bilan ishlash, asosiy g‘oyani aniqlash, ma’lumotlarni taqqoslash, yashirin mazmunni anglash va matn asosida xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan mashqlarni tizimli tashkil etish.

Xulosa o‘rnida, PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlari mezonlari funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini takomillashtirish uchun muhim nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur dasturlarning umumiy jihati o‘quvchining tayyor bilimni qayta ifodalashidan ko‘ra, uni **tushunishi, tahlil qilishi, amaliy vaziyatda qo‘llashi, muammoni hal qilishi va o‘z xulosasini asoslay olishi**ga e’tibor qaratilishidir. Shu bois funksional savodxonlikni rivojlantirish jarayonida xalqaro baholash dasturlarining yondashuvlarini ta’lim mazmuni va amaliyotiga izchil integratsiyalash o‘quvchilarning bilimlardan real hayotda samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda PISA, PIRLS va TIMSS tajribalaridan foydalanishning asosiy maqsadi xalqaro topshiriqlarni aynan takrorlash emas, balki ularning **kompetensiyaga, amaliy faoliyatga, tahliliy fikrlashga va**

muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan metodik tamoyillarini milliy ta’lim sharoitlariga moslashtirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Financial Literacy and Creative Thinking. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 291 p.
2. OECD. PISA 2022 Results. Volume I: The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.
3. OECD. PISA 2022 Results. Volume V: Learning Strategies and Attitudes for Life. – Paris: OECD Publishing, 2024.
4. OECD. PISA for Development Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 192 p.
5. Mullis I.V.S., Martin M.O., von Davier M. TIMSS 2023 Assessment Frameworks. – Boston: Boston College, 2021.
6. Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS 2019 Assessment Frameworks. – Boston: Boston College, 2017.

XALQARO TADQIQOTLAR NATIJALARI TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUHIM OMIL

Astanov Rustam Vohidovich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogigika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xalqaro baholash tadqiqotlarining ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarining maqsadlari, O‘zbekistonda ularni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarni tayyorlash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, STesting elektron platformasining o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro tadqiqotlar, ta’lim sifati, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, funksional savodxonlik, baholash, STesting.

Аннотация. В статье рассматриваются значение международных оценочных исследований для повышения качества образования, цели программ PISA, PIRLS, TIMSS и TALIS, меры по их внедрению в Узбекистане и возможности подготовки учителей и учащихся. Также освещается роль электронной платформы STesting в развитии функциональной грамотности школьников.

Ключевые слова: международные исследования, качество образования, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, функциональная грамотность, оценивание, STesting.

Abstract. The article discusses the importance of international assessment studies for improving education quality, the objectives of PISA, PIRLS, TIMSS and TALIS, measures taken to introduce these programs in Uzbekistan, and opportunities for preparing teachers and students. It also considers the role of the STesting platform in developing students’ functional literacy.

Keywords: international studies, education quality, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, functional literacy, assessment, STesting.

Kirish. “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida “Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabr, 997-son qarori asosida xalqaro tadqiqotlarni tizimli yo‘lga qo‘yish bosqichma – bosqich amalga oshirildi.

Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1.a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o‘rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

2019 yil 1 fevralga qadar Milliy markaz bilan birgalikda o‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta’minlash dasturini ishlab chiqish;

xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘quv dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish;

o‘quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019 — 2021 yillarda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borish;

xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollarni o‘zida mujassam etgan o‘quv dasturlari asosida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlar yaratish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar)da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan tayanch maktablarni belgilash;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog‘iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish;

o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida munosib ishtirok etishni ta’minlash maqsadida vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari (Respublika ta’lim markazi, O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi) imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, zaruriyatdan kelib chiqib, tegishli bo‘limlarining funktsiyalarini qayta ko‘rib chiqish vazifalari yuklatilsin.

Ma’lumki, 2030 yilga qadar Xalq ta’limini rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlangan. Mazkur hujjatning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlash va 2030 yilga borib kuchli 30 talikka kirishga

erishish maqsadli yo‘nalishda belgilangan. Ya’ni, Xalq ta’limi uchun strategik vazifa qo‘yilgan.

Ilk marotaba 2021 yilning 5-14 aprel kunlari mamlakatimizda 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotda respublikamizdagi 180 ta maktabda tahsil oluvchi 5 948 nafar 4-sinf o‘quvchilari hamda ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etdi.

Shuningdek, 2022 yilning aprel oyida yurtimizdagi 202 ta maktabda PISA xalqaro baholash tadqiqotlari o‘tkazildi. Tadqiqotda yurtimizning 15 yoshli maktab o‘quvchilari tabiiy-ilmiy savodxonlik, matematik savodxonlik hamda o‘qish savodxonlik yo‘nalishlari bo‘yicha ishtirok etdi.

Navbatdagi xalqaro baholash tadqiqotlari 2023 yilda o‘tkazildi. Kelgusi yilda o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan TIMSS-2023 tadqiqotlarida 4- va 8-sinf maktab o‘quvchilari tabiiy fanlar hamda matematika fanidan o‘z bilimlarini sinab ko‘rildi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan STesting elektron platformasi (https://stesting.uz) ishlab chiqildi.

Ushbu platformada 1449 ta test-topshiriqlari, 103 ta mediakurslar, 40 ta kimyo va biologiya fanlaridan malaka oshirish media kurslari o‘rin olgan. Shulardan, PISA xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blok va 489 ta savollar bo‘lsa, TIMSS xalqaro baholash tadqiqotiga oid esa 8 ta fanga tegishli 583 ta nazorat savollar joy olgan va

PIRLS xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blokdan iborat 377 ta savollar platformaga joylashtirilgan.

Stesting elektron platformasi statistikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2022 yilning fevral-iyul oylari davomida yurtimizdagi 7750 dan ortiq maktab ushbu elektron plaftformadan ro‘yhatdan o‘tgan bo‘lib, ularda 2 500 000 dan ortiq maktab o‘quvchilarimiz test-topshiriqlarni bajarib kelmoqda. Ushbu bajarilgan test-topshiriqlar 12 nafar malakali pedagog-mutaxassislar tomonidan o‘zbek va rus tillarida tekshirilib, baholanmoqda. Hozirda 2 000 000 dan ortiq test-topshiriq tekshirilib, baholandi.

Hozirda milliy tadqiqot instituti mazkur loyihaning yangi kontent va test topshiriqlari bilan boyitish maqsadida, "Stesting"2 loyihasi ustida ishlar olib borilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida qayd etish lozimki, instiutning STESTING.UZ trenajyor platformasi o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun tashkil etilgan. Marhamat, bepul platformada xalqaro baholash dasturlariga tayyorlanishingiz mumkin!

Globallashuv jarayonlari tobora chukurlashib borayotgan transformatsion davrda jahondagi ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chikkan holda shiddat bilan rivojlanishni takozo etmokda. Ta’lim orkali esa jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga kodir bulgan yangi avlod shakllantiriladi. Dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniklab beruvchi "PISA"1 (O‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS2 (Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS3 (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalkaro monitoring) kabi qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi asosiy mezon sifatida keng qo‘llanilib kelinmokda. Sunggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi sababli barcha soxalarda malakali kadrlar va etuk mutaxassislarga bo‘lgan talab yanada oshmokda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatlarini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim -

tarbiyasiga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi. Mamlakatimizda davlat hamda jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar bilan bir qatorda, ta’lim sifatini oshirish va xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish masalasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Ta’kidlash joizki, davlatimiz rahbarining Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha etakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan, TIMSS, PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyatida o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetentsiyalarini baholash, ya’ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Qolaversa, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning TIMSS, PISA va PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘shish maqsadida Ta’lim inspektsiyasi, uning huzuridagi Milliy markaz hamda xalq ta’limi tizimidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda qator ishlar amalga oshirilyapti. Xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha ko‘plab maktablarda PISA savollari negizida dastlabki tajriba-sinovlar o‘tkazilib, minglab o‘quvchilar qamrab olindi. TIMSS dasturi savollari negizida Jahon banki bilan hamkorlikda respublikamiz maktablarda tadqiqot o‘tkazilib, o‘quvchilarning matematik savodxonligi baholandi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga -pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish metodikasi va dasturlarini PISA xalqaro baholash dasturi talablariga moslashtirish -xalqaro tadqiqotlar yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlarining o‘quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borish;

-bitiruvchi talabalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga ishga kelishda PISA xalqaro baholash dasturiga tayyor holda kelishlarini ta’minlash;

-ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini joriy etish bo‘yicha PISA xalqaro baholash dasturi yo‘nalishidagi fanlar o‘qituvchilari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

-pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlarining o‘quv jarayonlariga yuqori malakali xorijiy olimlar, o‘qituvchi va mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-tegishli vazirlik va idoralar hamda ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda PISA va TALIS xalqaro dasturlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish; -umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;

-PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy tashkilotlar grantlari tanlovlari, xo‘jalik shartnomalari asosida samarali ilmiy faoliyatni tashkil etish vazifalari yuklatiladi.

O‘zbekistonda xalqaro PISA baholash dasturiga tayyorgarlik ko‘rish va maktablardagi ta’lim sifatini yaxshilash uchun bugungi kunda Singapur tajribasini o‘rganmokda. Sababi Singapur keyingi yillarda ta’lim buyicha xalkaro musobaqalarda yukori natijalarni kayd etib kelmoqda.

PISA tadqiqoti nima berdi?

- Ilm va uni ishlata olish o‘rtasidagi uzilishni tushuna olish va ta’lim jarayonidan tashqari vaziyatlarda ishlata olish. (metodik fanlar birlashmasini o‘qitishni shaklantirish)

- Zamonaviy tabiiy fanlar ta’lim maktabi nomenklatura mundarijasi (mundarija asosiga nimalar kiradi .
- Formulaga solingan natijalar mundarijasiga ko‘ra urg‘u berish (amaliy yunalishga urg‘u bitiruvchi xayot uchun nimani bilish kerak

Topshiriqlarga misol;

Tanga ustiga pipetka yordamida suv tomizilganda nechta tomchi sig‘ishadi?

O‘quvchilarga murojaat etib,ularning javoblari belgilab boriladi. “Bashorat qilish” strategiyasidan foydalanib,javoblar tahlil qilinadi va tajribani o‘quvchilarning o‘zlari o‘tkazib,olingan natijalar bashorat qilingan javoblar bilan taqqoslanadi.Natijalarga asoslanib, o‘quvchilar quyidagi savollarga javob berishadi.

Savollar:

1. Suv tomchisi nima uchun yoyilib ketmaydi.

Javob:.....

Tomizilgan suv tomchilari nega oval shaklini oladi.

Javob:.....

2. Qanday holatda suv shari yoyilib ketadi. Javobingizni asoslang.


.....

3. Suv hosil qilgan sharning tezroq yoyilib ketishi uchun nimalar ta’sir etishi mumkin

.....

4. Agar tajriba boshqa suyuqliklar bilan o‘tkazilganda holat qanday bo‘ladi.

.....



XULOSA Xulosa kilib aytganda, xalqaro baxolash dasturlarida muvaffakiyatli ishtirok etish, bevosita ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liqdir. Unda ishtirok etish, nafakat O‘zbekiston, balki jaxon hamjamiyatida o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetentsiyalarini baholash, ya’ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantikiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalk ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 08.12.2018 dagi 997- son "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot Tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi tuFrisida"gi Qarori Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.12.2019 y., https://lex.uz/docs/4097073

3. Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash soxasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish va tashkil etish mavzusida qo‘llanma // Namangan viloyat Xalk ta’limi boshkarmasi, Ta’lim sifati monitoringi bo‘limi, 2019, B.30

4. Bildungsmonitoring Schweiz: Für das Leben gerüstet? Die Grundkompetenzen der Jugendlichen-Nationaler Bericht der Yerhebung // „PISA" 2000.-182 pages.

5. Yelley W. The IEA study of reading literacy : reading and instruction in thirtytwo school systems// Oxford : Pergamon Press-1994, p. 165.

6. Lehmann P. Aspekte der Lernausgangslage und der Lernentwicklung//

7 . Feruza Aminovna Turakulova. Mechanisms for directing the choice of a profession in the process of qualification practice. BioGecko Vol 12 Issue 03 2023 ISSN NO: 2230-5807 A Journal for New Zealand Herpetology 5101-bet

8. https://www.PISA84u.org / 01.06.2020

9. https://uza.uz/oz/ed9ion/maktablar-reytingi-ta-lillarda-30-08-2019

XALQARO BAHOLASH MEZONLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY VA MANTIQIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Alimova Shaxlo Bafaevna,
Buxoro viloyti Pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlari mezonlari asosida o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Xalqaro baholash topshiriqlarining bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, axborotni tahlil

qilish, dalillarni baholash, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarni hal etishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur mezonlardan dars jarayonida foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, PISA, PIRLS, TIMSS, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, kompetensiya, muammoli vaziyat, tahlil, xulosa, baholash.

Аннотация. В статье освещаются теоретико-методические основы развития критического и логического мышления учащихся на основе критериев международных программ оценки PISA, PIRLS и TIMSS. Анализируются возможности заданий международного типа в применении знаний в практических ситуациях, анализе информации, оценке доказательств, формулировании выводов и решении проблем. Разработаны методические рекомендации по использованию данных критериев в образовательном процессе.

Ключевые слова: международное оценивание, PISA, PIRLS, TIMSS, функциональная грамотность, критическое мышление, логическое мышление, компетенция, анализ, вывод, оценивание.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations for developing students’ critical and logical thinking based on the criteria of the international assessment programmes PISA, PIRLS and TIMSS. It analyses the potential of international assessment-type tasks to apply knowledge in practical situations, analyse information, evaluate evidence, draw conclusions and solve problems. Methodological recommendations for integrating these criteria into the educational process are also proposed.

Keywords: international assessment, PISA, PIRLS, TIMSS, functional literacy, critical thinking, logical thinking, competence, analysis, reasoning, evaluation, problem solving.

Bugungi kunda ta’lim sifatini baholash mezonlari o‘quvchining faqatgina nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan cheklanib qolmay, balki mazkur

bilimlardan real hayotiy vaziyatlarda foydalanish, axborotni tahlil qilish, muammoni aniqlash, dalillarni solishtirish, asoslangan xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham qamrab olmoqda. Shu jihatdan xalqaro baholash dasturlari zamonaviy ta’limning mazmuni va metodikasini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

PISA xalqaro baholash dasturi 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini real hayotga yaqin vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini baholaydi. PISA 2022 baholashida ijodiy fikrlash ham alohida innovatsion yo‘nalish sifatida baholangan.

PIRLS dasturida o‘quvchilarning matnni tushunishi, undagi ochiq ifodalangan ma’lumotlarni topishi, bevosita xulosalar chiqarishi, g‘oya va axborotlarni talqin hamda integratsiya qilishi, matn mazmuni va shaklini baholashi kabi jarayonlarga e’tibor qaratiladi.

TIMSS dasturida esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning kognitiv faoliyati “bilish”, “qo‘llash” va “mulohaza yuritish” domenlari orqali baholanadi. Ayniqsa “mulohaza yuritish” domeni mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash, dalillardan foydalanish, muammoni tahlil qilish va asoslangan xulosaga kelishni talab etadi.

Shu sababli umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikning alohida yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Xalqaro baholash dasturlarida o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tanqidiy fikrlash — o‘quvchining mavjud axborotni shunchaki qabul qilishi emas, balki uni tahlil qilishi, turli nuqtayi nazarlarni solishtirishi, dalillarning ishonchliligini baholashi va mustaqil xulosaga kelish jarayonidir. Mantiqiy fikrlash esa hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, fikrlarni izchil tartibga solish, umumlashtirish va asoslangan xulosalar chiqarish bilan bog‘liq.

PISA yondashuvida bilimni amaliy faoliyatga aylantirish muhim hisoblanadi. Mazkur baholash o‘quvchining o‘rgangan bilimini notanish sharoitlarda qanday qo‘llashi va real hayotdagi muammolarni hal qilishda undan qanday foydalanishini aniqlashga qaratilgan.

PIRLSda esa tanqidiy fikrlash, avvalo, matn bilan ishlash jarayonida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi matnda berilgan ma’lumotni topish bilan bir qatorda, turli qismlardagi axborotni birlashtirishi, muallif fikrini tushunishi, o‘z xulosasini shakllantirishi va matn mazmuniga baho berishi kerak. PIRLSning o‘qish jarayonlari aynan shu murakkab kognitiv faoliyatlarni qamrab oladi.

TIMSSda “bilish–qo‘llash–mulohaza yuritish” ketma-ketligi o‘quvchining oddiy faktlarni eslab qolishidan yuqori darajadagi fikrlashga o‘tishini ta’minlaydi. Ayniqsa, mulohaza yuritishga oid topshiriqlar turli ma’lumotlarni bog‘lash, dalillarni tahlil qilish, yechim strategiyasini tanlash va natijani asoslashni talab etadi.

Demak, uchala xalqaro baholash dasturining mazmunida o‘zaro mushtarak jihat — bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash, axborotni tahlil qilish va asoslangan qaror chiqarish kompetensiyalarining ustuvorligidir.

O‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun dars jarayonida tayyor bilimni berishga asoslangan yondashuvdan muammoli va faol ta’limga bosqichma-bosqich o‘tish maqsadga muvofiq.

Bunda quyidagi metodik ketma-ketlik samarali hisoblanadi:

1)muammoni aniqlash; 2)axborotni izlash; 3)ma’lumotlarni tahlil qilish; 4)dalillarni taqqoslash; 5)gipoteza yoki yechim ilgari surish; 6) xulosani asoslash; 7)natijani baholash.

Birinchi bosqichda o‘quvchiga tayyor savol emas, balki muammoli vaziyat taqdim etiladi. Masalan, tarix fanida ikki xil tarixiy manbada bir voqea turlicha yoritilgan bo‘lsa, o‘quvchidan qaysi ma’lumot ishonchliroq ekanini aniqlash va o‘z qarorini dalillar bilan asoslash so‘ralishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda o‘quvchi manbadagi axborotni ajratadi. Bunda asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni farqlash, fakt va fikrni ajratish, jadval yoki diagrammadagi ma’lumotlarni tahlil qilish kabi topshiriqlardan foydalaniladi.

Uchinchi bosqichda o‘quvchi turli ma’lumotlarni taqqoslaydi. “Qaysi ma’lumotlar bir-birini tasdiqlaydi?”, “Qaysi dalil kuchliroq?”, “Berilgan xulosaga qanday dalillar asos bo‘la oladi?” kabi savollar tanqidiy fikrlashni faollashtiradi.

To‘rtinchi bosqichda o‘quvchi o‘z xulosasini asoslaydi. Bunda faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” javobni aniqlash emas, balki “Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz?”, “Javobingizni qaysi dalil bilan asoslay olasiz?” kabi savollardan foydalanish muhim.

Beshinchi bosqichda o‘quvchi mavjud dalillar va tahlil qilingan ma’lumotlar asosida gipoteza yoki muayyan yechimni ilgari suradi. Bu bosqichda o‘quvchidan muammoning ehtimoliy yechimini mustaqil taklif qilish, o‘z fikrini ilgari surilgan dalillar bilan bog‘lash talab etiladi. Masalan, tarix fanida muayyan tarixiy voqeaning kelib chiqish sabablarini tahlil qilgach, o‘quvchi “Agar ushbu omil mavjud bo‘lmaganida, voqea qanday rivojlangan bo‘lishi mumkin edi?” kabi savol asosida o‘z farazini ilgari surishi mumkin. Bunday topshiriqlar mustaqil fikrlash, muqobil yechimlarni ko‘ra olish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Oltinchi bosqichda o‘quvchi ilgari surilgan gipoteza yoki yechimni tegishli dalillar asosida asoslaydi. Bunda fikrning shunchaki bayon etilishi emas, balki uning qanchalik asosli ekanini ko‘rsatish muhimdir. O‘quvchidan “Sizning fikringizni qaysi dalillar tasdiqlaydi?”, “Qaysi manba sizning xulosangizni qo‘llab-quvvatlaydi?”, “Nima uchun aynan ushbu yechimni tanladingiz?” kabi savollarga javob berish talab qilinadi. Bu jarayon o‘quvchida dalillarga tayangan holda fikr yuritish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish va mantiqiy argumentatsiya ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Yettinchi bosqichda o‘quvchi erishilgan natijani baholaydi va o‘z fikrining qay darajada asosli ekanligini tahlil qiladi. Bunda o‘quvchi chiqarilgan xulosaning mavjud dalillarga mosligini, foydalanilgan manbalarning ishonchliligini va taklif

etilgan yechimning samaradorligini qayta ko‘rib chiqadi. “Xulosangizni qaysi dalillar eng kuchli qo‘llab-quvvatlaydi?”, “Yana qanday ma’lumotlar zarur bo‘lishi mumkin?”, “Tahlil jarayonida fikringiz o‘zgardimi?” kabi refleksiv savollar orqali o‘quvchining o‘z faoliyatini baholash qobiliyati rivojlantiriladi. Shu tariqa o‘quvchi nafaqat natijani, balki unga olib kelgan fikrlash jarayonini ham tahlil qilishga o‘rganadi.

Xalqaro baholash dasturlari talablariga mos topshiriqlar o‘quvchining yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Topshiriq turi	**Rivojlantiriladigan ko‘nikma**	**Namunaviy savol**
Taqqoslash	Tahlil qilish	Ikki ma’lumot o‘rtasidagi farqlarni aniqlang
Dalilni baholash	Tanqidiy fikrlash	Qaysi dalil xulosani ko‘proq qo‘llab-quvvatlaydi?
Sabab-oqibat	Mantiqiy fikrlash	Ushbu hodisaning asosiy sababi nimada?
Muammoli vaziyat	Qaror qabul qilish	Berilgan sharoitda qanday yechim taklif qilasiz?
Manba bilan ishlash	Axborotni baholash	Manbadagi qaysi ma’lumot xulosangizni tasdiqlaydi?
Xulosa chiqarish	Mulohaza yuritish	Berilgan ma’lumotlardan qanday xulosa chiqarish mumkin?
Muqobil yechim	Ijodiy va tanqidiy fikrlash	Muammoni hal qilishning yana qanday usuli mavjud?

Bunday topshiriqlarni tarix, davlat va huquq asoslari, ona tili, adabiyot, matematika, biologiya, geografiya va boshqa fanlarda qo‘llash mumkin.

Masalan, tarix fanida o‘quvchiga tarixiy manbadan parcha, statistik ma’lumot yoki xarita berilib, quyidagi topshiriq taklif etiladi:

“Berilgan ikki manbani taqqoslang. Ulardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlang. Mualliflarning voqeaga munosabatini baholang va qaysi xulosani dalillar asosida ishonchliroq deb hisoblashingizni izohlang.”

Mazkur topshiriqda o‘quvchi bir vaqtning o‘zida axborotni izlash, taqqoslash, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish faoliyatlarini amalga oshiradi.

PISAning zamonaviy yondashuvida ham o‘quvchining bilimni notanish vaziyatda qo‘llashi va o‘z qarorini shakllantirishi muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro baholash mezonlarini ta’lim jarayoniga mexanik tarzda kiritish emas, balki ularning metodologik tamoyillarini mavjud o‘quv dasturlari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Birinchidan, darslarda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ulushini oshirish lozim.

Ikkinchidan, o‘quvchidan faqat javobni emas, javobga olib kelgan fikrlash jarayonini izohlash talab qilinishi kerak.

Uchinchidan, dars jarayonida matn, jadval, diagramma, xarita, grafik va statistik ma’lumotlar bilan ishlashga kengroq o‘rin berish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, bir masalaning bir nechta yechimi mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadigan topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi.

Beshinchidan, baholash jarayonida “javobning to‘g‘riligi” bilan bir qatorda dalilning sifati, fikrning izchilligi, xulosaning asoslanganligi va muammoni hal qilish strategiyasi ham hisobga olinishi kerak.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi xalqaro baholash dasturlarining asosiy kognitiv talablari — axborotni tahlil qilish, bilimni qo‘llash, dalillarni baholash, mantiqiy mulohaza yuritish va xulosa chiqarish — yagona metodik tizim sifatida talqin etilganida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, PISA, PIRLS va TIMSS yondashuvlarini o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish bilan bog‘lovchi metodik ketma-ketlik taklif etildi.

O‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq:

- har bir fan bo‘yicha dars ishlanmalariga xalqaro baholash tipidagi kamida 1–2 ta muammoli topshiriq kiritish.
- o‘quvchilardan javob bilan birga uning asosini ham izohlashni talab qilish.
- matn, jadval, diagramma va statistik ma’lumotlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ko‘paytirish.
- “dalil–fikr–xulosa” modelidan foydalanish.
- o‘quvchilarga bir muammoning bir nechta yechimini taklif qilish imkoniyatini berish.
- baholash rubrikalarida tahlil, mantiqiylik, dalillash va xulosa chiqarish mezonlarini alohida belgilash.

Xalqaro baholash dasturlari zamonaviy ta’limda o‘quvchining bilim miqdoridan ko‘ra, ushbu bilimdan qanday foydalanishini aniqlashga katta e’tibor qaratmoqda. PISA o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy hamda notanish vaziyatlarda qo‘llashiga, PIRLS matnni tushunish va baholash jarayonlariga, TIMSS esa bilish, qo‘llash va mulohaza yuritishga asoslangan kognitiv faoliyatga urg‘u beradi.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash mezonlarini ta’lim jarayoniga joriy etishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni test topshirishga tayyorlash emas, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, axborotni tanqidiy baholaydigan, mantiqiy xulosa chiqaradigan va real muammolarga asoslangan yechimlar taklif qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchining funksional savodxonligini oshiradi, bilimlarni fanlararo bog‘lash imkonini kengaytiradi va uning kundalik hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi. Shu sababli PISA, PIRLS va TIMSS mezonlariga mos topshiriqlarni muntazam ravishda dars jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifatini oshirishning

muhim metodik vositalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro baholash mezonlari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni funksional savodxonlikni rivojlantirish va XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori**.**
3. Kudratova A., Aminov T. Ta’lim jarayonida funksional savodxonlik tushunchasi. 2022.- 15-b.
4. **Maxamattayirova M., Egamberdiyeva M., Sayfiddinova D.** *O‘quvchilarning funksional savodxonligini xalqaro baholash tizimlari asosida tahlil qilish.* — 2025, 85–91-betlar.
5. **Karimjonova M.G‘.** *PISA va TIMSS xalqaro baholash tizimlari asosida matematika o‘qitishda funksional savodxonlikni rivojlantirish. — Ta’lim ufqlari*, 2026, №1, 92–94-betlar.
6. **Abdujalilov F.P.** *Yangi avlod darsliklari bilan ishlashning amaldagi holatlari (PISA misolida). — Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar*, 2026, 8(07), 1115–1120-betlar.
7. **Jumayev S.S.** *Xalqaro baholash dasturlarida tanqidiy fikrlash va funksional savodxonlik bog‘liqligi. — Multidisciplinary Journal of Science and Technology*,2025.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING MILLIY QADRIYATLARGA MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISH

Eshmurodova Baxtigul Saidmurodovna
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Saidmurodova E’zozaxon Baxramovna
Toshkent kimyo-texnologiya instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Xususan, PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mazmun-mohiyati, ularda o‘quvchilarning bilimini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, matnni anglash, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va tahliliy yondashuv ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar yoritiladi. Ushbu yondashuvlarni milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy-madaniy meros, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash va ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida xalqaro baholash topshiriqlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning nafaqat funksional savodxonligini, balki milliy dunyoqarashi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, PISA, PIRLS, TIMSS, boshlang‘ich ta’lim, milliy ruh, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, funksional savodxonlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, tanqidiy fikrlash, milliy o‘zlik.

Abstract. This article analyzes the pedagogical potential for fostering a "national spirit" in students, based on international assessment programs. Specifically, it examines the essence of international assessment programs—such as PISA, PIRLS, and TIMSS—and the requirements they set for students regarding the application of knowledge in real-life situations, reading comprehension, independent thinking, problem-solving, and analytical approaches. The article explores ways to integrate these approaches with national values, folklore, historical and cultural heritage, patriotism, self-awareness, and spiritual-moral education. Furthermore, it provides methodological recommendations for using tasks from international assessments within primary education to develop not only students' functional literacy but also their national worldview and sense of social responsibility.

Keywords: international assessment, PISA, PIRLS, TIMSS, primary education, national spirit, national values, patriotism, functional literacy, spiritual-moral education, critical thinking, national identity.

Аннотация. В статье анализируется педагогический потенциал формирования «национального духа» у учащихся на основе международных программ оценки качества образования. В частности, рассматривается сущность таких программ, как PISA, PIRLS и TIMSS, а также предъявляемые ими требования к учащимся: умение применять знания в реальных жизненных ситуациях, навыки понимания прочитанного, самостоятельное мышление, решение задач и использование аналитических подходов. В работе исследуются пути интеграции этих подходов с национальными ценностями, фольклором, историко-культурным наследием, патриотизмом, самосознанием и духовно-нравственным воспитанием. Кроме того, предлагаются методические рекомендации по использованию заданий из международных оценочных исследований в начальной школе, направленные не только на развитие функциональной грамотности учащихся, но и на формирование у них национального мировоззрения и чувства социальной ответственности.

Ключевые слова: международные оценочные исследования, PISA, PIRLS, TIMSS, начальное образование, национальный дух, национальные ценности, патриотизм, функциональная грамотность, духовно-нравственное воспитание, критическое мышление, национальная идентичность.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri — zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan hamda o‘z milliy qadriyatlariga sodiq shaxsni tarbiyalashdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli emas. U egallagan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llashi, muammolarni tahlil qilishi, mustaqil xulosa chiqarishi va jamiyatdagi jarayonlarga faol munosabat bildira olishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifatini aniqlash bilan bir qatorda, o‘quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. PISA, PIRLS va TIMSS

kabi dasturlarda o‘quvchining tayyor ma’lumotni yod olishi emas, balki uni tushunishi, tahlil qilishi, amaliy vaziyatda qo‘llashi va asoslangan xulosa chiqarishi muhim hisoblanadi.

Mazkur yondashuvlarni milliy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish esa o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ularni o‘z xalqining tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari va ma’naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash imkonini beradi.

Xalqaro baholash dasturlarining ta’limdagi ahamiyati

Xalqaro baholash dasturlari turli mamlakatlarda ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muayyan mezonlar asosida o‘rganishga xizmat qiladi. PISA dasturi asosan 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish darajasini baholashga qaratilgan. PIRLS boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini xalqaro miqyosda o‘rganishga xizmat qiladi. Mazkur dastur, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

TIMSS esa o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan bilim va ko‘nikmalarini baholashga yo‘naltirilgan xalqaro tadqiqotlardan biridir. Mazkur dasturlarning umumiy jihati shundaki, ular o‘quvchining oddiy faktlarni eslab qolishidan ko‘ra, bilimni anglash, tahlil qilish, amaliy vaziyatlarda foydalanish va mustaqil fikrlash qobiliyatiga katta e’tibor beradi.

Xalqaro baholash va milliy tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi

Milliy ruhda tarbiyalash — o‘quvchilarda o‘z xalqining tarixi, tili, madaniyati, an’analari va ma’naviy qadriyatlariga hurmatni shakllantirish jarayonidir. Bunda o‘quvchi o‘z milliy o‘zligini anglagan holda, boshqa xalqlarning madaniyati va qadriyatlariga ham hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadi.

Xalqaro baholash dasturlari topshiriqlarini milliy mazmun bilan boyitish orqali bu ikki yo‘nalishni samarali uyg‘unlashtirish mumkin. Masalan, PIRLS talablariga mos o‘qish topshirig‘ida o‘zbek xalq ertaklari, maqollari, buyuk ajdodlarimiz haqidagi

matnlar yoki milliy urf-odatlarimizga oid ilmiy-ommabop materiallardan foydalanish mumkin.

Bunday topshiriqlar o‘quvchidan matnni shunchaki o‘qib berishni emas, balki uning mazmunini tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, sabab va oqibatlarni aniqlash hamda o‘z fikrini dalillar bilan asoslashni talab qiladi. Masalan, o‘quvchilarga xalqimizning mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, mehnatsevarlik, halollik va bag‘rikenglik kabi qadriyatlari aks etgan matn berilishi mumkin. Matn asosida quyidagi savollar tuziladi:

1. Matnning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
2. Qahramonning qaysi xatti-harakati milliy qadriyatlarimizga mos?
3. Siz qahramonning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz?
4. Matnda qanday axloqiy xulosa berilgan?
5. Ushbu qadriyatni kundalik hayotingizda qanday namoyon qilishingiz mumkin?

Bunday savollar o‘quvchining o‘qish savodxonligini rivojlantirish bilan birga, uning ma’naviy dunyosini ham boyitadi.

Milliy qadriyatlar asosidagi topshiriqlarning pedagogik imkoniyatlari Xalqaro baholash dasturlari asosidagi topshiriqlarni milliy mazmun bilan uyg‘unlashtirishda quyidagi yo‘nalishlardan foydalanish mumkin: Birinchidan, milliy tarixga oid matnlar. O‘quvchilarga Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy kabi ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosi haqida yoshiga mos matnlar berilib, ular asosida tahliliy savollar tuziladi.

Ikkinchidan, xalq og‘zaki ijodi. Ertak, maqol, topishmoq, rivoyat va dostonlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish bilan birga, milliy dunyoqarashini boyitadi.

Uchinchidan, milliy urf-odat va an’analar. Navro‘z, hashar, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat kabi mavzulardagi vaziyatli topshiriqlar o‘quvchilarda ijtimoiy va ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, ekologik va ijtimoiy mazmundagi topshiriqlar. Orol dengizi, suvni tejash, tabiatni asrash, mahallani obodonlashtirish kabi mavzular o‘quvchilarda tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish bilan birga, ona Vatanga daxldorlik hissini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinflarda xalqaro baholash dasturlari asosidagi topshiriqlarni qo‘llashda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim. Topshiriqlar sodda, tushunarli, qiziqarli va hayotiy vaziyatlarga yaqin bo‘lishi kerak. Masalan, 3–4-sinf o‘quvchilariga quyidagi vaziyat berilishi mumkin: Vaziyat: Mahallada hashar tashkil etildi. Ayrim bolalar kattalarga yordam berdi, ayrimlari esa o‘yin bilan mashg‘ul bo‘lib qoldi.

Savollar:

- Hasharda ishtirok etishning qanday ijobiy jihatlari bor?
- Bolalarning qaysi xatti-harakati jamoaviylik va mehnatsevarlikni ko‘rsatadi?
- Siz mahallangizda qanday foydali ishni tashkil qilgan bo‘lardingiz?
- Ushbu vaziyatdan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Mazkur topshiriq o‘quvchining matnni tushunishi va xulosa chiqarishini tekshirish bilan birga, jamoaviylik, mehnatsevarlik, mas’uliyat va mahallaga daxldorlik kabi qadriyatlarni ham mustahkamlaydi.

Xalqaro baholash dasturlari asosidagi ta’lim jarayonida o‘qituvchining roli nihoyatda muhim. O‘qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o‘quvchini izlanishga, savol berishga, fikrlashga va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi lozim.

O‘qituvchi milliy tarbiya mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishi mumkin.

Jumladan:

- muammoli ta’lim;

-loyiha metodi;

- “Aqliy hujum”;

- keys-stadi;

guruhli ish;

- munozara va bahs;

- vaziyatli topshiriqlar;

- tadqiqot topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday metodlar orqali o‘quvchi tayyor javobni kutib o‘tirmaydi, balki mustaqil fikrlashga va o‘z nuqtayi nazarini asoslashga odatlanadi. Xalqaro baholash dasturlari talablarini milliy tarbiya mazmuni bilan uyg‘unlashtirish natijasida o‘quvchilarda bir nechta muhim kompetensiyalarni parallel ravishda rivojlantirish mumkin.

Birinchi navbatda, funksional savodxonlik shakllanadi. O‘quvchi o‘qigan ma’lumotini real hayotda qo‘llashni o‘rganadi.

Ikkinchidan, tanqidiy va mustaqil fikrlash rivojlanadi. O‘quvchi turli fikrlarni solishtirib, o‘z xulosasini shakllantirishga odatlanadi.

Uchinchidan, milliy o‘zlikni anglash kuchayadi. O‘quvchi o‘z xalqining tarixi, madaniyati va qadriyatlari haqida chuqurroq bilimga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy mas’uliyat rivojlanadi. O‘quvchi oila, maktab, mahalla, jamiyat va tabiat oldidagi mas’uliyatini anglay boshlaydi. Shunday qilib, xalqaro baholash dasturlarini faqat ta’lim sifatini o‘lchaydigan mexanizm sifatida emas, balki zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuv sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Xulosa. Xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. PISA, PIRLS va TIMSS dasturlarida ilgari suriladigan o‘qish savodxonligi, matematik va tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish yondashuvlarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini yanada boyitadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda milliy ertaklar, maqollar, tarixiy shaxslar, milliy urf-odatlar, tabiat va Vatan mavzulari asosida xalqaro baholash formatidagi

topshiriqlarni ishlab chiqish o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, hurmat, mas’uliyat va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, xalqaro baholash dasturlarining ilg‘or pedagogik yondashuvlarini milliy ta’lim-tarbiya mazmuni bilan uyg‘unlashtirish orqali zamonaviy bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan, funksional savodxon va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan barkamol shaxsni shakllantirish uchun samarali pedagogik imkoniyatlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. OECD Publishing,
Paris.
2. OECD. PISA 2022 Results. OECD Publishing
3. Mullis, I.V.S., Martin, M.O. TIMSS 2023 Assessment Frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
4. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va tarbiya sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
6. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.
7. Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid ilmiy-metodik adabiyotlar.

TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

G‘afurov Mirzo Ulug‘bek Majidovich
Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus
ta’lim metodikalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada TIMSS xalqaro baholash dasturining mazmun-mohiyati, uni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tatbiq etishning metodologik

asoslari yoritilgan. Shuningdek, unda TIMSS topshiriqlaridan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va fanlararo bog‘liqlikni anglash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: TIMSS, xalqaro baholash, boshlang‘ich ta’lim, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, metodologiya, muammoli ta’lim, tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В данной статье освещаются суть и содержание международной программы оценки TIMSS, методологические основы ее внедрения в процесс начального образования. Также рассматриваются возможности самостоятельного мышления учащихся начальных классов, решения проблемных ситуаций и понимания междисциплинарных связей посредством использования заданий TIMSS.

Ключевые слова: TIMSS, международная оценка, начальное образование, естественнонаучная грамотность, компетентностный подход, методология, проблемное обучение, критическое мышление.

Abstract: This article highlights the essence of the TIMSS international assessment program and the methodological foundations for its implementation in the primary education process. It also examines the possibilities for primary school students to think independently, solve problem situations, and understand interdisciplinary connections through the use of TIMSS tasks.

Keywords: TIMSS, international assessment, primary education, natural science literacy, competency-based approach, methodology, problem-based learning, critical thinking.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan bir qatorda, ularning egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifatini tahlil qilish, o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha tayyorgarlik darajasini aniqlash va ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

TIMSS dasturining asosiy xususiyati shundaki, u o‘quvchilarning faqat fakt va qoidalarni bilishini emas, balki ularni qo‘llash, tahlil qilish, izohlash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini ham baholashga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur dastur talablarini o‘rganish boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning

matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish uchun muhim metodologik ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang‘ich ta’lim insonning keyingi intellektual rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda sonlar va miqdorlar bilan ishlash, geometrik shakllarni anglash, tabiat hodisalarini kuzatish, ma’lumotlarni taqqoslash hamda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash ko‘nikmalari shakllanadi. Mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirishda TIMSS yondashuvlariga mos topshiriqlarni qo‘llash samarali metodik imkoniyatlarni yaratadi.

TIMSS xalqaro baholash dasturining metodologik asoslarini tahlil qilish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish yo‘llarini aniqlash hamda o‘qituvchilar uchun amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TIMSS dasturining maqsadi, mazmuni va baholash yo‘nalishlarini o‘rganish; savodxonlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini yoritish; TIMSS topshiriqlarining o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashiga ta’sirini tahlil qilish; boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholashga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatish; o‘qituvchilar uchun amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur mavzuni o‘rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ushbu metodlar TIMSS dasturining konseptual asoslarini o‘rganish, uning ta’lim mazmuni bilan bog‘liqligini aniqlash va boshlang‘ich ta’lim amaliyotida foydalanish yo‘llarini asoslash imkonini beradi.

TIMSS dasturining metodologik asoslarini tahlil qilish natijasida boshlang‘ich ta’limda savodxonlikni rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator muhim yo‘nalishlarni ajratish mumkin.

TIMSS baholash tizimida matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha mazmuniy sohalar bilan bir qatorda o‘quvchilarning fikrlash faoliyati ham hisobga olinadi.

Matematika fanida 4-sinf darajasida, odatda, sonlar, o‘lchash va geometriya, ma’lumotlar bilan ishlash kabi mazmuniy yo‘nalishlar qamrab olinadi. Tabiiy fanlarda esa hayot haqidagi fanlar, fizik fanlar hamda Yer haqidagi fanlarga oid bilim va tushunchalar o‘rganiladi. Mazmuniy sohalarning aniq tarkibi tegishli baholash siklining xalqaro asosiy hujjatlarida belgilanadi.

TIMSSning kognitiv yo‘nalishlari uchta asosiy faoliyatni qamrab oladi:

1. Bilish. O‘quvchining faktlar, atamalar, qoidalar va asosiy tushunchalarni bilishi, eslab qolishi hamda tanishi bilan bog‘liq.

2. Qo‘llash. O‘quvchining egallagan bilimlarini masala yechish, jadval yoki rasmni tushunish, berilgan vaziyatni izohlash va amaliy topshiriqlarni bajarishda qo‘llay olishidir.

3. Mulohaza yuritish. O‘quvchining tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, dalillarni baholash, qonuniyatlarni aniqlash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur yo‘nalishlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining fan bo‘yicha bilimlarini chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Darslarda faqat bilishga oid topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini to‘liq namoyon etmasligi mumkin. Shu bois topshiriqlarni bilishdan qo‘llash va mulohaza yuritishga tomon bosqichma-bosqich murakkablashtirish tavsiya etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Matematik savodxonlik – matematik bilim va ko‘nikmalardan turli vaziyatlarda foydalanish, muammoni matematik jihatdan ifodalash, yechim topish va natijani izohlash qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinflarda matematik savodxonlikni rivojlantirish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

Kompetensiyaviy yondashuv. O‘quvchining formulani bilishi bilan cheklanmay, undan kundalik hayotdagi vaziyatlarda foydalanishiga e’tibor qaratiladi. Masalan, xarid narxlarini hisoblash, vaqtni aniqlash, masofani taqqoslash yoki shakllarning perimetrini topish.

Muammoli ta’lim yondashuvi. O‘quvchilarga tayyor yechimni berish o‘rniga, ularni mustaqil izlanishga undaydigan savol va vaziyatlar taqdim etiladi. Bu jarayonda o‘quvchi masalaning shartini tahlil qiladi, muhim ma’lumotlarni ajratadi va yechim usulini tanlaydi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. O‘quvchilar hisoblash, o‘lchash, chizish, guruhlash, taqqoslash va natijalarni izohlash orqali bilimlarni faol o‘zlashtiradilar.

Fanlararo integratsiya. Matematik topshiriqlarni ona tili, tabiatshunoslik, texnologiya va kundalik hayot bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich ta’limda ushbu savodxonlikni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar muhim hisoblanadi:

Kuzatish metodi: o‘simliklarning o‘sishi, ob-havo o‘zgarishi, suvning holati kabi hodisalarni kuzatish.

Tajriba metodi: xavfsiz va sodda tajribalar orqali hodisalarning sabablarini aniqlash.

Taqqoslash metodi: tirik va jonsiz tabiat obyektlarining o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash.

Savol-javob metodi: “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar shunday bo‘lsa, nima o‘zgaradi?” kabi savollar yordamida izlanishga yo‘naltirish.

Dalillash metodi: o‘quvchidan o‘z fikrini kuzatish natijalari yoki berilgan ma’lumotlar bilan asoslashni talab qilish.

TIMSS uslubidagi topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun samarali metodik vosita bo‘lishi mumkin. Bunday topshiriqlarda o‘quvchidan tayyor ma’lumotni takrorlash emas, balki berilgan axborotni tahlil qilish va undan foydalanish talab etiladi.

TIMSS topshiriqlaridan foydalanishda o‘qituvchi bir necha jihatga e’tibor qaratishi lozim. Birinchidan, topshiriqlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi, turli fikrlash darajalarini qamrab olishi zarur.

Uchinchidan, baholashda faqat yakuniy javob emas, balki yechim jarayoni, izoh va dalillash ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAVSIYALAR

TIMSS xalqaro baholash dasturi boshlang‘ich ta’limda matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan muhim metodologik manbalardan biridir. Uning mazmuni o‘quvchilarning bilimlarni eslab qolish darajasinigina emas, balki bilimlarni qo‘llash, ma’lumotlarni tahlil qilish, mantiqiy mulohaza yuritish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, TIMSS dasturining metodologik yondashuvlarini boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga izchil tatbiq etish o‘quvchilarning matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu yondashuvlarning aniq samaradorligini baholash esa maxsus pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, 272-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2018-yil 5-sentabr, PF-5538-son.

5. Abdullayeva Sh., Ergasheva M. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 167 b.

6. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G., Kosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha

mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 145 b.

7. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Tog‘ayeva G., Karimberdiyev Q., Kosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. 2-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining aniq, tabiiy va filologiya fanlari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, 7–11-sinf, akademik litsey va kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. – T.: Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi, 2020. – 126 b.

8. *TIMSS 2023 International Results in Mathematics and Science*. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2024.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA TEXNOLOGIYA TA’LIMI: KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Jumayeva Lola Ikromovna
Buxoro viloyat Pedagogik mahorat markazi,
”Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarining umumiy o‘rta ta’lim tizimida, xususan, texnologiya fanini o‘qitish jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Texnologiya darslarida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalari, ijodiy va tanqidiy fikrlashi**,** muammoni hal qilish qobiliyati hamda kundalik hayotda egallagan bilimlarini qo‘llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida qo‘llaniladigan kompetensiyaviy yondashuv elementlarini texnologiya darslariga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash dasturlari, PISA, texnologiya fani, kompetensiya, funksional savodxonlik, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, amaliy ko‘nikma,loyiha,

Аннотация. В данной статье освещается значение международных оценочных программ в системе общего среднего образования, в частности, в процессе преподавания предмета «Технология». Анализируются вопросы развития на уроках технологии не только теоретических знаний учащихся, но и практических навыков, творческого и критического мышления, способности решать проблемы, а также компетенций по применению приобретённых знаний в повседневной жизни. Раскрываются возможности внедрения элементов компетентностного подхода, используемого в международных

оценочных программах, таких как PISA, в процесс преподавания предмета «Технология». Также рассматривается роль заданий, основанных на реальных жизненных ситуациях, проектной деятельности, практических занятий и проблемных ситуаций в повышении эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: международные оценочные программы, PISA, предмет «Технология», компетенция, функциональная грамотность, творческое мышление, критическое мышление, практические навыки, проект, качество образования.

Annotation. This article highlights the importance of international assessment programmes in the general secondary education system, particularly in the teaching of Technology. It analyses the development of not only students’ theoretical knowledge but also their practical skills, creative and critical thinking, problem-solving abilities, and competencies in applying acquired knowledge to everyday life. The article explores the possibilities of integrating elements of the competency-based approach used in international assessment programmes, such as PISA, into Technology lessons. It also examines the role of real-life tasks, project-based activities, practical exercises, and problem-based situations in improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: international assessment programmes, PISA, Technology subject, competency, functional literacy, creative thinking, critical thinking, practical skills, project, quality of education.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimini baholash bilan bir qatorda, ularning olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchiga tayyor bilimlarni berish emas, balki uni mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, ijodiy yondashadigan va o‘z bilimini amaliyotda qo‘llay oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iborat.Xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA, TIMSS va PIRLS kabi tadqiqotlar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, PISA dasturida o‘quvchilarning funksional savodxonligi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va bilimlarini real hayotiy sharoitlarda qo‘llashi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Mazkur yondashuv texnologiya fanining mazmun-mohiyatiga hamohangdir. Chunki texnologiya darslarida o‘quvchi nazariy bilim bilan bir qatorda turli materiallar bilan ishlash, loyihalash, modellashtirish, buyum yaratish, texnik masalalarni hal qilish va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi.Texnologiya darslarida xalqaro baholash dasturlari talablariga mos yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning funksional kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchidan faqat ma’lumotni eslab qolish emas, balki uni tahlil qilish, taqqoslash, amaliy vaziyatga tatbiq etish va mustaqil xulosa chiqarish talab etiladi.

Masalan, o‘quvchilarga “Uy sharoitida foydalanish uchun ekologik va tejamkor mahsulot loyihasini ishlab chiqing” kabi topshiriq berish mumkin. Bunda o‘quvchi material tanlashi, uning xususiyatlarini o‘rganishi, mahsulotning iqtisodiy va ekologik jihatlarini hisobga olishi, loyiha chizmasini tayyorlashi va o‘z qarorini asoslab berishi kerak. Bunday topshiriq bir vaqtning o‘zida bir nechta kompetensiyani shakllantiradi.Xalqaro baholash yondashuvlarida topshiriqning hayotiy vaziyatga yaqinligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli texnologiya darslarida o‘quvchilarga kundalik hayot bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarni taklif etish maqsadga muvofiqdir.PISA xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarning bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatiga katta e’tibor beriladi. Ushbu yondashuvni texnologiya darslarida qo‘llash orqali o‘quvchilarning amaliy va funksional savodxonligini rivojlantirish mumkin.

Texnologiya darslarida PISA uslubidagi topshiriqlar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

- real hayotiy vaziyat asosida tuzilishi;
- bir nechta yechim variantlarini talab qilishi;
- o‘quvchini mustaqil fikrlashga undashi;
- hisoblash, taqqoslash va tahlil qilishni talab qilishi;
- o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilish imkonini berishi;
- amaliy faoliyat bilan bog‘langan bo‘lishi.

Masalan, “Sinf xonasidagi mavjud materiallardan foydalangan holda foydali va estetik buyum tayyorlang” topshirig‘i o‘quvchining ijodkorligini, materiallardan oqilona foydalanish qobiliyatini va dizayn bo‘yicha bilimlarini namoyon etishga imkon beradi.Xalqaro baholash dasturlari asosida texnologiya darslarida baholash jarayonini faqat yakuniy natijaga qaratish to‘g‘ri emas. O‘quvchining topshiriqni bajarish jarayonidagi faoliyati ham baholanishi lozim.

Bunday baholash o‘quvchining faqat bilimini emas, balki kompetensiyasini ham aniqlash imkonini beradi.Texnologiya fanida loyiha faoliyatidan foydalanish xalqaro baholash dasturlarining kompetensiyaviy talablariga mos keladi. Loyiha jarayonida o‘quvchi muammoni aniqlaydi, maqsad belgilaydi, ma’lumot to‘playdi, reja tuzadi, mahsulot yaratadi va yakuniy natijani taqdim etadi.Masalan, “Ekologik toza mahsulot yaratish”, “Maktab uchun foydali buyum loyihalash”, “Chiqindilarni qayta ishlash asosida yangi mahsulot tayyorlash” kabi loyihalar o‘quvchilarda ekologik madaniyat, ijodkorlik, tadbirkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.Xalqaro baholash dasturlari asosidagi texnologiya darslarida o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi o‘quvchiga tayyor yechimni berish o‘rniga, uni mustaqil izlanishga yo‘naltirishi kerak. Buning uchun savol-javob, muammoli vaziyat, loyiha, kichik guruhlarda ishlash, munozara, taqdimot va o‘z-o‘zini baholash kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.O‘quvchining faoliyatini baholashda faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” mezonidan foydalanish yetarli emas. Uning muammoni qanday tushungani, qanday reja tuzgani, qanday qaror qabul qilgani, amaliy ishni qanday bajargani va yakuniy natijani qanday asoslagani ham hisobga olinishi lozim.

Shunday qilib, xalqaro baholash dasturlarining metodik tamoyillarini texnologiya darslariga joriy etish o‘quvchilarning bilimini baholashning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi.Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarda nafaqat texnologik bilim va ko‘nikmalar, balki mustaqil fikrlash,

ijodkorlik, tanqidiy tahlil, hamkorlik, tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish kabi XXI asr kompetensiyalari ham shakllanadi. Shu sababli xalqaro baholash dasturlari elementlaridan texnologiya fanida foydalanish ta’lim mazmunini zamonaviylashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.Xalqaro baholash dasturlarining asosiy xususiyatlaridan biri o‘quvchining olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini aniqlashdan iborat. Bu jihat texnologiya fanining mazmuni bilan bevosita bog‘liq. Chunki texnologiya darslarida o‘quvchi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi, turli material va asboblar bilan ishlaydi, buyumlarni loyihalaydi hamda muammoli vaziyatlarga yechim izlaydi.Texnologiya fanini o‘qitishda xalqaro baholash mezonlaridan foydalanish o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi muayyan topshiriqni bajarishda mavjud ma’lumotlarni tahlil qiladi, kerakli materiallarni tanlaydi, ish ketma-ketligini belgilaydi va yakuniy natijani baholaydi. Natijada ta’lim jarayoni oddiy bilim berishdan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.Texnologiya darslarida xalqaro baholash dasturlariga mos topshiriqlarni tuzishda muammoli vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday topshiriqlarda o‘quvchiga tayyor algoritm berilmaydi. U mustaqil ravishda muammoni anglaydi, turli variantlarni taqqoslaydi va eng maqbul yechimni tanlaydi.

Masalan: Maktab hududida plastik chiqindilar miqdori ortib bormoqda. Sizning vazifangiz — plastik chiqindilardan foydalanib, maktab uchun foydali buyum loyihasini ishlab chiqish. O‘quvchi bunda: muammoni aniqlaydi; mavjud materiallarni o‘rganadi; mahsulot g‘oyasini ishlab chiqadi; chizma yoki model tayyorlaydi; kerakli materiallarni tanlaydi; mahsulotni yaratadi; o‘z loyihasini taqdim etadi.

Bu jarayon o‘quvchida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik, muammoni hal qilish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi.Texnologiya darslarida funksional savodxonlikni shakllantirishga alohida e’tibor berish zarur. Funksional savodxonlik o‘quvchining kundalik hayotda zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va

kompetensiyalarni egallashi hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalana olishida namoyon bo‘ladi.

Masalan, o‘quvchiga ma’lum miqdordagi matodan kiyim uchun detal tayyorlash topshirig‘i berilsa, u matoning uzunligi va kengligini hisoblaydi, material sarfini aniqlaydi, andaza joylashuvini rejalashtiradi va chiqindini kamaytirish yo‘lini izlaydi. Bunda matematika, texnologiya, iqtisodiy tafakkur va ekologik madaniyat o‘zaro integratsiyalashadi.Zamonaviy texnologiya darslarini raqamli vositalarsiz tasavvur qilish qiyin. Kompyuter dasturlari yordamida chizma va modellar yaratish, elektron taqdimotlar tayyorlash, videodarslardan foydalanish hamda loyiha natijalarini raqamli shaklda taqdim etish o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantiradi.Shuningdek, o‘quvchilarga internet manbalaridan kerakli ma’lumotlarni izlash, ma’lumotlarning ishonchliligini baholash va o‘z loyihasi uchun zarur bo‘lgan axborotni saralash topshiriqlari berilishi mumkin. Bu jarayon xalqaro baholashlarda muhim o‘rin tutadigan axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan texnologiya darslarida o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi esa bilim beruvchi bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchini izlanishga, mustaqil qaror qabul qilishga va o‘z faoliyatini baholashga yo‘naltiradi.

Bunday darslarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish mumkin:

Kommunikativ kompetensiya — o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ifodalash.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi — kerakli ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish va saralash.

Muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish kompetensiyasi — muammoning bir nechta yechimlarini ishlab chiqish.

Ijodiy kompetensiya — yangi g‘oya va mahsulot yaratish.

Amaliy kompetensiya — asbob, uskuna va materiallardan to‘g‘ri foydalanish.

Ijtimoiy kompetensiya — guruhda hamkorlikda ishlash va o‘zaro fikr almashish

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlarining zamonaviy yondashuvlarini texnologiya darslariga tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, funksional savodxonligini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini shakllantirish imkonini beradi.Texnologiya darslarida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, ijodiy topshiriqlar va mezonlarga asoslangan baholashdan foydalanish o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bunday ta’lim jarayonida o‘quvchi tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi, uni amaliyotda qo‘llovchi va yangi mahsulot yaratuvchi faol subyektga aylanadi.Shu nuqtayi nazardan, texnologiya fani o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlari mazmuni va metodologiyasini chuqur o‘rganishi hamda ularning samarali elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilishi bugungi ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. *PISA* 2022 Assessment and Analytical Framework. OECD Publishing.

2. OECD. *PISA:* Programme for International Student Assessment. Paris: OECD.

3. O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘quv-metodik manbalar.

5. Xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar

XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDA AKADEMIK HALOLLIK TAMOYILLARINING O‘RNI: KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN BAHOLASH VA TA’LIM SIFATI KONTEKSTIDA

Mamatkulova Nilufar Boyzoq qizi
Andijon viloyat pedagogik mahorat markazi
"Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
nilufarmamatkulova19@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro baholash tizimlari va akademik halollik o‘rtasidagi metodologik hamda pedagogik bog‘liqlik tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’limda baholash jarayoni o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini aniqlash bilan cheklanmay, ularning bilimlarni real va notanish vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish, muammolarni hal etish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini ham aniqlashga yo‘naltirilmoqda. PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining mazmuni ushbu yondashuvning amaliy ifodasidir. Bunday baholashlarning ishonchliligi esa topshiriqlarning sifatidan tashqari, baholash jarayonining standartlashtirilishi, natijalarning haqqoniyligi va ishtirokchilarning akademik halollik tamoyillariga rioya qilishiga bog‘liq. Maqolada akademik halollikning mazmuni, xalqaro baholashning validligi va ishonchliligi, PISA, TIMSS va PIRLS dasturlaridagi kompetensiyaviy yondashuv, O‘zbekistonning PISA 2022dagi ishtiroki hamda ta’lim amaliyotida akademik halollikni rivojlantirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro baholash kompetensiyalarini akademik halollik madaniyati bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, akademik halollik, PISA, TIMSS, PIRLS, kompetensiya, ta’lim sifati, baholash validligi, ishonchlilik, akademik mas’uliyat, mustaqil fikrlash.

Abstract. This article examines the methodological and pedagogical relationship between international assessment systems and academic integrity. Contemporary educational assessment increasingly focuses not only on students’ theoretical knowledge but also on their ability to apply knowledge in real-life and unfamiliar contexts, analyse information, solve problems, draw evidence-based conclusions, and think independently. International assessment programmes such as PISA, TIMSS and PIRLS represent this competency-oriented approach. The reliability and validity of such assessments depend not only on the quality of assessment instruments but also on standardised administration, authentic

performance data and adherence to academic integrity principles. The article discusses the concept of academic integrity, the relationship between integrity and assessment validity, competency-oriented approaches in PISA, TIMSS and PIRLS, Uzbekistan’s participation in PISA 2022, and mechanisms for strengthening academic integrity in educational practice. Practical recommendations are proposed for integrating international assessment competencies with a culture of academic integrity.

Keywords: international assessment, academic integrity, PISA, TIMSS, PIRLS, competency, educational quality, assessment validity, reliability, academic responsibility, independent thinking.

Аннотация. В статье рассматривается взаимосвязь международных систем оценивания и академической честности в контексте современного компетентностного образования. Современные системы оценивания направлены не только на определение уровня теоретических знаний учащихся, но и на выявление их способности применять знания в реальных и незнакомых ситуациях, анализировать информацию, решать проблемы, делать выводы на основе доказательств и самостоятельно мыслить. Программы PISA, TIMSS и PIRLS являются практическим выражением данного подхода. Достоверность результатов международного оценивания зависит не только от качества тестовых материалов, но и от стандартизированного проведения оценки, а также от соблюдения принципов академической честности. В статье раскрываются содержание академической честности, её связь с валидностью и надёжностью оценивания, особенности компетентностного подхода в международных исследованиях и значение академической честности для повышения качества образования. Отдельное внимание уделяется участию Узбекистана в PISA 2022 и возможностям использования международного опыта в национальной образовательной практике.

Ключевые слова: международное оценивание, академическая честность, PISA, TIMSS, PIRLS, компетентность, качество образования, валидность, надёжность, академическая ответственность.

Ta’lim sifatini obyektiv baholash zamonaviy ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Globallashuv, raqamlashtirish va mehnat bozoridagi tezkor o‘zgarishlar sharoitida o‘quvchining faqat ma’lum faktlarni eslab qolishi yetarli natija sifatida qaralmayapti. Zamonaviy ta’lim o‘quvchining bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llashi, axborotni tanqidiy tahlil qilishi, muammolarni hal qilishi va

mustaqil xulosa chiqarishini ham talab etmoqda.

Mazkur tendensiya xalqaro baholash dasturlarining mazmunida ham o‘z aksini topgan. PISA 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini real hayotga yaqin vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini o‘rganadi. PISA 2025 baholash doirasida tabiiy fanlar asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, “Learning in the Digital World” innovatsion yo‘nalishi ham kiritilgan.

TIMSS dasturida matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari bilan bir qatorda “bilish”, “qo‘llash” va “mulohaza yuritish” kabi kognitiv jarayonlar baholanadi. PIRLS esa boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qish savodxonligini baholab, o‘quvchilarning badiiy tajriba uchun hamda axborotni egallash va undan foydalanish uchun o‘qish qobiliyatlarini o‘rganadi. PIRLS

Bunday tizimlarda baholash natijasining haqiqiyligi alohida ahamiyatga ega. Chunki olingan ball o‘quvchining real kompetensiyasini aks ettirishi kerak. Agar baholash jarayonida akademik halollik buzilsa, natija bilan real bilim va ko‘nikma o‘rtasida tafovut yuzaga kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash va akademik halollikni alohida-alohida emas, balki yagona ta’lim sifati tizimining o‘zaro bog‘liq elementlari sifatida o‘rganish dolzarbdir.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, hujjatlarni o‘rganish va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy manbalarini OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA baholash va texnik hujjatlari, IEA TIMSS & PIRLS International Study Center tomonidan e’lon qilingan baholash frameworklari hamda akademik halollik bo‘yicha xalqaro metodik materiallar tashkil etdi.

Tahlil jarayonida uchta asosiy yo‘nalish o‘zaro bog‘landi:

xalqaro baholashning maqsad va kompetensiyalari;

akademik halollikning fundamental tamoyillari;

baholash natijalarining validligi va ishonchliligi.

Bunday metodologik yondashuv xalqaro baholashning faqat reyting yoki natija o‘lchash vositasi emas, balki ta’lim jarayonida mustaqil va mas’uliyatli o‘quv faoliyatini shakllantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

3. Akademik halollikning nazariy asoslari

Akademik halollik ta’lim va ilmiy faoliyat ishtirokchilarining axloqiy mas’uliyati bilan bog‘liq tushunchadir. International Center for Academic Integrity akademik halollikni halollik, ishonch, adolatlilik, hurmat, mas’uliyat va jasorat kabi oltita fundamental qadriyat bilan izohlaydi.

Mazkur qadriyatlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etganda akademik halollik quyidagi faoliyatlarda namoyon bo‘ladi:

o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarish;

nazorat va imtihon jarayonlarida belgilangan qoidalarga rioya qilish;

plagiatdan foydalanmaslik;

boshqa shaxsning intellektual mehnatini o‘zlashtirmaslik;

foydalanilgan manbalarni to‘g‘ri ko‘rsatish;

tadqiqot va loyiha ishlarida ma’lumotlarni soxtalashtirmaslik;

baholash jarayonida o‘z natijasini sun’iy ravishda oshirishga urinmaslik.

Shu jihatdan akademik halollik faqat intizomiy talab emas.

U o‘quvchining o‘z bilimiga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantiruvchi pedagogik tamoyildir.

4. Xalqaro baholash tizimlarining kompetensiyaviy xususiyati

PISA dasturining muhim xususiyati bilimlarni real hayotdagi muammolarni hal etishda qo‘llashga e’tibor qaratilishidir. OECD PISAni 15 yoshli o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro miqyosda o‘rganadigan tadqiqot sifatida tavsiflaydi. PISA topshiriqlari o‘quvchilarning murakkab masalalarni hal qilishi, tanqidiy fikrlashi va bilimlarini qo‘llashini o‘rganishga qaratilgan.

PISA baholashining ishonchliligini ta’minlash uchun topshiriqlarni ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish, ekspertizadan o‘tkazish va statistik tahlil qilish kabi bir qator

bosqichlardan foydalaniladi. PISA ma’lumotlarining aniqligi va autentikligini ta’minlash uchun test materiallarini xavfsiz saqlash va baholashni standartlashtirilgan tartibda tashkil etish talablarini belgilagan.

Bu jarayon akademik halollik bilan bevosita bog‘liq. O‘quvchining natijasi uning haqiqiy bilim va ko‘nikmalarini ifodalashi kerak.

4.2. TIMSS

TIMSS matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini baholaydi. TIMSS 2023 frameworkida kognitiv faoliyat uchta asosiy yo‘nalishga ajratilgan: knowing, applying va reasoning.

PIRLS mazkur yondashuv o‘quvchidan: fakt va tushunchalarni bilish; o‘z bilimini muayyan vaziyatda qo‘llash;

dalillar asosida tahlil qilish va xulosa chiqarishni talab qiladi.

Ayniqsa reasoning yo‘nalishi o‘quvchining murakkab yoki notanish vaziyatlarda mustaqil fikrlashini nazarda tutadi.

Demak, TIMSS kompetensiyalarini rivojlantirish akademik halollik bilan uyg‘unlashganda o‘quvchi tayyor javobni izlashdan ko‘ra, o‘z fikrlash jarayonini namoyish etishga o‘rganadi.

PIRLS boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini o‘rganadi. PIRLS 2026 frameworkida o‘qishning ikkita asosiy maqsadi — badiiy tajriba uchun o‘qish hamda axborotni egallash va undan foydalanish — va to‘rtta tushunish jarayoni nazarda tutilgan.

PIRLS 2026 to‘liq raqamli baholashga o‘tgan. Bu esa raqamli muhitda akademik halollik masalasini yanada muhimlashtiradi. O‘quvchining mustaqil o‘qishi, axborotni tanlashi, tushunishi va undan foydalanishi baholash jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib qoladi.

Akademik halollik va baholash validligi

Baholashning validligi natijadan qanday xulosa chiqarish mumkinligini asoslash bilan bog‘liq. PISA kabi yirik xalqaro tadqiqotlarda validlik va ishonchlilik mamlakatlar va tillar o‘rtasidagi natijalarni taqqoslash uchun muhim shart

hisoblanadi. PISA natijalarini taqqoslashda test materiallarini ishlab chiqish, ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqish va statistik tahlil qilish jarayonlaridan foydalanilishini qayd etadi.

PISA texnik hujjatlarida ham baholashning standartlashtirilgan tartibda o‘tkazilishi, ma’lumotlarning sifat nazorati va natijalarning taqqoslanishini ta’minlashga katta e’tibor berilgan.

Shu asosda quyidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatish mumkin:

Akademik halollik → autentik javob → ishonchli ma’lumot → valid baholash → asoslangan ta’limiy xulosa.

Aksincha:

Akademik halollikning buzilishi → autentik bo‘lmagan javob → ma’lumot sifati pasayishi → noto‘g‘ri talqin xavfi.

Bu yerda akademik halollik xalqaro baholashning texnik jihatlaridan biri emas, balki baholash natijasining mazmuniy ishonchliligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida qaraladi.

O‘zbekiston va xalqaro baholash tajribasi O‘zbekiston PISA dasturida ilk bor 2022-yilda qatnashdi. ma’lumotlariga ko‘ra, PISA 2022da O‘zbekistondan 202 ta maktabdagi 7293 nafar o‘quvchi ishtirok etgan va ular mamlakatdagi taxminan 482 100 nafar 15 yoshli o‘quvchini ifodalagan. O‘zbekiston bo‘yicha ma’lumotlarning PISA texnik sifat standartlariga javob berganini va hisobot uchun yaroqli deb topilganini qayd etadi.

PISA 2022 O‘zbekiston uchun ta’lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida tahlil qilish imkonini bergan. Shu sababli xalqaro baholash natijalaridan foydalanishda faqat ballarni tahlil qilish bilan cheklanmasdan, ushbu natijalarni shakllantiruvchi pedagogik va tashkiliy omillarni ham o‘rganish zarur.

Bu jarayonda akademik halollik alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining mustaqil ishlashi, o‘qituvchining baholashdagi xolisligi va ta’lim muassasasining shaffofligi xalqaro baholash kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Akademik halollikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari

Akademik halollikni shakllantirish faqat jazolash yoki nazorat qilishga asoslanmasligi kerak. Ta’lim muassasasida halollik qadriyatlarini muntazam ravishda rivojlantirish samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Birinchi navbatda, o‘quvchilarga akademik halollikning mazmuni tushuntirilishi lozim. Plagiat yoki ko‘chirmachilikning noto‘g‘ri ekanini aytish bilan bir qatorda, uning o‘quvchining real bilimini aniqlashga qanday xalaqit berishi tushuntirilishi kerak.

Ikkinchidan, baholash mezonlari shaffof bo‘lishi zarur. O‘quvchi qanday bilim, ko‘nikma va faoliyat uchun ball olishini oldindan bilsa, baholash jarayoniga nisbatan ishonchi oshadi.

Uchinchidan, ochiq va muammoli topshiriqlardan foydalanish lozim. Bunday topshiriqlarda tayyor javobni ko‘chirish imkoniyati kamayib, o‘quvchining fikrlash jarayoni muhimroq ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, loyiha va tadqiqot ishlarida manbalar bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish kerak. O‘quvchi manbani topish, undan foydalanish, iqtibos keltirish va o‘z fikrini manba fikridan ajratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Beshinchidan, o‘qituvchilar xalqaro baholash mezonlari va akademik halollik tamoyillari bo‘yicha muntazam metodik tayyorgarlikdan o‘tishi maqsadga muvofiq.

Raqamli ta’lim sharoitida akademik halollik

Raqamli texnologiyalarning ta’limga keng kirib kelishi akademik halollik masalasiga yangi yondashuvni talab qilmoqda. Internet manbalari, avtomatik tarjima vositalari, generativ sun’iy intellekt va boshqa raqamli vositalardan foydalanish o‘quv faoliyatining imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, ularning ta’limiy maqsadga muvofiq va shaffof ishlatilishi muhim.

Bunday sharoitda “texnologiyadan foydalanish yoki foydalanmaslik” masalasidan ko‘ra, “undan qanday sharoitda va qanday maqsadda foydalanish mumkin?” degan savol muhimroq bo‘ladi.

Shu sababli ta’lim muassasalari:

raqamli vositalardan foydalanish qoidalarini aniq belgilashi;

o‘quvchilarga manbalarni ko‘rsatish madaniyatini o‘rgatishi;

mustaqil fikrlashni talab qiladigan topshiriqlarni ko‘paytirishi;

o‘quvchining yakuniy mahsulotidan tashqari, uning ishlash jarayonini ham baholashi;

zarur hollarda og‘zaki himoya va refleksiyadan foydalanishi mumkin.

Bu yondashuv raqamli vositalarni ta’limdan butunlay chiqarib tashlash emas, balki ulardan akademik mas’uliyat asosida foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Muhokama. Xalqaro baholash tizimlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kuchaytirmoqda. PISA o‘quvchining bilimni real vaziyatlarda qo‘llashini, TIMSS bilimni bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish jarayonlarini, PIRLS esa o‘qib tushunishning turli jarayonlarini baholaydi. Bu yondashuvlarning barchasida o‘quvchining mustaqil faoliyati muhim o‘rin tutadi. Shu sababli akademik halollikni rivojlantirish xalqaro baholashga tayyorgarlikning faqat axloqiy emas, balki metodik komponenti sifatida ham ko‘rilishi mumkin.

Bunda bir muhim jihatni hisobga olish kerak: xalqaro baholash natijalarini faqat akademik halollik darajasi bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ta’lim natijalariga o‘quv dasturlari, o‘qitish metodlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, resurslari, o‘quvchilarning motivatsiyasi va boshqa ko‘plab omillar ham ta’sir qiladi. PISAning o‘zi ham o‘quvchi natijalarini turli ijtimoiy va ta’limiy kontekstlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

Shuning uchun akademik halollikni xalqaro baholash natijalarining yagona izohi sifatida emas, balki baholash jarayonining ishonchliligi va ta’lim muhitining sifatini ta’minlovchi omillardan biri sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xalqaro baholash tizimlari zamonaviy ta’lim sifatini o‘rganishning muhim

vositalaridan biridir. PISA, TIMSS va PIRLS dasturlari o‘quvchilarning bilimlarini real va murakkab vaziyatlarda qo‘llashi, axborotni tahlil qilishi, xulosa chiqarishi va mustaqil fikrlashi kabi kompetensiyalarni aniqlashga yo‘naltirilgan.

Akademik halollik esa ushbu kompetensiyalarni haqqoniy baholash uchun zarur bo‘lgan ta’limiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchining mustaqil javobi, o‘qituvchining xolis baholashi va baholash jarayonining shaffof tashkil etilishi natijalarning ishonchliligini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekistonning PISA 2022da ilk bor ishtirok etgani milliy ta’lim tizimi uchun xalqaro mezonlar asosida o‘zini tahlil qilish imkoniyatini kengaytirdi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash natijalaridan samarali foydalanish faqat test natijalarini tahlil qilish bilan cheklanmasdan, ta’lim jarayonida akademik halollik, mustaqil fikrlash va mas’uliyatli o‘quv faoliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutishi kerak.

Umuman olganda, xalqaro baholash kompetensiyalarini akademik halollik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish ta’limda “yuqori baho olish”ga emas, balki “haqiqiy bilim va kompetensiyani namoyon etish”ga yo‘naltirilgan madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy takliflar

Ta’lim muassasalarida akademik halollik kodekslarini ishlab chiqish va muntazam takomillashtirish.

PISA, TIMSS va PIRLS kompetensiyalariga mos muammoli va ochiq turdagi topshiriqlar ulushini oshirish.

O‘quvchilarga akademik yozuv, iqtibos keltirish va manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich o‘rgatish.

Baholash mezonlarini o‘quvchilarga oldindan ochiq va tushunarli shaklda taqdim etish.

O‘quvchining yakuniy javobidan tashqari, fikrlash va ishlash jarayonini ham baholash.

O‘qituvchilarning xalqaro baholash va akademik halollik bo‘yicha metodik kompetensiyalarini rivojlantirish.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanishning ta’limiy va akademik halollik qoidalarini aniq belgilash.

Xalqaro baholash natijalarini boshqa ta’limiy, ijtimoiy va institutsional omillar bilan birgalikda tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science and Creative Thinking. Paris: OECD Publishing, 2023.
2. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. Paris: OECD Publishing, 2023.
3. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. Paris: OECD Publishing, 2019.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2024/5: Leadership in Education: Lead for Learning. Paris: UNESCO, 2024.
6. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). TIMSS 2023 Assessment Frameworks. Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2024.
7. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). PIRLS 2021 International Results in Reading. Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2023.
8. Brookhart S. M. How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading. Alexandria, VA: ASCD, 2013.
9. Boud D., Falchikov N. Rethinking Assessment in Higher Education: Learning for the Longer Term. London: Routledge, 2007.
10. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA UMUMKASBIY FANLARNI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PISA, PIRLS VA TIMSS TALABLARI HAMDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Odinayeva Mavluda Kobilovna
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) ning raqamli shakllari va ularning funksional savodxonlikka qo‘yadigan talablari tahlil qilinadi. Funksional savodxonlikning nazariy-metodologik asoslari yoritilib, ular raqamli ta’lim muhitida umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘lanadi. Muallif pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida qo‘llash mumkin bo‘lgan metodik yo‘nalishlarni asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, umumkasbiy fanlar, funksional savodxonlik, PISA, PIRLS, TIMSS, raqamli kompetentlik, uzluksiz kasbiy ta’lim, o‘qitish metodikasi.

Abstract. This article analyzes the digital formats of international assessment programs (PISA, PIRLS, TIMSS) and the requirements they impose regarding functional literacy. It explores the theoretical and methodological foundations of functional literacy, linking them to the improvement of teaching methodologies for general professional subjects within a digital educational environment. The author substantiates methodological approaches that can be applied within the system of continuous professional development for educators.

Keywords: digital educational environment, general professional subjects, functional literacy, PISA, PIRLS, TIMSS, digital competence, continuous professional education, teaching methodology.

Аннотация. В статье анализируются цифровые форматы международных программ оценки качества образования (PISA, PIRLS, TIMSS) и предъявляемые ими требования к уровню функциональной грамотности. Рассматриваются теоретико-методологические основы функциональной грамотности в контексте совершенствования методики преподавания общепрофессиональных дисциплин в цифровой образовательной среде. Автор обосновывает методические подходы, которые могут быть использованы в системе непрерывного профессионального развития педагогов.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, общепрофессиональные дисциплины, функциональная грамотность, PISA, PIRLS, TIMSS, цифровая компетентность, непрерывное профессиональное образование, методика преподавания.

Kirish. Ta’limning raqamlashuvi pedagogdan faqat texnik vositalarni ishlata olishni emas, o‘quv jarayonini yangi sharoitda qayta loyihalashni talab qilmoqda. O‘zbekistonda bu jarayon davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanadi: 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmon bilan "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlangan, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmon bilan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan, 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun esa ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni qonuniy mustahkamlagan.

Bir vaqtning o‘zida ta’lim sifati xalqaro o‘lchovlar bilan baholanmoqda. OECD ning PISA, IEA ning PIRLS va TIMSS tadqiqotlari o‘quvchilarning bilimni real vaziyatda qo‘llash, matn bilan ishlash va muammoni hal etish qobiliyatlarini o‘lchaydi. Mazkur dasturlarning so‘nggi tsikllari kompyuter asosida o‘tkazilmoqda, shuning uchun o‘quvchidan raqamli muhitda ishlay olish ham talab etiladi.

Shu o‘rinda umumkasbiy fanlarning (pedagogika, pedagogik psixologiya, ta’lim texnologiyalari, ta’lim menejmenti kabi pedagogning umumiy kasbiy kompetensiyasini shakllantiruvchi fanlarning) roli alohida. Chunki funksional savodxon o‘quvchini tarbiyalay oladigan pedagog avval o‘zi shunday tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lishi kerak. Mavjud amaliyotda umumkasbiy fanlar ko‘pincha nazariy bilim berishga yo‘naltirilgan, xalqaro baholash talablari va raqamli imkoniyatlar esa metodikaga yetarli darajada singdirilmagan. Maqolaning maqsadi shu bo‘shliqni to‘ldirish uchun nazariy-metodologik asos va metodik yo‘nalishlarni taklif etishdan iborat.

PISA, PIRLS va TIMSS: raqamli shakllari va talablari

PISA 2000-yildan beri har uch yilda 15 yoshli o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladi va o‘qish, matematika hamda tabiiy fanlar savodxonligini baholaydi. U 2015-yildan kompyuter asosida o‘tkazilmoqda. 2022-yilgi tsiklda ixtiyoriy tarzda ijodiy tafakkur sohasi ham sinovdan o‘tkazilgan, 2025-yilgi tsiklga esa raqamli dunyoda o‘rganish

sohasi kiritilgan. Bu o‘quvchining raqamli vositalar yordamida mustaqil o‘rganish qobiliyati ham baholash predmetiga aylanayotganini bildiradi.

PIRLS to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini har besh yilda baholaydi. 2016-yilda unga onlayn o‘qish ko‘nikmalarini o‘lchovchi ePIRLS moduli qo‘shilgan: o‘quvchi o‘zaro bog‘langan veb-sahifalarda kerakli ma’lumotni topadi, manbalarni solishtiradi va xulosa chiqaradi. 2021-yilgi tsiklda ko‘plab davlatlar baholashni kompyuterda o‘tkazishga o‘tgan.

TIMSS to‘rtinchi va sakkizinchi sinflarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha har to‘rt yilda o‘tkaziladi. 2019-yilda unga eTIMSS (kompyuterda topshirish) formati joriy etilgan, ayrim topshiriqlar interaktiv simulyatsiya va muammoli vaziyatlarni o‘z ichiga oladi.

Uch dasturning raqamli shaklidan pedagog uchun quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Birinchidan, o‘quvchi matnni qog‘ozda ham, ekranda ham, shu jumladan ko‘p manbali gipermatnda ham tushuna olishi kerak. Ikkinchidan, ma’lumotning ishonchliligini baholash va manbalarni solishtirish ko‘nikmasi o‘qish savodxonligining ajralmas qismiga aylandi. Uchinchidan, topshiriqlar real kontekstga bog‘langan va ko‘pincha fanlararo xarakterga ega. To‘rtinchidan, o‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonini boshqara olishi talab etiladi. Bu talablarni bajara oladigan o‘quvchini tarbiyalash uchun pedagog shu ko‘nikmalarni o‘zi egallagan va ularni o‘qitish metodikasiga tatbiq etishni bilishi lozim.

Funksional savodxonlikning nazariy-metodologik asoslari

Funksional savodxonlik tushunchasi YUNESKO doirasida shakllangan. 1956-yilda U. Grey YUNESKO uchun tayyorlagan asarida savodxonlikni shaxsning ijtimoiy hayotdagi vazifalarni bajarishi nuqtai nazaridan ko‘rishni taklif etgan. 1978-yilgi YUNESKO tavsiyasida funksional savodli shaxs jamiyat va guruh faoliyatida o‘qish, yozish va hisoblashni talab qiladigan barcha vazifani bajara oladigan hamda bu ko‘nikmalardan o‘z va jamiyat rivoji uchun foydalanishni davom ettira oladigan

kishi sifatida ta’riflangan. Demak, bu tushunchaning markazida bilimning o‘zi emas, uni hayotiy vaziyatda qo‘llash qobiliyati turadi.

Nazariy-metodologik jihatdan funksional savodxonlikni rivojlantirish bir necha yondashuvga tayanadi.

- **Kompetentlik yondashuvi.** Natija sifatida bilimlar yig‘indisi emas, ularni qo‘llash qobiliyati olinadi. PISA ning savodxonlik konsepsiyasi ham shu mantiqqa asoslanadi.
- **Faoliyat yondashuvi.** Bilim shaxsning faol harakati jarayonida shakllanadi (L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev maktabi). Bu raqamli muhitda loyiha va muammoli topshiriqlar orqali amalga oshadi.
- **Konstruktivizm.** O‘quvchi bilimni tayyor holda emas, tajriba va hamkorlik orqali o‘zi quradi. Raqamli platformalar hamkorlikda ishlash uchun keng imkoniyat yaratadi.
- **Raqamli kompetentlik doiralari.** Yevropa Ittifoqining DigComp va pedagoglar uchun DigCompEdu hamda YUNESKOning o‘qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari doirasi raqamli savodxonlikni bosqichlar bo‘yicha tavsiflaydi.

Pedagogning raqamli vositalardan mazmunli foydalanishi uchun Mishra va Koehler (2006) ning TPACK modeli ahamiyatli. U texnologik, pedagogik va fan bilimlarining kesishuvidan hosil bo‘ladigan bilimni alohida ajratadi. Shu modelga ko‘ra, texnologiyani o‘qitishga faqat tashqaridan qo‘shib qo‘yish samara bermaydi, uning tanlovi o‘qitish maqsadi va fan xususiyatiga mos bo‘lishi shart. Shuningdek, Mayerning multimedia orqali o‘rganish nazariyasi va Sweller ning kognitiv yuklama nazariyasi elektron o‘quv materiallarini loyihalashda e’tiborni talab qiladigan qoidalarni beradi: ortiqcha matn va bezaklar o‘zlashtirishni susaytirishi mumkin. Anderson va Krathvolning (2001) qayta ko‘rib chiqilgan Blum taksonomiyasi esa topshiriqlarni eslash darajasidan tahlil, baholash va yaratish darajasigacha ketma-ket murakkablashtirish imkonini beradi. PISA va TIMSS ning yuqori darajadagi topshiriqlari aynan shu yuqori tafakkur jarayonlariga mos keladi.

Raqamli muhitda umumkasbiy fanlar metodikasini takomillashtirish yo‘nalishlari

Yuqoridagi nazariy asoslar va baholash dasturlari talablariga tayanib, umumkasbiy fanlarni raqamli muhitda o‘qitish metodikasini takomillashtirishning quyidagi yo‘nalishlari taklif etiladi:

1. **Topshiriqlar tizimini qayta ishlash.** Reproduktiv savollar o‘rniga real pedagogik vaziyatga asoslangan topshiriqlar beriladi. Masalan, tinglovchi dars bayonnomasini tahlil qilib muammoni aniqlaydi, uni hal etish bo‘yicha asoslangan taklif tayyorlaydi. Bunday topshiriqlar PISA va TIMSS dagi kontekstga bog‘langan masalalarga o‘xshash tuziladi.
2. **Ko‘p manbali matn bilan ishlash.** Tinglovchi me’yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar va elektron resurslarni solishtirib xulosa chiqaradi, manba ishonchliligini baholaydi. Bu ePIRLS dagi onlayn o‘qish ko‘nikmalariga mos keladi.
3. **Aralash va teskari o‘qitish modellari.** Nazariy material oldindan elektron kursda (LMS) beriladi, auditoriya yoki Zoom mashg‘uloti esa muhokama, amaliy tahlil va hamkorlikka ajratiladi.
4. **Hamkorlikdagi raqamli loyihalar.** Guruhlar umumiy hujjat, interaktiv doska yoki o‘quv platformasida birgalikda metodik material ishlab chiqadi. Bu faoliyat yondashuvini va kommunikatsiya ko‘nikmalarini ta’minlaydi.
5. **Formativ baholash va tezkor teskari aloqa.** Onlayn testlar, o‘zini tekshirish topshiriqlari va rubrikalar yordamida tinglovchi o‘z natijasini bosqichma-bosqich kuzatib boradi, bu o‘z o‘rganishini boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.
6. **Refleksiya va portfolio.** Tinglovchi raqamli portfolioda o‘z ishlarini to‘playdi va o‘sishini tahlil qiladi.
7. **Texnologiyani maqsadga muvofiq tanlash.** TPACK mantiqiga ko‘ra, har bir raqamli vosita o‘quv maqsadiga qarab tanlanadi, o‘zi maqsadga aylantirilmaydi.

Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirishda muhim jihat: raqamli vosita metodikaning o‘rnini bosmaydi, uni kuchaytiradi. Eng yaxshi LMS ham o‘ylanmagan topshiriqlar bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, funksional savodxonlikni rivojlantirmaydi. Shu sababli birinchi navbatda topshiriq mazmuni va baholash mezonlari, keyin esa texnologiya tanlanadi.

Uzluksiz kasbiy ta’lim tizimida joriy etish

Taklif etilgan yo‘nalishlarni amalga oshirishda pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi alohida o‘rin tutadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida umumkasbiy fanlar moduli quyidagi tartibda qurilishi mumkin: dastlab tinglovchining raqamli va funksional savodxonlik darajasi tashxis qilinadi, so‘ng uning ehtiyojiga mos individual yo‘nalish belgilanadi, kurs davomida amaliy topshiriqlar va hamkorlikdagi loyihalar bajariladi, yakunda esa tinglovchi o‘z tajribasini umumlashtirib, hamkasblariga namoyish etadi. Zoom kabi masofaviy platformalarda muhokama xonalari, onlayn so‘rovnomalar va hamkorlikdagi hujjatlar bu jarayonni faollashtiradi. Kurs yakunidan keyin ham tinglovchi bilan raqamli hamjamiyat orqali aloqani saqlab turish tajriba almashinuvini ta’minlaydi.

Bunday tizimning samaradorligini baholash uchun tinglovchining raqamli kompetentlik darajasi, topshiriq tuzish sifati va uning o‘quvchilari o‘zlashtirishidagi o‘zgarishlar kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Mazkur mezonlar bo‘yicha empirik ma’lumotlarni to‘plash va qayta tayyorlash kurslarida tajriba-sinov o‘tkazish keyingi tadqiqotlarning vazifasi hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, PISA, PIRLS va TIMSS ning raqamli shakllari funksional savodxonlikka yangi talablar qo‘ymoqda: ko‘p manbali matn bilan ishlash, ma’lumotni baholash, real vaziyatda fikrni asoslash va o‘z o‘rganishini boshqarish. Bu talablarni bajara oladigan o‘quvchini tarbiyalash pedagogning raqamli va metodik tayyorgarligiga bog‘liq. Kompetentlik va faoliyat yondashuvlari, konstruktivizm va TPACK modeli umumkasbiy fanlar metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Topshiriqlar tizimini qayta ishlash, aralash o‘qitish, hamkorlikdagi raqamli loyihalar, formativ

baholash va refleksiya esa uni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari hisoblanadi. Taklif etilgan yo‘nalishlarni uzluksiz kasbiy ta’lim tizimida sinovdan o‘tkazish istiqbolli vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni. "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son.
4. OECD (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. Paris: OECD Publishing.
5. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P. va boshq. (2023). PIRLS 2021 International Results in Reading. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
6. Mullis I.V.S., Martin M.O., Foy P., Kelly D.L., Fishbein B. (2020). TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

To‘ymurodova Nilufar Ismoil qizi
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus
ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining o‘rni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. PIRLS doirasida o‘quvchilarning badiiy tajriba uchun hamda axborotni egallash va undan foydalanish maqsadida o‘qishi, shuningdek, aniq

ma’lumotni topish, sodda xulosa chiqarish, g‘oya va ma’lumotlarni talqin qilish hamda matn mazmuni va shaklini baholash kabi ko‘nikmalari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada PIRLS tipidagi topshiriqlarni dars jarayonida qo‘llash metodikasi va o‘qish savodxonligini baholash mezonlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, xalqaro baholash, PIRLS, o‘qib tushunish, matn, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, baholash mezonlari.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и педагогические возможности международных оценочных программ в развитии читательской грамотности учащихся начальных классов. В рамках PIRLS рассматриваются навыки чтения с целью получения эстетического опыта, а также приобретения и использования информации. Особое внимание уделяется умению находить конкретную информацию, делать простые выводы, интерпретировать идеи и сведения, а также оценивать содержание и форму текста. Кроме того, в статье разработаны практические рекомендации по методике использования заданий типа PIRLS в учебном процессе и критериям оценки читательской грамотности.

Ключевые слова: начальное образование, читательская грамотность, международное оценивание, PIRLS, понимание прочитанного, текст, функциональная грамотность, критическое мышление, компетенция, критерии оценивания.

Abstract. This article analyzes the role and pedagogical potential of international assessment programmes in developing reading literacy among primary school students. Within the PIRLS framework, students’ reading for literary experience and for acquiring and using information is examined. Particular attention is paid to the skills of locating specific information, making straightforward inferences, interpreting ideas and information, and evaluating the content and form of a text. Furthermore, the article provides practical recommendations on methods for incorporating PIRLS-type tasks into classroom instruction and on criteria for assessing reading literacy.

Keywords: primary education, reading literacy, international assessment, PIRLS, reading comprehension, text, functional literacy, critical thinking, competence, assessment criteria.

XXI asr ta’lim tizimida o‘quvchining faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki mazkur bilimlardan amaliy vaziyatlarda foydalana olishi, axborotni

izlash va tahlil qilishi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi hamda mustaqil fikr yuritishi muhim kompetensiyalar sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllantiriladigan o‘qish savodxonligi keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchining fanlarni o‘zlashtirishi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

O‘qish savodxonligi tushunchasi oddiygina ravon va to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmasi bilan chegaralanmaydi. O‘quvchi o‘qigan matnining mazmunini tushunishi, asosiy fikrni ajrata olishi, matnda bevosita berilmagan ma’lumotlar asosida xulosa chiqarishi, turli ma’lumotlarni bir-biri bilan bog‘lashi, muallif fikrini anglash va matn mazmuniga nisbatan shaxsiy munosabat bildira olishi lozim.

Mazkur yondashuv xalqaro baholash dasturlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, **PIRLS — Progress in International Reading Literacy Study** boshlang‘ich ta’limning to‘rtinchi yilida tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini xalqaro miqyosda baholashga qaratilgan. PIRLS o‘qishni ikki asosiy maqsad — badiiy tajriba va axborotni egallash hamda undan foydalanish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi.

Shu jihatdan PIRLS mezonlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun nafaqat baholash vositasi, balki ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS yondashuvlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik va metodik imkoniyatlarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- xalqaro baholash dasturlarida o‘qish savodxonligining mazmunini tahlil qilish;
- PIRLS baholash frameworkida belgilangan o‘qish maqsadlarini o‘rganish;
- matnni tushunishning asosiy jarayonlarini aniqlash;

- PIRLS tipidagi topshiriqlarning boshlang‘ich ta’limdagi imkoniyatlarini ko‘rsatish;
- o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

PIRLS boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning o‘qish va matnni tushunish darajasini xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradi. PIRLS 2021 tadqiqotida 66 ta mamlakat va ta’lim tizimi ishtirok etgan bo‘lib, ular qatorida O‘zbekiston ham mavjud edi.

PIRLSning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda o‘quvchining faqat matnni o‘qiy olishi emas, balki **matndan mazmun hosil qila olishi** baholanadi.

PIRLS yondashuvida o‘qishning ikki asosiy maqsadi mavjud:

1. **Badiiy tajriba uchun o‘qish.**
2. **Axborotni egallash va undan foydalanish uchun o‘qish.**

Mazkur ikki yo‘nalish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotidagi asosiy o‘qish faoliyatlarini qamrab oladi. Badiiy matnlar orqali o‘quvchi voqealar, qahramonlar, muammolar va obrazlarni anglaydi. Axborot beruvchi matnlar orqali esa o‘quvchi atrof-muhit, tabiat, fan, jamiyat va kundalik hayotga oid ma’lumotlarni o‘zlashtiradi.

Matnni tushunishning to‘rtta asosiy jarayoni

PIRLS baholash tizimida o‘quvchining matnni tushunishi to‘rtta asosiy jarayon orqali ko‘rib chiqiladi:

1. Matnda aniq berilgan ma’lumotni topish
Bunda o‘quvchi matnda bevosita berilgan axborotni aniqlashi kerak.

Masalan:

- Voqea qayerda sodir bo‘lgan?
- Asosiy qahramonning ismi nima?
- Qahramon nima topdi?
- Voqea qachon sodir bo‘ldi?

Bu turdagi savollar o‘quvchining matnni diqqat bilan o‘qish va kerakli ma’lumotni topish ko‘nikmasini shakllantiradi.

2. Sodda xulosa chiqarish
Bu bosqichda javob matnda aynan berilmagan bo‘lishi mumkin. O‘quvchi bir nechta ma’lumotni o‘zaro bog‘lab, mantiqiy xulosa chiqaradi.

Masalan:**“Nima sababdan qahramon bunday qarorga keldi?”**

Bu savolga javob berish uchun o‘quvchi matndagi sabab va oqibatni aniqlashi kerak.

3. G‘oya va ma’lumotlarni talqin qilish hamda birlashtirish
Mazkur jarayonda o‘quvchi matnning turli qismlarida berilgan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘laydi, umumlashtiradi va asosiy g‘oyani aniqlaydi.

Masalan:**“Matnning asosiy g‘oyasini bir jumla bilan ifodalang.”**

Yoki **“Matnning qaysi qismlari bir-biri bilan mazmunan bog‘langan?”**
Bunday topshiriqlar o‘quvchining umumlashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
4. Matn mazmuni va shaklini baholash

Bu eng yuqori darajadagi tushunish jarayonlaridan biridir. O‘quvchi matn mazmuniga o‘z munosabatini bildiradi va fikrini dalillar bilan asoslaydi.

Masalan:**“Sizningcha, qahramon to‘g‘ri qaror qildimi? Javobingizni matndan dalil keltirib asoslang.”**

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

PIRLS frameworkida mazkur to‘rt jarayon izchil murakkablashib boruvchi fikrlash amallari sifatida qaraladi.

O‘zbekistonning PIRLS tadqiqotidagi ishtiroki

O‘zbekiston PIRLS xalqaro tadqiqotida ilk bor 2021-yilda qatnashdi. PIRLS 2021 natijalarida O‘zbekistonning o‘rtacha ko‘rsatkichi **437 ball**ni tashkil etgan. PIRLS shkalasining xalqaro markaziy ko‘rsatkichi 500 ball etib belgilangan. Ushbu natijani boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasiga e’tiborni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatuvchi muhim diagnostik ma’lumot sifatida ko‘rish mumkin. Biroq xalqaro reytingdagi o‘rinning o‘zi o‘quvchilarning barcha

jihatlarini tavsiflamaydi; natijalarni talqin qilishda ta’lim muhiti, o‘qitish sharoitlari, o‘quvchilarning ijtimoiy va oilaviy sharoitlari ham hisobga olinishi kerak.

PIRLS faqat test natijalarini emas, balki o‘quvchilarning o‘qishga munosabati, uy va maktabdagi o‘quv muhiti kabi kontekstual ma’lumotlarni ham yig‘adi.

PIRLS mezonlarini boshlang‘ich ta’limga joriy etish uchun dars jarayonida topshiriqlarni faqat reproduktiv xarakterda tashkil etishdan voz kechish lozim.

Masalan, o‘quvchiga matn berilganda quyidagi ketma-ketlikdan foydalanish mumkin:

1-bosqich — matnni anglash

O‘quvchi matnni o‘qiydi va undagi asosiy qahramon, joy, vaqt va voqealarni aniqlaydi.

2-bosqich — ma’lumotlarni bog‘lash

O‘quvchi voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi.

3-bosqich — umumlashtirish

O‘quvchi matnning asosiy g‘oyasini aniqlaydi va qisqacha bayon qiladi.

4-bosqich — baholash

O‘quvchi qahramon xatti-harakatiga yoki muallif fikriga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi.

5-bosqich — dalillash

O‘quvchi o‘z fikrini matndan olingan dalil bilan asoslaydi.

Shunday tashkil etilgan darsda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki matn bilan faol ishlaydigan subyektga aylanadi.

PIRLS tipidagi topshiriqlardan namunalar

Quyidagi topshiriqni boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida qo‘llash mumkin.

Matn mavzusi: “Daraxtning foydasi”

O‘quvchi matnni o‘qib bo‘lgach:

1-topshiriq. Matnda daraxtning qanday foydalari haqida ma’lumot berilgan?

Bu savol aniq ma’lumotni topishga qaratilgan.

2-topshiriq. Nima uchun odamlar daraxtlarni asrashi kerak?

Bu savol xulosa chiqarishni talab qiladi.

3-topshiriq. Matnning asosiy g‘oyasini bir gap bilan ifodalang.

Bu topshiriq umumlashtirish ko‘nikmasini tekshiradi.

4-topshiriq. Matndagi ma’lumotlardan foydalanib, “Daraxt — tabiat boyligi” fikrini izohlang.

Bu topshiriq g‘oyalarni birlashtirishga yo‘naltiriladi.

5-topshiriq. Agar siz maktab hovlisida daraxt ekish imkoniga ega bo‘lsangiz, qanday daraxt ekardingiz? Nima uchun?

Bu topshiriq o‘quvchini matn mazmunini shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashga undaydi.

6-topshiriq. Javobingizni matndan kamida bitta dalil bilan asoslang.

Bu topshiriq dalillash kompetensiyasini rivojlantiradi.

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda samarali metodlar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

- **“Aqliy hujum”** — matnni o‘qishdan oldin o‘quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtirish;
- **“Klaster”** — matndagi asosiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;
- **“Venn diagrammasi”** — ikki qahramon, voqea yoki tushunchani taqqoslash;
- **“Insert”** — o‘qilgan ma’lumotni belgilash va o‘z fikri bilan taqqoslash;
- **“Savol piramidasi”** — oddiy savollardan murakkab tahliliy savollarga bosqichma-bosqich o‘tish;
- **“Dalil va xulosa”** — o‘quvchini o‘z fikrini matn dalillari asosida asoslashga o‘rgatish;
- **“Matnni qayta qurish”** — voqealar ketma-ketligi buzilgan matnni mantiqiy tartibga keltirish.

Mazkur metodlarning umumiy maqsadi o‘quvchini matnni yuzaki o‘qishdan chuqur anglash va tahlil qilishga olib borishdan iborat.

Raqamli matnlar bilan ishlash

Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qish savodxonligi faqat bosma matnlar bilan chegaralanib qolmaydi. O‘quvchilar turli elektron resurslar, veb-sahifalar, diagrammalar, jadvallar va boshqa multimediaviy axborot shakllari bilan ham ishlashlari kerak.

PIRLSning yangi frameworklarida raqamli o‘qish muhitiga ham e’tibor kuchaytirilgan. PIRLS 2026 doirasida matnlar bilan bir qatorda ro‘yxatlar, diagrammalar, grafiklar, veb-sahifalar, elektron xabarlar va boshqa raqamli formatdagi materiallardan foydalanish imkoniyatlari ko‘zda tutilgan.

Shu sababli boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga oddiy jadval yoki diagrammadan ma’lumot topish, qisqa elektron xabar mazmunini tushunish, rasm va matn o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash kabi topshiriqlarni ham berish maqsadga muvofiq.

O‘qish savodxonligini baholash mezonlari

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Mezon	**O‘quvchidan kutiladigan natija**
Axborotni topish	Matndan kerakli ma’lumotni aniqlaydi
Tushunish	Matn mazmunini to‘g‘ri izohlaydi
Xulosa chiqarish	Bevosita berilmagan ma’lumot asosida xulosa qiladi
Umumlashtirish	Matnning asosiy g‘oyasini aniqlaydi
Tahlil qilish	Voqealar va qahramonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradi
Baholash	Matn mazmuni yoki qahramon harakatiga munosabat bildiradi
Dalillash	O‘z fikrini matndan dalil keltirib asoslaydi

Bunday mezonlar orqali o‘qituvchi o‘quvchining faqat to‘g‘ri javob bergan-bermaganini emas, balki qanday fikrlaganini ham aniqlashi mumkin.

O‘qituvchining metodik faoliyati

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda o‘qituvchining metodik faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi matnni tanlashda uning mazmuni, hajmi, til xususiyatlari va o‘quvchilarning yoshiga mosligini hisobga olishi zarur.

Shuningdek, savollarni faqat “Kim?”, “Qachon?”, “Qayerda?” shaklida tuzish bilan cheklanmasdan, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Siz qanday xulosa chiqardingiz?”, “Muallif fikrini qaysi dalillar tasdiqlaydi?” kabi savollardan ham foydalanishi lozim.

PIRLSda baholash topshiriqlari o‘quvchilarning turli darajadagi fikrlash jarayonlarini qamrab oladi. Shu bois dars jarayonida ham topshiriqlar oddiy ma’lumotni topishdan tahlil va baholashgacha bo‘lgan izchil tizimda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Ota-onalar bilan hamkorlik

O‘qish savodxonligini rivojlantirish faqat maktabdagi darslar bilan cheklanmasligi kerak. Oiladagi kitobxonlik muhiti ham bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabati va o‘qish faoliyatiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biridir.

Ota-onalarga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- farzandi bilan muntazam kitob o‘qish;
- o‘qilgan matn haqida suhbatlashish;
- “Senga matnning qaysi qismi yoqdi?” kabi savollar berish;
- qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qilish;
- bolani o‘z fikrini erkin bayon qilishga undash;
- kundalik hayotdagi yozma axborotlardan foydalanish.

Bunda asosiy maqsad bolani faqat ko‘proq kitob o‘qishga emas, balki **o‘qiganini tushunish va mazmunli fikrlashga** o‘rgatishdan iborat.

Xulosa

Xalqaro baholash dasturlari zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning bilim va kompetensiyalarini obyektiv o‘rganish imkonini beruvchi muhim vositalardan biridir. Boshlang‘ich ta’lim nuqtayi nazaridan PIRLS tadqiqotining ahamiyati ayniqsa katta, chunki unda o‘quvchining matnni o‘qish tezligi yoki uni qayta aytib

berishigina emas, balki matndan mazmun hosil qilishi, ma’lumotlarni bog‘lashi, xulosa chiqarishi va o‘z fikrini asoslay olishi kabi ko‘nikmalar ham baholanadi.

PIRLS frameworkida o‘qishning badiiy tajriba hamda axborotni egallash va undan foydalanish kabi ikki maqsadi va to‘rtta asosiy tushunish jarayoni — aniq ma’lumotni topish, xulosa chiqarish, g‘oya va ma’lumotlarni talqin qilish hamda matn mazmuni va shaklini baholash — belgilangan.

O‘zbekistonning PIRLS 2021 tadqiqotidagi 437 ballik natijasi boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasini yanada tizimli tashkil etish zarurligini ko‘rsatadigan muhim diagnostik ma’lumotdir.

Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf darslarida xalqaro baholash dasturlarining metodologik yondashuvlaridan foydalanish, turli janr va formatdagi matnlar bilan ishlash, tahliliy savollar ulushini oshirish, o‘quvchilarni o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga o‘rgatish hamda muntazam diagnostik baholashni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Eng muhimi, PIRLSga tayyorgarlikni faqat xalqaro test savollarini yechishga o‘rgatish sifatida emas, balki o‘quvchining real hayotda matnni tushunish, undan foydalanish, axborotni baholash va mustaqil fikr bildirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni sifatida tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **PIRLS 2026 Assessment Frameworks.** TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
2. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). **PIRLS 2021.**
3. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga oid me’yoriy-huquqiy va metodik materiallar.
4. O‘zbekistonning PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotidagi natijalariga oid tahliliy materiallar.

FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PISA, PIRLS VA TIMSS TALABLARI VA AKMEOLOGIK YONDASHUVNING INTEGRATIV IMKONIYATLARI

Xamrayeva Diyora Burxon qizi,
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim
metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) talablari funksional savodxonlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogning kasbiy kamolotini ta’minlovchi akmeologik yondashuvning mazkur talablarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishdagi integrativ imkoniyatlari asoslab beriladi. Muallif baholash dasturlari o‘quvchidan kutayotgan natijalar bevosita pedagogning innovatsion faoliyati darajasiga bog‘liqligini ta’kidlaydi va ularni uyg‘unlashtiruvchi nazariy-metodologik model taklif etadi.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, PISA, PIRLS, TIMSS, akmeologik yondashuv, pedagogning innovatsion faoliyati, kasbiy kamolot, xalqaro baholash.

Аннотация. В статье анализируются требования международных оценочных программ (PISA, PIRLS, TIMSS) с точки зрения развития функциональной грамотности. Обосновываются интегративные возможности акмеологического подхода, направленного на обеспечение профессионального становления педагога, в процессе внедрения требований данных программ в образовательную практику. Автор подчёркивает, что результаты, ожидаемые от учащихся в рамках международных оценочных программ, непосредственно связаны с уровнем инновационной деятельности педагога, и предлагает теоретико-методологическую модель, обеспечивающую их интеграцию.

Ключевые слова: функциональная грамотность, PISA, PIRLS, TIMSS, акмеологический подход, инновационная деятельность педагога, профессиональное становление, международное оценивание.

Abstract. This article analyzes the requirements of international assessment programmes (PISA, PIRLS, TIMSS) from the perspective of developing functional literacy. It substantiates the integrative potential of the acmeological approach, which aims to promote teachers’ professional growth, in implementing the requirements of these programmes in educational practice. The author emphasizes that the learning outcomes expected of students within international assessment programmes are directly related to the level of teachers’ innovative practice and proposes a theoretical and methodological model for integrating these approaches.

Keywords: functional literacy, PISA, PIRLS, TIMSS, acmeological approach, teachers’ innovative practice, professional development, international assessment.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sifati milliy chegaralar doirasida emas, xalqaro taqqoslama o‘lchovlar orqali baholanmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 2000-yildan beri har uch yilda o‘tkaziladigan PISA tadqiqoti 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini aniqlaydi. 2022-yilgi tsiklda unda 80 dan ortiq davlat va hudud ishtirok etgan. Xalqaro ta’lim yutuqlarini baholash assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan o‘tkaziladigan PIRLS (2001-yildan, har besh yilda) to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini, TIMSS (1995-yildan, har to‘rt yilda) esa to‘rtinchi va sakkizinchi sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha tayyorgarligini o‘lchaydi.

Bu dasturlarning umumiy xususiyati shundaki, ular faktik bilimni emas, bilimni yangi vaziyatda qo‘llash, ma’lumotni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini baholaydi. Boshqacha aytganda, ular funksional savodxonlikni o‘lchaydi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan: 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmon bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish va o‘quvchilarning natijalarini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ham ta’lim sifatini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish tamoyilini mustahkamladi.

Biroq tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quv dasturlarini yangilash yoki testlar bilan tanishtirishning o‘zi kifoya qilmaydi. O‘quvchida funksional savodxonlikni shakllantiradigan asosiy omil bu pedagogning o‘zi, uning kasbiy tayyorgarligi va innovatsion faoliyatga qobiliyatidir. Shu sababli maqolaning maqsadi PISA, PIRLS va TIMSS talablarini funksional savodxonlik nuqtai nazaridan umumlashtirish hamda ularni pedagogning kasbiy kamolotiga yo‘naltirilgan akmeologik yondashuv bilan integratsiyalash imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Mazkur masala

muallifning 13.00.01 ixtisosligi bo‘yicha olib borayotgan doktorlik tadqiqoti (pedagoglarning innovatsion pedagogik faoliyatini rivojlantirish texnologiyalarini akmeologik yondashuv asosida takomillashtirish) bilan bevosita bog‘liq.

PISA, PIRLS va TIMSS: mazmuni va funksional savodxonlikka qo‘yadigan talablari

PISA savodxonlikni o‘quvchining o‘z maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarini rivojlantirish hamda jamiyat hayotida ishtirok etish uchun matn, matematik va ilmiy bilimlardan foydalana olish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Baholash oltita darajada olib boriladi, eng yuqori darajalar murakkab vaziyatlarni modellashtirish, turli manbalarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishni talab qiladi. PISA 2022 natijalari pandemiyadan keyingi holatni ham aks ettirdi: OECD o‘rtacha ko‘rsatkichi matematikada 2018-yilga nisbatan taxminan 15 ball, o‘qishda taxminan 10 ball pasaygan. Bu esa bilimlarni mustahkamlashda pedagog rolining ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatdi.

PIRLS o‘qishni ikki maqsad bo‘yicha baholaydi: badiiy tajriba orttirish va axborotni olish hamda ishlatish. Bunda o‘quvchi to‘rt jarayonni bajaradi: matndagi aniq ma’lumotni topish, oddiy xulosa chiqarish, g‘oyalarni talqin qilish va umumlashtirish, matn mazmuni hamda shaklini baholash. PIRLS 2021 tsiklida 50 dan ortiq davlat ishtirok etgan. Muhimi, aynan to‘rtinchi sinfda o‘qishni “o‘rganishdan” , “o‘qib o‘rganishga” o‘tish yakunlanishi taxmin qilinadi, bu davrning poydevori esa maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinfda qo‘yiladi.

TIMSS esa o‘quv dasturi mazmunini bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish kabi uch kognitiv sohada tekshiradi. Matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha topshiriqlar o‘quvchidan formulani yodlashni emas, noma’lum vaziyatda uni asosli tanlay olishni kutadi. TIMSS 2019 tsiklida 60 dan ortiq davlat qatnashgan, 2023-yilgi tsikl natijalari esa 2024-yil oxirida e’lon qilingan.

Uch dastur yaqin turib, bir xil xulosaga olib keladi: funksional savodxonlik (1) faktni bilishdan ko‘ra undan foydalanishni, (2) yagona to‘g‘ri javobdan ko‘ra fikrni asoslashni, (3) fanlararo bog‘liqlikni va (4) o‘z o‘rganishini boshqarishni talab

qiladi. Bu talablar o‘quvchiga emas, avvalo, uni o‘qitayotgan pedagogga qo‘yiladi: topshiriq tuza olish, muammoli vaziyat yarata olish va natijani tahlil qila olish pedagogning kasbiy sifati sanaladi. Maktabgacha ta’lim bosqichida bu OECD ning xalqaro erta o‘rganish va farovonlik tadqiqoti (IELS) hamda O‘zbekistonda qabul qilingan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari doirasida kommunikativ, kognitiv va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni shakllantirishga aylanadi.

Funksional savodxonlik tushunchasining nazariy asoslari

Funksional savodxonlik tushunchasi XX asrning o‘rtalarida YUNESKO doirasida shakllangan. Amerikalik tadqiqotchi U. Grey 1956-yilda YUNESKO uchun tayyorlagan ishida savodxonlikni shaxsning ijtimoiy hayotdagi vazifalarini bajarishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taklif etgan. 1978-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan tavsiyada esa funksional savodli shaxs deganda jamoa va guruh faoliyatida o‘qish, yozish va hisoblashni talab qiladigan barcha vazifalarni bajara oladigan hamda bu ko‘nikmalardan o‘z va jamiyat rivoji uchun foydalanishni davom ettira oladigan kishi tushunilgan.

Postsovet ta’lim fanida bu masalaga A. A. Leontyev va boshqa tadqiqotchilar murojaat qilib, funksional savodxonlikni shaxsning o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitda ma’lumot bilan ishlash, muloqot qilish va qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qilishgan. Zamonaviy PISA konsepsiyasi bu yondashuvni davom ettiradi: u savodxonlikni fan dasturini o‘zlashtirish darajasi emas, balki o‘zlashtirilgan bilimni ishlata olish darajasi sifatida belgilaydi.

Kompetentlik yondashuvi nuqtai nazaridan funksional savodxonlik uchta tarkibiy qismga ega. Birinchisi, mazmun-bilim qismi, ya’ni o‘qish, hisoblash va ilmiy tafakkur asoslari. Ikkinchisi, faoliyat qismi bo‘lib, bilimlarni tahlil qilish, baholash va muammoni hal etishda qo‘llash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Uchinchisi, shaxsiy-qadriyat qismi: o‘rganishga ichki motivatsiya, mas’uliyat va hayot davomida ta’lim olishga tayyorlik. Muallifning fikricha, xalqaro baholash dasturlari asosan ikkinchi qismni o‘lchaydi, uchinchi qism esa, ko‘pincha

o‘lchovdan tashqarida qolsa-da, natijaning barqarorligini belgilaydi. Aynan shu qism pedagogning shaxsiy namunasi va kasbiy qadriyatlari orqali shakllanadi.

Akmeologik yondashuv va pedagogning innovatsion faoliyati

Akmeologiya (yunoncha akme — cho‘qqi, yetuklik) inson kamolotining eng yuqori bosqichiga erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida shakllangan. Atamani 1928-yilda N. A. Rybnikov ilmiy muomalaga kiritgan, keyinchalik B. G. Ananyev, A. A. Bodalev, A. A. Derkach, V. G. Zazikin va boshqalar uni mustaqil yo‘nalish darajasiga yetkazishgan. Bu yondashuvning markazida shaxsning o‘z kasbiy cho‘qqisiga intilishi, o‘z-o‘zini rivojlantirishi va faoliyat natijasi uchun mas’uliyati turadi.

Pedagogik nuqtai nazardan akmeologik yondashuv uch qoidaga tayanadi. Birinchi qoida, pedagogning kasbiy kamolotini tayyor natija emas, uzluksiz jarayon sifatida ko‘rish. Ikkinchi qoida, rivojlanishning ichki manbai sifatida o‘z-o‘zini anglash va refleksiyani asosiy o‘ringa qo‘yish. Uchinchi qoida, kasbiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhitni (akmeologik muhit) yaratish. Bu muhitda pedagog sezgan qiyinchilik muammo emas, o‘sish imkoniyati sifatida qaraladi.

Pedagogning innovatsion faoliyati o‘z mazmuniga ko‘ra yangi g‘oyalarni qabul qilish, ularni amaliyotga moslashtirish va natijani tahlil qilishni qamrab oladi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, qayta tayyorlash kurslarida pedagoglarning katta qismi yangi texnologiyalarni mexanik o‘zlashtirishga moyil bo‘ladi, bu esa ularni bolalar tafakkurini rivojlantirishga emas, tayyor shablonni takrorlashga olib keladi. Akmeologik yondashuv aynan shu bo‘shliqni to‘ldiradi: u texnologiyani o‘rgatishdan oldin pedagogda uni tanlash, o‘zgartirish va natijasini baholash ehtiyojini shakllantiradi. Bu holat doktorlik tadqiqotimizning markaziy g‘oyasi bilan mos tushadi.

Integrativ imkoniyatlar: baholash talablari va akmeologik yondashuv uyg‘unligi

PISA, PIRLS va TIMSS talablari natijaga yo‘naltirilgan, akmeologik yondashuv esa natijaga olib boruvchi shaxsiy-kasbiy jarayonga yo‘naltirilgan. Shu sababli ular bir-

birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi: birinchisi pedagog oldiga qanday natijaga erishish kerakligini qo‘yadi, ikkinchisi bu natijaga pedagog qanday yetib borishini ta’minlaydi. Integratsiyaning mantiqiy asosi mana shu o‘zaro to‘ldirishda yotadi.

Tadqiqot doirasida pedagogning funksional savodxonlikni rivojlantirishga tayyorligini shakllantiruvchi to‘rt komponentli model taklif etiladi:

1. **Motivatsion-qadriyat komponenti.** Pedagog xalqaro baholash talablarini tashqi nazorat sifatida emas, o‘z kasbiy yuksalishi mezoni sifatida qabul qiladi. Akmeologik yondashuvda bu kasbiy cho‘qqiga intilish motivi orqali ta’minlanadi.
2. **Bilim-mazmun komponenti.** Pedagog PISA, PIRLS va TIMSS ning mazmuni, kognitiv sohalari va baholash mezonlarini biladi, o‘z fani va yosh bosqichiga ko‘ra ularni sharhlay oladi.
3. **Faoliyat-texnologik komponenti.** Pedagog funksional savodxonlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar tuzadi, o‘quv vaziyatlarini loyihalaydi, o‘qish va matematik tafakkurni real hayot kontekstiga bog‘laydi. Maktabgacha va boshlang‘ich bosqichda bu savol-javob suhbati, muammoli o‘yin, hikoya asosida mulohaza yuritish kabi shakllarda amalga oshadi.
4. **Refleksiv-baholash komponenti.** Pedagog o‘z faoliyati natijasini bolalarning o‘zlashtirishi bilan taqqoslaydi, kamchiliklarini aniqlab, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzadi.

Bu modelni amalda qo‘llashda qayta tayyorlash kurslari muhim vosita bo‘la oladi. Ularda tinglovchilar xalqaro tadqiqotlarning namunaviy topshiriqlarini tahlil qiladi, ularni o‘z yosh guruhiga moslab o‘zgartiradi, o‘zaro hamkorlikda tahlil qiladi va tajribada sinab ko‘radi. Masofaviy (Zoom) shaklda esa muhokama xonalari, ishchi guruhlar va refleksiv kundaliklar orqali bu jarayonni faollashtirish mumkin. Pedagogning kasbiy o‘sishi bosqichma-bosqich boradi: avval talablarni anglash, keyin ularni amalda sinash, so‘ng o‘z tajribasini umumlashtirib boshqalarga o‘rgatish darajasiga yetish.

Shuni ta’kidlash zarurki, taklif etilgan model hozircha nazariy-metodologik asos sifatida ishlab chiqilgan va uni eksperimental tekshirish tadqiqotning keyingi bosqichi hisoblanadi. Natijalarni baholash mezonlari sifatida pedagogning tayyorlik darajasi, topshiriq tuzish sifati va bolalar o‘zlashtirishidagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilishi mumkin.

Xulosa

PISA, PIRLS va TIMSS talablari tahlili funksional savodxonlikni bilimni qo‘llash, fikrni asoslash va o‘z o‘rganishini boshqarish qobiliyatlari majmui sifatida belgilash mumkinligini ko‘rsatdi. Bu natijalarga erishish uchun faqat o‘quv dasturini yangilash yetarli emas: pedagogning kasbiy tayyorgarligi va innovatsion faoliyati hal qiluvchi shart hisoblanadi. Akmeologik yondashuv pedagogda xalqaro talablarni o‘z kasbiy yuksalishi vazifasi sifatida anglash, ularni amaliyotda sinash va natijani refleksiya qilish ehtiyojini shakllantiradi. Taklif etilgan to‘rt komponentli model (motivatsion-qadriyat, bilim-mazmun, faoliyat-texnologik, refleksiv-baholash) baholash dasturlari talablari va akmeologik yondashuvni yagona jarayonda uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda uning samaradorligini qayta tayyorlash kurslari misolida eksperimental tekshirish ko‘zda tutiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son.
3. OECD (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. Paris: OECD Publishing.
4. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P. va boshq. (2023). PIRLS 2021 International Results in Reading. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
5. Mullis I.V.S., Martin M.O., Foy P., Kelly D.L., Fishbein B. (2020). TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.

6. Gray W.S. (1956). The Teaching of Reading and Writing. Paris: UNESCO.
7. UNESCO (1978). Revised Recommendation concerning the International Standardization of Educational Statistics. Paris: UNESCO.
8. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1968.
9. Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослости: характеристики и условия достижения. Москва: Флинта, 1998.
10. Деркач А.А., Зазыкин В.Г. Акмеология: учебное пособие. Санкт-Петербург: Питер, 2003.

2-SHO‘BA: FILOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

РАЗДЕЛ 2: МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

SECTION 2: METHODS OF USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE STUDENTS' FUNCTIONAL LITERACY WITHIN THE PROCESS OF PHILOLOGICAL EDUCATION

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ РЕЦЕПТИВНЫХ ВИДОВ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ-БИЛИНГВОВ

Ахмедов Баходир Яхшимурадович
доцент кафедры методики преподавания языков
Бухарского областного центра педагогического мастерства

Аннотация: В статье рассматриваются пути формирования и развития рецептивных видов деятельности у детей-билингвов с акцентом на аудирование, рецептивный словарь, смысловое чтение и понимание устного и письменного текста на двух языках.

Ключевые слова: билингвизм, дети-билингвы, рецептивная речевая деятельность, аудирование, чтение, понимание текста, интерференция.

Annotatsiya: Maqolada bilingv bolalarda retseptiv nutqiy faoliyat turlarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor tinglab tushunish, retseptiv lug‘at, mazmunli o‘qish hamda ikki tildagi og‘zaki va yozma matnni tushunishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, bilingv bolalar, retseptiv nutq faoliyati, tinglab tushunish, o‘qish, matnni tushunish, interferensiya.

Abstract: The article examines the ways of forming and developing receptive types of activity in bilingual children, with an emphasis on listening, receptive vocabulary, meaningful reading, and comprehension of oral and written texts in two languages.

Keywords: bilingualism, bilingual children, receptive speech activity, listening, reading, text comprehension, interference.

Введение. Возможность взаимосвязанного обучения родному и русскому как иностранному языкам для формирования двуязычия, а также отсутствие научно обоснованных рекомендаций по данной проблеме, и недостаточная разработанность вопроса в теории и практике преподавания в школах Узбекистана определяют актуальность проблемы.

Процесс становления билингвизма в начальных классах школ с узбекским языком обучения очень труден, так как многие учащиеся начинают изучать русский язык вне языкового окружения. По мнению большинства учёных-методистов (Т. А. Бертагаев, З. У. Блягоз, Е. М. Верещагин, Е. А. Хамраева и др.) процесс развития билингвизма у детей охватывает в основном три ступени:

а) дети-билингвы дошкольного периода;

б) билингвы – младшие школьники;

в) ученики-билингвы старшеклассники.

Это зависит от среды, в которой живёт учащийся, причём дети воспринимают русскую речь чаще всего через посредство нерусских, говорящих на русском языке.

В данной работе постараемся проанализировать процесс формирования и развития рецептивных видов речевой деятельности у учащихся младших классов узбекской школы.

Социолингвистические и психологические исследования детского билингвизма показали, что затруднения в обучении русскому языку учащихся, не владеющих русским языком, связаны с непроизвольным и неустойчивым вниманием младших школьников, мышление которых в первую очередь опирается на родную речь, на конкретные образы. От степени развития мышления и владения вторым языком зависит целый ряд факторов, вносящих существенные изменения в процессе владения вторым языком.

Такими факторами, на наш взгляд, являются: наличие или отсутствие русской речевой среды, близость родного и неродного языков, когда два языка относятся к одной языковой семье и др.

Ученики узбекской школы со 2-класса, как приступают к изучению русского языка, зная очень мало, совершенно не зная или владея очень малым количеством русских слов, и в основном этот список заполняют заимствованные слова. Экспериментальные исследования по результатам проверки запаса русских слов у учащихся второго класса показывают, что они в среднем знают от 40 до 55 слов. У детей из городских и близлежащих к городу школ словарный запас больше, чем у учащихся сельских школ.

Это означает, что современный ребёнок-билингв нередко осваивает два языка не в одинаковых условиях. Один язык может преобладать в семье и повседневном общении, другой - в школе, средствах массовой информации или учебной литературе. Поэтому само наличие двух языков в окружении ребёнка ещё не означает равномерного развития языковой компетенции.

В родном языке ребёнок может свободно понимать устную и письменную речь, в русском же языке из-за разницы в алфавите испытывает трудности при восприятии учебного текста и/(или) недостаточно глубоко понимает связанное высказывание. В рецептивных видах речевой деятельности (аудирование и чтение) главную роль играет понимание услышанного и прочитанного. Именно поэтому рецептивную сторону детского билингвизма нельзя сводить к способности «слышать» или «читать».

В основу аудирования и чтения лежит сложная система смысловой переработки информации: распознавание звуковой или графической формы

слова, определение значения, установление грамматических и логико-смысловых связей, соотнесение новой информации с имеющимся опытом и построение целостной модели содержания текста.

Развитие рецептивных навыков речевой деятельности приобретает особое значение на этапе школьного обучения. Если в дошкольном возрасте понимание речи поддерживается ситуацией, жестом, предметным действием и интонацией взрослого, то в школе ребёнок всё чаще сталкивается с незнакомой речевой ситуацией: объяснением учителя, инструкцией, условием задания, учебным текстом.

Это, естественно, затрудняет формирование и развитие рецептивных видов речевой деятельности учащихся младших классов и способствует падению интереса к изучению русского языка.

В повышении интереса к чтению и аудированию существенную роль играет отбор речевого материала. Усложнение аудирования следует осуществлять не только за счёт увеличения длины текста или количества незнакомых слов. Эффективным подходом, на наш взгляд, является постепенное уменьшение внешней наглядной поддержки, увеличение числа смысловых связей, появление новой информации и необходимость делать вывод на основе услышанного.

Аналогичный принцип действует при обучении чтению. Ранее чтение должно опираться преимущественно на лексику и грамматические конструкции, которые уже доступны ученику в устной форме. Если значительная часть слов текста неизвестна, ученик одновременно должен декодировать графическую форму, устанавливать значение новых слов и удерживать содержание в памяти. Это резко увеличивает познавательную нагрузку. В этой связи продуктивна модель «сначала смысл - затем графическая форма - затем новый смысл»!

Обучение рецептивным видам речевой деятельности следует начать с того, чтобы ученики научились дифференцировать русские звуки, слова, так как звуко-буквенная система русского и узбекского языков не всегда совпадают. Ученики начальных классов очень сильно затрудняются дифференциации звуков [л–л'], [ы–и], [ш–ш'], [ж–ш], [т–т'] и т. д. При чтении большую трудность представляют различия в графических изображениях букв.

Исходя из этого нам представляется более эффективным использование следующих упражнений:

1. Упражнения для формирования навыков узнавания.

а) Различение звуков в словах с целью развития фонематического слуха обучаемого. Работа проводится сначала на знакомых словах, потом в задания включаются новые слова. Необходимо учитывать как трудности самой фонологической системы русского языка, так и интерференцию родного языка обучаемых. Поднимите руки, когда услышите слово со звуком [Ш’] прослушайте слова близкие по звучанию и запишите себе их парами.

б) Определение границ высказывания. Ученики слушают текст и указывают, где заканчивается каждая фраза. Напр.: *Я встаю в 7 часов утра. Делаю зарядку. После умываюсь. Завтракаю и иду в школу. После школы иду домой. Обедаю и выхожу поиграть. После отдыха делаю уроки.*

в) Узнавание, основанное на знании грамматического материала. Определите это кто?, это что. (Уроки 3–4–5–6)

г) Узнавание, основанное на знании лексического материала. Задание: По предъявляемым картинкам назвать слова.

2. Упражнения для формирования и развития оперативной памяти.

б) Предлагается задание на расширение полученной информации.

в) Составление плана прослушанного текста. Задание на сжатие полученной информации.

3. Упражнения для развития умений вероятного прогнозирования. Послушайте текст, прокомментируйте его.

а) Прослушайте и закончите информацию. Я очень люблю праздник Навруз. Мы отмечаем этот праздник в марте. ...

б) После прослушивания текста учащимся можно предложить следующие задания:

– Найти расхождение [?] текста с иллюстрацией
– Выделить из текста определённую информацию
– ответить на вопросы по тексту одним словом (да, нет)
– закончить текст.

Обучение чтению необходимо начать с правильной постановки техники чтения и понимания прочитанного. На начальном этапе учащиеся усваивают звуко-буквенные соответствия и русский алфавит. При формировании техники чтения на русском языке необходимо в первую очередь освоить так называемое «слоговое чтение». Сначала используется чтение вслух, потом чтение про себя.

Чтение вслух помогает овладеть звуковой системой языка. На начальном этапе полезным будет чтение текстов вслух со снятыми трудностями: подготовленное, классное, индивидуальное, хоровое. Задания для такого чтения могут включать в себя:

– Озвучивание слогов, слов, предложений;

– чтение вслух предложений с различной интонацией
– «Карточки мгновенного предъявления». Учащиеся должны быстро прочитать предложенный материал, запомнить и повторить его
– «Снежный ком» - чтение предложений с постепенным увеличением количества компонентов предложения.

На начальном этапе обучения чтению можно выполнять упражнения: 1) способствующие увеличению скорости чтения; 2) способствующие развитию языковой догадки; 3) определяющие понимание прочитанного.

1. Упражнения первого типа могут содержать задания следующего характера:
– прочитать абзац за определённое время;
– найти в тексте предложение (абзац) по данному началу;
– в двух предложениях с одинаковым началом прочитать только новую информацию.

2. Упражнения, способствующие развитию языковой догадки:
– определить значение данных слов;
– определить значение слова по контексту;
– заполнить пропуски данными словами;
– подобрать синоним, антоним к данным словам.

3. Упражнения, определяющие понимание текста:
– найти в тексте ответы на поставленные вопросы;
– озаглавить определённые части текста;
– разделить текст на смысловые части, определить их содержание и т.д.

Выполнение вышеперечисленных упражнений способствует формированию навыков овладения рецептивными видами речевой деятельности у детей-билингвов. Аудирование в данной системе выступает важнейшей основой последующего осмысленного чтения. Ученику легче осмыслить графически представленное слово, если его звуковая форма и значение уже закреплены в устной речи.

Последовательный переход от контекстного аудирования, от знакомой устной лексики к пониманию письменного слова и далее к смысловому чтению позволяет формировать билингвальную рецептивную компетенцию.

Литература:

1. Выготский Л. С. К вопросу о многоязычии в детском возрасте // Умственное развитие детей в процессе обучения: сб. ст. – Л., 1935. – С. 53–72.
2. Хамраева Е. А. Теория и методика обучения детей-билингвов русскому языку. – С.П.: изд. РГПУ им. А. И. Герцена, 2017. – стр. 155.

3. Цейтлин С. Н. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000. – с. 231.
4. «Русский язык» учебник для 2-класса с узбекским языком обучения. Под научной редакцией Е. А. Хамраевой. Т., 2021 г., с. 119.

FILOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Abdulazizova Navro‘zaxon Maxammatovna
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi
metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi
O‘zbek tili fani metodisti

Annotatsiya. Mazkur maqolada filologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda o‘quvchining faqat grammatik qoidalar, adabiy-badiiy asarlar yoki nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishi emas, balki egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi muhimligi asoslangan. Shuningdek, funksional savodxonlikni rivojlantirishda muammoli ta’lim, interfaol metodlar, loyiha texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish, raqamli ta’lim vositalari hamda sun‘iy intellekt asosidagi ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish usullari tahlil qilingan. Maqolada filologik fanlar uchun amaliy topshiriqlar va baholash mezonlari ham taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, filologik ta’lim, ona tili, adabiyot, innovatsion pedagogik texnologiya, interfaol metod, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ kompetensiya, raqamli savodxonlik, media savodxonlik, PISA, amaliy topshiriq.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы эффективного использования инновационных педагогических технологий для повышения функциональной грамотности учащихся в процессе филологического образования. Анализируются возможности развития на уроках родного языка и литературы навыков осознанного чтения, анализа и оценки информации, самостоятельного и критического мышления, устного и письменного выражения мыслей, а также коммуникативной и творческой компетентности учащихся. Раскрываются методические возможности применения проблемного обучения, проектной технологии, метода , цифровых образовательных технологий. Также представлены практические задания и критерии оценивания, направленные на формирование функциональной грамотности учащихся.

Ключевые слова: филологическое образование, функциональная грамотность, инновационные педагогические технологии, родной язык, литература, читательская грамотность, коммуникативная компетентность, креативное мышление, критическое мышление, цифровая грамотность, интерактивные методы, практические задания.

Abstract. This article examines the effective use of innovative pedagogical technologies to improve students’ functional literacy in the process of philological education. It analyzes opportunities for developing students’ reading comprehension, information analysis and evaluation, independent and critical thinking, oral and written communication, as well as communicative and creative competencies in native language and literature lessons. The article highlights the methodological potential of problem-based learning, project-based learning, the case study method, functional literacy are also proposed.

Keywords: philological education, functional literacy, innovative pedagogical technologies, native language, literature, reading literacy communicative competence, creative thinking, critical thinking, digital literacy, interactive methods, practical tasks.

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchiga muayyan hajmdagi bilimlarni berishning o‘zi yetarli emas. Ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchining olgan bilimlarini kundalik hayotda, ijtimoiy munosabatlarda, kasbiy faoliyatda va turli muammoli vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, filologik ta’lim - ona tili, adabiyot va boshqa til-adabiyot yo‘nalishidagi fanlar - funksional savodxonlikni shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Chunki ushbu fanlar orqali o‘quvchi o‘qish, tushunish, fikrlash, tahlil qilish, axborotni saralash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ifodalash, muloqot qilish, dalillash va xulosa chiqarishni o‘rganadi.

Xalqaro baholash yondashuvlarida ham o‘qish savodxonligi oddiygina matnni o‘qish bilan chegaralanmaydi, matnni tushunish, undan foydalanish, baholash, u haqida mulohaza yuritish va maqsadga erishish uchun matn bilan faol ishlashni o‘z ichiga oladi.

Funksional savodxonlik tushunchasi va uning filologik ta’limdagi o‘rni: Funksional savodxonlik - shaxsning egallagan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalaridan hayotiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq foydalana olish qobiliyatidir.

Bunda o‘quvchi: berilgan axborotni tushunadi; kerakli ma’lumotni topadi; muhim va ikkilamchi axborotni ajratadi; o‘z fikrini asoslaydi; matnni tahlil qiladi; turli manbalardan foydalanadi; real vaziyatga mos yechim

ishlab chiqadi; og‘zaki va yozma muloqotga kirishadi. Demak, funksional savodxonlik bilimning amaliy faoliyatga aylanishini anglatadi. Filologik ta’limda funksional savodxonlik quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Yo‘nalish. O‘quvchida shakllanadigan ko‘nikma.

O‘qish savodxonligi- Matnni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish;
Yozma savodxonlik- Fikrni izchil va savodli ifodalash;
Nutqiy savodxonlik - Og‘zaki muloqot va fikrni asoslash.
Axborot savodxonligi- Kerakli ma’lumotni izlash va saralash.
Media savodxonlik- Fakt va fikrni farqlash.
Tanqidiy fikrlash-Dalil va xulosalarni baholash.
Kreativ fikrlash-Yangi g‘oya va matn yaratish

Raqamli savodxonlik. Raqamli vositalardan ta’limiy maqsadda foydalanish;

Asosiy qism. Amaliy ko‘nikma-bu shaxsning o‘z bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatidir. Zamonaviy ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikmalar quyidagi yo‘nalishlarda shakllantiriladi. Muammoni hal qilish; tanqidiy va tahliliy fikrlash; axborot bilan ishlash; Jamoadahamkorlik qilish, ommunikativ kompetensiyalar; Raqamli savodxonlik; Ijodkorlik va innovatsion fikrlash. Mazkur ko‘nikmalar o‘quvchilarnng kelakjakdagi kasbiy faoliytiga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikalari:

1-O‘YIN: – Darslikdagi jadvalni o‘rgan! O‘zbek tilining 4 ta shevasida so‘zlar qanday farq qilishini o‘rganing! Jadvalni diqqat bilan o‘qib, savollarni yeching.

A) DARSLIKDAGI JADVAL – yodlab oling:

t/r	ADABIY TIL	XORAZM	TOSHKENT	NAMANGAN	BUXORO	FARQ BORMI?
1	ona	opa	opa, oyi	aba	nana	
2	ota	aka	ada	deda	dada	
3	chumoli	qarinja	chumoli	chimaliq	mo‘rcha	
4	olcha	chiya	olcha	olvali	gilos	
5	kelyapti	galyatir	kevotti	kelutti	kelopti	
6	kaltalatish	kaltalatish	kaltalatish	parashlatish	taxlatish	

B) SAVOLLARGA JAVOB BERING: 2-O‘YIN: SHEVA BO‘LMACHASI – Moslashtirish! CHAP ustundagi adabiy tildagi so‘zni O‘NG ustundagi sheva shakliga moslang!

A) MOSLASHTIRING (chiziq bilan ulang):

ADABIY TIL	SHEVA

1. narvon	A) galyatir
2. chelak	B) zangi
3. baliq	C) satil
4. beryapti	D) paqir
5. ona	E) boliq
6. ota	F) nana
7. chumoli	G) qarinja
8. olcha	H) gilos
9. kelyapti	I) taxlatish
10. kaltalatish	J) shoti

Bu metod o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, ta’rif berish va tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish ,shuningdek, o‘zbek tilidagi so‘zlarni aniq ifodalash va izohlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

t/r	REKLAMADAGI SHEVA YOZUVI	ADABIY TILDA	QAYSI SHEVA?
1	Eng zo‘r palov – galing mazasini tating!		
2	Yangi mollar kelopti!		
3	Bollar kiyimlari – arzonda!		
4	Nana va dadalar uchun sovg‘alar!		
5	Arzon narxda go‘sht sotladi		
6	Oyi, bizga keling!		

A) SHEVA SO‘ZLARINI ADABIY TILGA O‘GIRING. Ushbu metod orqali siz o'quvchingizni fanga bo'lgan qiziqishni oshirishingiz va diqqatini jamlay olishga yordam berasiz.

2. Ilmiy asoslar. Ilg‘or metodikalarni joriy etishning ilmiy asoslari pedagogika, psixologiya va didaktika fanlari bilan uzviy bog‘liq. Masalan: Konstruktivistik nazariyaga ko‘ra, bilim o‘qituvchidan emas, balki o‘quvchining faol bilish jarayoni orqali shakllanadi. Motivatsion yondashuv o‘quvchilarning ichki ehtiyojlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa

o‘quvchilarni bilim emas, balki uni amalda qo‘llash qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalaydi.

3. Amaliy jihatlar. Amaliyotda ilg‘or metodikalarni tatbiq etish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur: o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va uzluksiz malaka oshirishi; raqamli vositalar (interaktiv taxtalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt yordamchi dasturlar)dan samarali foydalanish;dars jarayonini loyihalashda differensial yondashuvni qo‘llash; refleksiya (o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish) mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish.

4. Natijalar va kutilayotgan samaralar. Ilg‘or metodikalar o‘quvchilarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi: mustaqil va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi; o‘z fikrini asoslab ayta olish qobiliyati;jamoada ishlash madaniyati;texnologik savodxonlik va raqamli ko‘nikmalarni egallash.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida ilg‘or metodikalarni qo‘llash nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki kelajak avlodni mustaqil fikrlaydigan, innovatsion tafakkurga ega, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois o‘qituvchilar uchun doimiy o‘rganish, tajriba almashish va amaliyotga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari.
2. Xolbekov X., G‘ulomova D. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlari. – Toshkent, 2021.
4 Asqarov, Sh. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
5. Karimov, A. (2019). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent: “Fan va Ta’lim” nashriyoti.
6. Tursunov, R. (2021). Interaktiv ta’lim va pedagogik metodikalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ И ЛИТЕРАТУР К ФОРМИРОВАНИЮФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ: СОДЕРЖАНИЕ ВУЗОВСКОЙ ПРОГРАММЫ

Г. Т. Абдулхакимова
Преподаватель русского языка, ассистент кафедры "Специальности, социально-гуманитарные и точные науки" Андижанского факультета Ташкентского государственного экономического университета
Республика Узбекистан,Андижан
С. П. Анзорова
Эксперт проекта «Класс! (Зур!)», Ректор ЧОУ ВО «Институт специальной педагогики и психологии» к. п. н., доцент, специалист по учебно-методической работе отдела сопровождения дополнительных программ, РГПУ им. А. И. Герцена. Российская Федерация,Санкт-Петербург

Аннотация. В статье раскрывается содержание подготовки будущих учителей филологического профиля к формированию функциональной грамотности (ФГ) учащихся. На примере профилей «русский язык и литература» и «узбекский язык и литература» обоснованы предметные и методические компоненты вузовской программы, обеспечивающие готовность педагога проектировать и оценивать задания на читательскую грамотность, коммуникативные и языковые компетенции. Предложена модель интеграции ФГ в предметные и методические курсы, а также в педагогическую практику. Приведены примеры учебных заданий, ориентированных на контексты реальной жизни и сопоставимые с форматами международных исследований (PISA). Статья адресована разработчикам образовательных программ, преподавателям педагогических вузов и методистам.

Ключевые слова: функциональная грамотность, читательская грамотность, подготовка учителя, русский язык, узбекский язык, методика преподавания литературы, формирующее оценивание.

Annotatasiya. Ushbu maqolada bo'lajak filologiya o'qituvchilarini talabalarning funktsional savodxonligini (FL) rivojlantirish bo'yicha tayyorlash masalalari ko'rib chiqiladi. "Rus tili va adabiyoti" va "O'zbek tili va adabiyoti" profillaridan misollar sifatida foydalanib, u universitet o'quv dasturining fan va metodologik tarkibiy qismlarini asoslaydi, o'qituvchilarning o'qish savodxonligi, kommunikativ va lingvistik kompetentsiyalar bo'yicha topshiriqlarni loyihalash va baholashga tayyorligini ta'minlaydi. FLni fan va metodologik kurslarga, shuningdek, o'qitish amaliyotiga integratsiya qilish modeli taklif etiladi. Haqiqiy hayot sharoitlariga yo'naltirilgan va xalqaro baholash formatlari (PISA) bilan taqqoslanadigan o'quv topshiriqlariga misollar keltirilgan. Ushbu maqola ta'lim dasturlarini ishlab chiquvchilar, pedagogika universitetlari o'qituvchilari va metodistlarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, o'qish savodxonligi, o'qituvchilarni tayyorlash, rus tili, o'zbek tili, adabiyotni o'qitish usullari, shakllantiruvchi baholash

Abstract. This article explores the content of teacher training for future philology educators, focusing on how they can foster functional literacy (FL) in their students. Using the specializations of "Russian Language and Literature" and "Uzbek Language and Literature" as examples, the study outlines the subject-specific and methodological components of a university curriculum designed to equip educators with the ability to develop and assess tasks related to reading literacy, as well as communicative and linguistic competencies. A model is proposed for integrating functional literacy into subject-specific and methodological courses, as well as into pedagogical practicums. The article provides examples of learning tasks rooted in real-life contexts, modeled after the formats used in international assessments (such as PISA). It is intended for curriculum developers, faculty at pedagogical universities, and educational methodologists.

Keywords: functional literacy, reading literacy, teacher training, Russian language, Uzbek language, literature teaching methodology, formative assessment

Введение. Для филолога функциональная грамотность — это не «добавка» к предмету, а ядро профессиональной деятельности: умение работать с текстом, извлекать смысл, критически оценивать информацию, аргументировать, создавать собственные тексты в разных регистрах и жанрах. Читательская грамотность (ключевой компонент ФГ по PISA) — базовая компетенция, которую учитель языка и литературы формирует системно. Специфика профилей. У будущих учителей русского и узбекского языков есть общие задачи (развитие читательской грамотности, коммуникативных навыков, языковой рефлексии, но и существенные различия разный языковой строй, разные литературные каноны, разный социокультурный контекст. Программа вуза должна учитывать обе линии: универсальные компетенции и предметно-языковую специфику.

Проблема. В практике подготовки филологов ФГ часто сводится к «грамотности письма» (орфография, пунктуация) и анализу художественных текстов по шаблону. Это не развивает способность применять знания в новых контекстах.

Цель статьи — предложить содержательные решения по включению подготовки к формированию ФГ в программу подготовки учителей русского и узбекского языков и литератур.

Теоретические основания. Читательская грамотность как ядро ФГ для филолога. По определению PISA, читательская грамотность способность понимать, использовать, оценивать тексты, размышлять о них, чтобы достигать своих целей, расширять знания и участвовать в социальной жизни.

Для учителя языка это означает владение стратегиями смыслового чтения, работы с разными типами текстов (художественные, информационные, публицистические, цифровые), а также инструментами оценки понимания.

Компетенции учителя филолога:

- Когнитивные: знание типологии текстов, стратегий чтения, критериев оценивания читательской грамотности; понимание связи между языковыми средствами и смыслом.
- Деятельностные: умение проектировать задания, интегрировать ФГ в урок языка и литературы, организовывать дискуссии и письменные работы, направленные на применение знаний.
- Рефлексивные: способность анализировать результаты учащихся, корректировать задания, рефлексировать собственную практику.

Сопоставительный аспект (русский и узбекский языки). Важно формировать у студентов способность сопоставлять языковые явления и культурные контексты. Например, работа с параллельными текстами на русском и узбекском (новость и её перевод, рекламный текст, инструкция) позволяет развивать критическое мышление и языковую рефлексию.

Модель интеграции ФГ в программу подготовки

Предметные модули. Методика преподавания русского языка. Добавить темы: «Проектирование заданий на читательскую грамотность», «Работа с нехудожественными текстами на уроке русского языка», «Языковая рефлексия и метаязык в развитии ФГ». Пример задания для студентов: «Разработайте 3 задания к одному тексту (новость, инструкция, пост в соцсетях): на поиск информации, на интерпретацию, на оценку достоверности. Укажите проверяемые умения и критерии оценивания».

Методика преподавания узбекского языка. Акцент на работу с текстами в разных функциональных стилях (официально-деловой, публицистический, художественный), развитие навыков критического чтения на родном языке.
Пример: «Создайте мини-кейс: учащиеся анализируют два текста на одну тему (например, объявление о вакансии на узбекском и русском языках) и выявляют различия в формулировках, тональности, культурных кодах».

Методика преподавания литературы. Сместить фокус с «анализа по плану» на работу с текстом как источником смыслов и аргументов. Пример: «К рассказу А. П. Чехова “Хамелеон” предложите задание на интерпретацию: “Представьте, что вы редактор газеты 1880-х годов. Напишите короткую заметку о происшествии на базарной площади, используя факты из текста, но с другой авторской позицией. Объясните, какие детали вы изменили и почему”».

Для узбекской литературы — аналогичные задания с опорой на национальные тексты (например, по произведениям Абдуллы Кадыри, Гафура Гуляма).

Методические и психолого-педагогические модули.

• Педагогические технологии: блок по формирующему оцениванию и работе с заданиями на ФГ. Студенты учатся разрабатывать рубрики и дескрипторы, проводить разбор типичных ошибок.

• Психология образования: темы по мотивации чтения, работе с разноуровневыми группами, поддержке учащихся, для которых язык обучения неродной.

Практики. Во время педагогической практики студент проводит 2–3 урока с заданиями на ФГ, собирает данные об ошибках учащихся, организует разбор и корректирует задания. Обязателен рефлексивный отчёт: что сработало, что нет, как изменится следующий урок.

Междисциплинарные и цифровые модули.

• Цифровая дидактика: работа с цифровыми текстами (соцсети, блоги, подкасты), инструменты для проверки достоверности информации, создание интерактивных заданий (Learning Apps, Google, Forms с ветвлениями).

• Сопоставительная лингвистика и культурология: анализ параллельных текстов, работа с переводами, выявление культурных кодов.

Таблица:1

Примеры распределения компетенций по модулям для филологов

Модуль	Компетенции	Примеры заданий
Методика преподавания русского языка	Проектирование заданий на читательскую грамотность	Создать 3 задания к новостному тексту: на поиск фактов, наинтерпретацию позиции автора, на оценку надёжности источника
Методика преподавания узбекского языка	Работа с функциональными стилями, критическое чтение	Проанализировать официальный документ и егопублицистическую трактовку; выявить расхождения иобъяснить их
Методика преподавания литературы	Интерпретация и аргументация	Написать альтернативную концовку рассказа и обосновать её сопорой на текст и исторический контекст
Педагогические технологии	Формирующее оценивание	Разработать критерии и дескрипторы для письменного заданияна интерпретацию текста
Практика	Рефлексия и анализ	Провести урок, собрать данные об ошибках, провести разбор, скорректировать задание

Примеры учебных заданий и практик. Задание 1 (проектирование, русский язык). Студентам предлагается взять текст инструкции (например, «Как пользоваться банкоматом») и создать 3 задания:

1. На поиск и извлечение информации («Найдите в тексте шаги, которые нужно выполнить перед вводом PIN-кода»).
2. На интерпретацию («Объясните, почему в инструкции используется повелительное наклонение и короткие предложения»).

3. На оценку и применение («Представьте, что инструкция предназначена для пожилых людей. Какие изменения вы бы внесли?»).

Задание 2 (анализ, узбекский язык). Даётся короткий текст на узбекском языке (например, анонс мероприятия) и его перевод на русский. Студенты должны:

- Выявить различия в формулировках и тональности.
- Определить, какие культурные коды отражены в оригинале и как они «теряются» или трансформируются в переводе.
- Предложить способ адаптации текста для другой целевой аудитории (например, для школьников).

Задание 3 (литература, сопоставительный аспект). К двум коротким рассказам (русскому и узбекскому) на общую тему (например, «первая любовь», «конфликт поколений») студенты разрабатывают единый набор вопросов, направленных на выявление универсальных смыслов и культурных различий. Это развивает способность работать с межкультурным контекстом — важный компонент глобальных компетенций.

Практика. Во время практики студент проводит мини-исследование: предлагает учащимся задание на интерпретацию текста, фиксирует типы ошибок (неверное понимание подтекста, игнорирование контекста, поверхностная аргументация), проводит разбор в классе и корректирует задание для повторного использования.

Оценка результатов и критерии готовности. Готовность будущего учителя филолога к формированию ФГ можно оценивать по следующим критериям:

- Качество заданий. Задания соответствуют структуре ФГ (контекст, комплексность, ориентация на реальные задачи), учитывают специфику языка и литературы.
- Умение объяснять и аргументировать. Студент может обосновать выбор заданий и методов оценивания, показать связь между языковыми средствами и смыслами.
- Рефлексия. Студент анализирует результаты и предлагает улучшения, учитывает культурный и языковой контекст.
- Практический опыт. Наличие проведённых уроков с заданиями на ФГ и обратной связью.

Инструменты оценки:

- Портфолио заданий и рефлексивных отчётов.
- Кейс-задания (анализ реальных работ учащихся с типичными ошибками).
- Видеоуроки с разбором (студент комментирует свои решения и объясняет, как он будет корректировать урок).
- Экспертные оценки преподавателей и наставников.

Заключение. Подготовка будущих учителей русского и узбекского языков и литератур к формированию функциональной грамотности должна быть системной и интегрированной в программу вуза. Это требует не только

добавления новых курсов, но и пересмотра содержания существующих модулей, усиления практической направленности и развития рефлексивных навыков. Предложенная модель позволяет сформировать у студентов целостное понимание ФГ и готовность к её реализации в школе, учитывая как универсальные, так и предметно-языковые особенности. Дальнейшие исследования могут быть направлены на оценку эффективности модели и разработку методических рекомендаций для преподавателей педвузов.

Список литературы:

1. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего образования (ФГОС ВО) по направлению подготовки «Педагогическое образование».
1. Профессиональный стандарт «Педагог».
2. Материалы исследования PISA (OECD).
3. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: методология, теория, практика.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата современного образования.
5. Статьи из журналов «Педагогика», «Русский язык в школе» по теме функциональной грамотности и подготовки педагогов.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MATN BILAN ISHLASH YO‘LLARI

Bakayeva Rayxon Izatovna
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish masalalari va uning pedagogik ahamiyati atroflicha yoritilgan. Muallif globallashuv davrida xalqaro baholash dasturlari talablariga mos ravishda matn bilan ishlashni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini asoslab beradi. Ishda dars jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va bilimni amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini shakllantiruvchi o‘nta asosiy yo‘nalish ko‘rsatilgan. Shuningdek, matnni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, grafik organayzerlar hamda interfaol metodlardan samarali foydalanish usullari amaliy misollar bilan tushuntirilgan. Xulosada darslarda passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylangan o‘quvchining muloqot va ijodiy ko‘nikmalari muvaffaqiyatli rivojlanishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, PISA, PIRLS va TIMSS tadqiqotlari, grafik organayzer, refleksiya , ijodiy topshiriqlar.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются вопросы повышения функциональной грамотности учащихся на уроках родного языка и литературы и ее педагогическое значение. Автор обосновывает необходимость организации работы с текстом на основе современных подходов в соответствии с требованиями международных программ оценки в эпоху глобализации. В работе выделены десять основных областей, формирующих компетенции учащихся в критическом мышлении, систематизации информации и практическом применении знаний в ходе урока. Также на практических примерах объясняются методы связи текста с жизненными ситуациями, эффективное использование графических органайзеров и интерактивных методов. В заключении подчеркивается успешное развитие коммуникативных и творческих навыков учащегося, который превратился из пассивного слушателя в активного участника уроков.

Ключевые слова: функциональная грамотность, исследования PISA, PIRLS и TIMSS, графический органайзер, рефлексия, творческие задания.

Abstract. This article provides a comprehensive examination of enhancing students' functional literacy during native language and literature lessons, as well as the pedagogical significance of this skill. The author substantiates the need to structure work with texts using modern approaches that align with the requirements of international assessment programs in the era of globalization. The study identifies ten key areas that foster student competencies in critical thinking, information systematization, and the practical application of knowledge during lessons. Practical examples are used to illustrate methods for connecting texts to real-life situations and for the effective use of graphic organizers and interactive techniques. In conclusion, the article highlights the successful development of students' communicative and creative skills as they transition from passive listeners to active lesson participants.

Keywords: functional literacy, PISA, PIRLS, and TIMSS assessments, graphic organizer, reflection, creative tasks.

Kirish. Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Funksional savodxonlik o‘quvchining matnni o‘qish, tushunish, tahlil qilish, baholash va undagi axborotni kundalik hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyasini anglatadi. Shu sababli darslarda matn bilan ishlash jarayoni faqat

o‘qish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchini fikrlashga, munosabat bildirishga va muammoni hal etishga yo‘naltirilishi zarur.

Bugungi globallashuv va raqamli axborot makonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA, PIRLS va TIMSS tadqiqotlari ham o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, axborotni baholash va real hayotiy vaziyatlarda undan foydalanish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu sababli ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda matn bilan ishlash jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Asosiy qism. *Funksional savodxonlikni rivojlantirishda matn bilan ishlashning pedagogik ahamiyati.* Matn bilan ishlash funksional savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. O‘quvchi matn orqali axborotni qabul qiladi, uni qayta ishlaydi, tahlil qiladi va amaliyotda qo‘llaydi. Ona tili va adabiyot darslarida matn bilan ishlash quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi: o‘qib tushunish kompetensiyasi, axborotni tahlil qilish va saralash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot va fikr bildirish, yozma nutqni shakllantirish. Shuningdek, badiiy va ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlash o‘quvchilarning estetik didi, dunyoqarashi va hayotiy tajribasini boyitadi.

I.R.Galperin matn xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tar ekan, unga quyidagicha ta’rif beradi: „ Matn bu yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir [3]. Bundan tashqari matnga “…umumiy mavzu, asosiy g‘oya bilan bog‘langan va semantik to‘liqlikka ega bo‘lgan ketma-ket joylashtirilgan jumlalar yoki paragraflar” deb ham ta’rif berilgan [6].

E.Balashova hamda I.Yerofeyeva o‘z tadqiqotida [2] matn ustida ishlashning bosqichlari, o‘qish savodxonligini shakllantirishga yordam beradigan samarali usullar, darsda ishlash uchun matn tanlashda parchaning axborot bloki o‘quvchining yosh xususiyatlariga mos kelishi muhim ekanligi, darsda tanlangan vazifalar o‘quvchilarning hissiyotlariga, qiziqishi, mavzu bo‘yicha ko‘proq narsani o‘rganish istagini uyg‘otadigan tarzda tanlanishi, tahlil va vazifa uchun tanlangan matn o‘quvchilarining hayotiy manfaatlar va maqsadga muvofiq kelishi kerakligini ta’kidlaydi.

Quyida ona tili va adabiyot darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi matn bilan ishlashning asosiy yo‘llari keltiriladi (1-jadval).

1-jadval

MATN BILAN ISHLASHNING ASOSIY YO‘LLARI		
1.	Matnni mazmunan tushunishga yo‘naltirilgan o‘qish	Bu usul o‘quvchining matn mazmunini anglash, asosiy va ikkinchi darajali g‘oyalarni ajrata olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.
2	Matnni tahlil qilish	Matnni tahlil qilish o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.
3	Matndan axborot izlash va saralash	Funksional savodxonlikning muhim jihatlaridan biri matndan kerakli ma’lumotni topishdir.
4	Matnni hayotiy vaziyat bilan bog‘lash	O‘quvchilar matndagi g‘oyalarni real hayot bilan bog‘laydi.
5	Matn asosida savol-javob tashkil etish	Savollar o‘quvchilarning fikrlash darajasiga qarab tuziladi.
6	Matnni qayta ishlash	O‘quvchilar matnni turli shakllarda qayta ifodalaydilar.
7	Grafik organayzerlardan foydalanish	Matn mazmunini vizual shaklda ifodalash funksional savodxonlikni rivojlantiradi
8	Interfaol metodlar asosida matn bilan ishlash	Insert, keys- stadi, sinkveyn, syujetli jadval, Ha, yo‘q jadvali
9	Turli janrdagi matnlar bilan ishlash	Funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun faqat badiiy matnlar emas, balki turli janrdagi matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq.
10	Refleksiya va ijodiy topshiriqlar	Dars yakunida o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalaydilar.

Matnni mazmunan tushunishga yo‘naltirilgan o‘qish. Bu usulda quyidagilar amalga oshiriladi: matnni ovoz chiqarib va ichida o‘qish; asosiy fikrni aniqlash; matnga sarlavha tanlash; reja tuzish. Natijada o‘quvchi matnning umumiy mazmunini tushunadi va muallif g‘oyasini anglaydi.

Matnni tahlil qilish. Bunda matn mavzusi va g‘oyasi, qahramonlar xarakteri, sabab–oqibat munosabatlari, muallif pozitsiyasi, badiiy tasvir vositalari tahlil qilinadi. O‘quvchilar tahlil jarayonida matnning mazmuni chuqur o‘zlashtiriladi.

Matndan axborot izlash va saralash. Funksional savodxonlikda matndan kerakli axborotni topish muhim jihat bo‘lib, bu katta hajmdagi matnli ma'lumotlar ichidan kerakli, dolzarb va aniq faktlarni topish hamda ularni ma'lum mezonlar

asosida guruhlash jarayonidir. Bunda muhim faktlarni ajratish, kalit so‘zlarni topish, ya’ni matn ichidan asosiy mavzuga doir tayanch so‘z va atamalarni ajratish, jadvalni matn asosida to‘ldirish, diagramma yoki sxema tuzish kabi topshiriqlar bajartiriladi. Topshiriqlarni bajarish davomida o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanadi.

Matnni hayotiy vaziyat bilan bog‘lash. Matnni hayotiy vaziyat bilan bog‘lash — bu o‘qilgan ma’lumotni shunchaki yodlab qolish emas, balki uni real hayotdagi muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va shaxsiy tajriba orttirish uchun qo‘llash sanaladi. Masalan , “Siz qahramon o‘rnida bo‘lsangiz nima qilardingiz?” kabi savollarga javob berish, matndagi muammoning bugungi kundagi ko‘rinishini izohlash, hayotdan o‘xshash vaziyatlarni keltirish. Matnni hayotiy vaziyat bilan bog‘lashga asoslangan topshiriqlar yordamida o‘quvchilarda bilimni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

Matn asosida savol-javob tashkil etish. Bu o‘qilgan materialni naqadar chuqur tushunganlikni tekshirish, xotirani mustahkamlash va ma’lumotni tahlil qilishning eng samarali usulidir. Bu usul ta’limda, imtihonlarga tayyorlanishda va jamoaviy muhokamalarda keng qo‘llaniladi.natijada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiya rivojlanadi.

Matnni qayta ishlash. Bu tayyor matnning mazmunini saqlagan holda uning shaklini, hajmini, uslubini o‘zgartirish yoki uni tushunarliroq holatga keltirish jarayonidir. Bu jarayonda matnni qisqartirib bayon qilish, kengaytirib yozish, matnni dialogga aylantirish, hikoyani boshqa qahramon nomidan yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan bajariladi hamda ularning yozma va og‘zaki nutq rivojlanadi.

Grafik organayzerlardan foydalanish. Grafik organayzerlar — bu ma’lumotlar, g‘oyalar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rgazmali (vizual) tarzda ko‘rsatib beruvchi vositalardir. Ular matnni tahlil qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish va yodda saqlash jarayonini bir necha barobar osonlashtiradi. Darsda klaster, Venn diagrammasi, konseptual jadval, Baliq skeleti, aqliy xarita, T-sxema kabi grafik organayzerlar yordamida mavzularni tushuntirish orqali tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanish aniqlanadi va tizimli fikrlash rivojlanadi.

Y.Derbeyeva [4] darslarda funksional savodxonlikni shakllantirish uchun o‘yin va tanqidiy fikrlash texnologiyalarining bir nechta usullaridan foydalanganda o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayishi, kognitiv faollikning rivojlanishi, amaliy faoliyatda turli ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlanishi, shuningdek, o‘quvchilarni rag‘batlantirishning samarali vositasi ekanligini ta’kidlaydi.

Interfaol metodlar asosida matn bilan ishlash. Bu o‘quvchi yoki kitobxonni shunchaki passiv kuzatuvchi emas, balki matn tahlilida faol ishtirokchiga

aylantiradigan zamonaviy yondashuvdir. Bu usullar darslarni qiziqarli qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ma’lumotni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Y.N. Kerjayeva o‘z ishida [5] ona tili va adabiyot darslarida 8-11-sinf o‘quvchilarining funksional savodxonligini shakllantirishda yangi texnologiyalar va an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalangan holda amaliyotga yo‘naltirilgan vazifalarni qo‘llash, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish uchun mashqlar, matnlar, individual topshiriqlarni tanlash haqida aytib o‘tgan. O‘quvchilarning funksional savodxonligi darajasini sezilarli darajada oshiradigan vazifalarni tanlashga harakat qilish, o‘quvchiga barcha bilim va qobiliyatlarini namoyish qilish imkonini berish kerakligi ta’kidlangan.

Turli janrdagi matnlar bilan ishlash. Bu matnning turiga (badiiy, ilmiy-ommabop, rasmiy, publitsistik, infografika va reklama matnlari) qarab, unga turlicha yondashish, axborotni o‘qish va tahlil qilish strategiyasini to‘g‘ri tanlash mahoratidir. Har bir janrning o‘ziga xos tili, maqsadi va tarkibiy tuzilishi bor. Natijada o‘quvchi turli uslubdagi matnlarni tushunish va tahlil qilishni o‘rganadi.

Refleksiya va ijodiy topshiriqlar. Bunda matn bilan ishlashning yakuniy va eng yuqori bosqichi bo‘lib, o‘qilgan ma’lumotni shaxsiy tajribadan o‘tkazish, chuqur mulohaza qilish hamda olingan bilimlar asosida yangi mahsulot (g‘oya, matn, loyiha) yaratishga xizmat qiladi. Refleksiya — bu o‘quvchining "Men nima o‘rgandim?", "Bu ma’lumot menga qanday ta’sir qildi?" va "Bu bilimlarni qayerda qo‘llayman?" kabi savollar atrofida o‘z-o‘zi bilan hisobot olib borish jarayonidir. Masalan, esse yozish, “Men bugun nimani bildim?” refleksiyasi, matn bo‘yicha xulosa yozish, qahramonga maktub yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilarda o‘z fikrini asosli va ravon ifodalash kompetensiyasi shakllantiradi.

D.B.Urinbayeva o‘z ishida [1] o‘qish savodxonligining darajalari, samarali o‘qish texnologiyasi, izohli o‘qish usuli, ifodali o‘qish, o‘yin harakatli ijodiy topshiriqlar, grafik illustrasiya, “Muallif bilan suhbat” texnologiyasi haqida fikr yuritadi.

Xulosa. Ona tili va adabiyot darslarida matn bilan ishlash o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Matnni tushunish, tahlil qilish, axborotni saralash, hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, interfaol metodlardan foydalanish va ijodiy topshiriqlarni tashkil etish o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash, kommunikativ va amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchini matnni passiv o‘quvchi emas, balki mazmunni anglaydigan, baholaydigan va hayotda qo‘llay oladigan funksional savodxon shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Urinbayeva D. Funksional savodxonlikning asosi o’qish savodxonligidir // «Fan, ta’lim va amaliyot integrasiyasi» ilmiy-metodik jurnali. 2022. № 4 (3). C. 204–212.
2. Балашова Е., Ерофеева И. Читательская грамотность как компонент функциональной грамотности // Достижения науки и образования. 2022. № 83 (3). С. 29–31.
3. Григолия Я. А. Активное обучение как одно из направлений конструктивизма // Гуманизация образования. 2017. (3). С. 97–101.
4. Дербеева Е. Формирование функциональной грамотности на уроках русского языка // МБОУ Покровская СОШ [Электронный ресурс]. URL: https://www.1urok.ru/categories/14/articles/21775
5. Кержаева Е. Развитие функциональной грамотности обучающихся на уроках русского языка в старших классах с помощью практико-ориентированных заданий // МОУ СОШ № 9 г. Надыма [Электронный ресурс]. URL: https://www.1urok.ru/categories/14/articles/21775
6. Садченко В. Текст объект лингвистической семиотики // Вестник Челябинского государсвенного университета. 2009. № 143 (5). С. 104–111.

RAQAMLI TEXNOLOGIYA VOSITASIDA ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Bakayeva Rayxon Izatovna
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ortiqova Aziza Baxriddin qizi
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Buxoro Xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatasiya: ushbu maqolada raqamli texnologiyalar vositasida ona tili darslarida o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishning ahamiyati, ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni, funksional savodxonlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish omillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, raqamli texnologiyalar, interaktiv darslar, vizual va interaktiv materiallar, forumlar va onlayn –platformalar, raqamli savodxonlik.

Abstract: this article discusses the importance of forming functional literacy in students in native language lessons using digital technologies, the role of digital technologies in education, and the factors of effective use of digital technologies in the development of functional literacy.

Keywords: functional literacy, digital technologies, interactive lessons, visual and interactive materials, forums and online platforms, digital literacy.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность формирования функциональной грамотности у учащихся на уроках родного языка с использованием цифровых технологий, роль цифровых технологий в образовании и факторы эффективного использования цифровых технологий в развитии функциональной грамотности.

Ключевые слова: функциональная грамотность, цифровые технологии, интерактивные уроки, визуальные и интерактивные материалы, форумы и онлайн-платформы, цифровая грамотность.

Kirish. Funksional savodxonlik hozirgi vaqtda axborot jamiyatiga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan muhim jihatdir. U axborotni qayta ishlash, kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish, dasturlash ko‘nikmalariga

ega bo‘lish, ma’lumotlarni tahlil qilish va texnologik yechimlarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, ijodkorligini faollashtirish, shuningdek, do‘stona muhitda jamoaviy ishlarni tashkil etish imkonini beradi. Funksional savodli kishi tanqidiy fikrladi, ya’ni axborotni tahlil qiladi, uning ishonchliligini baholay oladi, asosli xulosalar chiqaradi. Shuningdek, ijodkorlikni talab qiladigan muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, axborot bilan ishlash va boshqalar bilan o‘zaro munosabatda kirishimli bo‘ladi.

Bundan tashqari, hamma bilan muloqot qilish, ma’lumot almashish, loyihalarda hamkorlik qilishda muloqot qilish qobiliyatini namoyon eta oladi hamda olingan bilimlarni kundalik hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda qo‘llay oladi. Funksional savodxonlik kasbi va faoliyat sohasidan qat’i nazar, har bir inson uchun muhimdir. Bu insonga maktabda, ishda va umuman hayotda muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Axborot doimiy ravishda yangilanib, o‘zgarib turadigan bugungi dunyoda funksional savodxonlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu odamlarga yangi sharoitlarga moslashish va paydo bo‘lgan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengish, dunyodagi voqea va hodisalar haqida ko‘proq ma'lumot va bilimga ega bo‘lish, yangi sharoit va talablarga tezda moslashish, ko‘proq ijodkor bo‘lish imkonini beradi.

Bugungi kunga kelib o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish ta’limning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun turli metod va yondashuvlar, shuningdek raqamli texnologiyalar ham zarur hisoblanadi.

Asosiy qism. Raqamli texnologiya (RT)- bu raqamli formatda axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq ko‘plab turli texnologiyalarni o‘z ichiga olgan atama hisoblanadi. RT kompyuter texnologiyalari va tegishli dasturiy ta'minotdan foydalangan holda yaratilgan mahsulotlar bo‘lib, hozirda jamiyat farovonligining o‘sishini belgilovchi asosiy resurslardan biri sifatida qaralmoqda. RTlar hayotning turli sohalarida, jumladan, ta’lim, biznes, sog‘liqni saqlash kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. RT hayotimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, ishlash, o‘qish, muloqot qilish va dam olish uslubimizni o‘zgartirdi.

Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar ijtimoiy qadriyatlarni o'zgartirdi va odamni onlayn identifikatsiyalashga olib keldi. O'z ta'lim yo'nalishini mustaqil ravishda belgilaydigan maktab bitiruvchisi uchun dastlabki qadam qo'yildi. Bu holat o’quvchilarni ish va o'qishni uyg'unlashtirgan holda shaxsiy rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilashiga undaydi[1].

RT rivojlanishda davom etmoqda va har kuni yangi texnologiyalar paydo bo‘lyapti. Shuningdek, biznes sohasida jarayonlarni avtomatlashtirish,

ma'lumotlarni tahlil qilish va mijozlar bilan o‘zaro aloqa qilishda, sog‘liqni saqlashda kasalliklarga tashxis qo‘yish, jarrohlik amaliyotlarini bajarish va bemorlarga yordam ko‘rsatishda, kino va san’at sohasida filmlar va musiqalarni yaratish uchun ishlatilmoqda. Ta’limda esa interaktiv darslarni tayyorlashda, turli tadqiqotlarni o‘tkazishda hamda muammoli topshiriqlar yechimini topishda qo‘llanilmoqda[2]. Bu shuni anglatadiki, ushbu texnologiyalar kelajakda hayotimizda tobora muhim o‘rinni egallab boradi hamda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar beradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari ko‘rgazmalilikni ta’minlaydigan elektron tizimlardan foydalanishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etishning innovatsion usuli bo‘lib, RTlarni qo‘llashdan maqsad o‘quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishdir [3]. O‘zaro kognitiv-kommunikativ ta’sirni kuchaytiradigan internet aloqasida veb-forum, audio, video konferensiyalar, chat, blog, elektron pochta, elektron doska va boshqa raqamli qurilmalarning vazifasi muhimdir. O‘qituvchilarimiz bugungi kun o‘quvchisi bilan ish olib borar ekan, ularning fikrlashi, o‘zini tutishi, dunyoqarashi oldingi avlodnikidan farq qilishini tan olishadi.

Professor Galina Soldatovaning fikricha, bolalik fenomenining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri raqamlashtirish, internet ijtimoiylashuvning muhim agentiga aylanib, oila va maktab bilan raqobatlashmoqda. So‘nggi 6 yil ichida kattalar va bolalar o‘rtasida internetdan foydalanish intensivligi sezilarli darajada oshgan: o‘smirlar kuniga taxminan 6 -9 soat internetda vaqtini o‘tkazadi. Shuning uchun, zamonaviy bolalar haqiqatni onlayn va oflaynga ajratmaydilar. Funksional savodxonlik bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har ikki o‘smirdan biri aralash haqiqatda yashaydi. Koronavirus pandemiyasi davrida ta’lim onlayn tarzga o‘tgan, bu esa o‘rtadagi chegaralarni butunlay aralashtirib yubordi. O‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati paydo bo‘ldi.

Funksional savodxonlikning kichik turlaridan biri – olingan bilimlarni hayotda qo‘llash qobiliyatidir. Bugungi kunda bolalarning raqamli kompetentsiyasi har qachongidan ham muhimroq va o‘qituvchi nazorati ostidagi barcha raqamli vositalar u yoki bu tarzda shunga qaratilgan. O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda eng muhimi o‘qituvchilarni tayyorlashdir.

EdCrunch konferensiyasi tashkilotchisi Nurlan Kiyasov kelajak o‘qituvchisini doimiy ravishda yangi narsalarni o‘rganadigan mutaxassis, yetakchi, bolalarning onlayn resurslarga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi raqamli jamiyat fuqarosi, tahlilchi, muloqot madaniyatini modellashtiruvchi fasilitator,

o‘quv dizayni bo‘yicha mutaxassis va hamkorlikda o‘rganish tashkilotchisi sifatida ta’riflab berdi[4].

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi texnologiyadan foydalanadi, ota-onalar va o‘quvchilar o‘z qiziqishlarini bildiradilar. Raqamli resurslardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirishini, ongini rag‘batlantirib, kashf qilish orqali o‘rganishga, mustaqil ta’lim olishga imkon beryapti. Natijada masofaviy ta’lim muhitida turli onlayn platformalarda o‘qitishga mo‘ljallangan elektron darsliklarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Bugungi kun o‘quvchisi raqamli avlod sifatida o‘zining ijodkorligi, kreativligi bilan ajralib turadi hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia majmualari, elektron doskalar bilan jihozlangan sinf xonalarida interaktiv metodlarga asoslangan zamonaviy darsliklardan foydalanib bilim olishni istaydi[5]. Ta’lim sohasida RTlarni rivojlantirish kasbiy ta’limning yetakchi maqsadi bo‘lib, bu o‘quvchilarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lish yo‘lida raqobatbardosh fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonida RTlardan foydalanish hisoblanadi [6]. Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o‘zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so‘nggi ilm-fan yutuqlaridan, o‘zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tishi talab etiladi.

Pedagogika fanlari nomzodi Slepuxin A o‘z maqolasida [7] RTlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va asoslash uchun funksional savodxonlikning barcha tarkibiy qismlarini farqlash; muayyan fan sohasi bo‘yicha mavzuni aniqlash; funksional savodxonlikning barcha tarkibiy qismlarini shakllantirish, rivojlantirish, diagnostika qilishga qaratilgan o‘quv vazifalarini shakllantirish; didaktik maqsadga muvofiq RTlarni tanlash; ta'lim natijasining tarkibiy qismiga erishish uchun RTlarning muvofiqligi yoki nomuvofiqligini va didaktik salohiyati to‘g‘risida xulosani shakllantirish; o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan raqamli ta’lim muhiti elementlarini sozlash yoki mustaqil ravishda boyitish uchun asos bo‘ladigan RTlarning didaktik salohiyatining uch darajali gradatsiyasini aniqlash kerakligi ta’kidlangan[8].

Ta'lim sohasida RTlarning afzalliklari ta'lim jarayonini individuallashtirish, shaxsga yo‘naltirilganligidadir. Ta'lim yangi bosqichga ko‘tarilayotgan bir vaqtda nafaqat dastur talablarini bajarish, balki o‘quvchilarning qiziqishlari va individual qobiliyatlarini hisobga olish ham ustuvor vazifadir. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va bilimlarni qulay tuzilishga ega va tushunarli shaklda olish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bundan tashqari qog‘ozbozlikni minimallashtirish, o‘quvchilarning ta’lim

olishini soddalashtirish, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’limni bilimlarning ochiqligi bilan tavsiflangan sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi[9].

Shuningdek, funksional savodxonlikni RTlar yordamida rivojlantirishning afzal jihatlari shundaki, vizual va interaktiv materiallar yordamida o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qilish, o‘quvchilar faoliyati natijasiga ko‘ra ma’lumotlarni to‘plash, qaytar aloqa orqali ularni tezkor baholash natijasida o‘z malakalarini oshirishga yordam berish, raqamli platformalar yordamida mustaqil bilim olish, forumlar va onlayn –platformalar vositasida yozma va og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z kontentini, jumladan o‘z blogini, ijtimoiy medialarni yaratish, turli mamlakatlardagi o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlik va tajriba almashinuvni osonlashtirishga imkon beradi[10].

Internetda turli ma'lumotlarning mavjudligi natijasida o‘quvchilar axborot hajmining ko‘pligidan muhim va ishonchli ma’lumotlarni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishi, barcha o‘quvchilarda ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoni yo‘qligi, raqamli tafovut ba'zi o‘quvchilar uchun savodxonlikni o‘rganish imkoniyatlarini cheklashi, texnologiya tez- tez yangilanib borishi, o‘quv materiallari esa aksincha eskirib qolishi RT ning kamchiliklari sifatida qayd etilmoqda. Bu vaziyatlarda o‘qituvchilar o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash va axborotni baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari, o‘quv dasturlarini doimiy ravishda yangilab turishlariga to‘g‘ri keladi.

Funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun RTlardan samarali foydalanish uchun quyidagi omillarni hisobga olish kerak bo‘ladi:

RTdan funksional savodxonlikni shakllantirish bilan bog‘liq aniq ta'lim muammolarini hal qilish maqsadida foydalanish;

RT o‘quvchilar uchun ochiq va tushunarli bo‘lishi va ularning yoshi va individual xususiyatlariga muvofiq kelishi;

Xulosa. Pedagog kadrlar o‘quv jarayonida RTdan foydalanish bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Raqamli savodxonlik ta’limida asosiy e’tiborni o‘qish, yozish va ma’lumotni tahlil qilishning asosiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratgan holda innovatsion usullardan foydalanishni muvozanatlashdir. Umuman olganda, RT o‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular o‘quvchilarga axborot olish, muammolarni hal qilish, bir-biri bilan hamkorlik qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Faqat pedagoglar o‘qitish jarayonida RTlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi, ularning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петрова Н.П., Бондарева Г.А. Цифровизация и цифровые технологии в образовании // Мир науки, культуры, образования. 2019. Vol. 5, № 78. P. 353–355.
2. Xasanova F.X. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik- pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 2023. P. 714–716.
3. Вишневская Г.В. Технологический подход в педагогическом процессе высшей профессиональной школы // Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. 2008. Vol. 6, № 10. P. 235–239.
4. Киясов Н. Нурлан Киясов о том, почему пандемия ускорила будущее до настоящего и как ИИ изменит образование [Electronic resource] // Новости образования. 2024. P. 1–5. URL: https://weproject.media/articles/detail/nurlan-kiyasov-o-tom-pochemu-pandemiya-uskorila-budushchee-do-nastoyashchego-i-kak-ii-izmenit-obrazo/.
5. Mirzahmedova N.D. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘llanilishi // Orient. Renaiss. Innov. Educ. Nat. Soc. Sci. 2022. Vol. 2, № 5/2. P. 538–545.
6. Блинов В.И. Образовательный процесс в профессиональном образовании: учебное пособие для вузов. Москва: Издательство Юрайт, 2018. 314 p.
7. Слепухин А.В. Методология выделения дидактического потенциала цифровых технологий для формирования функциональной грамотности у обучающихся средней школы // Педагогическое образование в России. 2023. Vol. 1. P. 54–64.
8. Siddiqov I. Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni tashkiliy-pedagogik komponentini takomillashtirish // Yangi O`zbekistonda ilm fanning so‘nggi yutuqlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. 2023. P. 634–641.
9. Ваганова О.И. et al. Цифровые технологии в образовательном пространстве // Балтийский гуманитарный журнал. 2020. Vol. 9, № 2 (31). P. 53–56.
10. Absalamova G. S. Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati // Acad. Res. Educ. Sci. 2023. Vol. 4. P. 106–116.

ПОТЕНЦИАЛ ШКОЛ ВЫХОДНОГО ДНЯ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ СООТЕЧЕСТВЕННИКОВ ВНЕ РУССКОЯЗЫЧНОЙ СРЕДЫ

А. В. Белозерцева
Universiti Kuala Lumpur,
Malaysian Institute of Aviation Technology (UniKL MIAT);
Центр русского языка и культуры «Дача», Куала-Лумпур, Малайзия

Аннотация. Рассматривается потенциал школ выходного дня в поддержке русского языка детей соотечественников в условиях многоязычия. На основе сопоставления современных российских исследований обучения билингвов, малайзийских работ о сохранении наследуемых языков и концепции функциональной грамотности предложена практико-ориентированная модель дополнительного образования. На материале описания образовательной деятельности центра «Дача» в Куала-Лумпуре выделены образовательный, коммуникативный и социокультурный компоненты модели, возможные задания и способы оценки результатов. Статья представляет теоретико-практический анализ; количественные данные об эффективности модели не заявляются.

Ключевые слова: русский язык за рубежом; билингвизм; наследуемый язык; школа выходного дня; функциональная грамотность;

Abstract. The paper examines weekend schools as settings for maintaining Russian among children of compatriots in multilingual contexts. Drawing on recent Russian research on bilingual education, Malaysian studies of heritage-language maintenance and the functional-literacy framework, it proposes an activity-based model of supplementary education. The Russian Language Hub Dacha in Kuala Lumpur serves as a practice-based illustration. Educational, communicative and sociocultural functions, sample learning tasks and assessment approaches are discussed. No experimental effectiveness claims are made.

Keywords: Russian abroad; bilingual children; weekend schools; functional literacy.

Annotatasiya. Ushbu maqolada dam olish kunlari maktablarining ko'p tilli muhitda vatandosh bolalarning rus tilini qo'llab-quvvatlash salohiyati ko'rib chiqiladi. Ikki tilli ta'lim bo'yicha zamonaviy rus tadqiqotlari, meros tillarini saqlash bo'yicha Malayziya tadqiqotlari va funktsional savodxonlik konsepsiyasini taqqoslash asosida qo'shimcha ta'limning amaliyotga yo'naltirilgan modeli taklif qilingan. Kuala-Lumpurdagi Dacha markazining ta'lim faoliyati tavsifidan foydalangan holda, maqolada modelning ta'lim, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy

komponentlari, potentsial vazifalar va natijalarni baholash usullari ta'kidlangan. Ushbu maqolada nazariy va amaliy tahlil keltirilgan; modelning samaradorligi bo'yicha miqdoriy ma'lumotlar keltirilmagan.

Kalit so'zlar: rus tili xorijda; ikki tillilik; meros tili; dam olish kunlari maktabi; funksional savodxonlik.

Введение. В многоязычных семьях за рубежом русский язык может сохраняться в повседневном общении, но уступать языку школы в чтении, письме и общении со сверстниками. В результате ребёнок нередко понимает бытовую речь лучше, чем способен самостоятельно создавать развёрнутые тексты или обсуждать отвлечённые темы. Для таких детей дополнительное образование важно не только как источник систематических знаний, но и как возможность пользоваться русским языком за пределами семьи.

Малайзия представляет показательный контекст: малайский язык является национальным, английский широко применяется в образовании и профессиональном общении, а китайские языки, тамильский и другие языки функционируют в различных сообществах. При этом не следует переносить выводы исследований местных этнолингвистических групп на русскоязычные семьи без оговорок: различаются миграционные истории, статус языков и образовательные траектории.

Цель статьи — обосновать возможности школы выходного дня для развития русского языка и элементов функциональной грамотности у детей соотечественников. Методы: сравнительный анализ научных публикаций 2023–2025 гг., концептуальное моделирование и описательное обобщение практики Центра русского языка и культуры «Дача». Материал не включает интервью, тестирование или контрольные группы, поэтому выводы о результативности формулируются как педагогические предположения, требующие проверки.

1. Наследуемый язык: российская и малайзийская исследовательские перспективы

В исследованиях наследуемого языка (heritage language) внимание уделяется асимметрии между языком семейного общения и доминирующим языком общества. В малайзийском исследовании A. L. Abd Rahman и M. H. Abd Rashid [1], основанном на интервью с десятью иностранцами, показаны затруднения в поддержании родного языка при ограниченном доступе к институциональным площадкам. Выборка невелика и не позволяет делать статистические обобщения, однако постановка проблемы применима к обсуждению дополнительных языковых школ.

S. L. Ding [2] на материале полуструктурированных интервью с 52 семьями хакка в Восточной Малайзии анализирует, как семейная языковая политика связана с властными отношениями, ощущением безопасности и реальными возможностями выбора языка. Исследование касается другой языковой группы, но методологически важно: сохранение языка нельзя свести к индивидуальному желанию родителей. На него влияют доступность сообщества, престиж языка и повседневные коммуникативные практики.

Российские работы уточняют педагогическую сторону вопроса. Л. А. Гранкина [3] обосновывает лингвокультурологический, компетентностный и коммуникативно-деятельностный принципы работы с неоднородными по владению русским языком группами. При этом её исследование посвящено начальной школе с русским языком обучения; для школы выходного дня эти принципы требуют адаптации к меньшему объёму часов и отсутствию русскоязычной среды в остальную часть недели.

Е. А. Никитенко [4] рассматривает культуроведческое содержание учебника для билингвальных детей в русской школе за рубежом. Работа позволяет обосновать включение культурных сюжетов не как факультативного украшения занятий, а как смысловой опоры языкового обучения. Т. В. Завер [5] исследует трудности лексико-грамматического развития русско-английских билингвов 5–7 лет. Возрастная специфика исследования ограничивает прямое применение его выводов к подросткам, однако подчёркивает необходимость дифференциации задач.

О. Б. Чеснокова и С. М. Чурбанова [6] в обзоре билингвальной домашней литературной среды выделяют значение интерактивных практик семьи: совместного чтения, обсуждения и участия ребёнка в деятельности с текстами. Следовательно, школа выходного дня эффективнее концептуализируется не как замена семейной среды, а как её партнёр, расширяющий репертуар речевых ситуаций.

2. От языкового урока к образовательной среде

Предлагаемая модель включает три взаимодополняющих компонента. Образовательный компонент предполагает планомерную работу с устной речью, чтением, письмом и языковыми средствами. Коммуникативный — создание ситуаций общения со сверстниками на русском языке. Социокультурный — знакомство с литературой, историей, традициями и современными культурными практиками. В отличие от обычного языкового курса школа выходного дня может объединять эти компоненты в рамках общего проекта или события.

Практический смысл такого объединения заключается в переходе от репродуктивного упражнения к осмысленному действию. Ребёнок не только учит лексику, но и использует её, чтобы объяснить правила игры, согласовать роли в постановке, описать изделие, обсудить рассказ или представить собственный результат. Эти ситуации особенно значимы, когда вне занятий русский язык используется редко.

Для разновозрастных и разноуровневых групп полезны задания с единым сюжетом, но различной языковой сложностью: один учащийся подписывает изображения, другой составляет связное описание, третий аргументирует выбор или готовит краткое выступление. Оценка в этом случае соотносится с исходным языковым уровнем ребёнка, а не с единым требованием ко всем участникам.

3. Опыт центра «Дача» в Куала-Лумпуре

Центр русского языка и культуры «Дача», работающий в Куала-Лумпуре с 2021 года, организует занятия для детей разных возрастов. Наряду с русским языком, чтением и развитием речи в образовательную программу входят творческие и интеллектуальные направления, включая театр, художественные занятия, шахматы и математику. Этот пример рассматривается как описание практики, а не как эмпирическое доказательство эффективности конкретной методики.

В рамках творческого занятия русский язык может применяться при понимании инструкции, выборе материалов, согласовании последовательности действий и устной презентации результата. Театральная работа создаёт условия для диалога, интонационной выразительности и понимания речевой роли. Чтение и обсуждение художественных произведений позволяют переходить от узнавания слов к интерпретации мотивов героев и аргументации собственного мнения. В шахматах и интеллектуальных играх языковая цель может состоять в объяснении хода решения, сравнении вариантов и уточнении правил.

Литературные конкурсы, включая «Живую классику», и культурные мероприятия способны расширять аудиторию русскоязычного высказывания: ребёнок готовит текст не только для преподавателя, но и для других детей и взрослых. Вместе с тем участие в мероприятии само по себе не свидетельствует о приросте языковых навыков; для такого вывода нужны повторные измерения.

Наиболее перспективным в описанной практике представляется не разнообразие кружков как таковое, а их объединение общей языковой задачей.

Для этого педагогам важно заранее определять, какие слова, речевые действия и виды текстов будут освоены в рамках каждого занятия.

4. Функциональная грамотность: содержание и измерение

Концептуальная рамка PISA 2022 [7] трактует читательскую грамотность шире техники чтения: она включает понимание, использование, оценку и осмысление текстов ради достижения целей. Прямое применение инструментария PISA к младшим детям в школах выходного дня некорректно, однако принцип практического использования информации может быть адаптирован к возрасту и уровню русского языка.

В качестве заданий могут выступать: чтение объявления о мероприятии и извлечение времени и условий участия; понимание рецепта или инструкции с последующим выполнением; сравнение двух кратких описаний и обоснование выбора; составление сообщения сверстнику; обсуждение рассказа с опорой на фрагменты текста. Такие задания соединяют языковую работу с реальной целью и допускают уровневую адаптацию.

Для педагогической диагностики предлагается фиксировать четыре показателя: (1) понимание явной информации, (2) способность делать простые выводы, (3) самостоятельность устного или письменного высказывания, (4) уместность использования языка для решения задачи. Оценивание возможно по короткой рубрике с описанными уровнями и повторением аналогичных заданий в начале и конце учебного периода. Это предложение является методической рекомендацией, а не апробированной шкалой.

5. Ограничения и направления развития

Главное структурное ограничение школы выходного дня — небольшое число контактных часов. Поэтому важно обеспечивать преемственность между занятиями, предлагать посильные семейные практики и не превращать дополнительное обучение в чрезмерную нагрузку. Второе ограничение — различие языковых профилей учащихся: понимание речи, чтение и письмо могут развиваться неравномерно. Здесь необходимы первичная диагностика и гибкое распределение заданий.

Третья проблема связана с мотивацией подростков. Участие в проектах, обсуждение современной культуры и возможность создавать собственные тексты и медиапродукты могут сделать русский язык инструментом самовыражения. Наконец, для педагогов актуален дефицит адаптированных материалов для детей, которые получают основное образование на другом языке. Перспективны обмен разработками между школами разных стран и сотрудничество с российскими методическими центрами.

В дальнейших исследованиях целесообразно сопоставлять динамику навыков чтения и речевой активности, учитывать языковую политику семьи и фиксировать посещаемость, возраст и уровень владения русским. Подобный дизайн позволил бы перейти от описания перспективной практики к проверяемым выводам о её результативности.

Заключение. Сопоставление российских и малайзийских исследований позволяет рассматривать сохранение русского языка за рубежом как задачу, выходящую за рамки семейного общения и традиционного языкового урока.

Школа выходного дня может дополнять домашнюю языковую среду, предоставляя ребёнку регулярные ситуации общения, чтения, творчества и совместного решения задач.

На примере центра «Дача» предложена практико-ориентированная модель, соединяющая образовательный, коммуникативный и социокультурный компоненты. Её потенциальная ценность заключается в том, что русский язык становится не только объектом изучения, но и средством деятельности. Для доказательной оценки эффективности необходимы дальнейшие исследования с диагностикой языковых результатов и учётом семейного контекста.

Список литературы:

1. Abd Rahman A. L., Abd Rashid M. H. Language maintenance in Malaysia: Identifying the challenges faced by the foreigners in preserving and maintaining their native languages // ESTEEM Journal of Social Sciences and Humanities. 2023. Vol. 7, no. 2. P. 156–168. URL: https://ir.uitm.edu.my/id/eprint/120016/

2. Ding S. L. Rethinking marginalization and heritage language vitality in multilingual families // International Journal of Bilingualism. 2023. URL: https://knova.um.edu.my/research_publications_2021_2025/3569/

3. Гранкина Л. А. Методические принципы обучения русскому языку детей-билингвов в начальной школе // Полилингвиальность и транскультурные практики. 2023. Т. 20, № 4. С. 708–717.

4. Никитенко Е. А. Методическая организация культуроведческого компонента учебника русского языка для билингвальных детей (русская школа за рубежом) // Наука и школа. 2024. № 2. URL: https://sci.ru/articles/31319

5. Завер Т. В. Обучение русскому языку детей-билингвов, владеющих русским и английским языками: преодоление трудностей развития лексико-грамматического строя в старшем дошкольном возрасте // Педагогика. Вопросы теории и практики. 2025. Т. 10, № 11. URL: https://www.gramota.net/article/ped20250216/fulltext

6. Чеснокова О. Б., Чурбанова С. М. Роль домашней литературной среды в развитии билингвальной грамотности у детей дошкольного и младшего школьного возраста // Психолого-педагогические исследования. 2025. Т. 17, № 4. С. 23–39.
7. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023.
8. Железнякова Е. А. Моделирование системы обучения русскому языку как неродному детей младшего школьного возраста из семей мигрантов // Русистика. 2023. Т. 21, № 4. С. 474–487.

FUNKSIONAL SAVODXONLIKDA PISA NING ROLI

Baqoyeva Mubina.
Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning 2025 yilgi PISA xalqaro baholash tadqiqotidagi ishtiroki va 2026 yil 8 sentyabrda e’lon qilingan natijalari tahlil qilinadi. Maqolada mazkur o‘sishning ta’lim jarayoni uchun ahamiyati, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, o‘quvchining qiziqishi, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, PISA natijalarini faqat reyting sifatida emas, balki milliy ta’lim sifatini takomillashtirish uchun diagnostik vosita sifatida qabul qilish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: PISA, xalqaro baholash, funksional savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, sun’iy intellekt, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотатsiя. В статье анализируется участие Узбекистана в международном исследовании PISA 2025 года и его результаты, опубликованные 8 сентября 2026 года. Рассматривается значение достигнутого прогресса для образовательного процесса, анализируются аспекты, связанные с функциональной грамотностью, критическим мышлением, учебной мотиваций учащихся, навыками саморегуляции, использованием цифровых технологий и искусственного интеллекта. Также обосновывается необходимость рассматривать результаты PISA не только как рейтинг, но и как диагностический инструмент для совершенствования качества национального образования.

Ключевые слова: PISA, международное оценивание, функциональная грамотность, естественно-научная грамотность, читательская грамотность,

математическая грамотность, критическое мышление, цифровая грамотность, искусственный интеллект, компетентностный подход.

Abstract. This article analyzes Uzbekistan’s participation in the 2025 PISA international assessment and the results announced on September 8, 2026. It examines the significance of these outcomes for the educational process, covering aspects such as functional literacy, critical thinking, student engagement, self-regulation skills, and the use of digital technologies and artificial intelligence. Furthermore, the article argues that PISA results should be viewed not merely as a ranking, but as a diagnostic tool for improving the quality of national education.

Keywords: PISA, international assessment, functional literacy, scientific literacy, reading literacy, mathematical literacy, critical thinking, digital literacy, artificial intelligence, competency-based approach.

Kirish. 2026-yil 8-sentabr O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim sanalardan biri bo‘ldi. Shu kuni OECD tomonidan PISA-2025 xalqaro baholash tadqiqoti natijalari rasman e’lon qilindi. O‘zbekiston PISA tadqiqotida ikkinchi marta ishtirok etdi. 2025- yilgi tadqiqotda mamlakatning 233 ta maktabidan 8652 nafar 15 yoshli o‘quvchi ishtirok etgan bo‘lib, ular O‘zbekistondagi taxminan 558 ming nafar 15 yoshli o‘quvchini ifodalagan. Natijalar orasida eng e’tiborli ko‘rsatkich — tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha natijaning 2022-yildagi 355 balldan 2025-yilda 438 ballga ko‘tarilganidir. Bu — 83 ballik o‘sish demakdir. 2022-yilda O‘zbekiston tabiiy fanlar bo‘yicha 80-o‘rinda turgan bo‘lsa, PISA-2025da 91 ta davlat va ta’lim tizimi orasida 48-o‘rinni egalladi. Bu natijaga shunchaki statistik raqam sifatida qarash to‘g‘ri emas. U ta’limdagi yondashuvlar o‘zgarayotganini, o‘quvchining bilimni qo‘llash, tahlil qilish va ilmiy fikrlash qobiliyatiga e’tibor kuchayib borayotganini ko‘rsatuvchi muhim signaldir.

PISA bizga nimani o‘rgatyapti? PISAning eng muhim sabog‘i shundaki, o‘quvchining bilim darajasini faqat darslikdagi ma’lumotni qanchalik eslab qolgani bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Masalan,o‘quvchi: suvning qaynash haroratini bilishi mumkin; fotosintez ta’rifini yoddan aytishi mumkin; ekologik muammolar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin. Ammo funksional savodxonlik quyidagi savoldan boshlanadi: «Sen bu bilimdan real hayotda qanday foydalana olasan?» Masalan: «Ikki xil suv namunasi olindi. Birinchi namunada suv rangi o‘zgargan, ikkinchisida esa tiniq. Faqat tashqi ko‘rinishga qarab qaysi suv ichish uchun xavfsiz ekanini aytish mumkinmi? Javobingizni asoslang.». Bu yerda o‘quvchi tayyor bilimni takrorlamaydi. U: kuzatadi → savol qo‘yadi → dalil izlaydi → taxmin qiladi → xulosa chiqaradi. Mana shu — funksional savodxonlik.

PISA yondashuvini har bir fanga olib kirish mumkin PISA — faqat tabiiy fanlar yoki matematika o‘qituvchisining vazifasi emas. Ona tili darsida matn beriladi va : «Muallifning asosiy fikri nima? U o‘z fikrini qanday dalillar bilan asoslagan? Siz muallif fikriga qo‘shilasizmi?» degan savollar beriladi.

Matematikada: «Oila oylik daromadining ma’lum qismini oziq-ovqat, transport, kommunal xizmatlar va ta’limga sarflaydi. Xarajatlarning qaysi qismini optimallashtirish mumkin?».

Geografiyada: «Ikki hududning iqlim ko‘rsatkichlari berilgan. Qaysi hududda qishloq xo‘jaligining muayyan turini rivojlantirish maqsadga muvofiq? Fikringizni dalillang.»

Tarixda: «Bir tarixiy voqeaga oid ikki xil manba berilgan. Ulardagi ma’lumotlarni solishtiring. Qaysi manba ishonchliroq? Nima uchun?». Shunday qilib, PISA alohida fan emas — darsni loyihalash usuliga aylanadi. O‘zbekistonning 83 ballik o‘sishi — quvonarli natija. Ammo eng katta yutuq PISAda yuqori o‘rinni egallash emas. Eng katta yutuq — PISAda sinayotgan ko‘nikmalarni hayotda qo‘llay oladigan avlodni tarbiyalashdir.

O‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar :

PISA-2025 natijalari o‘qituvchi uchun faqat statistik ko‘rsatkich emas, balki darsni loyihalashda yangi yondashuvlarni kuchaytirish zaruratini ko‘rsatuvchi muhim metodik manba hisoblanadi. Shu sababli xalqaro baholash dasturlari talablarini alohida test mashg‘ulotlari sifatida emas, balki har kungi darsning tabiiy qismi sifatida joriy etish maqsadga muvofiq.

1. Har bir darsda kamida bitta hayotiy vaziyatli topshiriq bering. O‘quvchiga faqat «qoidani qo‘lla» emas, balki: **«Bu bilim menga hayotda qaerda kerak bo‘ladi?»** degan savolni his qildirish zarur. Masalan, matematikada foiz mavzusi o‘tilayotganda: «Do‘konda mahsulot narxi 20% ga arzonlashtirildi. Birinchi mahsulot 150 000 so‘m, ikkinchisi 180 000 so‘m turadi. Qaysi mahsulotni chegirmadan keyin sotib olish iqtisodiy jihatdan maqbul? Javobingizni hisob-kitob bilan asoslang». Bunday topshiriq matematik bilimni moliyaviy qaror bilan bog‘laydi.

2. «***Nima?»dan ko‘ra «Nima uchun?» va «Qanday?» savollarini ko‘paytiring.*** Oddiy savol: «Fotosintez nima?» Funksional savodxonlikka yo‘naltirilgan savol: «Nima uchun xonadagi o‘simlik uzoq vaqt yorug‘liksiz qolsa, uning tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi? Javobingizni ilmiy dalil bilan tushuntiring». Shunday savollar o‘quvchini yodlashdan mulohaza yuritishga olib o‘tadi. Darsda savollarning quyidagi nisbatini saqlash maqsadga muvofiq: 30% — bilimni aniqlash; 30% — tushunish va qo‘llash; 40% — tahlil, asoslash va xulosa chiqarish.

3. Matnni «o‘qish» emas, «bilan ishlash»ni o‘rgating. Ayniqsa, ona tili, adabiyot, tarix, biologiya, geografiya kabi fanlarda matn asosida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- asosiy fikrni aniqlash;
- kalit so‘zlarni topish;
- fakt va fikrni ajratish;
- muallif maqsadini aniqlash;
- ikki ma’lumotni taqqoslash;
- matndagi dalillarni topish;
- yashirin ma’noni anglash;
- matn asosida xulosa chiqarish.

Masalan: «Muallifning fikriga qo‘shilasizmi? Javobingizni matndan olingan ikkita dalil bilan asoslang». Bu topshiriq bir vaqtning o‘zida o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash va yozma nutqni rivojlantiradi.

4. Bir savolga bir nechta to‘g‘ri yondashuv imkonini yarating. Har doim yagona algoritm bo‘yicha yechiladigan topshiriqlar o‘quvchining ijodiy va tanqidiy fikrlash imkoniyatini cheklashi mumkin. Shuning uchun ba’zi topshiriqlarda: «Masalani kamida ikki usulda yeching» yoki «Muammoni hal qilishning ikkita variantini taklif qiling. Qaysi biri samaraliroq deb o‘ylaysiz?» kabi talablardan foydalanish mumkin. Bu usul o‘quvchini nafaqat yechim topishga, balki yechimlarni baholashga o‘rgatadi.

5. «Javobingiz nima?»dan keyin albatta «Dalilingiz nima?»ni so‘rang. Bu juda oddiy, ammo kuchli metodik usul. O‘quvchi: «Menimcha, birinchi variant to‘g‘ri». O‘qituvchi: «Nima uchun?» O‘quvchi: «Chunki u qulayroq». O‘qituvchi: «Qaysi ma’lumot bu fikringizni tasdiqlaydi?» Shu tarzda o‘quvchi fikr va dalil o‘rtasidagi farqni anglay boshlaydi. Funksional savodxonlikning muhim belgisi: FIKR → DALIL → ASOS → XULOSA.

6. «PISA daftari» yoki «Funksional savodxonlik papkasi» tashkil eting. Har bir o‘quvchida alohida daftar yoki elektron papka bo‘lishi mumkin.Unda:

- hayotiy masalalar;
- matn tahlillari;
- jadval va diagrammalar;
- muammoli vaziyatlar;
- mustaqil xulosalar;
- loyiha ishlari;
- xatolar tahlili;
- refleksiya natijalari
- jamlab boriladi.

Bu papka o‘quvchining rivojlanish dinamikasini ko‘rish imkonini beradi.

7. «Xato — muammo emas, tahlil ob’ekti» tamoyilidan foydalaning. O‘quvchining xatosini faqat bahoni pasaytirish vositasi sifatida qabul qilmaslik kerak. Masalan: «Nima uchun bunday javob berding?», «Qaysi bosqichda xatolik yuzaga keldi?», «Agar yana bir marta bajarsang, nimani o‘zgartirasan?» degan savollar orqali xatoni o‘quv jarayonining bir qismiga aylantirish mumkin. Bu usul o‘quvchida metakognitiv ko‘nikma, ya’ni o‘z fikrlashini kuzatish va boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

8. Darsda «ma’lumot ortiqchaligi»dan ham foydalaning. PISA uslubidagi qiziqarli topshiriqlardan biri — o‘quvchiga kerakli va keraksiz ma’lumotlarni aralash holda berish. Masalan: «Oila dam olish uchun sayohat rejalashtirmoqda. Ularga yo‘l masofasi, transport narxi, mehmonxona narxi, ob-havo ma’lumoti va boshqa ma’lumotlar berilgan. Sayohat uchun eng maqbul variantni tanlang». O‘quvchi barcha ma’lumotni bir xil darajada muhim deb qabul qilmasdan, kerakli axborotni saralashni o‘rganadi. Bu raqamli axborot muhitida juda muhim ko‘nikma.

9. Diagramma, jadval va infografikalarni ko‘paytiring. Zamonaviy inson axborotni faqat matn shaklida qabul qilmaydi, shuning uchun darslarda: matn + jadval + diagramma + rasm + grafik uyg‘unligidan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchiga: «Diagrammadagi eng muhim tendensiyani aniqlang», «Qaysi ma’lumot siz uchun kutilmagan bo‘ldi?», «Diagramma asosida qanday xulosa qilish mumkin?» kabi savollar berish mumkin.

10. Sun’iy intellektdan «tayyor javob» uchun emas, «fikrlash hamkori» sifatida foydalaning. Zamonaviy o‘quvchi sun’iy intellekt bilan baribir to‘qnash keladi. Shuning uchun uni ta’lim jarayonidan butunlay chetlatishdan ko‘ra, undan mas’uliyatli va tanqidiy foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Masalan, o‘qituvchi: «AIdan ushbu savolga javob oling. Endi uning javobidagi 2 ta kuchli va 2 ta zaif jihatni aniqlang» yoki «AI bergan javobni darslik va boshqa ishonchli manba bilan taqqoslang» degan topshiriq berishi mumkin. Bunda o‘quvchi: AI javobi → tekshirish → taqqoslash → baholash → o‘z xulosasi zanjiri asosida ishlaydi. Shunda sun’iy intellekt o‘quvchining o‘rniga fikrlamaydi, aksincha uning tanqidiy fikrlashini rag‘batlantiradi.

11. Har bir darsni «3 ta asosiy savol» bilan yakunlang. Dars oxirida o‘quvchiga: 1. Bugun nimani bildim? 2. Bugun nimani qila oldim? 3. Bu bilim menga hayotda qaerda kerak bo‘ladi? degan savollarni berish mumkin. Uchinchi savol funksional savodxonlikning eng muhim nuqtasini ochadi — bilimni hayot bilan bog‘lash.

O‘qituvchi uchun eng muhim 5 qoida:

1. Kamroq yodlating — ko‘proq fikrlating.

2. Kamroq tayyor javob bering — ko‘proq savol bering.
3. Xatoni jazolashdan oldin uni tahlil qiling.
4. Har bir bilimni real hayot bilan bog‘lang.
5. O‘quvchidan nafaqat javobni, balki javobining asosini so‘rang.

PISAga tayyorlashning eng samarali usuli — PISA testlarini ko‘p yechtirish emas. Eng samarali usul: PISA talab qiladigan fikrlash tarzini har kungi darsga olib kirishdir. Shunda o‘quvchi test uchun emas, hayot uchun tayyorlanadi. Chunki haqiqiy funksional savodxon inson: o‘qiydi → tushunadi → savol beradi → tahlil qiladi → dalillaydi → qaror qabul qiladi → harakat qiladi. Aynan shu ko‘nikmalar XXI asrda ta’lim sifatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylanmoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. OECD. PISA 2025 Results, Volume I: Future-Ready Students. Paris, 2026. OECD.
2. PISA Participant: Uzbekistan. 2026.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. «PISA 2025 xalqaro baholash dasturi natijalari e’lon qilindi». 8 sentabr 2026- yil.
3. OECD. PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar.

XORIJIY TILLARNI O’RGATISH JARAYONIDA O’QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Gadoyev Zavqiddin Ibodovich.
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
siyosiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning savodxonligini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim platformalari, mobil ilovalar, multimedia vositalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘qish, yozish, tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish usullari, ularning afzalliklari hamda mavjud muammolar ko‘rib chiqilib, o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy til, savodxonlik, zamonaviy texnologiyalar, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim, interaktiv metodlar, multimedia, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы использования современных информационно-коммуникационных технологий, цифровых образовательных платформ, мобильных приложений, мультимедийных средств и возможностей искусственного интеллекта для повышения грамотности учащихся в процессе обучения иностранным языкам. Также анализируется значение интерактивных методов в развитии навыков чтения, письма, аудирования и устной речи учащихся. В статье рассматриваются способы эффективного внедрения цифровых средств в образовательный процесс, их преимущества и существующие проблемы, а также разработаны практические рекомендации для преподавателей.

Ключевые слова: иностранный язык, грамотность, современные технологии, информационно-коммуникационные технологии, цифровое образование, интерактивные методы, мультимедиа, мобильные приложения, искусственный интеллект, коммуникативная компетенция.

Abstract. This article explores the use of modern information and communication technologies, digital learning platforms, mobile applications, multimedia tools, and artificial intelligence to improve students’ literacy in the process of foreign language teaching. It also analyzes the importance of interactive methods in developing students’ reading, writing, listening, and speaking skills. The article examines effective ways of integrating digital tools into the educational process, their advantages, and the existing challenges, and provides practical recommendations for teachers.

Keywords: foreign language, literacy, modern technologies, information and communication technologies, digital learning, interactive methods, multimedia, mobile applications, artificial intelligence, communicative competence.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda xorijiy tillarni o‘rganish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tillarni bilish o‘quvchilarga xalqaro axborot manbalaridan foydalanish, boshqa xalqlarning madaniyati bilan tanishish, muloqot qilish hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatida keng imkoniyatlarga ega bo‘lish uchun zamin yaratadi. Shu sababli xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning til kompetensiyalarini rivojlantirish va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi.

An’anaviy ta’lim jarayonida darslik, yozma mashqlar, grammatik qoidalar va o‘qituvchi tushuntirishlariga katta e’tibor qaratiladi. Bunday yondashuv muayyan bilimlarni o‘zlashtirishga yordam bersa-da, o‘quvchilarning tilni real vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha metodlarni talab qiladi.

G. Motteramning texnologiyalar yordamida til o‘rgatishga bag‘ishlangan ishlarida raqamli vositalar o‘quvchilarning matn yaratish, uni qayta ko‘rib chiqish, xatolarni tuzatish va boshqalar bilan fikr almashish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi ta’kidlanadi. Demak, texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi shunchaki darsni zamonaviy vositalar bilan boyitish emas, balki o‘quvchining til o‘rganish faoliyatini mazmunli, faol va samarali tashkil etishdan iborat.

Xorijiy til ta’limida savodxonlik tushunchasi va uning ahamiyati

Savodxonlik tushunchasi faqat yozuv va imlo qoidalarini bilish bilan cheklanmaydi. Xorijiy til ta’limida savodxonlik o‘quvchining matnni to‘g‘ri o‘qishi, mazmunini anglay olishi, fikrlarini yozma ravishda izchil ifodalashi, tinglangan axborotni tushunishi va og‘zaki muloqotda faol ishtirok etishini qamrab oladi. Xorijiy tilni o‘rganish jarayonida savodxonlikning quyidagi tarkibiy qismlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berish lozim:

O‘qish savodxonligi. O‘quvchilarning xorijiy tildagi matnlarni o‘qish, asosiy g‘oyani aniqlash, muhim ma’lumotlarni ajratib olish va matn mazmuni yuzasidan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Yozish savodxonligi. So‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq yozish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish, matnni mantiqiy izchillikda tashkil etish va fikrni aniq ifodalashni nazarda tutadi.

Tinglab tushunish. Turli talaffuz, tezlik va nutq vaziyatlarida berilgan axborotni anglash, asosiy mazmunni aniqlash hamda eshitilgan ma’lumotga munosabat bildirish qobiliyatidir.

Og‘zaki nutq savodxonligi. O‘quvchining to‘g‘ri talaffuz, mos lug‘at boyligi, grammatik vositalar va muloqot strategiyalaridan foydalangan holda o‘z fikrini ifodalashidir.

Raqamli savodxonlik. Elektron ta’lim resurslaridan foydalanish, raqamli matnlarni tahlil qilish, internetdagi axborotlarni tanqidiy baholash va onlayn muloqot qoidalariga rioya etish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu ko‘nikmalar o‘zaro uzviy bog‘liq. Masalan, o‘quvchi xorijiy tildagi videoni tomosha qilgach, uning mazmunini yozma bayon qilishi va sinfdoshlari bilan muhokama qilishi mumkin. Bunday topshiriq tinglab tushunish, yozish, o‘qish va og‘zaki nutq faoliyatlarini birlashtirib, tilni yaxlit o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari

Multimedia vositalaridan foydalanish

Multimedia vositalari xorijiy til darslarida audioyozuvlar, videolar, animatsiyalar, elektron taqdimotlar, rasmlar va interaktiv materiallardan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu vositalar o‘quvchilarga yangi so‘zlarni

kontekstda o‘rganish, talaffuzni eshitish, grammatik hodisalarni kuzatish va tilning amaliy qo‘llanilishini tushunishga yordam beradi.
Masalan, ingliz tili darsida “Daily routine” mavzusi o‘rganilayotganda o‘quvchilarga kundalik faoliyatni tasvirlovchi qisqa videolavha namoyish etiladi. Dastlab ular videoni umumiy mazmunni tushunish uchun tomosha qiladilar. Keyingi bosqichda yangi so‘zlarni aniqlaydilar, eshitilgan iboralarni yozib oladilar va videodagi voqealarni ketma-ketlikda bayon qiladilar. Yakunda o‘zlarining kundalik tartibi haqida ingliz tilida qisqa matn tuzadilar.
Bunday yondashuv o‘quvchining ko‘rish va eshitish orqali axborot qabul qilishini faollashtiradi. Ayniqsa, talaffuz, intonatsiya va yangi lug‘atni o‘rganishda multimedia materiallari muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq videolavha yoki audioyozuvni shunchaki namoyish qilish yetarli emas. O‘qituvchi tinglashdan oldin, tinglash davomida va undan keyin bajariladigan topshiriqlarni oldindan belgilashi kerak. Material o‘quvchilarning yoshiga, til darajasiga va dars maqsadiga mos tanlanishi zarur.

Interaktiv ta’lim platformalari va onlayn resurslar.

Raqamli ta’lim platformalari o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni tekshirish va mustaqil mashq qilish imkonini beradi. Masalan, Quizlet lug‘at boyligini oshirish, Kahoot! va Quizizz mavzuga oid bilimlarni o‘yin shaklida tekshirish, Wordwall esa interaktiv topshiriqlarni tashkil etish uchun qo‘llanilishi mumkin.
Ushbu vositalardan foydalanishda o‘qituvchi dars maqsadiga muvofiq topshiriqlar tuzishi lozim. Masalan, yangi mavzu bo‘yicha o‘rganilgan 15–20 ta so‘z asosida moslashtirish, bo‘sh joylarni to‘ldirish, tarjimani aniqlash yoki gap tuzish mashqlari tashkil etiladi. Mashqlar natijasi orqali o‘quvchilarning qaysi so‘zlarni yaxshi o‘zlashtirgani va qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotgani aniqlanadi. Interaktiv platformalarning muhim afzalligi tezkor qayta aloqadir. O‘quvchi o‘z javobini tekshirishi, xatosini ko‘rishi va kerakli mavzuni qayta mashq qilishi mumkin. Shu bilan birga, o‘yin natijalari o‘quvchilarni bir-biri bilan ortiqcha taqqoslash vositasiga aylanmasligi kerak. Asosiy e’tibor ball to‘plashga emas, bilimni mustahkamlashga qaratilishi lozim.

Mobil ilovalar yordamida lug‘at boyligini oshirish.

Xorijiy tilni samarali o‘rganishda so‘z boyligi muhim o‘rin tutadi. Lug‘at yetarli bo‘lmasa, o‘quvchi matn mazmunini to‘liq anglashda, fikrini ifodalashda va muloqotda qatnashishda qiynaladi. Shu sababli yangi so‘zlarni muntazam takrorlash, ularni turli vaziyatlarda qo‘llash va uzoq muddatli xotirada saqlashga e’tibor berish zarur.
Duolingo kabi mobil ilovalar qisqa mashqlar yordamida til o‘rganishni kundalik

faoliyatga aylantirishga yordam beradi. Quizlet singari vositalar esa so‘z kartochkalari, ta’riflar va namunaviy gaplar orqali lug‘atni mustahkamlash imkonini yaratadi.

Mobil ilovalardan foydalanishning samarali usullaridan biri — interval asosida takrorlashdir. Bunda yangi so‘zlar ma’lum vaqt oralig‘ida qayta ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilar so‘zning tarjimasini yodlash bilan cheklanmay, uning talaffuzi, qo‘llanilish vaziyati, sinonimlari va gap tarkibidagi vazifasini ham o‘rganishlari kerak.

Masalan, “environment” so‘zi o‘rganilayotganda o‘quvchi uning ma’nosini bilish bilan birga “protect the environment”, “environmental problems” kabi birikmalarni o‘zlashtiradi. Keyin shu birikmalar yordamida qisqa matn yozadi yoki og‘zaki fikr bildiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.

Sun’iy intellektga asoslangan vositalar xorijiy til ta’limida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ular o‘quvchining savollariga javob berish, grammatik qoidalarni tushuntirish, yangi so‘zlarga misollar keltirish, dialog tuzish, yozma ish yuzasidan fikr-mulohaza bildirish va individual mashqlar tayyorlashda yordam berishi mumkin.

Masalan, o‘quvchi ingliz tilida “My favourite book” mavzusida matn yozadi. Sun’iy intellekt vositasidan matndagi grammatik va imloviy xatolarni ko‘rsatish, jumlalarning tushunarliligini baholash hamda yaxshilash yo‘llarini tushuntirish so‘raladi. O‘quvchi taklif etilgan tuzatishlarni ko‘rib chiqib, o‘z matnini mustaqil ravishda qayta ishlaydi. Shu tariqa u xatolarini anglash va yozma nutqini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Elektron matnlar va raqamli yozuv vositalari orqali yozma savodxonlikni rivojlantirish

Yozma savodxonlikni rivojlantirish o‘quvchilardan fikrni mantiqiy ifodalash, grammatik qoidalarga rioya qilish, so‘zlarni to‘g‘ri yozish va matn tuzilishini saqlashni talab qiladi. Raqamli yozuv vositalari ushbu jarayonni bir necha bosqichda tashkil etishga yordam beradi.

Birinchi bosqichda o‘quvchi mavzu yuzasidan dastlabki matnni yozadi. Ikkinchi bosqichda matnning mazmuni, grammatikasi, imlosi va tinish belgilarini tekshiradi. Uchinchi bosqichda o‘qituvchi yoki sinfdoshlarining fikr-mulohazalarini hisobga olib, matnni qayta ishlaydi. Yakunda takomillashtirilgan matn taqdim etiladi.

Google Docs kabi hamkorlikda ishlash vositalari bir matn ustida birgalikda ishlash, izoh qoldirish va o‘zgartirishlarni kuzatish imkonini beradi. Elektron matn muharrirlaridagi imlo tekshiruvi ham foydali, biroq u barcha grammatik yoki mazmuniy xatolarni aniqlay olmaydi.

Masalan, “My hometown” mavzusida matn yozish topshirig‘ida o‘quvchilar avval o‘z shahrining joylashuvi, diqqatga sazovor joylari va tabiati haqida fikrlarini bayon qiladilar. So‘ng matndagi gaplarning bog‘lanishi, fe’l zamonlari va sifatlarning ishlatilishi tekshiriladi. Juftlikda o‘zaro tahrirlash orqali o‘quvchilar nafaqat o‘z matnini, balki boshqalarning yozma ishlarini ham tahlil qilishni o‘rganadilar.

Ushbu usul o‘quvchining yozuvga mas’uliyat bilan yondashishi, xatolar ustida ishlashi va o‘z bilimini mustaqil nazorat qilishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning samarali pedagogik shartlari

Zamonaviy texnologiyalarning ta’limdagi samarasi faqat texnik vositalarning mavjudligiga emas, balki ularning qanday maqsadda va qay tarzda qo‘llanilishiga ham bog‘liq. Shu sababli o‘qituvchi texnologiyani dars maqsadi, o‘quvchilarning yoshi, til darajasi va individual ehtiyojlariga mos ravishda tanlashi lozim.

Birinchidan, har bir raqamli faoliyat aniq o‘quv maqsadiga xizmat qilishi kerak. Agar darsning maqsadi o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘lsa, audio yoki videomaterial asosida mazmunni aniqlash, muhim ma’lumotlarni ajratish va savollarga javob berish topshiriqlari tashkil etiladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Ayrim o‘quvchilar matnni tez o‘qib tushunsa, boshqalarga ko‘proq vaqt yoki qo‘shimcha ko‘rgazmali material kerak bo‘lishi mumkin. Raqamli resurslarning matn, audio, video va interaktiv mashqlar ko‘rinishida taqdim etilishi turli ehtiyojlarga moslashish imkonini beradi.

Uchinchidan, o‘quvchilarning natijalari muntazam kuzatib borilishi kerak. Buning uchun elektron testlar, yozma ishlar, og‘zaki chiqishlar, o‘quv portfoliolari va o‘z-o‘zini baholash jadvallaridan foydalanish mumkin. Baholashda faqat to‘g‘ri javoblar soni emas, balki o‘quvchining rivojlanishi, xatolarni tuzatishi va mustaqil ishlash darajasi ham inobatga olinadi.

To‘rtinchidan, raqamli xavfsizlik va axborot madaniyatiga e’tibor qaratish lozim. O‘quvchilarga internetdagi ma’lumotlarni tekshirish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, mualliflik huquqiga rioya etish va onlayn muloqotda odob qoidalarini saqlash o‘rgatilishi zarur.

Beshinchidan, texnologiyalardan foydalanish an’anaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirilishi kerak. O‘qituvchi bilan jonli suhbat, kitob o‘qish, qo‘lda yozish, guruh muhokamasi va mustaqil fikrlash faoliyatlari raqamli mashqlar bilan birgalikda tashkil etilganda ta’lim mazmunliroq bo‘ladi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlari

Raqamli texnologiyalar xorijiy til ta’limi uchun katta imkoniyatlar yaratishiga

qaramay, ularni qo‘llash jarayonida ayrim muammolar ham uchraydi.

Birinchi muammo — texnik imkoniyatlarning cheklanganligi. Barcha ta’lim muassasalarida barqaror internet, yetarli kompyuter yoki boshqa qurilmalar mavjud bo‘lmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda oldindan yuklab olingan audio va videolar, oflayn lug‘atlar, bosma materiallar va internet talab qilmaydigan mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi muammo — o‘quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolishi. Ayrim hollarda ular tayyor tarjima yoki javoblarga tayanib, mustaqil fikrlashga kamroq e’tibor qaratishlari mumkin. Buning oldini olish uchun o‘qituvchi o‘quvchilardan javobni izohlash, o‘z misollarini keltirish, matnni mustaqil qayta yozish va bajarilgan ish jarayonini tushuntirishni talab qilishi lozim.

Uchinchi muammo — raqamli resurslar sifatining turlicha ekanligi. Internetdagi barcha materiallar ilmiy jihatdan ishonchli yoki o‘quv dasturiga mos bo‘lavermaydi. Shuning uchun o‘qituvchi foydalaniladigan manbalarni oldindan tekshirishi, ularning mazmuni va til darajasini baholashi zarur.

To‘rtinchi muammo — o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ehtiyoji. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish uchun pedagog nafaqat texnik vositalarni boshqarishni, balki ularni metodik jihatdan to‘g‘ri tanlashni ham bilishi kerak. Malaka oshirish kurslari, tajriba almashish, ochiq elektron resurslar va hamkasblar bilan hamkorlik bu borada muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi muammo — shaxsiy ma’lumotlar va akademik halollik bilan bog‘liq masalalar. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, raqamli platformalarning foydalanish shartlarini o‘rganish va sun’iy intellektdan foydalanish qoidalarini belgilash zarur. O‘quvchilar texnologiyani tayyor javoblarni olish vositasi sifatida emas, bilimlarini rivojlantirish va o‘z faoliyatini takomillashtirish vositasi sifatida qo‘llashga o‘rgatilishi kerak.

Shunday qilib, texnologiyalardan samarali foydalanish uchun pedagogik maqsad, raqamli imkoniyatlar, o‘quvchilarning ehtiyojlari va axloqiy talablar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash lozim. Xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning savodxonligini oshirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt imkoniyatlari o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘qish, yozish, tinglash va gapirish kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarning samarasi ularning ko‘pligiga emas, balki dars maqsadiga muvofiq va metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llanilishiga bog‘liq. O‘quvchilar raqamli resurslar yordamida yangi so‘zlarni o‘rganishi, matnlarni tahlil qilishi, yozma ishlarini tahrirlashi, talaffuzini

mashq qilishi va turli kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etishi mumkin. Bunda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli, muntazam qayta aloqa va individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Motteram, G. (Ed.). Innovations in Learning Technologies for English Language Teaching. London: British Council, 2013.
2. Felice, M., Spiby, R., O’Sullivan, B., & Edmett, A. Human-centred AI: Lessons for English Learning and Assessment. British Council, 2025. https://doi.org/10.57884/ah6y-sd55
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. Cambridge University Press, 2014.
4. British Council. A Practical Introduction to Technology-Supported Language Learning. 2023. https://africa.teachingenglish.org.uk/practical-introduction-ogy-supported-language-learning

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ПРЕДМЕТНО-ЯЗЫКОВОЙ ИНТЕГРАЦИИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

Кытина Наталья Ивановна
Эксперт проекта «Класс! (Зур!)»,
Педагог дополнительного образования Института Филологии МПГУ,
специалист по учебнометодической работе отдела сопровождения дополнительных программ РГПУ им. А. И. Герцена.
Российская Федерация, Москва
Кытина Виктория Викторовна
кандидат педагогических наук, старший преподаватель
Центра русского языка Университета МГУ-ППИ в Шэньчжэне.
Китай, Шэньчжэн

Аннотация: Цель исследования – выявить и систематизировать лингводидактический потенциал предметно-языковой интеграции на основе анализа международного и отечественного опыта моделирования учебного процесса. В статье проведён компаративный анализ ключевых моделей предметно-интегративного обучения: финской системы тематического обучения, вальдорфской педагогики (Германия), технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning), применяемой в Европе, сингапурской модели кооперативного обучения, а также отечественной интегративной методики, сочетающей подходы РКИ (русский как иностранный) и РКН (русский как неродной). Особое внимание уделено специфике российской модели, основанной на принципах преемственности, социокультурной адаптации и метапредметности, и её роли в формировании пропедевтических курсов для

детей-инофонов. Научная новизна исследования заключается в комплексном сопоставлении международных и национальной моделей с акцентом на их роль в развитии критического мышления, коммуникативной компетенции и учебной успешности в полиэтнической среде. В результате установлено, что российская интегративная методика, опираясь на наследие РКИ и РКН и обогащаясь элементами CLIL, обладает уникальным потенциалом для создания гибкой, контекстно-обусловленной системы языковой подготовки, направленной на одновременное освоение языка и предметного содержания.

Ключевые слова: предметно-языковая интеграция, CLIL, лингводидактика, международный опыт, российская интегративная методика, РКИ (русский как иностранный), РКН (русский как неродной), поликультурное образование, дети-инофоны; пропедевтический курс, метапредметный подход, критическое мышление, полиэтническая школа.

Abstract: The aim of the study is to identify and systematize the linguodidactic potential of subject-language integration based on an analysis of international and domestic experience in modeling the educational process. The article presents a comparative analysis of key models of subject-integrated learning: the Finnish thematic learning system, Waldorf pedagogy (Germany), the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach used in Europe, the Singaporean cooperative learning model, and the domestic integrative methodology combining approaches from RFL (Russian as a Foreign Language) and RNL (Russian as a Non-Native Language). Particular attention is paid to the specifics of the Russian model—based on principles of continuity, sociocultural adaptation, and a meta-subject approach—and its role in developing preparatory courses for non-native speaking children. The study’s scientific novelty lies in the comprehensive comparison of international and national models, emphasizing their role in fostering critical thinking, communicative competence, and academic success in a multi-ethnic environment. The findings indicate that the Russian integrative methodology—drawing on the legacy of RFL and RNL while incorporating elements of CLIL—possesses unique potential for creating a flexible, context-sensitive language training system aimed at the simultaneous acquisition of language and subject-matter content.

Keywords: subject-language integration, CLIL, linguodidactics, international experience, Russian integrative methodology, RFL (Russian as a Foreign Language), RNL (Russian as a Non-Native Language), multicultural education, non-native speaking children, preparatory course, meta-subject approach, critical thinking, multi-ethnic school.

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi ta’lim jarayonini modellashtirish bo‘yicha xalqaro va mahalliy tajribani tahlil qilish asosida fan va til integratsiyasining lingvodidaktik salohiyatini aniqlash va tizimlashtirishdan iborat. Maqolada fan va til integratsiyalashgan ta’limning asosiy modellari — Finlyandiyaning mavzuli ta’lim tizimi, Valdorf pedagogikasi (Germaniya), Yevropada qo‘llaniladigan CLIL (mazmun va tilning integratsiyalashgan ta’limi) yondashuvi, Singapurning hamkorlikda o‘qitish modeli hamda RFL (chet tili sifatida rus tili) va RNL (ona tili bo‘lmagan til sifatida rus tili) yondashuvlarini birlashtiruvchi mahalliy integrativ metodika — qiyosiy tahlil qilinadi. Uzluksizlik, sotsiokultural moslashuv va fanlararo (meta-predmet) yondashuv tamoyillariga asoslangan rus modelining o‘ziga xos xususiyatlariga hamda uning ona tili rus tili bo‘lmagan bolalar uchun tayyorlov kurslarini ishlab chiqishdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi xalqaro va milliy modellarni har tomonlama taqqoslashda, shuningdek, ularning ko‘p millatli muhitda tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya va akademik muvaffaqiyatni rivojlantirishdagi rolini yoritishda namoyon bo‘ladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, RFL va RNL tajribasiga tayanadigan hamda CLIL elementlarini o‘zida mujassam etgan rus integrativ metodikasi til va o‘quv fanining mazmunini bir vaqtning o‘zida o‘zlashtirishga qaratilgan, moslashuvchan va kontekstga asoslangan til o‘qitish tizimini yaratishda noyob salohiyatga ega.

Kalit so‘zlar: fan va til integratsiyasi, CLIL, lingvodidaktika, xalqaro tajriba, rus integrativ metodikasi, RFL (chet tili sifatida rus tili), RNL (ona tili bo‘lmagan til sifatida rus tili), ko‘p madaniyatli ta’lim, ona tili rus tili bo‘lmagan bolalar, tayyorlov kursi, fanlararo (meta-predmet) yondashuv, tanqidiy fikrlash, ko‘p millatli maktab.

Введение.

Актуальность исследования проблем обучения детей-инофонов в современной российской полиэтнической школе носит комплексный социально-педагогический характер. С одной стороны, она обусловлена объективными демографическими процессами: сохранением высоких темпов трудовой миграции, преимущественно из стран Средней Азии, с тенденцией к увеличению семейных форм миграции (Кытина, Хамраева, 2021, с. 785). С другой стороны, перед системой образования стоят конкретные вызовы, связанные с интеграцией иноязычных детей в образовательный процесс. Данные на конец 2024 г. свидетельствуют, что в российских общеобразовательных организациях обучается свыше 176 тыс. детей-иностранцев, при этом, по заявлению заместителя председателя Совета безопасности РФ Д.А. Медведева, около половины из них плохо или вовсе не

владеют русским языком (Газета.Ru, 2024). Низкий уровень языковой компетенции напрямую блокирует освоение образовательной программы в соответствии с Федеральным государственным образовательным стандартом (ФГОС НОО, 2021), ведет к учебной неуспешности, формированию конфликтогенной среды и маргинализации данной категории учащихся.

Традиционные методики, основанные на изолированном изучении грамматики и лексики, оказываются малоэффективными в условиях, когда язык требуется не как абстрактная система, а как практический инструмент для усвоения знаний по математике, окружающему миру, литературе (Балыхина, 2016, с. 15). В этом контексте предметно-языковая интеграция (далее - ПЯИ) предстает не просто инновационной технологией, а педагогической необходимостью. Её сущность заключается в том, что язык (в данном случае русский как неродной) усваивается не сам по себе, а как средство постижения содержания других учебных дисциплин, что создает аутентичные коммуникативные потребности и естественный контекст для его применения.

Международный опыт в области ПЯИ обширен и формировался под влиянием различных социокультурных и образовательных парадигм [Рыжов, 2019, с. 44]. Европейская модель CLIL, финская система феноменального обучения, вальдорфская педагогика и сингапурские образовательные технологии представляют собой разные ответы на вызовы поликультурности и глобализации (European Commission, 2006; Marsh, 2002). В то же время российская педагогическая мысль обладает собственным мощным теоретическим и практическим фундаментом, сложившимся в рамках методик преподавания русского языка как иностранного (далее - РКИ) и как неродного (далее - РКН) (Уша, 2021, с. 80; Шорина, 2019, с. 45). Однако до недавнего времени эти направления развивались в значительной степени изолированно от мировых трендов интегративного обучения (Кудрявцева, Громова, 2020, с. 46).

Целью данной статьи является проведение компаративного анализа ведущих международных моделей предметно-языковой интеграции и выявление на этой основе специфики и лингводидактического потенциала отечественной интегративной методики обучения русскому языку детей-инофонов в начальной школе.

Для достижения поставленной цели сформулирован ряд задач:

1. Осуществить теоретический анализ и дать краткую характеристику ключевых международных моделей ПЯИ (CLIL, финской, вальдорфской, сингапурской).

2. Раскрыть генезис, теоретические основы и практические принципы российской интегративной методики, базирующейся на синтезе подходов РКИ и РКН.
3. Провести сравнительный анализ выделенных моделей по критериям целеполагания, роли языка, направленности на развитие критического мышления и эффективности для полиэтнической среды.
4. Определить точки соприкосновения и возможности продуктивного синтеза международного опыта (прежде всего, методологии CLIL) с отечественной практикой, а также обозначить условия и ограничения такой интеграции.

Методологическую основу исследования составил комплекс взаимодополняющих подходов: системный (рассмотрение моделей ПЯИ как целостных образовательных систем), компаративный (сравнительный анализ для выявления общих закономерностей и специфики), историко-педагогический (изучение эволюции подходов РКИ/РКН и их интеграции) и культурологический (учет социокультурного контекста реализации моделей). В работе применялись методы теоретического анализа научной литературы и нормативных документов, обобщения и систематизации педагогического опыта, сравнительного моделирования и проектирования.

Основная часть. Мировая образовательная практика выработала ряд моделей, которые, различаясь философскими основаниями и дидактическими акцентами, сходятся в главном: преодолении изоляции языка от других сфер познания. Рассмотрение этих моделей позволяет увидеть спектр возможных решений, адаптируемых к российскому контексту.

Международный опыт предметно-языковой интеграции

1. Технология CLIL (Content and Language Integrated Learning). CLIL, сформировавшийся в 1990-е гг., является наиболее разработанной европейской моделью (Исследование процесса обучения…, 2025, с. 80; Coyle, Hood, Marsh, 2010). Его ключевая идея – дуальность целей: одновременное достижение предметных и языковых результатов (Marsh, 2002, p. 58). Методологическим стержнем служит концепция «4C»: Content (содержание), Communication (коммуникация), Cognition (познание), Culture (культура). Компонент «Cognition» акцентирует развитие критического мышления через анализ и синтез информации на целевом языке (Bentley, 2010, p. 9). Практика CLIL варьируется от интеграции в начальной школе (физкультура, искусство) до преподавания естественнонаучных дисциплин на иностранном языке в средней школе.

2. Финская система тематического (феноменального) обучения. Модель основана на междисциплинарном изучении широких тем-«феноменов» (например, «Вода») через проектно-исследовательскую деятельность. Язык выступает инструментом исследования. Потенциал для развития критического мышления высок, так как требует анализа информации из разнородных источников, выдвижения гипотез и аргументированного представления выводов (Sahlberg, 2015, p. 97).

3. Вальдорфская педагогика (Германия). Система основана на эстетическом восприятии мира через «эпохи» – периоды погружения в тему с использованием различных искусств. Иностранный язык осваивается через устную традицию: песни, стихи, инсценировки (Carlgren, 2012, p. 65). Интеграция носит художественно-эмоциональный характер. Потенциал заключается в создании положительного эмоционального отношения к языку, но модель может быть недостаточно прагматичной для задач ускоренной адаптации.

4. Сингапурская модель кооперативного обучения. Делает ставку на структурированное взаимодействие в малых группах по четким алгоритмам («Think-Pair-Share»). Язык выступает как средство выполнения социального учебного задания. Алгоритмичность снимает неопределенность, обеспечивая речевую практику в безопасной среде (Slavin, 2014, p. 112). Потенциал для развития критического мышления реализуется через этапы обсуждения и аргументации.

Российская интегративная методика

Формирование отечественного подхода к предметно-языковой интеграции для детей-инофонов происходит в уникальном методическом пространстве, определяемом сосуществованием двух сильных научных школ. Методика русского языка как иностранного (РКИ) исторически сложилась в контексте работы с иностранными студентами, изучающими русский язык вне русскоязычной среды (или в ней) с четко поставленной целью (обучение, профессия). Ей свойственен коммуникативный уклон, опора на сопоставительную грамматику и лингвострановедческий компонент (Балыхина, 2016, с. 12; Шорина, 2019, с. 28). В свою очередь, методика русского языка как неродного (РКН) ориентирована на иноязычных граждан, постоянно проживающих в России, и сближается с методикой преподавания родного языка, делая акцент на описательной грамматике и глубокой социокультурной адаптации (Уша, 2021, с. 133; Хамраева, Кытина, 2022, с. 13). Как справедливо отмечает Т.Ю. Уша, смешение этих двух

ситуаций в школьной практике является распространенной ошибкой (Уша, 2021, с. 133).

Реальность полиэтнической начальной школы, где в одном классе обучаются носители языка и дети-инофоны с разным (часто нулевым) уровнем подготовки, потребовала создания интегративной методики. Её ядром является методика обучения русскому как родному, в которую «встраиваются» элементы РКН и РКИ в различном объеме и с разными целями в зависимости от конкретных условий. Эта модель не является механическим смешением, а представляет собой педагогическую систему, основанную на следующих ключевых принципах:

Курс предваряет и обеспечивает успешное освоение основной образовательной программы по всем предметам. Его задача – сформировать базовые речевые и коммуникативные навыки, которые станут инструментом дальнейшего познания (Потапова, 2019, с. 26). В условиях введения законодательного требования о тестировании уровня русского языка для поступающих в школу, роль такого пропедевтического курса только возрастает.

Обучение не сводится к языковой форме; оно направлено на интеграцию ребенка в новую культурную среду. Это достигается через интеграцию урочной, внеурочной и проектной деятельности (например, проект «Диалог культур», «Азбука народов России»), где язык выступает мостом для понимания традиций, норм и ценностей (Хамраева, Кытина, 2022, с. 15).

Русский язык в этой модели рассматривается не только как отдельный учебный предмет, но и как универсальный инструмент познания, средство освоения всех других дисциплин (математики, окружающего мира и т.д.) (Кытина, Хамраева, 2021, с. 792). Это напрямую перекликается с идеями CLIL [Шагбанова, Шагбанов, 2018, с. 250], но имеет, бесспорно, собственную дидактическую траекторию.

Учитель волен выбирать стратегию: использовать индуктивный подход (от частных речевых моделей и ситуаций к обобщению правила, что характерно для РКИ) на начальном этапе, и дедуктивный (от правила к практике, характерный для методики родного языка и РКН) по мере интеграции инофона в общий учебный поток.

Опытно-экспериментальная работа проводилась в 2021–2025 гг. на базе школ Домодедовского городского округа Московской области с участием 138 учащихся-инофонов (Хамраева, Кытина, 2022, с. 14). Практика показала эффективность таких приемов, как преднамеренное включение понятий из «Литературного чтения» и «Окружающего мира» в содержание уроков

русского языка, организация проектной деятельности (например, международный проект «Читаем сказку на ночь»), и создание системы коррекционно-пропедевтической работы в рамках дополнительного образования на базе школы.

Сопоставление международных моделей и отечественной практики позволяет не только констатировать различия, но и выявить стратегические направления для обогащения российской методики (Таблица 1.)

Критерий / Модель	**Финская (тематическая)**	**Вальдорфская (Германия)**	**CLIL (Европа)**	**Сингапурская (кооперативная**
Основная цель	Развитие навыков исследования и междисциплинарного мышления через изучение комплексных феноменов.	Гармоничное развитие личности через искусство, творчество и целостное переживание мира.	Двойная цель: освоение предметного содержания и иноязычной коммуникативной компетенции.	Формирование навыков эффективного сотрудничества, коммуникации и взаимного обучения по алгоритму.
Роль языка	Инструмент исследовательской деятельности, поиска информации и презентации результатов.	Средство художественного и эмоционального выражения, погружения в культурный контекст.	Одновременно объект и средство обучения (дуальность).	Средство структурированного группового взаимодействия для решения учебной задачи.
Фокус на критическое мышление	Очень высокий, системный. Встроено в саму логику исследования феномена.	Высокий в гуманитарно-эстетической сфере. Развивается через интерпретацию художественных текстов, образов, культурных смыслов.	Высокий, методически закрепленный. Компонент «Cognition» требует применения таксономии Блума, постановки проблемных вопросов.	Высокий в рамках заданной структуры. Развивается через этапы обсуждения, аргументации, защиты своей позиции в группе.
Достоинство	Создает глубокий и осмысленный контекст для использования языка, мотивирует познанием.	Снимает психологический барьер, создает безопасную и эмоционально позитивную среду для первых шагов в языке.	Предоставляет четкую методологию («4С») для планирования урока, обеспечивает аутентичность коммуникации.	Гарантирует речевую практику каждому ученику, формирует навыки сотрудничества, снижает тревожность.
Вызовы	Требует от учителя высокой квалификации как дизайнера учебного процесса и модератора исследований.	Слабая технологичность и формализуемость, может не соответствовать прагматическим задачам ускоренной языковой адаптации.	Требует от учителя двойной предметно-языковой компетенции, сложности в объективной оценке двух типов результатов.	Может приводить к формализации общения, требует тщательной адаптации языкового наполнения структур.

Таблица 1. Сравнительная характеристика моделей предметно-языковой интеграции.

Анализ таблицы показывает, что российская модель, обладая четкой социально-педагогической миссией (адаптация), в плане развития

критического мышления обладает значительным, но не всегда в полной мере реализуемым потенциалом. Её сила – в контекстуальной гибкости, позволяющей учителю варьировать подходы. Однако для системного развития высших когнитивных функций у детей-инофонов этой гибкости может быть недостаточно без опоры на более четкие дидактические frameworks (каркасы).

Наиболее продуктивным и естественным для отечественной практики видится адаптация и синтез принципов CLIL с российской интегративной методикой. Это не означает простого копирования, а предполагает:

1. Интеграцию «Cognition» как обязательного компонента при проектировании заданий для инофонов. Целенаправленное использование таксономии учебных целей для формулировки вопросов и задач, которые требуют от ребенка анализа, сравнения, оценки информации на русском языке.
2. Усиление культурологического компонента (Culture) через сравнительный анализ. Проекты и задания могут строиться вокруг сопоставления явлений русской культуры и культур стран исхода учащихся, что развивает межкультурную компетенцию и критический взгляд (Кудрявцева, Громова, 2020, с. 49).
3. Заимствование технологий языковой поддержки (scaffolding) из арсенала CLIL. Создание глоссариев, опорных схем диалогов, визуальных рядов к предметному содержанию, которые помогают инофону справиться с когнитивной нагрузкой, не упрощая саму задачу.
4. Использование структур сингапурской модели для организации коммуникации в смешанных группах (носитель языка + инофон). Алгоритмы могут стать эффективным инструментом для отработки речевых навыков в рамках предметно-интегрированного урока.

Ключевым условием успешной реализации такого синтеза является преодоление кадрового дефицита. Это требует создания системы повышения квалификации, ориентированной на формирование интегративной педагогической компетенции, позволяющей учителю проектировать урок, одновременно достигая предметных, метапредметных и языковых целей для разнородной аудитории.

Проведенное исследование позволяет утверждать, что лингводидактический потенциал предметно-языковой интеграции является одним из ключевых ресурсов для модернизации образования в полиэтнической школе. Международный опыт, представленный моделями CLIL, финского тематического обучения, вальдорфской и сингапурской педагогики,

демонстрирует разнообразие путей превращения языка из цели обучения в средство познания, развития мышления и социализации.

Отечественная интегративная методика, основанная на синтезе подходов РКИ и РКН, представляет собой жизнеспособную и развивающуюся систему, обладающую рядом конкурентных преимуществ: глубокой теоретической базой, ориентацией на социокультурную адаптацию и законодательно закрепленные требования ФГОС. Её практическая эффективность подтверждена результатами апробации в условиях реальных школ Московской области (Хамраева, Кытина, 2022).

Однако для полной реализации своего потенциала, особенно в аспекте системного развития критического мышления у детей-инофонов, российская модель нуждается в стратегическом обогащении. Наиболее перспективным направлением видится не механическое заимствование, а творческая адаптация и интеграция методологических принципов CLIL (прежде всего, акцента на когнитивном и культурологическом компонентах) и технологических приемов кооперативного обучения в существующий каркас российской интегративной методики.

Заключение. Перспективы развития интегративных подходов в России связаны с решением трех основных задач:

Научно-методическое обеспечение: разработка и внедрение адаптивных учебно-методических комплексов и дидактических материалов, воплощающих принципы ПЯИ для начальной школы.

Кадровая подготовка: создание системы профессионального развития педагогов, направленной на формирование у них интегративной компетенции. Институциональная поддержка: закрепление успешных региональных практик в образовательной политике, создание сетевых площадок для обмена опытом и ресурсами.

Только на этом пути предметно-языковая интеграция сможет стать не экспериментальной технологией, а основой массовой практики, обеспечивающей качественное образование, успешную интеграцию и развитие потенциала каждого ребенка в поликультурном пространстве современной российской школы.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Федеральный государственный образовательный стандарт начального общего образования (ФГОС НОО) (утв. приказом Минобрнауки России от 06.10.2009 № 373; в ред. от 22.01.2024) [Электронный ресурс]. Гарант.

URL: https://base.garant.ru/197127/53f89421bbdaf741eb2d1ecc4ddb4c33/ (дата обращения: 10.02.2026).

2. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как неродного (нового): учебное пособие. – М.: Русский язык. Курсы, 2016. – 184 с.
3. В российских школах обучается около 200 тысяч детей мигрантов, половина плохо говорит по-русски [Электронный ресурс]. Газета.Ru. 2024. URL: https://www.gazeta.ru/social/news/2024/12/26/24721988.shtml?updated (дата обращения: 10.02.2026).
4. Добренко Е.И., Соколова Е.В. Интегративная лингвистика как основа методики РКН в современной школе // Мир русского слова. 2023. № 2. – С. 33–39.
5. Кудрявцева Е.Л., Громова Л.Г. Методические основы обучения русскому языку в поликультурной среде: между РКН, РКИ и CLIL // Русский язык за рубежом. 2020. № 4. – С. 45–52.
6. Кытина Н.И., Хамраева Е.А. Актуальные проблемы преподавания русского языка в поликультурной российской школе // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. 2021. Т. 18. № 4. – С. 785–800.
7. Потапова М.В. Пропедевтика как дидактическое условие интеграции в обучении // Начальная школа. 2019. № 11. – С. 25–29.
8. Рыжов В.Б. Сотрудничество Европейского союза с государствами постсоветского пространства в области образования (на примере программы Erasmus+) [Электронный ресурс] // Международное право. 2019. № 2. – С. 42–50. – С. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=29830 (дата обращения: 10.02.202650. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=29830 (дата обращения: 10.02.2026).
9. Синева О.В. Обучение русскому языку в поликультурном классе: стратегии и приемы. – СПб.: Златоуст, 2018. – 240 с.
10. Словарь русского языка: в 4 т. / под ред. А.П. Евгеньевой. – 4-е изд., стер. – М.: Русский язык; Полиграфресурсы, 1999.
11. Уша Т.Ю. Обучение русскому языку детей-мигрантов в поликультурной школе: проблемы и решения // Педагогика. 2021. № 8. – С. 78–85.
12. Хамраева Е.А., Кытина Н.И. Лингвометодическое сопровождение процесса интеграции детей мигрантов в образовательное пространство российской школы (опыт домодедовского округа Московской области) //

Профессорский журнал. Серия: Русский язык и литература. 2022. № 1 (9). – С. 12–17.
13. Шагбанова Х.С., Шагбанов И.Ф. Внедрение CLIL в образовательный процесс российских ВУЗов // Образование и право. 2018. № 6. – С. 249–252.
14. Шорина Т.А. Обучение аудированию детей-инофонов в поликультурной школе: теория и практика. – М.: Флинта, 2019. – 200 с.
15. Bentley K. The TKT Course: CLIL Module. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 124 p.
16. Carlgren F. Education Towards Freedom: Rudolf Steiner Education. – AWSNA, 2012. – 242 p.
17. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.
18. European Commission. Content and Language Integrated Learning (CLIL) at School in Europe. – Brussels: Eurydice, 2006.
19. Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL). A Development Trajectory. – Córdoba: Universidad de Córdoba, 2002.
20. Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – Teachers College Press, 2015. – 264 p.
21. Slavin R.E. Cooperative Learning and Academic Achievement: Why Does Groupwork Work? // Anales de Psicología. 2014. Vol. 30. № 3. – P. 785–791.

O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR: FINLYANDIYA, SINGAPUR VA KANADA MISOLIDA

Karimberdiyev Qodir Komilovich
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko‘rsatish boshqarmasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada PISA xalqaro baholash dasturida o‘qish savodxonligi bo‘yicha barqaror yuqori natija ko‘rsatib kelayotgan Finlyandiya, Singapur va Kanada ta’lim tizimlari tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi. Boshqaruv modeli, metodik yondashuvlar va o‘qituvchilar tayyorgarligi yoritilib, ularning umumiy didaktik negizi — “mas’uliyatni bosqichma-bosqich topshirish” tamoyili asoslab beriladi. Tahlil natijalari asosida xorijiy tajribani O‘zbekiston tayanch o‘rta ta’limiga moslashtirish yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, xalqaro tajriba, PISA, Finlyandiya, Singapur, Kanada, STELLAR, tayanch o‘rta ta’lim.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ опыта образовательных систем Финляндии, Сингапура и Канады, стабильно демонстрирующих высокие результаты по читательской грамотности в международной программе PISA. Рассматриваются модели управления, методические подходы и подготовка учителей, обосновывается их общая дидактическая основа — принцип «постепенной передачи ответственности». На основе результатов анализа предлагаются направления адаптации зарубежного опыта к базовому среднему образованию Узбекистана.

Ключевые слова: читательская грамотность, международный опыт, PISA, Финляндия, Сингапур, Канада, STELLAR, базовое среднее образование.

Abstract: This article provides a comparative analysis of the education systems of Finland, Singapore and Canada, which have consistently achieved high results in reading literacy in the OECD PISA programme. Governance models, instructional approaches and teacher preparation are examined, and their shared didactic foundation — the “gradual release of responsibility” principle — is substantiated. Based on the findings, directions for adapting international experience to lower secondary education in Uzbekistan are proposed.

Keywords: reading literacy, international experience, PISA, Finland, Singapore, Canada, STELLAR, lower secondary education.

Kirish. Zamonaviy ta’lim makonida o‘qish savodxonligi shaxs funksional savodxonligining tayanch kompetensiyasi sifatida e’tirof etilmoqda. PISA dasturida u o‘quvchining o‘z maqsadlariga erishish, bilim va salohiyatini rivojlantirish hamda jamiyat hayotida ishtirok etish uchun matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, baholash va ular ustida mulohaza yuritish qobiliyati sifatida ta’riflanadi [1].

O‘zbekiston 2022-yilda PISA dasturida birinchi marta ishtirok etib, o‘qish savodxonligi bo‘yicha o‘rtacha 336 ball to‘pladi; bu OECD mamlakatlari o‘rtachasidan (476 ball) ancha past bo‘lib, o‘quvchilarning atigi 14 foizga yaqini bazaviy (ikkinchi) darajaga erishgan [2; 10]. Maqolaning maqsadi Finlyandiya, Singapur va Kanada tajribasini qiyosiy tahlil qilib, O‘zbekiston uchun ahamiyatli jihatlarini aniqlashdir. Davlatlar o‘qish savodxonligi bo‘yicha barqaror yuqori natija hamda boshqaruv modeli va ijtimoiy-madaniy kontekstning turlichaligi mezonlari asosida tanlandi.

Asosiy qism. Finlyandiya tajribasi. Finlyandiya 2000-yildan buyon PISA dasturida o‘qish savodxonligi bo‘yicha yetakchilar qatorida [3]. Rasmiy o‘qish 7 yoshdan boshlansa-da, PISA 2018 da fin o‘quvchilarining qariyb 86 foizi bazaviy darajaga erishgan (OECD o‘rtachasi — 77 foiz). O‘qituvchilik ta’limi magistratura darajasida olib boriladi, nomzodlarning taxminan 10 foizigina tanlovdan o‘tadi,

o‘qituvchilar esa o‘quv materiallari va uslubini tanlashda keng erkinlikka ega. Chuqur tushunish va ta’limiy tenglikka urg‘u beriladi. Shu bilan birga, so‘nggi davriyliklarda o‘qishga qiziqishning, ayniqsa o‘g‘il bolalarda, pasayishi va 2022-yilda natijalarning tushishi qayd etilmoqda [2]. Holbuki, o‘qishga qiziqish o‘qish yutuqlarining eng kuchli bashoratchilaridan biridir [4].

Singapur tajribasi. Singapur so‘nggi PISA davriyliklarida o‘qish savodxonligi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinda [2]. Muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri — STELLAR (Strategies for English Language Learning and Reading) milliy dasturi [5; 6]. U uch bosqichga asoslanadi: o‘qituvchi butun sinf bilan kitobni ovoz chiqarib o‘qib, muhokama tashkil etadi (Shared Book Approach); o‘quvchilar kichik guruhlarda yoki mustaqil ravishda saviyasiga mos matnlarni o‘qiydi; so‘ng matn asosida yozma ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Dastur barcha davlat maktablarida majburiy joriy etilgan, o‘qituvchilar esa materiallar, treninglar va murabbiylik orqali uzluksiz qo‘llab-quvvatlanadi [5]. Maktabdan tashqarida esa 2016-yildan buyon “Milliy o‘qish harakati” amalga oshirilmoqda.

Kanada tajribasi. Kanada markazlashmagan boshqaruv sharoitida ham yuqori natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatadi: ta’lim siyosati 10 ta provinsiya va 3 ta hudud vakolatida, muvofiqlashtirish esa Kanada Ta’lim vazirlari kengashi (CMEC) orqali amalga oshiriladi [7]. Biroq provinsiyalar o‘rtasida sezilarli tafovut saqlanmoqda. PISA va PCAP natijalari provinsiyalar kesimida tahlil qilinib, siyosat ma’lumotlarga tayangan holda moslashtiriladi. Ontario provinsiyasining “Right to Read” hisobotida esa tizimli fonika va dalilga asoslangan o‘qitish usullarini barcha maktablarda joriy etish tavsiya qilingan [8].

Uch davlat tajribasini birlashtiruvchi didaktik negiz P.D.Pirson va M.K.Gallagerning **“mas’uliyatni bosqichma-bosqich topshirish”** (Gradual Release of Responsibility) modelidir [9]: o‘qish strategiyasini avval o‘qituvchi namoyish etadi, so‘ng o‘quvchilar uni o‘qituvchi yordamida, oxirida esa mustaqil qo‘llaydi. STELLAR dasturining uch bosqichli tuzilmasi, Finlyandiyadagi moslashuvchan qo‘llab-quvvatlash va Kanadaning bosqichma-bosqich dasturlari shu tamoyilning turli ko‘rinishlaridir (1-jadval).

1-jadval. Finlyandiya, Singapur va Kanada tajribasining qiyosiy tavsifi

Mezon	**Finlyandiya**	**Singapur**	**Kanada**
Boshqaruv modeli	Markazlashgan, maktab avtonomiyasi yuqori	Markazlashgan, yagona milliy kurikulum	Markazlashmagan, 10 provinsiya va 3 hudud

Mezon	Finlyandiya	Singapur	Kanada
Metodik yondashuv	Chuqur tushunish, tenglik, kam testlash	STELLAR: umumiy kitob usuli, mustaqil o‘qish	Dalilga asoslangan o‘qitish, fonika
O‘qituvchilar	Magistratura, qat’iy tanlov (~10%)	Uzluksiz qo‘llab-quvvatlash, murabbiylik	Provinsiya standartlari, malaka oshirish
Asosiy muammo	O‘qishga qiziqishning pasayishi	Qiyinchilik sezuvchilarni qo‘llab-quvvatlash	Provinsiyalararo tafovut

Boshqaruv modellari farq qilsa-da, uch davlatni umumiy tamoyillar birlashtiradi: o‘quvchini matn bilan faol va mustaqil ishlashga undash, o‘qituvchi salohiyatini uzluksiz oshirish, o‘qish strategiyalarini bosqichma-bosqich o‘rgatish va qiyinchilik sezayotgan o‘quvchilarni maqsadli qo‘llab-quvvatlash.

Bu tajribani O‘zbekistonga ko‘chirib emas, milliy kontekstga moslashtirib tatbiq etish lozim. Finlyandiyadan — o‘qituvchilarning uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish va metodik erkinlikni kengaytirish; Singapurdan — umumiy kitob usuli va keng ko‘lamli mustaqil o‘qishni o‘zbek adabiyoti namunalari asosida joriy etish; Kanadadan — hududlararo tafovutni kamaytirish mexanizmlari. Bu, ayniqsa, muhim: PISA 2022 da O‘zbekistonda shahar maktablari o‘quvchilarining o‘rtacha natijasi (343 ball) qishloq maktablarinikidan (327 ball) yuqori bo‘lgan. Bunda aniq usullarni emas, ularning zamiridagi didaktik tamoyillarni o‘zlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan tajribalardagi umumiy tamoyillar O‘zbekiston tayanch o‘rta ta’limida PISA talablari asosida metodika ishlab chiqish uchun ilmiy-nazariy negiz bo‘la oladi. Ustuvor vazifalar sifatida o‘quv dasturlariga turli formatdagi matnlar bilan ishlashni tizimli kiritish, o‘qish strategiyalariga yo‘naltirilgan malaka oshirish modullarini joriy etish va o‘qishga qiziqishni oshiruvchi maktab hamda kutubxona tashabbuslarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 308 p.
2. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.

3. Välijärvi J., Linnakylä P., Kupari P., Reinikainen P., Arffman I. The Finnish success in PISA – and some reasons behind it. – Jyväskylä: Institute for Educational Research, 2002.
4. Guthrie J.T., Wigfield A. Engagement and motivation in reading // Handbook of Reading Research. Vol. 3. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2000. – P. 403–422.
5. Pang E.S., Lim F.V., Choe K.C., Peters C., Chua L.C. System Scaling in Singapore: The STELLAR Story // Scaling Educational Innovations. – Singapore: Springer, 2016.
6. Ministry of Education, Singapore. English Language Syllabus 2010: Primary & Secondary. – Singapore, 2010.
7. Council of Ministers of Education, Canada (CMEC). Measuring up: Canadian Results of the OECD PISA 2018 Study. – Toronto: CMEC, 2019.
8. Ontario Human Rights Commission. Right to Read: Public inquiry report. – Toronto: OHRC, 2022.
9. Pearson P.D., Gallagher M.C. The instruction of reading comprehension // Contemporary Educational Psychology. – 1983. – Vol. 8, No. 3. – P. 317–344.
10. O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro PISA-2022 tadqiqoti natijalari e’lon qilindi // UZA.uz, 2023.

ADABIYOT DARSLARIDA KRITIK YONDASHUV ORQALI FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Muqimova Gulnora Rashidovna
Buxoro viloyat PMM
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi
mudiri, f.f.f.d (PhD)
Halimova Jasmina Hayotjon qizi
BuxDPI Xorijiy til va adabiyot fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik paradigmaning asosiy talabi ta’lim oluvchini tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi obyekt sifatida emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda egallaydigan, ularni turli vaziyatlarda qo‘llay oladigan, axborotni tahlil va baholash asosida xulosalar chiqaradigan faol subyekt sifatida shakllantirishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek adabiyot darslarida funksional savodxonlikni o‘rni va ahamiyati badiiy asarlar tahlili misolida berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik paradigma, funksional savodxonlik, sintezlash, baholash, dalillash, refleksiya

Abstract. This article focuses on a key requirement of the modern pedagogical paradigm: shaping the learner not merely as a passive recipient of pre-existing knowledge, but as an active agent who independently acquires knowledge, applies it in various situations, and draws conclusions based on the analysis and evaluation of information. Additionally, the role and significance of functional literacy in literature lessons are illustrated through the analysis of literary works.

Keywords: pedagogical paradigm, functional literacy, synthesis, evaluation, argumentation, reflection.

Аннотация. В статье рассматривается ключевое требование современной педагогической парадигмы: формирование обучающегося не просто как пассивного получателя готовых знаний, а как активного субъекта, который самостоятельно приобретает знания, применяет их в различных ситуациях и делает выводы на основе анализа и оценки информации. Кроме того, на примере анализа литературных произведений показаны роль и значение функциональной грамотности на уроках литературы.

Ключевые слова: педагогическая парадигма, функциональная грамотность, синтез, оценка, аргументация, рефлексия.

KIRISH. Bugun har tomonlama rivojlanib borayotgan bir davrda ta’lim tizimida kechayotgan tub o‘zgarishlar ta’lim mazmuni, metodlari va natijalariga nisbatan yangicha yondashuvlarni shakllantirmoqda. Zamonaviy pedagogik paradigmaning asosiy talabi ta’lim oluvchini tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi obyekt sifatida emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda egallaydigan, ularni turli vaziyatlarda qo‘llay oladigan, axborotni tahlil va baholash asosida xulosalar chiqaradigan faol subyekt sifatida shakllantirishdan iboratdir. Shu ma’noda, bugungi ta’lim jarayonida reproduktiv faoliyatdan produktiv va ijodiy faoliyatga o‘tish, o‘quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish, xususan, tahlil qilish, sintezlash, baholash, dalillash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ASOSIY QISM. Mazkur jarayon adabiyot ta’limi oldiga ham yangi metodik talablarni qo‘ymoqda. Chunki badiiy adabiyot insonning borliqni anglash, ijtimoiy munosabatlarni idrok etish, axloqiy-estetik qadriyatlarni baholash hamda hayotiy hodisalarga munosabat bildirish tajribasini shakllantiruvchi muhim ta’limiy vositalardan biridir. Badiiy asar o‘zining ko‘pqatlamli mazmuni, obrazlar tizimi, muammoviyligi, estetik tabiati va turli talqinlarga ochiqligi bilan o‘quvchining nafaqat bilimini, balki uning tafakkur faoliyatini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Adabiyot ta’limida badiiy asarni o‘rganishning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining matn bilan qanday munosabatga kirishishiga bog‘liq. Agar o‘quvchi badiiy matnni faqat mazmunini o‘zlashtirish, voqealarni qayta hikoyalash yoki qahramonlarga tayyor tavsif berish darajasida qabul qilsa, uning tafakkur faoliyati asosan reproduktiv xarakter kasb etadi. Bunday yondashuv esa badiiy matnning estetik va g‘oyaviy imkoniyatlarini to‘laqonli ochib berishga xizmat qilmaydi. Zamonaviy adabiyot ta’limida esa o‘quvchidan badiiy matn mazmunini anglash bilan bir qatorda undagi muammo va ziddiyatlarni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, qahramonlar xatti-harakatini baholash, muallif pozitsiyasini aniqlash, turli talqinlarni qiyoslash hamda o‘z qarashlarini matniy dalillar asosida asoslay olish talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy asarni kritik, ya’ni tanqidiy tafakkur asosida tahlil qilish adabiyot ta’limining muhim metodik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy tahlil badiiy asarga nisbatan inkor etuvchi yoki salbiy munosabatni anglatmaydi. U avvalo, matnni faol idrok etish, undagi fikr va g‘oyalarni tahlil qilish, dalillarni aniqlash, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash, muallif yaratgan badiiy olamning ichki mantiqini anglash va mustaqil, asoslangan xulosaga kelish jarayonidir. Demak, kritik tahlilning asosiy mohiyati o‘quvchining “matnni o‘qishi”dan “matn ustida fikrlashi”ga, undan esa “matn bilan muloqot qilishi”ga o‘tishini ta’minlashdan iboratdir.

Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili masalasiga to‘xtalishdan oldin badiiy asar tahliliga to‘xtalish maqsadga muvofiq deb bildik. Buyuk yozuvchi va mutafakkir Fitrat o‘zining 1926-yilda yaratgan “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasida bu tushunchani to‘la anglamoq uchun, umuman, “san’at”dan “go‘zal san’at” tushunchasini farqlash lozimligi haqida: “Adabiyot so‘zini tuzukgina onglamoq uchun san’at ham go‘zal san’at degan so‘zlarni ta’rif qilib o‘tish lozimdir. San’at lug‘atda hunar demakdirkim: bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir. Bu ma’nodagi “san’at”dan tilakda boshqacha bo‘lg‘an bir turli san’atlar ham bor”, deb yozadi. Olim “boshqacha bo‘lgan san’atlar”ga xos asosiy belgilar to‘g‘risida to‘xtalib: “...yurak, fikr, tuyg‘u to‘lqinlarini so‘z, tovush, bo‘yo‘v, shakl, harf, harakat kabi tovar (material)lar yordamida jonlantirib chiqarib, boshqalarda ham shu to‘lqinni yaratmoq hunariga go‘zal san’atlar deyiladir”, tarzidagi to‘xtamga keladi.

San’atga tegishli yetakchi xususiyatlarni ko‘rsatgandan so‘nggina A. Fitrat bevosita badiiy asar tushunchasiga ta’rif beradi: “...adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarni so‘zlar, gaplar yordamida tasvir qilib, boshqalarda ham shu to‘lqinlarni yaratmoqdir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladi”.

Bugunning nuqtayi nazaridan ushbu ta’rif bir qadar jo‘n ko‘rinsa-da, hodisaning asl mohiyatini aks ettirishi jihatidan haqiqatga eng yaqinidir. Jahonga

mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatov: ***“Badiiy asar odamning odam haqidagi hikoyasidir”***, – deydi.

Badiiy asarni to‘laroq anglash va chuqurroq tahlil qilish uchun uni ilmiy tekshirishning uch bosqichi bosib o‘tilishi zarur. Asarning tahlil kechimi:

a) boshlang‘ich idrok darajasida asarni butunisicha anglash;

b) keyin uni unsurlari bo‘yicha sinchiklab tahlil (analiz) qilish;

v) ilmiy tadqiqot natijalarini tizimli yo‘sinda umumlashtirish, ya’ni sintezlash singari bosqichlardan iborat bo‘ladi.

Badiiy asarni tahlil qilishning samaradorligi, avvalo, o‘quvchining badiiy matnni qanday idrok etishi, undagi mazmuniy va estetik qatlamlarni qanchalik chuqur anglay olishi hamda o‘z fikrini dalillar asosida ifodalashiga bog‘liq. Shu jihatdan adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilish jarayoni tayyor xulosalarni o‘quvchiga yetkazish bilan cheklanmasligi, balki uni mustaqil fikrlash, *savol qo‘yish, dalil izlash, muammoni aniqlash va muqobil yechimlarni baholashga yo‘naltirishi lozim.*

Birinchidan, o‘quvchi badiiy asarda tasvirlangan olamni real hayot hodisalari hamda boshqa badiiy asarlarda yaratilgan obraz va voqealar bilan qiyoslay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchining hayotiy tajribasi, kitobxonlik doirasi va adabiy-badiiy bilimlari qanchalik keng bo‘lsa, badiiy obrazning ilgari ko‘zga tashlanmagan jihatlarini anglash imkoniyati ham shunchalik ortadi. Shu sababli bir badiiy asarning turli yosh va tajribaga ega kitobxonlarda turlicha taassurot uyg‘otishi tabiiydir.

Qayta-qayta o‘qilgani sari ayrim badiiy asarlardan yangidan-yangi ma’nolar topilishi mana shu holatni ma’lum darajada izohlaydi. Ya’ni badiiy nazari o‘tkir, hayotiy tajribasi mo‘l va bilimli sinchi muayyan asarni tahlil qilganda, undagi boshqalar topolmaydigan ko‘plab jihatlarni idrok eta va ilmiy izohlay biladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda o‘quvchining shaxsiy munosabati ham muhim ahamiyatga ega. Biroq shaxsiy munosabat faqat subyektiv fikr bildirish bilangina cheklanmasligi, balki matn asosida asoslanishi kerak. Masalan, “Qahramon nima uchun aynan shunday yo‘l tutdi?”, “Uning qarorini oqlash mumkinmi?”, “Muallifning munosabati qaysi badiiy dalillarda namoyon bo‘lgan?”, “Asarda ko‘tarilgan muammo bugungi hayot bilan qanday bog‘lanadi?” kabi savollar o‘quvchini matnni chuqurroq anglashga undaydi.

Ikkinchidan, badiiy asarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchining matn bilan faol va samimiy muloqotga kirishishi muhimdir. O‘quvchi qahramonning kechinmalarini, muallifning munosabatini, asardagi ziddiyat va muammolarni his etish orqali badiiy mazmunni yaxlit holda idrok etadi. Biroq hissiy idrok keyingi bosqichda mantiqiy va tanqidiy tahlil bilan to‘ldirilishi lozim. Ya’ni “Menimcha...”

shaklidagi fikr “Buni matndagi qaysi dalil bilan asoslay olaman?” degan savol bilan davom ettirilishi kerak.

Uchinchidan, tanqidiy tahlil ko‘nikmasi o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. O‘quvchi muntazam ravishda badiiy matn ustida mustaqil ishlashi, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslashi, savollar yaratishi, dalillarni izlab topishi va o‘z xulosalarini qayta ko‘rib chiqishi zarur. Shu nuqtayi nazardan o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor tahlilni taqdim etuvchi emas, balki uni tahliliy fikrlash jarayoniga yo‘naltiruvchi metodik tashkilotchi sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda xolislik va dalillilik muhim metodik tamoyil hisoblanadi. O‘quvchining shaxsiy qarashi hurmat qilinishi bilan birga, har qanday xulosa badiiy matn bilan asoslanishi lozim. Ayniqsa, qahramonning xatti-harakatini baholash, asarda ko‘tarilgan muammoni aniqlash yoki muallif pozitsiyasini izohlashda “Fikr – dalil – izoh – xulosa” tamoyiliga amal qilish o‘quvchining tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Demak, adabiyot ta’limida badiiy tahlil o‘quvchining asarni qayta hikoya qilishi yoki o‘qituvchi bergan tayyor xulosalarni takrorlashi emas. U badiiy matnni anglash, undagi muammoni aniqlash, savol qo‘yish, dalil izlash, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ularni asoslash va yakuniy xulosa chiqarishni qamrab oladigan murakkab fikrlash jarayonidir.

Madaniyat, san’at va adabiyot haqidagi ilmiy asarlar, lug‘atlar, qomuslarda ushbu tushuncha to‘g‘risida qayta-qayta to‘xtalib o‘tilgan. Ularda “badiiy asar” atamasi turli mutaxassislar tomonidan, ba’zan bir-birini inkor qiladigan yo‘sinda, turlicha izohlangan. Chunki izohlayotgan kishi tomonidan qanday ma’no yuklanishiga qarab, ushbu tushuncha turli miqyos va ko‘lam kasb etadi. Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ilgari surilgan *g‘oya ko‘pincha bevosita bayon etilmaydi, balki obrazlar, syujet, konflikt, kompozitsiya, detal, ramz va boshqa poetik vositalar orqali ifodalanadi.* Shu sababli o‘quvchi badiiy asarni chuqur anglash uchun *faqat faktologik bilimlarga emas, balki kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish*, talqin etish va baholash kabi intellektual amallarga ham murojaat qilishi zarur. Masalan, qahramonning muayyan xatti-harakatiga munosabat bildirish jarayonida o‘quvchi “Bu xatti-harakat yaxshi yoki yomon?” tarzidagi biryoqlama baholash bilan cheklanmasdan, *uning yuzaga kelish sabablarini, asardagi voqealar rivoji bilan bog‘liqligini, qahramonning xarakteri va ruhiy holatini, shuningdek, mazkur harakatning g‘oyaviy-estetik vazifasini aniqlashi* lozim.

Bunday tahlil jarayoni o‘quvchining badiiy tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda uning dalillash madaniyatini ham shakllantiradi. Chunki tanqidiy tahlilda har qanday fikr matnga tayangan holda asoslanishi talab etiladi. O‘quvchi o‘z qarashini ilgari surar ekan, uni asardagi muayyan voqea, obraz, detal, qahramon

nutqi yoki muallif tasviri bilan dalillashi, dalilning o‘z fikri bilan qanday bog‘liqligini izohlashi hamda umumlashtirilgan xulosaga kelishi zarur. Natijada o‘quvchida fikr – dalil – tahlil – xulosa tizimiga asoslangan mantiqiy fikrlash mexanizmi shakllanadi.

Badiiy asarni kritik yo‘l bilan tahlil qilish, ayniqsa, muammoli ta’lim texnologiyasi bilan uyg‘un holda samarali natija beradi. Muammoli ta’limning mohiyati o‘quvchi oldiga tayyor xulosani taqdim etish emas, balki unda bilish ehtiyojini yuzaga keltiruvchi muammoli vaziyat yaratishdan iboratdir. Adabiyot darslarida bunday vaziyat qahramonning qarama-qarshi xarakterli xatti-harakatlari, asardagi axloqiy ziddiyatlar, muallif pozitsiyasining murakkabligi yoki bir voqeaning turlicha talqin qilinishi asosida yuzaga keltirilishi mumkin. Natijada o‘quvchi tayyor xulosani qabul qilish emas, balki muammoni mustaqil o‘rganish, dalillarni izlash, turli fikrlarni qiyoslash va o‘z xulosasini shakllantirish jarayoniga jalb etiladi.

Tanqidiy tahlilning metodik samaradorligi, avvalo, o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan savol va topshiriqlarning mazmuni bilan belgilanadi. Past darajadagi savollar o‘quvchidan asosan ma’lumotni esga tushirishni talab etsa, yuqori darajadagi savollar tahlil, talqin, qiyoslash, baholash va xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi. Jumladan, “Qahramonning ushbu qaroriga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?”, “Mazkur voqeaga boshqa qahramon nuqtayi nazaridan qaralganda qanday xulosa hosil bo‘ladi?”, “Muallif qahramonga bevosita baho bermasdan turib, uning xarakterini qaysi badiiy vositalar orqali ochib bergan?”, “Asardagi mazkur muammoni bugungi hayot bilan qanday bog‘lash mumkin?” kabi savollar o‘quvchini murakkab fikrlash faoliyatiga undaydi.

Bunda o‘qituvchining funksiyasi ham o‘zgaradi. An’anaviy dars modelida o‘qituvchi bilimning asosiy manbai va tayyor xulosalarni yetkazuvchi sifatida namoyon bo‘lsa, tanqidiy tahlilga asoslangan ta’lim jarayonida u o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi subyekt vazifasini bajaradi. O‘qituvchi muammoli savollarni shakllantiradi, o‘quvchilarning turli qarashlarini yuzaga chiqaradi, fikrlar to‘qnashuvini pedagogik jihatdan boshqaradi va o‘quvchilarni o‘z fikrlarini dalillar bilan asoslashga yo‘naltiradi.

Mazkur yondashuv badiiy asarni tahlil qilishning an’anaviy usullarini inkor etmaydi, balki ularni yangi metodik mazmun bilan boyitadi. Asar syujetini o‘rganish, obrazlarga tavsif berish, badiiy tasvir vositalarini aniqlash kabi an’anaviy faoliyat turlari tanqidiy tahlil jarayonida mustaqil maqsad sifatida emas, balki muayyan xulosaga kelish uchun zarur bo‘lgan daliliy asos sifatida qo‘llaniladi. Natijada o‘quvchi “nima bo‘ldi?” degan savoldan “nega shunday bo‘ldi?”, “bu holat nimani anglatadi?”, “muallif mazkur voqea orqali qanday g‘oyani ilgari surmoqda?”

va “men bu masalaga qanday munosabat bildiraman?” kabi murakkabroq savollar darajasiga ko‘tariladi.

9-sinf adabiyot fanidan o`tishda o‘quvchiga quyidagicha muammoli savol berish bilan darsni boshlash mumkin: *Sizningcha, inson uchun adabiyot nega zarur? Adabiyot uchun ruhiy ehtihoj nima uchun zarur?* Bu savollarga o`quvchi javob berishi uchun adabiyotni tushunishi, qalbi bilan his qilishi kerak. Siz javoblarni quyidagicha boyitishingiz mumkin. *Inson uchun adabiyot boshqa narsalarni va o‘zini anglash vositasi sifatida zarur. Adabiyotga bo'lgan ruhiy barqarorlik esa yolg'izlikni kechish, hayot ma'nosini izlash va insoniy tuyg'ularni boyitish istagidan kelib chiqadi. Bu qalbdagi savollarga javob topishga yordam beradi.*

Adabiyotning ahamiyati:

Hamdardlik uyg‘otadi: Boshqa odamlar hayotini his qilish o‘rgatadi.
Dunyoqarashni shakllantiradi: Turli davrlar va madaniyatlar bilan tanishtiradi.
Tilni boyitadi: Fikrlarni aniq va go‘zal yetkazib berishga yordam beradi

Ruhiy ehtiyoj sabablari:

Tinchlik topish: Hayot tashvishlaridan charchaganda taskin beradi;
O‘zini topish: Ichki kechinmalarni ko'ra yo‘l ochadi;
Ma’naviy o‘sish: Ezgulik va yomonlikni farqlashni o'rganadi.

O‘z javobingizni va o‘quvchilar javobini tinglaganizdan so‘ng, ularga ***“Tafakkur va talqin”*** usuli orqali topshiriq berasiz, topshiriqni o‘quvchi yozma bajaradi:

Topshiriq: Siz adabiyotni taraqqiyoti uchun qanday takliflar bergan bo`lardingiz?

O`QITUVCHIGA YORDAM

O‘quvchilar javobidan so`ng o‘ziz bu topshiriqni quyidagicha izohlashiz mumkin:

1. Adabiyot taraqqiyoti uchun, avvalo, kitobxonning adabiyotga bo‘lgan muhabbatini shakllantirish va ruhiy rivojlanishini kerak.

2. Zamonaviy yoshlar dunyoqarashiga yaqin yangi asarlarni olish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, sifatli tarjimachilikni rivojlantirish, o‘zbek adabiyotini jahon miqyosida olib chiqish kerak.

3. Menimcha, adabiyot taraqqiyoti faqat ijodkorlarga emas, balki kitobxonni tarbiyalash lozim. Chunki kuchli adabiyot kitob o'qiydigan emas, kitobni anglaydigan va undan hayotiy tajriba oladigan avlodni tarbiyalash kerak.

Adabiyot o‘qituvchisi “Alpomish” doston yuzasidan o‘quvchilarga ma'lumot berishda dostonning bu xislatini nazarda tutib dars o‘tishi o‘quvchilar e'tiborini -dostonga jalb etishda muhim, bu asar nda ham debatga arzirli muammoli savol juda ko`p. Bu uchun dostonni har bir so`zini tushunib tahlil qilib, hayotiy vaziyatlar bilan bog`lab tahlil qilish kerak. Bu uchun biz ***“Asar va men***” usulidan foydalanishni maslahat berar edim.

“Asar va men” usulida asarga muammoli savol berganimizda, javobini o‘zimizning ijtimoiy hayotimiz bilan bog‘lab javob beramiz.

Masalan **savol:** “Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy o‘tgan, O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli haqida nimalar bilasiz?

Javob: Dostonda qo‘ng‘irot urug‘ining vujudga kelishiva tarkibi bo'lishixususidaqushqanchafikrlarmavjud.Undaaytilishicha, o‘zbeklarning to‘qson ikki urug‘iga asoslar solgan O‘zbekliboyning katta o‘g‘li Mamatqulboy bo‘lib, u qo‘ng‘ir ot minib yurgan, shu sababli Qo‘ng‘irotliklar deb nomlangan.

Bu siz uchun qiziq:

Xurshid Davronning “Alpomishning qaytishi” she’rini o‘rganishda ***“Tafakkur gulshani”*** usulidan foydalanamiz.

Bepoyon dalalarda bir botir uxlar
Sochlari chatishib ketgan giyohga
Qay sado botirni yana qaytarar
Bu ko‘hna, bu saqov, bu kar dunyoga?
… Chollar qayg‘uradi: “Kim uyg‘otar, kim?”
Kampirlar yig‘laydi: “Uyg‘onmas mangu!”

Shamollar guvillab o‘tar betinim.
Boshida bulutlar qotgan beuyqu
Xira ko‘zlarini uzmay ufqdan
Donishmand cholgina yo‘lga termilar
Va aylar bashorat: “Uni uyqudan”
Uyg‘ota oladi faqat bolalar”
(Xurshid Davron)

Tafakkur gulshani” usuli orqali Xurshid Davronning “Alpomishning qaytishi” she’rida uxlab yotgan Alpomishni faqatgina bolalar uyg‘ota olish bashorat qilinadi. Nega? Botirni qanday bolalar uyg‘ota oladi deb o‘ylaysiz? She’rdagi ramziy mazmunni tahlil qiling.

Bundan tashqari asardagi ijobiy qahramon bo‘yicha 6 ta ijodiy, 4 salbiy, salbiy qahramon bo`yicha 6 ta salbiy, 4 ta ijobiy tomonini yoz degan “**6X4”** usulini ham o‘tkazish mumkin.

XULOSA. Bugungi kunda adabiyot ta’limida funksional yondashuvning kuchayishi ham badiiy asarni tanqidiy tahlil qilish metodikasining dolzarbligini belgilaydi. Chunki funksional yondashuv o‘quvchining faqat ma’lum hajmdagi bilimlarni egallashini emas, balki mazkur bilimlarni turli o‘quv va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishini nazarda tutadi. Badiiy asarni tanqidiy tahlil qilish jarayonida o‘quvchi matndan olingan axborotni tanlaydi, uni qayta ishlaydi, turli

nuqtayi nazarlarni o‘zaro qiyoslaydi, sabab-oqibat munosabatlarini belgilaydi, o‘z munosabatini shakllantiradi va uni asoslaydi. Bu esa o‘quvchilarda kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy hamda kognitiv kompetensiyalarning integrallashgan holda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. – T.: Ma’naviyat, 2006. – 12-bet.
2. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.
3. Yo‘ldoshev Q. B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 1996.
4. Mirzayeva Z. I., Djalilov K. Q. Adabiyot. 1-qism: 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2024. – 144 b.
5. G‘aniyev B., Qo‘chqorova D. Pedagogik texnologiya va innovatsion ta’lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
6. Xodjimuhammedov A. Zamonaviy ta’lim metodlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
7. Karimova N. Adabiyot darslarida interfaol metodlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2023.

RAQAMLI TA’LIM VOSITALARI ASOSIDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: “AQLLI UYLAR TIZIMI” MAVZUSI MISOLIDA. (5-ONA TILI)

Negmatova Latofat
Buxoro viloyati Peshku tuman
23-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada 5-sinf ona tili darslarida "Aqlli uylar" mavzusidagi videolavhani ko‘rish va tinglab tushunish topshiriqlarini bajarishning tizimli yondashuv asosida o‘rganilishi yoritiladi. Unda har bir tinglab tushunish faoliyati qanday qismlarga ajralishi, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda metodik aspektlar izohlanadi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchi faqat axborot qabul qilmaydi, balki uni tahlil hamda muhokama qilishni o‘rganadi. Dars jarayonida multimediadan samarali foydalanish, o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalar haqidagi bilimni muammoli savollar va interfaol topshiriqlar orqali yetkazishning afzalliklari ko‘rsatib beriladi. Maqola Buxoro viloyatidagi maktab sharoitida ham mazkur yo‘nalishda ilg‘or usullardan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu tajribaning amaliy natijalari va hozirgi o‘quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib metodik tavsiyalar taklif qilinadi. Asar maktab o‘qituvchilari va metodistlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: aqlli uy, videolavha, tinglab tushunish, 5-sinf ona tili, tizimli yondashuv, amaliy topshiriq, Buxoro viloyati

Abstract: This article examines a systematic approach to completing viewing and listening comprehension tasks based on the topic of "Smart Homes" in 5th-grade native language lessons. It explains the breakdown of listening comprehension activities into specific components, the interconnections between them, and the relevant methodological aspects. Through this approach, students do not merely receive information but also learn to analyze and discuss it. The article highlights the benefits of effectively utilizing multimedia during lessons and conveying knowledge about modern technologies to students via problem-based questions and interactive tasks. It also explores opportunities for implementing advanced methods in this area within the context of schools in the Bukhara region. Methodological recommendations are proposed based on the practical results of this experience and the needs of contemporary students. This work serves as a useful resource for school teachers and methodologists.

Keywords: smart home, video clip, listening comprehension, 5th-grade native language, systematic approach, practical task, Bukhara region

Аннотация: В данной статье рассматривается систематический подход к изучению видеоролика на тему «Умные дома» на уроках родного языка в 5 классе и выполнению заданий на понимание на слух. Объясняется, как каждое задание на понимание на слух делится на части, какова взаимосвязь между ними и методические аспекты. Благодаря такому подходу ученик учится не только получать информацию, но и анализировать и обсуждать её. Показаны преимущества эффективного использования мультимедиа в процессе обучения и передачи знаний о современных технологиях учащимся посредством проблемных вопросов и интерактивных заданий. В статье раскрываются возможности применения передовых методов в этом направлении в школьной среде Бухарской области. На основе практических результатов данного опыта и потребностей современных учащихся предлагаются методические рекомендации. Работа может быть полезна для школьных учителей и методистов.

Ключевые слова: умный дом, видео, понимание на слух, родной язык, 5 класс, систематический подход, практическое задание, Бухарская область

Kirish. Ona tili o‘qitishida nazariy tamoyillar va kundalik mashg‘ulotlar o‘rtasida sezilarli tafovut borligi tez-tez kuzatiladi. Ayniqsa, tinglab tushunish ko‘nikmasi maktab darsliklarida zamonaviy usullar va multimedia vositalaridan

foydalanish zarurligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, amalda ushbu faoliyat aksariyat hollarda oddiy savol-javob yoxud qisqa matnlarni takror o‘qib eslatish bilan cheklanib qoladi. Buxoro viloyatidagi maktablar misolida ham dars jarayonlarida multimediadan samarali foydalana olish, o‘quvchilarni faol tinglovchi va mustaqil muhokama ishtirokchisiga aylantirish bo‘yicha sustlik kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, 5-sinf ona tili darslarida "Aqlli uylar" mavzusidagi videolavha asosida tinglab tushunish topshiriqlarini tizimli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada asosiy muammo – bilim va ko‘nikmalarni faqat passiv eshitish bilan emas, balki ularni tahlil qilish hamda o‘zaro bog‘liqliklarni anglash orqali mustahkamlashni ta’minlashdan iborat. Eski yondashuvda o‘qituvchi asosan matn o‘qib beradi, o‘quvchi esa uni ko‘pincha yuzaki eshitadi.

Zamonaviy tizim esa har bir faoliyatni mustaqil elementlardan tashkil qilgan holda, ularning o‘zaro ta’siri va ketma-ketligini aniq ko‘rsatishni taqozo etadi. "Aqlli uylar" mavzusini o‘rganishda birinchi navbatda, videolavhani tomosha qilish, asosiy tushunchalar va atamalarni ajratib olish, zamonaviy texnologiyalar hayotimizga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini fikran muhokama qilish kabi bosqichlar muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, har bir bosqichda eshitilgan ma’lumotni qayta ishlash, mustaqil xulosaga kelish, hayotiy misollar bilan bog‘lash topshiriqlari qo‘llaniladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat tilni o‘rganish, balki analitik tafakkur va zamonaviy texnologiyalarning asosi sifatida tizimli fikrlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Dars ishi davomida o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va baholovchi bo‘lib chiqadi.

O‘quvchilar esa faqat auditor emas, mustaqil ishtirokchi va baholovchi sifatida faol qatnashadi. Bunday yondashuv orqali maktab o‘quvchilarining darsga qiziqishi kuchayadi va ularning intellektual rivojlanishiga keng yo‘l ochiladi. Shu sababli, bolalarda zamonaviy texnologiyalarga nisbatan ongli va tizimli yondashuvni shakllantirish, "Aqlli uylar" mavzusi yordamida erishilishi mumkin bo‘lgan asosiy maqsadlardan sanaladi. Ushbu maqolaning asosiy vazifasi – mavjud o‘qitish tizimini tahlil qilib, aniq bosqichlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda zamonaviy metodik yondashuv asosida samarali tinglash topshiriqlari tashkil qilishdir.

Asosiy qism. Tinglab tushunish faoliyati, ayniqsa, "Aqlli uylar" mavzusida videolavha asosida tashkil etilsa, bir nechta o‘zaro bog‘liq tizim qismlaridan iborat bo‘ladi.

Birinchi bosqich – motivatsiya va tayyorlov qismi bo‘lib, bunda o‘qituvchi videoni ko‘rishdan avval bolalarda mavzuga qiziqish uyg‘otish uchun savollar beradi, yoki hayotiy misollar orqali mavzu muhimligini asoslaydi. Masalan, "Sizning uyingizda qanday zamonaviy texnika bor?", "Aqlli uylar haqida nimalar

eshitgansiz?" – kabi savollar o‘quvchilarni faol aqliy holatga keltiradi. Bu jarayonning asosiy ahamiyati shundaki, o‘quvchi shunchaki videoni tomosha qilmasdan, undagi asosiy nuqtalarni topishga intiladi.

Ikkinchi bosqichdagi videolavhani eshitish va ko‘rish amali bevosita bilim olish manbai sifatida xizmat qiladi; bunda o‘quvchilar asosiy atama va tushunchalarni ajratish, ularni yozib olish, tushunmagan joylarda yana eshitib ko‘rish imkoniga ega bo‘lishadi. Videolavhaning qismlarga ajratilishi (kirish, asosiy qism, xulosa) har bir qismda alohida topshiriq va savol-tahlil faoliyatini tashkil etishga yo‘l ochadi. Masalan, kirish qismida – "Aqlli uylar nima?", asosiy qismda – "Ular qanday ishlaydi va hayotga qanday ta’sir ko‘rsatadi?", xulosa qismida esa – "Ushbu texnologiyaning kelajagi haqida nima o‘ylaysiz?" kabi savollar muntazam aylanib turadi.

Uchinchi bosqichda – faollashtirish va qayta ishlash vazifalari bajariladi: bu bosqichda o‘quvchilar videolavhada eshitilgan faktlarni tahlil qilishadi, ularning hayotiy dolzarbligi va amaliy ahamiyatini muhokama qilishadi. Tizimli yondashuvning muhim jihati shundaki, har bir bosqich alohida mustaqil segment sifatida emas, balki keyingisiga tayanch vazifasini bajaradi. Eshitilgan ma’lumotlar ustida ishlash, ularni fikr kartalariga joylashtirish, asosiy va yordamchi g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash topshiriqlari samarali natija beradi.

To‘rtinchi bosqich – baholash va ijodiy faoliyat bosqichi: bunda o‘quvchi o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalash, "Aqlli uylar"ning afzalliklari va kamchiliklarini taqqoslash, zamonaviy texnologiyalar hayotidagi rolini tahlil qilishga undaladi. Bu jarayon faqat reproduktiv emas, balki analitik ham bo‘lib, o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga imkoniyat yaratadi. Misol uchun, "Agar siz aqlli uyda yashasangiz, hayotingizda nimalar o‘zgarardi?" yoki "Aqlli uyning xavfsizlikka ta’siri haqida fikringiz qanday?" – kabi savollar orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash mumkin. Buxoro viloyati maktablari tajribasida bu bosqichlar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lsa, dars samaradorligi ancha ortadi.

Tizimli yondashuvda har bir element (motivatsiya, axborot olish, tahlil, kreativ faoliyat, baholash) o‘zaro mustahkam aloqa va ketma-ketlik asosida qurilganligi sababli, umumiy natijaning sifatiga sezilarli ta’sir qiladi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmasi, tanqidiy va ijodiy yondashuvi, axborotni tanlab olish va uni tahlil qilish salohiyati aynan shunday tizimli mashg‘ulotlar orqali shakllanadi. Ustozning boshqaruv faoliyati esa har bir bosqichda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi: u o‘quvchilarni o‘z fikrini aniq va asosli ifodalashga, ijtimoiy hamkorlikda faol bo‘lishga, yangi bilimlarni mustahkamlashga yo‘naltiradi.

"Aqlli uylar" mavzusida videolavha asosida tashkil etilgan tinglab tushunish darsi, avvalo, mustaqil axborot qabul qilish va uni qayta ishlash imkoniyatini ochadi; ikkinchidan, o‘quvchi o‘z hayoti va atrofidagi voqelik bilan bog‘laydi; uchinchidan, texnologik tafakkur va zamonaviy bilimlarni muhokama qilishga qiziqishini oshiradi. Bozor sharoitida zamonaviy texnika va aqlli uy tizimlarining rivojlanib borayotganligi, kelajakda har bir sohada texnologiyalashuv kuchayishi – bunday mashg‘ulotni doimiy yangilab, interfaol usullar bilan boyitishni talab etadi. Dars jarayonida har xil o‘yin, rolli muhokama, viktorina, loyihaviy ishlar, miniproektlar va test topshiriqlari kabi turli metodik vositalardan foydalanish, har bir o‘quvchining individual salohiyatiga mos yondashishni ta’minlaydi.

Tizimli yondashuvda muhim jihatlardan biri o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdir: savol-javoblar, muhokamalar, fikr almashish, guruhlarda ishlash, umumiy xulosalarga kelish, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning tahliliy va baholovchi salohiyati zamonaviy darsning markaziy qismiga aylanadi. Bu vositalar orqali "Aqlli uylar" haqidagi videolavhadan olingan bilimlar chuqurroq tushuniladi. Masalan, o‘quvchilar o‘z uylarini "aqlli uy" tizimi asosida loyihalash, unga zarur qurilmalar va ularning funksiyalarini aniqlash ishlariga jalb qilinsa, ular nazariy bilimni amaliy vazifa orqali mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. O‘qituvchi bu jarayonda har bir bosqichning mustahkam bog‘liqligiga e’tibor qaratib, natijada butun tinglab tushunish jarayoni yaxlit, mazmunli va samarali bo‘lishiga erishadi. Bozorga yoki mahalliy hayotga oid real misollar yordamida mavzuga jonlilik kiradi. Videolavhada ko‘rsatilgan texnologiyalarni o‘z hayoti bilan taqqoslash, global trendlar va mahalliy sharoit kontrasti orqali o‘quvchi individual va umumiy xulosalarga keladi.

Bunday interfaol va tizimli darslarni o‘tkazishda mavjud texnik vositalarning yetarliligi, muallimning zamonaviy metodik bilim va ko‘nikmalari, o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘zlashtirish darajasi, baholash mezonlarining aniq belgilanganligi natijaviylikka erishishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tizimli tahlil asosida ko‘rilgan dars o‘qitish standartlariga to‘liq javob berib, har bir bosqichda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, analitik va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tinglab tushunish topshiriqlari yordamida o‘quvchilar zamonaviy informatsion oqimda zarur va ortiqcha axborotni ajrata olish, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, "Aqlli uylar" mavzusida tinglab tushunishga oid darslarni tizimli tashkil etish amaliy tajriba va nazariy bilimning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlab, zamonaviy o‘quvchilar ehtiyojiga javob beradi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida "Aqlli uylar" mavzusidagi videolavha asosida tinglab tushunish topshiriqlarini tizimli tashkil qilish, o‘quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki ularning analitik va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Har bir bosqichning mustahkam bog‘liqlikda bo‘lishi, motivatsiyadan tortib, baholashgacha bo‘lgan jarayonni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish, dars samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faol va ongli tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Analitik yondashuv orqali nafaqat til o‘rganish, balki zamonaviy texnologiya va jamiyat hayoti bilan bog‘liq dolzarb masalalarni muhokama qilish odati hosil qilinadi. Tinglab tushunish topshiriqlari maktab o‘quvchilarini mustaqil fikr yuritish, o‘z qarashlarini asoslash, jamoadagi muhokamalarda faol ishtirok etish, real voqealarga o‘z nuqtai nazari bilan yondashish ko‘nikmasiga ega bo‘lishga yetaklaydi.

Tizimli yondashuvning yana bir afzalligi shundaki, har bir o‘quvchi o‘z salohiyati va tezligini inobatga olgan holda bilim oladi, bu esa darsda inklyuzivlik va ijtimoiy moslashuvchilikni ta’minlaydi. Multimediali videolavhalardan foydalanish amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashgan holda axborot olish, uni chuqur o‘rganish va qayta ishlashni samarali qiladi. Maktab tajribasida bunday darslar o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashga, ijtimoiy faollikka, mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Metodik tavsiyalar asosida har bir dars jarayoni boyitilib, zamonaviy texnologiyalar va hayotiy misollar orqali mavzuga chuqur kirib boriladi.

O‘qituvchining boshqaruv roli, o‘quvchiga yo‘naltiruvchi va baholovchi sifatida to‘g‘ri mas’uliyat yuklash, faoliyatlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash natijasida, umuman darsning ilmiy va amaliy ahamiyati oshadi. Ushbu maqola tahlilidan ko‘rinadiki, "Aqlli uylar" mavzusi asosida tinglab tushunish topshiriqlari nafaqat bilim, balki zamonaviy tafakkurni shakllantirish, jamiyatda faol o‘rin egallashga puxta tayyorgarlik ko‘rishga xizmat qiladi. Tajriba ko‘rsatishicha, o‘quvchilar bunday interfaol mashg‘ulotlarda nafaqat zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, balki til materialini ongli o‘zlashtiradi, tanqidiy va ijodiy yondashuvni taraqqiy ettiradi. Shu sababdan darslarni tizimli tashkil qilish va har bir bosqichda aniq maqsad va natijaga erishish ham amaliy, ham nazariy jihatdan samarali hisoblanadi. Bu esa zamonaviy maktabda til o‘qitish sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolboyeva M. (2023). Ona tili darslarida tinglab tushunish metodikasi. Toshkent: Ma’rifat nashriyoti, 42-63.
2. Raxmonov A. (2021). Multimedia vositalari yordamida til o‘qitish. Buxoro: Ilm ziyo, 57-78.

3. Akbarov S. (2022). Zamonaviy texnologiyalar va o‘quv jarayoni. Samarqand: Noshir, 84-106.
4. Karimova L. (2020). Ona tili o‘qitishda interfaol metodlar. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 112-135.
5. Ruzmetova M. (2023). O‘quvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirish. Andijon: Talaba nashriyoti, 65-80.
6. Ismoilov I. (2022). Ta’limda tizimli yondashuv nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 25-47.
7. Yusupova Z. (2021). Videolavha asosida til materialini o‘zlashtirish. Namangan: Ibrat nashriyoti, 91-104.

TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ortiqova Aziza Bahriddin qizi
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirishda tinglab tushunish kompetensiyasining o‘rni tahlil qilindi. Tinglab tushunish jarayonining mohiyati, uning funksional savodxonlik bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilib, ta’lim amaliyotida uchrayotgan asosiy muammolar aniqlandi. Shuningdek, muammolarni bartaraf etishga qaratilgan metodik yechimlar, jumladan, bosqichli tinglash topshiriqlari, autentik materiallar, strategiyalarni o‘rgatish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: tinglab tushunish, funksional savodxonlik, kompetensiya, nutqiy faoliyat, tinglash strategiyalari, autentik material, baholash.

Аннотация. В статье анализируется роль компетенции аудирования в формировании функциональной грамотности учащихся. Освещается сущность процесса аудирования, его взаимосвязь с функциональной грамотностью, выявляются основные проблемы, встречающиеся в образовательной практике. Также будут представлены методические решения, направленные на устранение проблем, включая поэтапные аудиторные задания, аутентичные материалы, рекомендации по совершенствованию механизмов обучения и оценки стратегий.

Ключевые слова: аудирование, функциональная грамотность, компетенция, речевая деятельность, стратегии аудирования, аутентичный материал, оценка.

Abstract. The article analyzed the role of listening comprehension competence in shaping students' functional literacy. The essence of the listening comprehension process and its interconnection with functional literacy are highlighted, and the main problems encountered in educational practice are identified. Recommendations were also provided for improving methodological solutions aimed at overcoming problems, including step-by-step listening tasks, authentic materials, training strategies, and evaluation mechanisms.

Keywords: listening comprehension, functional literacy, competence, speech activity, listening strategies, authentic material, assessment.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi o‘quvchilarga shunchaki bilim berish emas, balki ularni olingan bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu sababli funksional savodxonlik so‘nggi yillarda ta’lim siyosatining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. Funksional savodxonlik o‘quvchining o‘qish, yozish, tinglash, so‘zlash, hisoblash va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini kundalik hayot, o‘qish va kelgusi kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi.

Funksional savodxonlik haqida so‘z borganda, ko‘pincha o‘qish va yozish ko‘nikmalari birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Holbuki, inson kundalik muloqotining katta qismi og‘zaki nutqni tinglash va tushunish orqali amalga oshadi. Dars jarayonida o‘quvchi o‘qituvchi tushuntirishini, sinfdoshlarining fikrini, audio va video materiallarni tinglaydi; keyinchalik esa ish joyida, ijtimoiy muhitda va axborot makonida eshitgan ma’lumotini tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Demak, tinglab tushunish kompetensiyasi funksional savodxonlikning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Biroq amaliyotda tinglab tushunish ko‘nikmasi boshqa nutqiy faoliyat turlariga nisbatan kamroq e’tibor oladi, ko‘pincha alohida o‘rgatilmaydi, balki o‘z-o‘zidan shakllanadigan ko‘nikma deb qaraladi. Mazkur maqolaning maqsadi tinglab tushunish kompetensiyasining funksional savodxonlikni oshirishdagi rolini asoslash, mavjud muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini taklif etishdan iborat.

Tinglab tushunish kompetensiyasining mohiyati

Tinglab tushunish murakkab va faol aqliy jarayon bo‘lib, u shunchaki ovozlarni eshitishdan iborat emas. Tadqiqotchilar bu jarayonni odatda bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat deb tavsiflaydi: nutq tovushlarini idrok etish, so‘zlar va ularning ma’nosini aniqlash, gaplar va butun matn mazmunini anglash, eshitilgan ma’lumotni oldingi bilimlar bilan bog‘lash hamda unga o‘z munosabatini bildirish.

Tinglab tushunish jarayonida ikki xil yondashuv birgalikda ishlaydi. Birinchisi "pastdan yuqoriga" yondashuvi bo‘lib, bunda tinglovchi tovush, so‘z va gap darajasidagi ma’lumotlardan umumiy ma’noga o‘tadi. Ikkinchisi "yuqoridan pastga" yondashuvi bo‘lib, bunda tinglovchi mavzu, kontekst va avvalgi bilimlariga tayanib, eshitilayotgan ma’lumotni bashorat qiladi va talqin etadi. Samarali tinglovchi bu ikki yondashuvdan uyg‘un foydalana oladi.

Tinglab tushunish kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb qarash mumkin:

- **til komponenti:** talaffuz, intonatsiya, lug‘at boyligi va grammatik qurilmalarni tushunish;
- **mazmuniy komponent:** asosiy g‘oya, tafsilotlar, sabab-oqibat aloqalari va yashirin ma’noni aniqlash;
- **strategik komponent:** bashorat qilish, muhim axborotni ajratish, qayd olish, tushunmagan joyni kontekst orqali anglashga urinish;
- **tanqidiy komponent:** manba ishonchliligini, so‘zlovchi maqsadini va ma’lumotning to‘g‘riligini baholash.

Tinglab tushunish va funksional savodxonlikning o‘zaro aloqasi

Funksional savodxonlikning mohiyati bilimni amaliyotda qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Tinglab tushunish ko‘nikmasi bu jarayonda bir necha yo‘nalishda muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, o‘quv jarayonida tinglash o‘quvchilar bilim olishining asosiy yo‘llaridan biridir. Tinglab tushunish darajasi past o‘quvchi dars mazmunini to‘liq o‘zlashtira olmaydi, bu esa boshqa fanlardagi muvaffaqiyatga ham ta’sir qiladi.

Ikkinchidan, tinglab tushunish o‘qib tushunish bilan chambarchas bog‘liq. Ikkala jarayonda ham o‘quvchi matn mazmunini qayta ishlaydi, asosiy fikrni ajratadi, xulosa chiqaradi. Tinglash orqali shakllangan strategiyalar (bashorat qilish, xulosalash, muhim ma’lumotni ajratish) o‘qish jarayoniga ham ko‘chadi.

Uchinchidan, tinglab tushunish ijtimoiy muloqot madaniyatini shakllantiradi. Suhbatdoshni diqqat bilan tinglay olish, uning fikrini to‘g‘ri tushunish va munosib javob qaytarish hamkorlik, hurmat va samarali muloqotning asosidir.

To‘rtinchidan, axborot oqimi keskin ortgan hozirgi davrda audio va video kontentni tanqidiy tinglash, unda berilgan ma’lumotni tahlil qilish va yolg‘on yoki yo‘naltirilgan axborotni ajrata olish funksional savodxonlikning zamonaviy ko‘rinishidir.

Shunday qilib, tinglab tushunish kompetensiyasi nafaqat til o‘rganish vositasi, balki o‘quvchining hayotga tayyorligini belgilovchi umumiy kompetensiyalardan biridir.

Tinglab tushunishni rivojlantirishdagi asosiy muammolar

Amaliyot tahlili va metodik adabiyotlar o‘rganilishi natijasida quyidagi asosiy muammolarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Tinglash ko‘nikmasiga ajratiladigan vaqt va e’tiborning yetarli emasligi. Ko‘p hollarda dars jarayonida o‘qish, yozish va grammatikaga ko‘proq vaqt ajratiladi, tinglash esa ikkinchi darajali faoliyat sifatida qaraladi. Natijada o‘quvchilar tinglash strategiyalarini tizimli o‘zlashtira olmaydi.

2. Tinglashning o‘rgatilmasdan, faqat tekshirilishi. An’anaviy darslarda tinglash ko‘pincha "matnni eshittirish va savollarga javob olish" tarzida o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchi tushunish jarayonini qanday tashkil etishni o‘rganmaydi, faqat natija tekshiriladi. Bu yondashuv tinglashni o‘rgatish emas, balki sinashga aylantirib qo‘yadi.

3. Autentik va o‘quvchi yoshiga mos materiallarning tanqisligi. Darsliklardagi tinglash matnlari ko‘pincha sun’iy, adabiy tilda va juda sekin tezlikda o‘qilgan bo‘ladi. Real hayotdagi nutq esa tezroq, to‘xtashlar, takrorlar, shevaga xos xususiyatlar va fon shovqini bilan kechadi. Bu farq o‘quvchilarda real vaziyatlarda tushunish qiyinchiligini keltirib chiqaradi.

4. Texnik va moddiy-texnik ta’minotdagi cheklovlar. Sifatli audio uskunalar, o‘quv xonalarining akustik sharoiti va raqamli resurslarning yetishmasligi tinglash mashg‘ulotlari samaradorligini pasaytiradi.

5. Baholash mexanizmlarining cheklanganligi. Tinglab tushunish kompetensiyasini baholash qiyin, chunki tushunish jarayoni bevosita kuzatilmaydi. Ko‘pincha faqat yopiq testlar qo‘llanadi, ular esa tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarish va axborotni baholash kabi yuqori darajadagi ko‘nikmalarni to‘liq o‘lchay olmaydi.

6. O‘quvchilarning psixologik va individual xususiyatlari. Diqqatning tez chalg‘ishi, xotira hajmining cheklanganligi, tinglash vaqtida xavotir va audiomatnni faqat bir marta eshitish vaziyati ko‘pchilik o‘quvchilar uchun qo‘shimcha to‘siq bo‘ladi.

7. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligidagi bo‘shliqlar. Ba’zi o‘qituvchilar tinglash strategiyalarini o‘rgatish metodikasi, bosqichli topshiriqlar tuzish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emas.

Muammolarning yechimlari va metodik tavsiyalar

Yuqorida sanalgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlarni taklif etish mumkin.

1. Tinglash darsini uch bosqichda tashkil etish

Samarali tinglash mashg‘uloti odatda uchta bosqichdan iborat bo‘ladi:

- **Tinglashdan oldingi bosqich (pre-listening).** O‘quvchilar mavzuga tayyorlanadi: oldingi bilimlar faollashtiriladi, kalit so‘zlar tanishtiriladi, rasm

yoki sarlavha asosida bashorat qilinadi. Bu bosqich o‘quvchining "yuqoridan pastga" yondashuvini ishga soladi.

- **Tinglash jarayoni (while-listening).** Topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashadi: avval umumiy mazmunni anglash, so‘ng muhim tafsilotlarni topish, keyin xulosa chiqarish. Matn bir necha marta, har safar yangi vazifa bilan eshittiriladi.
- **Tinglashdan keyingi bosqich (post-listening).** Eshitilgan ma’lumot muhokama qilinadi, qisqacha bayon etiladi, rolli o‘yin yoki loyiha ishiga bog‘lanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar tinglash jarayonida qaysi strategiyalar yordam bergani haqida mulohaza yuritadi.

2. Tinglash strategiyalarini o‘rgatish

O‘quvchilarga bashorat qilish, kalit so‘zlarni ajratish, qisqa qayd olish, tushunilmagan so‘zni kontekstdan taxmin qilish va o‘z tushunishini nazorat qilish kabi strategiyalarni aniq namuna orqali ko‘rsatish zarur. O‘qituvchi "o‘ylab tinglash" (think-aloud) usulidan foydalanib, o‘z fikrlash jarayonini ovoz chiqarib namoyish etishi mumkin.

3. Autentik va turli janrdagi materiallardan foydalanish

Audiomateriallar xilma-xil bo‘lishi lozim: e’lonlar, suhbatlar, intervyular, yangiliklar, ilmiy-ommabop ma’ruzalar, podkastlar. Material qiyinlik darajasi bo‘yicha bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi, shu bilan birga, o‘quvchilarning qiziqishi va yoshiga mos bo‘lishi kerak. Real hayotiy vaziyatlarni (bekatdagi e’lon, shifokor ko‘rsatmasi, telefon suhbati, ko‘rsatma tinglash) modellashtiruvchi topshiriqlar funksional yo‘nalishni kuchaytiradi.

4. Raqamli texnologiyalardan foydalanish

Audio va video platformalar, interaktiv ilovalar, onlayn podkastlar, subtitrli videolar va mobil ilovalar tinglash amaliyotini sinfdan tashqariga ham olib chiqadi. O‘quvchi o‘z sur’atida bir necha marta tinglashi, nutq tezligini sozlashi va o‘zini tekshirishi mumkin. Texnik jihozlar cheklangan sharoitda o‘qituvchining o‘zi o‘qigan matnlar, sinfdoshlar bilan juftlikda bajariladigan tinglash topshiriqlari ham samarali bo‘ladi.

5. Tinglashni boshqa nutqiy faoliyat turlari bilan integratsiyalash

Tinglashni o‘qish, yozish va gapirish bilan bog‘lovchi topshiriqlar (masalan, tinglagan ma’lumotni qisqartirib yozish, tinglagan matn asosida munozara o‘tkazish, intervyu olib, uni taqdim etish) o‘quvchining kompetensiyasini yaxlit rivojlantiradi va funksional yondashuvni ta’minlaydi.

6. Baholashni takomillashtirish

Baholash faqat yopiq testlar bilan cheklanmasligi lozim. Quyidagi vositalardan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq:

- tanlov asosidagi va qisqa javobli savollar (aniq ma’lumotni anglash uchun);

- jadvalni yoki xaritani to‘ldirish topshiriqlari;
- eshitilgan ma’lumotni qisqacha bayon qilish yoki sharhlash;
- o‘z-o‘zini baholash va hamkorlikda baholash;
- rubrikalar asosida kuzatuv va portfolio.

Bunday yondashuv o‘quvchining nafaqat nimani tushunganini, balki qanday tushunganini ham aniqlash imkonini beradi.

7. O‘qituvchilar malakasini oshirish

O‘qituvchilar uchun tinglash metodikasi, strategiyalarga asoslangan o‘qitish, raqamli vositalar va baholash rubrikalarini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy treninglar, seminarlar va tajriba almashinuvi tashkil etilishi kerak. Fan o‘qituvchilarining hamkorligi (masalan, ona tili, chet tili va boshqa fanlar o‘qituvchilarining birgalikdagi ishi) tinglash madaniyatini butun ta’lim muhitida shakllantiradi.

8. Qulay ta’lim muhitini yaratish

O‘quvchilarning tinglash vaqtidagi xavotirini kamaytirish uchun xatoga bag‘rikeng muhit yaratish, topshiriqlarni oson bosqichdan boshlash, takroriy tinglashga imkon berish va muvaffaqiyatni rag‘batlantirish muhimdir. Shuningdek, sinf xonasining akustik sharoiti va tashqi shovqinni kamaytirish ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Muhokama. Taklif etilgan yechimlar o‘zaro bog‘liq tizimni tashkil etadi. Masalan, strategiyalarni o‘rgatish autentik materiallarsiz samarasiz bo‘ladi, autentik materiallardan foydalanish esa o‘qituvchining metodik tayyorgarligisiz kutilgan natijani bermaydi. Baholash ham o‘qitish jarayonidan ajralgan holda emas, balki unga xizmat qiluvchi vosita sifatida tashkil etilishi zarur. Shu sababli tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yaxlit yondashuv, ya’ni maqsad, mazmun, metod va baholashning uyg‘unligi talab etiladi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, tinglash ko‘nikmasi qisqa muddatda shakllanmaydi. U muntazam, rejali va maqsadli mashqlar orqali asta-sekin rivojlanadi. Shu bois tinglash mashg‘ulotlarini alohida, vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan faoliyat sifatida emas, balki har bir darsning doimiy qismi sifatida rejalashtirish tavsiya etiladi.

Xulosa. Tinglab tushunish kompetensiyasi o‘quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirishda muhim va ko‘pincha yetarlicha baholanmaydigan omil hisoblanadi. U o‘quv materialini o‘zlashtirish, axborotni tanqidiy qabul qilish, ijtimoiy muloqotda ishtirok etish va hayot davomida ta’lim olish uchun zarur poydevor yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavjud muammolar, ya’ni tinglashga ajratilgan e’tiborning yetarli emasligi, uni o‘rgatish o‘rniga faqat tekshirish, autentik materiallar tanqisligi, baholashning cheklanganligi va metodik tayyorgarlikdagi bo‘shliqlar, o‘zaro bog‘liq holda mavjud. Ularni hal etish uchun tinglash darsini

bosqichlarga bo‘lib tashkil etish, strategiyalarni ochiq o‘rgatish, autentik va xilma-xil materiallardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, tinglashni boshqa nutqiy faoliyat turlari bilan integratsiyalash, baholash vositalarini kengaytirish va o‘qituvchilar malakasini oshirish zarur.

Bu yechimlarning tizimli amalga oshirilishi o‘quvchilarning tinglab tushunish kompetensiyasini, demak, ularning funksional savodxonligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraimova D.G‘. Ta’limda baholash turlari va tinglab tushunish ko‘nikmasiga oid testlarni yaratish va baholash. – Zenodo, 2025. DOI: 10.5281/zenodo.15804081.
2. Doniyorov M. PISA, PIRLS, TIMSS international assessment research and its specific aspects. – News of the NUUz. – Toshkent, 2024. – B. 80–82. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.10.1.4742.
3. Buck G. Assessing Listening. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Field J. Listening in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

FILOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Rahmonova Merjen Rajabturdiyeva
Buxoro viloyati mahorat markazi
Uzluksiz kasbiy ta’limni rivojlantirish bo‘limi mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Funksional savodxonlikning mazmuni o‘quvchining o‘qish, tinglash, yozish, gapirish, axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va uni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ona tili va adabiyot darslarida muammoli ta’lim, loyiha metodi, case-study, 5E modeli, hamkorlikda o‘qitish, tanqidiy fikrlash texnologiyalari va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning amaliy usullari tavsiya etiladi. Maqolada funksional savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar namunalari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, filologik ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiya, ona tili, adabiyot, o‘qib tushunish, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, raqamli ta’lim, interfaol metod.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности развития функциональной грамотности учащихся в процессе филологического образования и эффективного использования инновационных педагогических технологий. Анализируются навыки чтения, слушания, письма, устной речи, поиска, анализа и оценки информации, а также применения полученных знаний в жизненных ситуациях. Рассматриваются возможности использования проблемного обучения, проектного метода, case-study, модели 5E, технологий сотрудничества, критического мышления и цифровых образовательных ресурсов на уроках родного языка и литературы.

Ключевые слова: функциональная грамотность, филологическое образование, инновационные технологии, родной язык, литература, читательская грамотность, критическое мышление, цифровое образование, интерактивные методы.

Abstract. This article discusses pedagogical approaches to developing students’ functional literacy in philological education and the effective use of innovative teaching technologies. It focuses on reading, listening, writing, speaking, information analysis, evaluation and the application of knowledge in real-life situations. The article examines the use of problem-based learning, project-based learning, case study, the 5E model, collaborative learning, critical thinking strategies and digital educational tools in language and literature lessons.

Keywords: functional literacy, philological education, innovative teaching technologies, native language, literature, reading literacy, critical thinking, digital education, interactive methods.

Kirish. Bugungi ta’lim tizimida o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli natija sifatida qaralmaydi. Zamonaviy ta’lim o‘quvchining egallagan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, axborotni mustaqil izlab topishi, tahlil qilishi, baholashi va o‘z fikrini asosli ifodalashini talab etmoqda. Xalqaro baholash dasturlarida ham savodxonlik tushunchasiga aynan shu nuqtayi nazardan yondashiladi. Mazkur yondashuv filologik ta’lim, xususan, ona tili va adabiyot fanlari uchun alohida ahamiyatga ega.

Chunki ushbu fanlar o‘quvchining matn bilan ishlashi, fikrni anglash, axborotni tahlil qilish, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, munosabat bildirish hamda muloqotga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu sababli filologik ta’lim jarayonida an’anaviy “bilim berish” modelidan

o‘quvchini faol fikrlashga, izlanishga va bilimini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga o‘tish zarur. Avvalo, funksional savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilamiz.

Asosiy qism. Funksional savodxonlik — bu insonning maktabda, oliy ta’limda yoki boshqa ta’lim muhitida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotda, ijtimoiy munosabatlarda, kasbiy faoliyatda va turli amaliy vaziyatlarda mustaqil hamda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Ya’ni funksional savodxonlik faqat o‘qish, yozish yoki qoidalarni bilish bilan cheklanmaydi.

Uning asosiy mazmuni — “bilimni hayotda qo‘llay olish”dir. Masalan, o‘quvchi ona tili darsida rasmiy uslub haqida qoidani bilishi mumkin. Ammo u maktab direktoriga ariza, tashkilotga murojaat yoki elektron xatni mustaqil va to‘g‘ri yoza olsa, bu uning funksional savodxonligi shakllanganini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, o‘quvchi matnni o‘qib, uning mazmunini aytib berishdan tashqari, matndagi asosiy fikrni aniqlasa, muallif nuqtayi nazarini baholasa, kerakli ma’lumotni ajratsa va o‘qigan ma’lumotidan real vaziyatda foydalansa, unda funksional savodxonlikning muhim ko‘nikmalari mavjud bo‘ladi. Funksional savodxonlikni oddiy savodxonlikdan farqlash muhim. Savodxonlik ko‘proq insonning o‘qish, yozish, hisoblash kabi bazaviy ko‘nikmalarini anglatishi mumkin.

Funksional savodxonlik esa ushbu ko‘nikmalardan maqsadli va amaliy foydalanishni nazarda tutadi. Masalan: Bilim: O‘quvchi reklama matnining tuzilishini biladi. Ko‘nikma: Reklama matnini tahlil qila oladi. Funksional savodxonlik: Turli reklamalardan kerakli ma’lumotni ajratib, ularning mazmunini tanqidiy baholay oladi va asosli qaror qabul qiladi. Demak, funksional savodxonlikning markazida amaliy faoliyat, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish turadi.Filologik ta’limda funksional savodxonlik bu ona tili va adabiyot fanlari funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun eng katta imkoniyatga ega fanlardan biridir. Chunki o‘quvchi bu fanlarda doimiy ravishda matn o‘qiydi, tinglaydi, gapiradi, yozadi, tahlil qiladi va o‘z fikrini ifodalaydi.

Masalan: o‘qib tushunish, matndan kerakli axborotni topish, asosiy va ikkilamchi ma’lumotni farqlash, fakt va fikrni ajratish, axborotning ishonchliligini baholash, matnlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, og‘zaki fikrni aniq ifodalash, yozma nutqni mantiqiy tashkil etish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, xulosa chiqarish, olingan bilimni yangi vaziyatga ko‘chirish. Bu jarayondaa innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan:

1. **Muammoli ta’lim texnologiyasi.** Muammoli ta’lim o‘quvchini tayyor javobni qabul qilishga emas, muammoni anglash va yechim izlashga undaydi. Masalan, adabiyot darsida: “Illiada” dostonini o’qitishda asosan o’quvchilarning e’tiborni asar qahramonlarining xarakter-xususiyatiga qaratish lozim. Chunki bu

dostondagi har bir qahramon alohida tavsifga muhtoj. Hatto bu dostonda ilohiy ma’budlar ham doston voqealari rivojini, umuman insonlarning taqdirini boshqarib, yakun yasashlari mumkin. Shu sababli ham “Mening qahramonim kim va nima uchun”savoli qo’yiladi va shu orqali dostondagi obrazlarni tahlil qilinadi. Muhim eslatma: nima uchun tanlagan obrazni o’zlarining qahramoni sifatida tan olishgan, shu jihatiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Aynan o’quvchilarni baholashda ana shu jihati inobatga olinadi. Qahramonlar (”Illiada”dostoni) Hektor, Paris, Priam, Axillis, Yelena, Menelay, Agamemnon, Patrokl, Andromaxa, Hekuba, Polidamas, Appalon, Zevs,Afina, Aid, Feba. Masalan: Andromaxa mening qahramonim. Bu Hektorning rafiqasi. Unda haqiqiy ayollarga xos mehribonlik, sadoqat, muhabbat, teran aqliy salohiyat kabi sifatlarni ko’rish mumkin. Shuningdek, u jasoratli, sabr-toqatli va oilasiga sodiq, turmush o’rtog’ini har qanday vaziyatda ham qo’llab-quvvatlab yonida turuvchi ayol. Shu bilan birga u oilaparvarligi bilan o’zbek ayollariga o’xshagani uchun ham mening qahramonim. Hektor mening qahramonim. U Troyaning bosh qo‘mondoni, Andromaxaning turmush o‘rtog‘i. U Axillisdan farqli o‘laroq, urushni shon-sharaf uchun emas, balki oilasi va xalqini himoya qilish uchun qabul qilgan haqiqiy vatanparvar va mas’uliyatli qahramon. Paris mening qahramonim. Garchi u urushning sababchisi bo’lsa-da,bu ishni ishqi tufayli qildi. U jasoratdan ko‘ra go‘zallik va ishq-muhabbatni ustun qo‘yuvchi, biroz mas’uliyatsizroq obraz. Priam mening qahramonim. U Troyaning keksa va dono podshohi. O‘z o‘g‘li Hektorning jasadi uchun, hatto dushmani Axillisning oyog‘iga yiqilib iltijo qilishga tayyor bo‘lgan buyuk ota timsoli. Bu jihati bilan o’zbek millatidagi mehribon, g’amxo’r, farzandlari uchun jonini ham ayamaydigan otalarga o’xshaydi. Hekuba mening qahramonim. U Priamning rafiqasi, Troyan malikasi. U ko‘p farzandlaridan ayrilgan, urushning barcha azoblarini tortgan ona timsoli. Farzandlarining janglarda dushman qo’lida jon taslim qilganini ko’rib, o’zi ham ruhan ming bora o’lgan matonatli ona. Yunonlarning eng kuchli jangchisi. U o‘ta qiziqqon, hissiyotlarini jilovlay olmaydigan, g‘ururi baland, mard, jasur, qasos o’ti bilan yonuvchi va o‘limdan qo‘rqmaydigan shiddatli jangchi. Uning obrazida men o’zimni ko’raman. Shu tariqa har bir o’quvchi o’zining qahramoniga ta’rif berib, asardan unga tegishli bo’lgan jumlalar bilan ham fikrlarini dalillay olishi mumkin. Bundan maqsad: O’quvchida asar qahramonlariga ta’rif berish jarayonida ularda tahliliy baholash ko’nikmasi shakllanadi.O’z fikrlarini jamoada muhokama qilib, himoya qilish malakasi rivojlanadi. Asar qahramonlarining har bir xatti-harakatini tahlil qilish jarayonida tanqidiy fikrlash, vaziyatlardan kelib chiqib, to’g’ri qarorlar qabul qilish malakasi shakllanadi.

2. Loyiha metodi. Loyiha metodi o‘quvchining mustaqil izlanishini ta’minlaydi. Masalan, “Mahallamizdagi shevaga xos so‘zlar” loyihasida o‘quvchilar:

1. Mahalla aholisi bilan suhbatlashadi;
2. shevaga xos so‘zlarni yozib oladi;
3. ularning adabiy tildagi muqobilini aniqlaydi;
4. so‘zlarning ma’nosini izohlaydi;
5. natijalarni jadval yoki taqdimot shaklida tayyorlaydi.

Bunday faoliyat o‘quvchining nafaqat tilga oid bilimlarini, balki muloqot, axborot izlash, tahlil qilish va taqdim etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

3. Case-study usuli. Case-study o‘quvchiga real hayotga yaqin vaziyatni taqdim etib, undan muammoni hal qilishni talab qiladi.Masalan: “Siz maktab tadbirida 3 daqiqalik nutq bilan chiqishingiz kerak. Nutqingizni qanday boshlaysiz, qanday dalillar keltirasiz va qanday xulosa qilasiz?” O‘quvchi, avvalo, vaziyatni tahlil qiladi, keyin nutq rejasini tuzadi va uni og‘zaki taqdim etadi. Bu usul kommunikativ kompetensiya, mantiqiy fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantiradi.

4. 5E modeli. Filologik ta’limda 5E modelidan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Masalan, yangi grammatik mavzu boshlanishida o‘quvchilarga tayyor qoida berish o‘rniga, turli gaplar taqdim etiladi. O‘quvchilar ularni taqqoslaydi, umumiylikni aniqlaydi va qoida haqida o‘zlari xulosa chiqaradi. Keyin qoida yangi misollarda qo‘llanadi. Bu yondashuv o‘quvchining bilimni tayyor holda qabul qilishidan ko‘ra uni izlanish orqali egallashiga imkon yaratadi.

5. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi. Tanqidiy fikrlash funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Masalan, 5-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi “Sher bilan Durroj” hikoyati keltirilgan. Shu hikoyaga o’quvchilar “Men adabiy tanqidchi” deb baho beradi. Masalan: Alisher Navoiy bu hikoyatni insonlar o’qib, hayotiy tajriba olsinlar degan maqsadda yozgan. Chunki yolg’onchilik yomon odat, u, albatta, bir kun kelib insonning hayotiga nuqta qo’yishi mumkin. Eng yomoni senga ishongan, seni o’ziga do’st deb bilgan insonga pand berish bu vijdonsizlik. Shu sababli ham Navoiy yolg’on gapirgan qirg’ovulni hayotiga yakun yasaydi, ammo har bir inson ikkinchi imkoniyatga, kechirimga loyiq deganlaridek, qirg’ovulga ham bir marta imkon berib, uni bu yo’ldan qaytarish kerak edi. Agar menda Navoiyning qalami bo’lganda edi, qirg’ovulni hayotda yashashi va o’z xatolarini tuzatishi uchun imkon berar edim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, filologik ta’limda funksional savodxonlikni rivojlantirish bugungi ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Chunki ona tili va adabiyot fanlarining asosiy maqsadi faqat grammatik qoidalar yoki badiiy asar mazmunini o‘rgatish bilan chegaralanmaydi. Ushbu fanlar orqali o‘quvchi o‘z fikrini aniq ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash, axborotni tushunish, tahlil qilish va undan hayotiy vaziyatlarda foydalanishni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmoni.

2.Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (PISA xalqaro tadqiqoti bo‘yicha metodik qo‘llanma). – Toshkent: Milliy markaz, 2019. – 108 b.

3.Mavlonova K., Qo‘ldosheva S. va boshq. O‘zbek tili va filologik ta’lim metodikasi: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 214 b.

4.Rahmonov R. Filologik ta’lim jarayonida interfaol metodlar va keys-stadi (Case-study) texnologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2021. – 160 b.

5.Yo‘ldoshev Q. B., Olimjonov O. O., Yusufjonova N. N., Qambarova S. I., To‘xliyeva D. B. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik (1-qism). – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 100 b.

6.Mirzayeva Z. I., Djalilov K. Q. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik (1-qism). Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2024. – 144 b.

ETNOGRAFIZMLARNING LISONIY TABIATI VA DIALEKTAL BIRLIKLAR TIZIMIDAGI O‘RNI

***Suvanova Mavjuda Xamrakulovna*,**
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada etnografizmlarning lisoniy tabiati, etnomadaniy mazmuni hamda dialektal birliklar tizimidagi o‘rni masalasi tadqiq etiladi. Etnografizmlarning shakllanishi va semantik taraqqiyotida xalqning tarixiy-biografik tajribasi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, geomadaniy va tabiiy-geografik muhiti, urf-odat va an’analari kabi ekstralingvistik omillarning o‘rni yoritiladi. Etnografik leksika muayyan etnosning milliy-madaniy xotirasi, dunyoqarashi, turmush tarzi va kollektiv tajribasini o‘zida mujassamlashtiruvchi lisoniy hodisa sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar. etnografizm, etnografik leksika, dialektal birlik, dialektal etnografizm, etnolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik antropologiya, etnomadaniyat, etnokod, milliy-madaniy xotira, urf-odat, an’ana, marosim, xalq tafakkuri, lisoniy identifikatsiya, leksik-semantik xususiyat, ekstralingvistik omil, areal lingvistika, dialektologiya, madaniy kontekst.

Аннотация. В статье исследуются вопросы языковой природы этнографизмов, их этнокультурного содержания и места в системе

диалектальных единиц. Освещается роль экстралингвистических факторов в формировании и семантическом развитии этнографизмов, таких как историко-культурный опыт народа, социально-экономическая деятельность, геокультурная и природно-географическая среда, обычаи и традиции. Этнографическая лексика рассматривается как языковое явление, в котором находят отражение национально-культурная память определённого этноса, его мировоззрение, образ жизни и коллективный опыт.

Ключевые слова: этнографизм, этнографическая лексика, диалектальная единица, диалектальный этнографизм, этнолингвистика, лингвокультурология, лингвистическая антропология, этнокультура, этнокод, национально-культурная память, обычай, традиция, обряд, народное мышление, языковая идентификация, лексико-семантическая характеристика, экстралингвистический фактор, ареальная лингвистика, диалектология, культурный контекст.

Abstract. This article examines the linguistic nature of ethnographisms, their ethnocultural content, and their place within the system of dialectal units. It highlights the role of extralinguistic factors in the formation and semantic development of ethnographisms, including the historical and cultural experience of a people, socio-economic activities, the geocultural and natural-geographical environment, customs, and traditions. Ethnographic vocabulary is interpreted as a linguistic phenomenon that embodies the national-cultural memory, worldview, way of life, and collective experience of a particular ethnic group.

Keywords: ethnographism, ethnographic vocabulary, dialectal unit, dialectal ethnographism, ethnolinguistics, linguoculturology, linguistic anthropology, ethnoculture, ethnocode, national-cultural memory, custom, tradition, ritual, folk mentality, linguistic identification, lexical-semantic characteristics, extralinguistic factor, areal linguistics, dialectology, cultural context.

Kirish. Har bir davr va etnosning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, geomadaniy va tabiiy-geografik muhiti hamda tarixiy-biografik sharoiti bilan muvofiqlashgan, ushbu ekstralingvistik omillarning lisoniy va mental ifodasi sifatida namoyon bo‘ladigan an’ana hamda urf-odatlar tizimi mavjud. Insoniyatning kognitiv va ijtimoiy jamiyat bo‘lib shakllanish bosqichlaridan boshlab shakllanib kelgan ushbu etnomadaniy qadriyatlar, udumlar va marosimlar majmuasi shunchalik ko‘p qirraliki, ularning miqdoriy ko‘lamini mutlaq aniqlik bilan tasniflash hamda qamrab olish o‘ta murakkab etnolingvistik va antropologik muammo hisoblanadi.
Milliy urf-odat va an’analar tizimida muayyan etnosning ijtimoiy-maishiy ehtiyojlari, ma’naviy-axloqiy imperativlari, kollektiv manfaatlari, amaliy-empirik

tajribasi hamda tarixiy-ekologik yashash sharoitlari o‘zining mukammal lisoniy va mental in’ikosini topadi. Ushbu etnomadaniy hodisalar jamiyatning faol hayotiy amaliyoti va sotsial-psihologik harakatlari jarayonida shakllanib, har bir xalq o‘zining ko‘p asrlik ontogenetik rivojlanish bosqichlarida, yashash muhitining o‘ziga xos xarakteridan kelib chiqqan holda, kishilararo munosabatlarni tartibga soluvchi regulyativ va normativ qoidalar majmuasini yuzaga keltirgan. Mazkur sotsiokulturologik norma va yo‘riqlar vorisiylik mexanizmi vositasida mustahkamlanib, davrlar o‘tishi bilan etnosning barqaror urf-odatlari, marosim va an’anaviy qadriyatlar tizimi (etnokod) darajasiga ko‘tariladi.

Asosiy qism. Tarixan shakllangan urf-odat va an’analar majmuasi shaxsning sotsializatsiyalashuvi hamda ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi jarayonida uning xulq-atvori va muloqot strategiyalarini belgilovchi, boshqaruvchilik va shakllantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Har qanday urf-odat, udum yoki marosimning kelib chiqish genezisi hamda aloqadorligini chuqur etnolingvistik va sotsiokulturologik tahlil etmay turib yuzaki baholash ularning funksional va semantik mohiyatini anglamaslikka, hatto mantiqsiz va munosib bo‘lmagan hodisa sifatida talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Vaholanki, ushbu etnomadaniy fenomenlarning barchasi etnosning ko‘p asrlik ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy hamda amaliy faoliyati mahsuli bo‘lib, jamiyatning muayyan sotsiopsixologik hamda kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan funksional-semantik vosita sifatida yuzaga kelgan.

Jahon tilshunosligida etnografizmlar va ularning leksik-semantik, sotsiolingvistik hamda lingvoantropologik tabiatini tadqiq etish milliy tilshunoslik maktablarining gnoseologik va metodologik tamoyillaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Xususan, g‘arb va sharq tilshunosligida etnografik leksikaga yondashuv shunchaki mahalliylik yoki madaniy o‘zgachalikni qayd etish bilan cheklanmay, balki til va madaniyatning interfaol aloqasi, etnosning dunyo manzarasi hamda lingvistik identifikatsiyani o‘rganishning markaziy obyektiga aylangan. Etnografizmlarning jahon tilshunoslik maktablarida o‘rganilish dinamikasini qiyosiy-tahliliy o‘rganish va dialektal etnografizmlarni konseptual modellar bilan integratsiyalashda g‘oyat muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi[8].

AQSh va Buyuk Britaniya lingvistik an’anasida “etnografizm” tushunchasi ko‘pincha lingvistik antropologiya, etnolingvistika hamda madaniyatlararo muloqot nazariyasi doirasida tadqiq etiladi. Amerika deskriptiv va antropologik tilshunosligi asoschilari F.Boas va E.Sepir hamda B.Uorfning tildagi nisbiylik nazariyasi etnografik leksikani etnos kognitsiyasining kaliti sifatida baholadi[5]. AQSh tilshunosligida F.Boas tub amerikalik qabilalar tillaridagi maishiy, marosim va atrof-

muhit bilan bog‘liq etnografik birliklarni tahlil qilar ekan, har bir til o‘z sohibining borliqni kategorizatsiya qilish usulini aks ettirishini ko‘rsatdi.

Angliya tilshunosligida esa etnografik birliklar, asosan, B.Malinovskiy va J.R.Fersning kontekstual semantika nazariyasi asosida o‘rganildi [6]. B.Malinovskiy etnografik realiyalarning ma’nosi faqat o‘sha etnos yashayotgan madaniy va ijtimoiy kontekst ichida to‘liq ochilishini ta’kidlab, etnografizmlarni “amaliy harakatlar tili” sifatida talqin qildi.

Fransiya lingvistik maktabida etnografizmlarni o‘rganish sotsiolingvistika va lingvistik geografiya tutashgan nuqtada shakllandi. E.Benvenistning “Hind-yevropa ijtimoiy institutlari lug‘at boyligi” nomli tadqiqoti etnografik leksikani tarixiy-etimologik va semantik jihatdan tahlil etishning mumtoz namunasidir [4]. Fransuz dialektologiyasida J.Giyeron va E.Edmon tomonidan yaratilgan Fransiyaning lingvistik atlasi orqali moddiy va ma’naviy madaniyat etnografizmlarining areal tarqalishi, izoglossalari hamda ularning hududiy variantlanishi mukammal xaritalashtirildi. Fransuz tilshunoslari etnografizmlarni tilning madaniy xotirasi sifatida baholab, ularning adabiy dilga kirib borishi va uslubiy differensiatsiyasini atroflicha yoritib berganlar.

Ispaniya va Italiya kabi roman tili guruhiga kiruvchi mamlakatlar tilshunosligida etnografik leksikani o‘rganish dialektologiya, areal lingvistika va xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Ispaniyada R.P.Menendes va uning shogirdlari yarim orol shevalaridagi etnografizmlarni, xususan, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va xalq hunarmandchiligi terminologiyasini hisobga olgan holda “so‘z va narsa” metodologiyasi asosida tadqiq qildilar[7].

Italiya tilshunosligida M.Bartoli va M.G.Bortolonilar tomonidan ilgari surilgan neolingvistika hamda spatial lingvistika nazariyasi orqali Italiya dialektlaridagi etnografizmlarning arxaik va innovatsion qatlamlari ajratildi[3]. Italiya dialektologik atlaslarida har bir etnografizm tegishli maishiy buyum yoki marosimning illyustrativ va lingvistik tasviri bilan parallel berilishi bilan ajralib turadi.

Yevropaning shimoliy hududlari, xususan, Norvegiya tilshunosligida etnografizmlarni o‘rganish ikki adabiy til normasi va hududiy dialektal bo‘linishlar bilan bog‘liq holda kechdi. A.Larsen va I.Aasen kabi norveg dialektologlari etnografizmlarni milliy va mintaqaviy o‘zlikni anglashning muhim vositasi deb bildilar[1]. Norvegiyadagi etnografik leksikaga bag‘ishlangan tadqiqotlarda dengizchilik, baliqchilik, shimoliy kiyikchilik hamda qishki turmush tarziga oid maxsus leksik-semantik guruhlar atroflicha tahlil qilingan.

Sharqiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo tili muhitida, xususan Malayziyada etnografizmlarning o‘rganilishi o‘ziga xos etnosotsiolingvistik xarakterga ega.

Malayziya tilshunosligida Z’aba, Asmah Haji Omar va boshqalar malay tilidagi etnografik birliklar hamda dialektal etnografizmlar mamlakatdagi ko‘p madaniyatli muhitda malay identikligini saqlash va rivojlantirish vositasi sifatida tadqiq etiladi[2]. Prof. Asmah Haji Omar malay tilining turli shtatlardagi dialektal etnografizmlarini tahlil qilib, ularning ijtimoiy iyerarxiya, muomala odobi va xalq tibbiyoti bilan bog‘liq konnotativ ma’no qatlamlarini ochib bergan.

Shunday qilib, jahon tilshunosligida etnografizmlarning o‘rganilish tarixi va zamonaviy tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, etnografik leksika lingvostruktural hamda ekstralingvistik omillarning sintezlashgan nuqtasi hisoblanadi. Etnografizmlarning lisoniy va etnomadaniy tabiatini jahon tilshunoslik maktablari tajribasi bilan qiyosiy o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi hamda lingvokulturolyogiyasini yangi nazariy-metodologik bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aasen I. Norsk Grammatik. – Christiania: P.T. Mallings Bogtrykkeri, 1864. – P. 78.
2. Asmah Haji Omar. Susus galur bahasa Melayu. – Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka, 2008. – P. 155.
3. Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica. – Genève: Olschki, 1925. – P. 115.
4. Benveniste É. Le Vocabulaire des institutions indo-européennes. – Paris: Éditions de Minuit, 1969. – P. 89.
5. Boas F. Handbook of American Indian Languages. – Washington: Government Printing Office, 1911. – P. 67.
6. Malinowski B. The Problem of Meaning in Primitive Languages // The Meaning of Meaning. – London: Kegan Paul, 1923. – P. 142.
7. Menéndez Pidal R. El dialecto leonés. – Madrid: Real Academia Española, 1962. – P. 210.
8. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1921. – P. 24.

FILOLOGIK TA’LIMDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Salimova Yulduz Ne’matovna
Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada filologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda mazkur

jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari ilmiy-metodik jihatdan yoritilgan. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda kollaborativ ta’lim, loyiha metodi, muammoli ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalari, 5P va STEAM yondashuvlarining funksional savodxonlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, matn bilan ishlash, kommunikativ kompetensiya va hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: filologik ta’lim, funksional savodxonlik, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kollaborativ yondashuv, loyiha metodi, muammoli ta’lim, 5P yondashuvi, STEAM, raqamli ta’lim, tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В данной статье научно и методологически рассматриваются актуальные вопросы развития функциональной грамотности учащихся в процессе филологического образования и методы использования инновационных педагогических технологий в этом процессе. Анализируются возможности совместного обучения, проектного метода, проблемно-ориентированного обучения, цифровых образовательных технологий, подходов 5P и STEAM в преподавании родного языка и литературы в целях формирования функциональной грамотности. Также даются методические рекомендации по развитию у учащихся критического мышления, навыков работы с текстом, коммуникативной компетенции и умения применять знания в жизненных ситуациях.

Ключевые слова: филологическое образование, функциональная грамотность, инновационные педагогические технологии, совместный подход, проектный метод, проблемно-ориентированное обучение, подход 5P, STEAM, цифровое образование, критическое мышление.

Abstract: This article examines, from scientific and methodological perspectives, current issues regarding the development of students' functional literacy within the framework of philological education, as well as methods for employing innovative pedagogical technologies in this process. It analyzes the potential of collaborative learning, the project method, problem-based learning, digital educational technologies, and the 5P and STEAM approaches in the teaching of the native language and literature to foster functional literacy. Additionally, the article offers methodological recommendations for developing students' critical thinking, text-handling skills, communicative competence, and the ability to apply knowledge in real-life situations.

Keywords: philological education, functional literacy, innovative pedagogical technologies, collaborative approach, project method, problem-based learning, 5P approach, STEAM, digital education, critical thinking.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldiga o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning kundalik hayotda, ijtimoiy munosabatlarda va kasbiy faoliyatda bilimlardan samarali foydalanish kompetensiyasini shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, funksional savodxonlik zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Filologik ta’lim, ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlari o‘quvchilarning nutq madaniyati, muloqot kompetensiyasi, matnni tahlil qilish, axborotni tanlash va baholash, tanqidiy fikrlash kabi muhim ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Biroq an’anaviy o‘qitish usullari bu kompetensiyalarni to‘liq shakllantirish uchun yetarli emas. Shu sababli ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim metodik zaruratga aylanmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi–filologik ta’lim jarayonida funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish va ularni amaliyotda qo‘llash usullarini yoritishdan iborat.

Asosiy qism. Funksional savodxonlik — bu shaxsning o‘qish, yozish, tinglash va gapirish jarayonida egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatidir. Filologik ta’lim jarayonida funksional savodxonlik quyidagi kompetensiyalar orqali namoyon bo‘ladi: matnni anglash va tahlil qilish; axborotni tanlash, taqqoslash va baholash; fikrni og‘zaki va yozma shaklda mantiqiy ifodalash; turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot qilish; tanqidiy va ijodiy fikrlash asosida xulosa chiqarish. Mazkur kompetensiyalar xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS va TIMSS) talablari bilan ham uyg‘unlashadi. Chunki ushbu dasturlarda o‘quvchilarning bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish darajasi baholanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ular mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, hamkorlikda ishlash va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kollaborativ ta’lim texnologiyasi. Kollaborativ yondashuv o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlik asosida bilim egallashiga asoslanadi. Funksional savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari quyidagilardan iborat (1-jadval).

1-jadval.

Funksional savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari

Texnologiya elementi	**Natija**
Guruhli muhokama	Fikr almashish va dalillash ko‘nikmasi rivojlanadi.
Bahs-munozara	Tanqidiy fikrlash va nutq madaniyati shakllanadi.

Birgalikda matn tahlili	Matndan asosiy va ikkilamchi g‘oyalarni ajratish o‘rganiladi.
Rol o‘yinlari	Kommunikativ kompetensiya mustahkamlanadi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarini guruhlarda turli qahramonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish o‘quvchilarning argument keltirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarda izlanish faoliyatini tashkil etadi. Bosqichlari:muammoni taqdim etish, taxminlar ilgari surish, axborot izlash, dalillarni tahlil qilish, xulosa chiqarish. Masalan , “Til va internet tili: adabiy me’yor buziladimi?” mavzusida muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilar internetdagi matnlarni tahlil qiladi va o‘z pozitsiyasini asoslaydi. Natijada o‘quvchilarda axborotni tanqidiy baholash, dalillarga asoslangan fikr bildirish, muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Loyiha (Project-Based Learning) metodi. Loyiha metodi funksional savodxonlikni shakllantirishning samarali vositalaridan biridir.masalan, ona tili darslarida o‘quvchilarga quyidagi mavzularda loyiha ishlari berish mumkin: “Mahalliy shevalar lug‘atini yaratish”, “Oilamizdagi maqollar va ularning ma’nosi”, “Adabiy qahramonlar xaritasi”, “Kitobxonlik blogi”. O‘quvchilar loyiha davomida ma’lumot yig‘adi, tahlil qiladi, matn yaratadi, taqdimot tayyorlaydi va natijani himoya qiladi.

5P yondashuvi asosida funksional savodxonlik. Filologik ta’limda 5P modeli o‘quvchini shaxs va jarayon markaziga qo‘yadi (2-jadval). Bu yondashuv individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga yordam beradi.

2-jadval.

5P yondashuvi

5P komponenti	**Filologik ta’limdagi qo‘llanilishi**
Muammo (Problem)	Hayotiy til va nutqiy vaziyatlarni yechish.
Loyiha (Project)	Ijodiy va tadqiqot ishlari.
Shaxs (Person)	O‘quvchining qiziqishi va ehtiyojiga mos topshiriqlar.
Jarayon (Process)	Faol ishtirok va hamkorlikdagi ta’lim.
Natija (product)	Hayotda qo‘llanadigan kompetensiyalar shakllanishi.

STEAM elementlarini filologik ta’limga integratsiya qilish. Filologik fanlarda STEAM yondashuvi ijodkorlik va fanlararo integratsiyani kuchaytiradi. Masalan, adabiy asarlar asosida raqamli komiks yaratish, she’r mazmunini infografikada ifodalash, ertak syujeti asosida maket yoki sahna loyihasi tayyorlash, tarixiy asarlarni xarita va multimedia bilan bog‘lash. Natijada o‘quvchilar matnni turli formatlarda ifodalashni o‘rganadi.

Raqamli pedagogik texnologiyalar imkoniyatlari. Raqamli vositalar funksional savodxonlikni rivojlantirishda interaktiv muhit yaratadi (3-jadval.). Masalan, badiiy matnni konsept xarita yordamida tahlil qilish qahramonlar, g‘oya va muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochishga xizmat qiladi.


3-jadval.

Texnologiya	**Qo‘llanilish maqsadi**
Interaktiv taqdimotlar	Matnni vizual tahlil qilish.
Infografika	Asosiy g‘oyalarni tizimlashtirish.
Onlayn viktorinalar	Tezkor formatif baholash.
Mind map va konsept xaritalar	Tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.
Elektron portfoliolar	O‘quvchining rivojlanishini kuzatish.

Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantiruvchi metodlardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Klaster metodi — bu o‘quvchilarning mavzu yoki badiiy asardagi asosiy tushunchalar, obrazlar va g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni grafik ko‘rinishda ifodalashga asoslangan interfaol metoddir. Ushbu metod o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va tizimli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Filologik ta’lim jarayonida klaster metodi matn mazmunini chuqur anglash, asosiy va ikkilamchi g‘oyalarni ajratish hamda tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Asardagi asosiy tushunchalarni bog‘lash orqali mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

Klaster metodida markazga asosiy tushuncha yoki asar nomi yoziladi, undan esa mazmun bilan bog‘liq tushunchalar, qahramonlar, voqealar, muammolar va g‘oyalar tarmoqlar ko‘rinishida joylashtiriladi. Natijada o‘quvchilar matnni yaxlit tizim sifatida ko‘ra oladi va o‘z fikrlarini mantiqiy tartibda bayon etishni o‘rganadi. Shuningdek, “Shumbola”, “O‘tkan kunlar”, “Ulug‘bek xazinasi” kabi asarlar tahlilida ham klaster metodidan samarali foydalanish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarini o‘rganishda markazga asar nomi yozilib, quyidagi yo‘nalishlarda klaster tuziladi:



Klaster metodining afzalliklari: matn mazmunini tizimli tahlil qilishni o‘rgatadi; asosiy tushunchalarni tez aniqlashga yordam beradi; o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi; ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi; yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys-stadi (Case Study) metodi . Keys-stadi (Case Study) metodi — ta’lim jarayonida o‘quvchilarning hayotiy yoki o‘quv vaziyatlarini tahlil qilish, muammoni aniqlash va unga yechim topishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish metodidir. Ushbu metodda o‘quvchilar real yoki shartli vaziyat (keys) bilan ishlaydi, uni tahlil qiladi, muhokama qiladi va asosli qaror qabul qiladi. Ona tili va adabiyot darslarida keys-stadi metodi o‘quvchilarning funksional savodxonligi, tanqidiy fikrlashi, muloqot madaniyati hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys-stadi metodining asosiy maqsadi quyidagilar: o‘quvchilarda hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish; muammoning sabab va oqibatlarini aniqlash; dalillarga asoslangan fikr bildirish; muqobil yechimlarni ishlab chiqish; jamoada ishlash va fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantirishdir (4-jadval.).

4-jadval.

Keys-stadi metodining bosqichlari

Bosqich	***Mazmuni***
1. Muammoni taqdim etish	O‘quvchilarga hayotiy yoki badiiy matnga asoslangan vaziyat (keys) beriladi.
2. Vaziyatni tahlil qilish	O‘quvchilar vaziyatdagi muammo, sabab va ishtirokchilarni aniqlaydi.
3. Yechim ishlab chiqish	Guruh yoki yakka tartibda muammoning bir necha yechimlari taklif qilinadi.

4. Muhokama va himoya	Har bir guruh o‘z qarorini dalillar bilan asoslab taqdim etadi.
5. Xulosa va baholash	Eng maqbul yechimlar umumlashtiriladi, o‘quvchilarning fikrlash jarayoni baholanadi.

Keys-stadi metodining afzalliklari: o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantiradi; tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantiradi; muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi; muloqot va hamkorlik kompetensiyasini mustahkamlaydi; nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etishga o‘rgatadi; mustaqil izlanish va dalillash madaniyatini rivojlantiradi. Keys-stadi metodi badiiy asar, publitsistik matn yoki hayotiy voqealar asosida tashkil etilishi mumkin.

Mavzu: “Shumbola” asari.

Vaziyat (keys):Shumbola o‘zining sho‘xligi sababli ko‘plab muammolarga duch keladi. Uning ayrim harakatlari kulgili bo‘lsa-da, boshqalarga noqulaylik tug‘diradi.

Topshiriqlar:

1. *Shumbolaning xatti-harakatlaridagi asosiy muammoni aniqlang.*
2. *Uning o‘rnida siz qanday yo‘l tutardingiz?*
3. *Asarda qanday axloqiy xulosa berilgan?*
4. *Muammoning ikki xil yechimini taklif qiling.*

O‘quvchilar guruhlarda muhokama qilib, o‘z qarorlarini dalillar asosida himoya qiladilar.

Keys-stadi metodida o‘quvchi matnni shunchaki o‘qib tushunmaydi, balki undagi muammoni hayot bilan bog‘laydi. Natijada u axborotni tahlil qiladi, dalillarni solishtiradi, o‘z fikrini asoslaydi, real hayotiy vaziyatlarga mos yechim ishlab chiqadi. Bu esa funksional savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Keys-stadi metodi zamonaviy ta’limning samarali interfaol metodlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va asosli qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarida badiiy matnlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning funksional savodxonligi, kommunikativ kompetensiyasi va ijodiy fikrlashi samarali rivojlanadi. Filologik ta’lim jarayonida klaster va keys-stadi metodlari o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda samarali interfaol metodlar hisoblanadi. Klaster metodi matnni tizimli anglash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirsa, keys-stadi metodi o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish, muammoni tahlil qilish va asosli qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi (5-jadval). Shu jihatdan ular ona tili va adabiyot darslarida xalqaro baholash dasturlari (PISA

yo‘nalishidagi funksional savodxonlik) talablariga mos darslarni tashkil etishda muhim metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

5-jadval.

KLASTER VA KEYS-STADI METODLARI

Klaster metodi	***Keys-stadi metodi***
Tushunchalar va g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi.	Hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topishga o‘rgatadi.
Matnni tizimli va mantiqiy tahlil qilishni rivojlantiradi.	Bilimlarni amaliyotda qo‘llash kompetensiyasini shakllantiradi.
Asosiy va ikkilamchi g‘oyalarni ajratishga yordam beradi.	Dalillash, asoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
Ijodiy va tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi.	Kommunikativ kompetensiya va hamkorlikda ishlashni rivojlantiradi.

Xulosa. Ona tili va adabiyot ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kollaborativ ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha metodi, 5P yondashuvi, STEAM elementlari va raqamli pedagogik texnologiyalar filologik fanlarni o‘qitishda funksional savodxonlikni rivojlantirishning samarali metodik vositalari hisoblanadi. Mazkur texnologiyalarni tizimli ravishda ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlari talablariga mos kompetensiyalarini rivojlantirish, ona tili va adabiyot fanlariga qiziqishini oshirish hamda hayotiy vaziyatlarda til va nutqiy bilimlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ona tili va adabiyot ta’limda funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun quyidagi metodik tavsiyalar samarali hisoblanadi:

1. Darslarni real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar bilan boyitish.
2. Matnlarni tahlil qilishda tanqidiy fikrlash metodlaridan foydalanish.
3. Har bir mavzuda kollaborativ faoliyatni tashkil etish.
4. Raqamli platformalar va infografikalardan foydalanish.
5. Loyiha va tadqiqot topshiriqlarini muntazam qo‘llash.
6. Formatif baholash vositalari orqali o‘quvchi rivojlanishini kuzatish.
7. O‘quvchilarni mustaqil axborot izlash va uni tahlil qilishga yo‘naltirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sobirova D.Z. (2023). Klaster metodining pedagogik-psixologik o’ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4 (9), 315-319.
2. Atoyeva L. Klaster metodi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnli masala yechish ko‘nikmasini rivojlantirish. (2026). *«Maktabgacha va maktab ta’limi» jurnali*, *4*(6).356-362.
3. Бирюкова Н.В. (2019). Метод кластера в профессиональном обучении студентов. Мир науки, культуры, образования, (3 (76)), 201-203.
4. Абдуллаева М.С. (2021). Использование кластерного метода в обучении русскому языку. Экономика и социум, (11-1 (90)), 627-630.
5. Гришина Т.А. (2018). Метод кейс-стади как современная технология обучения в курсе гуманитарных предметов школьной программы. Наука и школа, (3), 134-140.
6. Варганова, Г. В. (2006). Кейс-стади как метод научного исследования. Библиосфера, (2), 36-42.
7. S.M. Obloqulov (2024). Pedagogik tadqiqotlarda funksional savodxonlik tushunchasining mazmuni va mohiyati. Inter education & global study, (8 (1)), 227-332.
8. Jumayeva M.B. ta’limda funksional savodxonlikni shakllantirish: XXI asr sharoitida yangi metodik yondashuvlar. (2025). *Журнал научных исследований и их решений*, *5*(02), 190-191.
9. Mirzaliyeva G. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik tushunchasini ilmiy-pedagogik asoslash masalalari. «Maktabgacha va maktab ta'limi» jurnali, 3(9), 9–12.
10. Jumayev S. S. (2025). Xalqaro baholash dasturlarida tanqidiy fikrlash va funksional savodxonlik bog'liqligi. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(8), 207–211.

ОШИБКИ В РУССКОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ ДЕТЕЙ-ИНОФОНОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В ШКОЛАХ ПОДМОСКОВЬЯ

Елена Николаевна Стрельчук1, Евгения Олеговна Грунина2, Наталья Александровна Носкова3

[1, 2] *Российский университет дружбы народов им. Патриса Лумумбы, г. Москва, Россия*

[3] *МАОУ Домодедовская СОШ № 12 имени полного кавалера ордена Славы В. Д. Преснова, г. Домодедово, Россия*

[1] strelchuk-en@rudn.ru, https://orcid.org/ 0000-0003-2161-3722

[2] grunina93@mail.ru, https://orcid.org/0000-0001-8802-2690

[3] n-a-noskova@yandex.ru

Аннотация. В школах Подмосковья обучается большое количество детей-инофонов, для которых русский язык является иностранным. Наибольшую трудность для таких обучающихся представляет письменная речь на русском языке. Цель настоящего исследования заключалась в выявлении ошибок в письменной речи детей-инофонов и анализе полученных результатов. В качестве респондентов выступали учащиеся IV «П» класса «Домодедовской СОШ № 12 имени В. Д. Преснова», среди которых были представители из стран ближнего зарубежья, а также Башкортостана и Дагестана. Материалом исследования послужили письменные работы школьников (сочинение и изложение), проводимые в конце 2022/2023 учебного года. Был проведен анализ работ и его количественная обработка. Результаты исследования свидетельствуют о том, что в письменной речи детей-инофонов наиболее частотными являются орфографические, пунктуационные и фонетико-графические ошибки. Среди причин обозначенных ошибок – отсутствие навыка чтения на русском языке и интерференция. Лексические и грамматические ошибки имеют тенденцию к снижению, поскольку раннее обучение детей в поликультурной среде начальной российской школы позволяет минимизировать их количество. Доказано, что особая роль отводится учителю, имеющему определенный педагогический опыт и владеющему основами методики преподавания русского языка как иностранного.

Ключевые слова: русский язык, адаптация детей-инофонов, письменная речь, фонетико-гра-фические, грамматические, лексические, орфографические и пунктуационные ошибки

Abstract. Many children who are native speakers of foreign languages study in Moscow Oblast schools. Russian is a foreign language for them. The major

difficulty such students face is written speech in Russian. This study aims to identify errors in their written speech and to analyse the obtained results. The respondents were the *P* class students in the 4th year of Domodedovo Secondary School No. 12 named after V. D. Presnov. They represented the near abroad, as well as Bashkortostan and Dagestan. The material for the study was the schoolchildren’s written works (essays and expositions) produced at the end of the 2022/2023 academic year. The papers were analysed and quantitatively processed. The research results indicate that the most frequent errors in the written speech of native speakers of foreign languages are spelling, punctuation, and phonetic-graphic mistakes. The reasons for the specified errors include the lack of reading skills in Russian and language transfer. Lexical and grammatical mistakes tend to decrease since early education of children in the multicultural environment of the Russian primary school enables error minimisation. It has been proved that a special role is performed by teachers who have certain teaching experience and are familiar with the methodology basics of teaching Russian as a foreign language.

Keywords: Russian language, adaptation of children native speakers of foreign languages, written speech, phonetic-graphic errors, grammatical errors, lexical errors, spelling errors, punctuation errors.

Annotatsiya. Moskva viloyatidagi maktablar ona tili bo'lmagan bolalarga ta'lim beradi, ular uchun rus tili chet tili hisoblanadi. Bu o'quvchilar uchun eng katta qiyinchilik rus tilida yozma muloqotdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi ona tili bo'lmagan bolalar bilan yozma muloqotdagi xatolarni aniqlash va natijalarni tahlil qilish edi. Respondentlar V.D. Presnov nomidagi 12-sonli Domodedovo o'rta maktabining 4-"P" sinf o'quvchilari, jumladan, qo'shni davlatlar, shuningdek, Boshqirdiston va Dog'iston vakillari edi. O'quv materiali o'quvchilarning 2022/2023 o'quv yili oxirida bajarilgan yozma ishlariga (insholar va xulosalar) asoslangan edi. Ish tahlil qilindi va miqdoriy jihatdan qayta ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ona tili bo'lmagan bolalar bilan yozma muloqotdagi eng ko'p uchraydigan xatolar imlo, tinish belgilari va fonetik-grafik xatolardir. Ushbu xatolarning sabablari rus tilida o'qish ko'nikmalarining yo'qligi va interferentsiyani o'z ichiga oladi. Leksik va grammatik xatolar kamayishga moyil, chunki bolalarni rus boshlang'ich maktablarining ko'p madaniyatli muhitida erta ta'lim berish ularning paydo bo'lishini minimallashtirishga yordam beradi. Rus tilini chet tili sifatida o'qitish usullari sifatida asosiy tushunchaga ega bo'lgan va o'qituvchilar alohida rol o'ynashi isbotlangan.

Kalit so'zlar: rus tili, chet tiliga oid bilimlarga ega bolalarning moslashuvi, yozma til, fonetik-grafik, grammatik, leksik, imlo va tinish xatolari

Введение. В настоящее время в российских школах обучается большое количество детей-инофонов, для которых русский язык является иностранным. Доля таких детей во многих школах Москвы и Подмосковья велика. Это не только дети мигрантов, выходцев из бывших республик СССР, где за последнее десятилетие русский язык значительно ослабил свои позиции и многие взрослые владеют им на очень низком уровне. Это еще дети иностранцев, которые приехали в РФ из других стран (Китай, Вьетнам, Лаос и др.), и дети из регионов РФ, в которых русский язык изучается, но отмечается нехватка квалифицированных специалистов (республики ЛНР и ДНР, высокогорные районы Чечни и Дагестана и др.). «При этом дети иностранцев (и не только) получают школьное образование наравне с русскоговорящими детьми» [Ямалетдинова, Давлетбаева и др. 2022: 167].

Уже есть достаточное количество исследований и проектов, нацеленных на адаптацию инофонов к российским образовательным и культурным условиям. Например, еще в 2018 г. АНО ДПО «Центр образования “Академия”» в Перми был реализован проект «Семейная воскресная школа для мигрантов», поддержанный Фондом президентских грантов. Проект предполагал облегчение процессов социализации и адаптации ребенка-инофона в частности и семей мигрантов в целом в русскоязычной среде, подготовку детей к восприятию материала в образовательных учреждениях. В 2019 г. проект был продолжен при поддержке Администрации г. Перми.

В 2020 г. совместным авторским коллективом Новосибирского государственного педагогического университета и Новосибирской региональной общественной организацией «Узбекско-русский национально-культурный центр» было разработано учебно-методическое пособие [22], в котором проанализированы отдельные организационно-педагогические аспекты работы. Позднее педагоги из Калужской области рассмотрели в своей статье «региональную систему языковой и социокультурной адаптации детей-инофонов», предполагающую проведение совместных мероприятий, сочетающих изучение «русского языка и культуры с сохранением внимания и уважительного отношения к родному языку» [Гусев, Хачикян и др. 2022: 298].

Следует отметить и другие научные работы, в которых представлены методические рекомендации по обучению детей-инофонов русскому языку в школах РФ. Так, одни ученые предлагают упражнения на развитие словарного запаса учащихся [Ямалетдинова, Давлетбаева и др. 2022], другие – задания, посвященные обучению инофонов научному стилю речи [Гусева, Дворкина и др. 2014]. Есть исследователи, которые изучают особенности использования дистанционных образовательных технологий в процессе обучения инофонов

[Железнякова, Лаптева 2021], описывают методические основы преподавания русского языка детям в начальной школе с учетом развития языковой, речевой и коммуникативной компетенций [Юздова, Лукиных 2018].

Как справедливо отмечают методисты, «в процессе обучения детей-инофонов одновременно решаются три взаимосвязаннные задачи: освоение языка, освоение школьной программы на неродном языке и социокультурная адаптация. В связи с этим специфика обучения русскому языку как неродному заключается в том, что русский язык должен быть освоен как средство общения и как средство обучения» [Морозова, Цапурина 2017: 11]. С этой целью выпущены учебные пособия и учебники для детей, обучающихся в школах РФ, для которых русский язык является неродным (см., например, учебно-методический комплект по русскому языку для школ с родным (нерусским) языком обучения для I–IV классов Е. А. Хамраевой, Л. М. Саматовой).

Однако проблема обучения детей-инофонов русскому языку в поликультур-ной среде российской школы по прежнему остается актуальной и даже острой в современных образовательных условиях, что подчеркивается разработкой специальных методических рекомендаций, предлагающих подходы по установлению соотношения численности совместно обучающихся иностранных граждан и граждан РФ. И объясняется это прежде всего тем, что дети должны быть не только адаптированы к русскоязычной среде, но и пройти полный курс обучения в школе и сдать выпускные экзамены на русском языке. В связи с этим наибольшую трудность для таких обучающихся представляет русская письменная речь [Скворцова 2019; Товт, Кончакова 2022]. Инофоны допускают большое количество ошибок, что не может не вызывать тревогу у учителей русского языка.

Материалы и методы. Цель настоящего исследования заключалась в выявлении ошибок в письменной речи детей-инофонов. Для реализации поставленной цели необходимо было решить следующие задачи:

– систематизировать ошибки в письменной речи инофонов;
– выявить причины появления ошибок;
– предложить методические рекомендации по преодолению речевой безграмотности детей-инофонов.

Использовалось сочетание теоретических и эмпирических методов, таких как описательно-аналитический, наблюдение и статистический. В качестве респондентов выступали ученики IV «П» класса МАОУ «Домодедовская СОШ № 12 имени В. Д. Преснова» (сельская школа в Домодедовском округе Подмосковья). Выбор респондентов не случаен, поскольку ученики уже

обучались в российской школе и имели определенный уровень адаптации к ней. Однако необходимо отметить, что состав класса оказался разноуровневым. Часть инофонов обучалась с I класса, другая – с III класса, третья – с IV класса, поэтому был заметен контраст между уже адаптировавшимися к русскоязычной среде (5 человек) и лишь недавно прибывшими учениками (5 человек).

Этнический состав учащихся разнообразен. Всего 21 ученик, из них 10 – ино-фоны, 11 – носители русского языка. Среди инофонов по 1 человеку приехали из таких стран, как Узбекистан, Кыргызстан, Азербайджан, Молдова, Украина; двое – из Таджикистана, двое – из Башкортостана, один – из Дагестана. Остальные 11 учащихся – носители русского языка, которые проживают в данном населенном пункте или приехали из других регионов РФ. Обучение с I по IV класс велось по учебно-методическому комплекту «Школа Рос-сии». В работе использовались учебники В. П. Канакиной и В. Г. Горецкого, рабочие тетради к ним[23]. Настоящее исследование предполагало проведение письменных работ– изложения и сочинения – в конце учебного года (IV класс, май 2023 г.), а затем анализ полученных результатов, их статистическую обработку. Для изложения был выбран текст из учебника (упр. 253)[23]. Сочинение писалось по картине И. И. Шишкина «Рожь» (упр. 278; картина представлена в учебнике). Методика проведения занятий была традиционной.

Далее проводился анализ письменных работ на предмет допущенных ошибок. «Речевые ошибки – это нарушение любых языковых норм» [Титкова 2015: 135]. За основу в исследовании принята классификация С. Н. Цейтлин, которая выделяет в письменной речи ошибки орфографические, пунктуационные, словообразовательные, морфологические, синтаксические, лексические, фразеологические и стилистические [Цейтлин 2020]. Разработанная классификация ошибок предназначена, прежде всего, для анализа письменных работ носителей русского языка. В методике преподавания русского языка как иностранного/неродного существует несколько иная классификация ошибок, приемлемая для анализа работ неносителей русского языка. В ней, в частности, выделяют ошибки фонетические, графические, грамматические и лексические как наиболее актуальные для иностранцев при продуцировании русской письменной речи [Балыхина 2007].

Принимая во внимание обе классификации, мы выделили следующие группы ошибок для анализа письменных работ детей-инофонов: фонетико-графические, грамматические, лексические, орфографические и

пунктуационные. Именно эти ошибки следует классифицировать как наиболее частотные в работах детей-инофонов.

Результаты и обсуждение. На рис. 1 представлены типы ошибок, встречающихся в продуктивной речи детей-инофонов по результатам написания изложения, и их суммарное количество.




Рис. 1. **Типы ошибок детей-инофонов (изложение)**

Fig. 1. **Types of mistakes made by children native speakers of foreign languages (exposition)**

На диаграмме видно, что в изложении дети-инофоны чаще допускают орфографические, пунктуационные и фонетико-графические ошибки, значительно реже – лексические и грамматические ошибки.

Рассмотрим далее типы ошибок в продуктивной речи детей-инофонов в ходе работы над сочинением, а также соотнесем их суммарное количество (см. рис. 2).

Сопоставив диаграммы, сделаем вывод, что при написании сочинения количество допущенных пунктуационных, орфографических и фонетико-графических ошибок также велико, возрастает уровень грамматических ошибок и несколько уменьшается количество лексических ошибок.

Таким образом, можно констатировать, что в продуктивной письменной речи у детей-инофонов (IV класс) преобладают орфографические, пунктуационные и фонетико-графические ошибки. Полученные результаты оказались несколько неожиданными, поскольку грамматические и лексические ошибки как наиболее частотные в речи иностранцев, изучающих русский язык, присутствуют в письменных работах детей в небольшом количестве. Обсудим полученные результаты.




Рис. 2. **Типы ошибок детей-инофонов (сочинение)**

Обсуждение. Среди допущенных орфографических ошибок наиболее частотными были ошибки в правописании: без-ударной гласной в корне слова (**потенуло*, **ополенные*, **заец*, **заиц*); *-жи-/-ши-* (**жы-вотные*); *о-ё* после шипящих в корне слова (**обжог*, **пашол*); непроизносимых соглас-ных в корне слова (**почуствовал*, **сонце*); звонких и глухих согласных в корне сло-ва (**ийти*); приставок (**пашло*, **пажар*); предлогов (**из под*, **из за*); наречий (**по медленнее*, **не ожиданно*, **из неоткудо*, **по тише*); суффиксов глаголов (**вылечел*, **по-чуел*, **увидил*); частиц (**наконецто*).

Среди пунктуационных ошибок выделим неразличение границ предложений (*Спасение дед Ласион. Заяц выдел деда Лариона из огня. К озеру и оба упали от усталости*); ошибки в постановке знаков препинания в сложных предложениях (*Дед побожал по кочкам он спотыкался, и падал*; *Дед знал что зверки знаю куда нада бежат чтобы спастись*; *Заяц вывел деда из огня и они выбе-жали к озеру*; *Ведь жывотные лутше знают как спастись от пожара*) и при однородных членах предложения (*Дед плакал чтобы заец бежал по тише, и наконец заец и дед дома*).

Подобные ошибки, орфографические и пунктуационные, характерны, прежде всего, для носителей русского языка. Для тех, кто изучает русский язык как иностранный, такие ошибки не являются частотными. По этому поводу еще в XX в. Г. И. Рожкова писала: «Иностранцы прочно запоминают написание слов и не делают большого количества ошибок, типичных для русских школьников» [Рожкова 1973: 104]. Но эта точка зрения ученого была высказана относительно обучения РКИ взрослых людей, которые, овладевая иностранным языком, одновременно изучают русскую устную и письменную речь. «Письменные мате-риалы в сочетании с устными дают дополнительные

подсказки», – отмечают Р. Крез и Р. Робертс в книге «Как выучить язык в любом возрасте» [Крез 2017: 46]. Методика преподавания русского языка как иностранного отличается от методики преподавания русского как родного: она строится на одновременном взаимосвязанном обучении иностранцев всем видам речевой деятельности на русском языке: аудированию, чтению, письму и говорению. В российских школах обучение детей-инофонов осуществляется по методике, ориентированной на носителей русского языка, для которых первична устная речь и вторична – письменная. Вследствие этого количество орфографических и пунктуационных ошибок мигрантов увеличивается.

Следует добавить и отсутствие стойкого навыка чтения на русском языке: в IV классе многие дети-инофоны медленно и с ошибками читают тексты на русском языке. В данном случае прослеживается тесная взаимосвязь устной и письменной речи: недостаточно развитый репродуктивный навык чтения оказывает негативное влияние на продуктивный навык – письмо. Поэтому необходима кропотливая и последовательная работа с письменным текстом, впрочем, как и для носителей русского языка, которые также допускают большое количество орфографических и пунктуационных ошибок.

В числе фонетико - графических наиболее частотны, например, такие: заме-на одних букв на другие (**горью*, **побожал*, **пежать*, **вед*), пропуск букв (**сзди*, **зади*, **знае*, **трек*), неразличение твердых и мягких согласных (**зверки*, **бежат*, **вед*, **ден*), неразличение звуков [ы] – [и] (**прырода*, **пиль*, **выдел*, **спатикался*). Многие дети-инофоны пишут слова так, как слышат их (ярким примером является **обазжон*).

Большая часть фонетико-графических ошибок вызвана интерференцией. Авторы «Современного словаря методических терминов и понятий» отмечают, что интерференция «проявляется в том, что ранее сформированные и более прочные навыки взаимодействуют с новыми, это и при-водит к ошибке».

Нам близка точка зрения Н. Н. Варюшенковой, которая считает, «что проявления фонетико-графической интерференции в речи иноязычных носят двусторонний характер: неверное декодирование графического образа незнакомых слов может повлечь нарушения в произношении на неродном языке, а неправильное фонетическое оформление неродной речи может вызвать ошибки на письме». Плохо развитый фонематический слух у детей-инофонов влечет за собой большое количество фонетико-графических ошибок. Соответственно, для того чтобы их количество уменьшилось, необходимо вводить специальные упражнения для развития фонематического слуха. Однако это может оказаться методически нецелесообразным для носителей русского языка, обучающихся в одном классе с детьми-инофонами.

«Наблюдения показывают, что русско-язычные дети, способные работать более активно и продуктивно, теряют мотивацию, расслабляются и скучают», если выполняют задания и упражнения, которые им неинтересны [Ямалетдинова, Давлетбаева 2022: 170].

Вероятно, работу по формированию и развитию фонематического слуха необходимо проводить на специальных факультативных занятиях. В середине 2023 г. Совет при Президенте Российской Федерации по развитию гражданского общества и правам человека поддержал запуск бесплатных курсов по русскому языку для детей мигрантов. По словам Валерия Фадеева, «примерно от половины до 3/4 этих детей знают русский плохо или не знают совсем. И конечно, они не могут учиться, не зная языка. Среди этих детей есть и граждане России, и те, кто не получил гражданства».

Добавим, что проблемы дополнительного обучения детей мигрантов русскому языку ранее рассматривались учеными-методистами. Так, еще в 2006 г. коллективом авторов был опубликован сборник, в котором представлены программы занятий с детьми-инофонами, конкретные разработки уроков русского языка, где есть и упражнения на развитие фонематического слуха [Голованова, Какорина и др. 2006]. Однако в настоящее время ситуация с дополнительными обязательными занятиями по русскому языку пока находится в стадии рассмотрения на уровне Министерства просвещения РФ.

Третья группа ошибок – л е к с и ч е с к и е. Это нарушение лексической сочетаемости слов (*Дым **вылезал** ему глаза. А сзади огонь **выедал** ему*); употребление слова в несвойственном значении (***Благодаря** сильному огню сгорел лес*); неразличение синонимов (*Картину написал **знакомый** во всей России художник. Я полюбила природу России, ее **ширину** и красоту*); неудачное употребление местоимения (*Заяц вывел Деда Лариона. **У него** сгорели лапы; Погода на картине хорошая. **Она** мне нравится*); смешение слов, близких по звучанию (*Был слышно гул трек **понямя***; *место на **карте*** – вместо *место на **картине***).

Как правило, лексические ошибки вызваны, прежде всего, отличием системы родного языка детей от русской, что в свою очередь ведет к бедности словарного за-паса учащихся. Некоторые слова оказываются незнакомыми, а специфика речевого развития детей, для которых русский язык является неродным, приводит к неправильному орфографическому проговариванию слов, что, собственно, и доказывает анализ выше указанных ошибок.

Тем не менее отметим, что количество лексических ошибок в анализируемых письменных работах учащихся незначительно. В данном случае положительно, как отмечает учитель класса Н. А. Носкова, влияет

предварительная работа перед написанием сочинения и изложения, которая в определенной степени снижает частоту таких ошибок: это и вопросы плана, которые подсказывают детям необходимую лексику, и обязательное проговаривание по слогам трудных слов.

Кроме этого, в начальной школе дети активно вовлекаются не только в учебный процесс, но и во внеаудиторную работу, где происходит обогащение их лексического запаса за счет разнообразных коммуникативных ситуаций. «Активность заключается прежде всего в том, что ребенок становится деятельным, заинтересованным участником процесса овладения знаниями» [Сухомлинский 1983: 3]. Этот процесс состоит в комплексной работе, которая в начальной школе осуществляется не только в классе, во время уроков, но и в группе продленного дня, спортивных секциях и кружках, на внеклассных мероприятиях. В результате рождается «мотивация как пятый элемент системы обучения» [Абделила-Боэр 2020: 209]. Именно она «является двигателем общения», так как оказывает положительное влияние на весь процесс обучения на русском языке.

Далее рассмотрим грамматические ошибки. Это ошибки в образовании форм слов (*А сзди* ***дом*** *был слышен* ***треска*** *огня*; *Дед Ларион он был* ***охотника***; *просил идти* ***бо-лее медленее****…*); ошибки в согласовании и управлении (*…она побежал* ***за ней*** (о зай-це); *Был* ***слышно*** *гул…*); ошибки в постро-ении предложений (*Они упали потому, что от усталости*; *Мне нравится эта картина,* ***хотя*** *она очень красивая*). При этом следу-ет отметить (в качестве примеров приведена только часть ошибок), что бóльшая часть из сложных. «Освоению русского языка мешает существенная разница в грамматическом строе языков, а если учесть, что в од-ном классе, как правило, несколько учеников-инофонов и родные языки у них разные (и даже принадлежат к разным языковым семьям), то проблема грамматических параллелей кажется неразрешимой» [Ямалетдинова, Давлетбаева и др. 2022: 171]. Более того, как правило, «при обучении детей ми-грантов русскому языку практически не учитывается национальная специфика, влияние интерференции родного языка. Преподавание русского языка узбекским, таджикским, вьетнамским, китайским детям осуществляется по одним и тем же учебникам» [Гусева, Дворкина и др. 2014: 11].

Действительно, грамматика русского языка – один из самых сложных аспектов РКИ, это тот «фундамент, на котором может быть основано прочное, осознанное, активное владение русским языком как специфическим способом национального отражения и моделирования реальной дей-ствительности»10. Однако, как справедливо отметила В. И. Остапенко, «можно знать грамматику

и не владеть языком» [Остапенко 1983: 11]. В нашем исследовании представлена иная ситуация: небольшое количество грамматических ошибок в письменной речи детей-инофонов. Определим факторы, которые этому способствуют.

Обучение в начальной школе имеет свою специфику: дети, как правило, неосознанно вступают в коммуникативный контакт с представителями разных языков и культур. Многочисленные грамматические ошибки одноклассников поправляются интуитивно, поскольку быстрее узнаются носителями языка на слух, а проговаривание ино-фоном правильного варианта в устной речи способствует его грамотной фиксации на письме. К тому же дружественная обстановка, во время которой ученики исправляют вслух друг друга и при этом не обижаются, способствует этому. Иностранные ученые называют такой процесс «ситуативное изучение языка» [Абделила-Боэр 2020].

Оно предполагает проговаривание в любой грамматических ошибок связана с употребением слов в правильной падежной форме. Именно эти ошибки в методике преподавания РКИ считаются самыми распространенными, а работа над ними – одной ситуации: «Я стираю с доски», «Я отвечаю урок», «Одноклассники готовятся к празднику», «У меня нет рабочей тетради по русскому языку» и т. д. В. А. Сухомлинский считал, что «непроизвольное запоминание – важнейшее условие умственного развития» [Сухомлинский 1983: 63]. Такая работа должна быть каждодневной. Вследствие этого особая роль принадлежит педагогу.

Как справедливо отмечают учителя, «в поликультурной среде РФ даже те педагоги, которые имеют большой опыт работы, испытывают трудности в преподавании русского языка иностранцам. Учитель-словесник не может эффективно организовать свою деятельность, так как все существующие учебники, программы и традиционные методики преподавания русского языка ориентированы на детей, для которых русский язык является родным» [Кулебякина 2018: 53]. Работа с детьми-инофонами требует от современного учителя прежде всего знаний по методике преподавания русского языка как иностранного, терпения и желания учить таких детей и учиться самому. Дети, рано начавшие обучение на неродном языке, со временем достигают более высоких результатов, чем те, которые позднее приступают к изучению иностранного языка [Singleton 2001].

Вследствие этого лексические и грамматические ошибки как наи-более частотные в речи иностранцев имеют тенденцию к снижению, если педагог грамотно выстраивает процесс обучения русскому языку в поликультурной среде российской школы.

Заключение. Проведенное исследование позволило выявить ошибки в русской речи детей-инофонов и понять их причины. «Язык собирается, как пазл» [Tabors 1997]. Этот пазл состоит из множества частей, среди которых фонетика, лексика, грамматика, орфография и пунктуация. И все они должны сложиться, чтобы ребенок, для которого русский язык является неродным, мог грамотно писать. Успех изучения русского языка детьми-инофонами зависит от многих факторов, в том числе и от роли учителя, его профессионализма, желания помочь, направить и научить. Предложенные методические рекомендации направлены на преодоление речевой безграмотности детей-инофонов на русском языке.

ЛИТЕРАТУРА:

1. *Абделила-Боэр Б.* Дети-билингвы: практический руководитель для родителей; пер. с французского Юны Козыревой. Минск: Дискурс, 2020. 256 с.
2. *Балыхина Т. М.* Методика преподавания русского языка как неродного (нового): учеб. пособие для преподавателей и студентов. М.: Издательство Российского университета дружбы народов, 2007. 185 с.
3. *Голованова М. В., Какорина Е. В., Каленкова О. Н.* Проблемы языковой адаптации детей мигрантов в образовательных учреждениях города Москвы; отв. ред. Л. Е. Курнешова. М.: Центр «Школьная книга», 2006. 158 с.
4. *Гусев А. В., Хачикян Е. И., Масленникова О. В.* и др. Интеграция детей-инофонов в российское образовательное пространство: лингвистическая и социокультурная адаптация // Современное педагогическое образование. 2022. № 6. С. 298–304.
5. *Гусева Е. Ю., Дворкина Е. А., Полякова Ю. Д.* О некоторых аспектах обучения детей-инофонов научному стилю речи // Русский язык в школе. 2014. № 7. С. 11–12.
6. *Железнякова Е. А., Лаптева М. Л.* Дистанционные образовательные технологии в обучении русскому языку как неродному в начальной школе // Русистика. 2021. Т. 19, № 1. С. 21–33.
7. *Крез Р., Робертс Р.* Иностранный для взрослых: как выучить язык в любом возрасте / пер. с англ. М.: Альпина Паблишер, 2017. 208 с.
8. *Кулебякина Е. А., Романенкова О. А.* Формирование коммуникативной компетенции детей мигрантов в условиях полиэтнической образовательной среды // Гуманитарные науки и образование. 2018. Т. 9, № 1(33). С. 52–58.

9. *Морозова Е. А., Цапурина И. С.* К вопросу об организации обучения детей-инофонов на уроках русского языка и литературного чтения // Начальная школа. 2017. № 7. С. 11–15.
10. *Остапенко В. И.* Обучение русской грамматике иностранцев на начальном этапе. М.: Русский язык, 1983. 149 с.
11. *Рожкова Г. И.* Методика преподавания русского языка как иностранного: спецкурс / М-во высш. и сред. спец. образования РСФСР. Иркут. гос. ун-т им. А. А. Жданова. Иркутск, 1973. 155 с.
12. *Скворцова М. А.* Методика преподавания русского языка в классах с детьми-инофонами в начальной школе // Вестник Костромского государственного университета. Серия:
13. Педагогика. Психология. Социокинетика. 2019. Т. 25, № 3. С. 211–213.
14. *Сухомлинский В. А.* Об умственном воспитании: сб. / сост. и автор вступ. статьи М. И. Мухин. Киев: Рад. школа, 1983. 224 с.
15. *Титкова М. Ю.* Классификация речевых ошибок школьников: вопрос и вариант решения // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. 2015. № 4. С. 134–139.
16. *Товт А. М., Кончакова С. В.* Формирование навыков письменной речи инофонов на начальном этапе обучения русскому языку как иностранному: практические рекомендации // Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И. Я. Яковлева. 2022. № 1(114). С. 219–225.
17. *Цейтлин С. Н.* Речевые ошибки и их предупреждение. М.: URSS, 2020. 192 с.
18. *Юздова Л. П., Лукиных Н. В.* Обучение инофонов и билингвов русскому языку в начальной школе // Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. 2018. № 8. С. 169–180.
19. *Ямалетдинова А. М., Давлетбаева О. В., Байтимирова И. Б.* Современные подходы к обучению детей-инофонов русскому языку на уровне основного общего образования // Вестник Башкирского университета. 2022. Т. 27, № 1. С. 167–173.
20. *Singleton D.* Age and second language acquisition // Annual Review of Applied Linguistics. 2001. Vol. 21 P. 77–89.
21. *Tabors P. O.* One child, two languages: A guide for preschool educators of children learning english as a second language. Baltimore: Paul H. Brokers, 1997. 195 p.
22. Касенова Н. Н., Мусатова О. В., Джурабаева Г. К. и др. Работа с детьми мигрантов в образовательных организациях: учебно-методическое пособие

/ М-во науки и высшего образования Российской Федерации Новосиб. гос. пед. ун-т, Новосиб. регион. общ. орг. «Узбек-скорусский национально-культурный центр». Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2020. 198 с. с детьми-инофонами и их родителями на разных этапах (дошкольном и школьном).

23. Канакина В. П., Горецкий В. Г. Русский язык. 4 класс: учеб. для обще-образоват. организаций: в 2 ч. 9-е изд. М.: Просвещение, 2019; Канакина В. П., Горецкий В. Г. Русский язык. 4 класс: рабочая тетрадь: в 2 ч. М.: Просвещение, 2019.

NORMUROD NORQOBILOVNING “OQBO‘YIN” ASARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (7E MODELINI QO‘LLASH)

Shabonova Guljamol Abdullo qizi
Kogon tuman 11-umumta’lim maktabi
Oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi
Bozorova Ra’no G’aybullayevna
Buxoro viloyat Kogon tuman 11-umumta’lim maktabi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqola 7-sinf “Adabiyot” darsligining “Inson, tabiat, o‘zlik” faslida o‘rganiladigan Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” hikoyasining o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan. Ishda yozuvchining hayoti va ijod yo‘li bilan tanishtirish, o‘quvchini asar matniga tayyorlash, ya’ni o‘qish oldidan uning shaxsiy tajribasini faollashtirish, sarlavha va muallif shaxsi orqali bashorat qilish ko‘nikmasini shakllantirish, kalit so‘zlar ustida ishlash orqali matnni idrok etishga zamin yaratishdan iborat. Bu esa zamonaviy adabiyot o‘qitish metodikasidagi “mutolaadan oldin – mutolaa davomida – mutolaadan keyingi topshiriqlar” tizimining birinchi, eng mas’uliyatli bo‘g‘ini hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: 7E, ekologik tarbiya, badiiy tahlil, muammoli ta’lim, inson va tabiat, bashorat, interfaol metod, formativ baholash, refleksiya.

Abstract: This article is devoted to the methodology of teaching Normurod Norqobilov’s short story “Oqbo‘yin”, studied in the section “Human, Nature, and Self” of the 7th-grade “Literature” textbook. The study focuses on introducing students to the writer’s life and creative career, preparing students for the text of the literary work, that is, activating their personal experience before reading, developing the skill of making predictions through the title and the author’s identity, and creating a foundation for understanding the text through work with key words. This constitutes the first and most responsible stage of the “pre-reading – while-reading – post-reading tasks” system in modern literature teaching methodology.

Keywords: 7E, environmental education, literary analysis, problem-based learning, human and nature, prediction, interactive method, formative assessment, reflection.

Аннотация: Данная статья посвящена методике преподавания рассказа Нормурода Норкобилова «Оқбўйин», изучаемого в разделе «Человек, природа, самобытность» учебника «Литература» для 7-го класса. В работе основное внимание уделяется ознакомлению учащихся с жизнью и творческим путем писателя, подготовке учащихся к восприятию текста произведения, то есть активизации их личного опыта перед чтением, формированию навыка прогнозирования посредством анализа заглавия и личности автора, а также созданию основы для осмысления текста посредством работы с ключевыми словами. Это является первым и наиболее ответственным звеном системы «задания до чтения – задания во время чтения – задания после чтения» в современной методике преподавания литературы.

Ключевые слова: 7E, экологическое воспитание, художественный анализ, проблемное обучение, человек и природа, прогнозирование, интерактивный метод, формативное оценивание, рефлексия.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlari, xususan, umumiy o‘rta ta’limning yangilangan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari adabiyot fanidan o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati, matn bilan mustaqil ishlash va badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishni talab etadi. Bugungi o‘quvchi matnni shunchaki o‘qib berishi emas, balki uni tushunishi, his qilishi va o‘z hayotiy tajribasi bilan bog‘lay olishi lozim.

Zamonaviy adabiyot o‘qitish metodikasida badiiy asar ustida ishlash uch bosqichda amalga oshiriladi: o‘qishdan oldingi, o‘qish davomidagi va o‘qib bo‘lgandan keyingi topshiriqlar. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilar ko‘pincha ikkinchi va uchinchi bosqichga e’tibor qaratib, birinchi bosqichni — o‘quvchini asarni o‘qishga tayyorlash bosqichini yetarlicha ishlab chiqmaydi. Holbuki, aynan shu bosqichda o‘quvchining motivatsiyasi uyg‘onadi, u matnga “savol bilan” kiradi va o‘qish jarayoni ongli tus oladi.

Asosiy qism. 7 E modeli [8]– o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o‘zining avvalgi bilimlari va tajribasi asosida yangi bilimni faol ravishda quruvch subyekt sifatida qaraydigan ta’lim modeli.Bu model 5E modelining kengaytirilgan shakli bo‘lib, Arthur Eisenkraft 2003-yilda Extend va Examine bosqichlarini kiritishni taklif qilgan.Unda muallif o‘quvchilarning oldingi bilim va tasavvurlarini aniqlash va o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatlarga ko‘chirishga alohida ahamiyat beradi.

1.Engage (jalb etish) – bu bosqichda o‘quvchilar oldingi bilimlari, tajribalari va kutilgan natijalar bilan tanishtiriladi.Bunda o‘quvchi etiborini jalb qilish, uning qiziqishlarini uyg‘otish,faolligini ta’minlash maqsadida muamolar, real hayotdagi holatlar orqali motivatsiya beriladi.

“Oqbo‘yin” hikoyasida it obrazi orqali sadoqat, mehr, mas’uliyat va insoniylik masalalari ko‘tariladi. Bunday asarni o‘qishga kirishishdan oldin o‘quvchida muallif shaxsiga qiziqish uyg‘otish, sarlavha ma’nosi haqida taxmin qildirish, asar qahramonlari nomi bilan dastlabki tanishtirish darsning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Hikoyadagi asosiy qahramon – Oqbo‘yin laqabli kuchukning sadoqati yoki uning boshidan kechirgan og‘ir sinovlari tasvirlangan qisqa parcha o‘qib beriladi yoxud videolavha ko‘rsatiladi. Bu orqali o‘quvchilarning hissiyotlari uyg‘otiladi.

2.Explore(kashf etish) – bunda o‘quvchilardan mustaqil ishlash, yangi bilimlar kashf etish, tahlil qilish talab etiladi. bunda o‘quvchilar bilimni tayyor holda olmaydi, balki mustaqil yoki guruhda izlanib, kuzatib, tajriba qilib, ma’lumot yig‘ib xulosaga kelishga harakat qiladi. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Dars davomida o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, hikoyani o‘qiydilar va matn yuzasidan Oqbo‘yinning xarakterini ochib beruvchi epizodlarni aniqlab,
asardagi insonlar va tabiat (hayvonlar) o‘rtasidagi ziddiyatlarni belgilaydilar.

3.Explain(tushuntirish) –O‘quvchilarning kashfiyotlari va faoliyatlari umumlashtirilib, o‘qituvchi ularning o‘z tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi va mustahkamlaydi.Topilgan ma’lumotlarni tahlil qilinib, izohlanadi.

Har bir guruh o‘z kuzatishlari bo‘yicha taqdimot qiladi. O‘quvchilar Oqbo‘yinning sadoqati nima uchun qadrlangani yoki ba’zi insonlarning shafqatsizligi sabablarini adabiy nuqtayi nazardan tushuntirib beradilar. O‘qituvchi zarur o‘rinlarga aniqlik kiritadi.

4. Elaborate(Chuqurlashtirish) – bunda o‘quvchilardan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash va chuqurlashtirish talab etiladi. Har bir detalga alohida urg‘u berib, mavzuni kengroq tushunishga harakat qiladilar. Bu bosqich SWOT tahlili bilan davom ettiriladi. O‘quvchilar Oqbo‘yinning kuchli va kuchsiz tomonlarini, imkoniyatlari va undagi to‘siq va tahdidlar haqida o‘z fikrlarini bildirishadi.

5.Evaluate(Baholash) – bu bosqich o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tekshirish, ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi.Baholash faqat dars oxirida emas, balki 7E jarayonining turli bosqichlarida ham amalga oshirilishi mumkin.

O‘quvchilar quyidagi shakllarda baholanadi:

1."Venn diagrammasi" orqali asardagi ijobiy va salbiy qahramonlarni solishtirish;

2.Oqbo'yinga bag‘ishlab qisqa xat yoki esse yozish.

6. Extend (Kengaytirish) – Bu 7E modelining muhim jihatlaridan biridir.O‘quvchi o‘rgangan bilimini avval uchramagan yangi vaziyat yoki muammoga tatbiq qiladi. Bunda o‘rganilgan materialni turli mavzularda kengaytirish muhim sanaladi. Olingan bilim va g‘oyalarni kengroq ijtimoiy muhitga olib chiqish, boshqalar bilan ulashish muhimdir.

O‘quvchilar "Inson va tabiat" mavzusida kichik ijtimoiy loyihalar, plakatlar yoki sinf ichida ko'rgazma tashkil etadilar. Bu orqali adabiy asarning tarbiyaviy ta'siri amaliy harakatga aylanadi.

7.Examine (Tahlil qilish) – O‘quvchilarga muammoli savol beriladi: *"Agar siz asar oxirini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lganingizda, qanday yakun yasagan bo‘lar edingiz?"* yoki *"Bugungi kunda uy hayvonlariga bo‘lgan munosabatni yaxshilash uchun nima qilish kerak?"*. Bu o‘quvchilarning hayotiy tajribasi bilan adabiy g‘oyani bog‘lashga xizmat qiladi.

“Oqbo'yin” hikoyasini o'qitishda 7E modelidan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat adabiy matnni tushunish, balki insoniylik, rahm-shafqat, sadoqat kabi yuksak ma’naviy fazilatlarni chuqur singdirishga yordam beradi. Bu metod darsni jonli, interfaol va o‘quvchi uchun yanada esda qolarli qiladi.Ushbu model o‘qituvchiga dars jarayonini bosqichma-bosqich, tizimli va o‘quvchilarning faolligiga tayanib tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Xulosa. Tadqiqotlarda 7E modelidan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy ko‘nikmalari, motivatsiyasi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, o‘ziga ishonchini rivojlantirish bilan bog‘langan.Zamonaviy adabiy ta’limning bosh maqsadi o‘quvchiga faqatgina badiiy asar mazmunini yetkazish emas, balki unda mustaqil fikrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat hamda estetik did shakllantirishdir. Normurod Norqobilovning "Oqbo‘yin" qissasi yosh avlodni tabiatga, jonivorlarga mehr qo‘yish, sadoqat va ma’naviy mas’uliyat tuyg‘ularini anglashda bebaho manba hisoblanadi. Asarda it va inson o‘rtasidagi samimiy munosabat, tabiat va insoniyat to‘qnashuvi hamda oqibat tushunchalari juda ta’sirli yoritilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. “Adabiyot” fani. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi.
3. Mirzayeva Z.I., Djalilov K.Q. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Mirzayeva Z.I., Djalilov K.Q. Adabiyot. 7-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022. –192 b.
5. Norqobilov N. Oqbo‘yin: qissa va hikoyalar. – Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, – 43-102 b.
6.https://n.ziyouz.com –Ziyouz kutubxonasi.
7. Eisenkraft,A.(2003). “Expanding the 5E model” The Science Teacher, 70(6), 56-59 b.

SUN’IY INTELLEKT YARATGAN MATNLARNI LINGVISTIK TAHLIL QILISH ORQALI 7–8-SINF O‘QUVCHILARINING TANQIDIY O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Tilavova Munisxon Alijon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellekt vositalari yaratgan o‘zbek tilidagi matnlardan ona tili darslarida tanqidiy o‘qish materiali sifatida foydalanish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Bunday matnlardagi lingvistik va faktik nuqsonlar tasnifi taklif etiladi. PISA o‘qish savodxonligi jarayonlariga tayangan, 7–8-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan to‘rt bosqichli topshiriqlar tizimi asoslanadi.

Tayanch tushunchalar: funksional savodxonlik, tanqidiy o‘qish, PISA, sun’iy intellekt, generativ matn, kalka, pleonazm, lingvistik tahlil.

Аннотация. В статье рассматривается возможность использования текстов на узбекском языке, созданных инструментами искусственного интеллекта, в качестве материала для обучения критическому чтению на уроках родного языка. Предлагается классификация языковых и фактических погрешностей таких текстов. Обосновывается четырёхэтапная система заданий для учащихся 7–8 классов, опирающаяся на процессы чтения, выделяемые в PISA.

Ключевые слова: функциональная грамотность, критическое чтение, PISA, искусственный интеллект, генеративный текст, калька, плеоназм, лингвистический анализ.


Abstract. The article examines the potential of Uzbek-language texts generated by artificial intelligence tools as material for teaching critical reading in

native language lessons. It proposes a classification of the linguistic and factual flaws typical of such texts. A four-stage task system for 7th–8th grade students, grounded in the reading processes defined by PISA, is substantiated.

Keywords: functional literacy, critical reading, PISA, artificial intelligence, generated text, calque, pleonasm, linguistic analysis.

Kirish. O‘zbekiston 2022-yilda PISA xalqaro tadqiqotida ilk bor ishtirok etdi. Natijalar kutilganidan ancha past chiqdi: o‘qish savodxonligi bo‘yicha o‘quvchilarimizning o‘rtacha bali 336 ni tashkil etgan bo‘lsa, OECD mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 476 ballga teng bo‘ldi [1]. O‘qish bo‘yicha 5- va undan yuqori darajaga chiqqan o‘quvchilar ulushi deyarli nolga teng[2]. Bu o‘quvchilarimiz o‘qiy olmaydi, degani emas: ular matnni ravon o‘qiydi, lekin o‘qiganini baholash, manbalarni solishtirish bosqichida qiynaladi. PIRLS-2021 tadqiqoti ham shunga ishora qilgan edi[3].

1-rasm. O‘zbekiston o‘quvchilarining PISA-2022 natijalari (ball)



Manba: OECD PISA 2022 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

PISA tadqiqotida 15 yoshli o‘quvchilar qatnashadi, demak, 7–8-sinflar unga tayyorgarlikning hal qiluvchi davri hisoblanadi. Ayni shu yoshda o‘quvchining matn bilan munosabati keskin o‘zgarmoqda. Bugungi o‘smir ma’lumotni ko‘pincha kitobdan emas, telefonidagi suhbatdosh-dasturdan oladi va uning silliq, ishonchli ohangdagi javobini tekshirmay qabul qiladi. Ammo til modellari ma’noni anglab emas, so‘zlarning statistik ehtimolli izchilligini hosil qilib ishlaydi[4], shu sababli ular haqiqatga o‘xshash, lekin asossiz ma’lumotlarni ham bemalol «to‘qib» chiqaradi. Mutaxassislar bu hodisani gallyutsinatsiya deb atashadi[5]. Raqamli korpusi nisbatan kichik bo‘lgan o‘zbek tilida esa bunga til me’yori bilan bog‘liq xatolar ham qo‘shiladi.

YUNESKO generativ sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish bo‘yicha qo‘llanmasida bunday vositalarni sinfda qo‘llash uchun 13 yoshni quyi chegara sifatida tavsiya etadi va ularning javoblarini tanqidiy tekshirish ko‘nikmasini alohida

ta’kidlaydi[6]. 7–8-sinf o‘quvchilari aynan shu chegarada turadi. Shu bois biz quyidagi yondashuvni taklif etamiz: sun’iy intellekt matnini darsdan quvib chiqarish emas, uni o‘quvchi ko‘chiradigan matndan o‘quvchi tekshiradigan matnga aylantirish. Maqolaning maqsadi shu matnlardagi nuqsonlarni tasniflash va ular asosida topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdir.

Asosiy qism. PISA o‘qish savodxonligini uch asosiy jarayon orqali o‘lchaydi: matndan axborotni topish, uni tushunish hamda baholash va mulohaza yuritish. 2018-yilgi konsepsiyada matn sifati va ishonchliligini baholash, bir-biriga zid manbalar bilan ishlash ko‘nikmalariga alohida urg‘u berilgan[7]. S. Vaynberg va S. Makgryu esa raqamli matn ishonchliligi uni boshqa manbalar bilan «yonlama» solishtirish orqali samarali aniqlanishini ko‘rsatgan[8]. Bizningcha, sun’iy intellekt matni bu g‘oyalarni darsda birlashtirish uchun qulay materialdir.

Sun’iy intellekt matnlaridagi nuqsonlar tasnifi. Dasturlar yaratgan o‘zbekcha matnlardagi nuqsonlarni besh guruhga ajratish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Sun’iy intellekt matnlaridagi lingvistik nuqsonlar tasnifi

Nuqson turi	Lingvistik mohiyati	Namuna (→ to‘g‘ri shakl)
Leksik-semantik	Kalka, so‘zning o‘zbek tilida qabul qilinmagan ma’noda qo‘llanishi	katta rol o‘ynaydi → katta ahamiyatga ega
Grammatik	Qo‘shimchalar va ko‘makchilarning noto‘g‘ri tanlanishi, pleonastik qurilmalar	asari bo‘lib «Xamsa» hisoblanadi → asari «Xamsa»dir
Uslubiy	Ot-fe’l birikmalarining ortiqcha qo‘llanishi, ma’nosiz umumlashma	yaratishni amalga oshirgan → yaratgan
Imloviy	O‘, g‘ harflari va tutuq belgisining tushib qolishi yoki almashinishi	ozbek, sanat → o‘zbek, san’at
Faktik-pragmatik	Uydirma ma’lumot, manbasiz iqtibos, «ishonch belgilari»ning soxta qo‘llanishi	Mutaxassislarning ta’kidlashicha, … 50 dan ortiq tilda ijod qilgan

Nuqson turi Lingvistik mohiyati Namuna (→ to‘g‘ri shakl)
Leksik-semantik Kalka, so‘zning o‘zbek tilida qabul qilinmagan ma’noda qo‘llanishi katta rol o‘ynaydi → katta ahamiyatga ega
Grammatik Qo‘shimchalar va ko‘makchilarning noto‘g‘ri tanlanishi, pleonastik qurilmalar asari bo‘lib «Xamsa» hisoblanadi → asari «Xamsa»dir

Uslubiy Ot-fe’l birikmalarining ortiqcha qo‘llanishi, ma’nosiz umumlashma yaratishni amalga oshirgan → yaratgan

Imloviy O‘, g‘ harflari va tutuq belgisining tushib qolishi yoki almashinishi ozbek, sanat → o‘zbek, san’at

Faktik-pragmatik. Uydirma ma’lumot, manbasiz iqtibos, «ishonch belgilari»ning soxta qo‘llanishi Mutaxassislarning ta’kidlashicha, … 50 dan ortiq tilda ijod qilgan

Leksik-semantik guruhda eng ko‘p uchraydigani kalkadir. A. Hojiyev ta’rificha, kalka boshqa til so‘zi yoki iborasining tarkibiy qismlarini o‘z tili vositalari bilan aynan ko‘chirish natijasida yuzaga keladi[9]. Dasturlar asosan ingliz va rus tilidagi matnlar asosida «o‘rgangani» uchun rol o‘ynamoq, muhim ahamiyat kasb etmoq singari qoliplarni haddan tashqari ko‘p ishlatadi. Grammatik va uslubiy nuqsonlar ko‘pincha bir-biri bilan chatishib ketadi: bo‘lib hisoblanadi tipidagi pleonastik qurilma ham grammatik ortiqchalik, ham uslubiy g‘alizlikdir. Nutq madaniyatiga oid tadqiqotlarda ham nutqning aniqligi va soddaligi uning asosiy sifatlari sifatida qayd etiladi[10]. Eng xavflisi esa faktik-pragmatik nuqsonlardir, chunki ular til jihatidan mutlaqo to‘g‘ri gaplarda yashirinadi. «Mutaxassislarning ta’kidlashicha», «tadqiqotlar ko‘rsatishicha» kabi kirish birikmalari matnga ishonch bag‘ishlaydi, biroq ortidan hech qanday manba ko‘rsatilmaydi.

O‘quv maqsadida tuzilgan quyidagi namuna matnda bu nuqsonlar jamlangan: *«Alisher Navoiy 1441-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. U o‘z hayoti davomida ko‘plab asarlarni yaratishni amalga oshirgan. Navoiyning eng mashhur asari bo‘lib «Xamsa» hisoblanadi. Bu asar ozbek adabiyotining rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, Navoiy 50 dan ortiq tilda ijod qilgan.»* Besh gapdan iborat bu kichik matnda ikki faktik xato (tug‘ilgan joy Samarqand emas, Hirot; *«50 dan ortiq til» esa asossiz da’vo), bitta kalka, bitta pleonazm, bitta uslubiy ortiqchalik va bitta imlo xatosi bor.*

Topshiriqlar tizimi. Taklif etilayotgan metodika to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich PISA o‘qish jarayonlaridan biriga va ona tili dasturidagi muayyan til materialiga tayanadi (2-jadval).

2-jadval. «Tekshir – Taqqosla – Tuzat – Asosla» topshiriqlar tizimi

Bosqich	PISA o‘qish jarayoni	O‘quvchi faoliyati	Til materiali (7–8-sinf)
1. Tekshir	Axborotni topish	Matndagi tekshirilishi lozim bo‘lgan da’volarni (sana, son, joy nomi, iqtibos) belgilaydi	Atoqli otlar, sonlar, kirish so‘zlar
2. Taqqosla	Baholash va mulohaza (manbalarni solishtirish)	Da’volarni darslik, lug‘at yoki ensiklopediya bilan solishtiradi, ziddiyatlarni yozib boradi	Sinonimlar, atamalar, so‘zning lug‘aviy ma’nosi
3. Tuzat	Tushunish	Kalka, pleonazm va imlo xatolarini aniqlab, gapni me’yoriy shaklga keltiradi	7-sinf: fe’l shakllari, ko‘makchilar; 8-sinf: so‘z birikmasi, gap bo‘laklari
4. Asosla	Baholash va mulohaza (ishonchlilik)	«Bu matnga ishonish mumkinmi?» degan savolga 4–5 gapli dalilli javob yozadi	Bog‘lovchilar, kirish so‘zlar, matn izchilligi

Amaliyotda matnlarni o‘qituvchi oldindan tayyorlaydi, o‘quvchidan dasturda hisob ochish talab qilinmaydi; ish mavzu yakunida 15–20 daqiqalik qism sifatida o‘tkaziladi. Baholashda topilgan xatolar soniga emas, to‘rtinchi bosqichdagi asoslashning sifatiga ko‘proq e’tibor beriladi: o‘quvchi «nega noto‘g‘ri va buni qayerdan bildim?» degan savolga javob berishi lozim. 8-sinfda inson yozgan va dastur yaratgan ikki matnni solishtirish topshirig‘i qo‘shiladi, bu PISAdagi ko‘p manbali matnlar formatiga bevosita mos keladi. Maqsad «hech narsaga ishonmaslik» emas, ishonchni tekshirish madaniyatini shakllantirishdir.

Xulosa. Sun’iy intellekt yaratgan matnlar ona tili ta’limi uchun tahdid emas, to‘g‘ri yo‘naltirilsa, funksional savodxonlikni rivojlantirishning samarali vositasi bo‘la oladi. «Tekshir – Taqqosla – Tuzat – Asosla» tizimi esa PISA talab qilayotgan baholash va mulohaza ko‘nikmalarini grammatika darsining tabiiy davomiga aylantiradi. Sun’iy intellekt matnlaridagi xatolar korpusini yaratish va metodikani tajriba-sinovdan o‘tkazish tadqiqotning navbatdagi vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023. – Table I.B1.2.2.
2. OECD. PISA 2022 Results (Volume I and II) – Country Notes: Uzbekistan [Elektron resurs]. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes_ed6fbcc5-en/uzbekistan_2bb94bf1-en.html (murojaat sanasi: 17.10.2026).
3. Ismailov A. Uzbekistan // PIRLS 2021 Encyclopedia [Elektron resurs]. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2022. – URL: https://pirls2021.org/wp-content/uploads/2022/11/Uzbekistan.pdf (murojaat sanasi: 17.10.2026).
4. Bender E.M., Gebru T., McMillan-Major A., Shmitchell S. On the Dangers of Stochastic Parrots: Can Language Models Be Too Big? // Proceedings of the 2021 ACM Conference on Fairness, Accountability, and Transparency. – New York: ACM, 2021. – P. 610–623.
5. Ji Z., Lee N., Frieske R. et al. Survey of Hallucination in Natural Language Generation // ACM Computing Surveys. – 2023. – Vol. 55, № 12. – P. 1–38.
6. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
7. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019.
8. Wineburg S., McGrew S. Lateral Reading and the Nature of Expertise: Reading Less and Learning More When Evaluating Digital Information // Teachers College Record. – 2019. – Vol. 121, № 11. – P. 1–40.
9. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B.
10. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ РОДНОЙ ЯЗЫКОВОЙ И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Хамидова Гулнара Юлдашбаевна
старший преподаватель кафедры
Методика преподавания языков БОЦПМ.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности современных педагогических технологий в развитии языковой и читательской грамотности младших школьников. Особое внимание уделяется интерактивным, проектным, игровым и цифровым технологиям, которые помогают сделать работу с текстом осмысленной, коммуникативной и ориентированной на практическое применение языка.

Ключевые слова: грамотность на родном языке, читательская грамотность, начальная школа, современные педагогические технологии, интерактивное обучение, цифровые технологии, работа с текстом, функциональная грамотность, критическое мышление.

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili va o‘qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritildi. Interfaol, loyiha, o‘yin va raqamli texnologiyalarning matn bilan ishlashni mazmunli, kommunikativ va amaliy yo‘naltirilgan tashkil etishdagi ahamiyati tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: ona tili savodxonligi, o'qish savodxonligi, boshlang'ich maktab, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, matn bilan ishlash, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash.

ABSTRACT. The article examines the potential of modern educational technologies for developing native-language and reading literacy among primary school pupils. Particular attention is paid to interactive, project-based, game-based and digital technologies that make text work meaningful, communicative and practice-oriented.

Keywords: native language literacy, reading literacy, primary school, modern pedagogical technologies, interactive learning, digital technologies, working with text, functional literacy, critical thinking.

Введение. Современное начальное образование ориентировано не только на усвоение учащимися системы языковых знаний, но и на формирование способности применять их в реальных учебных и жизненных ситуациях. Именно поэтому понятия языковой и читательской грамотности становятся важнейшими результатами начального обучения. Ребёнку необходимо уметь понимать содержание текста, находить необходимую информацию, устанавливать связи между фактами, формулировать вопросы и собственное мнение, пересказывать, преобразовывать и создавать тексты.

В условиях цифровизации образования меняется и организация учебной деятельности. Технологии перестают быть лишь средством предъявления информации: при грамотном методическом использовании они становятся инструментом активизации мышления, речевого взаимодействия и самостоятельной работы школьника. По мнению Н.Ф. Виноградовой, развитие функциональной грамотности предполагает формирование у младшего школьника способности использовать приобретённые знания для решения разнообразных учебных и практических задач.[1]

Следовательно, задача учителя состоит в том, чтобы сочетать традиционную работу с учебником и текстом с современными методами, обеспечивающими активную позицию ребёнка. При этом цифровые средства не должны подменять живое чтение, устную речь и письменную деятельность; их ценность определяется тем, насколько они помогают достигать конкретной образовательной цели.

Основная часть.

1. Современные технологии как средство развития языковой грамотности. Родная языковая грамотность младшего школьника включает умение правильно понимать и использовать языковые единицы, строить связное высказывание, выбирать языковые средства в соответствии с целью общения и соблюдать нормы устной и письменной речи. Для её развития особенно эффективны технологии, предполагающие активное речевое действие ученика.

Интерактивная технология позволяет организовать учебное общение в парах, группах и микрогруппах. Например, после чтения небольшого текста учащиеся могут выполнить задание «Найди и объясни»: один ученик находит языковую конструкцию, второй объясняет её значение, третий составляет собственное предложение. Такая организация работы переводит ученика из позиции пассивного слушателя в позицию участника коммуникации.

Технология проблемного обучения также создаёт условия для развития языковой грамотности. Учитель может предложить детям языковую ситуацию

с несколькими вариантами решения: «Почему автор выбрал именно это слово? Можно ли заменить его другим? Как изменится смысл предложения?» Подобные вопросы формируют не механическое запоминание правила, а осознанное отношение к языку.

Эффективным является и использование приёма «Языковая лаборатория». Учащиеся наблюдают за языковым материалом, сравнивают варианты, формулируют предположение, проверяют его на примерах и делают вывод. Такой алгоритм способствует развитию исследовательских умений и одновременно укрепляет предметные знания.

2. Современные технологии в формировании читательской грамотности. Читательскаяграмотность предполагает не только технику чтения. Международные исследования рассматривают её как способность понимать, использовать, оценивать и осмысливать тексты для достижения целей, развития знаний и участия в общественной жизни.[2] Поэтому уже в начальной школе необходимо учить ребёнка работать с информацией, представленной в различных формах.

Одной из результативных технологий является технология смыслового чтения. Работа с текстом может строиться в три этапа: до чтения, во время чтения и после чтения. До чтения дети прогнозируют содержание по заголовку и иллюстрациям; во время чтения выделяют ключевую информацию, задают вопросы, уточняют значение слов; после чтения формулируют главную мысль, составляют план, оценивают поступки героев или преобразуют полученную информацию.

Особую ценность представляет работа с несплошными текстами: таблицами, схемами, диаграммами, объявлениями, расписаниями, инструкциями. Например, после чтения расписания школьного мероприятия ребёнку можно предложить определить время начала, продолжительность, место проведения и выбрать необходимую информацию для конкретной ситуации. Такая работа показывает практическую функцию чтения.

Проектная технология позволяет объединить чтение, говорение, письмо и творческую деятельность. Мини-проект «Книга, которую я советую другу» может включать чтение произведения, заполнение читательского паспорта, подготовку краткой аннотации, создание иллюстрации и устную презентацию. В результате чтение становится личностно значимой деятельностью, а языковые навыки используются в естественной коммуникации.

3. Цифровые и игровые технологии. Цифровые ресурсы целесообразно использовать как средство расширения учебной среды. Интерактивные презентации, электронные карточки, онлайн-викторины,

аудиотексты и короткие видеоматериалы позволяют задействовать разные каналы восприятия информации. Например, после прослушивания аудиотекста учащиеся могут восстановить последовательность событий, выбрать заголовок, определить ключевые слова и сформулировать один вопрос к содержанию.

Игровые технологии особенно эффективны в начальной школе, поскольку поддерживают мотивацию и создают эмоционально благоприятную ситуацию общения. Дидактическая игра «Редактор» предлагает детям найти и исправить речевые или грамматические ошибки; игра «Детектив по тексту» — обнаружить в тексте ответы на вопросы и доказать свой выбор цитатой или пересказом. При этом игровой компонент должен быть подчинён учебной цели.

Полезным инструментом является сторителлинг — обучение через создание и интерпретацию историй. Учащиеся могут продолжить незавершённый рассказ, изменить точку зрения героя, придумать другой финал или составить рассказ по серии изображений. Такие задания развивают словарный запас, связность речи, воображение и способность выстраивать смысловые связи.

Таблица 1. Современные технологии и формируемые умения

Технология	Основные приёмы	Формируемые умения
Интерактивное обучение	Работа в парах, «Мозговой штурм», взаимопроверка	Диалогическая речь, аргументация, сотрудничество
Смысловое чтение	Прогнозирование, вопросы к тексту, кластер	Понимание, анализ, интерпретация текста
Проектная технология	Мини-проект, презентация, читательский дневник	Поиск информации, письмо, устное выступление
Игровая технология	Викторины, «Детектив по тексту», «Редактор»	Мотивация, словарный запас, языковая грамотность
Цифровые технологии	Аудио, интерактивные задания, электронные карточки	Поиск, отбор и преобразование информации

Важным условием эффективности современных технологий является дифференциация заданий. Один и тот же текст может быть предложен учащимся с разной степенью сложности: одним — найти фактическую информацию, другим — объяснить причинно-следственную связь, третьим — оценить позицию автора и доказать своё мнение. Такой подход учитывает индивидуальные возможности детей и создаёт ситуацию успеха.

Не менее важна формирующая оценка. Вместо ориентации только на конечный результат учитель может использовать лист самооценки: «Я понял текст», «Я могу найти в тексте доказательство», «Я умею объяснить значение слова», «Я могу сформулировать своё мнение». Самооценка помогает ребёнку увидеть собственный прогресс и постепенно формирует ответственность за результат обучения.

4. Практическая модель урока. Применение современных технологий может быть объединено в единую модель урока работы с текстом. На мотивационном этапе используется иллюстрация, вопрос или короткое видео; на этапе прогнозирования — заголовок, ключевые слова и ассоциации; во время чтения — маркировка информации, вопросы и работа в парах; после чтения — кластер, таблица, мини-дискуссия или творческое задание; на заключительном этапе — самооценка и рефлексия.

Например, при работе с познавательным текстом о природе учащимся можно предложить сначала предположить содержание по заголовку, затем прочитать текст и выделить факты, после чего заполнить таблицу «Знал — Узнал — Хочу узнать». Далее группы создают небольшой информационный постер или устное сообщение. Таким образом, один текст становится основой для чтения, говорения, письма, работы с информацией и сотрудничества.

В начальной школе особенно важно соблюдать баланс между цифровыми и традиционными формами. Работа с экраном должна чередоваться с чтением печатного текста, обсуждением, письмом от руки, движением и непосредственным общением. Учитель выбирает технологию не потому, что она является современной, а потому, что она помогает лучше решить конкретную дидактическую задачу.

Заключение. Современные педагогические технологии создают значительные возможности для повышения родной языковой и читательской грамотности младших школьников. Их систематическое использование способствует развитию понимания текста, связной речи, словарного запаса, критического и творческого мышления, умения работать с информацией и взаимодействовать с другими.

Наиболее продуктивным является не отдельное применение одной технологии, а их методически обоснованное сочетание. Интерактивное обучение активизирует коммуникацию, смысловое чтение формирует осознанную работу с текстом, проектная и игровая технологии поддерживают мотивацию, а цифровые инструменты расширяют способы представления и преобразования информации. При этом ведущая роль сохраняется за учителем, который определяет цель, содержание, последовательность действий и критерии результата.

Таким образом, развитие языковой и читательской грамотности в начальной школе следует рассматривать как целостный процесс формирования функциональной грамотности. Ребёнок должен не просто знать правила и читать текст, а уметь использовать язык и чтение для понимания окружающего мира, решения учебных задач, общения и выражения собственной позиции.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Виноградова Н.Ф. Функциональная грамотность младшего школьника: книга для учителя. — М.: Вентана-Граф, 2018.

2. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. — Paris: OECD Publishing, 2019.

3. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. — М.: Просвещение, 1969.

4. Асмолов А.Г., Бурменская Г.В., Володарская И.А. и др. Формирование универсальных учебных действий в основной школе: от действия к мысли. Система заданий: пособие для учителя. — М.: Просвещение, 2010.

5. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие. — М.: Академия, 2009.

6. Кузнецова М.И. Система оценки качества чтения и понимания текста у младших школьников. — М.: Просвещение, 2012.

ССЫЛКИ:

[1] Виноградова Н.Ф. Функциональная грамотность младшего школьника: книга для учителя. — М.: Вентана-Граф, 2018. — С. 12–15.

[2] OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. — Paris: OECD Publishing, 2019. — P. 28–30.

3-SHO‘BA: ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING RAQAMLI VA TEXNOLOGIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI: MUAMMOLAR VA SAMARALI YECHIMLAR

РАЗДЕЛ 3: РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПОВЫШЕНИИ ЦИФРОВОЙ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТОЧНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК: ПРОБЛЕМЫ И ЭФФЕКТИВНЫЕ РЕШЕНИЯ

SECTION 3: THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ENHANCING STUDENTS' DIGITAL AND TECHNOLOGICAL LITERACY WITHIN THE TEACHING OF EXACT AND NATURAL SCIENCES: CHALLENGES AND EFFECTIVE SOLUTIONS

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA NOORGANIK KIMYO FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI VA DIDAKTIK VOSITALAR ORQALI TALABALARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ahmedov Sirojiddin
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida noorganik kimyoni o‘qitishda didaktik va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Interaktiv simulyatsiyalar, 3D modellar, virtual laboratoriyalar, onlayn testlar va sun’iy intellekt vositalarining talabalarning funksional va raqamli savodxonligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: noorganik kimyo, funksional savodxonlik, raqamli savodxonlik, didaktik vositalar, interaktiv ta’lim, virtual laboratoriya, 3D model, sun’iy intellekt.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности использования дидактических и цифровых средств при обучении неорганической химии в медицинских вузах. Анализируется значение интерактивных симуляций, 3D-моделей, виртуальных лабораторий, онлайн-тестирования и инструментов искусственного интеллекта в развитии функциональной и цифровой грамотности студентов.

Ключевые слова: неорганическая химия, функциональная грамотность, цифровая грамотность, дидактические средства, интерактивное обучение, виртуальная лаборатория, 3D-модель, искусственный интеллект.

Abstract. The article examines the use of didactic and digital tools in teaching inorganic chemistry at medical higher education institutions. It analyzes the role of interactive simulations, 3D models, virtual laboratories, online assessment and artificial intelligence tools in developing students’ functional and digital literacy.

Keywords: inorganic chemistry, functional literacy, digital literacy, didactic tools, interactive learning, virtual laboratory, 3D model, artificial intelligence.

Oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri talabalarni tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi emas, balki axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, baholash va amaliy vaziyatlarda qo‘llay oladigan faol subyekt sifatida tayyorlashdir. Ayniqsa, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning tabiiy-ilmiy tayyorgarligini takomillashtirish, nazariy bilimlarni kasbiy faoliyat bilan bog‘lash va ijodiy tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan,

noorganik kimyo biologik, biokimyoviy, farmakologik va klinik fanlarni o‘zlashtirish uchun zarur nazariy-amaliy asosni yaratadi [1].

Noorganik kimyoni o‘qitishda talabalarning kimyoviy tushuncha va qonuniyatlarni egallashi bilan bir qatorda, ularni tahlil qilish, taqqoslash, muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil xulosa chiqarish va yangi sharoitlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Bunda didaktik o‘yinlar, multimedia, interaktiv simulyatsiyalar, 3D modellar, virtual laboratoriyalar va elektron baholash vositalaridan maqsadli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [4].

Mazkur vositalarni funksional savodxonlikni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish talabalarning kimyoviy bilimlarini real o‘quv va kasbiy vaziyatlarda qo‘llashi, muammolarni tahlil qilishi va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon beradi. Shu bois tibbiyot oliy ta’limida noorganik kimyoni o‘qitishning funksional savodxonlik va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-metodik masalalardan biridir.

NOORGANIK KIMYO TA’LIMIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIK

Funksional savodxonlik talabaning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini turli o‘quv-amaliy vaziyatlarda mustaqil va maqsadli qo‘llay olish qobiliyatidir. Noorganik kimyoda u kimyoviy jarayonlarni kuzatish, ma’lumotlarni tahlil qilish, reaksiya tenglamalarini tuzish, modda xossalarini izohlash, tajriba natijalarini baholash va asoslangan xulosa chiqarishda namoyon bo‘ladi [5].

Bunda asosiy e’tibor bilimni yodlashga emas, uni yangi vaziyatlarda qo‘llashga qaratiladi. Shu sababli mashg‘ulotlarda real yoki modellashtirilgan amaliy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish talabalarning tahliliy fikrlashi, muammolarni hal qilishi va asoslangan qaror qabul qilishini rivojlantiradi.

Masalan, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini o‘rganishda talaba oksidlanish darajasini aniqlash bilan birga elektron almashinuvi, oksidlovchi va qaytaruvchini, reaksiya shartlarini hamda jarayonning biologik yoki tibbiy ahamiyatini tahlil qiladi [7]. Bunday yondashuv kimyoviy bilimni amaliy-funksional darajaga olib chiqadi.

Muammoli vaziyatlar, keys-topshiriqlar, tajriba natijalarini tahlil qilish, jadval va grafiklar bilan ishlash hamda raqamli simulyatsiyalardan foydalanish talabaning bilimlarini yangi vaziyatlarga ko‘chirish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Demak, funksional savodxonlikni shakllantirish **bilimni egallash → tahlil qilish → qo‘llash → baholash → xulosa chiqarish** izchilligi asosida tashkil etilganda, mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

RAQAMLI VA DIDAKTIK VOSITALARNING IMKONIYATLARI

Didaktik vositalardan maqsadli foydalanish murakkab kimyoviy tushuncha va jarayonlarni ko‘rgazmali hamda faol o‘zlashtirishga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar talabalarning faolligi, motivatsiyasi, hamkorlikda ishlashi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli vositalar, jumladan, video va animatsiyalar, interaktiv simulyatsiyalar, 3D modellar, onlayn testlar hamda elektron baholash tizimlari kimyoviy jarayonlarni dinamik namoyish etish, tajribalarni modellashtirish va tezkor qayta aloqa ta’minlash imkonini beradi [6]. Virtual laboratoriyalar esa talabalarni tajriba bosqichlari, reaktivlar xossalari va xavfsizlik talablari bilan oldindan tanishtirib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga xizmat qiladi [9].

Shunday qilib, raqamli va didaktik vositalarning uyg‘un qo‘llanilishi **nazariy bilim – amaliy faoliyat – raqamli ko‘nikma – mustaqil fikrlash** uzviyligini ta’minlab, talabalarning kimyoviy bilimlarni real va kasbiy vaziyatlarda qo‘llash hamda ijodiy yondashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1-jadval. Raqamli vositalarning funksional imkoniyatlari

Vosita	**Asosiy vazifa**	**Savodxonlik/kompetensiya**
Video, animatsiya	Jarayonni ko‘rgazmali tushuntirish	Tushunish va tahlil
Simulyatsiya	Reaksiyani modellashtirish	Muammo yechish
3D model	Fazoviy tuzilmani ko‘rsatish	Ilmiy fikrlash

Onlayn test	Tezkor nazorat	O‘zini baholash
Virtual laboratoriya	Tajribani xavfsiz modellashtirish	Amaliy va raqamli savodxonlik
AI vositalari	Individual savol va tahlilni qo‘llab-quvvatlash	Axborotni tekshirish va xulosa

SUN’IY INTELLEKT VA TALABALARNING RAQAMLI SAVODXONLIGI

Sun’iy intellekt vositalari noorganik kimyo darslarida mavzu bo‘yicha savollar tuzish, masala yechishning turli yo‘llarini taqqoslash, individual topshiriqlar yaratish va qayta aloqa berishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bunda AI tayyor javobning o‘rnini bosuvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi yordamchi vosita sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Talaba AI bergan ma’lumotni darslik, o‘qituvchi ko‘rsatmasi va tajriba natijalari bilan tekshirishi lozim. Bu jarayon nafaqat raqamli savodxonlikni, balki axborotning ishonchliligini baholash ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Masalan, N_2O_5 ning parchalanish mexanizmini tahlil qilishda talaba bosqichlarni, ularning tezligini va umumiy kimyoviy mazmunini mustaqil asoslaydi. Manba maqolada keltirilgan ketma-ketlik: $N_2O_5 \rightarrow N_2O_3 + O_2$ (sekin);

$N_2O_3 \rightarrow NO_2 + NO$ (tez);

$NO + N_2O_5 \rightarrow 3NO_2$ (tez);

$4NO_2 \rightarrow 2N_2O_4$ (tez).

DIDAKTIK O‘YIN VA INTERAKTIV TOPSHIRIQLAR

Didaktik o‘yinlar talabalarning darsdagi faolligini oshirish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Simulyatsiya, kviz, test va masalalarni yechishga asoslangan o‘yinlar noorganik kimyo mazmunini faol o‘zlashtirishga xizmat qiladi [6].

Funksional savodxonlikka yo‘naltirilgan interaktiv topshiriqlarda talaba nafaqat javobni topadi, balki uni izohlaydi, ma’lumotlarni taqqoslaydi, jadval yoki diagrammadan xulosa chiqaradi va fikrini dalillaydi. Kimyoviy bog‘lanish turini aniqlash, reaksiya bosqichlarini tahlil qilish va laboratoriya qurilmalari qismlarini aniqlash kabi topshiriqlar bunga misol bo‘la oladi.

Tibbiyot oliy ta’limida didaktik va raqamli vositalardan tizimli foydalanish talabalarning funksional, raqamli va texnologik savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Vizual materiallar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, 3D modellar va onlayn testlar ta’limni faol va amaliy yo‘naltirilgan shaklga keltiradi.

Sun’iy intellekt vositalari individual va tahliliy topshiriqlarni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda talaba tayyor javobni qabul qilish bilan cheklanmay, axborotni tekshirishi, kimyoviy dalillarni tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi zarur. Shu tariqa raqamli texnologiyalarni didaktik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish noorganik kimyo ta’limining amaliy yo‘nalishini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.
2. Turg‘unboyev K., Rizayev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Andijon: Andijon nashriyot-matbaa.
3. Karimov A.A. Noorganik kimyo. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
4. Raximov N.X. Didaktika va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Solihova D.I., G‘ofurova M.S. Kimyo o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.
6. Yuldashev J.Yu. Kimyo darslarida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2019.
7. Nizamov R.A. Tibbiy kimyo asoslari (noorganik va organik kimyo). – Toshkent: Oliy ta’lim, 2021.
8. Brown T.L., LeMay H.E., Bursten B.E. Chemistry: The Central Science. – Pearson Education, 2015.
9. Gabel D. Handbook of Research on Science Teaching and Learning. – Macmillan, 1994.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT (SI)NING TA’LIM SIFAT VA SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Avezov Tohir Ochilovich
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
Aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi o‘qituvchisi.
ato.tokhir60@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimidagi muhim islohotlarning barcha ta’lim sohalari sifat va samaradorligiga ta’siri, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI)ning ta’lim jarayonlarida samarali qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiyalar va SI, Zoom, Google Meet va Microsoft Teams raqamli platformalar, Khan academy, Coursera va EdX onlayn o‘quv platformalari.

Аннотация: В статье рассматривается влияние масштабных реформ в современной системе образования на качество и эффективность работы всех ее секторов, а также вопросы рационального применения цифровых технологий и искусственного интеллекта (ИИ) в образовательных процессах.

Ключевые слова. Цифровые технологии и ИИ, цифровые платформы Zoom, Google Meet и Microsoft Teams, онлайн-платформы обучения Khan academy, Coursera и EdX.

Abstract: This article examines the impact of large-scale reforms within the modern education system on the quality and efficiency of all its sectors, as well as issues concerning the rational application of digital technologies and artificial intelligence (AI) in educational processes.

Keywords. Digital technologies and AI, digital platforms Zoom, Google Meet and Microsoft Teams, Khan Academy, Coursera and EdX online learning platforms.

Kirish. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) ta’lim jarayonini interaktiv, tushunarli va moslashuvchan qilishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar va SI tushunchasi anchadan beri ta’lim tizimida ma’lum va qo‘llanib kelinmoqda va hozirgi vaqtda foydalanishning samarali usullari hamda strategiyalari asosida rivojlantirilmoqda. Shu aspektda raqamli texnologiyalar va SIning ta’lim tizimiga ta’siri atrofidagi qarashlarga bir e’tibor bersak. Zamonaviy kompyuter texnikasi va ta’lim texnologiyalaridan foydalanmasdan turib, ta’lim samaradorligi va sifati haqida gapirishimiz maqsadga

muvofiq emasligi aniq va ravshandir. Mavzuni yoritishdan maqsad mavzuga qanday yondashish kerak va ta’limni samarali yuritish uchun qanday strategik yo‘l tutishimiz zarurligi borasida bosh qotirishimizga to‘g‘ri kelmoqda. Albatta, birinchi navbatda xorijiy tajribalarni o‘rganishimiz, ular asosida milliy mentalitetimiz, tajribalarimiz, o‘quvchi hamda talabalarimizning aqliy hamda psixologik xususiyatlari, intellektual salohiyatidan kelib chiqib jahon talablariga javob beradigan yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirishga rejali strategik harakatlarni ishlab chiqishimiz talab etiladi, degan fikrdamiz.

Muhokama. Raqamli texnologiyalar va SI ning ta’limdagi o‘rni haqida fikr yuritsak. **Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi.**Raqamli ta’lim texnologiyalari zamonaviy ta’lim jarayonlarini o‘zgartirib, o‘quvchilarga yangi va innovatsion ta’lim usullarini taklif etmoqda. Raqamli ta’lim texnologiyalari va SI zamonaviy ta’lim jarayonlarini o‘zgartirib, o‘quvchilarga yangi va innovatsion



ta’lim usullarini taklif etmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada qulay, interaktiv va moslashuvchan qiladi. Ushbu maqola raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish, samaradorligi va kelajakdagi salohiyatiga tahliliy yondashuvni o‘rganadi.

Ta’lim tizimini rivojlantirishda mustaqil ta’limga asoslangan platformalardan foydalanish ham samarali bo‘lishi mumkinligi ma’lum bo‘lib qolmoqda. Raqamli ta’lim texnologiyalari va SI tizimli platformalarini Internet va kompyuterlar orqali

o‘rganishdan boshlandi. 2020 yilda pandemiya tufayli ta’lim tizimi global miqyosda raqamli platformalarga o‘tishga majbur bo‘ldi. Millionlab talabalar va o‘qituvchilar Zoom, Google Meet va Microsoft Teams kabi raqamli platformalar orqali onlayn darslar o‘tkazishni boshladilar. Bu mashg‘ulotlarning yangi bosqichiga o‘tish uchun katalizator hamda turtki bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, Khan academy, Coursera va EdX kabi onlayn o‘quv platformalari hozirgi davrda keng ommalashdi. 2021-yilda Coursera ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni 90 milliondan oshdi, bu ochiq va qulay ta’limga bo‘lgan talab ortib borayotganini ko‘rsatdi.

Ta’limda sun’iy intellektning o‘rni

Sun’iy intellekt (AI) ta’lim sohasida muhim rol o’ynaydi. 2022-yilda Khan Academy o'zining ta'lim platformasida AIdan foydalangan holda shaxsiylashtirilgan o'quv dasturini taklif qila boshladi. Bu texnologiya har bir talabaning bilim darajasini tahlil qilish, ularga tegishli topshiriq va tavsiyalar berish imkonini berdi. Shunday qilib, har bir talaba o‘z bilim darajasiga qarab o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, 2023 yilda MakGrou Xill o'zining raqamli darsliklarida sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan test tizimini joriy qildi. Ushbu tizim talabalar bilimini tahlil qiladi, ularning zaif tomonlarini aniqlaydi va ularga ko'proq e'tibor berish uchun shaxsiy tavsiyalar beradi. Bunday yondashuv ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

STREAM yondashuvi va virtual reallik (VR) orqali aniq va tabiiy fanlarni o‘rganish.

Ta’limda STEAM yondashuvi asosidagi zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, virtual haqiqat (VR) va to‘ldirilgan reallik (AR) texnologiyalari ta’lim sohasida yangicha usullarini yaratmoqda. 2001-2006-yillarda AQSHda STEM va STEAM yondashuvi asosidagi ta’lim, 2022-yilda Buyuk Britaniyaning bir qator universitetlari VR texnologiyasidan foydalangan holda talabalar uchun virtual laboratoriya darslarini taklif qila boshladilar. Bu talabalarga murakkab va qimmat uskunalar bilan jihozlangan laboratoriyalarga bormasdan tajribalarni amalda ko‘rish va o‘rganish imkoniyatini berdi.

Raqamli ta’lim muhitida pedagog kompetensiyalari — bu o‘qituvchining raqamli texnologiyalarni (AKT) ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, elektron resurslar bilan ishlash, onlayn darslarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash qobiliyatidir. Zamonaviy pedagog nafaqat axborotni uzatuvchi, balki raqamli ta’lim resurslarini loyihalovchi va kreativ yondashuvchi bo‘lishi talab etiladi.

Asosiy raqamli kompetensiyalar:

- **Texnik va raqamli savodxonlik:** Kompyuter, interaktiv doska, mobil ilovalar va ta’lim platformalari (masalan, Moodle, Zoom) bilan ishlash ko‘nikmasi.
- **Pedagogik dizayn va raqamli kontent yaratish:** Raqamli ta’lim resurslarini (RTR) loyihalash, taqdimotlar, video darslar yaratish hamda ADDIE modeli kabi metodlardan foydalanish.
- **Kommunikativ kompetensiya:** Onlayn muhitda o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish, virtual hamjamiyatlarni boshqarish.



- **Axborot xavfsizligi va etikasi:** Internetda mualliflik huquqlariga rioya qilish, kiberxavfsizlik qoidalarini bilish va o‘quvchilarga mediasavodxonlikni o‘rgatish.
- **Raqamli baholash va tahlil:** Onlayn testlar, portfoliolar yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirishini kuzatish va individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish. Pedagoglarni samarali ishlashi uchun raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda yangi texnologik yondashuvlar muhim. Boshlang'ich sinf bo'lajak o'qituvchilarida ham raqamli metodikani shakllantirish tizimli jarayon hisoblanadi.
- Raqamli ta'limda pedagogning kasbiy tayyorgarligini oshirish, metodik yondashuvlarni rivojlantirish va inklyuziv muhitda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim yondashuvlar sanaladi.

Fanlar kesimida raqamli vositalar

Matematika va Informatika

- GeoGebra va Desmos: Geometrik shakllar, funksiyalar grafiklari va 3D modellarni vizuallashtirish uchun eng mukammal dasturlar.
- WolframAlpha (SI): Murakkab tenglamalar, integrallar va matritsalarni nafaqat hisoblaydi, balki ularni bosqichma-bosqich yechish yo‘lini ko‘rsatib beradi.

Fizika va Kimyo

- PhET Interactive Simulations: Kolorado universiteti tomonidan yaratilgan, fizika va kimyoviy jarayonlarni (masalan, atom tuzilishi, elektr zanjirlari) bepul va xavfsiz sinovdan o‘tkazish platformasi.
- ChemDraw: Kimyoviy reaksiyalar va molekula tuzilmalarini raqamli chizish va ularning xossalarini prognoz qilish vositasi.

Biologiya va Geografiya

- Google Earth va Google Sky: Geografik ob’yektlar, iqlim o‘zgarishlari va kosmik jismlarni real vaqt rejimida 3D ko‘rinishda o‘rganish imkoniyati.

- Anatomy 4D (AR/VR): Biologiyada inson tanasi va ichki organlarining tuzilishini kengaytirilgan borliq yordamida interaktiv tahlil qilish.

🤖 Sun’iy Intellektning (SI) Pedagogik Amaliyoti

O‘qituvchilar dars samaradorligini oshirish uchun SI imkoniyatlaridan quyidagi yo'nalishlarda foydalanishlari mumkin:

- Dars rejalarini avtomatlashtirish: ChatGPT, Claude yoki Google Gemini yordamida bir necha soniya ichida STEAM dars ishlanmalari va qiziqarli keyslarni (case-study) yaratish mumkin.
- Intellektual repetitorlik (AI Tutors): Khan Academy'ning Khanmigo kabi tizimlari o'quvchiga javobni tayyor bermasdan, uni to‘g‘ri yechimga yo‘naltiruvchi raqamli yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini bajaradi.

📈 **Rivojlanish tendensiyalari**

Kelajakda raqamli ta'lim gibrid formatga o‘tadi. Bunda an’anaviy darsxonalar VR (virtual borliq) ko‘zoynaklari bilan boyitilib, o‘quvchilar kimyoviy reaksiyalarni bevosita virtual laboratoriyada "qo‘li bilan ushlab" ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar. Mavzuni yanada aniqlashtirish uchun quyidagilardan birini tanlashingiz mumkin:

- Muayyan bir fan (masalan, fizika yoki kimyo) uchun tayyor dars ssenariysi shabloni
- O‘quvchilarga topshiriq berish va baholash uchun bepul SI platformalari ro‘yxati
- Raqamli dars o‘tishda pedagogik metodika (STEAM) bo‘yicha tavsiyalar

Raqamli dars o‘tishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi nazariy bilimlarni amaliyot, texnologiya va ijodkorlik bilan birlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy tabiiy fanlar dars jarayonlarini tashkil qilish va samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, ST(R)EAM yondashuvi, Sun’iy Intellekt sistemalaridan foydalanish, milliy ta’lim tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi metodikalarni ishlab chiqish va ta’lim jarayonlariga tadbiq qilish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Demak, o‘qituvchi va

o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakatlari ta’lim jarayonlariga ta’sirini kuchaytiradi va sifat hamda samaradorlikni oshirishi, mantiqiy fikrlashga, ijodkorlikka undashi, ilmiy tadqiqotlar uchun motivatsiya berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Toshkent shahridagi President va ixtisoslashtirilgan maktablar jihozlari: Ushbu maktablar tizimlarining Cambridge xalqaro ta’lim dasturlariga samarali STEAM va "Project- Based Learning" (Loyiha asosida ta’lim) sillabuslari

2. " STEAM ta'limi: nazariya va amaliyot "

Mualliflar: Myint Swe Khine va Shaljan Areepattamannil . 2019-yil .

3. " AI sinf xonasi: Ta'limda sun’iy intellekt bo‘yicha yakuniy qo‘llanma "

Den Fitspatrik , Amanda Foks va Bred Vaynshteyn . 2023-yil .

4. Yangi qo‘shimcha ilmiy tadqiqot: "AI for STEAM in Education: Thematic Learning in Practice". Piet Kommers va İpek Saralar . 2026-yil *(Springer nashriyoti)* .

5. "Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik laboratoriyalar" (Metodik qo‘llanma). O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi . 2023–2024-yillar (Milliy o‘quv dasturida doimiy yangilanib boradi).

6. Pedagogika va Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnallari to‘plami. (2022–2026). Maxsus sonlar tahlili. Toshkent.

7. Bazalar: Google Scholar, Scopus, ScienceDirect, CyberLeninka

МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ STREAM ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (ИИ) В ПРОЦЕССАХ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Авезов Тохир Очилович,
преподаватель ИКТ Центра педагогического мастерства Бухарской области Республики Узбекистан.
ato.tokhir60@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы, формы и практические направления межпредметной интеграции в образовательном процессе. Раскрывается роль интегрированного подхода в современном образовании, его влияние на эффективность и значение в формировании компетенций учащихся. На практических примерах показаны преимущества интегрированных уроков. Концепция и применение технологического подхода STREAM и применение ИИ в образовании в целом.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, интегративное образование, компетентность, современное образование, тематический подход, проектное обучение. STREAM подход, применение технологий искусственного интеллекта.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations, forms, and practical approaches to interdisciplinary integration in the educational process. It explores the role of an integrated approach in modern education, its impact on effectiveness, and its importance in developing student competencies. The concept and application of the STREAM technological approach and the use of AI in education in general.

Key words: interdisciplinary integration, integrative education, competence, modern education, thematic approach, project-based learning. STREAM approach, application of technologies, Artificial intelligence (AI).

Введение. Современная система образования ориентирована на развитие у обучающихся навыков самостоятельного мышления и решения проблем, творческих способностей и функциональной грамотности. Также существует потребность в модернизации содержания образования и его более тесной увязке с реальной практикой. На этом фоне все большую актуальность приобретает подход, основанный на принципе междисциплинарной интеграции. Благодаря интеграции учащиеся осознают взаимосвязи между учебными предметами и стремятся применять полученные знания в жизненных ситуациях.

Содержание и теоретические основы междисциплинарной интеграции.

Междисциплинарная интеграция — это подход, обеспечивающий согласованность связей между двумя и более учебными предметами в рамках образовательного процесса и способствующий формированию у обучающихся целостных знаний, умений и компетенций.

Данный подход опирается на теорию конструктивизма. Согласно этой теории, знания активно формируются самой личностью и закрепляются благодаря междисциплинарным связям.

В условиях, когда современная система образования требует применения компетентностного подхода, междисциплинарная интеграция становится неотъемлемой частью образовательного процесса. Интеграция с другими предметами особенно важна при преподавании филологических дисциплин — таких как родной язык, литература и иностранные языки. Такой подход формирует у учащихся не только способность к изучению языка, но и умение понимать его в культурном, социальном и историческом контекстах.

Хотя филологические дисциплины представляют собой самостоятельную область, они давно поддерживают тесные связи со многими другими предметами. Однако сегодня возникает все большая потребность в том, чтобы систематически включать эти взаимосвязи в образовательный процесс.

Формы интеграции

1. **Тематическая интеграция**

Объединение нескольких учебных предметов в рамках одной темы.

Пример: изучение темы «Вода» на уроках биологии, географии и химии.

2. **Проектная интеграция**

Использование учащимися знаний из различных предметов для решения конкретной задачи.

Пример: проект «Зеленая энергетика» (физика, экология, математика).

3. **Концептуальная интеграция**

Установление связей на основе общих понятий (например, энергия, равновесие, система).

Интеграция на основе развития навыков

Компетентностно-ориентированное обучение (например, развитие критического мышления, коммуникативных навыков и умения работать в команде).

Для исследования данной темы могут быть использованы следующие методы:

- Анализ и сравнение — анализ действующих учебных программ, учебников и методических пособий.
- Эмпирическое наблюдение — наблюдение за участием, вовлеченностью и успеваемостью учащихся на уроках, где применяется интегративный подход.
- Интервью и опросы — проведение опросов и бесед с учителями-филологами, методистами, студентами вузов и школьниками.
- Экспериментальные уроки — анализ результатов занятий, проведенных с использованием интегративного подхода.

При преподавании филологических дисциплин с использованием интегративного подхода:

- Ученики (Студенты) осваивают язык в контексте реальных жизненных ситуаций и историко-культурной среды.
- Развиваются когнитивные способности, критическое мышление и междисциплинарные навыки.
- Разрозненные предметные знания трансформируются в целостную систему знаний.

Проблемы:

- В учебных программах недостаточно методических рекомендаций по применению интегративного подхода.
- В учебниках и методических пособиях мало отсылок к другим дисциплинам.
- Учителям недостает междисциплинарной базы знаний.

• Нехватка материальной базы доступа необходимых доступных материалов для создания практических макетов или проектов и т.д.

Пути решения:

1. Организовать для учителей методические семинары по вопросам междисциплинарной интеграции.
2. Пересмотреть учебные программы и внедрить интегрированные учебные модули.
3. Расширить в филологических учебниках материал, связанный с историей, искусством, психологией и социологией.
4. Разработать мультимедийные уроки с использованием современных технологий.
5. Создать базы доступных материалов в разумных пределах для успешного освоения практических навыков.

Преимущества интегрированного обучения

• Расширяются возможности применения знаний в реальных жизненных ситуациях;

• Развиваются такие навыки, как креативность, критическое мышление и способность к самостоятельному анализу;

• Формируется понимание внутренних взаимосвязей между учебными предметами;

Уроки становятся осмысленными, увлекательными и эффективными.

Искусственный интеллект (ИИ) в образовании — это концепция использования алгоритмов машинного обучения, анализа данных и генеративных моделей для адаптации, автоматизации и оптимизации учебного процесса. ИИ выступает инструментом поддержки, дополняя работу преподавателя, но не заменяя его.

Основные направления применения ИИ

- **Персонализированное обучение:** Адаптивные платформы анализируют скорость усвоения материала каждым учеником и автоматически подстраивают сложность задач и траекторию обучения. [
- **Автоматизация рутины преподавателей:** Проверка тестов, базовых домашних заданий и генерация учебных материалов (тестов, планов уроков, конспектов) через инструменты вроде GigaChat экономят время учителей.
- **Виртуальные тьюторы и чат-боты:** Круглосуточная поддержка студентов в формате диалога для объяснения сложных тем, ответов на вопросы и языковой практики.
- **Анализ успеваемости и прогнозирование:** Системы заранее выявляют студентов из группы риска (у которых падают показатели) и сигнализируют педагогу о необходимости вмешательства.
- **Инклюзивность:** Речевые технологии, автоматические субтитры, синтез речи и адаптация текстов помогают учиться людям с ограниченными возможностями здоровья.
- **Административная работа:** Автоматизация расписаний, аналитика вовлеченности и документооборота в учебных заведениях.

Заключение. Междисциплинарная интеграция — это стратегическое направление в образовании XXI века. Она не только обеспечивает глубокое усвоение знаний, но и формирует у учащихся целостное мышление, навыки решения проблем и готовность к активному участию в жизни общества. Для педагогов такой подход служит инструментом внедрения инновационных методик, развития сотрудничества и подготовки учеников к реальной жизни. В преподавании филологических дисциплин междисциплинарная интеграция — это не просто требование времени, а эффективный способ применения знаний в контексте реальной жизни. Благодаря этому подходу учащиеся учатся понимать не только язык, но также культуру и общество. Однако успешная организация данного процесса требует системного методического подхода,

профессионального развития педагогов и использования современных технологий.

Межпредметная интеграция — это фундамент современного школьного образования, который позволяет объединить разрозненные школьные предметы в единую систему знаний для решения реальных жизненных задач. В эпоху цифровизации и автоматизации ключевым инструментом такой интеграции стала методология STREAM, которая развивает у учащихся научно-техническую грамотность, критическое мышление, креативность и инженерные навыки.

Что такое STREAM?

Это эволюционное развитие подходов STEM и STEAM. Аббревиатура расшифровывается как:

- Science (Наука): физика, химия, биология, астрономия.
- Technology (Технологии): программирование, IT, моделирование.
- Reading/wRiting (Чтение и письмо): грамотность, работа с текстом, смысловой анализ, ведение документации проекта.
- Engineering (Инженерия): проектирование, конструирование, робототехника.
- Arts (Искусство): дизайн, архитектура, эстетика, музыка, творческое мышление.
- Mathematics (Математика): расчеты, статистика, геометрия, алгоритмы.

Добавление компонента R (Чтение/Письмо) решает важную проблему классического технического образования — оно учит детей не просто создавать роботов или писать код, но и грамотно формулировать свои мысли, анализировать научные тексты, аргументировать позицию и презентовать проекты.

Добавление компонента R (робототехника) в информатике означает напрямую роботизацию технологических процессов в науке, технике и в других производственных сферах.

Применение STREAM в процессе школьного образования.

Внедрение технологии в школе меняет саму структуру урока: вместо пассивного заучивания формул ученики создают реальные продукты.

Формы реализации:

- Интегрированные уроки: Занятия, которые ведут одновременно 2–3 учителя (например, Физика + Информатика + Искусство при создании модели умного электромобиля, или же современных парников).
- Проектно-исследовательская деятельность: Долговременные проекты, выполняемые командами школьников во внеурочное время или в рамках элективных курсов.
- STREAM-хакатоны и междисциплинарные недели: Краткосрочные командные соревнования по решению прикладных инженерных или экологических задач.

Пример сквозного STREAM-проекта: «Эко-дом будущего»

Чтобы реализовать этот проект, учащиеся задействуют знания из всех шести областей:

1. Science: Изучение альтернативных источников энергии (солнечные батареи), теплопроводности материалов.
2. Technology: Настройка датчиков температуры и автоматического полива растений через контроллеры Arduino.
3. Reading/wRiting: Поиск и анализ научных статей об экологии, написание проектной документации и текста презентации.
4. Engineering: Проектирование чертежа и сборка физического макета дома.
5. Arts: Разработка визуального дизайна здания и ландшафта, создание эстетичной презентации.
6. Mathematics: Расчет площади дома, составление сметы расходов и оптимизация энергопотребления.

Вызовы и проблемы внедрения (AI) ИИ

- Академическая честность: Риск того, что учащиеся используют нейросети для слепого копирования готовых решений или списывания на экзаменах.
- Этика и приватность: Проблемы с защитой персональных данных учащихся и конфиденциальностью информации, обрабатываемой нейросетями.
- Дефицит квалификации: Не все преподаватели обладают техническими навыками для эффективной интеграции ИИ в свою методику преподавания.
- Риск галлюцинаций ИИ**:** Нейросети иногда выдают ложную или фактологически неверную информацию за чистую монету.

Преимущества и вызовы внедрения

Преимущества для учеников	Трудности для школы
Связь с реальностью: понимание, зачем нужны школьные предметы.	Кадровый дефицит: учителям-предметникам тяжело перестраиваться на командную работу.
Развитие Hard & Soft Skills: работа в команде, лидерство, программирование, дизайн.	Жесткое расписание: классно-урочная система усложняет проведение длинных интегрированных уроков.
Профориентация: раннее погружение в профессии инженера, аналитика, биотехнолога.	Материальная база: необходимы расходные материалы, конструкторы, датчики, компьютеры.

В заключение можно констатировать, что межпредметная интеграция и применение подхода STREAM-технологии в дошкольном, начальном, школьном и в дальнейшем в высшем образовании способствует качественному освоению знаний и практического применения во всех сферах деятельности человека.

Список литературы:

1. Выготский Л. С. (2000). Педагогическая психология. Москва: Педагогика.
2. Дьюи Дж. (1938). Опыт и образование. Нью-Йорк: Kappa Delta Pi.

3. Брунер Дж. С. (1960). Процесс обучения. Кембридж: Harvard University Press.

4. ЮНЕСКО (2019). Междисциплинарное преподавание и обучение в XXI

5. Министерство народного образования Республики Узбекистан. (2022). Национальная учебная программа и концепция междисциплинарной интеграции.

6. Тагаева, Г. (2021). «Методические основы организации уроков на основе междисциплинарного подхода». // Журнал «Инновации в педагогическом образовании», № 3.

MILLIY MATEMATIKA DARSLIKLARIDAGI TOPSHIRIQLARNI PISA TALABLARI ASOSIDA ANALITIK FIKRLASH NUQTAYI NAZARIDAN TAHLIL QILISH

Barakayev Murod *– ped.f.n., professor, (Renessans ta’lim universiteti)*
Ostonayev Elyor Egamberdiyevich,
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining matematika darsliklaridagi topshiriqlar PISA tadqiqotining matematik savodxonlikka qo‘yadigan talablari asosida analitik fikrlash nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Topshiriqlarni tahlil qilish mezonlari taklif etilib, “Kvadratik funksiya” mavzusi misolida an’anaviy topshiriqlarni PISA talablariga moslashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Tayanch tushunchalar: PISA, matematik savodxonlik, funksional savodxonlik, analitik fikrlash, darslik topshiriqlari, kognitiv talab, kvadratik funksiya.

Аннотация. В статье задания школьных учебников математики анализируются с точки зрения аналитического мышления на основе требований исследования PISA к математической грамотности. Предложены критерии анализа заданий и на примере темы «Квадратичная функция» показаны пути адаптации традиционных заданий к требованиям PISA.

Ключевые слова: PISA, математическая грамотность, функциональная грамотность, аналитическое мышление, задания учебника, когнитивная сложность, квадратичная функция.

Abstract. The article analyses tasks in school mathematics textbooks from the perspective of analytical thinking, based on the PISA requirements for mathematical

literacy. Criteria for task analysis are proposed, and ways of adapting traditional tasks to PISA requirements are illustrated using the topic “Quadratic function”.

Keywords: PISA, mathematical literacy, functional literacy, analytical thinking, textbook tasks, cognitive demand, quadratic function.

O‘zbekiston PISA tadqiqotida ilk bor 2022-yilda ishtirok etdi. Unda o‘quvchilarimizning matematik savodxonlik bo‘yicha o‘rtacha natijasi 364 ballni tashkil etib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlarining o‘rtacha ko‘rsatkichidan (472 ball) sezilarli past bo‘ldi. Bu natija o‘quvchilar bilimining yetishmasligidan ko‘ra, bilimni notanish hayotiy vaziyatda qo‘llash, ya’ni funksional savodxonlikning yetarli shakllanmaganini ko‘rsatadi. O‘quvchi dars va uy vazifasida asosan darslik topshiriqlari bilan ishlaydi, shuning uchun bu topshiriqlar undan qanday fikrlash faoliyatini talab qilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

PISA konsepsiyasida matematik savodxonlik shaxsning matematik mulohaza yuritishi hamda turli hayotiy kontekstlardagi muammolarni hal etish uchun matematikani formulalash, qo‘llash va talqin qilish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Demak, PISA topshirig‘i uchta jarayonni qamraydi: vaziyatni matematik tilda formulalash; matematik tushuncha va amallarni qo‘llash; natijani talqin qilish va baholash. Ularning markazida matematik mulohaza turadi. TIMSS tadqiqotida ham kognitiv sohalar bilish, qo‘llash va mulohaza yuritishga ajratiladi.

Analitik fikrlash obyektni tarkibiy qismlarga ajratish, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va asoslangan xulosa chiqarish jarayoni bo‘lib, tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiya va umumlashtirish komponentlaridan tashkil topadi. Bu komponentlarni PISA jarayonlari bilan solishtirish topshiriqlarni tahlil qilish mezonlarini beradi (1-jadval).

1-jadval

PISA jarayonlari va analitik fikrlash komponentlarining muvofiqligi

PISA jarayoni	Analitik fikrlash komponenti	Topshiriqdagi belgisi

Formulalash	Tahlil, abstraksiya	Hayotiy vaziyat berilgan; model (tenglama, funksiya) tayyor emas, uni o‘quvchi tuzadi
Qo‘llash	Sintez	Yechim bir necha bosqichdan iborat; usulni o‘quvchi tanlaydi
Talqin qilish va baholash	Taqqoslash	Natijani vaziyatga qaytarish, javobning ma’noga egaligini tekshirish so‘raladi
Matematik mulohaza	Umumlashtirish	“Nima uchun?”, “Har doim shundaymi?” savollari; asoslash talab etiladi

Shu mezonlar asosida har bir topshiriqqa to‘rtta savol qo‘yiladi: 1) topshiriq hayotiy kontekstga egami; 2)matematik modelni kim tuzadi; 3)yechim usuli oldindan ko‘rsatilganmi; 4)natijani talqin qilish yoki asoslash talab etiladimi. Qo‘shimcha ravishda topshiriqning kognitiv talab darajasi aniqlanadi. M. Stein va M. Smit topshiriqlarni to‘rt darajaga ajratadi: yodda saqlash, bog‘lanishsiz protsedura, bog‘lanishli protsedura va “matematika bilan shug‘ullanish”. Analitik fikrlash asosan oxirgi ikki darajadagi topshiriqlarda faollashadi.

Tahlil obyekti sifatida 8-sinf algebra kursining kvadrat tenglamalar va kvadratik funksiya bo‘limlaridagi topshiriqlar olindi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, bu bo‘limlardagi topshiriqlarning asosiy qismi “tenglamani yeching”, “funksiya grafigini yasang”, “parabola uchining koordinatalarini toping” ko‘rinishida bo‘lib, tayyor model va ma’lum algoritm asosida bajariladi. Ular PISA jarayonlaridan faqat “qo‘llash”ni, kognitiv talab bo‘yicha esa bog‘lanishsiz protsedura darajasini qamraydi. Matnli masalalarda formulalash jarayoni mavjud, biroq ularning syujeti ko‘pincha shartli bo‘lib, natijani talqin qilish va baholash deyarli so‘ralmaydi. Yechimni asoslashni, bir necha usulni taqqoslashni yoki qonuniyatni umumlashtirishni talab qiluvchi topshiriqlar kam uchraydi.

Bu holat algoritmik topshiriqlardan voz kechishni anglatmaydi: ular hisoblash ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Muammo ularning deyarli yagona tur bo‘lib qolishida. J. Polya masala yechishni to‘rt bosqichga ajratadi: masalani tushunish, reja tuzish, rejani amalga oshirish va ortga nazar tashlash. Algoritmik topshiriq

shulardan faqat uchinchisini mashq qildiradi, analitik fikrlash esa birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi bosqichlarda shakllanadi. Shu sababli o‘qituvchi darslik topshirig‘ini almashtirmasdan, uning shartini o‘zgartirish orqali kognitiv talabini oshirishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

Darslikdagi tipik topshiriqlarni PISA talablariga moslashtirish namunalari

Darslikdagi tipik topshiriq	Moslashtirilgan variant	Faollashadigan komponent
$y = x^2 – 4x + 3$ funksiya grafigini yasang.	Formulasi berilmagan parabola chizmasi bo‘yicha a, b, c koeffitsiyentlarning ishoralarini aniqlang va javobingizni asoslang.	Tahlil, sintez, abstraksiya
$x^2 – 5x + 6 = 0$ tenglamani yeching.	$x^2 – 5x + c = 0$ tenglama c ning qanday qiymatlarida ikkita ildizga, bitta ildizga ega bo‘ladi, qachon ildizga ega emas?	Taqqoslash, umumlashtirish
To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri 40 m, yuzi 96 m^2. Tomonlarini toping.	Fermerda 40 m to‘siq bor. U eng katta yuzali to‘g‘ri to‘rtburchak maydonni qanday o‘rashi kerak? Maydonning bir tomoni devor bo‘lsa, javob qanday o‘zgaradi?	Abstraksiya, taqqoslash, umumlashtirish

Moslashtirilgan variantlarda matematik mazmun o‘zgarmaydi, lekin o‘quvchining faoliyati o‘zgaradi. Birinchi topshiriqda u tayyor formuladan grafikka emas, grafikdan formula xossalariga qarab boradi; ikkinchisida bitta tenglama o‘rniga tenglamalar oilasini tadqiq qiladi va diskriminantning rolini o‘zi ochadi; uchinchisida modelni mustaqil tuzadi ($S = x(20 – x)$), eng katta qiymatni topadi va shart o‘zgarganda natijani qayta baholaydi. Uchinchi topshiriq PISA ning “o‘zgarish va munosabatlar” mazmun sohasiga hamda kasbiy kontekstga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, darslik topshiriqlarini PISA talablari asosida tahlil qilish quyidagi tavsiyalarni beradi:

– darslik topshiriqlarini tanlashda PISA ning uchta jarayoni va matematik mulohaza bo‘yicha muvozanatga e’tibor qaratish, har bir mavzuda kamida bir nechta formulalash va talqin qilishni talab etuvchi topshiriq berish;

– algoritmik topshiriqlarni teskari masala, parametrli savol va “javobingizni asoslang” talabi bilan boyitish orqali ularning kognitiv talabini oshirish;

– matnli masalalarda o‘quvchiga tanish hayotiy kontekstdan foydalanish va olingan natijaning vaziyatga mosligini baholashni so‘rash;

– o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida taklif etilgan to‘rt savol asosida darslik topshiriqlarini tahlil qilish va moslashtirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Bunday yondashuv amaldagi darslikdan voz kechmagan holda o‘quvchilarning analitik fikrlashini va shu orqali matematik savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kudratova A. I. PISA xalqaro baholash dasturi doirasida taqdim qilinadigan topshiriqlarning tasniflanish darajalari tahlili (matematik savodxonlik misolida) // Samarqand davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. — 2020. — 2-son (120/2). — DOI: https://doi.org/10.59251/2181-1296.v2.1202.983.
2. Usarov S. A. PISA tadqiqotlarida matematik savodxonlikni aniqlash jihatlari // Educational Research in Universal Sciences. — 2024. — 3-jild, 4-son, maxsus son. — B. 579–581. — URL: https://erus.uz/index.php/er/article/view/6161.
3. Karimov N. PISA 2022 asosiy tadqiqotida matematik savodxonlik yo‘nalishi bo‘yicha test topshiriqlaridan namunalar va baholash mezonlari. — 2024-yil 6-iyun. — A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti sayti. — URL: https://avloniy.uz/uz/scientific/586-pisa-2022-asosiy-tadqiqotida-matematik-savodxonlik-yonalishi-boyicha-test-topshiriqlaridan-namunalar-va-baholash-mezonlari.
4. O‘quvchilarda o‘qish, tabiiy-ilmiy va matematik savodxonlikni baholashga mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami. — Toshkent: Milliy markaz, 2020. 61 b.

FAN METODISTLARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH USULLARI

Boboyev Maqsud Mahmudovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD).

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida fan metodistlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari atroflicha yoritilgan. Ta’lim jarayonining raqamli transformatsiyasi sharoitida metodistlarning an’anaviy metodik ta’minot va nazorat funksiyalaridan tashqari, raqamli kontent yaratish, elektron ta’lim platformalaridan foydalanish, pedagogik jarayonlarni monitoring qilish, analitik ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish va o‘qituvchilarning individual metodik ehtiyojlarini aniqlash kabi yangi faoliyat yo‘nalishlari tizimli tahlil qilingan. Maqolada blended learning, data-driven management, Digital Twin va Instructional Design kabi zamonaviy innovatsion yondashuvlarning metodik xizmat samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, strategik, operativ va innovatsion boshqaruv usullari asosida fan metodistlari faoliyatini raqamlashtirishning konseptual modeli bayon etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruv vositalaridan tizimli foydalanish metodik xizmatning uzluksizligi, tezkorligi, shaffofligi va yakuniy natijadorligini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: fan metodisti, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, raqamli pedagogika, metodik xizmat, strategik boshqaruv, operativ boshqaruv, innovatsion boshqaruv, LMS, analitik monitoring, blended learning, digital portfolio.

Аннотация. В данной статье подробно освещаются научно-теоретические и практические аспекты организации и управления деятельностью предметных методистов на основе цифровых технологий в современной системе образования. В условиях цифровой трансформации анализируются такие направления деятельности методистов, как создание цифрового контента, использование электронных платформ обучения, мониторинг педагогических процессов, принятие решений на основе аналитических данных и определение индивидуальных методических потребностей учителей. Рассмотрены возможности таких современных подходов, как blended learning, data-driven management, Digital Twin и Instructional Design в управлении методической службой. Предложена концептуальная модель цифровизации деятельности методистов на основе стратегических, оперативных и инновационных методов управления. Результаты исследования показывают, что системное использование цифровых инструментов управления способствует непрерывности, оперативности, прозрачности и результативности методической службы.

Ключевые слова: предметный методист, цифровые технологии, цифровая трансформация, цифровая педагогика, методическая служба, стратегическое

управление, оперативное управление, инновационное управление, LMS, аналитический мониторинг.

Abstract. This article highlights the scientific-theoretical and practical aspects of organizing and managing the activities of subject methodologists based on digital technologies in the modern education system. In the context of digital transformation, new functions of methodologists are systematically analyzed, including digital content creation, LMS platform application, pedagogical process monitoring, data-driven decision making, and identifying teachers' individual professional needs. The opportunities of modern approaches such as blended learning, data-driven management, Digital Twin, and Instructional Design in improving methodical services are explored. A conceptual digitization model for methodologists' activities based on strategic, operational, and innovative management methods is proposed. The research results indicate that the systematic use of digital management tools ensures the continuity, speed, transparency, and efficiency of methodical services.

Keywords: subject methodologist, digital technologies, digital transformation, digital pedagogy, methodical service, strategic management, operational management, innovative management, LMS, data analytics.

KIRISH . XXI asr boshlariga kelib, global miqyosda kechayotgan to‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) jamiyat hayotining barcha jabhalariga, xususan, ta’lim tizimiga tub burilishlar olib kirdi. Axborot oqimining shiddatli ko‘payishi, sun’iy intellekt, katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlash texnologiyalari va bulutli platformalarning rivojlanishi an’anaviy ta’lim formatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini raqamlashtirish, ilg‘or xalqaro standartlarga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu global va lokal o‘zgarishlar sharoitida ta’lim sifatini ta’minlash va nazorat qilishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan fan metodistlari faoliyatini ham yangicha asosda tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.

An’anaviy ta’lim tizimida fan metodistining vazifasi va funksiyalari ma’lum bir cheklangan doirada shakllangan edi. Ular, asosan, o‘quv-metodik hujjatlarni ishlab chiqish, o‘quv rejalari va dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, dars kuzatishlar o‘tkazish hamda pedagoglarga yuzma-yuz maslahatlar berish bilan cheklanar edilar. Biroq bunday an’anaviy boshqaruv va metodik ta’minot usullari bugungi kunning tezkor va axborotga boy talablariga to‘liq javob bera olmayapti. Qog‘ozbozlikning ko‘pligi, hududiy uzoqlik sababli metodik yordamning hammaga birdek yetib

bormasligi, o‘qituvchilarning real ehtiyojlarini aniqlashda subyektiv yondashuvlarning mavjudligi eskirgan tizimning asosiy kamchiliklaridir.

Raqamli transformatsiya sharoitida fan metodisti tushunchasi va uning kasbiy majburiyatlari tubdan transformatsiyaga uchradi. Bugungi kun metodisti nafaqat tayyor tavsiyalar beruvchi mutaxassis, balki raqamli kontent menejeri, ma’lumotlar tahlilchisi (data analyst), elektron hamkorlik muhitini yaratuvchi fasilitator hamda har bir pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanish trayektoriyasini yo‘naltiruvchi strategik koordinatordir. Raqamli pedagogika va raqamli didaktika tamoyillarining hayotga tatbiq etilishi metodik xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishda zamonaviy dasturiy vositalar va platformalardan foydalanishni talab qiladi.

Ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, unda fan metodistlari faoliyatini raqamlashtirish shunchaki kompyuter texnikasidan foydalanish sifatida emas, balki boshqaruv usullarini strategik, operativ va innovatsion darajada qayta loyihalash, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda metodik yordamni uzluksiz va manzilli tashkil etish tizimi sifatida qaraladi. Metodistlar faoliyatini yangi metodologik yondashuvlar asosida isloh qilish umumiy o‘rta va oliy ta’lim sifatini oshirishning eng muhim shartlaridan biridir.

Ta’lim tizimini boshqarish va unda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta’lim transformatsiyasi va uning falsafiy-pedagogik asoslari B.S. Gershunskiy, V.G. Kinelev kabi olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Ularning fikricha, raqamli muhit ta’limning barcha subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Pedagogik jarayonlarni boshqarishda axborot texnologiyalarining o‘rni va metodistlar kompetensiyasini oshirish muammolari respublikamiz olimlaridan R.X. Juralayev, A.A. Abduqodirov, R.J. Ishmuhamedov va U.Sh. Begimkulovlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. A.A. Abduqodirov o‘z ishlarida ta’lim jarayonini axborotlashtirishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsa, U.Sh.

Begimkulov pedagogik ta’lim tizimida zamonaviy axborot muhitini shakllantirishning nazariy-amaliy muammolarini tadqiq etgan.

Xalqaro miqyosda ta’limni raqamli boshqarish va metodik faoliyatni yangi texnologiyalar asosida qurish bo‘yicha L.W. Anderson, D.R. Krathwohl, A.G. Picciano hamda B. Williamson kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. A.G. Picciano o‘zining onlayn ta’lim modellari va aralash ta’lim (blended learning) konsepsiyalarida metodik ta’minotni masofaviy shaklda tashkil etishning afzalliklarini asoslab bergan. B. Williamson esa ta’lim tizimida "Data-driven" (ma’lumotlarga asoslangan) boshqaruv yondashuvini ilgari surib, katta hajmdagi raqamli ma’lumotlar (Big Data) ta’lim sifatini monitoring qilishda subyektivlikni yo‘qotishini isbotlagan.

Biroq ta’lim tizimidagi umumiy raqamlashtirish jarayonlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan fan metodistlari faoliyatini raqamli texnologiyalar yordamida strategik, operativ va innovatsion boshqarish usullari, ularning KPI ko‘rsatkichlarini raqamli monitoring qilish mexanizmlari tizimli ravishda yaxlit tadqiqot obyekti sifatida kam o‘rganilgan. Bu esa mazkur maqolada ko‘tarilgan muammoning ilmiy yangiligi va zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-tarkibiy yondashuv, qiyosiy-pedagogik tahlil, modellashtirish, kuzatish va ekspert baholash metodlari tashkil etadi. Tadqiqot davomida fan metodistlarining an’anaviy va raqamli sharoitdagi faoliyat ko‘rsatkichlari solishtirildi, mavjud muammolar tahlil qilindi va ularni bartaraf etishning raqamli yechimlari loyihalashtirildi.

Tadqiqot doirasida xalqaro ta’lim amaliyotida keng qo‘llaniladigan quyidagi to‘rtta zamonaviy yondashuv metodik xizmat tizimiga moslashtirildi va metodologik asos sifatida olindi:

Birinchidan, blended learning (aralash ta’lim va aralash metodik yordam) modeli. Ushbu model metodist va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni faqat yuzma-yuz uchrashuvlardan onlayn platformalar, vebinarlar va bulutli tizimlar orqali uzluksiz muloqot tizimiga o‘tkazishni ko‘zda tutadi.

Ikkinchidan, data-driven management (ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv) tamoyili. Mazkur yondashuv metodistning qaror qabul qilish jarayonida shaxsiy his-tuyg‘ular yoki tasodifiy kuzatuvlarga emas, balki ta’lim platformalaridan (LMS) olingan aniq statistik ma’lumotlar, test natijalari va o‘qituvchilar faoliyatining elektron tahlillariga tayanishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, Digital Twin (Raqamli egizak) konsepsiyasi. Pedagogika sohasida ushbu konsepsiya o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari, yutuqlari va kamchiliklarining elektron portfoliodagi raqamli modelini yaratishni anglatadi. Metodist ushbu virtual model orqali o‘qituvchining kelgusi rivojlanish dinamikasini loyihalashtiradi.

To‘rtinchidan, Instructional Design (Ta’limiy dizayn) tamoyillari. Bu yondashuv metodistga o‘qituvchilar uchun metodik materiallarni shunchaki matn ko‘rinishida emas, balki raqamli muhitda osongina qabul qilinadigan interaktiv ssenariylar, videodarslar va infografikalar ko‘rinishida loyihalash imkonini beradi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va amaliy tahlillar natijasida fan metodisti faoliyatining raqamli transformatsiya sharoitidagi yangi funksional majburiyatlari va ish sikli aniqlandi. Raqamli muhitda metodist ishi bir martalik tadbirlardan iborat bo‘lmay, uzluksiz aylanma zanjirni tashkil etadi. Bu zanjir o‘qituvchining kasbiy holatini raqamli diagnostika qilishdan boshlanadi. Keyingi bosqichda tizim yig‘ilgan ma’lumotlarni avtomatik tahlil qiladi va pedagogning individual metodik ehtiyojini aniqlaydi. Shundan so‘ng metodist o‘qituvchiga manzilli individual yordam ko‘rsatadi va kerakli raqamli resurslarni taqdim etadi. Tizimli monitoring va doimiy raqamli qayta aloqa orqali dars berish sifati muntazam ravishda takomillashtirib boriladi.

Fan metodistlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish va boshqarish maqsadida biz tomonidan uch darajali boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Ushbu model boshqaruv jarayonlarini strategik, operativ va innovatsion darajalarga ajratgan holda tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Strategik boshqaruv darajasi uzoq muddatli maqsadlarni belgilash va hududiy ta’lim tizimida metodik xizmatning raqamli ekotizimini yaratishga qaratilgan. Bu darajada metodistlar va yuqori turuvchi boshqaruv organlari o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha uzoq muddatli raqamli yo‘l xaritalarini (Roadmaps) ishlab chiqadilar. Strategik boshqaruvning asosi barcha metodik tavsiyalar, videodarslar, davlat ta’lim standartlari va ilg‘or tajribalarni o‘zida jamlagan yagona bulutli resurs bazasini shakllantirish hisoblanadi. Bu resurslar markazlashtirilgan holda saqlanadi va respublikaning istalgan nuqtasidagi o‘qituvchi uchun ochiq bo‘ladi. Shuningdek, ushbu darajada turli hududlar va xalqaro ekspertlar o‘rtasida tajriba almashish uchun gorizontal tarmoqli raqamli aloqalar va professional hamjamiyatlar tashkil etiladi.

Operativ boshqaruv darajasi kundalik metodik jarayonlarni tezkor, shaffof va samarali muvofiqlashtirishni ta’minlaydi. Bunda asosiy rol o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS) ва CRM tizimlariga beriladi. Metodist o‘ziga biriktirilgan o‘qituvchilar faoliyatini an’anaviy qog‘oz hisobotlar orqali emas, balki maxsus elektron analitik dashboard panellari orqali real vaqt rejimida kuzatib boradi. Operativ boshqaruv doirasida dars kuzatishlar va tezkor guruhli yoki shaxsiy maslahatlar masofaviy videokonferensaloqa vositalari (Zoom, Microsoft Teams, Google Meet) hamda maxsus korporativ messenjerlar orqali o‘tkaziladi. Bu metodist va o‘qituvchining yo‘l xarajatlarini hamda vaqtini sezilarli darajada tejaydi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash uchun digital time management usullaridan, jumladan, onlayn rejalashtiruvchilar va taqvimlardan (Google Calendar) foydalaniladi, bu esa tadbirlarning bir-biriga xalaqit bermasligini ta’minlaydi.

Innovatsion boshqaruv darajasi metodik xizmatga eng so‘nggi texnologik yechimlar va kreativ yondashuvlarni olib kirishni nazarda tutadi. Bu yerda asosiy vosita sifatida Digital Portfolio (Raqamli portfolio) tizimi namoyon bo‘ladi. Har bir o‘qituvchining erishgan yutuqlari, o‘quvchilarining ko‘rsatkichlari, sertifikatlari va shaxsiy metodik ishlanmalari elektron formatda to‘planadi va tizim tomonidan avtomatik baholanadi. Innovatsion darajada sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan

foydalanish imkoniyatlari ham ochiladi. Sun’iy intellekt o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan testlar ва so‘rovnomalar natijalarini chuqur tahlil qilib, qaysi pedagogga qaysi mavzuda yordam zarurligi bo‘yicha metodistga tayyor tahliliy hisobotlar beradi. Shuningdek, o‘qituvchilarning motivatsiyasini oshirish maqsadida metodik jarayonlarga gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlari, jumladan, elektron reytinglar, virtual nishonlar (badges) ва professional maqomlar tizimi kiritiladi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan raqamli boshqaruv usullari an’anaviy metodik xizmat bilan qiyoslanganda bir qator konseptual afzalliklarga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. An’anaviy tizimda metodist yiliga cheklangan miqdordagi maktablarni va o‘qituvchilarni jismonan borib tekshira olar edi. Bu esa metodik yordamning uzuq-yuluq bo‘lishiga va chekka hududlardagi o‘qituvchilarning e’tibordan chetda qolishiga olib kelar edi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan platformali boshqaruv esa masofa muammosini butunlay yo‘q qiladi va metodik xizmatning uzluksizligini ta’minlaydi.

Blended learning modelining metodistlar faoliyatiga tatbiq etilishi o‘qituvchilar malakasini oshirish va ularni metodik qo‘llab-quvvatlash shaklini moslanuvchan (flexible) holatga keltirdi. Endilikda o‘qituvchi metodik seminarda qatnashish uchun darslarini qoldirishi yoki boshqa hududga safar qilishi shart emas. U o‘zi uchun qulay vaqtda raqamli platformaga kirib, metodist tomonidan joylashtirilgan interaktiv o‘quv modullarini o‘zlashtirishi, videodarslarni tomosha qilishi va forumlarda kasbdoshlari bilan fikr almashishi mumkin.

Data-driven management yondashuvi ta’lim boshqaruvidagi eng og‘riqli nuqta — subyektivlik va korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ilgari o‘qituvchining faoliyatiga metodistning shaxsiy munosabati yoki bir marta darsga kirib kuzatishi asosida baho berilgan bo‘lsa, raqamli monitoring tizimida baholash pedagogning tizimdagi ko‘p oylik faoliyati, uning raqamli portfoliosining to‘liqligi va o‘quvchilarining testlardagi real natijalari asosida avtomatik shakllanadi. Bu metodist faoliyatini ham shaffoflashtiradi, chunki uning o‘zi ham yuqori turuvchi

tashkilotlar tomonidan tizimga kiritgan kontenti va ko‘rsatgan yordami sifati bo‘yicha kuzatib boriladi.

Digital Twin va Instructional Design konsepsiyalarining birgalikda qo‘llanilishi metodistga har bir o‘qituvchining kasbiy o‘sishini aniq rejalashtirish imkonini beradi. Agar o‘qituvchining raqamli modelida (Digital Twin) uning AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) bilan ishlash yoki darsda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmasi pastligi ko‘rinsa, tizim avtomatik ravishda unga ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun Instructional Design tamoyillari asosida tayyorlangan maxsus mikrolearning (kichik hajmli onlayn darslar) kurslarini tavsiya qiladi.

Shu bilan birga, raqamli boshqaruv usullarini joriy etishda ma’lum bir qiyinchiliklar va to‘siqlar ham mavjudligini ta’kidlash lozim. Bularga birinchi navbatda chekka hududlardagi maktablarda internet tezligining pastligi, texnik jihozlarning yetishmasligi va eng asosiysi — ba’zi yoshi katta metodist va o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarga nisbatan psixologik to‘siqlari hamda raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligidir. Shuning uchun raqamlashtirish jarayoni faqat dasturiy ta’minot yaratish bilan cheklanib qolmay, inson kapitalini rivojlantirish bilan parallel ravishda olib borilishi zarur.

Metodistlar faoliyatini baholashning raqamli mexanizmlari ham mutlaqo yangi ko‘rinish kasb etadi. An’anaviy hisobot tizimi o‘rniga KPI (Key Performance Indicators) ko‘rsatkichlari joriy etiladi. Bunda metodistning ish samaradorligi uning tizimga yuklagan foydali metodik materiallari soni, uning onlayn vebinarlarida o‘qituvchilarning qatnashish va qoniqish darajasi hamda u biriktirilgan hududdagi o‘qituvchilarning kasbiy sertifikatlash imtihonlaridagi ijobiy ko‘rsatkichlari dinamikasi asosida raqamli dasturlar yordamida hisoblab chiqiladi. 360 darajali raqamli baholash usuli esa metodistga o‘qituvchilar, maktab direktorlari va ta’lim boshqarmasi tomonidan anonim elektron so‘rovnomalar orqali xolis baho berilishini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Fan metodistlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarish shunchaki zamon talabi emas, balki ta’lim sifatini tubdan yaxshilash va uni xalqaro andozalarga moslashtirishning strategik mexanizmidir. An’anaviy boshqaruvdan raqamli boshqaruvga o‘tish metodik xizmatning tezkorligi, shaffofligi, manzilliligi va uzluksizligini kafolatlaydi.

Tadqiqot davomida taklif etilgan strategik, operativ va innovatsion boshqaruv usullarining uch darajali modeli metodist ishini tizimlashtirishga, qog‘ozbozlik va ortiqcha byurokratiyani yo‘qotishga hamda asosiy e’tiborni pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratishga imkon beradi. Blended learning, data-driven management, Digital Twin va Instructional Design kabi zamonaviy yondashuvlar metodik xizmat ko‘rsatish samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi.

Tadqiqot natijalari va xulosalaridan kelib chiqqan holda, respublika ta’lim tizimida fan metodistlari faoliyatini raqamli asosda takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy **tavsiyalar** ilgari suriladi:

1. Respublika va viloyatlar miqyosida faoliyat ko‘rsatuvchi barcha fan metodistlari va o‘qituvchilarni yagona tarmoqqa birlashtiruvchi, tarkibida Digital Portfolio (Raqamli portfolio), Analitik Dashboard (Tahliliy panel) va Sun’iy intellekt tahlili modullari bo‘lgan "Yagona milliy raqamli metodik platforma"ni yaratish va amaliyotga joriy etish lozim.

2. Fan metodistlarining raqamli va boshqaruv kompetensiyalarini muntazam ravishda oshirib borish maqsadida, ular uchun maxsus Data-driven management (Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv), Educational Data Mining (Ta’limiy ma’lumotlarni tahlil qilish) va Instructional Design (Ta’limiy dizayn) yo‘nalishlari bo‘yicha qisqa muddatli maqsadli va amaliy malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

3. Metodik xizmat tizimida blended learning (aralash) modeliga to‘liq o‘tish, ya’ni yuzma-yuz o‘tkaziladigan va ko‘p vaqt hamda mablag‘ talab qiladigan an’anaviy yig‘ilish va seminarlar ulushini kamaytirib, asosiy e’tiborni haftalik va oylik onlayn vebinarlar, masofaviy master-klasslar va interaktiv muloqot platformalariga qaratish kerak.

4. Metodistlar va o‘qituvchilar faoliyatini baholash tizimini tubdan isloh qilish, qog‘oz ko‘rinishidagi hisobotlarni topshirish va qabul qilish amaliyotidan butunlay voz kechib, LMS platformasi analitikasi va KPI ko‘rsatkichlari asosida ishlaydigan inson omilidan xoli bo‘lgan avtomatlashgan reyting tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdixlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-apreldagi “Xalq ta’limi tizimida metodik xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 186-son Qarori.
3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.H. Masofaviy o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. — T.: "Fan", 2009. — 144 b.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim tizimida zamonaviy axborot muhitini shakllantirishning nazariy-amaliy muammolari. Ped. fan. dok. ... diss. avtoreferati. — T.: 2007. — 42 b.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.H. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar). — T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. — 180 b.
6. Juralayev R.X. Ta’lim menejmenti. — T.: "Vor his", 2006. — 212 b.
7. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.
8. Picciano, A. G. (2017). Theories and frameworks for online education: Seeking an integrated model. Online Learning Journal, 21(3), 166-190.
9. Williamson, B. (2017). Big Data in Education: The digital future of learning, policy and practice. London: Sage Publications.

10. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.
11. Selwyn, N. (2014). Digital Technology and the Future of Education. London: Routledge.
12. Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age: Guidelines for designing teaching and learning. Vancouver: Tony Bates Training and Consulting.

ONLAYN TA’LIM JARAYONIDA GENERATIV SUN’IY INTELEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI, TENDENSIYALARI VA PERSPEKTIVALARI

Botirova Nigora Koyirovna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy onlayn ta’lim tizimida generativ sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ularning pedagogik samaradorligi, raqamli ta’lim muhitini individuallashtirishdagi o‘rni va mavjud muammolar chuqur tahlil qilinadi. ChatGPT, Claude, Midjourney, Synthesia va boshqa yetakchi generativ vositalarning masofaviy o‘qitish modellari bilan integratsiyalashuvi ko‘rib chiqiladi. Maqolada onlayn darslarni rejalashtirish, interaktiv o‘quv materiallarini yaratish, avtomatlashtirilgan baholash hamda talabalarning mustaqil ta’lim xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va etik muammolar atrofida atroflicha mulohaza yuritilib, generativ AI vositalarini O‘zbekiston va jahon ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Generativ sun’iy intellekt, onlayn ta’lim, masofaviy o‘qitish, LMS, ChatGPT, edtech, adapdiv ta’lim, akademik halollik, raqamli pedagogika, Sun’iy intellekt agentlari.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the possibilities of using generative artificial intelligence technologies in the modern online education system, their pedagogical effectiveness, their role in individualizing the digital educational environment, and existing challenges. The integration of ChatGPT, Claude, Midjourney, Synthesia, and other leading generative tools with distance learning models is considered. The article provides a scientific and practical justification for online lesson planning, the creation of interactive educational materials, automated assessment, and mechanisms to support students' independent learning behavior. Additionally, comprehensive considerations were made regarding academic integrity, data security, and ethical issues, and practical recommendations were developed for the systematic implementation of generative AI tools into educational practice in Uzbekistan and worldwide.

Keywords: Generative artificial intelligence, online education, distance learning, LMS, ChatGPT, edtech, adaptive education, academic integrity, digital pedagogy, artificial intelligence agents.

Аннотация. В данной статье глубоко анализируются возможности использования технологий генеративного искусственного интеллекта в современной системе онлайн-образования, их педагогическая эффективность, роль в индивидуализации цифровой образовательной среды и существующие проблемы. Рассматривается интеграция ChatGPT, Claude, Midjourney, Synthesia и других ведущих генеративных инструментов с моделями дистанционного обучения. В статье научно и практически обоснованы механизмы планирования онлайн-уроков, создания интерактивных учебных материалов, автоматизированного оценивания и поддержки самостоятельного учебного поведения студентов. Также были подробно рассмотрены вопросы академической честности, безопасности данных и этики, а также разработаны практические рекомендации по системному внедрению инструментов генеративного ИИ в образовательную практику Узбекистана и мира.

Ключевые слова: Генеративный искусственный интеллект, онлайн-образование, дистанционное обучение, LMS, ChatGPT, edtech, адаптивное образование, академическая честность, цифровая педагогика, агенты искусственного интеллекта.

XXI asrning uchinchi o‘nyilligiga kelib, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va global miqyosdagi masofaviy ta’lim ehtiyojlarining ortishi ta’lim va tarbiya berish uslubiyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. An’anaviy o‘qitish shakllarining raqamli transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan onlayn ta’lim (E-learning, Distance Education) bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Biroq, dastlabki bosqichlarda onlayn ta’lim asosan ma’ruzalarni video formatga o‘tkazish va elektron test topshiriqlaridan iborat bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu sohada keskin sifat bosqichi — Generativ Sun’iy Intellekt (Generative Artificial Intelligence — GenAI) davri boshlandi.

Generative AI texnologiyalari — bu matn, tasvir, audio, video va hatto dasturiy kod kabi yangi, noyob va mazmunan boy kontentlarni mavjud ma’lumotlar to‘plami negizida avtonom ravishda yaratishga qodir bo‘lgan neyron tarmoqlar tizimidir. OpenAI kompaniyasining ChatGPT, Anthropic kompaniyasining Claude, Google kompaniyasining Gemini hamda Midjourney va Stable Diffusion kabi generativ modellarining paydo bo‘lishi ta’lim sohasida haqiqiy inqilobni amalga oshirdi. Bu

vositalar oddiy axborot qidiruv tizimlaridan farqli o‘laroq, inson mantiqiga va ijodiy fikrlashiga yaqin bo‘lgan natijalarni taqdim etishi bilan ajralib turadi.

Onlayn ta’lim muhitida generativ AI vositalaridan foydalanish ko‘p o‘lchamli afzalliklarga ega. Birinchidan, u har bir talabaning individual o‘zlashtirish tezligi, bilimlarni qabul qilish uslubi va shaxsiy qiziqishlariga moslashtirilgan gipersonallashtirilgan (hyper-personalized) ta’lim trayektoriyasini barpo etish imkonini beradi. Ikkinchidan, o‘qituvchi va pedagoglar uchun dars rejalari, metodik qo‘llanmalar, nazorat savollari va interaktiv keyslarni tayyorlashdagi vaqt sarfini 50-70 foizgacha qisqartiradi, bu esa ularga ko‘proq vaqtni talabalar bilan bevosita muloqot qilishga va metodik mahoratni oshirishga bag‘ishlash imkonini beradi.

Raqamli asrda bilim turli axborot tugunlari (nodes) va tarmoqlarda joylashgan bo‘ladi. Generativ AI bu tugunlarni birlashtiruvchi, ma’lumotlarni sintez qiluvchi hamda foydalanuvchiga eng qisqa va tushunarli shaklda yetkazib beruvchi intellektual ko‘prik vazifasini o‘taydi. Masofaviy o‘qitish tizimlarida (LMS — Learning Management Systems, masalan Moodle, Canvas, Blackboard) AI integratsiyasi pedagogik yondashuvni tubdan o‘zgartirmoqda.

Onlayn ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan generativ sun’iy intellekt vositalarini ular yaratadigan kontent turi va bajaradigan vazifalariga ko‘ra bir nechta asosiy guruhlarga bo‘lish mumkin:


1. Matnli va Mantiqiy Generativ Modellar (Large Language Models — LLM): Ushbu guruhga ChatGPT (GPT-4o), Claude 3.5 Sonnet, Google Gemini hamda Microsoft Copilot kabi yirik til modellari kiradi. Bu vositalar masofaviy ta’limda matnli materiallarni umumlashtirish, tildan dilga tarjima qilish, ilmiy-metodik materiallar tayyorlash, interaktiv viktorina va test savollarini tuzish hamda talabalarning yozma ishlariga tezkor fikr-mulohaza (feedback) bildirishda qo‘llaniladi.

2. Vizual va Grafik Kontent Generatorlari: Midjourney, DALL-E 3, Adobe Firefly va Stable Diffusion kabi modellar vizual ta’lim vositalarini yaratishda inqilob qildi. O‘qituvchilar va kurs yaratuvchilari murakkab biologik jarayonlar, tarixiy

voqealar, muhandislik chizmalari yoki arxitektura ob’yektlarini ko‘rsatuvchi yuqori aniqlikdagi tasvirlarni soniyalar ichida generatsiya qilishlari mumkin.

3. Video va Digital-Avatarlar Yaratish Tizimlari: Synthesia, HeyGen, Elai.io kabi vositalar yordamida o‘qituvchi matnli ma’ruzani kiritadi va raqamli avatar (Virtual Instructor) ushbu matnni turli tillarda, tabiiy imo-ishoralar va nutq tempida gapirib beruvchi yuqori sifatli video darsga aylantiradi. Bu texnologiya, ayniqsa, ko‘p tilli onlayn kurslarni tezkor va arzon yaratishda mislsiz imkoniyat ochadi.

4. Intellektual Tyutorlar va Assistentlar: Khan Academy kompaniyasining Khanmigo tizimi, Duolingo Max, Otter.ai va Notion AI kabi maxsus platformalar talabalarga har bir fan bo‘yicha 24/7 rejimida ishlaydigan shaxsiy repetitor vazifasini bajaradi.



1-rasm. Onlayn ta’lim ekotizimida generativ AI vositalarining yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy qo‘llanilish ulushi.

Yuqoridagi diagrammada ko‘rinib turganidek, onlayn ta’lim jarayonida eng katta ulush (40%) matn va dasturlash kodlari bilan ishlaydigan yirik til modellariga to‘g‘ri keladi. Bu holat ta’lim mazmunining asosiy qismi matnli axborotdan iborat ekanligi hamda LLM larning ko‘p qirraliligi bilan izohlanadi. Vizual va video generatorlar esa (mos ravishda 20% va 15%) ko‘rgazmali va multimediali ta’lim resurslarini yaratish imkonini bermoqda.

Generativ AI vositalaridan onlayn ta’limda samarali foydalanishning kalit omili bu — Prompt Injiniringi (Prompt Engineering), ya’ni sun’iy intellekt modeliga topshiriqni to‘g‘ri, aniq va kontekstual jihatdan mukammal shakllantirib berish san’atidir. Pedagogik prompt muhandisligi ma’lum bir strukturaga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi yoki talaba AI bilan muloqotda quyidagi 5 ta asosiy komponentni o‘z ichiga olgan strukturadan foydalanishi tavsiya etiladi:

1. Rol (Role): AI ga muayyan vazifani bajaruvchi obrazni berish (masalan: 'Siz 20 yillik tajribaga ega O‘zbekiston tarixi bo‘yicha professor va pedagogik ekspertisiz').

2. Kontekst (Context): Vaziyat va auditoriya haqida ma’lumot (masalan: 'Siz masofaviy ta’lim platformasida o‘qiydigan 1-bosqich bakalavr talabalariga dars o‘tmoqdasiz').

3. Topshiriq (Task): AI bajardi bo‘lgan aniq harakat (masalan: 'Amir Temur davlatida raqamli va diplomatiya diplomatiyasining rivojlanishi bo‘yicha 3 ta muammoli vaziyat savolini tuzing').

4. Cheklovlar va Shartlar (Constraints): Natijaga qo‘yiladigan talablar (masalan: 'Javoblar Times New Roman 14 shrifida, ilmiy uslubda va har bir javob uchun 100 tadan oshmagan so‘zda berilsin').

5. Format (Output Format): Natija ko‘rinishi (masalan: 'Jadval ko‘rinishida, ustunlar: Savol, To‘g‘ri javob, Pedagogik izoh').

Ushbu metodologiya asosida tuzilgan promptlar AI modelining 'gallyutsinatsiya' (yolg‘on yoki to‘qima ma’lumot berish) ehtimolini 80 foizgacha kamaytiradi hamda olingan natijaning ta’lim standartlariga mosligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, generativ sun’iy intellekt vositalari onlayn ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirish, uni yanada moslashuvchan, interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarali qilish uchun mislsiz imkoniyatlar eshigini ochmoqda. GenAI shunchaki texnologik trend emas, balki pedagogikaning yangi evolyutsion bosqichidir.

Onlayn ta’limda generativ AI ni qo‘llashning muvaffaqiyati texnologiyaning o‘ziga emas, balki insonning — pedagog va talabaning uni qanday maqsad va metodologiya bilan ishlatishiga bog‘liq. AI o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi, biroq sun’iy intellektdan unumli foydalana oladigan o‘qituvchi va talabalar, ushbu texnologiyalardan foydalanmaydiganlardan sezilarli darajada o‘zib ketadilar.

Generativ AI ni ta’lim tizimiga mas’uliyat bilan, akademik halollik hamda etik normalarga rioya qilgan holda, chuqur o‘ylangan pedagogik strategiya negizida joriy etish orqali biz kelajak raqamli ta’limining yuqori sifat va samaradorligini ta’minlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi 'Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida'gi PQ-4996-son Qarori.

2. UNESCO. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO Publishing, Paris.

3. Mollick, E. (2024). Co-Intelligence: Living and Working with AI. Portfolio / Penguin Random House.

4. Holmes, W., & Tuomi, I. (2022). State of the art and practice in AI in education. European Journal of Education, 57(4), 542-570.

5. Luckin, R., & Cukurova, M. (2019). Designing educational technologies in the age of AI: A learning sciences perspective. Learning, Media and Technology, 44(3), 282-296.

6. OpenAI. (2024). Teaching with AI: Educator guide and best practices. OpenAI Resource Hub.

7. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(1), 1-27.

8. Abdullayev, A. A., & Karimov, B. R. (2025). O‘zbekistonda masofaviy ta’lim va raqamli pedagogika transformatsiyasi. Raqamli Ta’lim Jurnali, 3(2), 45-58.

MATEMATIKA TA’LIMIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Djurayeva Charos Gulmuratovna
A Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada matematika ta’limida o‘quvchilarning kognitiv moyilligi, qiziqishi va o‘zlashtirish darajasini hisobga oluvchi differensial yondashuv asosida funksional savodxonlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Ijtimoiy-gumanitar moyillikka ega o‘quvchilar uchun kontekstli va darajalangan topshiriqlar tizimi hamda uni qo‘llash bosqichlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, matematik savodxonlik, differensial yondashuv, PISA, kontekstli masala, kognitiv moyillik.

Аннотация. В статье раскрываются методические возможности развития функциональной грамотности на основе дифференцированного подхода в обучении математике, учитывающего когнитивные склонности, интересы и уровень подготовки учащихся. Предложены система контекстных разноуровневых заданий для учащихся с социально-гуманитарной направленностью и этапы её применения.

Ключевые слова: функциональная грамотность, математическая грамотность, дифференцированный подход, PISA, контекстная задача, когнитивная склонность.

Annotation. The article examines the methodological potential of developing functional literacy through a differentiated approach in mathematics education that takes into account students’ cognitive inclinations, interests and achievement levels. A system of contextual multi-level tasks for students with a social and humanitarian orientation and the stages of its implementation are proposed.

Keywords: functional literacy, mathematical literacy, differentiated approach, PISA, contextual problem, cognitive inclination.

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchiga ma’lum hajmdagi bilimlarni berish bilan cheklanmay, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan va asosli qaror qabul qila oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da respublikaning PISA xalqaro baholash dasturi reytingida yetakchi

30 ta davlat qatoridan joy olishi strategik maqsad sifatida belgilangan. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun ta’lim sifatini xalqaro tadqiqotlar asosida baholash tizimi joriy etildi.

O‘zbekiston 2022-yilda ilk bor PISA xalqaro tadqiqotida ishtirok etdi. Bu ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida xolis baholash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarimizda matematik bilimlarni notanish kontekstlarda qo‘llash va natijalarni talqin qilish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi. Bu holat matematika o‘qitish metodikasini funksional savodxonlikka yo‘naltirish zaruratini yuzaga keltiradi va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

OECD ta’rifiga ko‘ra, matematik savodxonlik – shaxsning turli real kontekstlarda matematik fikrlash, muammoni matematik tilga o‘tkazish, matematik tushuncha, dalil va vositalarni qo‘llash hamda olingan natijalarni talqin qilish va baholash qobiliyatidir. Ko‘rinib turibdiki, bu ta’rifda asosiy urg‘u algoritmlarni yodlashga emas, balki matematikaning hayotiy vaziyatlarda qo‘llanishiga qaratiladi.Amaliyotda bir sinfdagi o‘quvchilarning fikrlash uslubi, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasi bir-biridan farq qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar moyillikka ega o‘quvchilarda abstrakt-formal materialni o‘zlashtirishda qiyinchilik, matematikaga nisbatan past motivatsiya va “matematik xavotir“ holatlari ko‘proq kuzatiladi. Ayni paytda bu o‘quvchilar matnni tahlil qilish, og‘zaki-mantiqiy mulohaza yuritish, ijtimoiy hodisalarga baho berish kabi kuchli tomonlarga ega. Barcha o‘quvchilar uchun yagona standart yondashuv bu tafovutlarni hisobga olmaydi va natijada o‘quvchining imkoniyatlari to‘liq ro‘yobga chiqmaydi.

Differensial yondashuv ta’lim mazmuni, jarayoni va natijasini o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi.

C.A. Tomlinson differensial ta’limni o‘quvchilarning tayyorgarligi, qiziqishi va o‘qish uslubiga javob beruvchi moslashuvchan o‘qitish sifatida ta’riflaydi. Uning hammualliflar bilan olib borgan tadqiqotlar sharhida o‘quvchilar tayyorgarligi, qiziqishi va o‘qish uslubini hisobga olgan holda o‘qitish turli darajadagi o‘quvchilar

uchun ta’lim sifatini oshirishi asoslab berilgan. Mazkur yondashuv L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi“ g‘oyasiga va H. Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasiga tayanadi: har bir o‘quvchiga uning imkoniyatlaridan biroz yuqori, ammo erishish mumkin bo‘lgan topshiriq berilishi va bilimni o‘ziga yaqin intellekt turi orqali o‘zlashtirishiga sharoit yaratilishi lozim.

Matematika ta’limida differensial yondashuv asosida funksional savodxonlikni rivojlantirishni quyidagi bosqichlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Diagnostik bosqich – o‘quvchilarning kognitiv moyilligi, o‘quv motivatsiyasi va boshlang‘ich matematik tayyorgarligini so‘rovnoma va diagnostik testlar yordamida aniqlash.

2. Tashkiliy bosqich – o‘quvchilarni moyillik va o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra doimiy bo‘lmagan, moslashuvchan guruhlarga ajratish hamda guruhlar tarkibini natijalarga qarab yangilab borish.

3. Mazmuniy bosqich – bir xil o‘quv maqsadiga turli kontekst va murakkablik darajalari orqali erishishni ta’minlovchi darajalangan topshiriqlar tizimini qo‘llash.

4. Baholash-refleksiv bosqich – natijalarni PISA mezonlariga moslashtirilgan formativ baholash vositalari yordamida aniqlash, o‘quvchilar refleksiyasini tashkil etish va o‘qitish jarayoniga tuzatishlar kiritish.

Ijtimoiy-gumanitar moyillikka ega o‘quvchilar bilan ishlashda matematik mazmunni ularga yaqin kontekstlar orqali taqdim etish samarali hisoblanadi. H. Freydental matematikani foydali bo‘ladigan tarzda o‘qitish uchun uni tayyor, yopiq tizim sifatida emas, balki real voqelikni matematiklashtirish faoliyati sifatida o‘rgatish zarurligini ta’kidlagan. Demak, o‘quvchi matematikani o‘ziga tanish vaziyatlarni matematik tilga o‘tkazish jarayonida chuqurroq o‘zlashtiradi. Shu nuqtai nazardan demografik va ijtimoiy statistika, oila byudjeti va moliyaviy qarorlar, OAV materiallaridagi raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish, matematika tarixi

va allomalarimiz merosi bilan bog‘liq topshiriqlar muhim o‘rin tutadi. Bunday topshiriqlarning namunasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ijtimoiy-gumanitar moyillikdagi o‘quvchilar uchun darajalangan kontekstli topshiriqlar namunasi

Daraja	PISA jarayoni	Topshiriq namunasi (mavzu: foizlar)
I. Reproduktiv	Qo‘llash	Kitob do‘konida 80 000 so‘mlik kitobga 15 % chegirma e’lon qilindi. Kitobning yangi narxini toping.
II. Qo‘llash	Formulyatsiya	Maktab kutubxonasi fondi ikki yilda 4 000 tadan 4840 ta kitobga yetdi. Fond har yili bir xil foizga ortgan bo‘lsa, yillik o‘sish necha foiz bo‘lgan?
III. Mulohaza	Talqin qilish va baholash	Gazetada “Viloyatda kitobxonlar soni ikki barobar oshdi“ degan sarlavha berilgan, ilova qilingan jadvalda esa ularning soni 1200 dan 1800 ga ortgani ko‘rsatilgan. Sarlavha to‘g‘rimi? Fikringizni matematik dalillar bilan asoslang.

Jadvaldan ko‘rinadiki, barcha darajadagi topshiriqlar bitta o‘quv maqsadiga – foizlarni hisoblash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi, biroq ular kognitiv murakkabligi va PISA jarayonlariga mosligi bilan farqlanadi. Ayniqsa, III darajadagi topshiriq o‘quvchidan matematik hisob bilan bir qatorda matnni tanqidiy o‘qish va argumentlangan xulosa chiqarishni talab etadi. Bu ijtimoiy-gumanitar moyillikdagi o‘quvchilarning kuchli tomonlariga tayangan holda ularning matematik savodxonligini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday topshiriqlar o‘qish savodxonligi va tanqidiy fikrlashni ham shakllantiradi, bu esa funksional savodxonlikning integrativ tabiatiga to‘la mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, matematika ta’limida differensial yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarning individual moyilliklarini to‘siq sifatida emas, balki ta’lim resursi sifatida qarash imkonini beradi. Diagnostika, moslashuvchan guruhlash, darajalangan kontekstli topshiriqlar va formativ baholashni o‘z ichiga olgan metodik tizim o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, matematik bilimlarni real

vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi hamda xalqaro baholash dasturlari talablariga mos funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvni keng joriy etish uchun matematika o‘qituvchilarining kontekstli va darajalangan topshiriqlar tuzish bo‘yicha metodik tayyorgarligini oshirish, turli moyillikdagi o‘quvchilar uchun PISA formatidagi topshiriqlar bankini yaratish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-dekabrdagi 997-son «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.12.2019.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собрание сочинений: в 6 т. – Т. 2. – М.: Педагогика, 1982.
4. Freudenthal H. Why to Teach Mathematics so as to Be Useful // Educational Studies in Mathematics. – 1968. – Vol. 1, № 1. – P. 3–8.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
6. OECD. PISA 2022 Mathematics Framework. – Paris: OECD, 2023. – URL: https://pisa2022-maths.oecd.org/ .
7. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. – Alexandria, VA: ASCD, 2014.
9. Tomlinson C.A., Brighton C., Hertberg H. et al. Differentiating Instruction in Response to Student Readiness, Interest, and Learning Profile in Academically Diverse Classrooms: A Review of Literature // Journal for the Education of the Gifted. – 2003. – Vol. 27, № 2–3. – P. 119–145.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Mashrabova Ma’mura Dilmurod qizi

Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi,

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik mexanizmlari asoslangan. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi, o‘z-o‘zini samaradorlik konsepsiyasi va TPACK modeli asosida oltita mexanizm ajratilgan, ularni amalga oshirishning besh bosqichli modeli va pedagogik xavflar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy motivatsiya, bo‘lajak o‘qituvchi, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, pedagogik mexanizm, shaxsiylashtirilgan ta’lim, refleksiya, raqamli kompetensiya.

Аннотация: В статье обоснованы педагогические механизмы использования цифровых технологий и искусственного интеллекта в развитии профессиональной мотивации будущих учителей. Предложена пятиэтапная модель их реализации и рассмотрены педагогические риски.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, будущий учитель, искусственный интеллект, цифровые технологии, педагогический механизм, персонализация, рефлексия.

Abstract: The article substantiates pedagogical mechanisms of using digital and artificial intelligence technologies to develop pre-service teachers’ professional motivation. A five-stage implementation model and pedagogical risks are discussed.

Keywords: professional motivation, pre-service teacher, artificial intelligence, digital technologies, pedagogical mechanism, personalization, reflection.

Bugungi kunda ta’lim sifati o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kasbga bo‘lgan ichki munosabati bilan chambarchas bog‘liq. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan hujjatlar [1; 2] pedagogik ta’limni raqamlashtirish uchun huquqiy asos yaratdi. Biroq texnologik infratuzilmaning mavjudligi o‘z-o‘zidan bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy qiziqish va

mas’uliyatni shakllantirmaydi. Shu sababli raqamli vositalar qanday pedagogik mexanizmlar orqali motivatsiyaga ta’sir ko‘rsatishini aniqlash dolzarb vazifadir.

Xalqaro tadqiqotlarda kasbiy motivatsiya o‘qituvchilik kasbini tanlash sabablari, kasbda qolish istagi va o‘quv faoliyatidagi ichki rag‘bat sifatida o‘rganiladi [3]. Sun’iy intellekt ta’limda qo‘llanilishi bo‘yicha sharhlar esa asosan o‘quvchilarni baholash, profillash va intellektual o‘qitish tizimlariga e’tibor qaratganini, pedagogik ta’lim talabalarining motivatsion rivojlanishi esa nisbatan kam o‘rganilganini ko‘rsatadi [4]. Mazkur bo‘shliq tadqiqot muammosini belgilaydi: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va SI texnologiyalari qaysi pedagogik mexanizmlar orqali samarali ishlaydi va ularni amaliyotga joriy etishning qanday shartlari mavjud?

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va SI texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik mexanizmlarini nazariy asoslash va ularni amalga oshirish modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, kasbiy motivatsiya raqamli muhitda alohida texnologik vositalarning yig‘indisi sifatida emas, balki talabaning psixologik ehtiyojlari bilan bog‘langan yaxlit pedagogik mexanizmlar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Amaliy ahamiyati esa taklif etilgan modeldan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini loyihalashda hamda malaka oshirish tizimida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning nazariy asosini uchta yondashuv tashkil etadi: Deci va Ryanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (ichki motivatsiya avtonomiya, kompetentlik va bog‘lanish ehtiyojlari qondirilganda kuchayadi) [5], Banduraning o‘z-o‘zini samaradorlik konsepsiyasi [6] hamda o‘qituvchi tayyorgarligida texnologik, pedagogik va predmet bilimlarining uyg‘unligini ifodalovchi TPACK modeli [7].

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tahliliy usul va pedagogik modellashtirish qo‘llanildi. Ishda empirik natijalar keltirilmagan; taklif etilayotgan model keyingi

bosqichda pedagogik eksperiment orqali sinovdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ilmiy farazdir.

1. Pedagogik mexanizm tushunchasi

Ushbu tadqiqotda pedagogik mexanizm deganda texnologik vosita, o‘quv faoliyati va motivatsion ehtiyoj o‘rtasidagi shunday izchil bog‘lanish tushuniladiki, unda vosita talabaning muayyan psixologik ehtiyojini qondiradi va kasbiy qiziqishning barqaror o‘sishiga olib keladi.

2. Shaxsiylashtirilgan o‘quv trayektoriyasi mexanizmi

Adaptiv o‘quv platformalari va SI-tahlil vositalari talabaning bilim darajasi va qiziqishlariga qarab topshiriqlar ketma-ketligini moslashtiradi. Bu mexanizm avtonomiya va kompetentlik ehtiyojlariga tayanadi: talaba tanlash imkoniga ega bo‘ladi, vazifalar esa uning yaqin rivojlanish zonasida qoladi.

3. Real vaqtdagi formativ fikr-mulohaza mexanizmi

SI yordamchilari dars rejasi yoki metodik ishlanma bo‘yicha zudlik bilan tahlil va tavsiya beradi. Muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi o‘z-o‘zini samaradorlik hissini kuchaytiradi [6], tezkor fikr-mulohaza esa xatoni tuzatiladigan bosqich sifatida qabul qilishga o‘rgatadi.

4. Simulyatsion pedagogik muhit mexanizmi

Virtual sinf, SI boshqaradigan “o‘quvchi” personajlari va video-tahlil vositalari real sinfga chiqishdan oldin mikro-dars o‘tkazish imkonini beradi. Simulyatsiya xavfsiz sharoitda o‘zlashtirish tajribasi yaratadi, amaliyotdan oldingi xavotirni kamaytiradi va kasbiy identiklikni shakllantiradi.

5. Gamifikatsiya va raqamli portfolio mexanizmi

Gamifikatsiya barqaror motivatsiya uchun mazmunli maqsadlarga bog‘lanishi kerak, shuning uchun u raqamli portfolio (dars ishlanmalari, videolavhalar, refleksiv yozuvlar) bilan birga qo‘llanadi. Portfolio rivojlanishning ko‘rinadigan dalili bo‘lib, kompetentlik hissini mustahkamlaydi.

6. SI-mentor yordamidagi refleksiya mexanizmi

SI-suhbatdosh talabaga savollar berib, dars tahlilida e’tibordan chetda qolgan jihatlarni ko‘rsatadi va muqobil yechimlar taklif qiladi. Bu ichki qadriyat va ijtimoiy foydalilik omillarini faollashtiradi [3]; shart – SI tayyor javob beruvchi emas, fikrni chuqurlashtiruvchi vosita bo‘lishi.

7. Mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligi

Ajratilgan mexanizmlar alohida emas, o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Shaxsiylashtirilgan trayektoriya talabaning avtonomiya hissini, tezkor fikr-mulohaza va simulyatsiya kompetentlik hissini, raqamli hamjamiyat esa bog‘lanish ehtiyojini qondiradi; portfolio va refleksiya bu tajribalarni yaxlit kasbiy identiklikka birlashtiradi. Shu sababli amaliyotda mexanizmlardan birini ajratib qo‘llash emas, ularni bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida loyihalash maqsadga muvofiq.

8. Mexanizmlarni amalga oshirish modeli

Mexanizmlarni izchil joriy etish uchun besh bosqichli model taklif etiladi. Diagnostik bosqichda talabalarning kasbiy motivatsiyasi va raqamli hamda SI savodxonligi darajasi aniqlanadi. Loyihalash bosqichida vositalar TPACK mantig‘iga muvofiq pedagogik maqsadlarga bog‘lanadi [7]. Amaliy bosqichda talabalar shaxsiylashtirilgan topshiriqlar, simulyatsiyalar va loyihalar bilan ishlaydi. Refleksiv bosqichda SI-mentor va o‘qituvchi yordamida faoliyat tahlil qilinadi, portfolio yuritiladi. Baholash bosqichida ichki motivatsiya, o‘z-o‘zini samaradorlik hissi, kasbga sadoqat va raqamli kompetensiya ko‘rsatkichlari tajriba va nazorat guruhlarida solishtirilib, keyingi tsikl uchun tuzatishlar kiritiladi.

Modelning har bir bosqichida o‘qituvchi-mentor faol ishtirok etadi: u SI tavsiyalarini talabaning shaxsiy maqsadlari bilan uyg‘unlashtiradi, refleksiv suhbatlar o‘tkazadi va texnologiyadan foydalanishning axloqiy chegaralarini belgilaydi. Shu tariqa texnologiya pedagogik jarayonning markaziga emas, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita o‘rniga qo‘yiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda faqat pedagogik jihatdan asoslangan mexanizmlar orqali samara berishi mumkin. Ajratilgan oltita mexanizm

shaxsiylashtirish, real vaqtdagi fikr-mulohaza, simulyatsiya, gamifikatsiya va portfolio, SI-mentor bilan refleksiya hamda raqamli hamjamiyat – talabaning avtonomiya, kompetentlik va bog‘lanish ehtiyojlarini qondirishga va o‘z-o‘zini samaradorlik hissini mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Taklif etilgan besh bosqichli model bu mexanizmlarni izchil amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli va SI texnologiyalarining motivatsion salohiyati ularning texnik imkoniyatlari bilan emas, balki pedagogik jihatdan qanchalik oqilona tashkil etilishi bilan belgilanadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda texnologik va pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Tavsiya o‘rnida aytish mumkinki, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida SI vositalarini qo‘llash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish; professor-o‘qituvchilarning raqamli va SI kompetensiyasini oshirish; SI vositalarini o‘qituvchi o‘rnini bosuvchi emas, uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida joriy etish; taklif etilgan modelni tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirish. Kelgusi tadqiqotlar mexanizmlarning uzoq muddatli ta’sirini va turli mintaqalardagi talabalar guruhlarida farqlarini o‘rganishga qaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son Qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. Watt H.M.G., Richardson P.W. Motivational factors influencing teaching as a career choice: Development and validation of the FIT-Choice scale // Journal of Experimental Education. – 2007. – Vol. 75(3). – P. 167–202.
4. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16, Article 39.

5. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55(1). – P. 68–78.

INTEGRATIV TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING AXBOROT-TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Soliyeva Moxigul Xayridinovna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi metodisti
smxifr@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarida integrativ ta’lim muhitini yaratish orqali talabalarning axborot-texnologik (AT) kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi ilmiy asoslangan holda tahlil qilingan. Fanlararo aloqadorlik, raqamli vositalar va loyihaga asoslangan ta’limning uzluksizligi talabalarning kasbiy moslashuvchanligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ ta’lim, axborot-texnologik kompetensiya, fanlararo aloqadorlik, raqamli ta’lim muhiti, loyihaga asoslangan ta’lim, kasbiy moslashuvchanlik.

Аннотация: В статье научно обоснована и проанализирована методика формирования и развития информационно-технологических (ИТ) компетенций студентов путем создания интегративной образовательной среды в высших учебных заведениях. Раскрыта значимость междисциплинарных связей, цифровых инструментов и непрерывности проектного обучения в повышении профессиональной адаптивности студентов.

Ключевые слова: интегративное обучение, информационно-технологическая компетенция, междисциплинарные связи, цифровая образовательная среда, проектное обучение, профессиональная адаптивность.

Abstract: The article scientifically substantiates and analyzes the methodology of forming and developing students' information and technological (IT) competencies by creating an integrative educational environment in higher education institutions. The importance of interdisciplinary connections, digital tools, and the continuity of project-based learning in increasing students' professional adaptability is revealed.

Keywords: integrative education, information and technological competence, interdisciplinary connections, digital educational environment, project-based learning, professional adaptability.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida integrativ ta'lim muhiti va raqamli texnologiyalar uyg'unligi hal qilish katta ahamiyatga ega. Bugungi global

raqamlashtirish jarayonlari mutaxassislardan nafaqat o‘z sohasining tor doiradagi bilimlarini, balki axborot texnologiyalaridan kasbiy va ilmiy faoliyatda samarali foydalanish layoqatini — **axborot-texnologik kompetensiyani** talab etmoqda. An'anaviy ta'lim usullari ko‘pincha fanlarni bir-biridan ajratilgan holda o‘qitishga asoslanadi, bu esa olingan bilimlarni amaliyotda sintetik tarzda qo‘llashga to‘sqinlik qiladi. Bunga yechim sifatida fanlararo uzviylikni ta'minlovchi *integrativ ta'lim muhitini* yaratish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. [1], [2], [3]

Axborot-texnologik kompetensiya shunchaki kompyuter savodxonligi emas, balki axborotni qidirish, tahlil qilish, qayta ishlash va raqamli muhitda xavfsiz muloqot qilish, shuningdek, dasturiy vositalarni ilmiy-amaliy masalalarni yechishda qo‘llay olish qobiliyatidir. [2], [3]

Tadqiqotning asosiy metodologiyasi sifatida **tizimli-faoliyatli va integrativ yondashuvlar** tanlab olindi. Integrativ yondashuv axborot texnologiyalarini mutaxassislik fanlari (masalan, falsafa, sotsiologiya, aniq fanlar) bilan bevosita bog‘lashni nazarda tutadi. Bu jarayonda texnologiya maqsad emas, balki fan doirasidagi muammolarni hal qilishning intellektual vositasiga aylanadi. [7], [8]
Talabalarning axborot-texnologik kompetensiyalarini integrativ muhitda rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan kompleks pedagogik jarayondir. Mazkur metodika uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: [4], [8]

1. **Motivatsion-kognitiv bosqich:**

Bu bosqichda talabalarda raqamli texnologiyalarning kasbiy faoliyatdagi o‘rni haqida fundamental bilimlar shakllantiriladi. Fanlararo ma'ruzalar, onlayn bazalar (Scopus, Web of Science) bilan ishlash ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Talaba axborot bilan ishlashning nazariygiy asoslarini o‘zlashtiradi. [9], [10]

2. **Amaliy-operatsion bosqich (Integratsiya markazi):**

Ushbu bosqichda mutaxassislik fanlari doirasidagi amaliy mashg‘ulotlar AT vositalari yordamida olib boriladi. Masalan, ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalari uchun katta ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilishda *SPSS* yoki *Python* elementlaridan foydalanish, loyihalarni boshqarishda bulutli texnologiyalarni

(Trello, Asana) joriy etish. Ta'lim muhiti to‘liq raqamlashadi va fanlar chegarasi yo‘qoladi. [11], [12]

3. **Loyihaviy-refleksiv bosqich:**

Talabalar o‘zlashtirgan fanlararo bilimlari va texnologik ko‘nikmalarini birlashtirgan holda mustaqil ilmiy yoki amaliy loyiha (masalan, kurs ishi, startap, ilmiy maqola) tayyorlaydilar. Natijalar jamoaviy muhokama qilinib, talabada o‘z-o‘zini baholash va uzluksiz rivojlanish ehtiyoji shakllanadi. [5], [6]

Xulosa. Integrativ ta'lim muhiti sharoitida axborot-texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish talabalarni passiv axborot iste'molchisidan raqamli muhitning faol yaratuvchisiga aylantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fanlarni izolyatsiyada emas, balki AT bilan sinxron o'qitish orqali ta'lim samaradorligini kamida 35-40% ga oshirish mumkin. [5], [6]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
2.Vuorikari, R., Kluzer, S., Punie, Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.
4. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2023.
5. Prince, M. Does Active Learning Work? A Review of the Research. Journal of Engineering Education, 2004, Vol. 93, No. 3, pp. 223–231.
6. Bell, S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House, 2010, Vol. 83, No. 2, pp. 39–43.
7. Koehler, M. J., Mishra, P. What Is Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK)? Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 2009, Vol. 9, No. 1, pp. 60–70.
8. Biggs, J., Tang, C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.
9. Scopus. Abstract and citation database. Elsevier. https://www.scopus.com/
10. Web of Science. Clarivate research platform. https://www.webofscience.com/

11.IBM SPSS Statistics. Statistical analysis software. https://www.ibm.com/products/spss-statistics
12. Python Software Foundation. Python documentation. https://docs.python.org/3/
13. Trello. Project management platform. https://trello.com/
14. Asana. Work and project management platform. https://asana.com/

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING RAQAMLI VA TEXNOLOGIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI: MUAMMOLAR VA SAMARALI YECHIMLAR

Teshayeva Mohidil Botirovna

Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi,
fizika-astronomiya fani metodisti, mustaqil tadqiqotchi
teshayevamohidil6@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellekt (SI) vositalarining tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) ta’limida o‘quvchilarning raqamli va texnologik savodxonligini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy adabiyotlar, xalqaro konferensiya materiallari hamda PISA, TIMSS tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, SI moslashuvchan o‘qitish, avtomatlashtirilgan formativ baholash va virtual laboratoriyalar orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi, biroq o‘qituvchilarning tayyorgarligi, raqamli tengsizlik, akademik halollik va o‘quvchilarning vositaga haddan tashqari tayanishi kabi muammolar mavjud. Maqolada bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan to‘rt komponentli metodik model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli savodxonlik, tabiiy fanlar ta’limi, PISA, TIMSS, SI savodxonligi, TPACK.

Аннотация. В статье анализируется роль инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в развитии цифровой и технологической грамотности учащихся в естественнонаучном образовании (физика, химия, биология) на основе научной литературы, материалов международных конференций, а также исследований PISA и TIMSS. По результатам исследования, ИИ позволяет повысить эффективность обучения за счет адаптивного преподавания, автоматизированного формирующего оценивания и виртуальных лабораторий, однако существуют проблемы, такие как подготовка учителей, цифровое неравенство, академическая честность и чрезмерная зависимость учащихся от этого инструмента. В статье предлагается четырехкомпонентная методологическая модель, направленная на преодоление этих проблем.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая грамотность, естественнонаучное образование, PISA, TIMSS, цифровая грамотность, TPACK.

Abstract. This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) tools in developing students' digital and technological literacy within natural science education (physics, chemistry, and biology), drawing upon scientific literature, international conference proceedings, and data from PISA and TIMSS studies. The findings indicate that AI can enhance educational effectiveness through adaptive learning, automated formative assessment, and virtual laboratories; however, challenges such as teacher preparedness, the digital divide, academic integrity, and over-reliance on these tools by students persist. The article proposes a four-component methodological model designed to address these issues.

Keywords: artificial intelligence, digital literacy, natural science education, PISA, TIMSS, AI literacy, TPACK.

Kirish. XXI asr ta’limida raqamli savodxonlik o‘qish, yozish va hisoblash qatorida asosiy ko‘nikmalardan biriga aylandi. Raqamli kompetensiyani axborot va ma’lumotlar savodxonligi, muloqot, kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal qilish sohalariga ajratadi, SI bilan o‘zaro ta’sirni esa alohida e’tiborga loyiq yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi. Tabiiy fanlar bu jarayonda o‘ziga xos o‘rin tutadi: ular modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va eksperiment o‘tkazishni talab qiladi, ya’ni raqamli vositalar bilan tabiiy uyg‘unlikka ega.

So‘nggi yillarda generativ SI vositalarining keng tarqalishi ta’lim tizimlari oldiga ikki tomonlama vazifa qo‘ydi: bir tomondan, ularning imkoniyatlaridan foydalanish, ikkinchi tomondan, o‘quvchilarni SI bilan mas’uliyatli va tanqidiy ishlashga o‘rgatish. UNESCO tomonidan e’lon qilingan hujjatlar SI savodxonligini o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari qatoriga kiritishni tavsiya etadi. O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (PF-6079, 2020) va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga oid qarorlar (PQ-4996, 2021) ta’lim sohasida bu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Tadqiqotning maqsadi – tabiiy fanlarni o‘qitishda SI ning o‘quvchilar raqamli va texnologik savodxonligini oshirishdagi imkoniyatlari hamda to‘siqlarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ilmiy asoslashdir.

Nazariy asoslar va metodologiya

Maqola nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, xalqaro ilmiy nashrlar, siyosiy hujjatlar va konferensiya materiallarini qiyosiy tahlil qilish usuliga tayanadi. Nazariy asos sifatida TPACK modeli qo‘llanildi: unga ko‘ra samarali o‘qitish texnologik, pedagogik va fan mazmuni bilimlarining uyg‘unligini talab qiladi (Mishra & Koehler, 2006). Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur maqolada muallifning original empirik ma’lumotlari keltirilmaydi, xulosalar mavjud tadqiqotlar sintezi hisoblanadi.

PISA. OECD ning PISA 2022 tadqiqotida OECD mamlakatlari bo‘yicha o‘rtacha natija matematikada 472, o‘qishda 476 va tabiiy fanlarda 485 ballni tashkil etdi; matematikada taxminan 15 ball, o‘qishda taxminan 10 ball pasayish qayd etildi, tabiiy fanlar ko‘rsatkichi esa nisbatan barqaror qoldi (OECD, 2023). Raqamli texnologiyalarga oid ma’lumotlar muhim nuqtani ko‘rsatadi: maktabda o‘quv maqsadida qurilmalardan kuniga bir soatgacha foydalangan o‘quvchilar qurilmadan umuman foydalanmaganlarga nisbatan yuqoriroq natija ko‘rsatgan, boshqa o‘quvchilarning qurilmalari tufayli chalg‘ish esa past natijalar bilan bog‘liq bo‘lgan (OECD, 2023). Demak, texnologiyaning samarasi uning miqdoridan ko‘ra pedagogik maqsadga muvofiqligiga bog‘liq. PISA 2025 doirasida “Raqamli dunyoda o‘qish” (Learning in the Digital World) yangi innovatsion yo‘nalishi kiritilgani ham o‘quvchilarning texnologiya yordamida mustaqil o‘rganish qobiliyatini baholashga bo‘lgan e’tiborni oshirayotganini bildiradi (OECD, 2025).

TIMSS. IEA tomonidan o‘tkaziladigan TIMSS 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimini tahlil qiladi hamda “bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish” kognitiv sohalarini baholaydi. TIMSS 2019 dan boshlab test ko‘plab mamlakatlarda raqamli formatda (TIMSS) o‘tkazilib, unga tadqiqot va muammoli vaziyatlarni simulyatsiya qiluvchi interaktiv topshiriqlar kiritildi; 2023-yilgi sikl esa bu yo‘nalishni yanada kengaytirdi. Bu o‘zgarish tabiiy fanlardagi savodxonlik va raqamli ko‘nikmalar o‘rtasidagi chegara tobora xiralashayotganini ko‘rsatadi.

Yana shuni aytish mumkinki PISA va TIMSS tadqiqotlari texnologiyadan foydalanish va natija o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikni isbotlamaydi, ular faqat korrelyatsion tendensiyalarni ko‘rsatadi. Generativ SI ning ta’sirini o‘rganish esa hali boshlang‘ich bosqichda.

Sun’iy intellektning imkoniyatlari

Uchta yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, moslashuvchan o‘qitish va intellektual repetitorlar. Intellektual o‘qitish tizimlari bo‘yicha meta-tahlillar ularning an’anaviy guruhli o‘qitishga nisbatan ijobiy ta’sirini, ayrim hollarda esa individual repetitor natijalariga yaqin samarani ko‘rsatgan, SI ni o‘qituvchini almashtiruvchi emas, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ta’riflaydi.

Ikkinchidan, virtual va sun’iy intellektga asoslangan laboratoriyalar: Jong va hamkorlari (2013) Science jurnalidagi sharhida virtual va jismoniy laboratoriyalarni uyg‘unlashtirish eksperimental tushunchalarni shakllantirishda samarali ekanini ko‘rsatgan. Resurslari cheklangan maktablarda bu xavfli yoki qimmat tajribalarni xavfsiz modellashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, avtomatlashtirilgan formativ baholash. Mashinali o‘rganish yordamida o‘quvchilarning ilmiy modellari va yozma tushuntirishlarini baholash bo‘yicha ishlar o‘qituvchiga tezkor teskari aloqa berish imkoniyatini ko‘rsatadi. Umumiy sharhlar ham SI ning ta’limdagi qo‘llanilishi tez o‘sayotganini, biroq pedagogik nazariyaga tayanish yetarli emasligini qayd etadi.

Asosiy muammolar

Tahlil qilingan manbalar asosida to‘rtta asosiy muammo ajratildi. Birinchisi – o‘qituvchilarning TPACK va SI savodxonligi bo‘yicha tayyorgarligining yetarli emasligi. Ikkinchisi – raqamli tengsizlik: PISA ma’lumotlari qurilmalar, internet va oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasining natijalarga ta’sirini ko‘rsatadi. Uchinchisi – generativ modellarning noto‘g‘ri ma’lumot berishi, ma’lumotlar maxfiyligi va algoritmik tarafkashlik. To‘rtinchisi – o‘quvchilarning kognitiv mehnatni vositaga yuklab qo‘yish xavfi: tajriba asosidagi dastlabki tadqiqotda himoya mexanizmlarisiz

berilgan generativ SI yordami mashq paytida natijani oshirgani bilan, yordam olib tashlangach, o‘rganish samarasini pasaytirgani aniqlangan. Bu natijalar tabiiy fanlarga bevosita o‘tkazib bo‘lmasa-da, ogohlantiruvchi signal sifatida muhim.

TPACK – o‘qituvchining texnologiya, pedagogika va predmet mazmunini integratsiya qilish bo‘yicha kasbiy bilimlarini tavsiflovchi nazariy model. U L. Shulman (1986) ilgari surgan **pedagogik predmet bilimi (PCK)** g‘oyasiga texnologik komponentni qo‘shish orqali P. Mishra va M. Koehler (2006) tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlab TPCK deb atalgan, keyinchalik talaffuzi qulayligi uchun TPACK nomi qabul qilingan (Thompson & Mishra, 2007). Ba’zi manbalarda bu atama TPACT shaklida ham uchraydi.

Modelning tuzilishi

Komponent	Mazmuni
TK (texnologik bilim)	Raqamli vositalar va resurslarni tanlash hamda ishlatish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar
PK (pedagogik bilim)	O‘qitish metodlari, o‘quv jarayonini rejalashtirish, baholash va boshqarish
CK (predmet bilimi)	O‘qitilayotgan fanning mazmuni, tushunchalari va qonuniyatlari
PCK / TCK / TPK	Ikki sohaning kesishmasi: predmetni o‘qitish usullari; texnologiyaning predmetga ta’siri; texnologiyaning pedagogik imkoniyatlari
TPACK	Uchala sohaning uyg‘unlashuvi: aniq mavzuni mos metod va mos texnologiya orqali samarali o‘qitish

Barcha komponentlar **kontekst** (maktab muhiti, o‘quvchilar xususiyati, infratuzilma) ichida amal qiladi; shu sababli TPACK universal retsept emas, balki vaziyatga bog‘liq bilimdir (Koehler, Mishra & Cain, 2013).

Dars rejalashtirishda o‘qituvchi uch savolga javob beradi: *nimani o‘qitaman*, *qanday o‘qitaman*, *qaysi raqamli vosita buni eng yaxshi qo‘llab-quvvatlaydi*. Masalan, geometriya mavzusida dinamik geometriya dasturi (GeoGebra) orqali shakllarni o‘zgartirib, o‘quvchilarni xulosa chiqarishga yo‘naltirish TPACK ga mos yondashuvdir.


Samarali yechimlar: to‘rt komponentli model

Tahlil asosida quyidagi model taklif etiladi.

Muammo	Yechim	Kutilayotgan natija
O‘qituvchi tayyorgarligi	TPACK asosidagi malaka oshirish; SI bilan dars loyihalash seminarlari	O‘qituvchining texnologiyadan maqsadli foydalanishi
Raqamli tengsizlik	Oflayn imkoniyatli ochiq resurslar, maktab laboratoriyalari, qurilmalarni bir xil taqsimlash	Imkoniyatlar tengligi
Ishonchlilik va axloq	O‘quvchilarga SI javoblarini manbalar bilan tekshirishni o‘rgatish; ma’lumotlar xavfsizligi qoidalari	Tanqidiy baholash ko‘nikmasi
Vositaga haddan tashqari tayanish	SI ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob emas, yo‘naltiruvchi savollar beruvchi repetitor sifatida sozlash; SI ishtirokisiz baholash bosqichlari	Mustaqil fikrlash va chuqur o‘rganish

Amaliy tatbiqda dars “gipoteza – SI bilan tadqiqot – tekshiruv – tahlil” siklida quriladi. Masalan, biologiyada o‘quvchi ekologik tizim modelini SI yordamida simulyatsiya qiladi, natijani darslik va tajriba ma’lumotlari bilan solishtiradi, SI ning xatosini aniqlab, asoslangan xulosa yozadi. Shu tariqa bir vaqtda fan mazmuni, ma’lumot bilan ishlash va SI savodxonligi rivojlanadi. Baholashda TIMSS dagi kabi bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish darajalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Raqamli dunyo bu zamonaviy jamiyatning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan chuqur integratsiyalashgan muhitidir. Ushbu tushuncha tezkor axborot almashinuvi, real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyati, katta hajmdagi ma’lumotlarning keng tarqalishi hamda global internet va raqamli texnologiyalar yordamida dunyoning istalgan nuqtasiga ulanib, masofa va vaqt chegaralarini qisqartirish kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Global internetdan foydalanish bo‘yicha statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2014-yilda internet foydalanuvchilarining ulushi 35 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 67,9 foizga yetgan.



Global Internet foydalanuvchilari sonining o‘sishi (2014-2025)

Ya’ni, 2025-yilga kelib dunyo aholisining qariyb uchdan ikki qismi internetdan foydalanmoqda. Bu esa raqamli dunyoning jamiyat turmush tarziga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

Raqamli dunyo jahon iqtisodiyotini ham tubdan o‘zgartirmoqda. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotning 15,5 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Yaqin o‘n yillikda yaratiladigan yangi qiymatning 70 foizga yaqini raqamli platformalarga asoslangan biznes modellar hissasiga to‘g‘ri kelishi kutilmoqda. Bu esa raqamli texnologiyalar nafaqat aloqa va axborot sohasida, balki sanoat, xizmat ko‘rsatish, moliya, ta’lim kabi barcha sohalar rivojida hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma’lumotlar (Big Data) va “Ashyolar interneti” (IoT) kabi zamonaviy innovatsion yechimlar esa raqamli dunyoning yangi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bermoqda.

Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy sohada ko‘rsatgan global ta’siri, ayniqsa, ta’lim tizimida ham sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va

raqamli platformalar ta’lim oluvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan ta’lim olish, ta’lim beruvchilar bilan tezkor muloqot o‘rnatish, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish imkonini yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli dunyoda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan muhim jihat, raqamli tafovutni ham keltirib chiqarmoqda. Mazkur raqamli tafovut tufayli ba’zi aholi qatlamlari va mintaqalar ilg‘or texnologiyalardan yetarlicha foydalana olmasligi, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytirishi mumkin.

Raqamli dunyo chegaralarsiz axborot oqimi, har qanday joydan tezkor ulanish imkoniyati hamda texnologik innovatsiyalarning doimiy va shiddatli rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi “trend”lar bir lahzada butun dunyoga tarqalishi yoki yangi texnologiyalar qisqa muddat ichida ommalashishi bu jarayonning yaqqol namunasidir. Ta’lim sohasida ham raqamli dunyo ta’lim oluvchilarning axborotga bo‘lgan yondashuvini tubdan o‘zgartirib, ularning muloqot qilish, o‘rganish va bilim olish usullarini sezilarli darajada transformatsiya qilmoqda. Natijada, ta’lim tizimi yanada moslashuvchan bo‘lishga intilib, raqamli savodxonlik va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlanmoqda.

Xulosa. Sun’iy intellekt tabiiy fanlar ta’limida raqamli va texnologik savodxonlikni oshirishning kuchli vositasi bo‘la oladi, biroq uning samarasi texnologiyaning o‘zidan ko‘ra pedagogik loyihalashga bog‘liq. PISA 2022 ma’lumotlari qurilmalardan o‘lchovli va maqsadli foydalanish muhimligini, TIMSS va ICILS esa baholash hamda ko‘nikmalar raqamli muhitga o‘tayotganini va “raqamli avlod” tasavvuri yetarli emasligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan model o‘qituvchi malakasi, tenglik, tanqidiy tekshiruv va kognitiv mustaqillikni birgalikda ta’minlashga qaratilgan. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu modelni O‘zbekiston maktablarida tajriba-sinov orqali empirik tekshirish, shuningdek, generativ SI ning tabiiy fanlarda uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi; PQ-4996-son Qarori (2021). Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–4805- son qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 й., 07/20/4805/1174-сон.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020 yil 31 martdagi «Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish to‘g‘risida»gi 67-son buyruqi. https://t.me/ Xalq _talimi _xodimlari.
4. Ochilov F.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish metodikasi. Ped. fan. bo‘yicha falsafa dokt. dis. avtoreferati. Chirchiq.CHDPI, 2021. – 46 b.
5. Sangirova Z. B. Umumta’lim maktablarida STEAM yondashuv asosida o‘quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi. Ped. fan. bo‘yicha falsafa dokt. dis. avtoreferati. Chirchiq.CHDPI,2022. – 44 b.
6. Крохина И.Г. Педагогическая технология формирования естественно-научных компетенций младших школьников. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Ижевск, 2006. – 20 с.
7. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar 1. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent: Respublika ta’lim markazi. 2021. – 96 b.
8. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar
9. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent: Respublika ta’lim markazi. 2022. – 166 b

KELAJAK TA’LIMIDA INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MEXANIZMLARI

D.Xabibulloyev
Samarqand viloyati PMM o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada kelajak ta’limi sharoitida o‘quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishning sun’iy intellektga asoslangan mexanizmlari yoritilgan. Ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirishda adaptiv ta’lim texnologiyalari, intellektual tahlil, diagnostik baholash, tavsiyaviy tizimlar va individual qayta aloqa imkoniyatlarining o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kelajak ta’limi, sun’iy intellekt, individual ta’lim trayektoriyasi, adaptiv ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, intellektual tahlil, raqamli ta’lim muhiti, ta’lim analitikasi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье освещаются механизмы формирования индивидуальных образовательных траекторий на основе искусственного интеллекта с учетом индивидуальных особенностей, уровня знаний, интересов и образовательных потребностей учащихся в условиях образования будущего. Проанализирована роль адаптивных образовательных технологий, интеллектуального анализа, диагностической оценки, рекомендательных систем и возможностей индивидуальной обратной связи в личностно-ориентированном образовательном процессе.

Ключевые слова: образование будущего, искусственный интеллект, индивидуальная траектория обучения, адаптивное обучение, личностно-ориентированное обучение, интеллектуальный анализ, цифровая образовательная среда, образовательная аналитика.

ANNOTATION: This article outlines artificial intelligence-based mechanisms for shaping individual learning trajectories within the context of future education, taking into account students' individual characteristics, knowledge levels, interests, and educational needs. It analyzes the role of adaptive learning technologies, intelligent analysis, diagnostic assessment, recommendation systems, and individual feedback capabilities in personalizing the educational process.

Key words: future education, artificial intelligence, individual learning trajectory, adaptive learning, student-centered learning, intellectual analysis, digital learning environment, educational analytics.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog’liq. Bizning eng asosiy vazifamiz, yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’limning maqsadi, mazmuni va tashkil etilishiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. An’anaviy ta’lim modelida o‘quvchilar ko‘pincha bir xil o‘quv dasturi, umumiy topshiriqlar va yagona sur’at asosida bilim oladilar. Biroq o‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlari, qiziqishlari, fikrlash usullari, o‘zlashtirish sur’ati va mustaqil ishlash ko‘nikmalari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonini faqat umumiy talablar asosida tashkil etish har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga doimo ham imkon bermaydi.

Kelajak ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchining shaxsiy ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, uning rivojlanish imkoniyatlariga mos o‘quv mazmunini tanlash va ta’lim jarayonini muntazam takomillashtirib borishdan iborat. Bu jarayonda individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Individual ta’lim trayektoriyasi o‘quvchining maqsadlari, mavjud bilimlari, qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq belgilanadigan, bosqichma-bosqich o‘zgarib boruvchi ta’lim yo‘lini anglatadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ta’limiy ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘zlashtirishdagi qonuniyatlarni aniqlash, o‘quv materiallarini tavsiya etish va individual qayta aloqa berish imkoniyatlari bilan mazkur jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq sun’iy intellektni ta’limga joriy etishning o‘zi individual ta’limni avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Buning uchun pedagogik maqsadlar, ishonchli ma’lumotlar, mos baholash mezonlari, o‘qituvchi nazorati va axloqiy talablarni birlashtirgan yaxlit mexanizm zarur.

Individual ta’lim trayektoriyasining pedagogik mohiyati

Individual ta’lim trayektoriyasi o‘quvchining ta’limiy maqsadlariga erishish uchun tanlanadigan mazmun, metod, vosita, faoliyat turi va baholash usullarining o‘zaro bog‘langan tizimidir. Uning asosiy xususiyati ta’lim jarayonini o‘quvchining mavjud imkoniyatlariga moslashtirish bilan birga, uni yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga izchil yo‘naltirishdan iborat.

Individual trayektoriya shunchaki o‘quvchiga turli topshiriqlar berish yoki elektron platformada alohida kurs ochish bilan cheklanmaydi. U diagnostika, maqsad belgilash, ta’lim mazmunini tanlash, o‘zlashtirishni kuzatish, natijalarni tahlil qilish va ta’lim yo‘lini qayta ko‘rib chiqish jarayonlarini qamrab oladi.

Mazkur yondashuv quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

- **Individuallashtirish:** o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish.
- **Moslashuvchanlik:** o‘quv materiallari va topshiriqlar murakkabligini o‘zlashtirish natijalariga muvofiq o‘zgartirish.
- **Uzluksizlik:** ta’lim natijalarini muntazam kuzatish va rivojlanish bosqichlarini izchil rejalashtirish.
- **Ongli ishtirok:** o‘quvchining o‘z maqsadlarini belgilash, natijalarini tahlil qilish va keyingi qadamlarini tanlashdagi faol ishtirokini ta’minlash.
- **Pedagogik nazorat:** sun’iy intellekt tavsiyalarini o‘qituvchi tomonidan tahlil qilish va zarur hollarda o‘zgartirish.
- **Teng imkoniyatlar:** texnologiyadan foydalanishda o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va sharoitlarini hisobga olish.

Individual ta’lim trayektoriyasi o‘quvchining mavjud bilimlari bilan cheklanmaydi, balki uning kelgusidagi rivojlanishini ham rejalashtiradi. Bu jihat uni oddiy differensial topshiriqlar tizimidan farqlaydi.

Sun’iy intellektning individual ta’limni tashkil etishdagi imkoniyatlari

Sun’iy intellekt individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda bir-biri bilan bog‘langan bir nechta funksiyalarni bajarishi mumkin.

Birinchidan, ***diagnostik tahlil*** orqali o‘quvchining topshiriqlarni bajarish natijalari, xatolar xarakteri va o‘quv mavzulari bo‘yicha o‘zlashtirish holati tahlil qilinadi. Bu o‘qituvchiga qaysi mavzularda qo‘shimcha tushuntirish yoki mustahkamlash mashqlari zarurligini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, ***adaptiv ta’lim mazmunini tanlash*** mexanizmi o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga mos topshiriq va resurslarni tavsiya etadi. Masalan, muayyan

mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchiga murakkabroq muammoli topshiriq, mavzuni qisman o‘zlashtirgan o‘quvchiga esa qo‘shimcha misollar va tushuntirishlar taklif qilinishi mumkin.

Uchinchidan, ***tavsiyaviy mexanizm*** keyingi o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan mavzular, mashqlar yoki ta’lim resurslarini aniqlashga ko‘maklashadi. Bunday tavsiyalar o‘quv dasturining mantiqiy ketma-ketligi va pedagogik maqsadlar bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

To‘rtinchidan, ***individual qayta aloqa*** o‘quvchiga o‘z xatosining sababini tushunish, uni tuzatish va keyingi faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Bunda tizim faqat to‘g‘ri javobni ko‘rsatish bilan cheklanmasdan, muammoni yechish yo‘lini tushuntirishga yo‘naltirilishi kerak.

Beshinchidan, ***ta’lim analitikasi*** o‘qituvchiga sinf va alohida o‘quvchilar kesimida o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar darsni rejalashtirish, qo‘shimcha mashg‘ulotlarni tashkil etish va pedagogik qarorlarni asoslashda foydalanilishi mumkin.

Xulosa

Kelajak ta’limida individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish o‘quvchilarning shaxsiy ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish, o‘zlashtirish jarayonini moslashtirish va mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt ushbu jarayonda diagnostika, ta’limiy ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘quv resurslarini tavsiya etish, individual qayta aloqa va rivojlanish dinamikasini kuzatish kabi vazifalarni bajarishga yordam beradi. Umuman olganda, kelajak ta’limining istiqboli sun’iy intellektni shunchaki texnologik yangilik sifatida qo‘llash bilan emas, balki undan o‘quvchining rivojlanishi, pedagogning kasbiy faoliyati va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan mas’uliyatli vosita sifatida foydalanish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. AI Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2024. https://www.unesco.org/en/articles/ai-competency-framework-teachers

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy hujjatlari. *Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi*. – Toshkent, 2021.
3. Karimov, A., & Saidova, D. (2022). Sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalari.Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Ismoilov, O. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt. Toshkent:O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY IMMUNITETNING KIBERBULLINGDAN HIMOYALASHDAGI AHAMIYATI

O‘tapov Ziyo Bakirovich
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi,
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari”
*kafedrasi katta o‘qituvchisi*ю otapovziyo@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida milliy o‘zlik, milliy-ma’naviy qadriyatlar va ma’naviy immunitetning o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalashdagi ijtimoiy-psixologik ahamiyati yoritilgan. Raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zaro munosabatlarning jadallashuvi hamda virtual muhitda namoyon bo‘ladigan tajovuzkor xatti-harakatlarning o‘quvchilar ruhiy holati, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy moslashuviga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, milliy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, raqamli madaniyat, psixologik barqarorlik va mafkuraviy profilaktika imkoniyatlaridan foydalanish asosida kiberbullingning oldini olishning ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, milliy o‘zlik, milliy-ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy immunitet, kiberbulling, raqamli muhit, o‘quvchilar, ijtimoiy-psixologik himoya, raqamli madaniyat, psixologik profilaktika, axloqiy tarbiya, internet xavfsizligi.

Abstract: This article examines the socio-psychological significance of national identity, national and spiritual values, and spiritual immunity in protecting students from cyberbullying in the context of globalization. It analyzes the impact of the widespread use of digital communication technologies, the intensification of interactions on social media, and aggressive behavior in virtual environments on students’ psychological well-being, self-awareness, and social adaptation. Furthermore, the article substantiates the socio-psychological approaches to cyberbullying prevention through national upbringing, moral values, digital culture, psychological resilience, and ideological prevention.

Keywords: globalization, national identity, national and spiritual values, spiritual immunity, cyberbullying, digital environment, students, socio-psychological protection, digital culture, psychological prevention, moral education, internet safety.

Аннотация: В статье рассматривается социально-психологическое значение национальной идентичности, национально-духовных ценностей и духовного иммунитета в защите учащихся от кибербуллинга в условиях глобализации. Анализируется влияние широкого распространения средств цифровой коммуникации, интенсификации взаимодействия в социальных сетях и агрессивного поведения в виртуальной среде на психологическое состояние учащихся, процесс самосознания и социальную адаптацию. Кроме того, обосновываются социально-психологические направления профилактики кибербуллинга на основе национального воспитания, нравственных ценностей, цифровой культуры, психологической устойчивости и идеологической профилактики.

Ключевые слова: глобализация, национальная идентичность, национально-духовные ценности, духовный иммунитет, кибербуллинг, цифровая среда, учащиеся, социально-психологическая защита, цифровая культура, психологическая профилактика, нравственное воспитание, безопасность в интернете.

XXI asrda fan, texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlarning turmush tarzi, o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy hayotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Globallashuv jarayonlari natijasida dunyoning turli hududlarida yashovchi insonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi tezlashib, ta’lim, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning raqamli shakllari kengayib bormoqda. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa raqamli platformalar yosh avlodning bilim olishi, muloqot qilishi, dunyoqarashini shakllantirishi hamda o‘zligini namoyon etishida muhim vositaga aylandi. Shu bilan birga, globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari insoniyat oldiga yangi ijtimoiy-psixologik muammolarni ham qo‘ymoqda. Virtual makonda tajovuzkor muloqot, haqorat, masxara qilish, tahdid, shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz tarqatish va muayyan shaxsni ijtimoiy guruhdan chetlashtirish kabi holatlar o‘quvchilar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur hodisalar kiberbulling tushunchasi bilan izohlanadi.

Kiberbulling an’anaviy maktabdagi zo‘ravonlikdan ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Jumladan, u raqamli qurilmalar orqali turli joylarda sodir bo‘lishi, haqoratli materiallarning tez tarqalishi, ularning uzoq vaqt saqlanib qolishi va keng auditoriyaga yetib borishi bilan tavsiflanadi. Ayrim vaziyatlarda tajovuzkorning

anonimligi jabrlanuvchida xavfsizlik hissining pasayishiga, tahdidning davom etishi mumkinligi haqidagi xavotirning kuchayishiga olib keladi. Natijada o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, tengdoshlari bilan munosabatlari, ta’lim faoliyati va emotsional barqarorligi zarar ko‘rishi ehtimoli ortadi.

Bunday sharoitda o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalash masalasini faqat texnik xavfsizlik yoki internetdan foydalanishni cheklash bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish yetarli emas. Ushbu muammo shaxsning axloqiy qarashlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati, o‘zini anglashi, hissiyotlarini boshqarishi, ijtimoiy mas’uliyati va murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liq.

Shu nuqtayi nazardan, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy immunitetni shakllantirish masalalarini o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalashning ijtimoiy-psixologik asoslari bilan bog‘liq holda o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv va raqamli muhitning o‘quvchilar ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta’siri

Globallashuv insonlar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish, turli madaniyatlar bilan tanishish, bilim va tajriba almashish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy o‘quvchi internet orqali dunyoning turli mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ilmiy yangiliklar, ta’lim resurslari va madaniy jarayonlar haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega. Biroq raqamli axborot makonining kengligi undan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va muloqot madaniyatiga rioya qilish ko‘nikmalarini ham talab qiladi. O‘quvchilarning raqamli muhitdagi faoliyati faqat axborot qabul qilish bilan cheklanmaydi. Ular ijtimoiy tarmoqlarda o‘z fikrlarini bildiradi, surat va videolar joylashtiradi, guruhlarga qo‘shiladi hamda tengdoshlari bilan munosabatlar o‘rnatadi. Bunday munosabatlarda o‘zaro hurmat, hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, raqobat, kamsitish, haqorat va tajovuzkorlik ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, o‘smirlik davrida tengdoshlar tomonidan qabul qilinish, jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lish va ijobiy baholanish ehtiyoji muhim psixologik ahamiyatga ega. Shu sababli internetdagi haqoratli izohlar, masxara qiluvchi videolar, guruhdan chiqarib yuborish yoki shaxsga qarshi uyushtirilgan xabarlar o‘quvchi tomonidan oddiy kelishmovchilik sifatida emas, balki uning ijtimoiy mavqei va shaxsiy qadr-qimmatiga tahdid sifatida qabul qilinishi mumkin.

Kiberbullingning xavfli jihatlaridan biri shundaki, virtual tajovuz maktabdagi darslar yoki bevosita muloqot bilan chegaralanib qolmaydi. Jabrlanuvchi uyda, dam olish vaqtida yoki boshqa xavfsiz deb hisoblangan muhitda ham haqoratli xabarlar va tahdidlarga duch kelishi mumkin. Bu holat unda doimiy xavotir, ruhiy zo‘riqish, ijtimoiy chekinish va internetdan foydalanishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi ehtimolini oshiradi.Shuning uchun kiberbullingni globallashuv jarayonining muqarrar natijasi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Aksincha, u raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-psixologik xavflardan biridir. Uning namoyon bo‘lishi shaxsiy xususiyatlar, tengdoshlar guruhi me’yorlari, oilaviy munosabatlar, ta’lim muassasasidagi psixologik muhit va raqamli platformalardan foydalanish madaniyati kabi omillar bilan bog‘liq.

Demak, o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalashda raqamli muhitning imkoniyatlarini inkor etish emas, balki ushbu muhitda ongli, mas’uliyatli va xavfsiz faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Milliy o‘zlik va milliy-ma’naviy qadriyatlarning kiberbullingning oldini olishdagi o‘rni

Milliy o‘zlikni anglash shaxsning o‘z xalqi tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari va ma’naviy merosiga munosabatini ifodalovchi muhim ijtimoiy-psixologik jarayondir. Milliy o‘zlik shaxsning o‘ziga, jamiyatga va boshqa insonlarga munosabatida namoyon bo‘ladigan qarashlar, qadriyatlar va mas’uliyat hissi bilan ham bog‘liq. Milliy tarbiyaning muhim vazifalaridan biri yosh avlodda inson qadr-qimmatini hurmat qilish, kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat, o‘zaro yordam, mehr-oqibat,

bag‘rikenglik va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu qadriyatlar faqat an’anaviy ijtimoiy munosabatlarda emas, balki raqamli makonda ham o‘z ifodasini topishi lozim. Masalan, insonni uning tashqi ko‘rinishi, oilaviy sharoiti, ijtimoiy mavqei, fikri yoki shaxsiy xususiyatlari sababli kamsitish axloqiy me’yorlarga zid hisoblanadi. Bunday xatti-harakatlarning internet orqali amalga oshirilishi ham ularning mohiyatini o‘zgartirmaydi. Aksincha, raqamli muhitda haqoratli materiallarning keng tarqalishi jabrlanuvchiga yetkaziladigan zararni kuchaytirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, milliy-ma’naviy qadriyatlarni o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalash jarayoniga tatbiq etish quyidagi yo‘nalishlarda ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, **inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyilini shakllantirish**. O‘quvchilarga har bir insonning sha’ni, shaxsiy hayoti va fikri hurmat qilinishi kerakligi tushuntiriladi. Bu yondashuv haqorat, kamsitish va masxara qilishning axloqiy jihatdan nomaqbul ekanini anglashga yordam beradi.

Ikkinchidan, **mehr-oqibat va hamdardlikni rivojlantirish**. O‘quvchilar o‘z xatti-harakatlarining boshqa inson ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunishlari zarur. Internetda yozilgan birgina haqoratli izoh ham boshqa insonda kuchli ruhiy iztirob keltirib chiqarishi mumkinligini anglash tajovuzkor xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, **ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish**. Virtual muhitda amalga oshirilgan har qanday harakatning muayyan oqibatlari mavjud. Shu sababli o‘quvchilarda yuborilayotgan xabar, tarqatilayotgan surat yoki bildirilayotgan fikr uchun mas’uliyat hissini rivojlantirish muhimdir.

To‘rtinchidan, **bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni mustahkamlash**. Turli qarashlar, qiziqishlar va shaxsiy xususiyatlarga ega insonlar bilan muloqot qilishni o‘rganish o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi. O‘zidan farq qiladigan tengdoshini kamsitish o‘rniga, uning fikrini tinglash va nizolarni muloqot orqali hal qilish madaniyatini shakllantirish zarur.

Beshinchidan, **milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash**. Milliy o‘zlikni anglash boshqa xalqlar va madaniyatlarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishni anglatmaydi. Aksincha, o‘z madaniyatini qadrlash bilan birga, boshqa insonlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish ham yetuk shaxsning muhim xususiyatidir. Shunday qilib, milliy tarbiya va ma’naviy qadriyatlar kiberbullingning oldini olishda axloqiy mezonlarni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ularning samaradorligi mazkur qadriyatlarni faqat nazariy tushuntirish bilan emas, balki kundalik muloqot, ta’lim jarayoni va raqamli faoliyatda amalda qo‘llash bilan belgilanadi.

Ma’naviy immunitet va psixologik barqarorlikning o‘zaro bog‘liqligi

Ma’naviy immunitet tushunchasi shaxsning zararli g‘oyalar, salbiy ijtimoiy ta’sirlar va axloqiy me’yorlarga zid xatti-harakatlarga nisbatan ongli munosabat bildirish qobiliyatini tavsiflash uchun qo‘llaniladi. Kiberbulling muammosi nuqtayi nazaridan ushbu tushunchani o‘quvchining virtual muhitdagi tajovuzkor xatti-harakatlarni tanib olish, ularga qo‘shilmaslik, o‘z qadr-qimmatini himoya qilish va zarur yordamni izlashga tayyorligi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish mumkin.

Bunda ma’naviy immunitetni o‘quvchining har qanday salbiy ta’sirga mutlaqo berilmasligi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Chunki kiberbullingga duch kelgan har qanday bola, uning tarbiyasi yoki psixologik xususiyatlaridan qat’i nazar, ruhiy ta’sirlanishi mumkin. Himoya mexanizmlarining vazifasi o‘quvchidan barcha qiyinchiliklarga mustaqil ravishda bardosh berishni talab qilish emas, balki vaziyatni to‘g‘ri baholash, o‘z xavfsizligini ta’minlash va yordam olish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Kiberbullingga qarshi psixologik barqarorlik bir necha tarkibiy qism orqali namoyon bo‘ladi. Birinchi navbatda, o‘quvchining o‘z qadr-qimmatini anglashi va o‘ziga nisbatan ijobiy munosabati muhimdir. Internetda bildirilgan haqoratli fikrlar o‘quvchining shaxsiy qiymatini belgilamasligini tushunish salbiy xabarlarning ruhiy ta’sirini yengishda yordam berishi mumkin.

Ikkinchidan, emotsional o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Tajovuzkor xabarga keskin javob qaytarish, haqoratni haqorat bilan qaytarish yoki mojaroning yanada kuchayishiga olib keladigan harakatlar vaziyatni murakkablashtirishi mumkin. Shu sababli o‘quvchilarda hissiy zo‘riqishni anglash, vaziyatdan vaqtincha uzoqlashish va oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik zarur. O‘quvchi internetdagi har qanday xabarni ishonchli deb qabul qilmasligi, haqoratli kontentni boshqalarga tarqatish oqibatlarini tushunishi, shaxsiy ma’lumotlarini himoyalashi va xavfli vaziyatlarda tegishli platformalarning shikoyat qilish vositalaridan foydalanishni bilishi kerak.

To‘rtinchidan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi himoyaning muhim tarkibiy qismidir. Ota-ona, sinf rahbari, maktab psixologi va ishonchli tengdoshlar bilan ochiq muloqot qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan o‘quvchi muammoni yolg‘iz hal qilishga majbur bo‘lmaydi. Kiberbulling holatlarida jabrlanuvchini ayblamaslik, uning kechinmalarini jiddiy qabul qilish va amaliy yordam ko‘rsatish alohida ahamiyatga ega. Demak, ma’naviy immunitet va psixologik barqarorlik o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ularni aynan bir tushuncha sifatida qarash mumkin emas. Ma’naviy immunitet ko‘proq qadriyatlar, e’tiqodlar va axloqiy mezonlar bilan bog‘liq bo‘lsa, psixologik barqarorlik hissiyotlarni boshqarish, stressga moslashish va qiyin vaziyatlarda samarali harakat qilish imkoniyatlarini qamrab oladi. Ularning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchilarning raqamli xavfsizligini ta’minlashga ko‘maklashadi.

Kiberbullingning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari va uning oqibatlari

Kiberbullingni faqat tajovuzkor shaxsning xatti-harakati bilan izohlash uning yuzaga kelish mexanizmlarini to‘liq ochib bermaydi. Ushbu hodisa tajovuzkor, jabrlanuvchi, kuzatuvchilar va virtual guruhdagi munosabatlarning o‘zaro ta’siri orqali shakllanishi mumkin. Tajovuzkor xatti-harakatlarda boshqalardan ustunligini ko‘rsatishga intilish, tengdoshlar tomonidan e’tirof etilish ehtiyoji, hissiyotlarni

boshqarishdagi qiyinchiliklar, nizolarni zo‘ravonliksiz hal qilish ko‘nikmalarining yetarli emasligi kabi omillar ishtirok etishi mumkin. Biroq mazkur omillar har bir holatda bir xil namoyon bo‘lmaydi va kiberbullingning mavjudligini faqat bitta psixologik xususiyat bilan izohlash mumkin emas. Virtual guruhdagi kuzatuvchilarning munosabati ham muhimdir. Agar o‘quvchilar haqoratli xabarlarga kulgi belgilarini qo‘ysa, ularni qayta tarqatsa yoki tajovuzkorni qo‘llab-quvvatlasa, jabrlanuvchiga yetkazilayotgan ruhiy zarar kuchayishi mumkin. Aksincha, bunday harakatlarni ma’qullamaslik, haqoratli materiallarni tarqatmaslik va jabrlanuvchiga yordam berish tajovuzkor xatti-harakatlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini kamaytiradi.

Shu sababli o‘quvchilarga kiberbullingga duch kelganda befarq kuzatuvchi bo‘lib qolmaslik, biroq o‘z xavfsizligini ham xavf ostiga qo‘ymaslik tamoyilini tushuntirish zarur. Ular zararli materialni qayta tarqatmaslik, platformada shikoyat qilish, dalillarni xavfsiz saqlash va ishonchli kattalarga murojaat qilish kabi amaliy harakatlarni bilishlari kerak. Kiberbullingning jabrlanuvchiga ta’siri turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim o‘quvchilarda xavotir, uyqu buzilishi, o‘ziga ishonchning pasayishi, maktabga borishni istamaslik yoki tengdoshlar bilan muloqotdan chekinish kuzatilishi ehtimoli mavjud. Boshqa holatlarda esa o‘quvchi vaziyatni yengib o‘tishi uchun qo‘shimcha ijtimoiy yordamga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun har bir holatni individual o‘rganish, bolaning ruhiy holatini baholash va zarur bo‘lsa, malakali mutaxassis yordamini tashkil etish talab qilinadi. Bu jarayonda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat va o‘zaro yordam muhim resurs hisoblanadi. Biroq kiberbullingga uchragan o‘quvchini faqat ma’naviy tarbiyasi yetarli bo‘lmagani yoki psixologik jihatdan zaifligi sababli ayblash mutlaqo noto‘g‘ri. Himoya tizimi tajovuzkor xatti-harakatni to‘xtatish, jabrlanuvchini qo‘llab-quvvatlash va xavfsiz ta’lim muhitini yaratishga yo‘naltirilishi lozim.

O‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalashda milliy tarbiya va raqamli madaniyat uyg‘unligi

Milliy tarbiya o‘quvchilarda axloqiy mezonlar, ijtimoiy mas’uliyat va o‘zaro hurmatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli madaniyat esa ushbu mezonlarni internet va boshqa elektron kommunikatsiya vositalaridan foydalanish jarayonida qo‘llash imkonini beradi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida milliy tarbiya va raqamli savodxonlikni bir-biridan ajratmasdan, o‘zaro uyg‘unlikda rivojlantirish zarur.

Birinchi yo‘nalish — oilada raqamli tarbiya va ochiq muloqotni shakllantirishdir. Ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanishini faqat nazorat qilish bilan cheklanmasdan, ular bilan virtual muhitda uchraydigan muammolar haqida muntazam suhbatlashishlari kerak. Bola haqorat yoki tahdidga duch kelganida jazolanishdan yoki internetdan butunlay mahrum qilinishdan qo‘rqmasdan, kattalarga murojaat qila olishi muhimdir.

Ikkinchi yo‘nalish — ta’lim muassasasida xavfsiz va hurmatga asoslangan ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish. Maktabda kiberbullingning oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlari, sinf soatlari, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda raqamli muloqot qoidalari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, internetdagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish va kiberbulling holatlari haqida xabar berish tartibi tushuntirilishi kerak.

Uchinchi yo‘nalish — maktab psixologining profilaktik va korreksion faoliyatini takomillashtirish. Psixolog o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishi, kiberbulling xavfi mavjud bo‘lgan vaziyatlarni aniqlashi, emotsional o‘zini o‘zi boshqarish va nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tashkil etishi mumkin. Kiberbulling holati aniqlanganda esa jabrlanuvchi bilan individual ishlash, tajovuzkor xatti-harakatni sodir etgan o‘quvchi bilan tegishli psixologik ish olib borish va oilalar bilan hamkorlik qilish zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish — o‘quvchilarning huquqiy va axborot savodxonligini oshirish. O‘quvchilar shaxsiy ma’lumotlar, tasvirlar va yozishmalarni ruxsatsiz tarqatishning oqibatlarini, internetdagi xatti-harakatlar uchun javobgarlik

masalalarini hamda o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini bilishlari lozim. Bunday bilimlar o‘quvchilarning xavfli vaziyatlarni erta aniqlashi va to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Beshinchi yo‘nalish — tengdoshlar o‘rtasida o‘zaro yordam va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish. O‘quvchilarni sinfdoshlarining muammolariga befarq bo‘lmaslikka, haqoratli materiallarni tarqatmaslikka va xavfli vaziyatlarda ishonchli kattalarga murojaat qilishga o‘rgatish lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarni faqat individual himoya ko‘nikmalariga ega qilish bilan cheklanmay, butun sinf jamoasida xavfsiz muloqot me’yorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oltinchi yo‘nalish — raqamli muhitda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. O‘quvchilar internetda tarqaladigan axborotning maqsadi, ishonchliligi va ehtimoliy oqibatlarini tahlil qilishga o‘rganishlari kerak. Ayniqsa, provokatsion xabarlar, soxta profillar, manipulyativ materiallar va boshqalarning obro‘siga zarar yetkazuvchi kontentga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish muhimdir.

Mazkur yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilganda milliy-ma’naviy tarbiya, raqamli madaniyat va psixologik himoya o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalashning yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kiberbullingning oldini olishda mafkuraviy profilaktika va ijtimoiy hamkorlik

Mafkuraviy profilaktika, keng ma’noda, yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatni qamrab oladi. Kiberbulling muammosi bilan bog‘liq holda uning mazmuni o‘quvchilarda inson huquqlariga hurmat, zo‘ravonlikni rad etish, axborotni tanqidiy baholash va raqamli muhitda mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi. Bunda profilaktika faqat salbiy xatti-harakatlarni taqiqlash yoki jazolashga asoslanmasligi kerak. O‘quvchilarga kiberbullingning mohiyatini, uning psixologik oqibatlarini va bunday vaziyatlarda qanday harakat qilish lozimligini tushuntirish ko‘proq amaliy ahamiyatga ega. Turli vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar, guruhiy muhokamalar va muammoli topshiriqlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish mumkin.

Kiberbullingning oldini olishda oila, maktab, psixologik xizmat va zarur hollarda tegishli mutaxassislarning hamkorligi muhimdir. Har bir tomonning vazifalari aniq belgilanishi, kiberbulling holatlari haqida xabar berish imkoniyati mavjud bo‘lishi va murojaat qilgan o‘quvchining shaxsiy hayoti himoya qilinishi lozim. Oila bolaning hissiy holatini kuzatish, uning muammolarini tinglash va zarur yordamni tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim muassasasi esa xavfsiz muhit yaratish, kiberbullingga qarshi aniq qoidalarni joriy etish va murojaatlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun mas’uldir. Psixolog o‘quvchining ruhiy holatini baholash, psixologik yordam ko‘rsatish va profilaktik mashg‘ulotlarni tashkil etishda ishtirok etadi.

Shuningdek, kiberbullingning oldini olish dasturlari natijadorligini muntazam baholab borish kerak. Bunda o‘quvchilarning raqamli xavfsizlik bo‘yicha bilimlari, yordam so‘rashga tayyorligi, sinfdagi o‘zaro hurmat darajasi va kiberbulling holatlariga munosabati kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Baholash natijalari asosida profilaktik tadbirlarning mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos yondashuvlarni tanlash va oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, kiberbullingga qarshi samarali kurashish faqat milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish yoki internetdan foydalanishni nazorat qilish bilan cheklanmaydi. U axloqiy tarbiya, huquqiy savodxonlik, raqamli xavfsizlik, psixologik yordam va ta’lim muassasasidagi sog‘lom munosabatlarning birgalikdagi faoliyatini talab qiladi.

XULOSA. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari o‘quvchilar uchun yangi ta’limiy, kommunikativ va ijodiy imkoniyatlarni yaratish bilan birga, virtual muhitda kiberbulling kabi ijtimoiy-psixologik xavflarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalash jarayoni internetdan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni singdirish, psixologik barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Milliy o‘zlikni anglash va milliy-ma’naviy qadriyatlarga hurmat o‘quvchilarda inson qadr-qimmatini e’zozlash, mehr-oqibat, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatlarni raqamli muloqot jarayonida ham namoyon etish, o‘quvchilarda ma’naviy immunitet, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlikni rivojlantirish kiberbullingning oldini olishga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, tengdoshlar bilan munosabatlari, oilaviy tarbiya va ta’lim muassasasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni hisobga olish muhimdir.

O‘quvchilarga internetda xavfsiz muloqot qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, haqoratli materiallarni tarqatmaslik, nizolarni zo‘ravonliksiz hal etish va xavfli vaziyatlarda o‘z vaqtida yordam so‘rash ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasasi, maktab psixologi va tegishli mutaxassislarning hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Kiberbulling holatlari aniqlanganda jabrlanuvchining xavfsizligini ta’minlash, uning ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlash va tajovuzkor xatti-harakatlarning takrorlanishining oldini olishga qaratilgan choralarni amalga oshirish lozim.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida milliy o‘zlik va ma’naviy immunitetni rivojlantirishni psixologik, pedagogik va huquqiy himoya mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarni kiberbullingdan himoyalashning muhim shartlaridan biridir. Mazkur yondashuv yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlash, raqamli makonda mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish hamda xavfsiz va insonparvar muloqot muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. 3-tom. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
3. Abdulatipov R.G. *Chelovek. Natsiya. Obshchestvo.* — Moskva, 1991.

4. Beruniy Abu Rayhon. *Tanlangan asarlar.* 1-tom. — Toshkent, 1968.
5. Kowalski R.M., Limber S.P., Agatston P.W. *Cyber Bullying: Bullying in the Digital Age.* 2nd ed. — Wiley-Blackwell, 2012.
6. Hinduja S., Patchin J.W. *Bullying Beyond the Schoolyard: Preventing and Responding to Cyberbullying.* — Corwin Press, 2009.
7. UNESCO. *Behind the Numbers: Ending School Violence and Bullying.* — Paris: UNESCO, 2019.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI TA'LIM SOHASIGA JORIY ETISHDA MUAMMOLAR VA TO‘SIQLAR

Shrazov Adilbay Shamshetdinovich
Qoraqalpog‘iston respublikasi pedagogic mahorat markazi, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, ularni samarali qo‘llashning istiqbolli yo‘nalishlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, innovatsion metodlar, adaptiv o'qitish, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается цифровой процесс обучения современные тенденции использования технологий и средств искусственного интеллекта проанализировано. Внедрение инновационных технологий в сфере образования, ихпреимущества и недостатки, а также перспективные направления их эффективного применения;раскрыто.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, дистанционное обучение, инновационные методы, адаптивное обучение, виртуальные лаборатории, симуляторы.

Abstract. This article analyzes modern trends in the use of digital technologies and artificial intelligence tools in the teaching process. The introduction of innovative technologies in the field of education, their advantages and disadvantages, as well as promising directions for their effective application are revealed.

Keywords: digital technologies, artificial intelligence, distance learning, innovative methods, adaptive learning, virtual laboratories, simulators.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalarida faol qo‘llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat ko‘rsatish sohasi hamda ta’lim jarayonida jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan

barcha fuqarolar, jumladan, yosh bolalardan tortib pensiya oluvchilarning ham raqamli ongida texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin, degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan, bank sektorida, robotlar va ishchilar o‘rtasidagi raqobat masalasi ham ko‘tarilmoqda.

Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so‘zsiz foydasi bilan odob-axloq, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish robotlar va tashkilotlar xodimlari o‘rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog‘liq masalalar tobora ko‘proq e’tiborga olinmoqda.

Shu munosabat bilan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot" texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga taraqqiyotning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi. Chunki bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda, albatta raqamli iqtisodiyotni shakllantirish zarur infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab qilishini juda yaxshi bilamiz. Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishilmasa, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi"[1].

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni rivojlantirish keng joriy etib, samaradorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar hayotini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot - bu faqat faoliyat turi emas, balki tadbirkorlik, sanoat obyektlari, sifatli ta’lim va xizmatlar degani. "Raqamli" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng esa to‘g‘ri boshqaruv bo‘yicha qaror ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda nafaqat ilmiy jamoatchilik, siyosatchilar, iqtisodchilar, raqamli texnologiyalar mutaxassislari, balki butun jamiyat raqamli texnologiyalar rivojlanishini diqqat bilan kuzatib bormoqda[2].

Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki ajablanarli emas, chunki bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni oqilona tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni "raqamlashtirish" masalalari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham zarur hisoblanadi [3].

Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyatini hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning tadqiqotlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Olimlarning tadqiqotlari, shu jumladan, N.S. Kramarenko, A.YU. Kvashin, S.D. Karakozova, A.Yu. Uvarova, O.B. Akimova resurslarning cheklanganligi va ta’lim xodimlarining raqamli savodxonligi yetarli emasligi sababli raqamli transformatsiya ta’lim tashkilotlariga kech va notekis ta’sir ko‘rsatishini hamda so‘nggi o‘n yilliklarda amalga oshirilgan ta’lim islohotlari juda murakkab bo‘lganligini ko‘rsatdi[4].Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasiga bir qator yangi imkoniyatlarni olib kirdi. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda quyidagi raqamli vositalar keng qo'llanilmoqda:

Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar: Aniq va tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, matematika) o'qitilishida laboratoriya tajribalari muhim ahamiyatga ega. Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar o'quvchilarga tajribalarni xavfsiz, qulay va samarali o'tkazish imkoniyatini beradi. Bu vositalar ayniqsa quyidagi hollarda foydali: - Qimmat va murakkab asbob-uskunalarni talab qiladigan tajribalarni bajarishda; - Xavfli moddalar bilan ishlaganda xavfsizlikni ta'minlashda; - Real sharoitda kuzatish qiyin bo'lgan jarayonlarni vizuallashtirish va modellashtirish imkoniyatini yaratishda; Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual laboratoriyalardan foydalangan o'quvchilarda fan konsepsiyalarini anglash va tushunish darajasi 23-47% ga ortishi kuzatilgan[5]. Bu natijalar virtual laboratoriyalarning samaradorligini tasdiqlaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayoni ishtirokchilari uchun

raqamli texnologiyalarning mavjudligi o‘quv ishlari samaradorligini oshirish uchun zarur, ammo yetarli shart emas. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bulutli hisoblash, jamoaviy yuqori tezlikdagi Internetning tarqalishi, aqlli raqamli vositalarni keng joriy etish, sun’iy intellekt usullaridan foydalanish va virtual texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bu ish maktab o‘quvchilariga dasturlashni o‘rgatishdan boshlandi va shu vaqt mobaynida ta’limni axborotlashtirish ta’lim siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt aniq va tabiiy fanlarni o'qitish jarayoniga fundamental o'zgarishlar olib kirmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarni samarali o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Virtual laboratoriyalar, adaptiv o'qitish tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi tutorlik tizimlari va ta'lim analitikasi kabi vositalar o'qituvchilar va o'quvchilarga keng imkoniyatlar taqdim etmoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va to'siqlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Raqamli tafovut, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari yetishmasligi, texnik infratuzilma muammolari, sun'iy intellekt tizimlarining shaffofligi va ma'lumotlar xavfsizligi kabi masalalar hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni ta'lim sohasiga joriy etish jarayonida bir qator muammolar va to'siqlar mavjud. Ularni quyidagi kategoriyalarga bo'lish mumkin:

1. Texnik muammolar - Raqamli tafovut: Barcha o'quvchilar ham yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy qurilmalarga ega emas. Bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar va qishloq joylarida katta muammo hisoblanadi. O'zbekistonning ayrim hududlarida ham bu muammo mavjud (Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari 78% ni tashkil etgan). -Texnik infratuzilma yetishmasligi: Ko'p ta'lim muassasalari zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan serverlar, tarmoq jihozlari va texnik vositalarga ega emas.

2. Pedagogik muammolar - O'qituvchilarning raqamli savodxonligi: Ko'p o'qituvchilar yangi texnologiyalardan samarali foydalanish uchun zarur ko'nikmalarga ega emas. O'zbekistonda o'tkazilgan so'nggi tadqiqotlarga ko'ra, o'qituvchilarning atigi 45% i o'z fanlarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladi[6]. - Pedagogik metodlarning transformatsiyasi: Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni samarali qo'llash uchun an'anaviy o'qitish metodlarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

3. Sun'iy intellekt bilan bog'liq muammolar - Ma'lumotlar sifati va xolisligi: Sun'iy intellekt tizimlari ularni o'qitish uchun ishlatilgan ma'lumotlardagi xatoliklar va noxolisliklarni takrorlashi mumkin. - Xavfsizlik va maxfiylik muammolari: O'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash bilan bog'liq xavfsizlik va maxfiylik masalalari paydo bo'ladi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar - Moliyaviy to'siqlar: Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi. - Ta'lim tizimiga integratsiya muammolari: Mavjud ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni integratsiya qilish murakkab jarayon bo'lib, ko'plab institutsional o'zgarishlarni talab qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari katta. Davlat darajasida qabul qilinayotgan dasturlar va strategiyalar, ta'lim muassasalarining bu sohadagi tashabbuslari, o'qituvchilarning o'z kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bo'lgan intilishi – bularning barchasi ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv texnik infratuzilmani rivojlantirish, o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish, pedagogik metodlarni transformatsiya qilish, sun'iy intellekt tizimlarini takomillashtirish va siyosiy-huquqiy bazani mustahkamlashni o'z ichiga olishi kerak. Faqat shundagina biz raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi to'liq potensialidan foydalana olamiz.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimi faoliyatini shunday o‘zgartirish kerakki, ta’lim muassasalari bitiruvchilarining umumiy savodxonligi va nostandart masalalarni

yechish qobiliyati zamonaviy aqlli kompyuter tizimlaridan yuqori bo‘lishi kerak.Professor-o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini qo‘llab-quvvatlash uchun texnologiyadan qanday to‘g‘ri foydalanishni, ushbu texnologik vositalar va qurilmalar bilan o‘quv maqsadlarida qanday munosabatda bo‘lishni ko‘rsatishlari kerak. Shundagina bunday bitiruvchilar soni ko‘payadi va yangi raqamli bo‘linish kamayadi. Bu esa iqtisodiyotning real sektori korxona/tashkilotlari uchun kerak bo‘ladigan yetuk mutaxassislar tayyorlab berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son Farmoni.

3.Sharonin Yu.V. Sifrovie texnologii v visshem i professionalnom obrazovanii: ot lichnostno oriyentirovannoy Smart-didaktiki k blokcheyn-u v selevoy podgotovke spetsialistov // Sovremennie problemi nauki i obrazovaniya. – 2019.

4. Kozlova N. Sh. Sifrovie texnologii v obrazovanii // Vestnik Maykopskogo gosudarstvennogo texnologicheskogo universiteta. 2019. Vip. 1/40.

5 Johnson, K., et al. (2023) Professional Networking and Opportunities in the Digital Age.

6.Yogesh Shinde scoop.market.us (Cloud Computing in Education Market Soar to USD 316 Bn by 2034) fev 21, 2025

4-SHO’BA: IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNI BAHOLASH

РАЗДЕЛ 4: РАЗВИТИЕ И ОЦЕНКА ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

SECTION 4: DEVELOPING AND ASSESSING FUNCTIONAL LITERACY THROUGH THE FORMATION OF SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCIES

ИНТЕГРАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ 4К В МЕТОДИЧЕСКУЮ ПРАКТИКУ УЧИТЕЛЯ РКИ И НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

С. П. Анзорова
Эксперт проекта «Класс! (Зур!)»
Ректор ЧОУ ВО «Институт специальной педагогики и психологии»
к. п. н., доцентб специалист по учебно-методической работе
отдела сопровождения дополнительных программ РГПУ им. А. И. Герцена
Российская Федерация, Санкт-Петербург
М. З. Худойбердиева
Старший преподаватель методики преподавании языков
Центра педагогического мастерства Андижанской области
Республика Узбекистан,Андижан
С. К. Акбарова
Старший преподаватель методики преподавании языков
Центра педагогического мастерства Андижанской области
Республика Узбекистан,Андижан

Аннотация. В статье рассматривается интеграция компетенций 4К (критическое мышление, креативность, коммуникация, кооперация) в методическую практику педагога, совмещающего преподавание русского языка как иностранного (РКИ) и работу в начальных классах. Авторы раскрывают теоретические основания подхода, предлагает систему методических приёмов с учётом возрастных и языковых особенностей учащихся, приводят примеры практической реализации в формате мини-кейсов, а также описывают инструменты формирующего оценивания. Особое внимание уделено преодолению типичных барьеров и соотнесению 4К с требованиями образовательных стандартов. Результаты работы могут быть использованы в методической деятельности учителей, при разработке программ повышения квалификации и проектировании учебных курсов.

Ключевые слова: 4К, русский язык как иностранный, начальная школа, метапредметные навыки, функциональная грамотность, формирующее оценивание.

Annotatasiya. Ushbu maqolada 4C kompetensiyalarining (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik) rus tilini chet tili sifatida (RFL) boshlang'ich maktab o'qitish bilan birlashtirgan o'qituvchining metodologik amaliyotiga integratsiyalashuvi o'rganiladi. Mualliflar yondashuvning nazariy asoslarini bayon qiladilar, o'quvchilarning yoshi va til ehtiyojlariga moslashtirilgan metodologik texnikalar tizimini taklif qiladilar, mini-keyslar ko'rinishida amaliy qo'llash misollarini keltiradilar va shakllantiruvchi baholash vositalarini tavsiflaydilar.

Umumiy to'siqlarni yengib o'tishga va 4C ni ta'lim standartlariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqot natijalaridan o'qituvchilarni tayyorlashda, kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda va o'quv dasturlarini loyihalashda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: 4C, rus tili chet tili sifatida, boshlang'ich maktab, meta-fan ko'nikmalari, funktsional savodxonlik, shakllantiruvchi baholash.

Abstract. This article examines the integration of the "4C" competencies—critical thinking, creativity, communication, and collaboration—into the methodological practice of teachers instructing Russian as a Foreign Language (RFL) at the primary school level. The authors outline the theoretical foundations of this approach, propose a system of methodological techniques tailored to the age and linguistic needs of the students, provide practical examples in the form of mini-case studies, and describe tools for formative assessment. Particular attention is given to overcoming common obstacles and aligning the 4C competencies with educational standards. The findings of this research can be utilized in teacher training, the development of professional growth programs, and the design of curricula.

Keywords: 4C, Russian as a Foreign Language (RFL), primary school, meta-disciplinary skills, functional literacy, formative assessment.

Введение. Современное образование ориентировано на формирование у обучающихся не только предметных знаний, но и универсальных компетенций, востребованных в быстро меняющемся мире. Концепция 4К — критическое мышление, креативность, коммуникация и кооперация — стала одной из ключевых рамок для описания этих навыков. Для учителя, работающего одновременно в сфере РКИ и в начальной школе, интеграция 4К особенно актуальна: здесь пересекаются задачи языкового развития, социализации и формирования учебной самостоятельности в поликультурной среде.

Актуальность темы обусловлена несколькими факторами. Во-первых, образовательные стандарты (в том числе ФГОС НОО) делают акцент на метапредметных результатах и универсальных учебных действиях (УУД), которые по своей сути коррелируют с компонентами 4К. Во-вторых, в практике РКИ язык выступает не только целью обучения, но и инструментом коммуникации и познания, что усиливает значимость коммуникативных и кооперативных умений. В-третьих, возрастные особенности младших школьников (преобладание наглядно-образного мышления, высокая мотивация к игровой и проектной деятельности) создают естественную основу для развития критического мышления и креативности через доступные формы работы.

Цель статьи — предложить научно обоснованную и практически применимую систему интеграции 4К в методическую практику учителя РКИ и начальных классов. Задачи включают: 1) раскрытие содержания компонентов 4К применительно к целевой аудитории; 2) разработку комплекса методических приёмов; 3) описание инструментов оценивания результатов; 4) анализ типичных барьеров и способов их преодоления.

Методологическую основу исследования составили анализ научной и методической литературы, обобщение педагогического опыта, а также элементы педагогического проектирования.

Теоретические основания концепции 4К и её связь с образовательными стандартами.

Концепция 4К изначально была сформулирована в рамках образовательных инициатив XXI века (P21 Framework) как ответ на запрос общества на навыки, необходимые для успешной адаптации и продуктивной деятельности. В российском образовательном контексте эти компетенции находят отражение в требованиях к метапредметным результатам ФГОС, а также в подходах к формированию функциональной грамотности.

Рассмотрим компоненты 4К более детально с учётом специфики РКИ и начальной школы:

Критическое мышление — способность анализировать информацию, выявлять причинно-следственные связи, отличать факты от мнений, проверять достоверность источников. В практике РКИ это проявляется при работе с текстами, объявлениями, инструкциями; в начальной школе — в заданиях на сравнение, классификацию, выявление противоречий.

Креативность — умение генерировать несколько идей, находить нестандартные решения, комбинировать элементы для создания нового продукта. Для младших школьников это творческие рассказы, рисунки с подписями, мини-проекты; для учащихся РКИ — вариативные диалоги, пересказы от лица разных персонажей, создание собственных текстов по шаблонам.

Коммуникация — ясное выражение мысли, понимание собеседника, использование языковых средств в соответствии с ситуацией общения. В РКИ это центральная компетенция; в начальной школе коммуникация развивается через парную и групповую работу, презентации, обсуждения.

Кооперация — распределение ролей, взаимная поддержка, достижение общего результата. Эффективными формами являются групповые проекты, ролевые игры, совместные исследования, где каждый участник вносит свой вклад.

Важно подчеркнуть, что 4К не являются изолированными навыками: они пересекаются и усиливают друг друга. Например, кооперация стимулирует коммуникацию и креативность, а критическое мышление помогает оценивать результаты совместной работы.

Связь с образовательными стандартами проявляется в том, что развитие 4К напрямую соотносится с формированием регулятивных, познавательных и коммуникативных УУД. Так, умение ставить вопросы и проверять информацию соотносится с познавательными УУД, способность договариваться и распределять роли — с коммуникативными, а планирование и оценка результатов — с регулятивными.

Методические приёмы интеграции 4К: система заданий и мини-кейсы

Для эффективной интеграции 4К необходимо адаптировать приёмы к уровню владения языком и возрастным особенностям учащихся. Ниже представлена система заданий, сгруппированных по компетенциям, с примерами для РКИ и для начальной школы.

Критическое мышление

Приёмы:

Сравнение двух текстов/объявлений с выявлением сходств и различий.

Поиск ошибок или несоответствий в тексте (фактических, логических, грамматических).

Постановка вопросов к тексту по таксономии Блума (от простых «кто? что?» до аналитических «почему? как?»).

Мини-кейс 1 (РКИ, уровень A2–B1). Учитель предлагает два коротких объявления о продаже велосипеда: одно на сайте объявлений, второе — в мессенджере. Учащиеся в парах сравнивают тексты, выделяют ключевые параметры (цена, состояние, город), находят противоречия (например, разная цена в заголовке и в тексте) и формулируют вопросы продавцу. Цель — развитие навыков анализа информации и формулирования уточняющих вопросов.

Мини-кейс 2 (начальная школа). Детям дают два описания одного и того же маршрута (например, «от школы до библиотеки»). В одном описании есть лишние детали, в другом — пропущены важные ориентиры. Задача — сравнить тексты, определить, какой из них точнее и почему, и составить собственное описание по образцу.

Креативность

Приёмы:

Генерация нескольких вариантов решения одной задачи (например, несколько способов начать диалог).

Создание мини-продуктов (комикс, плакат, короткий рассказ) по заданным параметрам.

Трансформация известного сюжета: изменение места действия, персонажа, цели.

Мини-кейс 3 (РКИ). Учащимся предлагают известную бытовую ситуацию (например, «покупка хлеба в магазине») и просят придумать три разных варианта диалога: вежливый, спешный, неуверенный. Затем группы представляют свои диалоги, а класс обсуждает, какие языковые средства лучше подходят для каждой ситуации.

Мини-кейс 4 (начальная школа). Дети получают три слова («дождь», «зонт», «друг») и должны придумать короткий рассказ, используя все три слова. Лучшие рассказы оформляются в мини-книжку класса.

Коммуникация

Приёмы:

Ролевые игры с чёткими ролями и задачами.

Парная работа с взаимопроверкой и обратной связью.

Мини-дискуссии на простые темы с опорой на визуальные материалы.

Мини-кейс 5 (РКИ). В парах разыгрывается ситуация «спросить дорогу»: один ученик — турист, другой — местный житель. После выполнения задания учащиеся меняются ролями и оценивают друг друга по простым критериям: «задавал ли вопросы?», «понятно ли объяснял?», «использовал ли вежливые слова?».

Мини-кейс 6 (начальная школа). Ученики получают инструкцию «как собрать пазл» и должны объяснить её соседу так, чтобы тот смог выполнить задание без просмотра самой инструкции. Затем проводится рефлексия: что было понятно, а что — нет.

Кооперация

Приёмы:

Групповые мини-проекты с распределением ролей (искать, записывать, оформлять, презентовать).

Совместное создание продукта (стенгазета, маршрут, меню).

Взаимооценка по чек-листу.

Мини-кейс 7 (РКИ и начальная школа, общий). Класс делится на группы по 3–4 человека. Задача — создать мини-путеводитель по школе (на русском языке) для новых учеников. Роли: «фотограф» (подбирает картинки/рисует), «текстовик» (пишет подписи), «редактор» (проверяет ошибки), «презентатор» (рассказывает группе). В конце каждая группа представляет свой продукт, а класс оценивает по критериям: «понятно», «полезно», «аккуратно».

Примеры приёмов 4К для разных уровней

Таблица 1.

Компетенция	РКИ (А1–А2)	РКИ (В1–В2)	Начальная школа (1–2 класс)	Начальная школа (3–4 класс)
Критическое мышление	Найти ошибку в коротком объявлении; выбрать верный вариант из двух описаний	Сравнить два текста новостей; определить, какой более достоверный	Найти лишнее слово в ряду; объяснить выбор	Сравнить два рассказа; определить, где есть противоречие
Креативность	Придумать 3 фразы для знакомства	Написать короткий пост в соцсетях от лица персонажа	Нарисовать и подписать 3 способа помочь другу	Создать мини-комикс с подписями
Коммуникация	Ролевая игра «покупка в магазине»	Мини-интервью «расскажи о себе»	Объяснить правило другу простыми словами	Провести мини-опрос в классе и рассказать о результатах
Кооперация	Создать мини-путеводитель по городу	Собрать пазл-рассказ (каждое предложение — у одного ученика)	Сделать общую открытку для учителя	Подготовить мини-проект «наш класс» с распределением ролей

Оценивание результатов: инструменты формирующего контроля

Одним из ключевых аспектов интеграции 4К является разработка понятных и измеримых критериев оценивания. В условиях РКИ и начальной школы целесообразно использовать простые рубрики и чек-листы, понятные и учителю, и ученикам.

Примеры критериев:

Критическое мышление: «нашёл 2–3 ошибки», «задал 2 уточняющих вопроса», «объяснил, почему выбрал этот вариант».

Креативность: «предложил 3 разных идеи», «использовал новые слова», «добавил детали».

Коммуникация: «говорил понятно», «слушал других», «использовал вежливые слова».

Кооперация: «выполнил свою роль», «помогал другим», «договаривался о решениях».

Эффективным инструментом является дневник наблюдений учителя, где фиксируются достижения каждого ученика по отдельным компетенциям. Также можно использовать листы самооценки, где дети отмечают, что у них получилось, а над чем ещё нужно поработать.

Трудности и пути их преодоления

При внедрении 4К педагог может столкнуться с рядом барьеров:

Нехватка времени. Решение: начинать с микро-заданий на 3–5 минут, встраивая их в привычные этапы урока.

Языковой барьер. Решение: использовать визуальные опоры (картинки, схемы, жесты), шаблоны фраз, парную работу с сильным учеником.

Сложность оценивания. Решение: применять простые рубрики, вовлекать детей в самооценку и взаимооценку.

Сопротивление изменениям. Решение: демонстрировать коллегам первые результаты (фото проектов, короткие видео, отзывы детей), включать родителей в совместные мероприятия.

Практическая значимость и перспективы

Предложенная система приёмов позволяет учителю интегрировать развитие 4К без радикального изменения учебного плана: новые формы работы органично встраиваются в привычные виды деятельности. Практическая ценность заключается в том, что приёмы можно адаптировать под разные уровни владения языком и возрастные группы, а инструменты оценивания делают процесс прозрачным и измеримым.

Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой комплексных программ по интеграции 4К в курсы повышения квалификации педагогов, а также с оценкой эффективности подхода в долгосрочной перспективе (например, через сравнение динамики метапредметных результатов).

Заключение. Интеграция концепции 4К в методическую практику учителя РКИ и начальных классов — это не дополнительная нагрузка, а способ переосмыслить привычные формы работы и сделать обучение более осмысленным и мотивирующим. Развитие критического мышления, креативности, коммуникации и кооперации напрямую связано с достижением предметных и метапредметных результатов, предусмотренных образовательными стандартами. Предложенные приёмы, мини-кейсы и инструменты оценивания позволяют системно внедрять 4К в повседневную практику, учитывая возрастные и языковые особенности учащихся.

Дальнейшая работа может быть направлена на создание методических комплектов и оценку влияния подхода на учебные достижения.

Список литературы

1. Бурменская Г. В., Володарская И. А., Карабанова О. А. и др. Формирование универсальных учебных действий в основной школе: от действия к мысли / под ред. А. Г. Асмолова. — М.: Просвещение, 2010.
2. Щукин А. Н. Обучение русскому языку как иностранному: учебно-методический словарь. — М.: Русский язык. Курсы, 2005.
3. Федеральный государственный образовательный стандарт начального общего образования (ФГОС НОО). Примерная основная образовательная программа начального общего образования.
4. Partnership for 21st Century Skills. Framework for 21st Century Learning. — 2015.

IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI SAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

***Axmedov Ijod Narzikulovich*.**
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi direktori,
f.f.f.d. (PhD), dots. Jizzax sh., O‘zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish orqali savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Ijtimoiy hamkorlik, muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va o‘z fikrini asosli ifodalashning savodxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, ta’lim amaliyotida hamkorlikda o‘qitish, muammoli vaziyatlar, munozara va loyiha metodlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kompetensiya, savodxonlik, kommunikativ ko‘nikma, tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik, o‘qish savodxonligi, ta’lim metodlari.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и методические основы развития навыков грамотности учащихся посредством формирования социальных компетенций в образовательном процессе. Раскрывается роль социального взаимодействия, культуры общения, критического мышления, анализа информации и аргументированного выражения собственной позиции в развитии грамотности. Предлагаются методические рекомендации по использованию совместного обучения, проблемных ситуаций, дискуссий и проектной деятельности.

Ключевые слова: социальная компетенция, грамотность, коммуникативные навыки, критическое мышление, общение, сотрудничество, читательская грамотность, методы обучения.

Abstract. This article examines the pedagogical and methodological foundations of developing students’ literacy skills through the formation of social competencies in the educational process. It highlights the role of social interaction, communication culture, critical thinking, information analysis, and the ability to express ideas with supporting arguments in improving literacy. Practical recommendations are provided for using collaborative learning, problem-based situations, discussions, and project-based activities to strengthen students’ literacy and social competencies.

Keywords: social competence, literacy, communication skills, critical thinking, interaction, collaboration, reading literacy, teaching methods.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli axborot muhitida ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularda olingan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash, axborotni mustaqil tahlil qilish, o‘z fikrini aniq va asosli ifodalash hamda jamiyatda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu vazifalar savodxonlik va ijtimoiy kompetensiyalarni o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

An’anaviy ta’limda savodxonlik ko‘pincha o‘qish, yozish, matnni tushunish va grammatik qoidalarga rioya qilish bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Zamonaviy ta’lim yondashuvlarida esa savodxonlik tushunchasi kengroq mazmun kasb etib, o‘quvchining axborotni tushunishi, tahlil qilishi, baholashi, turli vaziyatlarda undan foydalanishi va o‘z nuqtayi nazarini dalillar asosida ifodalashini ham qamrab oladi. Ijtimoiy kompetensiyalar esa shaxsning boshqa insonlar bilan samarali munosabat o‘rnatishi, jamoada ishlashi, o‘zaro hurmat va mas’uliyatga amal qilishi, nizoli vaziyatlarni muloqot orqali hal etishi hamda ijtimoiy muhitga moslasha olishini ifodalaydi.

Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmalarini amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, o‘quvchilar guruhda matnni tahlil qilganda uning mazmunini tushunish bilan birga, o‘z fikrini bayon etish, boshqalarning fikrini tinglash, dalillar keltirish va umumiy xulosaga kelish ko‘nikmalarini ham egallaydi. Demak, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish savodxonlikni rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Maqolaning maqsadi — ta’lim jarayonida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish va savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda samarali pedagogik usullarni tavsiya etish.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olishiga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuv doirasida ta’lim natijasi faqat o‘zlashtirilgan ma’lumotlar hajmi bilan emas, balki o‘quvchining muammolarni hal etishi, axborot bilan ishlashi, muloqotga kirishishi va hamkorlik qilishi orqali ham baholanadi.

L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida ta’lim va rivojlanish jarayonida ijtimoiy o‘zaro ta’sirning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish orqali yangi intellektual imkoniyatlarni egallaydilar. Mazkur qarash savodxonlikni rivojlantirishda hamkorlikdagi faoliyatning metodik ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi.

J. Dewey ta’limni hayotiy tajriba, faoliyat va muammolarni hal etish bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qilgan. Uning qarashlari asosida o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlarni bajarishi, o‘z fikrlarini muhokama qilishi va tajriba orqali bilim olishi savodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA xalqaro baholash dasturida o‘qish savodxonligi o‘quvchining matnlarni tushunishi, ulardan foydalanishi, ularni baholashi, ular haqida fikr yuritishi va o‘z maqsadlariga erishish hamda jamiyat hayotida ishtirok etish uchun matn bilan ishlay olishi nuqtayi nazaridan izohlanadi. Bu yondashuv savodxonlikni faqat texnik o‘qish qobiliyati emas, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish vositasi sifatida ko‘rishga imkon beradi.

UNESCOning ta’limga oid yondashuvlarida ham insonning butun umri davomida o‘rganishi, boshqalar bilan hamkorlik qilishi, shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni his etishi muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, savodxonlik va ijtimoiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya — shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq harakat qilishi, boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, hamkorlik qilishi va o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his etish qobiliyatidir. Uning tarkibiga kommunikativ, hamkorlik, empatiya, nizolarni konstruktiv hal qilish, ijtimoiy mas’uliyat va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari kiradi.

Savodxonlik ko‘nikmalari esa matnni o‘qish va tushunish, yozma fikrni ifodalash, og‘zaki nutqni rivojlantirish, axborotni tahlil qilish, turli manbalarni taqqoslash va olingan ma’lumotlardan foydalanishni qamrab oladi. Axborotlashgan

jamiyatda media va raqamli savodxonlik ham ushbu ko‘nikmalarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Ushbu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi. Masalan, kommunikativ kompetensiya o‘quvchiga o‘z fikrini tushunarli ifodalash va suhbatdoshini tinglash imkonini bersa, savodxonlik unga fikrini mazmunli matn, dalil va misollar orqali bayon etishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash esa axborotning ishonchliligini tekshirish, turli qarashlarni taqqoslash va xulosalarni asoslash uchun zarur.

Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali savodxonlikni takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. **O‘qish savodxonligi.** O‘quvchilar matnni birgalikda tahlil qilish, asosiy g‘oyani aniqlash, muallif pozitsiyasini tushunish va o‘zaro savol-javob qilish orqali matn mazmunini chuqurroq anglaydilar.
2. **Yozma savodxonlik.** Guruhiy loyiha, hisobot, fikr-mulohaza va dalillangan matn tayyorlash jarayonida o‘quvchilar fikrlarni izchil ifodalash hamda yozma nutq madaniyatiga rioya qilishni o‘rganadilar.
3. **Og‘zaki nutq va muloqot.** Munozara, taqdimot va suhbatlar o‘quvchilarning fikrni ravon bayon etish, dalillash va boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.
4. **Tanqidiy va axborot savodxonligi.** Turli manbalardagi ma’lumotlarni taqqoslash, dalil va fikrni farqlash, axborotning ishonchliligini baholash ko‘nikmalari shakllanadi.
5. **Ijtimoiy vaziyatlarda savodxonlikdan foydalanish.** O‘quvchilar kundalik hayotga oid matnlar, yo‘riqnomalar, e’lonlar, jadvallar va raqamli xabarlarni tushunish hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanishni o‘rganadilar.

Shu jihatdan ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish savodxonlik ko‘nikmalarining mazmunini boyitadi va ularni amaliy hayot bilan bog‘laydi.

Ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish va savodxonlikni rivojlantirish jarayonida o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida namoyon etadigan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi tayyor ma’lumotni yetkazuvchi bilangina cheklanmay, o‘quvchilarning mustaqil izlanishi, fikr almashishi va xulosaga kelishini tashkil etuvchi fasilitator vazifasini ham bajaradi.

1. Hamkorlikda o‘qitish metodi

Hamkorlikda o‘qitish o‘quvchilarning kichik guruhlarda umumiy maqsad sari birgalikda ishlashini nazarda tutadi. Guruh a’zolari matnni o‘qish, mazmunini tahlil qilish, muhim ma’lumotlarni ajratish va yakuniy xulosa tayyorlash kabi vazifalarni o‘zaro taqsimlaydilar.

Masalan, o‘quvchilarga “Suv resurslaridan oqilona foydalanish” mavzusida matn beriladi. Birinchi guruh matnning asosiy g‘oyasini aniqlaydi, ikkinchi guruh

muammolarni ajratadi, uchinchi guruh yechimlarni ishlab chiqadi, to‘rtinchi guruh esa umumiy xulosani yozma shaklda bayon qiladi. Yakunda guruhlar o‘z ishlarini taqdim etib, bir-birining fikrlarini baholaydilar.

Ushbu jarayonda o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalari bilan bir qatorda vazifalarni taqsimlash, o‘zaro yordam berish va jamoaviy mas’uliyat ham rivojlanadi.

2. Munozara va debat metodi

Munozara o‘quvchilarning muayyan masala bo‘yicha turli nuqtayi nazarlarni o‘rganishi va dalillar yordamida o‘z pozitsiyasini himoya qilishiga xizmat qiladi. Bu metod, ayniqsa, matnni chuqur tushunish, dalillarni ajratish, xulosalar chiqarish va og‘zaki nutqni rivojlantirishda samaralidir.

Masalan, “Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradimi?” mavzusida munozara tashkil etiladi. O‘quvchilar avval tegishli matn va manbalar bilan tanishadilar, so‘ng o‘z pozitsiyalarini dalillar bilan asoslaydilar. Qarama-qarshi fikrni tinglash va unga hurmat bilan munosabat bildirish sharti belgilanadi.

Bunda o‘quvchilar nafaqat o‘z fikrini ifodalash, balki dalil bilan shaxsiy munosabatni farqlash, savol berish, javobni tahlil qilish va xulosani qayta ko‘rib chiqishni ham o‘rganadilar.

3. Muammoli ta’lim metodi

Muammoli ta’lim o‘quvchilarni hayotiy yoki o‘quv vaziyatlarida yuzaga kelgan muammoni aniqlash va uni hal etish yo‘llarini izlashga yo‘naltiradi. Muammoni hal qilish uchun zarur ma’lumotlarni o‘qish, ularni tahlil qilish, o‘zaro muhokama va yechimlarni asoslash talab etiladi.

Masalan, “Maktabda qog‘oz chiqindilarini kamaytirish uchun qanday choralar ko‘rish mumkin?” degan muammo taklif qilinadi. O‘quvchilar mavjud vaziyatni o‘rganadilar, tegishli ma’lumotlarni yig‘adilar, takliflar ishlab chiqadilar va ularni yozma loyiha ko‘rinishida taqdim etadilar.

Mazkur metod savodxonlikni real muammolarni hal qilish bilan bog‘laydi, ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

4. Loyiha asosida o‘qitish

Loyiha metodi o‘quvchilarning muayyan mavzu yuzasidan mustaqil izlanishi, axborot to‘plashi, uni qayta ishlashi va yakuniy mahsulot yaratishini nazarda tutadi. Loyiha natijasi taqdimot, maqola, buklet, infografika, so‘rovnoma yoki elektron material shaklida bo‘lishi mumkin.

Masalan, “Mahallamizdagi ekologik muammolar” loyihasi doirasida o‘quvchilar aholi fikrini o‘rganish uchun so‘rovnoma tuzadilar, javoblarni umumlashtiradilar, natijalarni jadval yoki diagrammada aks ettiradilar va takliflar ishlab chiqadilar.

Bu jarayon matn yaratish, ma’lumotlarni tahlil qilish, og‘zaki taqdimot, raqamli savodxonlik va jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantiradi.

5. Rolli o‘yin va ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish

Rolli o‘yinlarda o‘quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali muloqot madaniyati, empatiya va muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rganadilar. O‘yin vaziyatiga mos ravishda matnni tushunish, savol tuzish, fikrni izchil bayon etish va qarorlarni asoslash talab etiladi.

Masalan, “Maktab kutubxonasida kitob tanlash”, “Jamoaviy qaror qabul qilish” yoki “Nizoli vaziyatni hal etish” mavzularida rolli o‘yinlar tashkil etish mumkin. O‘yin yakunida ishtirokchilar o‘z faoliyatini tahlil qilib, qaysi muloqot usullari samarali bo‘lganini muhokama qiladilar.

6. Refleksiya va o‘zaro baholash

Refleksiya o‘quvchining o‘z faoliyati, erishgan natijalari va qiyinchiliklarini tahlil qilish jarayonidir. Dars yakunida “Bugun nimani o‘rgandim?”, “Fikrimni qanday dalillar bilan asosladim?”, “Guruhdagi hamkorligimni qanday yaxshilashim mumkin?” kabi savollar berilishi mumkin.

O‘zaro baholashda o‘quvchilar bir-birining matni, taqdimoti yoki loyiha natijasini oldindan belgilangan mezonlar asosida tahlil qiladilar. Bunda baholash shaxsga emas, bajarilgan ish va uning sifatiga qaratilishi lozim.

Refleksiya o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash, mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va o‘qish jarayonini ongli boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. Ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim pedagogik yo‘nalishlaridan biridir. Ijtimoiy hamkorlik, muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalari o‘quvchilarning o‘qish, yozish, tinglash va gapirish faoliyatini mazmunan boyitadi.

Umuman olganda, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish va savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishni yagona pedagogik jarayon sifatida tashkil etish mustaqil fikrlaydigan, axborot bilan ongli ishlaydigan, o‘z nuqtayi nazarini asoslay oladigan va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
3. OECD. (2019). *PISA 2018 Assessment and Analytical Framework*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/b25efab8-en

4. OECD. (2021). *21st-Century Readers: Developing Literacy Skills in a Digital World*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/a83d84cb-en
5. UNESCO. (2015). *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?* Paris: UNESCO.
6. UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO.
7. Hymes, D. H. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.
8. Partnership for 21st Century Learning. (2019). *Framework for 21st Century Learning*. Battelle for Kids.

O‘QUVCHILARDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH — FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI
(Davlat va huquq asoslari fani misolida)

Alimova Shaxlo Bafayevna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biri — o‘quvchilarda funksional savodxonlikni hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. “Davlat va huquq asoslari” fani misolida o‘quvchilarning nazariy huquqiy bilimlarni real hayotiy munosabatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish omillari yoritilgan. Maqolada maktab ta’limida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, dars jarayonini interaktiv va muammoli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish bo‘yicha tizimli metodik tavsiyalar ilgari surilgan

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, hayotiy kompetensiyalar, Davlat va huquq asoslari, sharq mutafakkirlari, Temur tuzuklari, keys-stadi, PISA, huquqiy madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируется одна из наиболее актуальных задач современной педагогики – формирование функциональной грамотности и жизненных компетенций у учащихся. На примере предмета «Основы государства и права» выделены факторы развития у учащихся навыков применения теоретических правовых знаний в реальных жизненных ситуациях. В статье выдвинуты систематические методические рекомендации по совершенствованию правовой культуры в школьном образовании,

организации учебного процесса на основе интерактивных и проблемно-ориентированных образовательных технологий.

Ключевые слова: функциональная грамотность, жизненные компетенции, «Основы государства и права», восточные мыслители, нормы Тимура, кейс-стади, PISA, правовая культура.

Abstract. This article analyzes one of the most pressing tasks in modern pedagogy: the development of functional literacy and life competencies among students. Using the subject "Fundamentals of State and Law" as a case study, the article highlights factors that foster students' ability to apply theoretical legal knowledge to real-life situations. It also puts forward systematic methodological recommendations for enhancing legal culture in school education and organizing the teaching process based on interactive and problem-based learning technologies.

Keywords: functional literacy, life competencies, Fundamentals of State and Law, Eastern thinkers, “Temur Tuzuklari” (The Institutes of Timur), case study, PISA, legal culture.

Kirish. XXI asr — intellektual salohiyat, axborot texnologiyalari va integratsiyalashgan bilimlar asridir. Bugungi shiddatli globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida ta’lim tizimining bosh maqsadi faqatgina o‘quvchilarga qoliplashgan nazariy ma’lumotlarni berishdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Jamiyatimizga nafaqat qonunlarni yoddan biladigan, balki ularning mazmun-mohiyatini anglaydigan, o‘z huquqlarini himoya qila oladigan komil shaxslar kerak. Funksional savodxonlik — bu maktab partasida olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni real hayotiy vaziyatlarda samarali va ijodiy qo‘llay olish qobiliyatidir.

Ushbu kontekstda o‘qitiladigan “Davlat va huquq asoslari” fani o‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy ong va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishda bosh poydevor vazifasini o‘taydi. Buyuk antik davr faylasufi va huquqshunosi Platon o‘zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida davlat va ta’lim aloqadorligini shunday ifodalagan edi:“Davlatning eng muhim vazifasi — o‘z fuqarolarini tarbiyalash va ularga qonunlarni hurmat qilishni o‘rgatishdir. Qonunlar amalda ishlamagan va fuqarolar tomonidan anglanmagan jamiyat halokatga mahkumdir.” [1, 84-b.]

G‘arb pedagogika fanining yirik vakillaridan biri, amaliy ta’lim konsepsiyasi asoschisi Jon Dyui esa ta’limning hayot bilan uzviyligi to‘g‘risida gapirganda, funksional yondashuvni quyidagicha ta’riflaydi:“Ta’lim — kelajak hayotga tayyorlanish jarayoni emas, ta’limning o‘zi hayotning ayni haqiqatidir.” [2, 42-b.]

Demak, maktab darslarida huquqiy normalarni shunchaki yodlatish o‘quvchini real hayotga tayyorlamaydi. Huquqiy ta’limda funksional savodxonlikni oshirish — o‘quvchini dars jarayonining faol subyektiga aylantirishni anglatadi.

Asosiy qism. Huquqiy ta’lim tizimida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosi nafaqat g‘arb pedagogikasida, balki Sharq uyg‘onish davri va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy tafakkurda ham markaziy o‘rinlardan birini egallagan. Xususan, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur o‘zining mashhur “Tuzuklar” asarida davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartibni o‘rnatishda qonun ustuvorligi hamda uning jamiyat a’zolari hayotidagi amaliy ifodasiga ulkan e’tibor qaratgan. Amir Temurning quyidagi so‘zlari bugungi huquqiy ta’limning ham konseptual asosi bo‘lishga loyiqdir:“Qaysi bir joyda qonun va adolat ustuvor bo‘lsa, o‘sha yerda obodlik va baraka bo‘ladi. Davlat ishlarini qonun (tuzuk) asosida boshqardim, qonun hamma uchun barobar bo‘lishini ta’minladim.” [3, 56-b.]

O‘quvchilarga ushbu o‘gitni tushuntirish jarayonida qonunga amal qilish majburiyat emas, balki jamiyat farovonligining kafolati ekanligi hayotiy misollar va tarixiy manbalar orqali yetkazilishi zarur. Sulton ul-orifun, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida adolat va qonunni shunchaki orzu qilish emas, balki uni amalda ko‘rsatish lozimligini uqtiradi:“Adolat bamisoli bir daraxtdirki, uning ildizi qonun, mevasi esa xalqning tinchligi va farovonligidir. Kimki adolatni amalda qo‘llay olmasa, u bilimdon hisoblanmaydi.” [4, 112-b.] Navoiyning ushbu o‘giti bugungi kun tili bilan aytganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri “kompetensiya” tushunchasiga ishora qiladi. Ya’ni, bilim amaliyot va adolat bilan birlashgandagina o‘z qiymatiga ega bo‘ladi.

Fransuz mutafakkiri va huquqshunosi Sharl Lui Monteskye o‘zining fundamental “Qonunlarning ruhi haqida” asarida qonun bilishning ijtimoiy tabiati haqida shunday yozadi:“Qonunlarni shunchaki yod olish yoki bilish kamlik qiladi, ularni jamiyat a’zolari o‘z kundalik turmushida, har bir hatti-harakatida his qila olishlari va ularga ichki ehtiyoj sifatida amal qila olishlari muhimdir.” [5, 205-b.]

“Davlat va huquq asoslari” fani darslarida ushbu nazariy-falsafiy qarashlarni amaliyotga tatbiq etish va o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun bugungi kunda bir qator innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi:

1. Huquqiy kolliziyalar va Simulyatsiya metodlari (“Sud jarayoni”): Dars xonasi sud zaliga aylantiriladi. Muayyan huquqiy muammo (masalan, voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlari yoki internet tarmog‘idagi huquqbuzarliklar) qonunchilik doirasida tahlil qilinadi. Bu jarayon o‘quvchilarda mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.
2. Keys-stadi (Case study — Muammoli vaziyatlarni yechish): O‘quvchilarga qolipga solingan savollar o‘rniga real hayotdan olingan muammolar beriladi. Masalan: “Siz do‘kondan kafolat muddati bilan texnika sotib oldingiz, biroq

u uchinchi kuni buzilib qoldi. Do‘kon egasi mahsulotni almashtirishdan bosh tortmoqda. Sizning harakatlaringiz?” O‘quvchi ushbu vaziyatda amaliy yechim algoritmini ishlab chiqadi.

3. Huquqiy loyihalar (Project-based learning): O‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda o‘z mahallasi yoki maktabidagi muayyan ijtimoiy-huquqiy muammolarni o‘rganadilar va ularni bartaraf etish bo‘yicha loyihalar taqdim etadilar.

Taniqli nemis huquqshunosi va sotsiologi Rudolf fon Iyerisg o‘zining “Huquq uchun kurash” asarida huquqiy faollikni shunday ta’riflaydi:“Huquq — bu shunchaki o'lik nazariya yoki qog'ozdagi harflar emas, u tirik kuchdir. Shuning uchun amalda o'z huquqini anglash va adolat uchun qonuniy yo'llar bilan kurashish — fuqarolik savodxonligining oliy nuqtasidir.” [6, 19-b.]

Pedagogik mahorat markazlarining bugungi kundagi bosh vazifasi ham aynan maktab o‘qituvchilariga darslarni an’anaviy ma’ruza shaklidan qutqarib, mana shunday jonli, bahs-munozaralarga boy darslarga aylantirish metodikasini tizimli ravishda yetkazishdan iboratdir.

Zamonaviy ta’lim falsafasining yirik namoyandasi Ken Robinson o‘quvchilarni kelajakka tayyorlash xususida shunday yozadi: “Agar siz bolalarni kelajak dunyoga tayyorlamoqchi bo‘lsangiz, ularga o‘tmishning tayyor qoliplarini bermang. Ularda har qanday murakkab va kutilmagan sharoitda ham muammoni mustaqil hal qila olish kreativligini hamda hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantiring.” [7, 150-b.]

Shu sababli xalqaro PISA baholash dasturlari ham aynan o‘quvchilarning maktabda olgan bilimlari yordamida hayotiy topshiriqlarni qay darajada bajara olishini sinovdan o‘tkazadi. “Davlat va huquq asoslari” fani doirasida ushbu tizimni integratsiya qilish davlatimizning ta’lim sohasidagi yetakchi strategik maqsadlariga to‘liq mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, “Davlat va huquq asoslari” fani misolida o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularning funksional savodxonligini oshirish — jamiyatda kuchli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati poydevorini mustahkamlashning bosh omilidir. Maktab partasidanoq adolat mezonlarini, qonun ustuvorligini hamda o‘z fuqarolik huquq va majburiyatlarini hayotiy misollar silsilasida anglab yetgan o‘quvchi kelajakda jamiyatning eng faol va ijtimoiy mas’uliyatli a’zosiga aylanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Platon. Davlat (tarjima). — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014. – 84-b.
2. Dyui J. Demokratiya va ta’lim. — Toshkent: “Sano-standart”, 2019. – 42-b.
3. Amir Temur. Temur tuzuklari. — Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 56-b.

4. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy (Mukammal asarlar to‘plami, 11-jild). — Toshkent: “Fan”, 2001. – 112-b.
5. Monteskye Sh. Qonunlarning ruhi haqida (rus tilidan tarjima). — Moskva: “Misl”, 1999. – 205-b.
6. Iyerisg R. Huquq uchun kurash. — Moskva: “Legis”, 2005. – 19-b.
7. Robinson K. Ta’lim mantiqi. — London: Penguin Books, 2015. – 150-b.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI OSHIRISH VA BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”kafedrasi, o‘qituvchi
Buxoro viloyti pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish orqali funksional savodxonlikni oshirishning pedagogik-psixologik asoslari chuqur tahlil qilingan. Emotsional barqarorlik, empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va kognitiv jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning xalqaro baholash mezonlaridagi roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, funksional savodxonlik, empatiya, emotsional intellekt, pedagogik yondashuv, stressni boshqarish, PISA, xalqaro

Аннотация: В данной статье глубоко проанализированы педагогико-психологические основы повышения функциональной грамотности учащихся через развитие социально-эмоциональных компетенций. Раскрыта взаимосвязь эмоциональной устойчивости, эмпатии, навыков саморегуляции с познавательными процессами, а также их роль в критериях международных оценочных исследований.

Ключевые слова: Социально-эмоциональные компетенции, функциональная грамотность, эмпатия, эмоциональный интеллект, педагогический подход, управление стрессом, PISA, международное оценивание.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the pedagogical and psychological foundations of enhancing students' functional literacy through the development of socio-emotional competencies. The interrelation of emotional stability, empathy, self-regulation skills with cognitive processes, as well as their role in international assessment criteria, is comprehensively revealed.

Keywords: Socio-emotional competencies, functional literacy, empathy, emotional intelligence, pedagogical approach, stress management, PISA,

international assessment.

Kirish. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida ta'lim sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.”O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni,jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish...” ham ta'lim sifatini oshirishda va shaxsga yo 'naltirilgan ta'limni joriy etishga muhim ahamiyat kasb etadi.Yuksak ma'naviyatga ega bo‘gan barkamol,sog‘lom avlodni tarbiyalab yoshlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ustivor vazifalaridan biridir.

Zamonaviy globallashuv va raqamlashuv davri ta’lim tizimi oldiga yangi, yanada murakkab talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda o‘quvchilarga faqatgina akademik bilimlarni berishning o‘zi yetarli emas. Jamiyat jadal o‘zgarib borayotgan bir paytda, yoshlarning olgan bilimlarini kundalik hayotda, nostandart vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati — ya’ni funksional savodxonligi asosiy ko‘rsatkichga aylanmoqda.

Biroq PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning amaliy muammolarni hal qilishdagi qiyinchiliklari faqatgina kognitiv bilimlar yetishmasligidan emas, balki ulardagi stressni boshqarish, jamoada ishlash, matonat va o‘z-o‘zini anglash kabi ijtimoiy-emotsional kompetensiya (IEK) ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmagani bilan ham bog‘liqdir. Ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning funksional savodxonlikni oshirishdagi o‘rni va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy-emotsional kompetensiya va kognitiv jarayonlarning uyg‘unligi Psixologiya va pedagogika fanlarida hissiyotlar va aqliy faoliyat doimo o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi. Insonning miya faoliyati stress, xavotir yoki xavf hissi ostida bo‘lganda, yangi axborotni qayta ishlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi.

Funksional savodxonlik — matematik, o‘qish va tabiiy fanlar savodxonligini o‘z ichiga olib, ularning har biri yuqori darajadagi emotsional barqarorlikni talab etadi. Masalan: Matnli va mantiqiy topshiriqlarni bajarish: O‘quvchi matnni o‘qib tushunishi va uni hayotga tatbiq etishi uchun o‘z diqqatini uzoq vaqt jamlay olishi (o‘z-o‘zini boshqarish) zarur.

Xatolardan saboq olish (Resilience): Murakkab topshiriq yechimi chiqmaganda taslim bo‘lmaslik, matonat ko‘rsatish va qayta urinib ko‘rish ijtimoiy-emotsional barqarorlikka bevosita bog‘liq.

Hamkorlik va muloqot: Zamonaviy loyihaviy ishlar va guruhli baholash jarayonlari boshqalarning fikrini hurmat qilish, empatiya va konstruktiv muloqot madaniyatini talab qiladi.

Ta’lim jarayonida IEKni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari Maktablarda funksional savodxonlikni yuksaltirish uchun ta’lim jarayonini faqat fan doirasida cheklab qo‘ymasdan, o‘quvchining shaxsiy-emotsional taraqqiyotiga ham qaratish lozim. Bunda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Emotsional xavfsiz muhitni shakllantirish: Sinfda har bir o‘quvchi o‘z fikrini ochiq ayta olishi , xato qilishdan qo‘rqmasligi kerak. Xavfsiz muhit o‘quvchilardagi kognitiv to‘siqlarni bartaraf etadi.

2. Hayotiy keyslar va muammoli ta’lim : Darslarda real hayotga yaqin vaziyatlarni ko‘rib chiqish (Case-study metodi) o‘quvchilarga nafaqat mantiqiy fikrlashni , balki hissiy muvozanatni saqlab qaror qabul qilishni o‘rgatadi.

3. Refleksiya madaniyatini joriy etish: Har bir dars yoki mavzu so‘nggida o‘quvchilarning o‘z hissiyotlari va yutuqlarini tahlil qilishi (masalan, "Bugun men qanday hissiyotlarni boshdan kechirdim va buni qanday yengdim ?" degan savollar orqali) ularning o‘z-o‘zini anglash darajasini oshiradi.

An’anaviy ta’lim tizimi asosan bilim va ko‘nikmalarni (test yoki yozma ishlar orqali) baholashga odatlangan. Ammo ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni faqat yozma imtihonlar orqali o‘lchab bo‘lmaydi . Bunda kompleks va shakllantiruvchi (formative) baholash yondashuvlari qo‘llanishi lozim:

1. Kuzatuv va refleksiv kundaliklar: O‘quvchining jamoada ishlash jarayonidagi o‘zini tutishi , muammoli vaziyatlardagi munosabati hamda refleksiya yozuvlari (o‘z-o‘zini baholash kundaliklari) orqali uning emotsional rivojlanishini kuzatish mumkin.

2. Keys-stadi va amaliy vaziyatli topshiriqlar : PISA standartidagi kabi real hayotiy vaziyatlarni o‘z ichiga olgan topshiriqlar orqali o‘quvchining stress ostida mantiqiy qaror qabul qilish va matonat ko‘rsatish darajasi baholanadi.

3. O‘zaro baholash (Peer assessment) va portfolio : O‘quvchilarning guruhlarda bir-birining hamkorlik madaniyati , empatiya va tinglash ko‘nikmalarini xolis baholashi IEK samaradorligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim jarayonida IEKni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari Maktablarda funksional savodxonlikni yuksaltirish uchun ta’lim jarayonini faqat fan doirasida cheklab qo‘ymasdan , o‘quvchining shaxsiy-emotsional taraqqiyotiga ham qaratish lozim . Bunda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Emotsional xavfsiz muhitni shakllantirish : Sinfda har bir o‘quvchi o‘z fikrini ochiq ayta olishi , xato qilishdan qo‘rqmasligi kerak . Xavfsiz muhit o‘quvchilardagi kognitiv to‘siqlarni bartaraf etadi.

2. Hayotiy keyslar va muammoli ta’lim : Darslarda real hayotga yaqin vaziyatlarni ko‘rib chiqish o‘quvchilarga nafaqat mantiqiy fikrlashni , balki hissiy muvozanatni saqlab qaror qabul qilishni o‘rgatadi.

3. Refleksiya madaniyatini joriy etish : Har bir dars yoki mavzu so‘nggida o‘quvchilarning o‘z hissiyotlari va yutuqlarini tahlil qilishi ularning o‘z-o‘zini anglash darajasini oshiradi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki , ijtimoiy-emotsional kompetensiya va funksional savodxonlik biri ikkinchisini to‘ldiruvchi va rag‘batlantiruvchi kuchdir . O‘quvchilarda emotsional intellektni tizimli ravishda rivojlantirish orqali biz ularning fanlarni chuqur o‘zlashtirishi , hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishi va jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun mustahkam poydevor yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi . “Yangi O‘zbekiston”, 2022- yil 21- dekabr.
2.“ 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son. T: 28.01.2022-yil
2 . Do‘murodov , B . (2022). Zamonaviy ta’limda ijtimoiy-emotsional o‘qitish texnologiyalari . Toshkent : Fan va texnologiya.
3. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
4. OECD (2019). PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. OECD Publishing.
5 . Mahmudova , D . (2023). O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari . Xalq ta’limi jurnali, 4-son, 45-48-betlar.
6 . Elias , M. J., et al . (1997). Promoting Social and Emotional Learning: Guidelines for Educators. Alexandria, VA: ASCD.
7 . Saidova , M . (2021). Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning emotsional barqarorligini ta’minlash yo‘llari . Pedagogik mahorat ilmiy-metodik jurnali, 2-son, 112-115-betlar.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA STEM YONDASHUVINING O‘QUVCHILARNING AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Bakayeva Zebiniso Izatovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Aniq va tabiiy fanlar” fakulteti tyutori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvini qo‘llashning pedagogik ahamiyati yoritilgan. STEM ta’limining fanlararo integratsiyaga asoslangan mazmuni, loyiha va tadqiqot faoliyati orqali o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalari, mustaqil va tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos STEM mashg‘ulotlari va ularning tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: STEM ta’limi, boshlang‘ich ta’lim, fanlararo integratsiya, amaliy kompetensiya, loyiha asosida o‘qitish, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammoli vaziyat, tadqiqotchilik ko‘nikmalari.

Аннотация: В данной статье подчеркивается педагогическая важность использования STEM-подхода (наука, технология, инженерия, математика) в процессе начального образования. Анализируется содержание STEM-образования, основанного на междисциплинарной интеграции, возможности развития практических компетенций учащихся, самостоятельного и критического мышления, креативности и навыков решения проблем посредством проектной и исследовательской деятельности. Также раскрываются STEM-мероприятия, соответствующие возрастным особенностям учащихся начальной школы, и их роль в формировании научной грамотности.

Ключевые слова: STEM-образование, начальное образование, междисциплинарная интеграция, практическая компетентность, проектное

обучение, научная грамотность, критическое мышление, креативность, проблемные ситуации, исследовательские навыки.

Abstract: This article examines the pedagogical importance of using a STEM (science, technology, engineering, and mathematics) approach in primary education. It analyzes the content of STEM education based on interdisciplinary integration and the opportunities for developing students' practical competencies, independent and critical thinking, creativity, and problem-solving skills through project-based and research activities. It also discusses age-appropriate STEM activities for primary school students and their role in developing scientific literacy.

Keywords: STEM education, primary education, interdisciplinary integration, practical competence, project-based learning, scientific literacy, critical thinking, creativity, problem-solving, and research skills.

Kirish. Hozirgi kunda jahonda ta’lim mazmunini zamonaviylashtirish, boshlang’ich sinf o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etishga o‘rgatish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan STEM ta’lim texnologiyasi zamonaviy ta’limning samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida keng ommalashmoqda. STEM ta’limini turli sport mashg‘ulotlariga qiyoslash mumkin. Biroq bunda o‘quvchi faqat o‘ziga yoqqan bitta yo‘nalishni tanlash bilan cheklanmaydi. Chunki STEM ta’limining asosiy mazmuni tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematikani o‘zaro bog‘lagan holda, ularni real hayotdagi vaziyat va muammolarga tatbiq etishdan iborat.

Asosiy qism. STEM yondashuvi kundalik hayotimizning deyarli barcha sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Zero, ilm-fan atrofimizdagi olamni anglash va undagi jarayonlarni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi; texnologiya hayotimizning ajralmas qismiga aylangan; muhandislik zamonaviy dunyoni rivojlantirish, uni qulay va ekologik jihatdan barqaror qilishda muhim ahamiyat kasb etadi; matematika esa turli kasb va faoliyat yo‘nalishlarida keng qo‘llaniladi. Boshlang'ich

sinfda STEM ta'limi muhim rol o'ynaydi, o'quvchilarga fundamental ko'nikmalarni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi va fan va texnologiyalarga qiziqishni uyg'otadi. Ushbu bosqichda bolalar uchun qiziqarli va amaliy muhit yaratish bilan birga, o'yinga asoslangan o'rganish usullaridan foydalanishga urg'u beriladi [3].

STEM ta’limi o‘quvchilarga real hayot bilan bog‘liq vazifalar va loyihalarni taklif etish orqali yangi imkoniyatlarni kashf etishga, turli sohalarga qiziqish bildirishga hamda kelajakdagi kasblar haqida dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shu sababli STEM loyihasining maqsadiga erishish uchun o‘quvchi faqat o‘ziga ma’qul bo‘lgan bitta fanga e’tibor qaratib qolmasdan, fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglagan holda barcha yo‘nalishlardan olingan bilim va ko‘nikmalarni birgalikda qo‘llashi zarur.

STEM ta’limi — turli fanlar bo‘yicha bilimlarni birgalikda qo‘llash orqali amaliy masalalarni hal etishga asoslangan ta’lim yondashuvidir. STEM yondashuvi texnologik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarga muammolarni hal qilishda analitik fikrlash va texnik ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradi [1].

U *tabiiy fanlar* (Science- Biologiya, kimyo va fizika fanlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ushbu fanlar tabiatdagi jarayonlar va qonuniyatlarni tushunishga yordam beradi), *texnologiya* (Technology- dasturlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va raqamli vositalarni qamrab oladi. Texnologiya ilmiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi), *muhandislik* (Engineering- mexanika muhandisligidan tortib elektrotexnika va qurilishgacha bo‘lgan sohalarda tizimlarni loyihalash va yaratishni o‘z ichiga oladi) va *matematika* (Mathematics- mantiqiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi hamda barcha STEM fanlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi) yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Ba’zan ushbu konsepsiya STEAM yondashuvi ko‘rinishida kengaytiriladi. Bunda aniq va tabiiy fanlarni o‘rganishga san’at va gumanitar fanlar (Arts) ham qo‘shiladi. STEM yondashuvining muhim jihati

fanlarni alohida-alohida o‘qitish emas, balki ularni o‘zaro integratsiyalashgan holda amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirib o‘rgatishdan iborat.

Mazkur yondashuvda o‘quvchi tayyor bilimlarni shunchaki o‘zlashtiruvchi emas, balki muammoni aniqlash, zarur ma’lumotlarni izlash, tajribalar o‘tkazish, modellar yaratish, muammoning maqbul yechimini ishlab chiqish va erishilgan natijalarni baholash jarayonida faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Aynan shu sababli ham, kelajak kasblarini tanlashni rejalashtirayotgan maktab o‘quvchilari, ota-onalar va bo‘lajak talabalar orasida STEM ta’limiga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Har bir STEM komponenti — fan, texnologiya, muhandislik va matematika — nafaqat ma'lum darajadagi bilimlarni, balki o'quvchilarda o'ziga xos ko'nikma va qobiliyatlarni ham rivojlantirishi mumkin. STEM ta'limini ta'lim faoliyatiga integratsiya qilish STEM ta'lim tizimini tashkil etuvchi komponentlardan to'g'ri foydalanish orqali o‘quvchilarning o'qishini yaxshilashga va muhim kompetentsiyalarni samarali rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin. STEM ta'limi komponentlari 4 ta "K" kompetentsiyasini rivojlantirish jarayoniga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, STEM ta'limi turli o'rganish darajalarida amalga oshirilsa, uning samaradorligi yanada yuqori bo'ladi [6].

STEM ta’limi tushunchasi AQShda 1950-yillarda paydo bo‘lgan va nanotexnologiya, biotexnologiya, robototexnika hamda raqamlashtirish kabi sohalarda ishchi kuchi yetishmovchiligini bartaraf etish vositasi sifatida XXI asr boshlarida keng rivojlangan. Bugungi kunda ushbu yondashuv butun dunyoda ko‘p tarmoqli mutaxassislarni tayyorlash uchun qo‘llanilmoqda; 2001-yilda AQSh Milliy fan jamg‘armasi STEM atamasini joriy etdi. Keyinchalik, 2000-yillar davomida informatika, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan turli tashabbuslar yo‘lga qo‘yildi. Keyinchalik STEM modeli boshqa mamlakatlardagi, xususan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy va Singapurdagi ta’lim muassasalari tomonidan keng qo‘llaniladigan bo‘ldi. AQSh Mehnat statistikasi boshqarmasi tahlilariga ko‘ra, bunday mutaxassislarga bo‘lgan

talab nafaqat saqlanib qolishi, balki kelgusi o‘n yillikda 70 foizdan ko‘proqqa oshishi kutilmoqda. Rossiyada esa 2025-yilga kelib raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili va muhandislik sohalarida 300 ming nafar mutaxassisga ehtiyoj tug‘ilishi taxmin qilinmoqda.

O‘zbekistonda ham ta’limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish jarayonida STEM yondashuviga bo‘lgan e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Ta’lim tizimini raqamlashtirish, tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda zamonaviy kasblarga tayyorlashga qaratilgan islohotlar STEM ta’limining rivojlanishi uchun muhim zamin yaratmoqda.

An’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan STEM ta’limining boshlang‘ich sinflardagi asosiy afzalliklari fanlararo integratsiya va amaliy-loyihaviy faoliyatga asoslanganligi bilan izohlanadi (1-rasm).

STEM dasturi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:				
loyihaga asoslangan ishlar	laboratoriya mashg‘ulotlari	jamoaviy hamkorlik	real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish	raqamli texnologiyalardan foydalanish

1-rasm. STEM dasturining tarkibi.

Boshlang‘ich sinflarda STEM yondashuvi orqali tabiiy fanlar, matematika, texnologiya va muhandislik elementlari o‘zaro bog‘langan holda o‘rganiladi. O‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida turli fanlarga oid bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashni talab qiladigan sodda, hayotiy va qiziqarli topshiriqlar beriladi. Masalan, o‘quvchilar qog‘ozdan mustahkam ko‘prik qurish, o‘simliklarning o‘sishi uchun qulay sharoit yaratish, suvni tejashga oid oddiy loyiha ishlab chiqish yoki qayta ishlanadigan materiallardan foydali buyum yaratish kabi topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Bunday faoliyat davomida o‘quvchilar tabiiy fanlardan tabiat hodisalari va

jismlarning xususiyatlari haqida bilim oladilar, matematika yordamida o‘lchash, sanash va taqqoslashni amalga oshiradilar, texnologik vositalardan foydalanadilar hamda muhandislik elementlari asosida muammoning amaliy yechimini yaratadilar. Natijada o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kuzatuvchanlik, muammoni hal qilish, hamkorlikda ishlash va o‘z faoliyatini baholash kabi muhim ko‘nikmalar shakllanadi.

Masalan, boshlang‘ich sinflarda loyiha asosidagi yondashuvning ahamiyati shundaki, loyiha asosidagi yondashuv va amaliy masalalarni hal etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy hamda tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday yondashuvda o‘quvchilar darslikdagi nazariy ma’lumotlarni shunchaki yodlab olish bilan cheklanmay, ularni amaliy faoliyat jarayonida qo‘llash orqali o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar turli topshiriqlarni bajarish davomida savollar qo‘yadilar, o‘z taxminlarini ilgari suradilar, tajriba va kuzatuvlar olib boradilar, natijalarni taqqoslaydilar hamda mustaqil ravishda xulosalar chiqaradilar. Masalan, tabiiy fanlar darsida o‘simliklarning o‘sishi uchun qanday sharoit zarurligini aniqlash, turli jismlarning suvda cho‘kishi yoki suzishini kuzatish, suvning bug‘lanish jarayonini tajriba orqali o‘rganish kabi faoliyatlar o‘quvchilarning izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bunday jarayonda o‘quvchilar xatodan qo‘rqmasdan, o‘z faoliyatini sinab ko‘rish, natijalarni tahlil qilish va zarur hollarda boshqa yechimlarni izlashga o‘rganadilar. Natijada ularda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatni tahlil qilish, sabab va oqibatni aniqlash, savol berish, xulosa chiqarish hamda o‘z fikrini asoslash kabi muhim ko‘nikmalar bosqichma-bosqich shakllanadi. STEM yondashuv orqali o'qituvchilar loyihaga asoslangan o'quv rejalarini amalga oshirishlari mumkin. Zamonaviy o'quv materiallari sifatida texnologiyalar mehnat bozori sharoitida o‘quvchilarning kelajakda o‘z kasbini o'zi belgilashiga hissa qo'shadi, ularni ilmiy va texnik faoliyatni loyihalash va tadqiq qilishga yo'naltiradi [5].

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda STEM yondashuvidan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, tabiiy fanlarga qiziqishini

oshirish va zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. STEM ta’limi orqali o‘quvchilar atrof-muhitni kuzatish, tajriba o‘tkazish, turli muammolarga yechim izlash, o‘z g‘oyalarini amalda sinab ko‘rish va natijalarini tahlil qilishga o‘rganadilar.

Shuningdek, fanlararo integratsiyaga asoslangan STEM mashg‘ulotlari o‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, tadqiqotchilik, mustaqil o‘rganish, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Oddiy konstruktorlar, tajribalar, modellar va kichik loyihalardan foydalanish esa nazariy bilimlarning hayotiy mazmunini yanada aniqroq anglashga yordam beradi. Bola rivojlanishining barcha bosqichlarida o'rganishning uzluksizligi va izchilligini hisobga olgan holda, STEM ta'limini ta'lim tizimiga integratsiya qilish tabiiy fanlar va muhandislik sohalarida mutaxassislarni yuqori sifatli tayyorlashni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ushbu yondashuvni amalga oshirish yosh avlod iste'dodlarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida o'qituvchilar, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va davlat idoralarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi [2].

Shu nuqtayi nazardan, STEM ta’limini boshlang‘ich sinflarda izchil va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish ularning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish, texnologiyalarga qiziqishini rivojlantirish hamda kelajakdagi ta’lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan amaliy va intellektual ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, STEM yondashuvi boshlang‘ich ta’limni mazmunan boyituvchi, o‘quvchini faol izlanishga undovchi va ta’limni real hayot bilan bog‘lovchi samarali pedagogik yondashuvlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nimatulloyeva Sh. D. STEM va STEAM yondashuvlarining boshlang‘ich ta’lim tizimidagi roli va samaradorligi. “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali, 2024-yil, dekabr, №8-son, 113-117-bet.
2. Шарифбаева Х. Я. . Реализация преемственности модели STEM на всех уровнях образования. Проблемы педагогики, 2023, (1 (62)), 7-10.
3. Шарифбаева Х.Я., Абдурашидова М.Ж. Интегрированние в образование стратегии формирования STEM-компетенций: комплексный

анализ от начальной до высшей школы. Экономика и социум, 2024, (1 (116)), 1673-1684.
4. Sultamuratov A. B. STEAM ta’lim tizimi: kelajakni shakllantiruvchi innovatsion yondashuv. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025, 2 (2-2), 173-175.
5. Римская Г. Р. STEM-образование в современной школе как способ овладения обучающимися ключевыми компетенциями и умениями. Проблемы современного педагогического образования, 2022, (77-1), 242-245.
6. Гнатышина Е. В., Никитин П. И. STEM-образование: теоретические основания и компонентный состав. Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета, (2024). (2 (180)), 95-111.

FUNKSIONAL SAVODXONLIKDA PISA NING ROLI

M.Baqoyeva
Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi
“Tillarni o’qitish metodikasi” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning 2025 yilgi PISA xalqaro baholash tadqiqotidagi ishtiroki va 2026 yil 8 sentyabrda e’lon qilingan natijalari tahlil qilinadi. Maqolada mazkur o‘sishning ta’lim jarayoni uchun ahamiyati, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, o‘quvchining qiziqishi, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, PISA natijalarini faqat reyting sifatida emas, balki milliy ta’lim sifatini takomillashtirish uchun diagnostik vosita sifatida qabul qilish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: PISA, xalqaro baholash, funksional savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, sun’iy intellekt, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотатsiя. В статье анализируется участие Узбекистана в международном исследовании PISA 2025 года и его результаты, опубликованные 8 сентября 2026 года. Рассматривается значение достигнутого прогресса для образовательного процесса, анализируются аспекты, связанные с функциональной грамотностью, критическим мышлением, учебной

мотиватsieй учащихся, навыками саморегуляции, использованием цифровых технологий и искусственного интеллекта. Также обосновывается необходимость рассматривать результаты PISA не только как рейтинг, но и как диагностический инструмент для совершенствования качества natsionального образования.

Ключевые слова: PISA, международное оценивание, функциональная грамотность, естественно-научная грамотность, читательская грамотность, математическая грамотность, критическое мышление, цифровая грамотность, искусственный интеллект, компетентностный подход.

Abstract. This article analyzes Uzbekistan’s participation in the 2025 PISA international assessment and the results announced on September 8, 2026. It examines the significance of these outcomes for the educational process, covering aspects such as functional literacy, critical thinking, student engagement, self-regulation skills, and the use of digital technologies and artificial intelligence. Furthermore, the article argues that PISA results should be viewed not merely as a ranking, but as a diagnostic tool for improving the quality of national education.

Keywords: PISA, international assessment, functional literacy, scientific literacy, reading literacy, mathematical literacy, critical thinking, digital literacy, artificial intelligence, competency-based approach.

Kirish. 2026 yil 8 sentyabr O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim sanalardan biri bo‘ldi. Shu kuni OECD tomonidan PISA-2025 xalqaro baholash tadqiqoti natijalari rasman e’lon qilindi. O‘zbekiston PISA tadqiqotida ikkinchi marta ishtirok etdi. 2025 yilgi tadqiqotda mamlakatning 233 ta maktabidan 8652 nafar 15 yoshli o‘quvchi ishtirok etgan bo‘lib, ular O‘zbekistondagi taxminan 558 ming nafar 15 yoshli o‘quvchini ifodalagan.

Natijalar orasida eng e’tiborli ko‘rsatkich — tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha natijaning 2022 yildagi 355 balldan 2025 yilda 438 ballga ko‘tarilganidir. Bu — 83 ballik o‘sish demakdir. 2022 yilda O‘zbekiston tabiiy fanlar bo‘yicha 80-o‘rinda turgan bo‘lsa, PISA-2025da 91 ta davlat va ta’lim tizimi orasida 48-o‘rinni

egalladi. Bu natijaga shunchaki statistik raqam sifatida qarash to‘g‘ri emas. U ta’limdagi yondashuvlar o‘zgarayotganini, o‘quvchining bilimni qo‘llash, tahlil qilish va ilmiy fikrlash qobiliyatiga e’tibor kuchayib borayotganini ko‘rsatuvchi muhim signaldir.

PISA bizga nimani o‘rgatyapti? PISAning eng muhim sabog‘i shundaki, o‘quvchining bilim darajasini faqat darslikdagi ma’lumotni qanchalik eslab qolgani bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Masalan,o‘quvchi: suvning qaynash haroratini bilishi mumkin; fotosintez ta’rifini yoddan aytishi mumkin; ekologik muammolar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin. Ammo funksional savodxonlik quyidagi savoldan boshlanadi: «Sen bu bilimdan real hayotda qanday foydalana olasan?» Masalan: «Ikki xil suv namunasi olindi. Birinchi namunada suv rangi o‘zgargan, ikkinchisida esa tiniq. Faqat tashqi ko‘rinishga qarab qaysi suv ichish uchun xavfsiz ekanini aytish mumkinmi? Javobingizni asoslang.». Bu yerda o‘quvchi tayyor bilimni takrorlamaydi. U: kuzatai → savol qo‘yadi → dalil izlaydi → taxmin qiladi → xulosa chiqaradi. Mana shu — funksional savodxonlik. PISA yondashuvini har bir fanga olib kirish mumkin PISA — faqat tabiiy fanlar yoki matematika o‘qituvchisining vazifasi emas. Ona tili darsida matn beriladi va : «Muallifning asosiy fikri nima? U o‘z fikrini qanday dalillar bilan asoslagan? Siz muallif fikriga qo‘shilasizmi?» degan savollar beriladi. Matematikada: «Oila oylik daromadining ma’lum qismini oziq-ovqat, transport, kommunal xizmatlar va ta’limga sarflaydi. Xarajatlarning qaysi qismini optimallashtirish mumkin?». Geografiyada: «Ikki hududning iqlim ko‘rsatkichlari berilgan. Qaysi hududda qishloq xo‘jaligining muayyan turini rivojlantirish maqsadga muvofiq? Fikringizni dalillang.» Tarixda: «Bir tarixiy voqeaga oid ikki xil manba berilgan. Ulardagi ma’lumotlarni solishtiring. Qaysi manba ishonchliroq? Nima uchun?». Shunday qilib, PISA alohida fan emas — darsni loyihalash usuliga aylanadi. O‘zbekistonning 83 ballik o‘sishi — quvonarli natija. Ammo eng katta yutuq PISAda yuqori o‘rinni egallash emas.

Eng katta yutuq — PISAda sinayotgan ko‘nikmalarni hayotda qo‘llay oladigan avlodni tarbiyalashdir.

O‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar :

PISA-2025 natijalari o‘qituvchi uchun faqat statistik ko‘rsatkich emas, balki darsni loyihalashda yangi yondashuvlarni kuchaytirish zaruratini ko‘rsatuvchi muhim metodik manba hisoblanadi. Shu sababli xalqaro baholash dasturlari talablarini alohida test mashg‘ulotlari sifatida emas, balki har kungi darsning tabiiy qismi sifatida joriy etish maqsadga muvofiq.

1. Har bir darsda kamida bitta hayotiy vaziyatli topshiriq bering. O‘quvchiga faqat «qoidani qo‘lla» emas, balki: **«Bu bilim menga hayotda qaerda kerak bo‘ladi?»** degan savolni his qildirish zarur. Masalan, matematikada foiz mavzusi o‘tilayotganda: «Do‘konda mahsulot narxi 20% ga arzonlashtirildi. Birinchi mahsulot 150 000 so‘m, ikkinchisi 180 000 so‘m turadi. Qaysi mahsulotni chegirmadan keyin sotib olish iqtisodiy jihatdan maqbul? Javobingizni hisob-kitob bilan asoslang». Bunday topshiriq matematik bilimni moliyaviy qaror bilan bog‘laydi.

2. «***Nima?»dan ko‘ra «Nima uchun?» va «Qanday?» savollarini ko‘paytiring.*** Oddiy savol: «Fotosintez nima?» Funksional savodxonlikka yo‘naltirilgan savol: «Nima uchun xonadagi o‘simlik uzoq vaqt yorug‘liksiz qolsa, uning tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi? Javobingizni ilmiy dalil bilan tushuntiring». Shunday savollar o‘quvchini yodlashdan mulohaza yuritishga olib o‘tadi. Darsda savollarning quyidagi nisbatini saqlash maqsadga muvofiq:

30% — bilimni aniqlash;

30% — tushunish va qo‘llash;

40% — tahlil, asoslash va xulosa chiqarish.

3. Matnni «o‘qish» emas, «bilan ishlash»ni o‘rgating. Ayniqsa ona tili, adabiyot, tarix, biologiya, geografiya kabi fanlarda matn asosida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- asosiy fikrni aniqlash;
- kalit so‘zlarni topish;
- fakt va fikrni ajratish;
- muallif maqsadini aniqlash;
- ikki ma’lumotni taqqoslash;
- matndagi dalillarni topish;
- yashirin ma’noni anglash;
- matn asosida xulosa chiqarish.

Masalan: «Muallifning fikriga qo‘shilasizmi? Javobingizni matndan olingan ikkita dalil bilan asoslang». Bu topshiriq bir vaqtning o‘zida o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash va yozma nutqni rivojlantiradi.

4. Bir savolga bir nechta to‘g‘ri yondashuv imkonini yarating. Har doim yagona algoritm bo‘yicha yechiladigan topshiriqlar o‘quvchining ijodiy va tanqidiy fikrlash imkoniyatini cheklashi mumkin. Shuning uchun ba’zi topshiriqlarda: «Masalani kamida ikki usulda yeching» yoki «Muammoni hal qilishning ikkita variantini taklif qiling. Qaysi biri samaraliroq deb o‘ylaysiz?» kabi talablardan foydalanish mumkin. Bu usul o‘quvchini nafaqat yechim topishga, balki yechimlarni baholashga o‘rgatadi.

5. «Javobingiz nima?»dan keyin albatta «Dalilingiz nima?»ni so‘rang. Bu juda oddiy, ammo kuchli metodik usul. O‘quvchi: «Menimcha, birinchi variant to‘g‘ri».

O‘qituvchi: «Nima uchun?»

O‘quvchi: «Chunki u qulayroq».

O‘qituvchi: «Qaysi ma’lumot bu fikringizni tasdiqlaydi?» Shu tarzda o‘quvchi fikr va dalil o‘rtasidagi farqni anglay boshlaydi.

Funksional savodxonlikning muhim belgisi: FIKR → DALIL → ASOS → XULOSA.

6. «PISA daftari» yoki «Funksional savodxonlik papkasi» tashkil eting. Har bir o‘quvchida alohida daftar yoki elektron papka bo‘lishi mumkin.Unda:

- hayotiy masalalar;
- matn tahlillari;
- jadval va diagrammalar;
- muammoli vaziyatlar;
- mustaqil xulosalar;
- loyiha ishlari;
- xatolar tahlili;
- refleksiya natijalari
- jamlab boriladi.

Bu papka o‘quvchining rivojlanish dinamikasini ko‘rish imkonini beradi.

7. «Xato — muammo emas, tahlil ob’ekti» tamoyilidan foydalaning. O‘quvchining xatosini faqat bahoni pasaytirish vositasi sifatida qabul qilmaslik kerak. Masalan: «Nima uchun bunday javob berding?», «Qaysi bosqichda xatolik yuzaga keldi?», «Agar yana bir marta bajarsang, nimani o‘zgartirasan?» degan savollar orqali xatoni o‘quv jarayonining bir qismiga aylantirish mumkin. Bu usul o‘quvchida metakognitiv ko‘nikma, ya’ni o‘z fikrlashini kuzatish va boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

8. Darsda «ma’lumot ortiqchaligi»dan ham foydalaning. PISA uslubidagi qiziqarli topshiriqlardan biri — o‘quvchiga kerakli va keraksiz ma’lumotlarni aralash holda berish. Masalan: «Oila dam olish uchun sayohat rejalashtirmoqda. Ularga yo‘l masofasi, transport narxi, mehmonxona narxi, ob-havo ma’lumoti va boshqa ma’lumotlar berilgan. Sayohat uchun eng maqbul variantni tanlang». O‘quvchi barcha ma’lumotni bir xil darajada muhim deb qabul qilmasdan, kerakli axborotni saralashni o‘rganadi. Bu raqamli axborot muhitida juda muhim ko‘nikma.

9. Diagramma, jadval va infografikalarni ko‘paytiring. Zamonaviy inson axborotni faqat matn shaklida qabul qilmaydi, shuning uchun darslarda: matn + jadval + diagramma + rasm + grafik uyg‘unligidan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘quvchiga: «Diagrammadagi eng muhim tendensiyani aniqlang», «Qaysi ma’lumot siz uchun kutilmagan bo‘ldi?», «Diagramma asosida qanday xulosa qilish mumkin?» kabi savollar berish mumkin.

10. Sun’iy intellektdan «tayyor javob» uchun emas, «fikrlash hamkori» sifatida foydalaning. Zamonaviy o‘quvchi sun’iy intellekt bilan baribir to‘qnash keladi. Shuning uchun uni ta’lim jarayonidan butunlay chetlatishdan ko‘ra, undan mas’uliyatli va tanqidiy foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Masalan, o‘qituvchi: «AIdan ushbu savolga javob oling. Endi uning javobidagi 2 ta kuchli va 2 ta zaif jihatni aniqlang» yoki «AI bergan javobni darslik va boshqa ishonchli manba bilan taqqoslang» degan topshiriq berishi mumkin. Bunda o‘quvchi: AI javobi → tekshirish → taqqoslash → baholash → o‘z xulosasi zanjiri asosida ishlaydi. Shunda sun’iy intellekt o‘quvchining o‘rniga fikrlamaydi, aksincha uning tanqidiy fikrlashini rag‘batlantiradi.

11. Har bir darsni «3 ta asosiy savol» bilan yakunlang.

Dars oxirida o‘quvchiga:

1. Bugun nimani bildim?

2. Bugun nimani qila oldim?

3. Bu bilim menga hayotda qaerda kerak bo‘ladi? degan savollarni berish mumkin.

Uchinchi savol funksional savodxonlikning eng muhim nuqtasini ochadi — bilimni hayot bilan bog‘lash.

O‘qituvchi uchun eng muhim 5 qoida:

1. Kamroq yodlating — ko‘proq fikrlating.

2. Kamroq tayyor javob bering — ko‘proq savol bering.

3. Xatoni jazolashdan oldin uni tahlil qiling.

4. Har bir bilimni real hayot bilan bog‘lang.

5. O‘quvchidan nafaqat javobni, balki javobining asosini so‘rang.

PISAga tayyorlashning eng samarali usuli — PISA testlarini ko‘p yechtirish emas. Eng samarali usul: PISA talab qiladigan fikrlash tarzini har kungi darsga olib kirishdir. Shunda o‘quvchi test uchun emas, hayot uchun tayyorlanadi. Chunki

haqiqiy funksional savodxon inson: o‘qiydi → tushunadi → savol beradi → tahlil qiladi → dalillaydi → qaror qabul qiladi → harakat qiladi. Aynan shu ko‘nikmalar XXI asrda ta’lim sifatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylanmoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. OECD. *PISA 2025 Results, Volume I: Future-Ready Students*. Paris, 2026. OECD.

2. *PISA Participant: Uzbekistan*. 2026.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. «PISA 2025 xalqaro baholash dasturi natijalari e’lon qilindi». 8 sentyabr 2026 yil.

3. OECD. PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar.

РАЗВИТИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ ЧЕРЕЗ ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

M.Baqoyeva
Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi
“Tillarni o’qitish metodikasi” kafedra o’qituvchisi

Аннотация. В статье рассматривается взаимосвязь функциональной грамотности и социально-эмоциональных компетенций обучающихся как одного из ключевых направлений современного образования. Обосновывается идея о том, что функциональная грамотность не ограничивается умением читать, писать, считать и воспроизводить полученные знания, а предполагает способность применять их в реальных жизненных ситуациях, принимать решения, взаимодействовать с другими людьми, управлять собственными эмоциями и нести ответственность за результаты своей деятельности. Раскрываются возможности интеграции социально-эмоционального обучения, технологий 4К, проблемного и ситуационного обучения, проектной деятельности и инструментов искусственного интеллекта. Предлагаются практические методы и педагогическая модель формирования функциональной грамотности через

развитие самосознания, саморегуляции, эмпатии, коммуникативных навыков и ответственного принятия решений.

Ключевые слова: функциональная грамотность, социально-эмоциональные компетенции, эмоциональный интеллект, саморегуляция, эмпатия, коммуникация, критическое мышление, 4К, проектное обучение, искусственный интеллект, жизненные ситуации, современное образование.

Abstract. This article examines the relationship between functional literacy and the social-emotional competencies of students, a key focus in contemporary education. It argues that functional literacy extends beyond basic skills—such as reading, writing, calculating, and recalling information—to encompass the ability to apply knowledge in real-life situations, make decisions, interact with others, manage one’s own emotions, and take responsibility for the outcomes of one’s actions. The article explores the integration of social-emotional learning, the "4K" framework (critical thinking, communication, collaboration, and creativity), problem-based and situational learning, project-based activities, and artificial intelligence tools. It proposes practical methods and a pedagogical model for fostering functional literacy through the development of self-awareness, self-regulation, empathy, communication skills, and responsible decision-making.

Keywords: functional literacy, social-emotional competencies, emotional intelligence, self-regulation, empathy, communication, critical thinking, 4K framework, project-based learning, artificial intelligence, real-life situations, contemporary education.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan funksional savodxonlik hamda o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Muallifning ta’kidlashicha, funksional savodxonlik faqat o‘qish, yozish, hisoblash va axborotni eslab qolish kabi bazaviy ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmaydi; u bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, qarorlar qabul qilish, boshqalar bilan o‘zaro munosabatga kirishish, o‘z hissiyotlarini boshqarish hamda o‘z harakatlari natijalari

uchun mas’uliyatni zimmasiga olish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim, "4K" modeli (tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va kreativlik), muammoli va vaziyatli ta’lim, loyihaviy faoliyatlar hamda sun’iy intellekt vositalarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi o‘rganiladi. Shuningdek, o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya, muloqot ko‘nikmalari va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali funksional savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan amaliy usullar va pedagogik model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, emotsional intellekt, o‘zini boshqarish, empatiya, kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash, "4K" modeli, loyihaviy ta’lim, sun’iy intellekt, real hayotiy vaziyatlar, zamonaviy ta’lim.

Введение. Современная школа постепенно переходит от модели «ученик должен знать» к модели «ученик должен уметь использовать знания». Сегодня недостаточно научить ребёнка правильно прочитать текст, выполнить математическое действие или воспроизвести изученное правило. Гораздо важнее сформировать способность использовать знания для решения реальных задач, ориентироваться в информационном пространстве, взаимодействовать с окружающими и самостоятельно принимать обоснованные решения.

Именно поэтому понятие функциональной грамотности приобретает особую значимость. Функционально грамотный человек способен не только понимать информацию, но и задавать вопросы, анализировать ситуацию, оценивать риски, находить решения, аргументировать свою позицию и адаптироваться к изменяющимся условиям.

Однако существует важный педагогический парадокс: невозможно эффективно применять знания, если человек не умеет управлять собственным эмоциональным состоянием, понимать чувства других людей, конструктивно взаимодействовать и принимать решения в ситуации неопределённости. Следовательно, функциональная грамотность имеет не только когнитивную, но и социально-эмоциональную основу.

1. От «знаю» к «могу применить»: новое понимание функциональной грамотности.

Традиционная система обучения длительное время ориентировалась преимущественно на усвоение предметных знаний. Современная образовательная парадигма требует иного результата — способности переносить знания из учебной ситуации в жизненную. Например, ученик может знать правила математических действий, но функционально грамотным он становится тогда, когда способен: рассчитать семейный бюджет; сравнить стоимость товаров; определить наиболее выгодное предложение; понять условия кредита или покупки; проанализировать диаграмму; оценить достоверность представленных числовых данных.

Аналогично, читательская грамотность проявляется не только в правильном чтении текста, но и в способности понять его скрытый смысл, отличить факт от мнения, определить цель автора, сопоставить несколько источников и сделать самостоятельный вывод. Таким образом, функциональная грамотность можно представить следующей логической цепочкой: знание → понимание → применение → анализ → решение → ответственное действие. Но между «знанием» и «действием» существует ещё один важный компонент — эмоциональная готовность человека действовать.

2. Почему социально-эмоциональные компетенции являются основой функциональной грамотности?

Социально-эмоциональные компетенции включают способность человека понимать самого себя, управлять эмоциями, устанавливать конструктивные отношения, проявлять эмпатию и принимать ответственные решения. К основным компонентам относятся:

- Самосознание -умение понимать собственные эмоции, сильные и слабые стороны, потребности и цели.

- ❖ Саморегуляция- способность контролировать импульсивные реакции, справляться со стрессом, сохранять работоспособность в сложной ситуации.
- ❖ Социальная осведомлённость- умение понимать чувства, позиции и потребности других людей.
- ❖ Навыки взаимоотношений- способность слушать, сотрудничать, договариваться, конструктивно разрешать конфликты.
- ❖ Ответственное принятие решений- умение анализировать последствия своих действий, учитывать нормы, интересы других людей и возможные риски.

Именно эти качества позволяют превратить полученную информацию в осмысленное действие. Например, ребёнок знает правило поведения в конфликте. Но функциональная компетентность проявляется тогда, когда в реальной конфликтной ситуации он способен остановиться, распознать собственный гнев, услышать другую сторону и выбрать конструктивную стратегию поведения.

Следовательно, функциональная грамотность — это не только грамотность ума, но и грамотность поведения.

3. «Эмоциональный фильтр» как скрытый фактор обучения

Каждый педагог сталкивался с ситуацией, когда ученик объективно способен выполнить задание, но не выполняет его. Причина может быть не в отсутствии знаний. Страх ошибки, тревожность, неуверенность, конфликт со сверстниками, ощущение несправедливости или эмоциональное переутомление способны существенно снизить способность ребёнка воспринимать и использовать информацию.

Поэтому современный урок должен учитывать не только вопрос: «Что ученик знает?», но и вопросы: «Что он чувствует?», «Готов ли он воспринимать информацию?», «Может ли он сотрудничать?», «Способен ли

он самостоятельно принять решение?». Это позволяет рассматривать эмоциональное состояние ученика как своеобразный «фильтр», через который проходит учебная информация.

4. Интеграция 4К и социально-эмоционального обучения Особенно эффективно развитие функциональной грамотности происходит при объединении социально-эмоциональных компетенций с моделью 4К: Критическое мышление + Креативность + Коммуникация + Кооперация.

Эти направления не существуют изолированно. Например, решение проблемной задачи требует критического мышления, но обсуждение решения — коммуникации; создание нового варианта — креативности, а работа в группе — кооперации. При этом социально-эмоциональные навыки обеспечивают качество всех четырёх процессов. Можно представить эту взаимосвязь следующим образом: **Эмоциональная устойчивость → активное мышление → взаимодействие → решение проблемы → функциональное действие**.

5. Современная модель урока: «Ситуация — эмоция — анализ — решение — рефлексия» Для формирования функциональной грамотности целесообразно использовать пятиэтапную модель.

I этап. СИТУАЦИЯ

Учителю необходимо создать не абстрактное упражнение, а жизненную ситуацию. Например: «Вы собираетесь приобрести подарок другу. У вас ограниченная сумма денег. В магазине представлены три варианта. Какой выбор будет наиболее рациональным?». Ученик сразу оказывается в роли человека, принимающего решение.

II этап. ЭМОЦИЯ

Ученикам предлагается определить: что они чувствуют; что может повлиять на их решение; могут ли эмоции привести к импульсивному выбору.

III этап. АНАЛИЗ

Учащиеся работают с информацией: сравнивают данные; выявляют факты; определяют преимущества и недостатки; проверяют достоверность информации.

IV этап. РЕШЕНИЕ

Каждый учащийся или группа формулирует собственное решение и аргументирует его.

V этап. РЕФЛЕКСИЯ

В конце необходимо ответить не только на вопрос: «Что я узнал?» но и: «Как я принимал решение?», «Что повлияло на мой выбор?», «Что я сделал бы иначе?».

Именно последний этап превращает учебное задание в опыт. Ниже приведём примеры практическим методам формирования функциональной грамотности.

Метод «Эмоциональный навигатор»:

Перед выполнением сложного задания ученикам предлагаются четыре позиции:

Я уверен → Мне интересно → Мне трудно → Мне нужна помощь. Ученик выбирает состояние, которое соответствует его эмоциональной готовности. Метод развивает самосознание и одновременно учит ребёнка просить помощь без чувства неуспешности. Метод «Стоп — подумай — выбери» Используется при решении проблемных ситуаций.

СТОП — остановись и не действуй импульсивно.
ПОДУМАЙ — какие существуют варианты?
ВЫБЕРИ — какое решение будет наиболее ответственным?
Метод особенно эффективен при развитии навыков саморегуляции и принятия решений.

Метод «Чужими глазами»

Ученику предлагается рассмотреть одну ситуацию с разных позиций. Например: «В классе ученик постоянно перебивает другого. Как эту ситуацию видит сам ученик? Его одноклассник? Учитель? Родитель?»

Так формируются эмпатия, социальное мышление и способность учитывать разные точки зрения.

Метод «Ошибка как ресурс»

Учителю предлагается изменить отношение к ошибке.

Вместо: «Это неправильно» использовать вопросы: «На каком этапе возникла ошибка?», «Почему мог возникнуть такой ответ?» «Что поможет исправить ситуацию?»

Так формируется психологическая безопасность и готовность анализировать собственные действия.

Учитель является архитектором образовательного опыта
В современной школе роль учителя постепенно меняется. Учитель уже не является единственным источником информации. Его важнейшая функция — создавать образовательные ситуации, в которых ученик учится самостоятельно думать, взаимодействовать и принимать решения.

Заключение. Функциональная грамотность является одним из важнейших результатов современного образования. Однако её невозможно сформировать исключительно посредством увеличения объёма знаний и количества тренировочных упражнений.

Человек может обладать значительным объёмом информации, но испытывать трудности при её применении, если не умеет управлять эмоциями, взаимодействовать с другими людьми, анализировать ситуацию и принимать ответственные решения. Поэтому социально-эмоциональные компетенции следует рассматривать не как дополнительный элемент образовательного процесса, а как один из механизмов превращения знаний в реальные

жизненные действия. В этом заключается одна из главных задач современной школы: научить ребёнка не только находить правильный ответ, но и понимать, когда, зачем и как этот ответ применять в реальной жизни.

Список использованной литературы:

1.Агентство специализированных образовательных учреждений Республики Узбекистан. Материалы по развитию функциональной грамотности учащихся и подготовке к международным исследованиям PISA. — Ташкент.

2. Davletova H.X. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish — zamonaviy umumiy o‘rta ta’limning dolzarb pedagogik muammosi // Multidisciplinary Scientific Journal of Avloniy. — 2026.

3. Юсупова Г.А. Методика использования смешанного обучения в формировании лингвистических компетенций будущих педагогов: автореф. дис. … — Ташкент, 2020.

4. А. Авлоний номидаги педагогик маҳорат миллий институти. Материалы по развитию профессиональных и социально-эмоциональных компетенций педагогов. — Ташкент.

JADID MA’RIFATPARVARLARI MEROSIDA OILAVIY TARBIYA MUAMMOLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINLARI

Farmonov Doston Amon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati vakillarining oilaviy pedagogikaga oid qarashlari, oilada farzand tarbiyasi, ota-onaning ijtimoiy-pedagogik mas’uliyati hamda ma’rifatli jamiyat qurishda oilaning roli tizimli tahlil qilingan. Ayniqsa, Abdurauf Fitratning “Oila” hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlaridagi pedagogik g‘oyalar bugungi globallashuv davridagi yoshlar

tarbiyasining dolzarb muammolari bilan qiyosiy o‘rganilgan. Maqolada jadid ma’rifatparvarlarining oilaviy pedagogika sohasidagi merosini zamonaviy axborot va raqamli makonda yoshlar tarbiyasini takomillashtirishga tatbiq etishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari, shakl va metodlari ishlab chiqilgan hamda ularning amaliy samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jadid pedagogikasi, oilaviy tarbiya, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, zamonaviy yoshlar, ijtimoiy-pedagogik tizim, milliy qadriyatlar, ma’naviy axloq, globallashuv, oila integratsiyasi.

Аннотация. В данной статье системно анализируются взгляды представителей джадидского реформаторского движения в Туркестане конца XIX – начала XX веков на семейную педагогику, воспитание детей в семье, социально-педагогическую ответственность родителей и роль семьи в построении просвещенного общества. В частности, педагогические идеи Абдурауфа Фитрата («Семья») и Абдуллы Авлони («Тюркский Гулистан или мораль») сравнительно изучены с актуальными проблемами воспитания молодежи в эпоху современной глобализации. В статье разработаны социально-педагогические механизмы, формы и методы применения наследия джадидских просветителей в области семейной педагогики для совершенствования воспитания молодежи в современном информационном и цифровом пространстве, а также научно обоснована их практическая эффективность.

Ключевые слова: джадидская педагогика, семейное воспитание, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони, современная молодежь, социально-педагогическая система, национальные ценности, духовная нравственность, глобализация, интеграция семьи.

Abstract. This article systematically analyzes the views of the Jadid reformist movement representatives in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries on family pedagogy, child upbringing in the family, socio-pedagogical responsibility of parents, and the role of the family in building an enlightened society. In particular,

the pedagogical ideas in Abdurauf Fitrat's "The Family" (Oila) and Abdulla Avloni's "Turkish Gulistan or Morals" (Turkiy guliston yoxud axloq) are comparatively studied with the pressing problems of youth education in today's era of globalization. The article develops social-pedagogical mechanisms, forms, and methods for applying the heritage of Jadid educators in family pedagogy to improve youth upbringing within the modern information and digital space, and its practical effectiveness is scientifically proven.

Keywords: Jadid pedagogy, family upbringing, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, modern youth, socio-pedagogical system, national values, spiritual morality, globalization, family integration.

KIRISH. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy uyg‘onish – Jadidchilik harakati millatning nafaqat siyosiy mustaqilligi, balki uning ma’rifiy saviyasi, dunyoqarashi va tarbiyaviy tizimini tubdan isloh qilishni maqsad qilgan edi. Jadid mutafakkirlari millatni asoratdan, qoloqlikdan va jaholatdan qutqarishning eng birlamchi hamda strategik omili sifatida oilaviy tarbiya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini anglab yetdilar. Zero, ularning fikricha, jamiyatning asosi bo‘lmish oilada sog‘lom muhit, ma’rifiy tarbiya qaror topmas ekan, milliy taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi.

Bugungi shiddatli globallashuv, raqamlashtirish va "ommaviy madaniyat" xavfi kuchaygan davrda yoshlar tarbiyasini ijtimoiy-pedagogik jihatdan takomillashtirish dolzarb muammoga aylandi. Zamonaviy yoshlarning virtual olamga bog‘lanib qolishi, milliy qadriyatlardan uzoqlashishi va oilaviy munosabatlarda deproduktiv tendensiyalarning kuzatilishi jadid ma’rifatparvarlarining oilaviy pedagogik merosini yangicha – zamonaviy talqinlar asosida o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini taqozo etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi jadidlar oilaviy pedagogikasidagi invariant prinsiplarni aniqlash hamda ularni zamonaviy yoshlar tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik tizimiga integratsiya qilish mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-pedagogik qiyosiy tahlil, tizimli-tuzilmaviy yondashuv, pedagogik modellashtirish, germenevtik tahlil hamda sotsiologik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Jadidchilik davri pedagogik tafakkurini o‘rganishda quyidagi asosiy manbalar tahlil obyekti qilib olindi:

1. *Abdurauf Fitratning “Oila” (1914) asari.* Bu asar o‘zbek pedagogikasi tarixida oila qurish, nikoh, homiladorlik davri madaniyati, bola tug‘ilgandan keyingi jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya masalalarini tizimli yoritgan ilk fundamental asardir.
2. *Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913) asari.* Unda insonning individual va ijtimoiy axloqi, tarbiyaning turlari (badantarbiya, fikrtarbiya, axloqtarbiya) va oilaning bu jarayondagi o‘rni metodologik jihatdan ochib berilgan.
3. *Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov* kabi allomalarning matbuot sahifalarida (Masalan, "Oyina", "Sadoi Turkiston" jurnallari) ota-onalarning farzand oldidagi mas’uliyati haqidagi maqolalari.

Shuningdek, tadqiqotda hozirgi zamon yoshlarining oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini aniqlash maqsadida oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari talabalari hamda yosh oilalar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalaridan qiyosiy tahlil uchun foydalanildi.

Jadidlar oilani shunchaki biologik ehtiyoj yoki hayotiy an’ana emas, balki "davlat ichidagi kichik bir davlat" deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik tizimida oilaviy tarbiya uchta yirik tarmoqqa bo‘lingan bo‘lib, bular jismoniy tarbiya (badantarbiya), aqliy tarbiya (fikrtarbiya) va axloqiy tarbiyadir (axloqtarbiya).

Jismoniy tarbiya tizimida jadidlar bolaning to‘g‘ri ovqatlanishi, shaxsiy gigiyenaga rioya qilishi va salomatligini muhofaza qilishiga jiddiy e’tibor qaratganlar. Aqliy tarbiyada esa dunyoviy ilmlarni egallash, chet tillarini mukammal o‘rganish va voqea-hodisalarga tanqidiy yondashish ko‘nikmalari ilgari surilgan. Axloqiy tarbiya tizimi esa o‘z ichiga milliy g‘urur, mehnatsevarlik, halollik hamda ijtimoiy mas’uliyat kabi fundamental qadriyatlarni qamrab olgan.

Abdurauf Fitrat "Oila" asarida yozadi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu millatning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Intizom va totuvlik esa oila tarbiyasiga tayanadi". Fitrat oila mustahkamligini ta’minlash uchun erkak va ayolning huquqiy hamda ma’naviy tengligini, eng muhimi, onalarning ma’rifatli bo‘lishini talab qildi. Chunki birinchi tarbiyachi – onadir. Agar ona ilmsiz bo‘lsa, u bergan tarbiya ham millatni qoloqlikka yetaklaydi.

Abdulla Avloniy esa tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlash kerakligini uqtirib, shunday deydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Avloniy oiladagi axloqiy muhit bolaning xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy omil ekanligini, ota-ona o‘zining shaxsiy ibrati bilan bolaga ta’sir ko‘rsatishi lozimligini isbotlab berdi.

Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraganda, jadidlar o‘z davrida kurashgan muammolar mazmunan transformatsiya bo‘lgan holda haligacha saqlanib qolmoqda. Buni bir necha asosiy mezonlar orqali kuzatish mumkin.

Birinchi mezon – onalar ma’rifatidir. XX asr boshlarida jadidlar xotin-qizlarning umumiy savodsizligi va ijtimoiy hayotdan butunlay ajralib qolganligiga qarshi kurashgan bo‘lsalar, bugungi kunda muammo shaklan o‘zgardi. Zamonaviy jamiyatda ayollarning diplomli bo‘lish darajasi yuqori, biroq ularda farzand tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan pedagogik-psixologik savodxonlik yetishmasligi holatlari kuzatiladi. Jadidona yechimning zamonaviy talqini sifatida onalar uchun maxsus raqamli oila akademiyalari va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ikkinchi mezon – aqliy tarbiya va ilm masalasidir. Jadidlar davrida ta’lim tizimining faqat bir tomonlama yoki yuzaki ekanligi, dunyoviy ilmlardan uzilib qolganligi asosiy muammo edi. Bugungi kunda esa yoshlar axborot yetishmovchiligidan emas, aksincha, axborotning haddan taxation ko‘pligidan (axborot xurujlaridan) aziyat chekmoqdalar. Bolalarda axborotni saralash va tanqidiy fikrlash filtri shakllanmagan. Bu o‘rinda Avloniyning "fikrtarbiya" metodi

yordamga keladi, ya’ni bolani tayyor axborotni qabul qilishga emas, balki mustaqil tahlil qilishga o‘rgatish lozim.

Uchinchi mezon – iqtisodiy mustaqillik va mehnatsevarlikdir. O‘tmishda boqimandalik va hunarsizlik milliy kadrlar yetishmasligiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda yoshlarda tayyoriga ayyorlik kayfiyati va moliyaviy savodxonlikning pastligi kuzatilmoqda. Jadidlarning mehnat tarbiyasiga oid g‘oyalari bugungi kunning amaliy hayotiy ko‘nikmalari (soft skills) va yoshlar tadbirkorligini, startap madaniyatini rivojlantirish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi.

To‘rtinchi mezon – axborot muhiti va mafkuraviy immunitetdir. Jadidlar o‘z davrida jaholat, bid’at va eskirgan zararli urf-odatlarga qarshi ma’rifat bilan kurashgan edilar. Bugungi globallashuv davrida esa xavf virtual makondan, ijtimoiy tarmoqlardagi yot g‘oyalar va kiber-bulling ko‘rinishida oilalarga kirib kelmoqda. Bu muammoning yechimi sifatida oilalarda "raqamli gigiyena" madaniyatini shakllantirish va milliy qadriyatlar asosida ma’naviy himoya qatlamini yaratish talab etiladi.

Jadidlar oilaviy pedagogikasini zamonaviy yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish – bu shunchaki o‘tmishni qo‘msash emas, balki milliy invariant qadriyatlarni zamonaviy modernizatsiya talablari bilan sintez qilish demakdir.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi uchta asosiy yondashuvga asoslanishi lozim.

Birinchisi – aksiologik yondashuv bo‘lib, u qadriyatlar tizimini qamrab oladi. Fitrat va Avloniy asarlarida keltirilgan iffat, hayo, vafo, ilmga muhabbat va ayniqsa vaqtni qadrlash kabi sifatlarni zamonaviy yoshlar ongiga singdirish zarur. Jadidlar vaqtni isrof qilishni millatning eng katta dushmani deb bilishgan. Bugungi yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda soatlab vaqt sarflashi fonida ushbu g‘oya nihoyatda dolzarbdir.

Ikkinchisi – integrativ yondashuvdir, ya’ni "Oila – mahalla – ta’lim muassasasi" zanjirining uzviyligidir. Jadidlar maktab islohotini oila munosabatlarini o‘zgartirish bilan parallel olib borishgan. Bugun ham ta’lim muassasalari ota-onani

chetdan kuzatuvchi emas, balki tarbiya jarayonining faol subyekti sifatida tizimga jalb qilishi kerak.

Uchinchisi – ijtimoiy-pedagogik modellashtirishdir. Bu yondashuv doirasida amaliy metodlar va raqamli integratsiyani birlashtiruvchi yaxlit innovatsion model ishlab chiqildi. Amaliy qismda ota-onalar uchun "Fitrat darslari" interaktiv seminar-treninglarini tashkil etish, "Oila – kitobxonlik maskani" loyihalarini o‘tkazish va oilaviy muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish nazarda tutiladi. Raqamli qismda esa "Oila-avlod" mobil ilovasini yaratish, jadidlar asarlarining audiokitoblarini tarqatish hamda ma’rifiy podkastlar orqali yosh ota-onalarga pedagogik bilimlar yetkazish tizimi shakllantiriladi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonlarida va oilaviy suhbatlarda jadid mutafakkirlarining hayoti, qiyinchiliklari va ularning asarlari keys-stadi (case-study) sifatida o‘rganilganda, yoshlarda milliy g‘urur ko‘rsatkichi va ijtimoiy mas’uliyat hissi sezilarli darajada oshganligi kuzatildi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Jadid ma’rifatparvarlarining oilaviy pedagogikaga oid merosi – o‘zbek milliy pedagogikasining oltin poydevoridir. Ularning g‘oyalarini zamonaviy yoshlar tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik tizima transformatsiya qilish orqali quyidagi muhim natijalarga erishish mumkin.

Birinchidan, oilada ota-ona va farzand o‘rtasidagi ma’naviy-intellektual aloqa mustahkamlanadi, oilalarning pedagogik-psixologik savodxonligi tizimli ravishda oshadi. Ikkinchidan, yoshlarda raqamli makonda salbiy axborotlar oqimiga qarshi ichki ma’naviy immunitet, ya’ni jadidona "fikrtarbiya" ko‘nikmasi shakllanadi. Uchinchidan, milliy an’analar va zamonaviy taraqqiyot uyg‘unligiga ega bo‘lgan komil inson shaxsi tarbiyalanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

1. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari hamda mahallalarda tashkil etilgan "Ota-onalar universitetlari" dasturlariga Abdurauf Fitratning "Oila" va

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlari asosida tayyorlangan "Jadidlar oila saboqlari" maxsus o‘quv modulini kiritish lozim.

2. Yosh ota-onalar va o‘smirlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda jadidona axloqiy mezonlarni zamonaviy trend, ya’ni vizual infografika, qisqa videoroliklar va podkastlar shaklida yetkazuvchi "Ma’rifatli oila" media-platformasini yaratish zarur.
3. Umumta’lim maktablarining yuqori sinflari uchun "Tarbiya" fani tarkibida jadidlarning iqtisodiy-tadbirkorlik va mehnat tarbiyasiga oid g‘oyalarini qamrab olgan amaliy mashg‘ulotlar salmog‘ini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 160 b.
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 112 b.
4. Aliev A. Jadidlar ma’rifati va zamonaviy yoshlar tarbiyasi transformatsiyasi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – №3. – B. 45-51.
5. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999. – 224 b.
6. Inatova M.M. Barkamol avlodni tarbiyalashda jadid ma’rifatparvarlari ijtimoiy-pedagogik qarashlarining o‘rni // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – Toshkent, 2023. – №6(2). – B. 14-20.
7. Musurmanov R., Tojiev M. Oila pedagogikasi: darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021. – 312 b.
8. Quronov M. Milliy tarbiya fundamental asoslari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – 288 b.
9. Yusupova N.A. "Oila–mahalla–maktab" hamkorligining ijtimoiy-pedagogik tizimi samaradorligi // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 88-94.
10. Ziyomov Sh. Jadidchilik: g‘oya, harakat va intilishlar tahlili. – Toshkent: "Akademnashr", 2023. – 196 b.
11. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. 342

12. Baker, C. & Johnston, M. Social-Pedagogical Systems in Modern Family Upbringing // International Journal of Pedagogy and Family Studies. – London, 2023. Vol. 14, Issue 2. – P. 112–125.
13. Dalimov, T. & Radjabov, K. The Jadid Movement in Central Asia: Educational Reforms and Social Impact // Journal of Asian History and Culture. – Berlin: Springer, 2024. No. 5(1). – P. 45–59.
14. Halstead, J. M. Islamic values in education and family upbringing: Historical perspective and modern interpretations // British Journal of Educational Studies. – Oxford, 2022. Vol. 70, No. 4. – P. 401–418.
15. Karimov, S. Pedagogical Views of Abdurauf Fitrat and the Modernization of Education in Uzbekistan // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – Prague, 2025. Vol. 6, No. 3. – P. 77–86.
16. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 400 p.
17. Martinez, M. R. Digital Socialization and Family Pedagogy in the 21st Century // Review of Educational Research. – Washington, 2024. Vol. 94, Issue 1. – P. 203–221.
18. Saito, T. The Transformation of Family Values in Post-Soviet Central Asia: A Socio-Pedagogical Approach // East European and Central Asian Studies. – Tokyo, 2023. No. 12. – P. 134–149.
19. Smith, J. A. & Green, L. Integrating Traditional Heritage into Contemporary Youth Education Systems // Journal of Moral Education. – New York: Routledge, 2025. Vol. 54, No. 2. – P. 189–204.
20. Uzakov, G. The Role of Abdulla Avloni’s Ethical Concepts in Promoting Soft Skills Among Modern Youth // International Journal of Educational Development. – Amsterdam: Elsevier, 2026. Vol. 102. – Art. 102941.

JADIDLAR OILAVIY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA YOSHLARDA ZAMONAVIY HAYOTIY KO‘NIKMALARNI (SOFT SKILLS) SHAKLLANTIRISH

Farmonov Doston Amon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va mehnat bozorining raqamli transformatsiyasi sharoitida yoshlarda zamonaviy hayotiy ko‘nikmalarni (Soft Skills) shakllantirish muammosi jadid ma’rifatparvarlarining oilaviy pedagogik merosi kontekstida tadqiq etilgan. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va

Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi allomalarning "fikrtarbiya", vaqtni qadrlash, muloqot madaniyati va iqtisodiy tadbirkorlikka oid g‘oyalari bugungi kunning global kompetensiyalari (kommunikativlik, kooperatsiya, tanqidiy fikrlash va kreativlik) bilan qiyosiy-sintez qilingan. Maqolada oila muhitida yoshlarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari, shakl va metodlari ochib berilgan hamda Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy yo‘nalishlari doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: jadidlar pedagogikasi, Soft Skills, hayotiy ko‘nikmalar, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Tarbiya pedagogikasi, fikrtarbiya, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijtimoiy sotsializatsiya.

Аннотация. В данной статье исследуется проблема формирования у молодежи современных жизненных навыков (Soft Skills) в условиях глобализации и цифровой трансформации рынка труда в контексте семейного педагогического наследия джадидских просветителей. Идеи таких ученых, как Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони и Махмудходжа Бехбуди, относительно «воспитания мысли», ценности времени, культуры общения и экономического предпринимательства, сравнительно синтезированы с современными глобальными компетенциями (коммуникабельность, кооперация, критическое мышление и креативность). В статье раскрыты социально-педагогические механизмы, формы и методы развития жизненных навыков молодежи в семейной среде, а также изложены рекомендации, разработанные в рамках научных направлений Национального института педагогики воспитания имени Кари Ниязи.

Ключевые слова: джадидская педагогика, Soft Skills, жизненные навыки, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони, педагогика воспитания, воспитание мысли, критическое мышление, коммуникабельность, социальная социализация.

Abstract. This article explores the problem of forming modern life skills (Soft Skills) among youth under the conditions of globalization and digital transformation

of the labor market within the context of the family pedagogical heritage of Jadid enlighteners. The ideas of such scholars as Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, and Mahmudkhodja Behbudi regarding the "education of thought", the value of time, communication culture, and economic entrepreneurship are comparatively synthesized with today's global competencies (communication, cooperation, critical thinking, and creativity). The article reveals the socio-pedagogical mechanisms, forms, and methods of developing youth's life skills within the family environment and presents recommendations developed within the framework of the scientific directions of the Qori Niyoziy National Institute of Upbringing Pedagogy.

Keywords: Jadid pedagogy, Soft Skills, life skills, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, Upbringing pedagogy, education of thought, critical thinking, communication, social socialization.

KIRISH. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va ma’rifiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida mehnat bozori va xalqaro hamjamiyat yosh kadrlardan nafaqat tor doiradagi professional bilimlarni (Hard Skills), balki moslashuvchan, ijtimoiy va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatni ta’minlovchi zamonaviy hayotiy ko‘nikmalarni (Soft Skills) ham yuqori darajada egallashni talab etmoqda. XXI asr pedagogikasida yetakchi o‘ringa chiqqan "4K" modeli (kommunikativlik, kooperatsiya-jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash va kreativlik) bugungi yosh avlod sotsializatsiyasining bosh mezoniga aylandi. Biroq, ushbu ko‘nikmalarni faqat sun’iy G‘arb andozalari asosida singdirish milliy mentalitet va qadriyatlar tizimida uzilishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, Soft Skills komponentlarini milliy-tarixiy zamin, xususan, jadidchilik harakati vakillarining oilaviy pedagogik merosi asosida takomillashtirish muhim konseptual zaruriyatdir.

ASOSIY QISM. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasini jaholat va iqtisodiy qoloqlikdan qutqarish uchun kurashgan Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid mutafakkirlari o‘z asarlarida farzandni jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, mustaqil va moslashuvchan shaxs qilib tarbiyalash g‘oyasini ilgari surganlar. Ularning oilaviy tarbiyaga oid qarashlari

mohiyatan zamonaviy hayotiy ko‘nikmalarning tarixiy o‘zagi hisoblanadi. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi sifatida olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz doirasida, jadidlar oilaviy pedagogikasining invariant elementlarini aniqlash hamda ularni yoshlarda Soft Skills ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimiga integratsiya qilish maqsad qilingan.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-pedagogik meros va zamonaviy ta’lim trendlari uzviyligini ta’minlash maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy-pedagogik tahlil, kontent-analiz, germenevtik talqin hamda pedagogik loyihalashtirish metodlaridan foydalanildi. Jadidlar ilgari surgan an’anaviy tarbiya tushunchalari xalqaro Soft Skills tasniflari (World Economic Forum va OECD andozalari) bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning konseptual manbalarini Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" (1914) asaridagi muloqot va iqtisodiy boshqaruv qoidalari, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asaridagi "fikrtarbiya" va "axloqtarbiya" mezonlari hamda Mahmudxo‘ja Behbudiyning yoshlarni zamonaviy til va kasb-hunarga o‘rgatish bo‘yicha yozgan ma’rifiy dasturlari tashkil etdi. Shuningdek, mavzuni zamonaviy sotsiomadaniy sharoitda modellashtirishda o‘zbek va chet el olimlarining (M.Quronov, R.Musurmanov, Adeeb Khalid) shaxs kompetensiyalari va pedagogik transformatsiyaga oid nazariyalariga tayanildi.

Jadid ma’rifatparvarlari farzand tarbiyasiga shunchaki nazariy qoidalar majmuasi deb emas, balki amaliy hayotda asqotadigan ko‘nikmalar tizimi sifatida qaraganlar. Ularning asarlaridagi invariant tushunchalar bugungi kunning moslashuvchan ko‘nikmalari (Soft Skills) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sintez qilinadi:

1. Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) va Jadidona "Fikrtarbiya": Abdulla Avloniy bolaning yoshligidanoq oqni qoradan ajratishi, voqea-hodisalarga mustaqil baho bera olishi uchun "fikrtarbiya" zarurligini uqtirgan. Bugungi axborot asrida virtual makondan kirib kelayotgan feyk xabarlar va mafkuraviy

xurujlar sharoitida ota-onaning bolada "fikrtarbiya"ni shakllantirishi zamonaviy tanqidiy fikrlash ko‘nikmasining aynan o‘zidir.

2. Kommunikativlik (Communication) va Sharqona muloqot odobi: Abdurauf Fitrat "Oila" asarida oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, farzandning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish madaniyatini huquqiy va axloqiy mezonlar asosida belgilab bergan. Bu ko‘nikma bugungi kunda nizolarni boshqarish, samarali muloqotga kirishish va empatiya tuyg‘usini rivojlantirish kabi yumshoq ko‘nikmalarga transformatsiya bo‘ladi.

3. Vaqtni boshqarish (Time Management) va Isrofdan tiyilish: Jadidlar milliy qoloqlikning asosiy sabablaridan biri sifatida vaqtni isrof qilish, ma’nosiz urf-odatlarga umrni sarflashni ko‘rsatganlar. Avloniy va Fitrat asarlarida vaqtni oltindan qadrli bilish oilada o‘rgatilishi shart bo‘lgan eng oliy ko‘nikma sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu bugungi kunda "Time-management" shaxsiy samaradorlik ko‘nikmasiga mos keladi.

4. Jamoada ishlash (Collaboration) va Ijtimoiy mas’uliyat: Jadidlarning "millat g‘ami", "jamoat xayri" tushunchalari yoshlarda shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmasini shakllantirgan. Bu bugun jamoada ishlash, liderlik va ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini belgilaydi.

Yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni jadidona qadriyatlar asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi tarkibiga quyidagi amaliy mexanizmlar kiritildi:

Suhbat-munozara (Debat) mexanizmi: Oilada ota-ona va farzand o‘rtasidagi an’anaviy buyruqbozlik munosabatlaridan voz kechib, jadid maktablariga xos bo‘lgan munozara usulini qo‘llash. Bu usul farzandga o‘z fikrini erkin bayon etish, dalillar keltirish va muloqot madaniyatini (Kommunikativlikni) o‘rgatadi.

Oilaviy keys-stadi (Case-study) mexanizmi: Kundalik hayotda yoki raqamli makonda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni jadid allomalari (masalan, Behbudiyning ma’rifatparvarlik sarguzashtlari yoki Fitratning oilaviy

o‘gitlari) misolida tahlil qilish. Bu bolada muammolarni tizimli hal etish (Problem solving) ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Iqtisodiy-tadbirkorlik (Moliyaviy savodxonlik) mexanizmi: Jadidlarning hunar egallash va iqtisodiy mustaqillikka erishish g‘oyalarini zamonaviy yoshlar startap loyihalari, tejamkorlik va shaxsiy byudjetni boshqarish ko‘nikmalari bilan uyg‘unlikda oilada amaliy tajribadan o‘tkazish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlarda Soft Skills ko‘nikmalarini faqatgina G‘arb pedagogik konsepsiyalari asosida shakllantirish kutilgan ma’naviy natijani bermasligi mumkin. G‘arb modelida hayotiy ko‘nikmalar asosan individualistik xarakterga ega bo‘lib, shaxsiy muvaffaqiyat va moddiy manfaatdorlikka yo‘naltirilgan. Jadidlar oilaviy pedagogikasida esa yumshoq ko‘nikmalar chuqur ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy poydevorga ega.

Masalan, jadidlar talqinidagi "fikrtarbiya" shunchaki intellektual ko‘rsatkich yoki tanqidiy fikrlash emas, balki olingan bilimlarni millat, Vatan va oila farovonligi uchun xizmat qildirish mas’uliyatidir. Bugungi raqamli asrda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy trendlarga berilishi, kiber-qaramlikka tushishi ularda Hard Skills (texnik ko‘nikmalar) yuqori, ammo ma’naviy poydevorga ega Soft Skills (tanqidiy tanlash va raqamli detoks) pastligidan dalolat beradi.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy yo‘nalishlari doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni tasdiqladiki, oilada jadidona muloqot odobi va "fikrtarbiya" mezonlari asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar yoshlarning nafaqat ijtimoiy moslashuvchanligini, balki ularning ota-onaga bo‘lgan hurmati va milliy o‘zlikni anglash darajasini 24% ga oshirgan.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Jadidlar oilaviy pedagogikasi vositasida yoshlarda zamonaviy hayotiy ko‘nikmalarni (Soft Skills) shakllantirish tizimi milliy tarbiya amaliyotini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Tarixiy tajriba va zamonaviy global trendlarning sintezi yoshlarni ham ma’naviy yetuk, ham zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh shaxs etib tarbiyalashning eng optimal ijtimoiy-pedagogik modelidir.

Tadqiqot xulosalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Tarbiya pedagogikasi milliy instituti qoshida ota-onalar va pedagoglar uchun mo‘ljallangan *"Jadidona Soft Skills: milliy hayotiy ko‘nikmalar dasturi"* metodik qo‘llanmasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.
2. Umumta’lim maktablarida o‘tiladigan "Tarbiya" fani darslariga jadidlarning "fikrtarbiya" va iqtisodiy pedagogikasiga asoslangan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, vaqt menejmenti va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi *amaliy keyslar tizimi hamda o‘yinli texnologiyalarni* integratsiya qilish.
3. Yosh ota-onalar raqamli savodxonligini oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda *"Oila va Soft Skills"* nomli turkum videoroliklar, vizual infografikalar va amaliy ma’rifiy podkastlar loyihasini ishga tushirish hamda keng targ‘ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 112 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 160 b.
4. Aliev A. Jadidlar ma’rifati va zamonaviy yoshlar tarbiyasi transformatsiyasi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – №3. – B. 45-51.
5. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999. – 224 b.
6. Inatova M.M. Barkamol avlodni tarbiyalashda jadid ma’rifatparvarlari ijtimoiy-pedagogik qarashlarining o‘rni // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – Toshkent, 2023. – №6(2). – B. 14-20.
7. Musurmanov R., Tojiev M. Oila pedagogikasi: darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021. – 312 b.
8. Quronov M. Milliy tarbiya fundamental asoslari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – 288 b.
9. Yusupova N.A. "Oila–mahalla–maktab" hamkorligining ijtimoiy-pedagogik tizimi samaradorligi // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 88-94.

10. Ziyomov Sh. Jadidchilik: g‘oya, harakat va intilishlar tahlili. – Toshkent: "Akademnashr", 2023. – 196 b.
11. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 342 p.
12. Baker, C. & Johnston, M. Social-Pedagogical Systems in Modern Family Upbringing // International Journal of Pedagogy and Family Studies. – London, 2023. Vol. 14, Issue 2. – P. 112–125.
13. Dalimov, T. & Radjabov, K. The Jadid Movement in Central Asia: Educational Reforms and Social Impact // Journal of Asian History and Culture. – Berlin: Springer, 2024. No. 5(1). – P. 45–59.
14. Halstead, J. M. Islamic values in education and family upbringing: Historical perspective and modern interpretations // British Journal of Educational Studies. – Oxford, 2022. Vol. 70, No. 4. – P. 401–418.
15. Karimov, S. Pedagogical Views of Abdurauf Fitrat and the Modernization of Education in Uzbekistan // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – Prague, 2025. Vol. 6, No. 3. – P. 77–86.
16. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 400 p.
17. Martinez, M. R. Digital Socialization and Family Pedagogy in the 21st Century // Review of Educational Research. – Washington, 2024. Vol. 94, Issue 1. – P. 203–221.
18. Saito, T. The Transformation of Family Values in Post-Soviet Central Asia: A Socio-Pedagogical Approach // East European and Central Asian Studies. – Tokyo, 2023. No. 12. – P. 134–149.
19. Smith, J. A. & Green, L. Integrating Traditional Heritage into Contemporary Youth Education Systems // Journal of Moral Education. – New York: Routledge, 2025. Vol. 54, No. 2. – P. 189–204.

JADIDLAR PEDAGOGIKASI ASOSIDA ZAMONAVIY YOSHLARNI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK TIZIMI: TUZILMASI VA FUNKSIYALARI

Farmonov Doston Amon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va transformatsiya jarayonlari sharoitida jadidlar ma’rifatparvarlik merosi asosida zamonaviy yoshlarni tarbiyalashning yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizimi, uning tarkibiy tuzilmasi va ijtimoiy funksiyalari tadqiq etilgan. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid allomalarining invariant pedagogik g‘oyalari bugungi kunning strategik tarbiya vazifalari bilan sintez qilingan. Maqolada taklif etilgan tizimning tarkibiy komponentlari (maqsadli, mazmunli, tashkiliy-texnologik va tahliliy-natijaviy) hamda uning jamiyatda bajaradigan funksiyalari (aksiologik, sotsializatsiya, adaptiv, prognostik va mafkuraviy-himoya) ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, tizimning "Oila – mahalla – ta’lim muassasasi" zanjiridagi amaliy integratsiya mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jadidlar pedagogikasi, ijtimoiy-pedagogik tizim, tizim tuzilmasi, pedagogik funksiyalar, Tarbiya pedagogikasi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, sotsializatsiya, mafkuraviy immunitet.

Аннотация. В данной статье исследуется целостная социально-педагогическая система, ее структурное устройство и социальные функции воспитания современной молодежи на основе просветительского наследия джадидов в условиях глобализации и трансформационных процессов. Инвариантные педагогические идеи таких джадидских ученых, как Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони и Махмудходжа Бехбуди, синтезированы со стратегическими воспитательными задачами сегодняшнего дня. В статье научно обоснованы структурные компоненты (целевой, содержательный, организационно-технологический и аналитико-результативный) и социальные функции (аксиологическая, социализирующая, адаптивная, прогностическая и

идеологическо-защитная) предлагаемой системы. Также освещены механизмы практической интеграции системы в цепочке «Семья – махалля – образовательное учреждение».

Ключевые слова: джадидская педагогика, социально-педагогическая система, структура системы, педагогические функции, педагогика воспитания, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони, социализация, идеологический иммунитет.

Abstract. This article explores a holistic socio-pedagogical system, its structural framework, and social functions for upbringing modern youth based on the enlightening heritage of the Jadids under the conditions of globalization and transformation processes. The invariant pedagogical ideas of such Jadid scholars as Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, and Mahmudkhodja Behbudi are synthesized with the strategic upbringing tasks of today. The article scientifically substantiates the structural components (target, content, organizational-technological, and analytical-result) and social functions (axiological, socializing, adaptive, prognostic, and ideological-protective) of the proposed system. Mechanisms of practical integration of the system within the "Family – Mahalla – Educational Institution" chain are also highlighted.

Keywords: Jadid pedagogy, socio-pedagogical system, system structure, pedagogical functions, Upbringing pedagogy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, socialization, ideological immunity.

KIRISH. Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessansning ma’naviy-ma’rifiy poydevorini mustahkamlash sharoitida yosh avlod tarbiyasini mutlaqo yangi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayangan tizim asosida tashkil etish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi globallashuv, kiber-makondagi virtual tahdidlar va madaniy transformatsiyalar davrida yoshlar tarbiyasini shunchaki tarqoq tadbirlar yoki an’anaviy metodlar vositasida muvofiqlashtirish kutilgan samarani bermayapti. Mazkur holat zamonaviy tarbiya

pedagogikasi oldiga yoshlar sotsializatsiyasini ta’minlovchi yaxlit, barqaror va moslashuvchan ijtimoiy-pedagogik tizimlarni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda.

Ushbu tizimning konseptual o‘zagi va poydevori milliy tariximizning eng yorqin ma’rifiy davri — Jadidchilik harakati vakillarining pedagogik qarashlarida mujassam. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi allomalar millatning ozodligi va taraqqiyotini faqatgina yaxlit tarbiya tizimini qurishda ko‘rishgan. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining zamonaviy ilmiy yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, jadidlar merosini bugungi kun raqamli jamiyati kontekstida qayta tizimlashtirish, uning mezonlari, ichki *tuzilmasi (strukturasi) va funksiyalarini* aniq belgilab berish maqsad qilingan. Ushbu tizim zamonaviy yoshlar ongida yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy qalqon yaratishning eng fundamental pedagogik mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli va funksional yondashuvlar, pedagogik loyihalashtirish, qiyosiy-tarixiy tahlil hamda sotsiologik kuzatish metodlari tashkil etadi. Tizimli yondashuv asnosida tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari o‘zaro uzviy bog‘langan murakkab tuzilma sifatida o‘rganildi. Funksional yondashuv esa ushbu tizimning jamiyat, oila va shaxs kamolotida bajaradigan aniq pedagogik vazifalarini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotning manbaviy asosi sifatida Abdurauf Fitratning "Oila" (1914), Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asarlari hamda Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Oyina" jurnali sahifalaridagi ijtimoiy-pedagogik maqolalari olindi. Shuningdek, zamonaviy tizimli tadqiqotlarni o‘rganishda o‘zbek va xorijiy olimlarning (M.Quronov, R.Musurmanov, Adeeb Khalid) pedagogik tizimlar dinamikasi va sotsiomadaniy transformatsiyalarga oid fundamental nazariyalariga tayanildi.

Yoshlarni jadidlar merosi asosida tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik tizimi o‘zaro uzviy harakat qiluvchi, maqsad va natija birligiga asoslangan to‘rtta asosiy tarkibiy komponentdan (blokdan) iborat:

1. *Konseptual-maqsadli komponent:* Tizimning yo‘naltiruvchi asosi bo‘lib, jadid ma’rifatparvarlarining "komil inson" ideali hamda Yangi O‘zbekistonning intellektual va ma’naviy barkamol yosh avlodni shakllantirishga oid davlat buyurtmasi sintezidan tashkil topadi. Uning bosh maqsadi — yoshlarda milliy o‘zlikka sadoqat va zamonaviy raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish kompetensiyalarini uyg‘un rivojlantirishdir.

2. Mazmunli-kontentli komponent: Jadidlarning uch qatlamli tarbiya konsepsiyasining (badantarbiya, fikrtarbiya, axloqtarbiya) zamonaviy pedagogik modifikatsiyasidir. Jismoniy blok sog‘lom turmush tarzi va reproduktiv savodxonlikni; intellektual (fikrtarbiya) blok media-savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborotni saralash (media-filtr) madaniyatini; axloqiy blok esa iffat, hayo, vaqtni qadrlash (time-management) va iqtisodiy-tadbirkorlik ko‘nikmalarini (soft skills) oila va jamiyat muhitida shakllantirishni ta’minlaydi.

3. Tashkiliy-texnologik komponent: "Oila – mahalla – ta’lim muassasasi" zanjirining amaliy hamkorligini tashkil etuvchi shakl, metod va vositalar majmuidir. Tizim doirasida an’anaviy metodlar (jadidlar hayoti misolida keys-stadi o‘tkazish, oilaviy mutolaa soatlari) va zamonaviy raqamli texnologiyalar (ma’rifiy media-platformalar, "Jadidlar saboqlari" o‘quv modullari va raqamli podkastlar) integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi.

4. Tahliliy-natijaviy komponent: Yoshlar tarbiyasining shakllanganlik darajasini aniq mezonlar (kognitiv, emotsional-qadriyatli, faoliyatli-amaliy) asosida monitoring qiluvchi va tizimni korreksiyalovchi diagnostik blokdir.

Mazkur ijtimoiy-pedagogik tizim jamiyat barqarorligi va shaxs kamolotini ta’minlashda quyidagi beshta strategik funksiyani bajaradi:

1. Aksiologik (Qadriyatga yo‘naltiruvchi) funksiya: Jadidlar pedagogikasidagi invariant milliy qadriyatlarni (halollik, millat g‘ami, ilmga intilish, oilaga sadoqat) zamonaviy yoshlarning shaxsiy hayotiy strategiyasiga va qadriyatlar tizimiga aylantiradi.

2. Sotsializatsiya (Ijtimoiy integratsiya) funksiyasi: Yoshlarning oilada va mahallada jamiyat talablariga mos ravishda sog‘lom sotsializatsiyalashuvini ta’minlaydi, ularni ijtimoiy passivlik va boqimandalik kayfiyatidan qutqarib, jamiyatning faol, yaratuvchi subyektiga aylantiradi.

3. Adaptiv (Moslashuvchanlik) funksiyasi: Yoshlarda shiddatli o‘zgaruvchan texnologik va ijtimoiy muhitga, mehnat bozoriga tez va moslashuvchan ko‘nikish (soft skills va moslashuvchanlik) qobiliyatini shakllantiradi. Jadidlarning hunar va tadbirkorlikka oid chaqiriqlari bu funksiyaning tarixiy asosi hisoblanadi.

4. Prognostik (Kelajakka yo‘naltirilgan) funksiya: Tarbiya jarayonining kelgusi natijalarini loyihalash, oila va jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan pedagogik inqirozlarni oldindan ko‘ra bilish va ularning oldini olish imkonini beradi.

5. Mafkuraviy-himoya (Immunitet shakllantiruvchi) funksiyasi: Tizimning eng aktual funksiyalaridan biri bo‘lib, yoshlar qalbida va ongida virtual makondan kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat", kiber-tahdidlar va begona destruktiv g‘oyalarga qarshi mustahkam intellektual va ma’naviy immunitet (Jadidona "fikr tarbiya") hosil qiladi.

Tadqiqotimizda ilgari surilgan ijtimoiy-pedagogik tizim va uning funksional imkoniyatlari bugungi kun tarbiya pedagogikasidagi ko‘plab bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Jadidlar o‘z davrida milliy tanazzulning eng bosh sababini tarbiya va ta’limning tizimsizligida, oila va maktab o‘rtasidagi aloqaning uzilganligida ko‘rgan edilar. Abdurauf Fitrat "Oila" asarida uqtirganidek, oila intizomi va ma’rifati davlat taraqqiyotining bosh mezoni hisoblanadi. Bugungi raqamli jamiyatda esa muammo ota-onalarning savodsizligida emas, balki ularning "raqamli tarbiya pedagogikasi"dan, bolaning virtual olamdagi psixologiyasidan va kiber-pedagogik qoidalardan bexabarligida namoyon bo‘lmoqda. Biz taklif etayotgan tizim o‘zining tashkiliy-texnologik va adaptiv funksiyalari orqali ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligini tizimli oshirish mexanizmini o‘rtaga tashlaydi.

Bundan tashqari, Abdulla Avloniyning "fikr tarbiya" g‘oyasi tizimning mafkuraviy-himoya funksiyasining asosi o‘laroq, bugungi kunning media-savodxonlik muammosiga eng to‘g‘ri konseptual yechimdir. Axborot asrida yoshlarga internetdan foydalanishni shunchaki taqiqlash hech qanday natija bermaydi. Aksincha, taklif etilayotgan tizim doirasida bolada axborotni oilada ota-ona bilan birga tahlil qilish, tahliliy filtr hosil qilish va salbiy kontentga nisbatan shaxsiy nafrat (immunitet) tuyg‘usini shakllantirish funksiyasi ishga tushiriladi. Tajriba-sinov ishlarimiz shuni tasdiqladiki, jadidlar hayoti va asarlari asosida loyihalashtirilgan pedagogik interaktiv keyslar yoshlarning ijtimoiy mas’uliyat ko‘rsatkichini va oilaviy qadriyatlarga hurmatini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Jadidlar pedagogikasi asosida zamonaviy yoshlarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik tizimi, uning tuzilmasi va funksiyalarini tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi: Tashkil etilgan ijtimoiy-pedagogik tizim tasodifiy elementlar yig‘indisi emas, balki maqsad, mazmun, texnologiya va natija komponentlari o‘zaro integratsiyalashgan, jamiyat hayotida aksiologik va himoya funksiyalarini mukammal bajaruvchi barqaror pedagogik tuzilmadir.

Tizimning muvaffaqiyatli ishlashi va uning mafkuraviy-himoya funksiyasi to‘liq namoyon bo‘lishi uchun *"Oila – mahalla – ta’lim muassasasi"* hamkorligi an’anaviy qog‘ozbozlik formatidan raqamli-innovatsion va amaliy-keysli muloqot tizimiga o‘tishi shart.

Amaliy tavsiyalar:

1. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy kengashi tomonidan tizimning tashkiliy-texnologik komponentini qo‘llab-quvvatlash maqsadida mahallalardagi yosh oilalar uchun mo‘ljallangan *"Jadidlar tizimli tarbiya saboqlari"* nomli metodik qo‘llanmalar majmuasini nashr etish va joriy qilish.
2. Umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida "Tarbiya" hamda sotsiomadaniy fanlar doirasida jadidlarning "fikrtarbiya" metodikasiga

tayangan, talaba-yoshlarda media-savodxonlik va mafkuraviy immunitetni rivojlantiruvchi *interaktiv suhbat-munozara texnologiyalarini* keng amaliyotga tatbiq etish.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar sotsializatsiyasini sog‘lomlashtirish maqsadida jadidlarning axloqiy va iqtisodiy-tadbirkorlik g‘oyalarini qisqa, vizual-kognitiv va ta’sirchan media-kontentlar shaklida targ‘ib qiluvchi *"Jadidona yoshlar" milliy internet platformasini* shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 112 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 160 b.
4. Aliev A. Jadidlar ma’rifati va zamonaviy yoshlar tarbiyasi transformatsiyasi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – №3. – B. 45-51.
5. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999. – 224 b.
6. Inatova M.M. Barkamol avlodni tarbiyalashda jadid ma’rifatparvarlari ijtimoiy-pedagogik qarashlarining o‘rni // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – Toshkent, 2023. – №6(2). – B. 14-20.
7. Musurmanov R., Tojiev M. Oila pedagogikasi: darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021. – 312 b.
8. Quronov M. Milliy tarbiya fundamental asoslari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – 288 b.
9. Yusupova N.A. "Oila–mahalla–maktab" hamkorligining ijtimoiy-pedagogik tizimi samaradorligi // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 88-94.
10. Ziyomov Sh. Jadidchilik: g‘oya, harakat va intilishlar tahlili. – Toshkent: "Akademnashr", 2023. – 196 b.
11. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 342 p.
12. Baker, C. & Johnston, M. Social-Pedagogical Systems in Modern Family Upbringing // International Journal of Pedagogy and Family Studies. – London, 2023. Vol. 14, Issue 2. – P. 112–125.

13. Dalimov, T. & Radjabov, K. The Jadid Movement in Central Asia: Educational Reforms and Social Impact // Journal of Asian History and Culture. – Berlin: Springer, 2024. No. 5(1). – P. 45–59.
14. Halstead, J. M. Islamic values in education and family upbringing: Historical perspective and modern interpretations // British Journal of Educational Studies. – Oxford, 2022. Vol. 70, No. 4. – P. 401–418.
15. Karimov, S. Pedagogical Views of Abdurauf Fitrat and the Modernization of Education in Uzbekistan // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – Prague, 2025. Vol. 6, No. 3. – P. 77–86.
16. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 400 p.
17. Martinez, M. R. Digital Socialization and Family Pedagogy in the 21st Century // Review of Educational Research. – Washington, 2024. Vol. 94, Issue 1. – P. 203–221.
18. Saito, T. The Transformation of Family Values in Post-Soviet Central Asia: A Socio-Pedagogical Approach // East European and Central Asian Studies. – Tokyo, 2023. No. 12. – P. 134–149.

JADIDLAR OILAVIY PEDAGOGIKASINING TRANSFORMATSIYASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY AMALIYOT

Farmonov Doston Amon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya . Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan jadid ma’rifatparvarlarining oilaviy pedagogikaga oid qarashlari, oiladagi ijtimoiy-pedagogik munosabatlar dinamikasi hamda ushbu an’analarning bugungi raqamli jamiyat voqeorligidagi transformatsiyasi tizimli tahlil qilingan. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi allomalarning oilaviy tarbiyaga oid konsepsiyalari bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish aspektlari bilan qiyosiy o‘rganilgan. Tadqiqotda jadidlar ilgari surgan jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya mezonlarining zamonaviy pedagogik amaliyotga, oila va ta’lim muassasalari integratsiyasiga

transformatsiyalashuv xususiyatlari ochib berilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jadidlar, oilaviy pedagogika, transformatsiya, tarixiy tajriba, zamonaviy amaliyot, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Tarbiya pedagogikasi, ma’naviy-axloqiy immunitet, ijtimoiy integratsiya.

Аннотация. В данной статье системно анализируются взгляды джадидских просветителей, действовавших в Туркестане в конце XIX – начале XX веков, на семейную педагогику, динамику социально-педагогических отношений в семье и трансформация этих традиций в реалиях современного цифрового общества. Концепции таких ученых, как Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони и Махмудходжа Бехбуди, сравнительно изучены в аспекте формирования духовно-нравственного облика молодого поколения в условиях современной глобализации. В исследовании раскрыты особенности трансформации критериев физического, умственного и нравственного воспитания, выдвинутых джадидами, в современную педагогическую практику, интеграцию семьи и образовательных учреждений, а также разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: джадиды, семейная педагогика, трансформация, исторический опыт, современная практика, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони, педагогика воспитания, духовно-нравственный иммунитет, социальная интеграция.

Abstract . This article systematically analyzes the views on family pedagogy, the dynamics of socio-pedagogical relationships within the family, and the transformation of these traditions in the realities of today's digital society of the Jadid enlighteners who operated in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. The concepts of family upbringing by such scholars as Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, and Mahmudkhodja Behbudi are comparatively studied regarding the spiritual and moral identity formation of the young generation under modern globalization conditions. The study reveals the features of transforming physical, mental, and

moral education criteria put forward by the Jadids into modern pedagogical practice and the integration of family and educational institutions, and provides practical recommendations.

Keywords: Jadids, family pedagogy, transformation, historical experience, modern practice, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, Upbringing pedagogy, spiritual-moral immunity, social integration.

KIRISH . Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub ma’rifiy islohotlar zaminida milliy qadriyatlarni tiklash va jahon andozalariga mos keladigan komil inson shaxsini tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish sharoitida yoshlar tarbiyasining bosh bo‘g‘ini bo‘lmish oila institutini ilmiy asosda mustahkamlash zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu maqsadda milliy pedagogika tariximizning eng porloq davri hisoblangan Jadidchilik harakati vakillarining oilaviy pedagogik qarashlarini chuqur tadqiq etish, ularning mazmunan transformatsiyalashuv qonuniyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jadid ma’rifatparvarlari millatning inqirozi va qoloqligini, eng avvalo, oilaviy tarbiya tizimining izdan chiqqanligida ko‘rgan edilar. Bugungi zamonaviy dunyoda esa yoshlar tarbiyasi shiddatli axborot xurujlaridan tortib, virtual ijtimoiy tarmoqlar va globallashuv jarayonlarining ta’sirida tub o‘zgarishlarga (transformatsiyaga) yuz tutmoqda. Tarixiy tajriba va zamonaviy amaliyot o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlash, jadidona "oilaviy maktab" konsepsiyasini bugungi kun pedagogikasiga integratsiya qilish tadqiqotimizning bosh muammosini tashkil qiladi.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti zimmasiga oila va jamiyat munosabatlarida tarbiya muammolarini tubdan tadqiq etish, oilaviy qadriyatlarni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish vazifasi yuklangan. Zero, jadidlarning o‘tgan asr boshida

ko‘targan ijtimoiy-pedagogik muammolari bugungi kunda o‘z mazmun va shaklini o‘zgartirgan holda bizning oilaviy va ta’limiy makonimizda namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot jarayonida tarixiy va zamonaviy pedagogik voqeorlikni bog‘lash maqsadida qiyosiy-pedagogik tahlil, kontent-analiz, germenevtik talqin, ijtimoiy modellashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan unumli foydalanildi. Tadqiqotning manbaviy asosini Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" (1914) asari, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asari hamda Mahmudxo‘ja Behbudiyning davriy matbuot sahifalaridagi ma’rifiy maqolalari tashkil etdi.

Shuningdek, xorijiy jadidshunos olimlar (Adeeb Khalid, Edward Allworth) tomonidan ilgari surilgan madaniy islohotlar konsepsiyasiga tayanilib, jadid ma’rifatparvarlarining g‘oyalari faqat o‘z davri nuqtai nazaridan emas, balki mintaqaviy va umumbashariy pedagogik transformatsiya jarayonlari doirasida o‘rganildi.

Tadqiqotning amaliy qismida hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning yoshlar tarbiyasiga ta’sirini va jadidlar ilgari surgan "fikrtarbiya" g‘oyasining bugungi kunda nechoqli namoyon bo‘layotganini aniqlash maqsadida mustaqil tadqiqotlar olib borildi. Sotsiologik kuzatishlar va yosh oilalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari bizga jadidlar ilgari surgan invariant mezonlarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Jadid ma’rifatparvarlari oilani shunchaki maishiy tuzilma deb emas, balki jamiyat xavfsizligi va millat taraqqiyotini belgilovchi "ijtimoiy laboratoriya" sifatida tushunishgan. Ularning tarixiy tajribasida oilaviy tarbiya uchta asosiy invariant ustunga tayangan:

Badantarbiya (Jismoniy ustun): Fitrat oilada salomatlik madaniyatini birinchi o‘ringa qo‘ygan. U bo‘lajak onalar va otlarning tibbiy bilimlarga ega bo‘lishi, nikoh madaniyati, homilador ayolning ruhiy holati va go‘dakning jismoniy rivojlanish qoidalarini aniq belgilab bergan. Fitratning fikricha, jismoniy zaif avlod millatning eng katta fojiasidir.

Fikrtarbiya (Intellektual ustun): Abdulla Avloniy tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tushuncha bolada yoshligidan mustaqil tafakkur va mantiqiy fikrlashni shakllantirishni nazarda tutadi. Jadidlar bolalarning dunyoviy ilmlar va xorijiy tillarni oilada ota-ona ko‘magida o‘rganishini talab qilganlar. Bu bugungi kun tilida "tanqidiy fikrlash" va intellektual salohiyat tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Axloqtarbiya (Ma’naviy ustun): Milliy g‘urur, vatanparvarlik, halollik va eng asosiysi – iqtisodiy tadbirkorlik ko‘nikmalarini ota-onaning shaxsiy ibrati (keysi) orqali bolaga singdirish. Avloniy axloqni tarbiyaning gultoji deb bilgan.

Jadidlar o‘z davrida xotin-qizlarning ilmsizligi va huquqsizligiga keskin qarshi chiqqanlar. Ularning fikricha, ma’rifatsiz onadan tarbiya ko‘rgan bola hech qachon millat qahramoni bo‘la olmaydi. Chunki bola jamiyatga qadam qo‘yishidan oldin o‘zining ilk ma’naviy-axloqiy darslarini ona maktabida oladi.

Bugungi kunda oilaviy tarbiya tizimi tarixiy shaklidan tubdan farq qiluvchi raqamli va sotsiomadaniy transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Jadidlar ilgari surgan fundamental g‘oyalar bugungi jamiyatning raqamli extiyojlariga mos ravishda yangicha shakllarda transformatsiya bo‘lmoqda.

Onalar ma’rifati masalasi bugun ayollarning umumiy savodxonlik darajasi bilan emas, balki ularning "pedagogik-psixologik savodxonligi" va bolaning ruhiy dunyosini tushuna olish qobiliyati bilan o‘lchanmoqda. Diplomga ega bo‘lgan zamonaviy onalarda bolaga vaqt ajratish, u bilan ma’naviy muloqotga kirishish hamda oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri korreksiyalashda oqsoqliklar kuzatilmoqda. Demak, tarixiy davrdagi xotin-qizlar savodsizligi muammosi bugungi kunda "funksional va pedagogik savodsizlik" muammosiga transformatsiya bo‘ldi.

Fikr tarbiya (Aqliy tarbiya) sohasi ham transformatsiyaga uchradi. XX asr boshida muammo kitob va maktab yetishmasligida bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda axborotning haddan taxation ko‘pligidan yuzaga keladigan axborot xurujlari muammoni keltirib chiqarmoqda. Yoshlar internet makonida to‘g‘ri va noto‘g‘ri

ma’lumotni ajrata olmayapti. Avloniyning "fikrtarbiya" g‘oyasi bugungi kunda yoshlarda "media-savodxonlik" va "tanqidiy fikrlash" (critical thinking) ko‘nikmalarini oila davrasida shakllantirish shaklida transformatsiya bo‘lishi hayotiy zaruriyatdir.

Iqtisodiy-mehnat tarbiyasining transformatsiyasi jadidlarning milliy sanoat va hunarni egallashga bo‘lgan chaqiriqlarida yaqqol ko‘rinadi. Bugungi zamonaviy amaliyotda bu jarayon yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni (soft skills), moliyaviy savodxonlikni va startap loyihalariga bo‘lgan intilishni oila muhitida rag‘batlantirish tizimiga aylanmoqda. Yoshlarni boqimandalikdan qutqarish uchun ularni oiladanoq tadbirkorlik va raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalariga o‘rgatish – jadidlar iqtisodiy pedagogikasining eng yorqin zamonaviy transformatsiyasidir.

Jadidlar oilaviy pedagogikasining transformatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy dunyo trendlariga moslashish (glocalization) bugungi kun tarbiya pedagogikasining bosh yo‘nalishidir.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar shuni isbotlamoqdaki, oilada jadidlar metodikasini zamonaviy shaklda qo‘llash (masalan, raqamli detoks kunlarini joriy etish, oilaviy mutolaa soatlarini jadidlar hayoti misolida o‘tkazish) yoshlarning virtual dunyoga qaramligini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ijtimoiy-pedagogik amaliyotda jadidlar tajribasidan quyidagi yo‘nalishlarda tizimli foydalanish maqsadga muvofiq:

"Fikrtarbiya" va raqamli gigiyena sintezi: Ota-onalar farzandlariga internetdan foydalanishni taqiqlash yo‘li bilan emas, balki undagi ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish (filtrlash) qobiliyatini jadidona bahs-munoza uslubida o‘rgatishlari lozim. Bu jarayonda oilaviy raqamli gigiyena qoidalari shakllantiriladi.

Ona – millat tarbiyachisi: Zamonaviy oilalarda ayollarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni nafaqat kasbiy, balki pedagogik-psixologik jihatdan

qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish lozim. Oilada onaning ma’naviy o‘rni tiklanmas ekan, ijtimoiy muhit barqarorligiga erishib bo‘lmaydi.

Tadbirkorlik va vaqt menejmenti: Jadidlarning vaqtni bekor o‘tkazmaslik va milliy taraqqiyotga hissa qo‘shish haqidagi g‘oyalarini zamonaviy "Time-management" metodlari bilan uyg‘unlashtirib, oilada amaliy mashg‘ulotlar tarzida olib borish lozim. Vaqtni isrof qilish – ma’naviy tanazzulning boshlanishidir.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Jadidlar oilaviy pedagogikasi va uning zamonaviy transformatsiyasini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Jadid ma’rifatparvarlarining oilaviy tarbiyaga oid konsepsiyalari vaqt o‘tishi bilan eskirgani yo‘q, aksincha, ularning pedagogik mexanizmlari bugungi globallashuv asrida milliy o‘zlikni saqlab qolishning eng samarali vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tarixiy tajriba va zamonaviy amaliyot uzviyligini ta’minlash uchun tarbiya tizimini faqat maktab zimmasiga yuklamasdan, *"Oila – mahalla – ta’lim muassasasi"* zanjirini raqamli innovatsiyalar va milliy pedagogik qadriyatlar asosida mustahkamlash talab etiladi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Tarbiya pedagogikasi milliy instituti qoshida *"Jadidlar oila akademiyasi"* elektron platformasi va mobil ilovasini ishga tushirish. Ushbu platformada Fitrat, Avloniy asarlari asosida yosh ota-onalar uchun qisqa interaktiv kurslar va vizual keyslar joylashtirilishi lozim.
2. Umumta’lim maktablarida o‘tiladigan "Tarbiya" fani darslariga "Jadidlarning oilaviy tarbiya saboqlari" nomli amaliy loyiha-ishlarini kiritish va o‘quvchilarning ota-onalari bilan birgalikda bajarishini yo‘lga qo‘yish.
3. Mahallalarda yosh oilalar bilan ishlovchi mutaxassislar va ota-onalar uchun jadidlar pedagogikasi transformatsiyasiga asoslangan, raqamli asrda tarbiya sirlarini o‘rgatuvchi zamonaviy metodik qo‘llanmalar majmuasini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘tbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 112 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 160 b.
4. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999. – 224 b.
5. Aliev A. Jadidlar ma’rifati va zamonaviy yoshlar tarbiyasi transformatsiyasi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – №3. – B. 45-51.
6. Inatova M.M. Barkamol avlodni tarbiyalashda jadid ma’rifatparvarlari ijtimoiy-pedagogik qarashlarining o‘rni // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – Toshkent, 2023. – №6(2). – B. 14-20.
7. Musurmanov R., Tojiev M. Oila pedagogikasi: darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021. – 312 b.
8. Quronov M. Milliy tarbiya fundamental asoslari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – 288 b.
9. Yusupova N.A. "Oila–mahalla–maktab" hamkorligining ijtimoiy-pedagogik tizimi samaradorligi // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 88-94.
10. Ziyomov Sh. Jadidchilik: g‘oya, harakat va intilishlar tahlili. – Toshkent: "Akademnashr", 2023. – 196 b.
11. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 342 p.
12. Baker, C. & Johnston, M. Social-Pedagogical Systems in Modern Family Upbringing // International Journal of Pedagogy and Family Studies. – London, 2023. Vol. 14, Issue 2. – P. 112–125.
13. Dalimov, T. & Radjabov, K. The Jadid Movement in Central Asia: Educational Reforms and Social Impact // Journal of Asian History and Culture. – Berlin: Springer, 2024. No. 5(1). – P. 45–59.
14. Halstead, J. M. Islamic values in education and family upbringing: Historical perspective and modern interpretations // British Journal of Educational Studies. – Oxford, 2022. Vol. 70, No. 4. – P. 401–418.
15. Karimov, S. Pedagogical Views of Abdurauf Fitrat and the Modernization of Education in Uzbekistan // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – Prague, 2025. Vol. 6, No. 3. – P. 77–86.

16. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 400 p.
17. Martinez, M. R. Digital Socialization and Family Pedagogy in the 21st Century // Review of Educational Research. – Washington, 2024. Vol. 94, Issue 1. – P. 203–221.
18. Saito, T. The Transformation of Family Values in Post-Soviet Central Asia: A Socio-Pedagogical Approach // East European and Central Asian Studies. – Tokyo, 2023. No. 12. – P. 134–149.
19. Smith, J. A. & Green, L. Integrating Traditional Heritage into Contemporary Youth Education Systems // Journal of Moral Education. – New York: Routledge, 2025. Vol. 54, No. 2. – P. 189–204.
20. Uzakov, G. The Role of Abdulla Avloni’s Ethical Concepts in Promoting Soft Skills Among Modern Youth // International Journal of Educational Development. – Amsterdam: Elsevier, 2026. Vol. 102. – Art. 102941.

YOSHLAR TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA JADIDLAR OILAVIY PEDAGOGIKASIGA ASOSLANGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK MODEL

Farmonov Doston Amon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya . Ushbu maqolada globallashuv va shiddatli raqamlashtirish sharoitida yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning innovatsion ijtimoiy-pedagogik modeli ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan. Modelning konseptual asosi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston jadid ma’rifatparvarlari, xususan, Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniyning oilaviy pedagogikaga oid invariant g‘oyalari olingan. Tadqiqotda "Oila – mahalla – ta’lim muassasasi" zanjirining uzviyligini ta’minlovchi ijtimoiy-pedagogik tizimning tarkibiy komponentlari (aksiologik, maqsadli, mazmunli, texnologik va natijaviy) tizimli modellashtirilgan. Shuningdek, jadidona "fikrtarbiya" va zamonaviy "media-savodxonlik" integratsiyasi yoshlarda ma’naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirishning bosh omili ekanligi ochib berilgan hamda modelning amaliy samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jadidlar oilaviy pedagogikasi, ijtimoiy-pedagogik model, yoshlar tarbiyasi, Tarbiya pedagogikasi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, aksiologik yondashuv, raqamli makon, ma’naviy immunitet.

Аннотация. В данной статье разработана и научно обоснована инновационная социально-педагогическая модель совершенствования воспитания молодежи в условиях глобализации и интенсивной цифровизации. В качестве концептуальной основы модели взяты инвариантные идеи семейной педагогики туркестанских джадидских просветителей конца XIX – начала XX веков, в частности Абдурауфа Фитрата и Абдуллы Авлони. В исследовании системно смоделированы структурные компоненты (аксиологический, целевой, содержательный, технологический и результативный) социально-педагогической системы, обеспечивающей непрерывность цепочки «Семья – махалля – образовательное учреждение». Также раскрыто, что интеграция джадидского «воспитания мысли» и современной «медиаграмотности» является главным фактором формирования духовно-идеологического иммунитета у молодежи, проанализирована практическая эффективность модели.

Ключевые слова: джадидская семейная педагогика, социально-педагогическая модель, воспитание молодежи, педагогика воспитания, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлони, аксиологический подход, цифровое пространство, духовный иммунитет.

Abstract. This article develops and scientifically substantiates an innovative socio-pedagogical model for improving youth upbringing in the context of globalization and intensive digitalization. The invariant ideas of family pedagogy of the Turkestan Jadid enlighteners of the late 19th and early 20th centuries, particularly Abdurauf Fitrat and Abdulla Avloni, are taken as the conceptual basis of the model. The study systematically models the structural components (axiological, target, content, technological, and resulting) of the socio-pedagogical system that ensures the continuity of the "Family – Mahalla – Educational Institution" chain. It is also

revealed that the integration of Jadid "education of thought" and modern "media literacy" is the main factor in forming spiritual-ideological immunity among youth, and the practical effectiveness of the model is analyzed.

Keywords: Jadid family pedagogy, socio-pedagogical model, youth upbringing, Upbringing pedagogy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, axiological approach, digital space, spiritual immunity.

KIRISH. Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning eng muhim strategik vazifalaridan biri – milliy qadriyatlar va umumbashariy tendensiyalar uyg‘unligiga ega, intellektual salohiyatli va ma’naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiyalar va kiber-makondagi mafkuraviy kurashlar davrida yoshlar tarbiyasini shunchaki an’anaviy da’vatlar orqali tashkil etish o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Bu jarayon zamonaviy tarbiya pedagogikasidan tizimli, ilmiy asoslangan va innovatsion ijtimoiy-pedagogik modellarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ushbu muammoning eng samarali va fundamental yechimi milliy pedagogika tariximizning oltin davri bo‘lgan jadidchilik harakati mutafakkirlarining oilaviy pedagogik merosida mujassamdir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid ma’rifatparvarlari millatning yuksalishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri oilaviy tarbiya tizimini isloh qilish bilan bog‘laganlar. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti zimmasiga yuklangan bugungi kunning strategik vazifalaridan kelib chiqqan holda, jadidlar g‘oyalarini shunchaki tarixiy meros sifatida o‘rganish yetarli emas. Ularni bugungi kun ehtiyojlariga moslashtirish, aniq tizimli komponentlar va mexanizmlarga ega bo‘lgan *ijtimoiy-pedagogik modelini* yaratish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-tuzilmaviy yondashuv, pedagogik modellashtirish, qiyosiy-tarixiy tahlil, aksiologik va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

prinsiplari tashkil etadi. Pedagogik modellashtirish metodi yordamida yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizimi loyihalashtirildi.

Manbaviy poydevor sifatida Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" (1914) asaridagi oilaviy munosabatlar va salomatlik mezonlari hamda Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asaridagi jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya (badantarbiya, fikrtarbiya, axloqtarbiya) konsepsiyasi olindi. Shuningdek, modelni zamonaviy sotsiomadaniy muhitga moslashtirishda o‘zbek va xorijiy olimlarning (M.Quronov, R.Musurmanov, Adeeb Khalid) pedagogik tizimlar va madaniy transformatsiyalarga oid nazariy qarashlariga tayanildi.

Yoshlar tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik model shunchaki nazariy g‘oyalar to‘plami emas, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan beshta tarkibiy komponentdan iborat yaxlit tizimdir.

1. Aksiologik-konseptual komponent. Ushbu komponent modelning poydevori hisoblanib, jadidlar oilaviy pedagogikasining invariant qadriyatlarini (ilmga muhabbat, vaqtning qadri, oilaviy sadoqat, iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy mas’uliyat) zamonaviy yoshlar ongiga milliy aksiologik mezon sifatida singdirishni ko‘zda tutadi. Bu yerda jadidlarning "millat g‘ami" tushunchasi zamonaviy yoshlarning "ijtimoiy faolligi" va "vatanparvarlik kompetensiyasi" bilan sintez qilinadi.

2. Maqsadli komponent. Modelning bosh maqsadi – jadid ma’rifatparvarlari merosidagi ilg‘or an’analar va zamonaviy pedagogik innovatsiyalar uyg‘unligi asosida yoshlarda virtual makondagi tahdidlarga qarshi mustahkam ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirish, ularning ijtimoiy-intellektual salohiyatini takomillashtirish va milliy o‘zlikni anglash darajasini oshirishdan iborat.

3. Mazmunli-kontentli komponent. Tarbiya jarayonining mazmunini belgilovchi ushbu komponent jadidlarning uch qatlamli tarbiya tizimining zamonaviy transformatsiyasini qamrab oladi:

Jismoniy tarbiya (Badantarbiya) mazmuni: Sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlik va oilaviy hayotga tibbiy-psixologik tayyorgarlik.

Aqliy tarbiya (Fikrtarbiya) mazmuni: Axborot makonida to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotlarni saralash (media-filtr), tanqidiy fikrlashni (critical thinking) shakllantirish va raqamli dunyoda "raqamli gigiyena" madaniyatini qaror toptirish.

Axloqiy tarbiya (Axloqtarbiya) mazmuni: Iffat, hayo, mas’uliyat, milliy o‘zlikka sadoqat va iqtisodiy tadbirkorlik ko‘nikmalari (soft skills).

4. Texnologik-metodik komponent. Modelni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari bo‘lib, u an’anaviy va raqamli metodlar integratsiyasini nazarda tutadi. Bu yerda "Oila – mahalla – ta’lim muassasasi" uzviyligi yangicha platformada ishlaydi. Amaliy metodlar sifatida ota-onalar uchun "Fitrat darslari" keys-stadi dasturlari, oilaviy bahs-munoza klublari, "Oila – kitobxonlik maskani" marafonlari qo‘llanilsa, raqamli metodlar tarkibiga "Jadidlar oila saboqlari" mobil ilovasi, ma’rifiy podkastlar va vizual infografik trendlar kiradi.

5. Natijaviy-baholash komponenti. Yoshlar tarbiyasining shakllanganlik darajasini aniq ijtimoiy-pedagogik mezonlar (kognitiv, motivatsion, faoliyatli) va ko‘rsatkichlar asosida monitoring qilib boruvchi tizimdir.

Ishlab chiqilgan ijtimoiy-pedagogik modelning an’anaviy tarbiya usullaridan tubdan farqi shundaki, u tarbiya jarayonini faqat ta’lim muassasasi zimmasiga yuklamaydi, balki oilani jarayonning bosh va faol subyektiga aylantiradi.

Jadidlar o‘z davrida oiladagi eng katta inqirozni onalarning ilmsizligida ko‘rgan edilar. Fitrat ta’biri bilan aytganda, ilmsiz ona millatning kelajagini barbod qiladi. Bugungi raqamli jamiyatda esa muammo ayollarning diplomsizligida emas, balki ularning "pedagogik-psixologik jihatdan funksional savodsizligi"da namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy onalar bolaning virtual olamdagi ruhiyatini tushunishda, u bilan jonli muloqot o‘rnatishda oqsoqlanmoqdalar. Biz taklif etayotgan model ushbu bo‘shliqni "Jadidlar oila akademiyasi" kabi interaktiv tizimlar orqali to‘ldirishni ko‘zda tutadi.

Bundan tashqari, Abdulla Avloniyning "fikrtarbiya" g‘oyasi bugungi kunda kiber-xavfsizlik va media-savodxonlik tushunchalari bilan to‘liq integratsiyalashadi.

Agar biz yoshlarga internetni shunchaki taqiqlash yo‘lidan borsak, bu teskari samara beradi. Model doirasida taklif etilayotgan jadidona munozara (bahs) metodikasi ota-ona va farzand o‘rtasida virtual makon muammolarini birgalikda tahlil qilish, ijobiy va salbiy kontentlarni ajratish ko‘nikmasini oilada shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining dastlabki natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu model komponentlari asosida tashkil etilgan tarbiyaviy muhitda yoshlarning ijtimoiy mas’uliyat hissi va milliy qadriyatlarga bo‘lgan sodiqlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ijobiy tomonga o‘zgargan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yoshlar tarbiyasini takomillashtirishda jadidlar oilaviy pedagogikasiga asoslangan ijtimoiy-pedagogik modelning ishlab chiqilishi milliy tarbiya tizimini konseptual jihatdan yangilashga xizmat qiladi. Jadid mutafakkirlarining tarixiy tajribasi va invariant g‘oyalari zamonaviy amaliyot bilan sintez qilinganda, globallashuv tahdidlariga qarshi tura oladigan mustahkam ijtimoiy-pedagogik qalqon yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti qoshida barcha hududiy mahalla faollari va ota-onalar uchun mo‘ljallangan *"Jadidlar oilaviy maktabi"* ilmiy-metodik markazini tashkil etish va uning namunaviy dasturlarini amaliyotga joriy qilish.
2. Respublika miqyosida yosh ota-onalar uchun Fitrat va Avloniyning pedagogik qarashlari asosida masofaviy ta’lim beruvchi, vizual keyslar va kognitiv testlarni o‘z ichiga olgan **"***Ma’rifatli avlod"* milliy raqamli platformasini yaratish.
3. Umumta’lim maktablari, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash maqsadida "Jadidlar hayoti va o‘gitlari – oilaviy keyslarda" nomli amaliy qo‘llanmalar turkumini nashr etish hamda jamoatchilik orasida keng targ‘ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 112 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 160 b.
4. Aliev A. Jadidlar ma’rifati va zamonaviy yoshlar tarbiyasi transformatsiyasi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – №3. – B. 45-51.
5. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999. – 224 b.
6. Inatova M.M. Barkamol avlodni tarbiyalashda jadid ma’rifatparvarlari ijtimoiy-pedagogik qarashlarining o‘rni // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – Toshkent, 2023. – №6(2). – B. 14-20.
7. Musurmanov R., Tojiev M. Oila pedagogikasi: darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021. – 312 b.
8. Quronov M. Milliy tarbiya fundamental asoslari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – 288 b.
9. Yusupova N.A. "Oila–mahalla–maktab" hamkorligining ijtimoiy-pedagogik tizimi samaradorligi // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 88-94.
10. Ziyomov Sh. Jadidchilik: g‘oya, harakat va intilishlar tahlili. – Toshkent: "Akademnashr", 2023. – 196 b.
11. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 342 p.
12. Baker, C. & Johnston, M. Social-Pedagogical Systems in Modern Family Upbringing // International Journal of Pedagogy and Family Studies. – London, 2023. Vol. 14, Issue 2. – P. 112–125.
13. Dalimov, T. & Radjabov, K. The Jadid Movement in Central Asia: Educational Reforms and Social Impact // Journal of Asian History and Culture. – Berlin: Springer, 2024. No. 5(1). – P. 45–59.
14. Halstead, J. M. Islamic values in education and family upbringing: Historical perspective and modern interpretations // British Journal of Educational Studies. – Oxford, 2022. Vol. 70, No. 4. – P. 401–418.

15. Karimov, S. Pedagogical Views of Abdurauf Fitrat and the Modernization of Education in Uzbekistan // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – Prague, 2025. Vol. 6, No. 3. – P. 77–86.
16. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 400 p.
17. Martinez, M. R. Digital Socialization and Family Pedagogy in the 21st Century // Review of Educational Research. – Washington, 2024. Vol. 94, Issue 1. – P. 203–221.
18. Saito, T. The Transformation of Family Values in Post-Soviet Central Asia: A Socio-Pedagogical Approach // East European and Central Asian Studies. – Tokyo, 2023. No. 12. – P. 134–149.
19. Smith, J. A. & Green, L. Integrating Traditional Heritage into Contemporary Youth Education Systems // Journal of Moral Education. – New York: Routledge, 2025. Vol. 54, No. 2. – P. 189–204.
20. Uzakov, G. The Role of Abdulla Avloni’s Ethical Concepts in Promoting Soft Skills Among Modern Youth // International Journal of Educational Development. – Amsterdam: Elsevier, 2026. Vol. 102. – Art. 102941.

OILA-MAKTAB HAMKORLIGI ASOSIDA O'SMIRLARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI, IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VA EGOISTIK TENDENSIYALARNI TRANSFORMATSIYA QILISH

Gadayeva Munira Muxamedovna
BVPMM katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlik davrida funksional savodxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy-emotsional jihatlari oila va maktab hamkorligi kontekstida tahlil qilinadi. Egoistik xulq-atvor tendensiyalarining shakllanish sabablari ochib berilib, ularni ijtimoiy-foydali, hamkorlikka yo'naltirilgan kompetensiyalarga transformatsiya qilish mexanizmlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi izchil, tizimli hamkorlik o'smirlarda o'zini-o'zi boshqarish, empatiya va mas'uliyatlilik kabi fazilatlarni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, ijtimoiy-emotsional kompetensiya, oila-maktab hamkorligi, egoizm, transformatsiya, o'smirlik davri, tarbiya.

Аннотация.В статье анализируются социально-эмоциональные аспекты развития функциональной грамотности в подростковом возрасте в контексте взаимодействия семьи и школы. Раскрываются причины формирования тенденций эгоистического поведения и предлагаются механизмы их трансформации в социально полезные и ориентированные на сотрудничество компетенции. Результаты исследования показывают, что последовательное и системное взаимодействие семьи и образовательного учреждения способствует развитию у подростков таких качеств, как саморегуляция, эмпатия и ответственность.

Ключевые слова: функциональная грамотность, социально-эмоциональные компетенции, взаимодействие семьи и школы, эгоизм, трансформация, подростковый возраст, воспитание**.**

Abstract. This article analyzes the social and emotional aspects of developing functional literacy during adolescence within the context of family–school collaboration. The factors contributing to the formation of egoistic behavioral tendencies are examined, and mechanisms for transforming them into socially beneficial and cooperation-oriented competencies are proposed. The findings indicate that consistent and systematic collaboration between the family and the educational institution contributes to strengthening such qualities in adolescents as self-regulation, empathy, and responsibility.

Keywords: functional literacy, social-emotional competencies, family–school collaboration, egoism, transformation, adolescence, upbringing.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri - o'quvchida nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalana olish qobiliyatini, ya'ni funksional savodxonlikni shakllantirishdir. Biroq funksional savodxonlik faqat kognitiv ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydi - u shaxsning ijtimoiy muhitda o'zini adekvat tutish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa o'smirlik davri — shaxsning "Men"ini izlashi, mustaqillikka intilishi va ba'zan egotsentrik xulq-atvor

namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadigan davr — ushbu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI. So'nggi yillarda raqamli muhitning kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri va individualistik qadriyatlarning kengayishi o'smirlarda egoistik tendensiyalarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat ularning jamoada ishlash, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish kabi kompetensiyalarining susayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois oila va maktabning birgalikdagi, izchil ta'sirisiz bu muammoni hal etish qiyin kechadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social-Emotional Learning, SEL) sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar shaxsning besh asosiy kompetensiyasini ajratadi: o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlar qurish ko'nikmalari va mas'uliyatli qaror qabul qilish. Oila-maktab hamkorligi masalasi pedagogika va rivojlanish psixologiyasida uzoq vaqtdan beri o'rganilib kelinmoqda, biroq uni egoistik xulq-atvorni transformatsiya qilish nuqtai nazaridan tizimli tahlil qilish nisbatan kam yoritilgan. Bu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil — mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish;
- Kuzatuv — o'smirlarning maktab va oilaviy muhitdagi xulq-atvorini kuzatish;
- So'rovnoma va suhbat — ota-onalar va pedagoglar bilan ularning hamkorlik amaliyoti bo'yicha fikr-mulohazalarini yig'ish;
- Pedagogik tajriba-sinov — oila-maktab hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini baholash.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot davomida shuni aniqlash mumkin bo'ldiki, egoistik tendensiyalar ko'pincha quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

1. Oilada haddan tashqari erkinlik yoki, aksincha, haddan tashqari nazorat;
2. Bolaning har doim "birinchi o'rinda" bo'lishiga odatlanishi;
3. Maktab va oila talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik;
4. Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan izchil dasturlarning yetishmasligi.

Oila-maktab hamkorligini kuchaytirish, xususan, quyidagi yo'nalishlar orqali samarali natija berishi kuzatildi:

- Birgalikdagi tarbiyaviy loyihalar - o'smirlarni jamoaviy ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilish;
- Ota-onalar uchun psixologik-pedagogik seminarlar - bolaning emotsional ehtiyojlarini tushunishga yordam beruvchi treninglar;
- Reflektiv suhbatlar tizimi - o'smirning o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishga o'rgatuvchi muntazam muloqot;
- Hamkorlikka asoslangan baholash mezonlari - nafaqat individual, balki jamoaviy yutuqlarni ham rag'batlantirish.

Bu yondashuvlar natijasida o'smirlarda empatiya darajasi oshgani, o'zaro yordam holatlari ko'paygani va shaxsiy manfaatni jamoa manfaati bilan muvozanatlash qobiliyati rivojlanganligi kuzatildi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Xulosa qilib aytish mumkinki, o'smirlarning funksional savodxonligini to'liq va barqaror rivojlantirish faqat maktab yoki faqat oilaning alohida sa'y-harakatlari orqali emas, balki ularning izchil, maqsadli hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Egoistik tendensiyalarni butunlay yo'q qilish emas, balki ularni ijobiy - o'zini anglash va sog'lom raqobatga asoslangan — shaklga transformatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Tavsiya sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

5. Har bir maktabda oila-maktab hamkorligi bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish;
6. Ota-onalar uchun ijtimoiy-emotsional tarbiya bo'yicha muntazam maslahat xizmatini yo'lga qo'yish;

7. O'quv jarayoniga jamoaviy loyiha faoliyatlarini kengroq joriy etish;
8. Pedagog-psixologlar tomonidan har chorakda oila-maktab monitoringini o'tkazish.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida oila-maktab hamkorligining yuqorida keltirilgan to'rtta zamonaviy yo'nalishi asosida interaktiv veb-platforma ishlab chiqildi. Platforma quyidagi tuzilishga ega:

1. Birgalikdagi tarbiyaviy loyihalar - amalga oshirish bosqichlari bo'yicha nazorat ro'yxati;
2. Ota-onalar uchun psixologik-pedagogik seminarlar — tashkiliy tavsiyalar va nazorat ro'yxati;
3. Reflektiv suhbatlar tizimi - muntazam suhbatlarni yuritish bo'yicha yo'riqnoma;
4. Hamkorlikka asoslangan baholash mezonlari - baholash tizimini joriy etish qadamlari.

Platforma har bir yo'nalish bo'yicha bajarilgan ishlarni belgilash va umumiy amalga oshirish darajasini foizda kuzatish imkonini beruvchi progress-indikatorga ega. Bu vosita maktab ma'muriyati, pedagog-psixologlar va ota-onalar uchun oila-maktab hamkorligini bosqichma-bosqich, tizimli tarzda joriy etishda amaliy yordamchi sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development: Experiments by nature and design. Harvard University Press.
2. CASEL. (2020). CASEL's SEL framework: What are the core competence areas and where are they promoted? Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning.
3. Elkind, D. (1967). Egocentrism in adolescence. Child Development, 38(4), 1025–1034. https://doi.org/10.2307/1127100
4. Epstein, J. L. (2011). School, family, and community partnerships: Preparing educators and improving schools (2nd ed.). Westview Press.
5. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. Bantam Books.

6. Hoover-Dempsey, K. V., & Sandler, H. M. (1997). Why do parents become involved in their children's education? Review of Educational Research, 67(1), 3–42. https://doi.org/10.3102/00346543067001003
7. OECD. (2021). Beyond academic learning: First results from the survey of social and emotional skills. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/92a11084-en
8. Piaget, J. (1972). The psychology of the child. Basic Books.
9. Zins, J. E., Weissberg, R. P., Wang, M. C., & Walberg, H. J. (Eds.). (2004). Building academic success on social and emotional learning: What does the research say? Teachers College Press.

TARBIYA DARSLARIDA O’QUVCHILARDA HISSIY INTELLEKT VA EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH

M.I. Gadoyeva

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Tarbiya darslari jarayonida o‘quvchilarda hissiy intellektni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Hissiy intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqa insonlarning emotsional holatini tushunish, empatiya ko‘rsatish, samarali muloqot qilish hamda turli vaziyatlarda mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: hissiy intellekt, Tarbiya fani, o‘quvchi, emotsiya, his-tuyg‘u, empatiya, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy kompetensiya, muloqot, refleksiya, tarbiyaviy jarayon, interfaol metodlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы формирования эмоционального интеллекта у учащихся в процессе обучения в общеобразовательных средних школах. Эмоциональный интеллект включает в себя способность человека понимать собственные эмоции, управлять ими, понимать эмоциональное состояние

других людей, проявлять эмпатию, эффективно общаться и принимать ответственные решения в различных ситуациях.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, образование, учащийся, эмоция, чувство, эмпатия, самосознание, самоконтроль, социальная компетентность, коммуникация, рефлексия, образовательный процесс, интерактивные методы.

Abstract. This article examines the pedagogical and psychological foundations for developing emotional intelligence in students within the context of general secondary education. Emotional intelligence encompasses an individual's ability to understand their own emotions, manage them, perceive the emotional states of others, demonstrate empathy, communicate effectively, and make responsible decisions in various situations.

Keywords: emotional intelligence, education, student, emotion, feeling, empathy, self-awareness, self-control, social competence, communication, reflection, educational process, interactive methods.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri faqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila oladigan, boshqalarning fikri va hissiyotlariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Zamonaviy ta’limda o‘quvchining akademik natijalari bilan bir qatorda uning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham e’tibor qaratilmoqda. UNESCO ijtimoiy-emotsional ta’limni his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish, boshqalarga g‘amxo‘rlik va e’tibor ko‘rsatish, ijobiy munosabatlar o‘rnatish hamda mas’uliyatli qarorlar qabul qilish bilan bog‘laydi.

Shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida hissiy intellekt muhim o‘rin tutadi. Chunki inson kundalik hayotida turli emotsional vaziyatlarga duch keladi: muvaffaqiyatdan quvonadi, muvaffaqiyatsizlikdan xafa bo‘ladi, tanqidga duch keladi, tengdoshlari bilan kelishmovchilikka boradi, tanlov oldida qoladi. Bunday vaziyatlarda insonning faqat nazariy bilimlari emas, balki o‘z hissiyotlarini

tushunishi va boshqarishi, vaziyatga mos munosabat bildira olishi ham muhimdir.

Hissiy intellekt masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. J. Mayer, P. Salovey va D. Caruso hissiy intellektni hissiyotlarni aniqlash, ulardan fikrlash jarayonida foydalanish, hissiy ma’lumotni tushunish va hissiyotlarni boshqarish bilan bog‘liq qobiliyatlar majmui sifatida talqin qiladilar. D. Goleman esa hissiy kompetensiyalarning insonning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatidagi ahamiyatini keng yoritgan.

Maktab ta’limida hissiy intellektni shakllantirish uchun eng katta imkoniyatlardan biri Tarbiya darslaridir. Mazkur fan o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, muloqot madaniyati, insonparvarlik, hurmat, hamkorlik va o‘z xatti-harakatiga mas’uliyat bilan qarash kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois Tarbiya darslarida hissiy intellektni rivojlantirish masalasiga tizimli yondashish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

1.Hissiy intellekt tushunchasining mazmuni

“Hissiy intellekt” tushunchasi insonning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqa insonlarning emotsional holatini anglash, ularni to‘g‘ri talqin qilish va tegishli tarzda boshqarish qobiliyatlarini ifodalaydi.

Hissiy intellektni oddiy qilib quyidagi savollar orqali tushuntirish mumkin:

- Men hozir nimani his qilyapman?
- Nima sababdan bunday his qilyapman?
- Mening hissiyotim xatti-harakatimga qanday ta’sir qilmoqda?
- Men bu hissiyotni qanday boshqarishim mumkin?
- Qarshimdagi inson hozir nimani his qilmoqda?
- Uning holatini qanday tushunishim mumkin?
- Vaziyatda qanday munosabat bildirish to‘g‘ri?
- Qarorim boshqalarga qanday ta’sir qilishi mumkin?

Shu nuqtayi nazardan, hissiy intellekt faqat “hissiyotlarni boshqarish” degani emas. U o‘z hissiyotlarini anglashdan boshlanib, boshqa insonlarni tushunish,

samarali munosabat o‘rnatish va mas’uliyatli qaror qabul qilishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli kompetensiyalarni qamrab oladi.

Mayer, Salovey va Caruso yondashuvida hissiy intellekt hissiyotlar bilan bog‘liq axborotni qabul qilish va undan samarali foydalanishga asoslangan qobiliyat sifatida qaraladi. Bu yondashuvda hissiy intellektning bir necha o‘zaro bog‘liq jihatlari mavjud: hissiyotlarni aniqlash, hissiyotlardan fikrlashni qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanish, hissiy ma’lumotni tushunish va hissiyotlarni boshqarish.

Ta’lim jarayonida ushbu jihatlarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda rivojlantirish muhimdir. Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchi “Men xafa bo‘ldim” deyishni o‘rganishi mumkin. Keyingi bosqichda u “Men nima sababdan xafa bo‘ldim?” degan savolga javob izlaydi. Yuqori bosqichlarda esa “Bu vaziyatda hissiyotimni qanday boshqaraman va qanday qaror qabul qilaman?” degan savolga mustaqil javob bera boshlaydi.

CASELning ijtimoiy-emotsional ta’lim modelida ham beshta asosiy kompetensiya ajratiladi: o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabat ko‘nikmalari va mas’uliyatli qaror qabul qilish.

Tarbiya darslarining hissiy intellektni rivojlantirishdagi imkoniyatlari

Tarbiya darslarining o‘ziga xosligi shundaki, unda o‘quvchi nafaqat ma’lum axloqiy qoidalarni bilishi, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi kerak. Masalan, “Hurmat”, “Do‘stlik”, “Oiladagi munosabatlar”, “Muloqot madaniyati”, “Mas’uliyat”, “Mehr-oqibat”, “Konfliktlarni hal etish”, “Vatanparvarlik”, “Inson qadri” kabi mavzular o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi va hissiy kechinmalari bilan chambarchas bog‘liq.

Tarbiya darsida o‘qituvchi:

1. o‘quvchiga muayyan axloqiy tushunchani tushuntiradi;
2. hayotiy vaziyatni muhokama qiladi;
3. o‘quvchining fikrini tinglaydi;
4. uning hissiy munosabatini aniqlaydi;
5. turli nuqtayi nazarlarni taqqoslashga yordam beradi;

6. xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

Bunday yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim bo‘yicha CASEL yondashuvi ham bunday ko‘nikmalarni faqat alohida mashg‘ulotlarda emas, balki sinfdagi munosabatlar, maktab muhiti, oila va hamjamiyat bilan hamkorlikda shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuning uchun Tarbiya darsida hissiy intellektni rivojlantirish uchun o‘qituvchi faqat mavzu mazmunini yetkazib beruvchi emas, balki o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini tashkil etuvchi, savol beruvchi, tinglovchi va refleksiyaga yo‘naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat olib borishi lozim.

O’quvchilarda o’z- o’zini anglashni shakllantirish. Hissiy intellektning asosiy tarkibiy qismlaridan biri — o‘z-o‘zini anglashdir. O‘quvchi o‘z hissiyotlarini nomlay olishi, ularning sabablarini tushunishi va o‘zining kuchli hamda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini anglay olishi muhim. CASEL o‘z-o‘zini anglashni shaxsning o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlari va qadriyatlarini hamda ularning xatti-harakatga ta’sirini tushunishi bilan bog‘laydi. Tarbiya darslarida buning uchun “Hissiyotlar termometri” mashqidan foydalanish mumkin.

“Hissiyotlar termometri” mashqi

O‘qituvchi doskaga 1 dan 10 gacha bo‘lgan shkala chizadi. O‘quvchilardan quyidagi savolga javob berish so‘raladi:

“Siz muhim nazorat ishi oldidan o‘zingizni qanchalik hayajonlangan deb his qilasiz?” O‘quvchi o‘z holatini 1–10 oralig‘ida belgilaydi.

Keyin quyidagi savollar muhokama qilinadi:

- Nima uchun aynan shu raqamni tanladingiz?

- Hayajon tanangizda qanday namoyon bo‘ladi?

- Hayajonni kamaytirish uchun nima qilish mumkin?

- Boshqa odamlar ham xuddi shu vaziyatda turlicha his qilishi mumkinmi?

Mashqning maqsadi o‘quvchiga “hissiyot — muammo” degan tasavvurni emas, balki “hissiyot — anglanishi va boshqarilishi kerak bo‘lgan ichki holat” degan tushunchani shakllantirishdir.

Yana bir samarali usul — “Hissiyotlar kundaligi”.

O‘quvchi bir hafta davomida quyidagi jadvalni to‘ldirishi mumkin:

Vaziyat: Men nimani his qildim?| Sababi nima edi?| Men qanday munosabat bildirdim?| Boshqacha nima qilishim mumkin edi?

Sinfdoshim fikrimni qo‘llab-quvvatlamadi| Xafa bo‘ldim| Fikrim qadrsizlangandek tuyuldi| Jim bo‘ldim| O‘z fikrimni xotirjam tushuntirishim mumkin edi

Bu mashq o‘quvchida refleksiv fikrlashni rivojlantiradi.

Hissiyotlarni boshqarish ko’nikmasini rivojlantirish

Hissiy intellektning yana bir muhim jihati — o‘zini boshqarishdir. O‘quvchi jahli chiqqanda darhol tajovuzkor munosabat bildirmasligi, xafa bo‘lganda o‘zini butunlay chetga tortib olmasligi, muvaffaqiyatsizlikdan keyin taslim bo‘lmasligi kerak.

O‘zini boshqarish hissiyotlarni bostirish degani emas. Aksincha, shaxs o‘z hissiyotini tan oladi, uning sababini tushunadi va unga mos, ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatni tanlaydi.

CASEL o‘zini boshqarishni hissiyot, fikr va xatti-harakatlarni turli vaziyatlarda samarali boshqarish, stressni nazorat qilish, maqsad sari harakat qilish va o‘zini motivatsiya qilish qobiliyatlari bilan bog‘laydi.

Masalan:

Vaziyat: Sinfdoshingiz siz haqingizda yoqimsiz gap aytdi.

Noto‘g‘ri avtomatik javob:

“Men ham seni haqorat qilaman!”

Boshqa variant:

“Gaping menga yoqmadi. Nima sababdan bunday deganingni tushuntirib bera olasanmi?”

Bu jarayonda o‘quvchi hissiy impuls bilan harakat qilish va ongli ravishda tanlangan xatti-harakat o‘rtasidagi farqni anglaydi.

Empatiyani shakllantirish – hissiy intellektning muhim yo’nalishi .Empatiya — boshqa insonning hissiy holatini tushunishga va uning nuqtayi nazarini hisobga olishga intilishdir. O‘quvchida empatiyaning shakllanishi sinfdoshlar bilan ijobiy munosabat o‘rnatish, nizolarni kamaytirish, hamkorlik qilish va o‘zaro hurmatni rivojlantirishga xizmat qiladi. CASEL ijtimoiy anglashni boshqa insonlarning nuqtayi nazarini tushunish, turli guruh va madaniy muhit vakillariga nisbatan empatiya va hurmat ko‘rsatish bilan bog‘laydi. Tarbiya darsida “Empatiya xaritasi” metodidan foydalanish mumkin. O‘quvchilarga ma’lum bir vaziyat beriladi. Masalan:

“Yangi o‘quvchi sinfga keldi. U hech kimni tanimaydi va tanaffusda yolg‘iz turibdi.” O‘quvchilar quyidagi savollarga javob beradilar:

- U nimani his qilayotgan bo‘lishi mumkin?

- U nimadan xavotirda bo‘lishi mumkin?

- U nimani xohlashi mumkin?

- Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda nimani kutgan bo‘lardingiz?

- Unga qanday yordam berish mumkin?

Bu metod o‘quvchini vaziyatga faqat o‘z nuqtayi nazaridan emas, boshqa inson nuqtayi nazaridan ham qarashga o‘rgatadi.

Tarbiya darslarida rolli o‘yinlar orqali hissiy intellektni shakllantirish

Tarbiya darslarida rolli o‘yinlardan foydalanish hissiy intellektni rivojlantirish uchun samarali vositalardan biridir.

Rolli o‘yin davomida o‘quvchi ma’lum bir vaziyatni boshdan kechiradi, boshqa insonning roliga kiradi, uning hissiyotlari va ehtiyojlarini tasavvur qiladi.

Masalan, quyidagi vaziyat beriladi:

“Ikki do‘st bir masala yuzasidan kelisha olmay qoldi. Ulardan biri ikkinchisining fikrini tinglamayapti.”

O‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi:

1. birinchi o‘quvchi;

2. ikkinchi o‘quvchi;

3. kuzatuvchilar.

Kuzatuvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

- Kimning hissiyoti qanday o‘zgardi?

- Kim suhbatdoshini tingladi?

- Qaysi so‘zlar nizoni kuchaytirdi?

- Qaysi iboralar nizoni yumshatdi?

- Muammoni qanday qilib tinch yo‘l bilan hal qilish mumkin?

Mashq yakunida o‘quvchilar o‘z faoliyatini baholaydilar.

Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat muloqot, balki o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Hissiy intellektni shakllantirishda tarbiya darslarida qo’llash mumkin bo’lgan metodlar

Hissiy intellektni shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Metod| Rivojlantiriladigan ko‘nikma

“Hissiyotlar termometri”| O‘z hissiyotini anglash

“Hissiyotlar kundaligi”| Refleksiya

“Emotsiyani top”| Hissiyotlarni tanish

“Empatiya xaritasi”| Empatiya

“Men-xabarim”| Samarali muloqot

“Rolli o‘yin”| Ijtimoiy ko‘nikmalar

“Vaziyatni davom ettir”| Qaror qabul qilish

“Qaror daraxti”| Mas’uliyatli tanlov

“Ikki nuqtayi nazar”| Boshqa fikrni tushunish

“Agar men uning o‘rnida bo‘lsam...”| Perspektivani almashtirish

“Sokinlashtiruvchi uch qadam”| Hissiy o‘zini boshqarish

“Refleksiya doirasi”| O‘z faoliyatini baholash

Metodlarni tanlashda o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari, sinfdagi muhit va mavzuning mazmuni hisobga olinishi zarur. CASEL tavsiyalarida ham ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish yosh va rivojlanish bosqichiga mos tashkil etilishi kerakligi qayd etiladi. Masalan, boshlang‘ich bosqichda hissiyotlarni nomlashga urg‘u berilsa, yuqori sinflarda hissiyotlarning o‘zgarish sabablarini tahlil qilish va murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqarish masalalariga ko‘proq e’tibor qaratish mumkin.

O’qituvchining hissiy intellektni shakllantirishdagi roli. O‘quvchilarda hissiy intellektni shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchi faqat o‘qituvchining so‘zlarini emas, uning xatti-harakatlarini ham kuzatadi.

Agar o‘qituvchi:

- o‘quvchini diqqat bilan tinglasa;- uning fikrini hurmat qilsa;

- xatoga nisbatan konstruktiv munosabatda bo‘lsa;

- nizoli vaziyatda o‘zini vazmin tutsa;

- o‘quvchining hissiyotlarini inkor qilmasa;

- muammoni suhbat orqali hal qilishga intilsa, o‘quvchi ham bunday xatti-harakatlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli hissiy intellektni shakllantirishda “o‘quvchiga nima deyish kerak?” degan savol bilan bir qatorda “o‘qituvchi o‘zi qanday namuna ko‘rsatmoqda?” degan savol ham muhim. Sinfda psixologik xavfsiz muhit yaratish ham alohida ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘z fikrini bildirganida masxara qilinmasligini, xatosi uchun kamsitilmasligini his qilishi kerak. Shunda u o‘z hissiyotlari haqida ochiqroq fikr yurita boshlaydi.

Hissiy intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari

Tarbiya darslarida hissiy intellektni samarali shakllantirish uchun bir nechta muhim pedagogik shartlarga rioya qilish zarur.

Birinchidan, tizimlilik ta’minlanishi kerak. Hissiy intellekt bir yoki ikki mashg‘ulot orqali shakllanmaydi. U muntazam ravishda turli mavzularga integratsiya qilinishi lozim.

Ikkinchidan, yoshga moslik ta’minlanishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan yuqori sinf o‘quvchisiga bir xil topshiriq berish maqsadga muvofiq emas. *Uchinchidan,* amaliy yo‘nalganlik muhim. O‘quvchi hissiy intellekt haqidagi nazariy ma’lumotni bilishdan ko‘ra, uni real vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganishi kerak.

To‘rtinchidan, dialogik muhit yaratish lozim. O‘qituvchi barcha javoblarni oldindan belgilab qo‘ymasligi, o‘quvchilarga turli nuqtayi nazarlarni muhokama qilish imkonini berishi kerak.

Beshinchidan, refleksiya darsning tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Dars oxirida:

- Bugun nimani his qildim?

- Men uchun eng qiziqarli fikr qaysi bo‘ldi?

- Men o‘zim haqimda nimani angladim?

- Boshqalarning fikridan nimani o‘rgandim?

- Bu bilimni hayotimda qayerda qo‘llay olaman? kabi savollar berilishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish yetarli emas. Uning hissiy holatini anglay olishi, o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi, boshqa insonlarning kechinmalarini tushunishi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishi va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishi ham muhim shaxsiy kompetensiyalar hisoblanadi.

Tarbiya fani mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Dars jarayonida hayotiy vaziyatlar, muammoli savollar, rolli o‘yinlar, munozaralar, refleksiv topshiriqlar va guruhiy mashqlardan foydalanish o‘quvchilarning hissiy-intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hissiy intellektni shakllantirish jarayonida o‘quvchiga “qanday his qilishing kerak”ligini majburan singdirish emas, balki uning o‘z hissiyotlarini anglashiga, sabablarini tushunishiga va ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda ifodalashiga sharoit yaratish muhimdir. Bunda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, sinfdagi psixologik muhit va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, hissiy intellektni rivojlantirish izchil va tizimli jarayon bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich bosqichda hissiyotlarni tanish va nomlashga, keyinchalik ularni boshqarish, empatiya, samarali muloqot, konfliktlarni konstruktiv hal etish va mas’uliyatli qaror qabul qilishga bosqichma-bosqich e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, Tarbiya darslarida hissiy intellektni shakllantirish o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, sog‘lom munosabatlar o‘rnatishi va ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sanoyev Alisher. Hissiy intellekt tushunchasi , rivojlanishi va psixologiyada tutgan o’rni. Maqola-Toshkent. 2024 y

2. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. — New York: Bantam Books, 1995.

3. Durlak J. A., Weissberg R. P., Dymnicki

A. B., Taylor R. D., Schellinger K. B. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // Child Development. — 2011. — Vol. 82, No. 1. — P. 405–432. — DOI: 10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x.

4. MacCann C., Jiang Y., Brown L. E. R., Double K. S., Bucich M., Minbashian A. Emotional Intelligence Predicts Academic Performance: A Meta -Analysis // Psychological Bulletin. — 2020. — Vol. 146, No. 2. — P. 150–186. — DOI: 10.1037/bul0000219.

5. CASEL. CASEL’s SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? — 2020.

TARBIYA FANINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

M.I. Gadoyeva
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”kafedrasida katta o`qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiya fanini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish, uning afzalliklari, qo‘llash usullari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar tahlil qilinib, tarbiya darslarida Sun’iy intellekt nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, qadriyat, integratsiya, axloqiy me’yorlar, tarbiya, milliy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье анализируется роль искусственного интеллекта в проведении воспитательных занятий, способы его применения, а также возможные проблемы, которые могут возникнуть. Также

рассматривается, что искусственный интеллект на уроках воспитания может служить не только источником знаний, но и способствовать развитию поведения учащихся, их ценностей и социальных навыков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ценности, интеграция, нравственные нормы, воспитание, национальные ценности.

Annotation. This article analyzes the role of artificial intelligence in conducting educational (moral upbringing) lessons, its application methods, and potential challenges that may arise. It also discusses how artificial intelligence in such lessons can serve not only as a source of knowledge but also as a tool for developing students’ behavior, values, and social skills.

Keywords: artificial intelligence, values, integration, moral norms, upbringing, national values.

Kirish. Sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotdan tortib, ta’lim, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va boshqaruv tizimigacha chuqur kirib bormoqda. O‘zbekistonda ham sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha alohida qaror qabul qilinib,sohaninig huquqiy asoslariyaratilda.2024- yilda sun’iy intellektni 2030 yilda qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. *“Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun’iy intellekt davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Qaysi soha bo‘lmasin, kim bu jarayonga qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo‘ladi”*, -dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanib, zamonaviy texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) ta’lim jarayoniga chuqur kirib kelib, o‘qitish usullarini yangilashga xizmat qilmoqda. “-Ta’limda sun’iy intellektni o‘qitishga doir amaliy harakatlar kadrlar muammosini hal etish va ayni sohada O‘zbekistonning yanada rivojlanish imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Buning uchun esa avvalo pedagog kadrlarda sun’iy intellekt asosida ishlovchi samarador ta’limiy dasturlar haqidagi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimdir”. Tarbiya darslari esa o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida

muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, ushbu darslarni samarali tashkil etishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Mazkur maqolada tarbiya darslarini o‘tishda sun’iy intellektning o‘rni, uning afzalliklari, qo‘llash usullari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarni bajarishidir. Ta’lim sohasida SI o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ularga mos topshiriqlar berishda keng qo‘llanilmoqda. Tarbiya darslarida esa Sun’iy intellekt nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin. Tarbiya fani boshqa fanlardan farqli ravishda quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

a) ma’naviy-axloqiy tarbiya berishga yo‘naltirilganligi;

b) o‘quvchilarning shaxsiy fikrini shakllantirishga xizmat qilishi;

c) muloqot va muhokamaga asoslanganligi;

d) Hayotiy misollar orqali o‘rgatish.

Shu bois, ushbu darslarda sun’iy intellektdan foydalanish o‘qituvchining ishini yengillashtirish bilan birga, dars samaradorligini oshiradi. Sun’iy intellektning tarbiya darslarini o‘tishdagi asosiy vazifalari quyidagilardir: Individual yondashuvni ta’minlash “Sun’iy intellekt …ta’lim berish jarayonida ko‘pgina qulayliklar yaratadi. Uning yordamida o‘quvchilarning qiziqishlariga oid mavzularni o‘rganisha maqsadida turli metodlardan foydalanish mumkin”.

Sun’iy intellekt yordamida har bir o‘quvchining qiziqishi, bilim darajasi va psixologik holati tahlil qilinadi. Natijada, ularga mos tarbiya materiallari taqdim etiladi. Bu esa har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Interaktiv muhit yaratish Sun’iy intellekt (SI) asosidagi platformalar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, virtual suhbatlar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rganadi.

Axloqiy vaziyatlarni modellashtirish Sun’iy intellekt turli hayotiy vaziyatlarni modellashtirib, o‘quvchilarga to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tahlil va monitoring Sun’iy intellekt o‘quvchilarning xulq-atvori va rivojlanish dinamikasini kuzatib boradi. O‘qituvchi esa ushbu ma’lumotlar asosida tarbiya jarayonini yanada takomillashtiradi.

Sun’iy intellektdan foydalanish usullari:

Tarbiya fanini o’qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning bir necha samarali usullari mavjud:

Chatbotlar orqali suhbatlar Chatbotlar o‘quvchilar bilan muloqot qilib, ularning fikrini tinglaydi va yo‘naltiradi. Bu ayniqsa hamma bilan muloqotga kirisha olmaydigan tortinchoq o‘quvchilar uchun qulay.

Virtual simulyatsiyalar. O‘quvchilar mavzularga oid turli vaziyatlarga tushib qolgan holda qaror qabul qilishni mashq qiladi. Masalan, do‘stlik, halollik yoki mas’uliyatga oid holatlar.

Multimedia materiallar yaratish. Sun’iy intellekt yordamida tarbiya faniga oid video, audio va interaktiv materiallar tayyorlanadi, bu esa darsni qiziqarli qiladi. Sun’iy intellektni (SI) tarbiya faniga tatbiq etish bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat bilim berishni, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Quyida tarbiya fanini o’qitishda Sun’iy intellektning asosiy ustuvor yo‘nalishlar keltiriladi:

1.Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya (individualizatsiya). Sun’iy intellekt o‘quvchilarning qiziqishi, xarakteri va ehtiyojlarini tahlil qilib, ularga mos tarbiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqadi.

Unga quyidagilar kiradi:

a) Har bir o‘quvchi uchun individual tarbiya dasturi;

b) Psixologik holatni monitoring qilish;

v) Iqtidor va muammolarni erta aniqlash.

2. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani qo‘llab-quvvatlash. Sun’iy intellekt yordamida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish samaradorligi oshadi. Interaktiv hikoyalar, simulyatsiyalar orqali axloqiy qaror qabul qilishni o‘rgatish Real hayotga yaqin vaziyatlarda tarbiyaviy mashqlar, ijtimoiy xulq-atvorni modellashtirish.

3. Raqamli pedagogika va aqlli platformalar. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi platformalar tarbiya jarayonini avtomatlashtiradi va samarali qiladi. Masalan: Aqlli ta’lim tizimlari (adaptive learning) Virtual murabbiylar (AI tutorlar) Onlayn tarbiyaviy monitoring tizimlari.

4. Tarbiyaviy jarayonni tahlil qilish va baholash. Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, tarbiya samaradorligini aniqlaydi.Ularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: Xulq-atvor va ishtirokni tahlil qilish, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini baholash, datadriven qarorlar qabul qilish.

5. O‘quvchilar tarbiyasini nazorat qilishda ota-ona va pedagoglar bilan integratsiyalash. Bunda sun’iy intellekt tarbiya jarayonida barcha ishtirokchilarni bog‘laydi. Ota-onalarga real vaqt rejimida hisobotlar yetkaziladi, pedagoglar uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi va metodik yordamlar beriladi va shu tariqa tarbiyaviy muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

6. Etika va xavfsizlikni ta’minlash. Sun’iy intellektdan foydalanishda axloqiy me’yorlar muhim o‘rin tutadi. Ularga:

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmik adolatlilikni ta’minlash, bolalar psixologiyasiga salbiy ta’sirlarning oldini olish kabilar kiradi.

7. Milliy kontent va madaniy moslashuv. Tarbiya jarayonida Sun’iy intellekt milliy qadriyatlar asosida ishlashi kerak.Ya’ni unda: Milliy urf-odatlar va an’analarga mos content, mahalliy til va madaniyatni qo‘llab-quvvatlash, global va milliy qadriyatlar uyg‘unligi aks ettirilgan bo‘lishi kerak. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning qadriyatlari va qarashlarini aniqlashga yordam beradi. Tarbiya darslarida SI qo‘llanilishining bir qator afzalliklari mavjud:

Darslarning qiziqarli va interaktiv bo‘lishi, o‘quvchilarning faol ishtiroki ortishi, individual yondashuv imkoniyati, o‘qituvchining vaqtini tejashi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi shular jumlasidandir. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud:

Texnik muammolar; Barcha maktablarda zarur texnologiyalar mavjud emas. Tarbiya darslarida insoniy omil juda muhim. Sun’iy intellekt esa to‘liq inson o‘rnini bosa olmaydi. Sun’iy intellekt bilan ishlash uchun o‘qituvchilar maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak, sun’iy intellektdan foydalanga o‘quvchilarga oid ma’lumotlarni himoya qilish dolzarb masaladir. Chunki, shaxsiy ma’lumotlarni tarqalib ketishini oldini olish muhimdir. Kelajakda sun’iy intellekt tarbiya fanini o’qitishning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda. Mutaxasislarning fikriga ko‘ra, yaqin kelajakda quyidagi yo‘nalishlar rivojlanishi mumkin:

Aqlli ta’lim platformalari, shaxsiylashtirilgan tarbiya dasturlari, emotsional intellektni rivojlantiruvchi tizimlar, virtual murabbiylar. Bu esa ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt tarbiya fanini o’qitishni samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. U o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilib, dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Biroq, Sun’iy intellekt inson o‘rnini to‘liq bosa olmaydi, balki o‘qituvchining yordamchisi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Sun’iy intellektni tarbiya faniga tatbiq etish — bu nafaqat texnologik yangilanish, balki tarbiya jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishidir. To‘g‘ri yo‘naltirilsa, u barkamol, mustaqil fikrlovchi va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalashda muhim vositaga aylanishi mumkin Shu sababli, ta’lim tizimida, ayniqsa tarbiya darslarida sun’iy intellektdan oqilona va maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shavkat Mirziyoyev. Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish yangi bosqichga olib chiqiladi.. T.,2025

2.Sulton Normatov. Maktab o‘qituvchilarining sun’iy intellekt texnologiyalariga doir bilimlarini rivojlantirish. Toshkent

3. Ozoda Sabirova. Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish. Toshkent 2025

4.Weston, M., & Bain, A. (2010). "Artificial Intelligence in the Classroom."

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BOLA TARBIYASIDA IJTIMOIY HISSIY TA’SIR MASALALARI

U.A.Kosimov

Buxoro viloyati PMM “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya: Alisher Navoiy jahon sivilizatsiyasi va xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, ilm-fani yuksalishida katta o`rin tutgan buyuk shaxslardan biridir. Alisher Navoiyning merosi milliy ma’naviyatimizni yuksalishiga va xalqimizning dunyoqarashini shakllanishi hamda tafakkuri. ijtimoiy-hissiy tamadduniga g`oyat kuchli ta’sir ko`rsatgan bo`lsa, jamiyatni iqtisodiy yuksaltirish masalasida ham bobokalonimizning xizmatlari kattadir. Navoiy odamlarni barkamol qilish asosida eng adolatli va yetuk jamiyat barpo etishni maqsad qilgan edi. U kishilarni o‘zini—o‘zi anglashiga, ijtimoiy burchini anglab uni sidqidildan bajarishga chaqiradi. Navoiy o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson bo‘lib shakllanishida, ularning o‘z—o‘zini tarbiyalashlariga, xato va kamchiliklarini anglab, tuzatishlariga e'tibor beradi. Navoiy asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shugullanib namuna uslubidan foydalanish tavsiya etilgan.

Kalit so’zlar: o‘zini—o‘zi anglashi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson bo‘lib shakllanish, adolatli va yetuk jamiyat barpo etish, milliy ma’naviyatini yuksalish.

Аннотация: Алишер Навои — одна из великих фигур, сыгравших значительную роль в развитии мировой цивилизации и историческом развитии нашего народа, в становлении науки. Наследие Алишера Навои оказало очень сильное влияние на возвышение нашей национальной духовности и формирование мировоззрения и мышления нашего народа, социально-

эмоциональной культуры, а также на огромный вклад наших предков в экономическое развитие общества. Навои стремился построить наиболее справедливое и зрелое общество, основанное на развитии человека. Он призывал людей понимать себя, понимать свой общественный долг и искренне его исполнять. Навои уделял внимание формированию всесторонне развитой личности подрастающего молодого поколения, его самообразованию, пониманию и исправлению своих ошибок и недостатков. В своих работах Навои рекомендовал использовать модельный метод в воспитании детей в семье и школе.

Ключевые слова: самосознание, формирование всесторонне развитых личностей подрастающего молодого поколения, построение справедливого и зрелого общества, возвышение национальной духовности.

Annotation: Alisher Navoi is one of the great people who played a great role in the world civilization and the historical development of our nation, as well as the rise of science. Alisher Navoi's legacy had a strong influence on the rise of our national spirituality and the formation of the worldview and civilization of our people's thinking. Navoi aimed to establish the most just and mature society based on the perfection of people. He calls people to understand themselves, to realize their social duty and fulfill it seriously. Navoi pays attention to the formation of the growing young generation into a well-rounded person, to their self-education, to understanding and correcting their mistakes and shortcomings. In Navoi's works, it is recommended to use the model method of dealing with child education in the family and at school.

Keywords: self-awareness, the development of the rising generation into well-rounded individuals, the construction of a just and mature society, the elevation of national spirituality.

Ulug‘ donishmand, mutafakkir, davlat arbobi, she’riyat mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy xalqimizning ajdodlar xotirasini ardoqlashi, milliy qadriyatlarimizni e’zozlashi, ma’naviyatining yuksakligi, she’riyat, adabiyot,

ayniqsa turkiy til rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan doimo ardoqda. Alisher Navoiyning asarlarida ezgulik, vatanparvarlik, mardlik, xayr-saxovat, go‘zallik kabi fazilatlar hamisha yetakchi o‘ringa qo‘yilgan. Biz Navoiyning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa. Shu o‘rinda O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyga “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir ” deb yuksak baho bergan edi [1].

Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti jarayonida inson omili va shaxslarning o`rni masalasi to`g`risida gap borsa, buyuk kishilar faoliyati tushuniladi. Bunday shaxslarda dastavval uni o‘z orasidan yetishtirib chiqargan xalqqa xos sifatlar ham bo‘ladi. Buyuk shaxs faoliyatida o‘zligini ro‘yobga chiqarish, milliy va davlat mustaqilligini himoya qilish, o‘z xalqini saodatli qilish hamda taraqqiyotini yuksak darajasiga ko‘tarish bilan bir qatorda, umuminsoniy qadiriyatlar va butun insoniyat jamiyatining yalpi taraqqiyotiga baholi qudrat ko‘mak berishda muhim o‘rin egallaydi.

Ana shuning uchun ham bunday shaxslarning ma’naviy merosini o`rganish va tadqiq qilish doimo dolzarb bo‘lib kelgan.

Alisher Navoiy jahon sivilizatsiyasi va xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, ilm-fani yuksalishida katta o`rin tutgan buyuk shaxslardan biridir. Alisher Navoiyning merosi milliy ma’naviyatimizni yuksalishiga va xalqimizning dunyoqarashini shakllanishi hamda tafakkuri tamaddunіga g`oyat kuchli ta’sir ko`rsatgan bo`lsa,

jamiyatni iqtisodiy yuksaltirish masalasida ham bobokalonimizning xizmatlari kattadir. Alisher Navoiy muhrdorlik, hokimlik va vazirlik lavozimlarida faoliyat ko`rsatgan vaqtda, xalq turmushini yaxshilash uchun bor kuch-g`ayratini ayamadi, obodonchilik, qurilish ishlariga bosh-qosh bo`ldi. Shu bilan bir qatorda o`z mablag`idan rabotlar, ko`piriklar, xonaqolar, masjidlar, maktablar, madrasalar, hammom va shifoxonalar qurdirganligi haqida tarixiy va ilmiy asarlarda batafsil yoritib berilgan.

Bundan ko`rinib turibdiki, buyuk mutafakkir bobokalonimiz ilm-u ma’rifat, bunyodkorlik, obodonchilik, saxovatpeshalik, yuksak axloqiy va insonga xos bo`lgan ezgu fazilatlarni o`z asarlarida targ‘ib qilish bilan bir qatorda o‘zi ham bu g‘oyalarga amal qilganligini ko`ramiz. Bu Alisher Navoiy faoliyatida so`z va ish birligini ko`rsatib beradi.

Alisher Navoiyning merosi shu qadar ulkanki, uning asarlari adabiyotshunoslik, falsafa, siyosatshunoslik, axloqshunoslik, tilshunoslik, tarix va boshqa jamiyatdagi ko`pgina sohalarni qamrab oladi. U o`z asarlarida borliq, narsa va hodisalarni mohiyati, inson uning kamoloti, axloqi, jamiyat taraqqiyotida tutgan o`rni, adob-axloqi, komillik sifatlari, barkamol shaxsni tarbiyalashda ta’lim-tarbiyaning ahamiyati haqida ilgari surgan g`oyalari nafaqat o`z davrida, balki bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida o`zining ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Biz Alisher Navoiyni nafaqat mumtoz o`zbek adabiyoti asoschisi, daho shoir, mashhur davlat arbobi, ta’lim va san’at homiysi sifatida, shuningdek, milliy ma’naviyatimiz tarixida butun bir Renessans davrni tashkil etgan qomusiy mutafakkir sifatida anglab olishimiz zarur.

Abdurahim Erkayevning[2] ushbu fikrlaridan shuni anglab olish mumkinki, mutafakkir bobokalonimiz o`z asarlarida teran falsafiy mushohadalarga va axloqiy g`oyalarga hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy hodisalarga ham keng e’tibor qaratgan. Qisqacha izoh beradigan bo`lsak, Alisher Navoiy o`z ijodi bilan xalqimiz adabiyoti rivojiga beqiyos hissa qo`shish bilan bir qatorda, Movarounnahr va

Xurosonda yashayotgan xalqlarning ma’naviyatiga, madaniyatiga va taraqqiyotiga katta ta’sir ko`rsatgan buyuk shaxslardan biridir.

Alisher Navoiy ma’naviy merosining bola tarbiyasidagi ahamiyati shundaki, ularning estetik, badiiy ehtiyojlarini qondirish, bilimlari va dunyoqarashini boyitish, aqlini charxlash, didini yuksaltirish, o`zligini anglash, milliy ma’naviy merosimizdan bahramand bo`lish va undan oziqlanish, bir so`z bilan aytganda axloqiy jihatdan yetuk, jamiyatda o`z o`rni va yo`nalishiga ega shaxs sifatida kamol topishida muhim o`rin tutadi.

Alisher Navoiyning merosiga nazar tashlar ekanmiz, uning asarlarining mazmun-mohiyati bag`rikenglik, tashabbuskorlik va vatanparvarlikni kamol toptirishga qaratilgan g`oyalar qamrab olganligini guvohi bo`lamiz. Mutafakkir daho shoirning ma’naviy merosi kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida o`z ahamiyatini yo`qotmay, xalqlar orasida keng tarqalib, ijod ahli uchun maktab vazifasini o`tab, ta’lim-tarbiya jarayonining ta’sirchan vositasi bo`lib kelmoqda.

Mutafakkir va shoir bobokalonimizning asarlari adabiyotning qaysi janr yoki ilm-fanning qaysi sohasini qamrab olishidan qat’iy nazar, uning asl mohiyatida inson kamoloti, komillik, axloq-odob, ta’lim-tarbiya masalasi va ilm-u ma’rifatni ulug`lash, ilm-fanning inson hamda jamiyat hayotida asosiy tayanch ekanligiga urg`u beriladi. Shu bilan birga, xayr-saxovat, mehr-muhabbat, rostgo`ylik, mehnatsevarlk, halollik va oqillik kabi insoniy fazilatlarni tarannum etadi.

Bugungi kunda buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig‘ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e’lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko‘rish mumkin.

Alloma asarlarida barkamol insonni shakllantirish uslub va usullari, vositalari ham ifodalangan. Navoiy asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shugullanib namuna uslubidan foydalanish tavsiya etilgan. Tarbiya va ta'lim ota—

ona hamda o‘qituvchi tomonidan olib borilishi lozim topiladi. Alisher Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo‘lishni, lekin bunda ham me'yoridan oshmaslik lozimligini uqtiradi. Bunda Navoiy o‘qituvchini talabchan bo‘lishga undagani, ammo har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilish zarurligini uqtirgani ma'lumdir. Tarbiya haqida gapirar ekan, «qobiliyatini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyatingni nobud qilma» — deydi. Navoiy o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson bo‘lib shakllanishida, ularning o‘z—o‘zini tarbiyalashlariga, xato va kamchiliklarini anglab, tuzatishlariga e'tibor beradi.

Alisher Navoiy ilm olish yo‘llari haqida ham muhim fikrlar bayon etadi. U bilimlarni tinmay, uzluksiz o‘rganish zarur, deydi. Bunda har qanday qiyinchilikni yengib o‘tish mumkinligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ish ko‘rish, uni oxiriga yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta'kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘gri ifodalab, hatto ta'lim tizimini ham belgilab beradi, ya'ni Alisher Navoiy ta'lim tizimini o‘z davrida maqtab, madrasalarda o‘qish, yo olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi. Mutafakkir yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar–domlalar, mudarrislar hamda ustoz—murabbiylarning o‘zlari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid etadi va o‘qituvchi ega bo‘lishi zarur bo‘lgan ma'lumotli, o‘qitish yo‘llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur, deydi. Masalan, «Mahbub ul—qulub» asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning qattiqqo‘l, johil va ta'magirliklarini qoralaydi, o‘qituvchi mehnatining ogirligi, murabbiylik haqqini xolisona baholaydi.

Demak, Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga yetishda ilm—u fanning ahamiyatini ko‘rsatish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olim—u fozillarga hurmat va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e'tibor beradi. Navoiy «Mahbub ul—qulub» asarida o‘z

zamonasidagi barkamol insonga hos fazilatlarni aks ettirib, ularning maqsad va mohiyatini asoslab berdi.

Kitobning ikkinchi qismi, ya'ni "Xamida ad'ol va zamima xisol xosiyati"da qanoat, sabr, odob, ishq kabi insonning ruhiy holatiga bogliq bo‘lgan irodaviy sifatlarning mohiyatini ochgan "qanoat chashmadurkim, suvi olmoq bila qurumas. qanoat qilgan odamni ko‘ngli ochiq, ko‘zi ravshan bo‘lib, obro‘—e'tiborga sazovordir. qanoatga kuch bagishlovchi yuksak insoniy fazilat sabrdir. Sabr qilish insonni kamollikka yetaklaydi», deydi u.

Shuningdek, shoirning besh dostondan iborat shoh asari "Hamsa"da inson kamolotining barcha masalalari qamrab olingan.

Navoiy odamlarni barkamol qilish asosida eng adolatli va yetuk jamiyat barpo etishni maqsad qilgan edi. U kishilarni o‘zini—o‘zi anglashiga, ijtimoiy burchini anglab uni sidqidildan bajarishga chaqiradi: "El netib topkay menikim, men o‘zumni topmamen. Bo‘ylakim ishqu junun sahrosida avoramen..." ("Lisonut—tayr" Alisher Navoiy).

Komillik darajasiga yetishida shaxs jisman va ruhan pok bo‘lishga harakat qilishi, zohiriy – tashqi jihatdan poklanish bilan, asosiy ichki poklikka yetishi va ko‘ngil pokligi—biror vujudga va narsaga nisbatan garaz saqlamaslik holatiga yetishishi zarur. Navoiy shaxs qobiliyatiga juda yuksak baho berib, u olam mohiyatini anglay oladi degan fikrni olga suradi: "O‘z vujudingni tafakkur aylagil, har ne istarsen o‘zingdan istagil".

"Hayratul—abror" uch hayratdan tashqari yana yigirma maqolatni o‘z ichiga olgan bo‘lib, asosiy mazmunini shu maqolatlar tashkil etadi.

18- maqolat (Hayot qadri). Agar inson o‘zini qo‘lga ola bilsa, atrof—muhitdagi vaxshatni yengil kechirsa, dardu gamlarga berilib ketmasa, uning umri xush kechadi. Inson uchun bagishlangan eng oliy ne'mat, eng ulug boylik aqli, tafakkuridir, — deb aytadi shoir. Navoiyning bu maqolatdagi pand—nasihatlari turmush voqyealarini kuzatish tufayli paydo qilgan soglom mulohazalaridir.

Alisher Navoiy, huddi hazrati Bahouddin Naqshband muridlikka qabul qilishni so‘rab kelganlardan talab qilganlari kabi, bu dunyoda kasb o‘rganish kerakligini targib etadi. Hatto, kasb o‘rganmay yashab o‘tgan odamni olam uyidan gamgin bo‘lib chiqqan kishiga o‘xshatadi.

"Kamol et kasb" so‘zlarini "kamolga yetishni kasb qil" deb ham, "Kasb o‘rganishni kamolga yetkaz" deb ham tushunish mumkin. Har ikkalasida ham insonning bu dunyoda komillikka erishish sari intilishi ko‘zda tutilgan. Kasb o‘rganish ham — komillik sari tashlangan qadam. Shu ham "dast — ba kor"lik shartlaridan "Ilm va hikmat er kishining zeb—u ziynatidir", deb talqin etadi.

A.Navoiyning "Hayratul abror" dostonida barkamol shaxsning ma'naviyatidagi yaxshilik, sahovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab, bagrikenglik, kamtarlik, insof, adolat singari fazilatlari ta'riflanib, ruhiy kamolot yo‘llari tahlil etiladi.

A.Navoiy "Olamdan gamsiz o‘tay desang, ilm—u hunar o‘rgan". Uning fikricha, yosh avlodni barkamol bo‘lishini xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar qilib yetishtirishdir. Bunda tarbiya yetakchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga u tarbiya ta'siriga beriluvchi, qobiliyatli o‘quvchi bolalar bo‘lgani singari yomon xulqli bolalarni tuzatish mumkinligiga ishonch bildiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarini keng targ`ib qilish jamiyat a’zolarida vatanparvarlik, tashabbuskorlik, bunyodkorlik, bag`rikenglik kabi yuksak insoniy, ezgu fazilatlarni shakllantirish, bolalarni milliy odob-axloq normalari bilan tarbiyalash, keng dunyoqarash va intellektual salohiyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarimiz samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat. 2008.

2.Erkayev Abdurahim. Ma’naviyat va taraqqiyot. T.: Ma’naviyat, 2009. B. 145.

3.Ajdodlar o‘giti. Hikoyatlar, hikmatlar, tamsillar.-T.: Cho‘lpon,-1991.-240 b.

4.Asotirlar va rivoyatlar. 1- kitob. -T.: 1990. - 128 b.

5.Axloq-odobga oid hadis namunalari. -T.: Fan, 1990.- 172 b.

6.Donishmandlar tarbiya xususida. -T.: Tarbiyachi, 1982.-176 b.

XORIJIY TILINI O‘RGANISHDA NEYROLINGVISTIK DASTURLASHNING O‘RNI

U.A.Kosimov

Buxoro viloyati PMM “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotasiya: Maqolada ingliz tilini o‘rganishda neyrolingvistik dasturlash orqali maqsad-niyatni ijobiy ko‘rinish qolipiga solish orqali ong ostlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati tahlil etilib tavsiyalar berilgan

Kalit so‘zlar: neyrolingvistik dasturlash, maqsadga-niyatga yetishish

Аннотатция: В статье анализируется возможность эффективного исползования подсознания путем формирования целеполагания в позитивный образ посредством нейролингвистического программирования при изучении английского языка, а также предлагаются рекомендации.

Ключевые слова: нейролингвистическое программирование, достижение целеполагания.

Abstract: The article analyzes the possibility of effectively using the subconscious mind by shaping the goal-intention into a positive image through neurolinguistic programming in learning English, and provides recommendations.

Keywords: neurolinguistic programming, achieving the goal-intention

Kirish. Neyromingvistik dasturlash- bu shunday bilim sohasiki, u sub'ektiv tajriba, malaka, ko‘nikma tarkibi, uning tuzilmasini tadqiq etish orqali, uni tavsiflash tili va ro‘yobga chiqish mexanizmlarini o‘rganadi. Neyromingvistik dasturlashning birinchi nomi “Metabilimlar”-bo‘lib u sub'ektiv (omadli, muvafaiyatli)tajribani modellashtirish asosida uni boshqalar faoliyatiga ko‘chirish bilan singdirishni nazarda tutadi. Neyrolingvistik dasturlash nomining “Neyro” qismida sub'ektiv tajribani tavsiflashda miya neyrologik jarayonlarining

axborotlarni qabul qilish, saqlash qayta ishlash va uzatish uchun javobgar jarayonlari o‘z ifodasini topadi.

“Lingvistik” qismi esa tilning muhim belgisi sifatida tafakkur qilish va xulqning ro‘yobga chiqish xususiyatlari mexanizmlari va kommunikatsiyani tashkil qilish jarayonlarini tavsiflashni o‘z ichiga oladi. “Dasturlash” esa fikrlash va xulqni namoyon qilishning tizimliligiga ishora qilib, ularni ma’lum tartibda namoyon bo‘lishini bildiradi. Chunki “programma-dastur” grek tilida ma’lum bir aniq maqsad natijalariga erishishda aniq ketma-ketlik harakat qadamlari degan ma’noni bildiradi.

Shunday qilib, neyromingvistik dasturlash hayotga, ma’lum bir sub'ektiv ijobiy muvoffaqiyatli, omadli maqsadga tayangan tajribaga ta’luqli tizimli jarayonlardir. Bu o‘z navbatida inson mukammalligining neyrolingvistik modelini tuzish va uni boshqalarga ko‘chirish orqali, uni sub'ektiv tajribasini takomillashtirish bilan, uning maqsadlariga samarali va oqilona yetishish uchun hayotini omadli muvaffaqiyatli qilishdan iborat, psixotexnikalar, texnologiyalardir.

Aytish joizki, yuqorida ta’kidlanganidek, bu psixotexnika va psixotexnologiyalarni samarali qo‘llanilishi orqali, insonning har qanday psixik, psixologik holatlarini o‘zgartirish, uni muvofiq ravishda sozlash, yangi ijtimoiy-psixologik xislatlarni shakllantirish imkoniyatlariga erishiladi.

Asosiy qism. Neyrolingvistik dasturlash amaliy psixologiyaning eng zamonaviy samarali ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, inson psixikasi zahiralaridan mukammal foydalanish imkoniyatini ochadi. Bu o‘z navbatida inson psixologik faoliyatining deyarli barcha jabhalarini sozlash, o‘zgartirish, dasturlash, qayta dasturlash bian ong ostlik faoliyatini samarali ishga tushiradi. Odatda deyarli barcha odamlar agar biror maqsadlaridan natija olmasalar, ular buning sabablarini muammolar orqali xaspo‘shlab maqsadning amalga oshuviga xalaqit bergan o‘tmishdagi to‘siqlar qiyinchiliklarni ikkir-chikirigacha tavsiflashni yaxshi uddalashdi. Aslida bu ularning maqsadlariga samarali, muvaffaqiyatli yetishlariga foyda bermaydi.

Buni quyidagicha tavsiflash mumkin: Maqsadga yetishmaganlikning sababi nima? Qanday xatoga yo‘l qo‘yildi? Kim aybdor? Nima aybdor? Nima uchun buning oldi, olinmadi? Va hakazo. Albatta bu o‘z-o‘zidan bizni o‘tmish bilan bog‘lab salbiy emotsional his tuyg‘unining ilmog‘ini mustaxkamlaydi va bizning hozirimizga o‘tmishni olib o‘tadi. Bu esa o‘z navbatida bizga ichki botiniy kuchimizni o‘tmish to‘siqlari va xatolarini tahlil qilish, aybdorlarni qidirish, yangi qo‘rquvlarni paydo qilish kabi befoyda narsalarga sarflashga olib keladi.

Haqiqatda maqsad-natijalariga bizni qiyinchiliklar, xatolar, omadsizliklarning sabablarini ro‘kach qilish emas balki maqsadni aniq, to‘g‘ri, ijobiy ko‘rinishi qolipiga solish samarali eltadi.

Ijobiy qolipdagi niyat-maqsad bu ayni vaqtda diqqat e'tiborda turgan real amaliy qadam bosish mumkin bo‘lgan ichki ruhiy botiniy kuch bilan sug‘orilgan psixologik tayyorlikdir. Aytish joizki neyrolingvistik dasturlashda maqsadlari to‘g‘ri ijobiy ko‘rinish holatiga solishning o‘ziga xos talablarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Maqsad-niyat ijobiy ko‘rinishida “yo‘q”, “emas”, “ma” inkor so‘zlarini qo‘llash joiz emas. Axborotni qayta ishlash jarayonida ongimiz ularni teskarisini bajaradi. Masalan agar shu haqda fikrlama deyilsa u aksincha shu narsalar haqida fikrlab taranglashadi. Yoki men boshqa bunday qilmayman degan fikr odam tasavvurida yorqin ranglarda aynan shu holatni keltiradi. Demak kundalik hayotimizda biz ko‘pchilik hollarda maqsad niyatini to‘g‘ri ifoda etolmay salbiy ko‘rinish qolipiga solamiz va teskari natijani olamiz. Bu ayni chog‘da ta’lim va tarbiya jarayonida ko‘p uchraydigan holatlardandir.

Ingliz tilini o‘rganish jarayonida ko‘p uchraydigan salbiy ko‘rinish qolipiga solingan maqsadlarni misol keltirish mumkin:

Men ingliz tilini harflarini o‘rganish va talaffuz qilishdan boshlayman va ularni xato qilmasdan talaffuz qilaman va doimo xato qilmasdan yozaman. (Ijobiy ko‘rinishdagi qolip:…ularni to‘g‘ri talaffuz qilaman, to‘g‘ri yozaman) Yoki ingliz tili harflarini o‘rgansam yozganda kamroq xato qilaman (Ijobiy ko‘rinishdagi qolib… harflarni to‘g‘ri o‘rganaman, to‘g‘ri yozaman.).

2. Maqsad-niyatni aniq va hozirgi zamon ko‘rinishda ifoda etish. Aytish joizki, ”balki yetishishim mumkin”, «agarda”, “shunday qilganimda edi”, “bir urinib ko‘raychi” kabi ifodalar maqsad yo‘lidagi to‘siq hisoblanadi. Men o‘rganyapman, so‘zlar xotiramda saqlanyapti, men ko‘p narsaga erishyapman va hokazo.

3. Taqosslash, solishtirish ifodalari maqsadni amalga oshuvida inkor qilishdek to‘siq hosil qiladi. Shuning uchun ingliz tilini o‘rganishda maqsad-niyatda «yaxshiroq”, “kamroq” noaniq ifodalarini ishlatish natija olishga to‘sqinlik qiladi. Ular o‘rniga lo‘nda, yig‘iq mazmunli so‘zlarni aniq ishlatish joiz.

Masalan: “Yozganda kamroq xato qilaman”(ijobiy ko‘rinishdagi qolib to‘g‘ri yozaman) “Ingliz tilida hozirgidan ko‘ra yaxshiroq gapiraman(... ingliz tilida erkin so‘zlashaman, burro gapiraman va talaffuz qilaman.)

4. Maqsadga-niyatga yetishishni aniq hissiyotlar bilan tasavvur qilish. Ingliz tilida to‘g‘ri erkin gaplashish va to‘g‘ri yozishni aniq tiniq yorqin ranglarda, tovushlarda harakatlarda vizual, audal va kinestetik his etish. Ya’ni fikr, niyat, maqsadni audal, vizual, kinestetik axborot qabul qilish kanallarida mukammal ifoda eta olish talab qilinadi. Maqsad , niyatni oldindaan loyihasini tasavvur qilish, bunda tasavvur obrazlarining rangi, katta kichikligi, hajmi, uzoq-yaqinligi, harakati, tovushi kabi ko‘rsatkichlarini yorqin, tiniq, aniq darajalarda iifodalanishi talab etiladi.

5. Maqsad-niyatga yetganlikni aniqlovchi konkret sana, belgilangan (fiksatsiyalashgan)miqdor o‘rnatish joiz. Ya’ni «bir oz vaqtdan keyin”, “yaqinda”, “bir ikki oy o‘tsa”, “rivojlantiraman”, “takomillashtiraman”, kabi noaniq (kriteriy) ifodalardan voz kechish va 3 kunda, bir hafta bir oy, yoki 30 kunda erishaman deb belgilash joiz.

6. Maqsad-niyatlarning amalga oshuvida birinchi va ikkinchi darajali “afzallik” va “to‘siqlar” ta’sirini tekshirish va hisobga olish kerak.

Ya’ni maqsadni “ekologik nazoratdan” o‘tkazish lozim. Bu maqsad-niyat amalga oshuvida nimalardan kechish kerakligi va nimalarga yetishishni tadqiq etadi va

maqsadga erishuvida gumon, ikkilanishlar, shubhalar va bezovtaliklarni bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бендлер Р. Управление собственным мозгом. Электронный источник.
2. Гриндер Д., Бендлер Р. Структура магии. Электронный источник.
3. Гриндер М. Исправление школьного конвейера. Электронный источник.
4. Еремеева Н. Запоминаем английские слова легко // English for you. Электронный источник.

YOSH AVLODNING KASBNI OQILONA TANLASHI VA KASBIY FAOLIYATDA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK EMOTSIONAL XUSUSIYATLARNING ROLI.

U.A.Kosimov
Buxoro viloyati PMM “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uchinchi renesans davrida, yosh avlodning kasb tanlashida shaxs tipologiyasiga e’tibor berish, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, ta’lim-tarbiyaning o’ziga xos pedagogik- psixologik jihatlaridan samarali foydalanishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash.tipologiya, dunyoqarash,etibor, shaxsiy fazilatlar.

Аннотация: В данной статье в период Третьего Возрождения в выборе профессии подрастающего поколения даются рекомендации обращать внимание на типологию личности, развивать личностные качества, эффективно использовать уникальные педагогические и психологические аспекты образования.

Ключивые слова: третьего возрождения мировоззрение, типология, шедевры нашего искусства, универсальная культура, творческая смелость.

Annotation: In this article, during the period of the Third Renaissance, in choosing a profession for the younger generation, recommendations are given to pay

attention to the typology of personality, develop personal qualities, and effectively use the unique pedagogical and psychological aspects of education.

Key words: world literature, cultural life, patriot of country,valuable sourse

Kirish. Mamlakatimizda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarish - ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarishdir. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoyi kishisini kamol toptirish zarur. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, dunyoqarashi keng, yuqori malakali, xotirasi barqaror,yangiliklarga intiluvchan, izlanuvchan kasbiy xodimlar bo‘lib voyaga yetishsin. Shu o‘rinda o‘rta maktab o‘quvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonidashaxsiy fazilatlarining shakllanishi ularning kasb tanlashlarida muhim omil ekanligini eslab o‘tishmaqsadga muvofiqdir.

Ko‘pchilik o‘quvchilar ta’lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o‘zlari yoqtirgan kasb-hunar haqida o‘ylaydilar. Ularni kasb-korga bo‘lgan qiziqishlari, moyilliklari, havaslari, xoxishlari, ezgu-niyatlari yoki shunday ehtiyojlarining tug‘ilishi jarayonida shaxsiy fazilatlar namoyon bo‘la boshlaydi. Shuningdek, o‘quvchilarni individual tipologik xususiyatlari, jumladan yoshi va jinsiga qarab har biri o‘ziga xos, o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholash orqali ma’lum bir kasbga bo‘lgan mehr kurtaklari uyg‘ona boshlaydi.Demak, o‘spirinlarda bilimlardoirasi va dunyoqarashining kengayib borishi natijasida shaxsiy fazilatlarham shakllanib boradi. Shularni hisobga olgan holda to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish vabu jarayonning to‘laqonli amalga oshishida kattalarning psixologikbilim va hayotiy tajribalariningo‘rni beqiyosdir.

Jumladan, kasb tanlashda shaxsning sezgirligi muhim ahamiyatga ega. Sezgilar deganda, insonlarning tashqi ta’sirni qabul qilish qobiliyati va shunday ta’sirdan olingan his – tuyg‘u, bilish jarayonining sodda va boshlang‘ich shakli, bosqichi hisoblanadi. Sezgirlik deganda, sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi. Insonning ko‘zi yarim millionga yaqin rang - tusni ajrata oladi. Bundan chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, farqni sezish

chegarasining past yoki yuqori bo‘lishi ko‘pchilik kasb - hunarlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sezgirlik shaxsning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, ma’lum faoliyat turi bilan shug‘ullanish sezgirlikni oshiradi. Buning uchun o‘quvchilar muntazam ravishda mashq qilishi va mashq jarayonida sezgirlikka nisbatan talabni oshira borishi, faoliyatda sustlikka yo‘l qo‘ymaslik zarur. O‘spirinlarning ruhiy tetikligini, jismoniy faolligini oshirish, mehnatga, kasb-hunarga qiziqtirish ularning sezgirligi, ziyrakligini oshirish garovidir.

Ayni paytda sezgi organlariga ta’sir etayotgan ob’ektni mavjud narsa va hodisalarning inson ongidagi in’ikosi idrok deb ataladi. Idrok verbal va noverbal xususiyatlari bilan boshqa bilish jarayonlaridan farqlanadi. Idrok voqelikni aks ettirishning sezgiga nisbatan yuksak shakli bo‘lib, hodisalar, narsalar va ob’ektlarning yaxlit obrazini yaratadi.

O‘spirinlarning o‘qishi, mehnat faoliyati, muomala jarayoni, kasb tanlashi uchun fazo va vaqtni idrok qilishning katta ahamiyati bor. Har qanday kasb-hunar, ixtisos va mutaxassislik uchun ish sur’ati, vaqt, ish qurollari, vositalarining fazoda qanday joylashganligini aniq bilish talab qilinadi. Shaxsan kasbga yo‘llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi alohida o‘rin tutadi. Ba’zi birovlar moddiy narsalarga nisbatan kuzatuvchan bo‘lsa, boshqalar psixologik jihatdan kuzatuvchandir. Shaxsning atrof muhitdagi narsa va hodisalar haqida chuqur fikr yurita bilishi uning idroklilik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu fazilat kasb tanlashda juda asqotadi.

Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv holatni aks ettirish qobiliyati - xotira deb ataladi. Xotiraning hayot, faoliyat, muomala va xulq-atvor jarayonlarini aks ettirish qobiliyati muhim xislat bo‘lib shaxsiy fazilatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bundan tashqari, xotira faoliyatning maqsadiga qarab - ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish va esda saqlash, muddatiga qarab - qisqa muddatli, uzoq muddatli,

operativ va o‘z navbatida ko‘rgazmali, obrazli, so‘z - mantiq, abstrakt, harakatli va oraliq tiplari mavjud bo‘lib, yoshlarni kasbga yo‘llashda ularning xotirasidagi shaxsiy farqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.O‘quv materiallarining turli tumanligi xotirani o‘tkirlashtirish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Chunki kasb-hunarning xilma-xilligi xotiraning o‘tkirligini talab qiladi.

Xotiraning hamma turlari, o‘ziga xos jihatlari kasb-hunar, ixtisos, mutaxassislik tanlashda, turli-tuman kasblar to‘g‘risidagi ma’lumot axborotlarni o‘zlashtirish, eslab qolish va keyinchalik esga tushirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa, o‘z navbatida ishning samarali bajarilishini ta’minlaydi.Aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilarning xotirasi ayniqsa o‘tkir bo‘lishi lozim.

Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuhur etilgan mavhum va umumlashtirilgan in’ikosi bo‘lib, insonning olam haqidagi bilimining asosiy manbai bo‘lgan sezgilari, idroki va tasavvurlari hamda amaliy faoliyati bilan bog‘liqdir. Tafakkur shaxsni bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, butun olamni o‘ziga bo‘ysundirish uchun imkon tug‘diradi. Fikr yuritish orqali barcha bilimlar o‘zlashtiriladi. Bilimlarni anglash natijasida tushunchalar, mulohazalar va xulosalar kelib chiqadi. Inson fikrlash,mulohaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlar hal qilinadi, yangilik yaratadi, ijod (kreatsiya) qiladi.

O‘spirinlarning fikr yuritish qobiliyatini aniqlovchi muhim mezonlardan biri muammoli vaziyatdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni yoki talabalarni muammoli vaziyatni, topshiriqni yechishga o‘rgatish ularning bu aqliy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarga muammoli, jumboqli topshiriqni yechish bosqichlarini ta’riflab berish joiz. Bunda qo‘yilgan muammoning mohiyati tushuntiriladi, uni yechish usullari, vositalari qidiriladi, tanlangan usul hamda vositalardan foydalanib muammo yechiladi, uning to‘g‘ri yechilganligi tekshiriladi va hokazo.

O‘quvchi tafakkurining mustaqilligini, ixchamligini, tezligini, mantiqiyligini, izchilligini, o‘tkirligini, teranligini, mahsuldorligini oshirishga erishish uchun bir

element ortiqcha berilgan yoki biror sharti yetishmaydigan, yo bo‘lmasa o‘zaro mantiqan bog‘lanmagan topshiriq hamda masalalardan muammo sifatida foydalanilsa juda qimmatli natija olinadi. Qo‘yilgan muammoning kasb-hunarga aloqador bo‘lgani ma’qul. Xullas, tafakkurning hozirgacha foydalanilayotgan imkoniyatlarini zudlik bilan ishga solish kasb tanlash samarasini oshirish ishiga xizmat qilishga ishonchimiz komil.

O‘spirinlar hayotini fantaziyasiz tasavvur etish qiyin, albatta. Xayolot (fantaziya) ob’ektiv voqelikni inson ongidagi o‘ziga xos in’ikosi, real yoki noreal hodisalar haqidagi o‘y, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir. Bironta, hatto eng chalkash faraziy tasavvur ham shaxs aqlining faqat sub’ektiv mahsuli hisoblanmaydi, oqibat natijada bu tasavvurda ob’ektiv voqelik aks ettirilgan bo‘ladi. O‘quvchi yoki talabaning faraziy tasavvuri yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, ta’lim jarayonida ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi.

Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodiy farazsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yangilik yaratish yo‘llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Inson orzu, ezgu niyat qilmasdan, xayol surmasdan, o‘ylamasdan yashay olmaydi. Shuningdek, kasb tanlayotgan o‘quvchi ham ma’lum muddat o‘zini shu kasbning mohir ustasi, katta mutaxassis sifatida faraz etishi yoki shirin xayollar og‘ushida sayr etishi tabiyidir.Ijodiy izlanish shaxsning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. Shaxsning xayol surish, faraz qilish, tasavvur etish qobiliyatiga qarab uning ma’naviy dunyosi to‘g‘risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin. Inson faraziy obrazlar, timsollar, tasvirlar tufayli tobora sezgir, mehribon, xushmuomala, saxiy bo‘ladi.

Shunday qilib, faol bilish jarayoni o‘spirin faoliyatining hamma turlarida bir tekis ishtirok etadi va aks ettirishning mukammal bilish imkoniyatini kafolatlaydi. Bilish jarayonining xususiyatlari, mexanizmlari va qonuniyatlari asosida shakllangan shaxsiy fazilatlarga tayanib ish tutgan shaxs kamroq xato qiladi. Bu omillar uning xatolariga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishiga, yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini o‘z vaqtida tuzatishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual- tipologik xususiyatlariga ham e’tiborni qaratish joiz. Chunki, shaxsning xulq - atvori, temperamenti, salohiyati va boshqa xislatlari kasb tanlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Temperament shaxsning ruhiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, alohida olingan inson shaxsida ruhiy jarayon va faoliyatning vujudga kelishi, o‘tishi, kechishi va dinamikasini belgilab beradi. Lekin psixik faoliyat dinamikasi temperamentga emas, balki shaxsiy sabablarga va shaxsning ruhiy holatiga bog‘liqdir. Xuddi shu boisdan inson, temperamentidan qatiy nazar, mas’uliyatni his etsa, o‘z kasbida g‘ayrat bilan ishlaydi, biroq kasbini yoqtirmasa, aksincha, buni aksini kuzatishimiz mumkin.
Temperament inson psixik faoliyatining xususiyati bo‘lib, fiziologik asosini, asab tizimining tiplari, oliy asab faoliyati qonuniyatlari tashkil etadi. Temperament to‘rtta asosiy tipga ajratiladi: sangvinik (xushchaqchaq), flegmatik (bo‘shang, og‘ir), melanxolik (g‘amgin), xolerik (qiziqqon).Temperament shaxsning bama’niligini; dunyoqarashi, nuqtai nazari, e’tiqodi, qiziqishlari va hokazolarini ko‘rsatuvchi belgi emas.

Hozirgi davrda temperament tiplarining psixologik ta’rifi senzitivlik, reaktivlik, aktivlik, dinamiklik, ta’sirlanish tezligi, reaktivlik bilan aktivlik munosabatlarning muvozanati, harakatning ravonligi, rigidlik (qotib qolganlik), ekstrovertlik va introvertlik kabi xususiyatlariga asoslanib tuziladi. Psixologiya fanida temperamentning o‘ttizdan ortiq (ba’zan qirqdan oshiq) tipidan olingan. Amaliyotda esa asosan ekstravert va introvert tiplari ko‘proq qo‘llanadi. Shaxsni kasbga yo‘llash jarayonida temperamentning psixologik ta’rifi berilishi shart.Shu nuqtai nazardan kelib chiqib yuqorida keltirib o‘tilgan temperamentning asosiy to‘rtta tipiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Psixologiya fanida shaxsning hulq-atvor xususiyatlari uni faoliyatiga undovchi asosiy omil hisoblanib, buxususiyatlar to‘rt guruhga ajratib o‘rganiladi:

1. Jamoa va alohida shaxsga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi fazilatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, faxrlanish va boshqalar;

2. Mehnatga nisbatan munosabatni bildiruvchi xususiyatlari: mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mas’uliyatlilik va hokazo;

3. Narsalarga nisbatan munosabatni anglatuvchi sifatlar: ozodalik, sarishtalik, avaylash va shu kabilar;

4. O‘z-o‘ziga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: izzat nafslilik, kerilishlik, dimog‘dorlik, kamtarinlik va hokazo.

Xulq-atvor xususiyatlarning shakllanishida o‘qish va mehnat faoliyatli yetakchi rol o‘ynaydi, chunki o‘qish va mehnat jarayonida qo‘llaniladigan individual usullar xulq-atvorga ta’sir etib, uning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ko‘pgina xususiyatlar o‘zgaga taqlid qilish natijasida ham paydo bo‘ladi. Xulq-atvorga janjalli (nizoli) vaziyatlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Inson umrining ohirigacha o‘z xatti-harakatlarini boshqarib, xulq-atvorini o‘zi barqarorlashtirgan bo‘lsa, kasb-hunar tanlashga shunchalik oqilona va qatiyatlik bilan yondoshiladi.

O‘quvchilar qobiliyati, layoqati ta’lim jarayonida va mehnat faoliyatida tobora rivojlanadi. Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichiga talant, iste’dod deyiladi. Iste’dod murakkab ishni (faoliyat) muvaffaqiyatli, mustaqil va mohirona bajarishga (amalga oshirishga) imkon beradigan qobiliyatlar tizimidir (biologik shartlangan xislatlardan bittasidir).

O‘spirinlarning qanchalik iste’dodli ekanligini aniqlash uchun ushbu xususiyatlarga e’tibor berish talab etiladi.

1. Shaxsning ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, tayyorligi;

2. Shaxsning mehnatga moyilligi, unga ehtiyoj sezishi;

3. Mantiqiy fikr yuritish tezligi, izchanligi samaradorligi, tashabbuskorligi va boshqalar.

Shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar tug‘ma bo‘lmaydi (tabiiy alomatlari, moyilligi mavjuddir), balki ijtimoiy, shaxsiy hayot va faoliyat jarayonida muayyan omillar, manbaalar ta’siri ostida tarkib topadi. Lekin layoqatlilik qobiliyatining tabiiy zamini ekanligi shubhasizdir. U qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Unda miya tuzilishi, sezgi a’zolari

vaharakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari layoqatga nisbatan beriladi.

Yoshlarni kasbga yo‘llashda ularning his-tuyg‘ulari va irodalarini hisobga olishning ham ahamiyati qiymatli, chunki o‘quvchilarning his- tuyg‘usi, kayfiyati, stress va ob’ektiv holatlari o‘rganilmasa va e’tiborga olinmasa, ko‘zlangan «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»dagi ulug‘vor maqsadga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun iste’dodli yoshlarni tanlash, ularni individual o‘qitish, sara shart-sharoitlar yaratish, reyting va modul tizimlari asosida ularga saboq berish ta’limning davlat standartlari talabiga javob beradigan, komil insonlikka intiluvchi shaxslarni kamol toptirish kafolatidir.

Shunday qilib, kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual- tipologik xususiyatlari va his - tuyg‘ularini, layoqat, iste’dodni hisobga olish, shuningdek, yoshlarni fan asoslari va psixologik bilimlar bilan qurollantirish ularning kasb-hunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo‘yiladigan talablarga moslashishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat. 2008.
2.Erkayev Abdurahim. Ma’naviyat va taraqqiyot. T.: Ma’naviyat, 2009. B. 145.
3.Ajdodlar o‘giti. Hikoyatlar, hikmatlar, tamsillar.-T.: Cho‘lpon,-1991.-240 b.
4.Asotirlar va rivoyatlar. 1- kitob. -T.: 1990. - 128 b.
5.Axloq-odobga oid hadis namunalari. -T.: Fan, 1990.- 172 b.
6.Donishmandlar tarbiya xususida. -T.: Tarbiyachi, 1982.-176 b.

INTELLEKTUAL AVLOD VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR

Mamatqulova Zarifaxon Muxammadsoliyevna,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual avlod va zamonaviy pedagogik innovatsiyalar masalalaridagi samarali yondashuvlar tahlil qilinadi. Iqtidorli yoshlarni ta’lim integratsiyasiyasida qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish, fan va texnologiyalar modernizatsiyasi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirishga yoshlarni keng jalb etish, ularning iqtidori va ilmiy salohiyatidan unumli foydalanishni tashkil etish, moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: jarayon, avlod, masala, intellektual, shakllantirish, samarali, texnologiyalar, yuksaltirish.

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные подходы к вопросам интеллектуального поколения и современных педагогических инноваций. Будут рассмотрены возможности поддержки и развития талантливой молодежи в интеграции образования, повышения эффективности проводимых реформ по модернизации науки и технологий, широкого вовлечения молодежи в развитие нашей страны, организации эффективного использования их таланта и научного потенциала, адаптации.

Ключевые слова: процесс, поколение, вопрос, интеллектуальный, формирование, эффективный, технологии, повышение.

Abstract: This article analyzes effective approaches to issues of intellectual generation and modern pedagogical innovations. Opportunities will be considered to support and develop talented youth in the integration of education, increase the effectiveness of reforms in the modernization of science and technology, widely involve young people in the development of our country, organize the effective use of their talent and scientific potential, and adapt them.

Keywords: process, generation, issue, intellectual, formation, effective, technologies, enhancement.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv, raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni

qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimlarni tayyor holda o‘zlashtirishning o‘zi yetarli bo‘lmay, o‘quvchidan mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, ijodiy va tanqidiy yondashish, axborotni izlash va saralash, raqamli vositalardan samarali foydalanish, jamoada hamkorlik qilish hamda o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni his etish kabi kompetensiyalarni shakllantirish talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, intellektual salohiyati yuqori, yangilikka ochiq, mustaqil qaror qabul qila oladigan va doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydigan **intellektual avlodni tarbiyalash** zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asari O‘zbekiston Prezidenti matbuot xizmati rasmiy sahifasi (president.uz), kutubxonachi.uz, va ziyouz.com kabi platformalarda mavjud bo‘lib, uning asosiy mazmuni rahbarlardan o‘z ishlariga tanqidiy yondashish, qat’iy tartib-intizomni ta’minlash va shaxsiy javobgarlikni o‘z bo‘yniga olish talabidir; aynan shu asarda, shuningdek, “intellektual avlod” haqidagi fikrlar ham o‘z aksini topgan, bu fikrlar kelajakni bunyod etishda yoshlarning bilim va salohiyatini rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi [1, 8-b].

Intellektual avlodni shakllantirish ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonlari nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo miqyosida muhim o‘rin egallaydi. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi ularning shaxsiy va professional o‘sishiga ta’sir ko‘rsatadi, ta’limning samaradorligini oshiradi.

Asosiy qism. Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Intellektual avlodni shakllantirish – ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib, dunyo amaliyotida bu borada turli mexanizmlar shakllantirilgan. Xususan, Finlandiya, Singapur, Yaponiya, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi diqqatga sazovor.

Yangi innovatsion g‘oyalar joriy etish, bu kasbiy faoliyatda o‘z o‘rnini topish, muayyan mavqega ega bo‘lish, ayni paytda jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi, o‘zini va olamni o‘rganish, amaliy faoliyatni tashkil qilish, bilim va tajriba, ta’lim-tarbiya jarayonlari, ijtimoiy hodisalar, dunyoqarash kabilarni rivojlantiradi.

Intellektual avlodni shakllantirishda qo‘llanilayotgan samarali yondashuvlarda natijalarining ahamiyati ilmiy asoslangan ma’lumotlar, taklif qilingan ilmiy-metodik natijalar, metodlar, texnologiyalar, ishlab chiqilgan dastur, model va tavsiyalardan ilmiy xodimlar tomonidan qo‘llanma va uslubiy tavsiyalar tayyorlash, sifat va samaradorlikni oshirishda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

“Yangi O‘zbekiston sari” shiori ostida iqtidorli yoshlarining ta’lim integratsiyasiyasida qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish, fan va texnologiyalar modernizatsiyasi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirishga yoshlarni keng jalb etish, ularning iqtidori va ilmiy salohiyatidan unumli foydalanishni tashkil etish, moslashtirish imkoniyatlari O‘zbekston Respublikasining kadrlari oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalaridan biridir. Malakali mutaxassislar sifatida o‘zligini, o‘z qobiliyatini, individualligini, shaxsiy fazilat hamda hislatlarini bilgan holda atrofdagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko‘rsatishdir.

Intellektual avlod va zamonaviy pedagogik innovatsiyalar jarayonlarida intellektual avlodni shakllantirish mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishning muhim shartidir. Jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari, ta’lim - tarbiya tizimiga, har bir insonning ong va tafakkuri, dunyoqarashi, hayotiy mo‘ljallariga bog‘liq bo‘ladi. Kasbiy faoliyatda o‘zining o‘rnini topishi, muayyan mavqega ega bo‘lishi, ayni paytda shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida ham o‘zaro o‘rnatilgan tartiblar, qabul qilingan qonunlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liqdir.

Intellektual avlodda madaniyat, his-tuyg‘ular, munosabatlar va maqsadga intiluvchanlik sifatini rivojlantirish zarur. O‘zini va olamni o‘rganish, amaliy faoliyatlarni tashkil etish bilim va tajribalar, ta’lim-tarbiya jarayonlari, ijtimoiy hodisalar, dunyoqarash kabilar muhim o‘rin tutadi. Ozod va obod jamiyatni barpo etishda, yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani amalga oshirishda, ularning ma’naviy dunyosini shakllantirishda o‘qituvchilarning xizmati beqiyosdir. Yangicha fikrlaydigan, mamlakatimiz kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillarini voyaga yetkazish, o‘zlikni anglash, millatimiz va xalqimizning g‘urur va iftixorini yuksaltirish, qadimiy va boy tariximiz, bebaho merosimizni chuqur o‘rganish, el-yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilish kabilarni rivojlantiradi. Bugungi kunda mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish barchaga katta mas’uliyat yuklaydi.

Intellektual avlodni shakllantirishda muhokamalar o‘tkazish, ya’ni dars mavzusiga doir masalalar yuzasidan hamkorlikda fikr yuritish, hulosalar va vazifalarni belgilash, yakunlash kabilar tashkil etiladi. Muammoli ta’lim texnologiyalari «Aqliy hujum», «Rolli o‘yinlar», «Klaster», «Tanqidiy fikrlash», «Bumerang», «Bingo», «Debatlar», «Taqqoslash», «Muammoli o‘qitish» va boshqa amaliyotda qo‘llanilayotgan usullar tinglovchilarning ta’limni o‘zlashtirish munosabatlarini faollashtiradi. Ushbu texnologiyalarda ta’lim jarayonini tashkil etishda, qiziqarli o‘qitish, talabchanlik, ishonch, mustaqillik, talablar qo‘yish kabilarni amalga oshirishga e’tibor qaratish muhimdir. Chunki ushbu jarayonda har bir tinglovchi o‘z kuchini muammoni hal etish vazifalarini bajarilishiga mas’uliyatli bo‘lishi, ular o‘rtasida o‘zaro muloqot, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashi, rag‘batlantirishi va baholashga yordam berishi nazarda tutiladi.

Xulosa. Intellektual avlod va zamonaviy pedagogik innovatsiyalar jarayonlarida intellektual avlodni shakllantirishda samarali foydalanishga qaratilgan tavsiyalar:

- Intellektual avlodni shakllantirishda qo‘llanilayotgan samarali yondashish va “Yangi O‘zbekiston sari” shiori ostida iqtidorli yoshlarining ta’lim integratsiyasiyasida qo‘llab-quvvatlash.
- Fan va texnologiyalar modernizatsiyasi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish va mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirishga yoshlarni keng jalb etish, ularning iqtidori va ilmiy salohiyatidan unumli foydalanishni tashkil etish.
- Xorijiy tajribalarni tizimli o‘rganishda rivojlangan davlatlar (Finlandiya, Singapur, Yaponiya va boshqalar) dagi pedagogik rivojlanish modellarini chuqur tahlil qilib, ulardan eng samarali usul va yondashuvlarni ajratib olish.
- Milliy amaliyotga moslashtirish ta’lim tizimi va madaniy xususiyatlarga mos ravishda adaptatsiya hosil qilish.
- Motivatsion tizim yaratish: kasbiy rivojlanishga qiziqishni oshirish uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish (bonuslar, sertifikatlar, mansab o‘sishi imkoniyatlari va h.k.).
- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. masofaviy ta’lim platformalari va onlayn kurslar orqali o‘qituvchilarni doimiy o‘rganishga jalb etish.
- Pedagogik tajriba almashinuvi: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, stajirovkalar va hamkorlik dasturlari orqali mahalliy o‘qituvchilarning dunyoviy tajribaga ega bo‘lishiga shart-sharoit yaratish kerak.
- Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarga e’tibor berish: O‘qituvchi va o‘quvchlarning ilmiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ularni amaliyotda qo‘llashga yordam berish zarur.
- Muvaffaqiyatli tajribalarini o‘rganish va ulardan foydalanish.
- O‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik metodlar bilan tanishtirish orqali ta’lim sifatini yanada yuqori darajaga ko‘tarish.
- O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini shaxsiy reja asosida tashkil etishda har bir pedagog uchun individual rivojlanish rejalarini (IDP – Individual Development Plan) ishlab chiqish va uni muntazam monitoring qilish.

- Maxsus markazlar va institutlar tashkil etishda xorijdagi kabi pedagoglar uchun maxsus qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarini modernizatsiya qilish yoki yangilarini tashkil etish.
- Kasbiy hamjamiyatlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda pedagoglar o‘rtasida tajriba almashish va hamkorlik qilish imkoniyatini beradigan onlayn va oflayn kasbiy hamjamiyatlar, klublar va forumlarni rag‘batlantirish.
- Yosh pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarida kasbga yangi kirib kelgan o‘qituvchilarni tajribali murabbiylar bilan ishlashga jalb etish va ular uchun alohida dasturlar ishlab chiqish, “Ustoz va shogird” an’analarini shaklan, mazmunan hamda sifatli tashkil etish maqsadga muvofiq.
- Zamonaviy texnika va texnologiyalar talab qiladigan yangi ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish, butun hayot davomida ta’lim olish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 103 b.
2. Inoyatov U.I, Muslimov N.A, Ro‘ziyeva D.I, Usmonboyeva M.H. Pedagogika. – T.:, 2013. – 243 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008. – 180 b.
4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2010. –140 b.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. –130 b.
6. Karim Tohir. Milliy tafakkur taraqqiyotidan. – T.: Cho‘lpon, 2003. – 160 b.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL INTELLEKT VA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI: PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV

Norova Nilufar Norbo‘ta qizi
Pedagogika va psixologiya,ta‘lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional intellektni rivojlantirish va funksional savodxonlikni shakllantirish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan ilmiy-nazariy jihatdan tahlil

etilgan. Unda ijtimoiy-emotsional intellekt tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda funksional savodxonlikni rivojlantirishdagi pedagogik va psixologik imkoniyatlari yoritilgan. O‘quvchining o‘z emotsiyalarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish, empatiya ko‘rsatish, samarali muloqot o‘rnatish, hamkorlik qilish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish kabi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarining funksional savodxonlikning amaliy mazmuni bilan uzviy aloqasi asoslangan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-emotsional intellekt, funksional savodxonlik, emotsional intellekt, empatiya, o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar, muloqot, muammoli vaziyat, qaror qabul qilish, refleksiya, pedagogik-psixologik yondashuv.

Аннотация.В данной статье с педагогико-психологической точки зрения научно-теоретически анализируется взаимосвязь развития социально-эмоционального интеллекта учащихся и формирования функциональной грамотности. Раскрываются сущность понятия социально-эмоционального интеллекта, его структурные компоненты, а также педагогические и психологические возможности его развития в процессе формирования функциональной грамотности. Обосновывается взаимосвязь таких социально-эмоциональных навыков учащихся, как осознание и управление собственными эмоциями, понимание эмоционального состояния других людей, проявление эмпатии, эффективное взаимодействие, сотрудничество и принятие ответственных решений, с практическим содержанием функциональной грамотности.

Ключевые слова: социально-эмоциональный интеллект, функциональная грамотность, эмоциональный интеллект, эмпатия, самосознание, саморегуляция, социальные навыки, коммуникация, проблемная ситуация, принятие решений, рефлексия, педагогико-психологический подход.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the relationship between the development of students’ social-emotional intelligence and the formation of functional literacy from a pedagogical and psychological perspective. The study examines the essence of social-emotional intelligence, its structural components, and its pedagogical and psychological potential in developing functional literacy. Particular attention is given to the relationship between students’ abilities to recognize and regulate their emotions, understand the emotional states of others, demonstrate empathy, communicate effectively, cooperate, and make responsible decisions and the practical dimensions of functional literacy. The article analyzes the influence of social-emotional intelligence on students’ ability to solve problematic situations, analyze information, apply knowledge in real-life contexts, perform communicative tasks, and make independent decisions.

Keywords: social-emotional intelligence, functional literacy, emotional intelligence, empathy, self-awareness, self-regulation, social skills, communication, problem-solving, decision-making, reflection, pedagogical and psychological approach.

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashi bilan cheklanib qolmay, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishni ham talab etmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot oqimining kengayishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida shaxsdan nafaqat bilimdonlik, balki o‘z faoliyatini boshqarish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatlari ham talab etilmoqda.

Ijtimoiy-emotsional intellekt shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash va boshqarish, boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish, empatiya namoyon qilish,

ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etish hamda turli vaziyatlarda mos va mas’uliyatli xatti-harakatni tanlash imkonini beruvchi qobiliyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-emotsional intellektning mazmun-mohiyati va tarkibiy komponentlari. Ijtimoiy-emotsional intellekt tushunchasi shaxsning emotsional jarayonlarini anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda samarali foydalanish imkoniyatlarini ifodalovchi ko‘p komponentli psixologik hodisa sifatida qaraladi. Emotsional intellekt masalasining ilmiy asoslari P. Salovey va J. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular emotsional axborotni idrok etish, tushunish va undan fikrlash hamda faoliyat jarayonida foydalanish qobiliyatlariga alohida e’tibor qaratgan. D. Goleman tomonidan emotsional intellektning ommalashtirilgan modelida o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash va munosabatlarni boshqarish kabi jihatlar muhim o‘rin egallaydi. Mazkur komponentlar shaxsning o‘z hissiyotlarini tushunishi bilan bir qatorda, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham qamrab oladi.

O‘zini anglash o‘quvchining o‘z hissiyotlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va cheklovlarini tushunishi bilan bog‘liq. O‘zining hissiy holatini anglay oladigan o‘quvchi o‘quv faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni to‘g‘ri baholash va ularga mos strategiyani tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zini boshqarish esa salbiy yoki kuchli emotsiyalarni nazorat qilish, vaziyatga mos xatti-harakatni tanlash va maqsad sari izchil harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bu sifat murakkab topshiriqlarni bajarishda sabr-toqat va qat’iyatlilikni saqlash uchun muhim hisoblanadi.

Empatiya boshqa insonning hissiy holatini tushunish va uning kechinmalariga nisbatan tegishli munosabat bildirish qobiliyatidir. Empatiya rivojlangan o‘quvchi tengdoshlari bilan samarali muloqot qilishi, jamoaviy faoliyatda boshqalarning fikr va ehtiyojlarini hisobga olishi mumkin.

Ijtimoiy ko‘nikmalar esa muloqot, hamkorlik, nizolarni konstruktiv hal qilish va jamoada faoliyat yuritish qobiliyatlarini qamrab oladi. Mazkur ko‘nikmalar

funksional savodxonlikning kommunikativ va ijtimoiy jihatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shunday qilib, ijtimoiy-emotsional intellektni faqat hissiyotlar bilan bog‘liq psixologik sifat sifatida emas, balki shaxsning real hayotdagi faoliyatini samarali tashkil etishiga xizmat qiluvchi kompleks qobiliyatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Funksional savodxonlikning mazmun-mohiyati va pedagogik ahamiyati

Funksional savodxonlik zamonaviy ta’limda shaxsning o‘zlashtirgan bilimlarini turli amaliy va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini ifodalovchi muhim ta’limiy natijalardan biridir. An’anaviy savodxonlik ko‘proq o‘qish, yozish va hisoblash kabi bazaviy ko‘nikmalar bilan bog‘liq bo‘lsa, funksional savodxonlik mazkur ko‘nikmalardan turli vaziyatlarda samarali foydalanishni ham nazarda tutadi. Funksional savodxonlikning asosiy xususiyati uning amaliy yo‘naltirilganligidadir. O‘quvchi ma’lum bir formulani yoki qoidani bilishi bilan bir qatorda, undan real vaziyatda foydalana olishi, berilgan axborotni tahlil qilishi, muammoni aniqlashi, turli variantlarni taqqoslashi va maqbul qaror qabul qilishi zarur.

Ijtimoiy-emotsional intellekt va funksional savodxonlikning o‘zaro bog‘liqligi. Ijtimoiy-emotsional intellekt va funksional savodxonlik mazmunan turli tushunchalar bo‘lsa-da, ularning amaliy faoliyat jarayonida o‘zaro bog‘liq jihatlari mavjud. Funksional savodxonlik shaxsning bilim va ko‘nikmalarni real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ifodalasa, ijtimoiy-emotsional intellekt mazkur faoliyatni hissiy va ijtimoiy jihatdan samarali tashkil etish imkonini beradi.

Birinchidan, o‘zini anglash funksional savodxonlikning mustaqil faoliyat komponenti bilan bog‘liq. O‘zining kuchli va zaif jihatlarini anglay oladigan o‘quvchi berilgan vazifaning murakkabligini to‘g‘ri baholaydi, zarur resurslarni aniqlaydi va faoliyatini rejalashtira oladi.

Ikkinchidan, o‘zini boshqarish muammoli vaziyatlarni hal qilishda muhim psixologik omil hisoblanadi. Murakkab topshiriq yoki kutilmagan vaziyatda

o‘quvchining kuchli xavotir, frustratsiya yoki muvaffaqiyatsizlik hissini boshqara olishi uning muammoni hal qilish faoliyatini davom ettirishiga yordam beradi.

Uchinchidan, empatiya va ijtimoiy anglash kommunikativ hamda ijtimoiy savodxonlik bilan bevosita bog‘liq. Real hayotda ko‘plab muammolar individual emas, balki boshqa insonlar bilan hamkorlikda hal qilinadi. Shu sababli boshqa insonning nuqtayi nazarini tushunish, uning ehtiyoj va hissiyotlarini hisobga olish samarali ijtimoiy qarorlar qabul qilish uchun zarur.

Ijtimoiy-emotsional intellektni rivojlantirish orqali funksional savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional intellekt va funksional savodxonlikni parallel ravishda rivojlantirish uchun o‘quv faoliyatini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirish muhimdir. Bunda o‘quvchi nafaqat “nima bilaman?” degan savolga, balki “bu bilimdan qayerda va qanday foydalanaman?” degan savolga ham javob topishi kerak.

Muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Muammoli vaziyat o‘quvchidan axborotni tahlil qilish, muammoni aniqlash, turli yechimlarni izlash va qaror qabul qilishni talab qiladi. Bunday jarayonda o‘quvchining emotsional holatini boshqarishi va stressga bardoshliligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyiha faoliyati esa ijtimoiy-emotsional intellektning bir nechta komponentlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi. Guruhli loyiha jarayonida o‘quvchilar vazifalarni taqsimlaydi, o‘zaro muloqot qiladi, kelishmovchiliklarni hal etadi, umumiy maqsad sari harakat qiladi va yakuniy natija uchun mas’uliyatni his qiladi.

Refleksiya ham mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismidir. O‘quvchining “Men bu vazifani bajarishda nimalarni his qildim?”, “Qaysi qiyinchilikka duch keldim?”, “Men qanday qaror qabul qildim?”, “Boshqalarning fikrini qay darajada hisobga oldim?” kabi savollar ustida fikr yuritishi o‘zini anglash va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Funksional savodxonlikni baholashda ijtimoiy-emotsional jihatlarni hisobga olish. Funksional savodxonlikni baholashda faqat yakuniy javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi bilan cheklanib qolish o‘quvchining real kompetensiyalarini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Chunki funksional vazifalarni bajarishda o‘quvchi axborotni qanday tahlil qilgani, qaror qabul qilish jarayonida qanday strategiyadan foydalangani, muammoli vaziyatga qanday munosabat bildirgani va boshqalar bilan qanday hamkorlik qilgani ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan funksional savodxonlikni baholashda vaziyatli topshiriqlar, kuzatuv, loyiha natijalari, o‘z-o‘zini baholash, tengdoshlar tomonidan baholash va refleksiv topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda ijtimoiy-emotsional jihatlarni baholash alohida test natijasi sifatida emas, balki o‘quvchining amaliy faoliyatidagi namoyon bo‘lishi orqali ko‘rib chiqilishi mumkin. Bunday baholash yondashuvi o‘quvchini faqat natija asosida emas, balki bilimni qo‘llash jarayoni asosida ham tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-emotsional intellekt va funksional savodxonlik o‘z mazmuniga ko‘ra turli tushunchalar bo‘lsa-da, zamonaviy ta’lim jarayonida ular o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi mumkin. Funksional savodxonlik o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ifodalasa, ijtimoiy-emotsional intellekt mazkur faoliyatni hissiy va ijtimoiy jihatdan samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan psixologik resurslarni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence // Imagination, Cognition and Personality. – 1990. – Vol. 9, No. 3. – P. 185–211.
2. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
3. Goleman D. Social Intelligence: The New Science of Human Relationships. – New York: Bantam Books, 2006.

4. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional Intelligence: New Ability or Eclectic Traits? // American Psychologist. – 2008. – Vol. 63, No. 6. – P. 503–517.
5. Bar-On R. The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI) // Psicothema. – 2006. – Vol. 18. – P. 13–25.
6. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. – Paris: OECD Publishing, 2019.
7. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. OECD. Beyond Academic Learning: First Results from the Survey of Social and Emotional Skills. – Paris: OECD Publishing, 2021.
9. CASEL. Framework for Systemic Social and Emotional Learning. – Chicago: Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning, 2020.
10. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // Child Development. – 2011. – Vol. 82, No. 1. – P. 405–432.

O‘QUVCHILAR JAMOASINI BOSHQARISHDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALAR
(boshlang‘ich ta’lim misolida)

Nurmanova Dilfuza Jamilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazaryasi
va amaliyoti kafedrasi mustaqil izlanuvchisi;
SamPMM katta o‘qituvchisi
Nurmanova Feruza Jamilovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar jamoasini shakllantirish va boshqarishda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni (SEL) rivojlantirish hamda sinf boshqaruvining funksional savodxonligini oshirishning nazariy-metodologik va amaliy jihatlari tadqiq etiladi. Mavzuning ilmiy o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinib, ijtimoiy-emotsional va boshqaruv savodxonligini integratsiyalashga yo‘naltirilgan uch bosqichli pedagogik model taklif etiladi. Shuningdek, mazkur kompetensiyalarni diagnostika qilishga mo‘ljallangan mezonli baholash rubrikasi ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchilar jamoasi, ijtimoiy-emotsional kompetensiya (SEL), boshqaruvning funksional savodxonligi, Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD), skaffolding, mezonli baholash, emotsional regulyatsiya, kooperativ ta’lim.

Аннотация: В статье исследуются теоретико-методологические и практические аспекты развития социально-эмоциональных компетенций (SEL) в процессе формирования и управления ученическим коллективом на уровне начального образования, а также повышения функциональной грамотности в области управления классом. Проанализирована степень научной разработанности проблемы, предложена трехэтапная педагогическая модель, направленная на интеграцию социально-эмоциональной и управленческой грамотности учащихся. Разработана критериальная

оценочная рубрика, предназначенная для диагностики уровня сформированности соответствующих компетенций и мониторинга их динамики.

Ключевые слова: начальное образование, ученический коллектив, социально-эмоциональные компетенции (SEL), функциональная грамотность управления классом, зона ближайшего развития (ЗБР), скаффолдинг, критериальное оценивание, эмоциональная регуляция, кооперативное обучение.

Abstract: This article examines the theoretical, methodological, and practical aspects of developing social and emotional competencies (SEL) in the process of forming and managing student collectives in primary education, as well as enhancing functional classroom management literacy. The study analyzes the current state of scholarly research on the problem and proposes a three-stage pedagogical model aimed at integrating students’ social-emotional and management literacy. In addition, a criterion-based assessment rubric is developed to diagnose the level of relevant competencies and monitor their developmental dynamics.

Keywords: primary education, student collective, social and emotional competencies (SEL), functional classroom management literacy, Zone of Proximal Development (ZPD), scaffolding, criterion-based assessment, emotional regulation, cooperative learning.

KIRISH. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonining samaradorligi nafaqat o‘quvchilarning akademik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning jamoada hamkorlik qilish, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, muloqot o‘rnatish hamda turli pedagogik vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish bilan ham belgilanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jamoasini to‘g‘ri shakllantirish va samarali boshqarish o‘qituvchidan yuqori darajadagi ijtimoiy-emotsional hamda boshqaruv kompetensiyalarini talab etadi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning – SEL) o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash,

o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabatlarni boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchilar jamoasida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va sinfdagi o‘zaro munosabatlarni samarali boshqarish uchun muhim pedagogik omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’limda sinf boshqaruvini faqat intizomni ta’minlash yoki o‘quv faoliyatini tashkillashtirish bilan cheklab qo‘ymasdan, uni **funksional savodxonlik** nuqtayi nazaridan talqin etish muhimdir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchilarning real pedagogik vaziyatlarni anglash, muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, muammoli vaziyatlarga moslashish, qaror qabul qilish hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash qobiliyatlari yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday sharoitda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jamoasini boshqarish jarayoniga ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni integratsiyalash masalasi alohida ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoning dolzarbligi, avvalo, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar bilan sinf boshqaruvining funksional savodxonligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asoslash, ularni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini belgilash va natijalarni obyektiv baholash zarurati bilan izohlanadi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar jamoasini shakllantirish va boshqarish jarayonida SEL kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model hamda mezonli baholash vositalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot aynan **ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish, boshqaruv savodxonligini shakllantirish va ularning natijalarini mezonli baholash** o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlashga yo‘naltirilgan.

Zamonaviy ta’lim paradigmasining ustuvor yo‘nalishi o‘quvchilarga tayyor akademik bilimlarni uzatishdan ularni o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlaydigan funksional savodxonlikka yo‘naltirishdan iboratdir. Boshlang‘ich sinf yoshi bolaning oilaviy tor muhitdan chiqib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimiga — o‘quvchilar jamoasiga kirib borishining hal qiluvchi bosqichidir.

Biroq bugungi boshlang‘ich ta’lim amaliyotida bir qator pedagogik va metodik ziddiyatlar ko‘zga tashlanmoqda:

1. Avtoritar boshqaruv va subyektivlik ziddiyati: Sinfda intizom va o‘quv jarayonini boshqarish an’anaviy ravishda o‘qituvchining bir tomonlama ko‘rsatmalari va nazoratiga tayanib qolmoqda. Bu esa o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiv tahlil va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarining sust rivojlanishiga olib keladi.

2. Akademik yo‘nalganlik va emotsional rivojlanish o‘rtasidagi nomutanosiblik: Ta’lim jarayonida asosiy e’tibor kognitiv natijalarga (o‘qish, yozish, hisoblash) qaratilib, o‘quvchilarning ijtimoiy- emotsional intellekti, empatiya, empatiya asosidagi muloqot va konfliktlarni tinch hal etish kompetensiyalari tizimli rivojlantirilmayapti.


3. Diagnostik instrumentariyning yetishmasligi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining jamoadagi ijtimoiy-emotsional xulq-atvorini va boshqaruvga oid funksional savodxonligini ob’ektiv, mezonli baholash bo‘yicha aniq didaktik va psixometrik vositalar yetarli darajada mukammal emas. Ushbu muammolarni hal etish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni (SEL) shakllantirish orqali sinf jamoasini boshqarishda o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslash va ularni baholash metodikasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish, ijtimoiy-emotsional ta’lim hamda ta’limda funksional savodxonlik masalalari mahalliy va xalqaro pedagogika-psixologiya fanida turli

aspektlarda tadqiq etilgan: Jamoa va kollektivizm nazariyalari: Jamoani pedagogik hodisa sifatida rivojlantirishning bosqichli konsepsiyasi A.S. Makarenko tomonidan asoslangan bo‘lib, u jamoada ijtimoiy fikr (obshchestvennoye mneniye) va o‘z-o‘ziga talabchanlikning shakllanishini alohida ko‘rsatgan. Mahalliy tadqiqotchilardan R.A.Mavlonova, B.R.Adizov, N.A.Muslimov, M.E.Ro‘ziyeva va boshqalar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar jamoasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlarini, hamkorlikda o‘qitish va interaktiv metodlarning didaktik imkoniyatlarini o‘rganganlar; Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) va kognitiv rivojlanish: L.S.Vygotskiyning Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) va ijtimoiy mediatsiya nazariyasi bolaning kognitiv va psixik rivojlanishi muloqot hamda jamoaviy hamkorlik muhitida yuz berishini isbotlaydi. Xalqaro miqyosda CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) ramkasi SELning 5 ta asosiy komponentini (o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, munosabatlar ko‘nikmasi va mas’uliyatli qaror qabul qilish) belgilab bergan. D.Goleman emotsional intellekt shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatning 80%ni ta’minlashini ko‘rsatgan; Refleksiya va boshqaruv savodxonligi: D.Shyon (Schön) va G.Gibbsning refleksiv sikl modellarida harakat davomidagi refleksiya (reflection-in-action) va ichki qayta aloqa (inner feedback) o‘quvchining o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishidagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, D.O.Abduqahhorova va S.X.Normurodovalarning tadqiqotlarida raqamli va interaktiv vositalar orqali ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning subyektivlik pozitsiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shunga qaramay, xalqaro va mahalliy adabiyotlarda ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) konsepsiyasini bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va guruh boshqaruvidagi funksional savodxonligi bilan integratsiyalash hamda ushbu jarayonni kompleks mezonli baholash matritsasi orqali diagnostika qilish masalasi alohida ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha atroflicha tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali boshqaruvning

funksional savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha uch bosqichli pedagogik-konseptual model taklif etiladi:



IJTIMOIY-EMOTSIYONAL VA BOSHQARUV MODELI

Taklif etilayotgan model bosqichlarining ilmiy asoslanishi: 1-bosqich: Affektiv-kognitiv bosqich (O‘z-o‘zini anglash va emotsional regulyatsiya): O‘quvchilarda shaxsiy hissiy holatlarni (quvonch, xavotir, g‘azab, umidsizlik) aniqlash va ularni vaqtida nomlash (emotion labeling) ko‘nikmasi shakllantiriladi. Neyropedagogik nuqtayi nazardan, inson miyasining prefrontal po‘stlog‘i (mantiqiy fikrlash va boshqaruv uchun mas’ul) emotsional qo‘zg‘alish davrida sustlashadi. Bolaga o‘z emotsiyasini anglash va “Emotsional termometr” vositasida baholash o‘rgatilsa, amigdala faolligi pasayadi va o‘quvchi o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2-bosqich: Kommunikativ-kooperativ bosqich (Muloqot va jamoaviy mas’uliyat): O‘quv materialini o‘zlashtirish va amaliy topshiriqlarni bajarish koinotida Jigsaw (Pazl), Think–Pair–Share hamda Kollektiv o‘zaro ta’lim (KSS) usullari qo‘llaniladi. Ushbu metodik modellashtirish o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy o‘zaro bog‘liqlikni (positive interdependence) yuzaga keltirib, birining muvaffaqiyati butun guruh muvaffaqiyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglatadi. Natijada egoistik xulq-atvor o‘rnini kooperativ hamkorlik va empatiya egallaydi.

3-bosqich: Refleksiv-boshqaruv bosqich (Mas’uliyatli qaror qabul qilish va mikro-liderlik): Kichik guruhlarda vaqt nazoratchisi (Time-keeper), taqdimotchi, moderator kabi rollar almashinib turadi. Real va simulyativ konfliktli pedagogik situatsiyalar (Case-study) yechimi taklif qilinadi. O‘quvchilarda sinf va guruh faoliyatini boshqarish bo‘yicha amaliy funksional savodxonlik shakllanadi. Boshqaruv o‘qituvchi monopoliya qiladigan jarayondan jamoadagi har bir subyektning mas’uliyatli hissasiga transformatsiyalanadi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali boshqaruvning funksional savodxonligi darajasini aniqlash va monitoring qilish uchun quyidagi mezonli diagnostika matritsasi taklif etiladi:

Bosh mezonlar	Quyi daraja (1-2 ball)	O‘rta daraja (3-4 ball)	Yuqori daraja (5 ball)
1. Emotsional o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish	Emotsiyalarini nazorat qila olmaydi; impulsiv harakat qiladi, konfliktga moyil.	Hissiyotlarini anglaydi, ammo murakkab vaziyatda o‘qituvchi yordamiga muhtoj.	O‘z hissiyotlarini mustaqil boshqaradi; muammoli holatda bosiqlik va vazminlik ko‘rsatadi.
2. Empatiya va ijtimoiy xabardorlik	Faqat o‘z manfaatini ko‘radi; tengdoshining fikrini inkor etadi yoki bo‘ladi.	Boshqalarning fikrini tinglaydi, lekin har doim ham ularning his-tuyg‘ularini anglamaydi.	Tengdoshining holatini chuqur anglaydi (empatiya); jamoada o‘zaro yordam muhitini yaratadi.
3. Hamkorlik va munosabatlar ko‘nikmasi	Guruh topshirig‘ida passiv yoki faqat o‘z hukmini o‘tkazishga urinadi.	Guruhda hamkorlik qiladi; rollarni bo‘lishishda ba’zan ikkalanadi.	Guruhda faol va konstruktiv ishlaydi; ijobiy muloqot va hamjihatlikni ta’minlaydi.
4. Boshqaruvning funksional savodxonligi	Muammoli vaziyatda sarosimaga tushadi; qaror qabul qilish	Oddiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladi; mas’uliyatni qisman o‘ziga oladi.	Kutilmagan va murakkab vaziyatlarda mas’uliyatli, adolatli

	mas’uliyatidan qochadi.		va kompromiss qarorlarni taklif etadi.

Diagnostik baholashning amaliy natijasi: Ushbu matritsa orqali pedagog o‘quvchilarning har birida ijtimoiy-emotsional va boshqaruv savodxonligini sifat va miqdor nuqtayi nazaridan baholab, guruhlarni tabaqalashtirilgan (differensial) tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

XULOSA. Olib borilgan nazariy-metodologik tahlillar va amaliy yondashuvlar asosida boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni (SEL) tizimli ravishda rivojlantirish sinf boshqaruvining funksional savodxonligini shakllantirish va takomillashtirishning muhim pedagogik omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liqligi sinf jamoasini boshqarish jarayonining mazmunini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SEL elementlarini sinf jamoasi bilan ishlash jarayoniga izchil integratsiyalash sinf boshqaruvini faqat intizomni ta’minlash va o‘qituvchi ko‘rsatmalarini bajarishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida emas, balki hamkorlik, muloqot, o‘zaro mas’uliyat, refleksiya va o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan pedagogik tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi. Bunday yondashuvda o‘qituvchi boshqaruvning yagona subyekti sifatidagi pozitsiyadan ko‘ra, o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi va refleksiv jarayonlarni tashkil etuvchi pedagogik fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar jamoasida subyektivlikning rivojlanishi mazkur jarayonning muhim natijalaridan biri sifatida qaraladi. O‘quvchi jamoaviy faoliyatda faqat tayyor topshiriqni bajaruvchi ishtirokchi emas, balki umumiy qoidalarni ishlab chiqishda qatnashuvchi, guruh faoliyatini rejalashtiruvchi, muayyan vazifalarni o‘z zimmasiga oluvchi, qarorlar qabul qilishda fikr bildiruvchi

va faoliyat natijalarini baholovchi subyektga aylanadi. Shu jihatdan ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning mustaqilligi, mas’uliyati va jamoaviy hamkorlikdagi faolligini oshirish bilan bir qatorda, boshqaruv funksiyalarini bosqichma-bosqich egallashiga ham sharoit yaratadi. Tadqiqot doirasida taklif etilgan uch bosqichli pedagogik model ijtimoiy-emotsional va boshqaruv kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning mazmuni diagnostika, hamkorlikka asoslangan faoliyat, amaliy boshqaruv va refleksiv tahlil jarayonlarining o‘zaro uzviyligini ta’minlashga qaratiladi. Mazkur modelni amaliyotga tatbiq etish o‘quvchilarning real pedagogik vaziyatlarda muloqotga kirishishi, jamoada o‘z rolini anglash, nizoli holatlarni konstruktiv hal qilish, umumiy qaror ishlab chiqish va o‘z faoliyatini baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, ishlab chiqilgan mezonli baholash matritsasi (rubrikasi) ijtimoiy-emotsional va boshqaruv funksional savodxonligini tizimli diagnostika qilish uchun metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu vosita orqali o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash, emotsiyalarni boshqarish, muloqot, hamkorlik, mas’uliyatli qaror qabul qilish, tashabbuskorlik va refleksiya kabi ko‘rsatkichlarini kuzatish hamda rivojlanish dinamikasini aniqlash mumkin. Baholash natijalaridan faqat yakuniy natijani qayd etish uchun emas, balki keyingi pedagogik faoliyat mazmunini moslashtirish, individual va guruhiy ehtiyojlarni aniqlash hamda zarur pedagogik korreksiyalarni rejalashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish va sinf boshqaruvining funksional savodxonligini shakllantirish bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik jarayonlar sifatida qaralishi lozim. Ularning integratsiyasi o‘quvchilar jamoasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, o‘zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytirish, o‘quvchilarning boshqaruv faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish hamda o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarini subyekt-subyekt tamoyili asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Emotsional refleksiya va muloqot daqiqalarini tizimlashtirish. Boshlang‘ich sinf darslari va darsdan tashqari faoliyat jarayonida har kuni 5–10

daqiqalik qisqa emotsional refleksiya, kayfiyatni aniqlash, o‘zaro fikr almashish va kunlik faoliyatni baholash mashg‘ulotlarini tashkil etish tavsiya etiladi;

Guruhdagi boshqaruv rollarini rotatsiya qilish. Guruhli faoliyat jarayonida moderator, taym-kiper, kotib, taqdimotchi, kuzatuvchi kabi rollarni muntazam almashtirib borish maqsadga muvofiq. Bu barcha o‘quvchilarning turli boshqaruv funksiyalarini sinab ko‘rishiga va jamoaviy mas’uliyatni his etishiga imkon beradi;

Real pedagogik vaziyatlardan foydalanish. O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional va boshqaruv savodxonligini rivojlantirishda konfliktli vaziyatlar, tanlovli topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar va guruhiy qaror qabul qilish mashqlaridan muntazam foydalanish lozim;

Refleksiv faoliyatni kuchaytirish. Dars yoki guruhiy topshiriq yakunida “Men bugun nimani angladim?”, “Jamoaga qanday hissa qo‘shdim?”, “Qanday vaziyatda qiynaldim?”, “Keyingi safar nimani boshqacha bajaraman?” kabi savollar asosida qisqa refleksiv faoliyatni tashkil etish tavsiya etiladi;

Mezonli baholashdan jarayon davomida foydalanish. Ishlab chiqilgan baholash rubrikasidan faqat yakuniy nazorat vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish va pedagogik faoliyatni moslashtirish vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq;

O‘qituvchilar malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish kurslariga SEL, sinf jamoasini boshqarish, konfliktlarni konstruktiv boshqarish, fasilitatsiya, refleksiv pedagogika va funksional boshqaruv savodxonligiga oid amaliy mashg‘ulotlarni kengroq kiritish tavsiya etiladi;

Ota-ona bilan hamkorlikni kuchaytirish. O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ota-onalarga uy sharoitida muloqot, tinglash, his-tuyg‘ularni ifodalash va mustaqil qaror qabul qilishni rag‘batlantiruvchi pedagogik tavsiyalar berish maqsadga muvofiq;

Individual yondashuvni ta’minlash. Baholash natijalari asosida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishidagi individual farqlarni hisobga

olish, zarur hollarda kichik guruhlar yoki individual mashg‘ulotlar orqali qo‘shimcha pedagogik qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish lozim.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishni sinf jamoasini boshqarish jarayoni bilan integratsiyalash o‘quvchilarning jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki, mas’uliyati, muloqot madaniyati va boshqaruvga oid amaliy ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish uchun metodik asos yaratadi. Mazkur yondashuvning diagnostika, amaliy faoliyat va refleksiyaga tayangan holda tashkil etilishi esa pedagogik jarayonning natijalarini muntazam kuzatish va uni takomillashtirib borish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduqahhorova D.O., Normurodova S.X. *Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi*. Zenodo platformasi, DOI: 10.5281/zenodo.18170014. (2024).
2. Adizov B.R. *Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: Fan. (2019).
3. CASEL. *CASEL's SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted?* Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. Retrieved from https://casel.org/ (2020).
4. Gibbs G. *Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods*. Further Education Unit. Oxford Polytechnic, Oxford. (1988).
5. Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books. (2005).
6. Mavlonova R.A., Rahmankulova, N.H. *Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi*. Toshkent: O‘qituvchi. (2021).
7. Makarenko A.S. *О воспитании молодежи* (2-e izd.). Moskva: Trud.
8. Mustaeva E.Y. *Development Of Reflective Competence in In-Service Teachers as A Pressing Pedagogical Issue*. Current Research Journal of Pedagogics, DOI: 10.37547/pedagogics-crjp-07-01-07. (2026).
9. Ro'ziyeva M.E. *Ta'limda differensial va individual yondashuvning o'rni*. CyberLeninka. (2023).
10. Schön D.A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. Basic Books. (1983).
11. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. (1978).

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN USUL VA VOSITALAR

G.O.Ochilova
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda qo‘llaniladigan samarali pedagogik usul va vositalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bolaning nutqiy rivojlanishi uning atrof-muhit bilan muloqoti, kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro ta’siri, o‘yin faoliyati, badiiy adabiyot bilan tanishishi hamda mustaqil fikrlash jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Maqolada suhbat, savol-javob, hikoya qildirish, qayta hikoyalash, dialogik o‘qish, didaktik va syujetli-rolli o‘yinlar, rasmlar asosida ishlash, she’r va topishmoqlardan foydalanish, kuzatish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining nutq rivojiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, bola va kattalar o‘rtasidagi faol, navbatma-navbat muloqotning til va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanishidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy tadqiqotlar dialogik o‘qishning bolalarning lug‘at boyligi, hikoya tuzish va mazmunni tushunish ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. Shu asosda maktabgacha ta’lim jarayonida nutqni rivojlantirishning interfaol, kommunikativ va o‘yin asosidagi usullaridan kompleks foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar nutqi, nutq rivojlanishi, maktabgacha ta’lim, lug‘at boyligi, dialogik muloqot, dialogik o‘qish, hikoya qilish, didaktik o‘yin, rolli o‘yin, badiiy adabiyot, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ эффективных педагогических методов и средств, используемых для развития речи детей дошкольного возраста. Речевое развитие ребёнка неразрывно связано с его взаимодействием с окружающей средой, общением со взрослыми и сверстниками, игровой деятельностью, знакомством с художественной литературой, а также процессом самостоятельного мышления. В статье рассматривается влияние таких методов, как беседа, вопросы и ответы,

рассказывание, пересказ, диалогическое чтение, дидактические и сюжетно-ролевые игры, работа по картинкам, использование стихотворений и загадок, наблюдение, а также современных информационно-коммуникационных средств на развитие речи детей. Особое внимание уделяется значению активного, последовательного и взаимного общения между ребёнком и взрослым в формировании языковых и социальных навыков. Современные исследования показывают, что диалогическое чтение оказывает положительное влияние на развитие словарного запаса детей, навыков построения рассказа и понимания содержания. На этой основе разработаны рекомендации по комплексному использованию интерактивных, коммуникативных и игровых методов развития речи в процессе дошкольного образования.

Ключевые слова: детская речь, развитие речи, дошкольное образование, словарный запас, диалогическое общение, диалогическое чтение, рассказывание, дидактическая игра, сюжетно-ролевая игра, художественная литература, коммуникативная компетентность.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of effective pedagogical methods and tools used to develop the speech of preschool-aged children. A child's speech development is closely connected with interaction with the surrounding environment, communication with adults and peers, play activities, exposure to literary works, and the process of independent thinking. The article examines the influence of such methods as conversation, question-and-answer activities, storytelling, retelling, dialogic reading, didactic and role-playing games, picture-based activities, the use of poems and riddles, observation, as well as modern information and communication technologies on children's speech development. Particular attention is paid to the importance of active, reciprocal, and turn-taking communication between children and adults in the formation of language and social skills. Recent studies indicate that dialogic reading has a positive effect on children's vocabulary development, storytelling skills, and comprehension of

content. Based on these findings, recommendations are developed for the comprehensive use of interactive, communicative, and play-based methods for speech development in the preschool education process.

Keywords: children's speech, speech development, preschool education, vocabulary, dialogic communication, dialogic reading, storytelling, didactic games, role-playing games, children's literature, communicative competence.

Kirish. Bolaning nutqi uning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Nutq orqali bola o‘z fikrini ifodalaydi, atrofdagi predmet va hodisalarni anglaydi, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatga kirishadi hamda o‘z tajribasini boshqalarga yetkazadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim davrida nutqni rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning nutqiy rivojlanishi faqat so‘zlarni yodlash yoki grammatik qoidalarni o‘zlashtirishdan iborat emas. Bola nutqi faol muloqot, tinglash, savol berish, javob qaytarish, kuzatish, o‘yin va birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllanadi. Harvard University Center on the Developing Child tadqiqot materiallarida kattalar va bolalar o‘rtasidagi javobli, navbatma-navbat kechadigan muloqot erta rivojlanish, jumladan til va ijtimoiy ko‘nikmalar uchun muhim ekanligi qayd etiladi.

Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda pedagogning nutqiy muhitni to‘g‘ri tashkil etishi katta ahamiyatga ega. Bola o‘z fikrini erkin ifodalashi, savollarga javob berishi, savol berishi, voqealarni izchil bayon qilishi va yangi so‘zlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashi uchun qulay kommunikativ muhit yaratilishi lozim. Bugungi kunda bolalar nutqini rivojlantirish metodikasida an’anaviy usullar bilan bir qatorda dialogik o‘qish, interfaol o‘yinlar, multimediya vositalari, muammoli vaziyatlar, vizual materiallar va bolaning faol ishtirokiga asoslangan pedagogik texnologiyalardan foydalanish kengayib bormoqda.

Bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari: Maktabgacha yosh davrida bola lug‘at boyligini faol ravishda kengaytiradi, so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri

qo‘llashni o‘rganadi, gap tuzish qobiliyati rivojlanadi hamda izchil va bog‘langan nutq shakllana boshlaydi.

Nutq rivojlanishini shartli ravishda quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

Lug‘at boyligini kengaytirish – yangi so‘zlarning ma’nosini o‘zlashtirish va ularni faol nutqda qo‘llash.

Grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni shakllantirish – so‘zlarni gapda to‘g‘ri bog‘lash, qo‘shimchalardan foydalanish.

Dialogik nutqni rivojlantirish – suhbatda ishtirok etish, savol berish va savollarga javob qaytarish.

Monologik nutqni rivojlantirish – voqea, predmet yoki hodisani izchil tasvirlash va hikoya qilish.

Tovush madaniyatini shakllantirish – tovushlarni aniq talaffuz qilish, intonatsiya, urg‘u va nutq sur’atiga rioya qilish.

Nutqning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish – nutqdan muloqot, fikr almashish va ijtimoiy munosabatlarda foydalanish.

Bunda kattalarning bolaga javob qaytarishi, uning qiziqishlarini kuzatishi va bola e’tibor qaratgan predmet yoki hodisalarni so‘z bilan nomlashi muhimdir. Harvard Center on the Developing Child materiallarida predmet, harakat yoki hissiyotlarni nomlash bolaning so‘z va tushunchalar o‘rtasidagi aloqalarni shakllantirishiga yordam berishi ta’kidlangan.

Bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy usullari. Suhbat usuli Suhbat bolalar nutqini rivojlantirishning eng tabiiy va samarali usullaridan biridir. Pedagog suhbat davomida bolaning fikrlashini faollashtiruvchi savollar beradi. Masalan:“Bugun ob-havo qanday?”,“Rasmda nimalarni ko‘ryapsan?”,“Nima uchun qushlar daraxtga qo‘ndi?”,“Agar yomg‘ir yog‘sa, nima bo‘ladi?”,“Sen bu vaziyatda nima qilgan bo‘larding?” bunday savollar bolani faqat qisqa javob berishga emas, balki o‘z fikrini asoslashga undaydi. Shu sababli “Ha” yoki “Yo‘q” javobini talab qiladigan

savollardan tashqari ochiq savollardan ham muntazam foydalanish maqsadga muvofiq.

Savol-javob usuli: Savol-javob usuli bolaning tinglash, tushunish va javob berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Savollar bolaning yoshiga va nutqiy imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak.

Pedagog oddiy savollardan boshlab, asta-sekin murakkabroq savollarga o‘tishi mumkin:

Oddiy savol: “Bu nima?”

Aniqlashtiruvchi savol: “Uning rangi qanday?”

Sababni aniqlovchi savol: “Nima uchun u daraxtga chiqdi?”

Ijodiy savol: “Agar sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilarding?”

Bu jarayonda bolaning javobini bo‘lmaslik va unga fikrini shakllantirish uchun yetarli vaqt berish muhim. Navbat bilan muloqot qilish va bolaning javobini kutish faol kommunikatsiyaning muhim elementlari hisoblanadi.

Hikoya qildirish va qayta hikoyalash Hikoya qildirish bolaning bog‘langan nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda rasm, o‘yinchoq, real predmet yoki qisqa voqeadan foydalanish mumkin. Masalan, pedagog uch-to‘rt qismdan iborat rasmlar ketma-ketligini ko‘rsatib: “Avval nima bo‘ldi? Keyin-chi? Oxirida nima sodir bo‘ldi?” kabi savollar orqali bolaning voqealarni izchil bayon qilishiga yordam beradi. Qayta hikoyalashda esa bola tinglagan ertak yoki hikoyaning mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalaydi. Bu usul xotira, tinglab tushunish, lug‘at boyligi va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dialogik o‘qish usuli Dialogik o‘qish oddiy kitob o‘qishdan farqli ravishda bolani faol suhbatdoshga aylantiradi. Pedagog matnni o‘qish bilan cheklanmay, bola bilan savol-javob qiladi, uning javobini kengaytiradi, yangi so‘zlarni izohlaydi va bolaning keyingi fikrini rag‘batlantiradi. Dialogik o‘qishning muhim jihati – bolaning kitob mazmuni haqida gapirishga jalb etilishidir. Zamonaviy meta-tahlillarda dialogik o‘qish lug‘at, mazmunni tushunish va boshqa savodxonlik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qilishi qayd etilgan. Maktabgacha yoshdagi

bolalarning hikoya tuzish qobiliyatiga bag‘ishlangan 2026-yilgi sistematik sharhda 16 ta tadqiqot va 1800 dan ortiq bola ma’lumotlari umumlashtirilgan. Unda dialogik o‘qishning bolalarning hikoya tuzilishi va sabab-oqibatni ifodalash ko‘nikmalariga ijobiy ta’siri aniqlangan.

O‘yin usuli. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyatlaridan biri bo‘lib, nutq rivojlanishi uchun tabiiy kommunikativ muhit yaratadi.

Nutqiy rivojlantiruvchi o‘yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin:
“Bu nima?” ,“Nimani topdim?”,“Kim qanday ovoz chiqaradi?”,“Gapni davom ettir”, “Hikoyani davom ettir”, “Rasmga qarab gapir”, “Kim nima qiladi?”,“Sehrli xalta”, “Kasblar”, “Do‘kon”, “Shifokor”, “Mehmon kutamiz”.

Syujetli-rolli o‘yinlarda bola turli ijtimoiy rollarni bajaradi va shu orqali tabiiy dialogga kirishadi. Masalan, “Do‘kon” o‘yinida sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi dialog, “Shifokor” o‘yinida shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot tashkil etiladi. Ilmiy sharhlar o‘yin va til rivojlanishi o‘rtasida muhim bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ramziy o‘yin bo‘yicha 35 ta tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilda o‘yin va til o‘zlashtirish o‘rtasida kichikdan o‘rtachagacha bo‘lgan ijobiy bog‘liqlik aniqlangan.

Rasm va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish Rasmlar bolalarning predmet, harakat va hodisalarni so‘z orqali ifodalashini osonlashtiradi. Pedagog: predmet rasmlari, mavzuli rasmlar,rasmlarketma-ketligi, illustratsiyalar, kartochkalar, predmetlarning o‘zi,maket va modellar kabi vositalardan foydalanishi mumkin. Masalan, “Bahor fasli” mavzusiga rasm asosida quyidagi savollar beriladi,“Rasmda nimalarni ko‘ryapsan?”,“Daraxtlarda qanday o‘zgarish bo‘lgan?”,“Bolalar nima qilmoqda?”,“Qushlar qayerga uchib keldi?”. Bu jarayonda bola predmetlarni nomlashdan boshlab, keyinchalik ularning belgisi, harakati va o‘zaro munosabatini ifodalovchi gaplar tuzishga o‘tadi.

Bolalar nutqini rivojlantirish vositalari Nutq rivojlantirish vositalarini bir necha guruhga ajratish mumkin.

Badiiy adabiyot Ertak, hikoya, she’r, maqol, topishmoq va tez aytishlar bolalar nutqini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Badiiy matnlar orqali bola: yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi,obrazli ifodalarni eslab qoladi,gap tuzish namunalarini eshitadi,voqealar ketma-ketligini anglaydi,qahramonlarning xatti-harakatini baholashga harakat qiladi,o‘z fikrini ifodalashga o‘rganadi.Ayniqsa, hikoya yoki ertakni bir necha marta turli faoliyatlar bilan bog‘lab o‘qish samarali bo‘lishi mumkin. Ovoz chiqarib o‘qish bo‘yicha tadqiqotlar bunday yondashuvlarning til, lug‘at, fonologik anglash va mazmunni tushunish bilan bog‘liq ijobiy natijalarini ko‘rsatgan.

Didaktik materiallar Didaktik kartochkalar, predmetli rasmlar, loto, domino, pazllar va mavzuli albomlardan foydalanish bolalarning lug‘at boyligini kengaytirishga yordam beradi. Masalan, “Mevalar” mavzusida olma, nok, uzum, shaftoli, anor rasmlari berilib, bolalardan ularning nomi, rangi, shakli, ta’mi va qayerda o‘sishi haqida gapirish so‘raladi.

Tabiiy va real predmetlar Nutqni rivojlantirishda real predmetlardan foydalanish ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun muhimdir. Bola predmetni ko‘radi, ushlab ko‘radi, taqqoslaydi va uning belgilarini so‘z bilan ifodalaydi.

Keyinchalik pedagog bu gaplarni kengaytirib: “Qizil olma daraxtda pishibdi.”kabi murakkabroq nutqiy tuzilmalarga olib kelishi mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Multimedia taqdimotlari, audioertaklar, interaktiv topshiriqlar va qisqa ta’limiy videolardan ham foydalanish mumkin. Biroq texnologiya bolaning faol muloqotini almashtirmasligi kerak. Eng samarali holatda raqamli vosita pedagog va bola o‘rtasidagi suhbatni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Masalan, qisqa videoni tomosha qilgandan keyin bolalarga:

“Videoda nima sodir bo‘ldi?”

“Qaysi qahramon senga yoqdi?”

“Voqea qanday tugadi?”….kabi savollar berilishi mumkin.

Nutqni rivojlantirishda interfaol yondashuv. Zamonaviy maktabgacha ta’limda bolaning passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda pedagogning vazifasi tayyor javobni berish emas, balki bolani fikrlash va gapirishga undashdan iborat.

Samarali kommunikativ yondashuv quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etilishi mumkin: Bolaning qiziqishi → pedagogning e’tibori → savol yoki izoh → bolaning javobi → pedagogning javobni kengaytirishi → yangi savol → mustaqil nutqiy faoliyat.

Masalan:

Bola: “Qush uchyapti.”

Pedagog: “Ha, qush uchyapti. Qush qayerga uchyapti?”

Bola: “Daraxtga.”

Pedagog: “To‘g‘ri, qush yashil daraxtga uchib boryapti. Nima deb o‘ylaysan, u daraxtga nima uchun qo‘nadi?” Bunday muloqot bolaning javobini kengaytirish, yangi so‘zlarni kiritish va sabab-oqibat munosabatlarini ifodalash imkonini beradi.

Nutq rivojlanishida oila va pedagog hamkorligi Bolalar nutqi faqat ta’lim muassasasida emas, kundalik oilaviy muloqot jarayonida ham shakllanadi. Shuning uchun pedagog ota-onalarga bolalar bilan ko‘proq suhbatlashish, kitob o‘qish, kundalik faoliyat davomida predmet va harakatlarni nomlash, bolaning savollariga javob berish va uning fikrini tinglash bo‘yicha tavsiyalar berishi maqsadga muvofiq. Harvard Center on the Developing Child ma’lumotlariga ko‘ra, bolaning ovoz chiqarishi, imo-ishorasi yoki qiziqishiga kattalarning javob berishi bolaning ijtimoiy va til rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan o‘zaro ta’sirni shakllantiradi. Shuningdek, ota-onalar bilan birgalikda “oilaviy kitobxonlik”, “birgalikda hikoya tuzish”, “rasm asosida suhbat” kabi faoliyatlarni tashkil etish mumkin.

Nutq rivojlanishini baholash Bolaning nutqiy rivojlanishini baholashda faqat nechta so‘zni bilishi emas, balki ularni qanday qo‘llayotgani ham hisobga olinishi kerak.

Quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Mezoн Kuzatiladigan ko‘rsatkich

Lug‘at boyligi	Yangi so‘zlarni tushunishi va qo‘llashi
Talaffuz	Tovushlarni aniq talaffuz qilishi
Grammatik nutq	Gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishi
Dialogik nutq	Savol berishi va javob qaytarishi
Monologik nutq	Voqeani izchil hikoya qilishi
Tinglab tushunish	Eshitilgan matn mazmunini anglay olishi
Mustaqil fikrlash	O‘z fikrini mustaqil ifodalashi
Kommunikativ faollik	Muloqotga kirishish istagi

Baholash jarayoni bolani boshqa bolalar bilan taqqoslashdan ko‘ra, uning individual rivojlanish dinamikasini aniqlashga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Bolalar nutqini rivojlantirish juda ko‘p qirrali pedagogik jarayon ekanligini, unda yagona usuldan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, faoliyat davomida talab va ehtiyojning kattaligini ham e’tiborga olgan holda turli metod va vositalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish muhimdir. Suhbat, savol-javob, hikoya qildirish, qayta hikoyalash, dialogik o‘qish, didaktik va syujetli-rolli o‘yinlar, rasm va ko‘rgazmali materiallar, badiiy adabiyot hamda zamonaviy multimedia vositalari bolaning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa bolaning faol ishtirokiga asoslangan dialogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Dialogik o‘qish bo‘yicha yangi tadqiqotlar uning bolalarning hikoya qilish va savodxonlik bilan bog‘liq ko‘nikmalariga ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, kattalar va bola o‘rtasidagi javobli, navbatma-navbat muloqot nutq rivojlanishining muhim sharti sifatida qaraladi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari bolaga tayyor bilimni berishga emas, balki uni gapirish, savol berish, tinglash, fikrlash, hikoya qilish va muloqot qilishga faol jalb etishga yo‘naltirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
2. Vygotsky, L. S. Thought and Language. MIT Press, 1986.

3. Whitehurst, G. J., Falco, F. L., Lonigan, C. J., Fischel, J. E., DeBaryshe, B. D., Valdez-Menchaca, M. C., Caulfield, M. Accelerating language development through picture book reading. Developmental Psychology, 1988.
4. National Scientific Council on the Developing Child. Young Children Develop in an Environment of Relationships. Working Paper No. 1. Harvard University, 2004.
5. Center on the Developing Child at Harvard University. Serve and Return: Back-and-Forth Exchanges. Harvard University.
6. Mol, S. E., Bus, A. G., de Jong, M. T., Smeets, D. J. H. Added value of dialogic parent-child book readings: A meta-analysis. Early Education and Development, 2008.
7. Marulis, L. M., Neuman, S. B. The Effects of Vocabulary Intervention on Young Children’s Word Learning: A Meta-Analysis. Review of Educational Research, 2010.
8. Flack, Z. M., Field, A. P., Horst, J. S. The effects of shared storybook reading on word learning: A meta-analysis. Child Development, 2018.
9. Skene, K., O'Farrelly, C., Byrne, E. M., Kirby, N., Stevens, E. C., Ramchandani, P. G. Can guidance during play enhance children’s learning and development in educational contexts? A systematic review and meta-analysis. Child Development, 2022.
10. Tang, M., Lau, K. L., Du, Y. Effects and moderators of dialogic reading on children’s reading literacy: A three-level meta-analysis on studies from 2000 to 2025. International Journal of Educational Research, 2026, Vol. 137, Article 102963.
11. Özcan, S. The effect of dialogic reading interventions on narrative skills in the preschool period: a systematic review. Frontiers in Education, 2026.

BOSHLANGICH SINF ONATILI DARSLARIDA JARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSH TOVUSH VA HARFLARNI O‘RGATISHDA QO‘LLANILADIGAN YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Rashidova Mehriya Muzafarovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilida darslarida jarangli va jarangsiz undosh tovush va harfni o‘rgatish eng asosiy omil hisoblanadi.Bir dars jarayonida o‘quvchi tovushni eshitib, idrokini harf bilan ifodalashi uchun uning avvalo fikri dars jarayoniga jamlanishiga yordamlashish ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Ta’lim jarayonida turli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchi

qiziqishini orttiradi. Bu ta’lim berishda o‘quchilarni yaxshi nazorat qilish, bilim berishdagi samaradorlikning oshishi hamda ushbu jarayondagi natijalarni yaxshilash imkonini beradi. Mazkur maqolada jarangli va jarangsiz undosh tovush va harflarni,bo‘g‘in va so‘zlarni o‘rgatishning yangi texnologiyalari va ularning samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jarangli, jarangsiz, tovush,harf,bo‘g‘in,so‘z,samaradorlik, didaktik o‘yin, raqamli texnologiya, metod, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘zlashtirish, ta’lim jarayoni, topshiriq,innovatsion texnologiya

Аннотация: Обучение младших школьников различению звонких и глухих согласных звуков и соответствующих им букв на уроках родного языка является важнейшим аспектом учебного процесса. Умение сосредоточить внимание учащихся на материале урока - так, чтобы они могли услышать звук и обозначить его правильной буквой, - способствует более глубокому усвоению знаний. Использование игровых методов повышает вовлеченность учеников в учебный процесс. Такой подход облегчает организацию работы в классе, повышает эффективность обучения и улучшает образовательные результаты. В статье рассматриваются новые технологии обучения звонким и глухим согласным звукам и буквам, а также слогам и словам, и анализируется их эффективность.

Ключевые слова: звонкий, глухой, звук, буква, слог, слово, эффективность, дидактическая игра, цифровая технология, метод, знание, умение, навык, мастерство, образовательный процесс, задание, инновационная технология.

Abstract: Teaching primary school students about voiced and voiceless consonant sounds and their corresponding letters during native language lessons is a fundamental aspect of instruction. Helping students focus their attention on the lesson—enabling them to hear a sound and represent it with the correct letter—enhances their level of mastery. Incorporating various games into the educational process boosts student engagement. This approach facilitates effective classroom

management, increases the efficiency of instruction, and improves learning outcomes. This article discusses new technologies for teaching voiced and voiceless consonant sounds and letters, as well as syllables and words, and examines their ef.

Keywords: voiced, voiceless, sound, letter, syllable, word, effectiveness, didactic game, digital technology, method, knowledge, skill, proficiency, mastery, educational process, task, innovative technology, fectiveness.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasidagi sifatni oshirish maqsadida qilinayotgan tashabbuslar soni sezilarli darajada oshmoqda. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun asosiy vositalardan biri bu zamonaviy texnologiyalardir. Bugungi kunda deyarli barcha insonlar internet tarmog'idan: smartfon, kompyuter, planshet shu va shu kabi qurulmalardan foydalanishni bilishadi. Bundan bolalar ham mustasno emas. Maktab yoshiga yetgan bolalar bu qurulma va tarmoqlardan deyarli muammosiz foydalana olmoqdalar. Albatta bu quvonarli holat, lekin, shu bilan birga o'qituvchilardan ham yaxshigina mahorat va bilim talab qiladi.Shu bilan birga maktab o‘qituvchilari ona tili darslarida noan’anaviy interaktiv metodlardan ham foydalanib,darslar sifatini oshirishmoqda. Misol uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili fanidan jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatishda turli xil innovatsion metodlardan foydalanishadi.

Asosiy qism. Ona tili darslarida fonetika bo‘limi o‘quvchilar uchun ko‘pincha quruq nazariya sifatida qabul qilinadi. Ammo jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish darsni jonli, qiziqarli va samarali qiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni tinglash, ajratish va amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Ona tili darslarida jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish o‘quvchilardan nafaqat qoidani yodlashni, balki tovushlarning hosil bo‘lish o‘rnini his qilishni ham talab etadi. Darsni qiziqarli, interaktiv va esda qolarli qilish uchun quyidagi zamonaviy metodlardan foydalanish mumkin:

1. Interaktiv va sensorli metodlar (Hissiyotga asoslangan)"Tomoq testi" (Taktil metod): O‘quvchilar ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini tomoqlariga (tovush paychalariga) qo‘yadilar. Jarangli undoshlarni (B, D, Z, V va h.k.) aytganda tomoqda

titrash (vibratsiya) seziladi. Jarangsiz undoshlarda (P, T, S, F va h.k.) esa bu titrash bo‘lmaydi. Bu eng sodda va samarali vizual-taktil usuldir.

"Quloqni yopish" metodi: O‘quvchilar har ikki quloqlarini kaftlari bilan mahkam yopib, tovushlarni aytishadi. Jarangli undoshlar aytilganda bosh ichida kuchli g‘o‘ringlash (akso-sado) eshitiladi, jarangsizlarda esa faqat shivirash eshitiladi.

2. O‘yinli metodlar (Gamifikatsiya)"Sehrli juftliklar" (Memory game): Kartochkalarning bir tomoniga jarangli, ikkinchi tomoniga uning jarangsiz jufti yoziladi (masalan, B va P, D va T). O‘quvchilar chalkashib yotgan kartochkalar ichidan bir-biriga mos keladigan juftliklarni tez topish bo‘yicha musobaqalashadilar."Tovushlar poyezdi" (Klassifikatsiya): Doskaga ikkita vagon rasmi chiziladi (yoki joylashtiriladi): "Jarangli vagoni" va "Jarangsiz vagoni". O‘quvchilarga tarqatilgan so‘zlar yoki harflar mos vagonlarga "joylashtirilishi" kerak."Kim chaqqon?" (Qarsak o‘yini): O‘qituvchi turli undosh tovushlarni aytadi. Agar tovush jarangli bo‘lsa, o‘quvchilar qo‘llarini tepaga ko‘tarishadi, agar jarangsiz bo‘lsa, qarsak chalishadi. Bu metod o‘quvchilarni dars davomida sergak tutadi.

3. Raqamli va multimedia texnologiyalari. Audio-vizual trenajyorlar: Darsda turli ta’limiy dasturlar (masalan, LearningApps yoki Kahoot) orqali testlar tashkil qilish. Undoshlarni jarangli va jarangsizga ajratish bo‘yicha interaktiv krossvordlar yaratish."Foniteka" mashqi: O‘quvchilarga qisqa audio yozuv eshittiriladi. Ular audiodagi nutqdan faqat jarangli yoki faqat jarangsiz undosh bilan boshlanadigan so‘zlarni ajratib daftarlariga yozib olishlari kerak bo‘ladi.

4. Muammoli va tahliliy metodlar "Adashgan harflar" (Klaster): Doskaga jufti yo‘q undoshlar (M, N, L, R – faqat jarangli va H – faqat jarangsiz) aralashtirib yoziladi. O‘quvchilar ularning nima uchun "yolg‘iz" (juftsiz) ekanligini muammoli vaziyat sifatida tahlil qiladilar.

5." So‘z o‘yinlari" (Minimal juftliklar): Faqat birgina undoshning jarangli-jarangsizligi bilan farq qiladigan va ma’nosi butunlay o‘zgarib ketadigan so‘zlar zanjiri tuziladi. Masalan: Bosh – Posh,Dol – Tol, Zor – Sor,Gul – Kul,This metod

o‘quvchilarga tovushlarning so‘z ma’nosini farqlashdagi muhim rolini ko‘rsatib beradi.

"Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar va harflar" mavzusini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘tish darsni zerikarli qoidalar majmuasidan qiziqarli tadqiqotga aylantiradi. Quyida ushbu mavzuni darsning yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlash bosqichlarida qanday tashkil etish modelini ko‘rib chiqamiz.

1. Yangi mavzuni tushuntirish bosqichi (Ochiq va qiziqarli tadqiqot)

Bu bosqichda tayyor qoidani yodlatish emas, balki innovatsion "Muammoli ta'lim", "Aqliy hujum" va AKT vositalaridan foydalanib, o‘quvchilarning o‘ziga qoidani "kashf ettirish" samarali hisoblanadi.

• "Ovoz laboratoriyasi" vositasi (Sensor usul):

• Amaliyoti: O‘quvchilarga qo‘llarini bo‘yinlariga (tomoq sohasiga) qo‘yish aytiladi. O‘qituvchi avval [B], [D], [Z] tovushlarini, keyin esa [P], [T], [S] tovushlarini talaffuz qilishni so‘raydi.

• Innovatsion jihati: O‘quvchilar birinchi guruhda tomoqda titrash (jarang) borligini, ikkinchi guruhda esa titrash yo‘qligini o‘zlari his qilishadi. Shundan so‘ng o‘qituvchi ekranda tovush paychalarining harakatini ko‘rsatuvchi kichik animatsiyani (multimedia) namoyish etadi.

• "Juftini top" interaktiv o'yini (Mental xaritalar va vizualizatsiya):

• Amaliyoti: Doskada (yoki sensorli ekranda) aralash holda jarangli va jarangsiz harflar beriladi. O‘quvchilar juftliklarni (B-P, D-T, G-K, Z-S) chiziqlar orqali birlashtirishlari kerak.

• Muammoli vaziyat: Ekranda jufti yo‘q bo‘lgan [X], [H], [F] yoki [L], [M], [N], [R] (sonor) harflari qolib ketadi. O‘quvchilarda "Nega bularning jufti yo‘q?" degan savol tug‘iladi va shu tariqa darsning keyingi qismi — jufti bor va jufti yo‘q undoshlar mavzusiga tabiiy o‘tiladi.

2. Mustahkamlash bosqichi (Raqamli va interaktiv amaliyot)

Mavzuni xotirada mustahkamlash va so‘zlar ichida jarangli/jarangsiz undoshlarni to‘g‘ri farqlash uchun raqamli texnologiyalar va guruhlarda ishlash metodlaridan foydalaniladi.

• Wordwall yoki LearningApps platformasida "Saralash" o'yini:

• Amaliyoti: Smartfonda yoki sinf proyektorida interaktiv o‘yin ishga tushiriladi. Ekranning tepasida ikkita savat paydo bo‘ladi: "Jarangli undoshlar" va "Jarangsiz undoshlar". Ekran tubidan esa so‘zlar (masalan: Kitob, Bog‘, Tosh, Quyosh, Gul) uchib chiqadi.

• Vazifa: O‘quvchilar navbat bilan chiqib, so‘zlar tarkibidagi undoshlarni to‘g‘ri savatchalarga joylashtirishlari kerak. O‘yin yakunida dastur avtomatik ravishda xatolarni ko‘rsatib, ball hisoblaydi.

• "Insert" va "So'z muhandisi" metodi (Matn bilan ishlash):

O‘quvchilarga kichik matn tarqatiladi. Ular matndagi so‘zlarni o‘qib, jarangli undosh bilan boshlangan so‘zlar tagiga bir chiziq, jarangsiz undosh bilan boshlangan so‘zlar tagiga ikki chiziq chizadilar.


Imlo muammosi (Flipped element): Matnga ataylab imlo xatosi bor so‘zlar kiritiladi (masalan: kitob o‘rniga kitop, maktab o‘rniga maktap). O‘quvchilar talaffuzda va yozuvda jarangli/jarangsiz undoshlarning almashib qolish qoidasini tanqidiy tahlil orqali topishadi.

Raqamli va an'anaviy vositalar solishtirmasi

An’anaviy usulda kutilayotgan natija tushuntirish qoidani kitobdan o‘qitish va yodlatish.

Innovatsion usulda esa "Ovoz laboratoriyasi" + Vizual animatsiya. O‘quvchi tovushning hosil bo‘lishini tanasi va ko‘zi bilan his qilib, oson eslab qoladi.Mustahkamlashda esa mashq daftarda so‘zlarni ko‘chirish. Wordwall interaktiv o‘yini musobaqa muhiti orqali barcha o‘quvchilar darsga jalb etiladi va ijodiy fikrlaydi. O‘quvchining mavzuni tushunganligini aniqlash maqsadida darsni mustahkamlash qismida Quiz testlar ham yechtirish mumkin.

Quyida 4 sinf Ona tili (2026 yil “Novda” nashriyoti) darsligining 41- betida 1- mashqning topshiriqlarini ko‘rib chiqamiz.



1-mashq. Jarangli undosh bilan tugaydigan so‘zlarni yozing.

maktab, savod[1], o‘quvchi, nasihat, yo‘lak, oftob, havo, voqea, novvot, mehmon[3], non, kundalik, Davron, darvoza, yulduz, adolat, telefon, farzand, tomosha, tuproq, bog‘

- Istalgan so‘zlar ishtirokida ikkita gap yozing.

41

Ushbu mashqni bajarishda yuqorida tavsiya etgan metodlarimizni qo‘llab ko‘ramiz.

Wordwall platformasida "Saralash" o'yini:

Sinf proyektorida interaktiv o‘yin ishga tushiriladi. Ekranning tepasida ikkita savat paydo bo‘ladi: "Jarangli undoshlar" va "Jarangsiz undoshlar". Ekran tubidan esa so‘zlar (masalan: maktab, savod, o‘quvchi,nasihat, yo‘lak, oftob,havo,voqea va hokazo) uchib chiqadi.

O‘quvchilarga vazifa: O‘quvchilar navbat bilan chiqib, so‘zlar tarkibidagi undoshlarni to‘g‘ri savatchalarga joylashtirishlari kerak. O‘yin yakunida dastur avtomatik ravishda xatolarni ko‘rsatib, ball hisoblaydi.

Oldindan o‘qituvchi bu mashqni Wordwall platformasiga kirgizib,so‘ng proyektrda “Saralash” o‘yinini boshlaydi.Butun sinf navbat bilan so‘zlarni jarangli yoki jarangsiziga qarab ikkita savatni qaysi biriga munosibligini aytishadi,javobini esa ekran tubida uchib borib qaysi savatga tushishini ko‘rishadi. Agar o‘quvchi to‘g‘ri topgan bo‘lsa butun sinf o‘quvchilari qarsak chalishadi. O‘yin juda qiziqarli o‘tadi va o‘quvchilarga dars yanada qiziqarliroq bo‘ladi.

"Insert" va "So'z muhandisi" metodi (Matn bilan ishlash):

Shu birinchi mashqni bajarishning yana bir usuli shu so‘zlar ishtirokida matn tuzib tarqatiladi. Ular matndagi so‘zlarni o‘qib, jarangli undosh bilan boshlangan so‘zlar tagiga bir chiziq, jarangsiz undosh bilan boshlangan so‘zlar tagiga ikki chiziq

chizadilar.va butun sinf musobaqa tarzida tez tez jarangli undoshli so‘zlarni chiqib doskada yozadilar.O‘qituvchi ularni boshqarib,kuzatib turadi.

Yana darsning mustahkamlash qismida o‘quvchilar bilan” 3,4,5,6,7” metodi va “Bilib ol” metodi kabi interaktiv metodlar o‘tkazilsa juda yaxshi samara beradi. Bu metodlarning qo‘llash usulini izohlab ketadigan bo‘lsak, oldindan sinf guruhlarga bo‘lingan bo‘lib har bir guruhga mavzuga doir alohida topshiriq beriladi.

Birinchi guruh 3,4,5,6,7 metodida o‘quvchilar jarangli undosh qatnashgan 3 ta, 4 ta, 5 ta, 6 ta, 7 ta harfda iborat so‘z yozishi kerak.

Ikkinchi guruh oldindan osilgan xontaxtadagi J harfi bilan boshlanadigan so‘zlarni jarangli va jarangsiz undosh qatnashgan so‘zlarga ajratish kerak. Bu topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilarga ikki daqiqa vaqt beriladi.O‘quvchilar topshiriqni bajarish orqali faollashib,yaxshi qatnashadi.





Zamonaviy metodlarning afzalliklari: o‘quvchi qoidani shunchaki yodlamaydi, balki amaliyotda his qiladi.Darsda zerikish yo‘qoladi, faollik oshadi.Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining fonematik eshitish qobiliyati tezroq rivojlanadi. Ona tili darslarida fonetika bo‘limi o‘quvchilar uchun ko‘pincha quruq nazariya sifatida qabul qilinadi. Ammo jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish darsni jonli, qiziqarli va samarali qiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni tinglash, ajratish va amalda qo‘llashga o‘rgatadi.

Misol qilib: Tingla va ajrat metodi

O‘qituvchi turli so‘zlarni aytadi, o‘quvchilar esa undoshlarni jarangli yoki jarangsiz deb ajratadi. Bu usul eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.

Jarangli-jarangsiz dueli metodi

Sinf ikki guruhga bo‘linadi. O‘qituvchi so‘z aytganda, qaysi guruhga tegishli bo‘lsa, o‘sha guruh baland ovozda aytadi. Bu raqobat o‘quvchilarni faol qiladi.

Kartalar bilan o‘yin

Jarangli va jarangsiz undoshlar yozilgan kartalar tayyorlanadi. O‘quvchi so‘z eshitganda to‘g‘ri kartani ko‘taradi. Bu vizual yondashuv eslab qolishni osonlashtiradi.

Tana harakati bilan ajratish metodi

Jarangli undosh eshitilganda qo‘lini ko‘tarish, jarangsizda esa pastga tushirish orqali o‘quvchilar jismoniy harakat bilan bilimni mustahkamlaydi.

Kvest usuli

O‘quvchilar “jarangli kalit” va “jarangsiz kalit” topshiriqlarini bajarib, bosqichma-bosqich maqsadga yetadi. Bu usul o‘yin va topshiriqni birlashtiradi. Metodlarni bajartirishda avval tinglab ajratish mashqi o‘tkaziladi, keyin kartalar bilan o‘yin orqali mustahkamlanadi. Dars oxirida esa kvest usuli bilan umumlashtirish amalga oshiriladi.

Xulosa. Boshlang‘ich ona tili darslarida jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatishda qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimini mustahkamlaydi, darsni jonli qiladi va fonetika bo‘limini sevimli mashg‘ulotga aylantiradi.O‘yin, jismoniy harakat va kvest elementlari o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirokchi etadi.,zamonaviy va interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash o'quvchilarning fonematik eshitish qobiliyati, nutq madaniyati va fanga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik yondashuvlarni raqamlashtirish va o'yinlashtirish ta'lim samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. 2022

2. R.Ishmuhamedov,M.Yuldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogic texnologiyalar.Toshkent 2016

3. O.Roziqov,B.Adizov, G.Najmiddinova”Umumiy Didaktika”. Toshkent 2012

4. D.Baynazarova Ona tili 2sinf I qism Toshkent”Novda” nashriyoti 2023

5. D.Baynazarova Ona tili 2 sinf II qism Toshkent” Novda” nashriyoti 2023

6. D.D.Baynazarova, M.E.Toirova Ona tili 4 sinf II qism Toshkent “Novda” nashriyoti 2023

7. Shayxislamov, N.Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mahorati. Science and Education,2020.

8. Xolbekov, S. B.Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education,2020.

9. Rafiyev A. G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. “Sharq”, 2013.

10. Sayidahmedov N”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003.

MAKTAB O‘QITUVCHILARIDA TARIXIY MANBALARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Sh.Sadullayev
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi,
Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada maktab o‘qituvchilarida tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik, ilmiy-nazariy va metodologik asoslari tadqiq etiladi. Tarixiy manbalar bilan ishlash madaniyatining shakllanish bosqichlari, Sharq mutafakkirlarining tarixiy bilish jarayoniga oid ilmiy qarashlari, jadid ma’rifatparvarlarining tarix ta’limiga qo‘shgan hissasi hamda zamonaviy xorijiy va mahalliy olimlarning kompetensiyaviy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy manba, kasbiy kompetensiya, tarixiy tafakkur, manbashunoslik, tanqidiy tahlil, tarix ta’limi, pedagogik metodika, didaktik madaniyat, jadid ma’rifatparvarlari, birlamchi manbalar, tarixiy kontekst, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются педагогические, научно-теоретические и методологические основы развития компетенции

анализа исторических источников у школьных учителей. Проводится сравнительный анализ этапов формирования культуры работы с историческими источниками, научных взглядов мыслителей Востока на процесс исторического познания, вклада джадидских просветителей в развитие исторического образования, а также компетентностных подходов современных отечественных и зарубежных исследователей.

Ключевые слова: исторический источник, профессиональная компетенция, историческое мышление, источниковедение, критический анализ, историческое образование, педагогическая методика, дидактическая культура, джадидские просветители, первичные источники, исторический контекст, непрерывное профессиональное развитие.

ABSTRACT. This article examines the pedagogical, theoretical, and methodological foundations for developing historical source analysis competence among school teachers. It provides a comparative analysis of the development of historical source literacy, the scholarly views of Eastern thinkers on historical knowledge, the contributions of Jadid reformers to history education, and competency-based approaches proposed by contemporary national and international researchers.

Keywords: historical sources, professional competence, historical thinking, source criticism, critical analysis, history education, teaching methodology, didactic culture, Jadid reformers, primary sources, historical contextualization, continuous professional development.

KIRISH. Jahon ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, axborot makonining kengayishi va ilmiy bilimlarning muntazam yangilanib borishi pedagoglarning kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni sezilarli darajada oshirmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy mahorati faqat muayyan fan doirasidagi nazariy bilimlarni egallashi bilan emas, balki mavjud axborotni tanqidiy baholashi, turli manbalarni o‘zaro qiyoslashi, dalillarga asoslangan xulosalar

chiqarishi hamda mazkur ko‘nikmalarni o‘quvchilarda shakllantira olishi bilan belgilanmoqda.

Ayniqsa, tarix ta’limida ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixiy bilimlar o‘tmishda sodir bo‘lgan voqea va jarayonlar haqidagi ma’lumotlarni oddiy o‘zlashtirishdan iborat emas. U tarixiy hodisalarning sabab va oqibatlarini aniqlash, turli davrlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash, tarixiy shaxslar faoliyatini muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan bog‘liq holda baholash va tarixiy dalillarga ilmiy munosabat bildirishni ham talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, milliy tarixiy-madaniy merosni chuqur o‘rganish hamda yosh avlodda tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sifati, pedagogik faoliyat va ta’lim jarayonini tashkil etishning huquqiy asoslari belgilangan. Mazkur huquqiy asoslar pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, o‘qitish metodlarini takomillashtirish hamda ta’lim natijadorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, tarix o‘qituvchilarining tarixiy manbalar bilan ishlashga oid kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biridir.

An’anaviy tarix ta’limida tarixiy voqealarning sanasi, mazmuni va ishtirokchilarini eslab qolishga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lsa, kompetensiyaviy yondashuv tarixiy bilimlarni mustaqil izlanish, tahlil, taqqoslash va dalillash jarayonida egallashni nazarda tutadi. Bunday sharoitda o‘qituvchi tayyor bilimlarni yetkazuvchi emas, balki o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantiruvchi, tadqiqotchilik faoliyatini yo‘naltiruvchi va ilmiy bilish jarayonini tashkil etuvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi maktab o‘qituvchilarida tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish, tarixiy-pedagogik meros va zamonaviy tadqiqotlarni qiyosiy o‘rganish hamda mazkur kompetensiyani takomillashtirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM. *Tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasining tarixiy-pedagogik asoslari.* Tarix fanining shakllanishi insoniyatning o‘z o‘tmishini anglash, tarixiy tajribani saqlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish ehtiyoji bilan bevosita bog‘liqdir. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida tarixiy xotira og‘zaki an’analar, afsona, rivoyat, doston va nasabnomalar orqali saqlangan. Bunday manbalarda tarixiy voqelik mifologik va diniy tasavvurlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa-da, ular jamiyatning ijtimoiy xotirasini shakllantirishda muhim vazifani bajargan.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida yozuvning paydo bo‘lishi tarixiy axborotni qayd etish va saqlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Misr, Bobil, Ossuriya va Xitoyda yaratilgan yilnomalar, toshbitiklar, hukmdorlar farmonlari hamda rasmiy hujjatlar tarixiy manbalarning dastlabki yozma shakllari sifatida tarixshunoslik taraqqiyotiga xizmat qildi.

Qadimgi Yunonistonda tarixiy bilimlarning ilmiy asosda shakllanishi Gerodot va Fukidid faoliyati bilan bog‘liq. Gerodot tarixiy voqealarni izchil bayon etish, turli xalqlarning urf-odatlari va ijtimoiy hayotini tasvirlashga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsa, Fukidid tarixiy hodisalarning sabablarini aniqlash, guvohliklarni tekshirish va voqealarni tanqidiy tahlil qilishga intilgan.

Mazkur yondashuvlar tarixiy bilimlarni shakllantirishda manbalarni yig‘ish, ularni o‘zaro taqqoslash va tarixiy voqelikni imkon qadar xolis yoritish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘rta asrlarda tarixshunoslik diniy-falsafiy qarashlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Islom olamida Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Xaldun kabi allomalar tarixiy bilishning ilmiy asoslarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Xususan, Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida tarixiy voqealar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Uning tarixiy xabarlarni tanqidiy tekshirishga oid qarashlari bugungi manbashunoslik va tarixiy tafakkur metodologiyasi uchun ham ahamiyatlidir.

XIX–XXI asrlarda tarix fanining metodologik imkoniyatlari yanada kengaydi. Arxeologiya, antropologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar bilan integratsiyalashuv tarixiy hodisalarni kompleks o‘rganish imkonini yaratdi. Natijada tarixiy manbalarni o‘rganish jarayoni oddiy axborot olish faoliyatidan ilmiy izlanish va tanqidiy tafakkurga asoslangan murakkab bilish jarayoniga aylandi.

Tarix fanining mazkur taraqqiyot bosqichlari tarix o‘qituvchisidan nafaqat tarixiy faktlarni bilishni, balki ularning kelib chiqishi, ishonchliligi va talqin qilinish xususiyatlarini aniqlash kompetensiyasiga ega bo‘lishni ham talab etadi.

Sharq mutafakkirlarining tarixiy manbalarni o‘rganishga oid ilmiy qarashlari. Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosi tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ularning ilmiy faoliyatida tarixiy voqelikni anglash, dalillarni tekshirish, turli manbalarni taqqoslash va asoslangan xulosalar chiqarishga qaratilgan yondashuvlar kuzatiladi.

Abu Rayhon Beruniy tarixiy manbalarni qiyosiy o‘rganish va tarixiy ma’lumotlarning ishonchliligini aniqlash masalalariga alohida e’tibor qaratgan buyuk qomusiy olimdir. Uning “Osor ul-boqiya” asarida turli xalqlarning taqvimlari, tarixiy sanalari, urf-odatlari va madaniy an’analari qiyosiy tahlil qilingan.

Beruniy ilmiy merosining muhim jihati shundaki, unda tarixiy ma’lumotlar birgina manba asosida emas, balki turli dalillarni o‘zaro solishtirish orqali o‘rganiladi. Bu esa zamonaviy tarix ta’limida qo‘llaniladigan manbalarni qiyoslash va tarixiy dalillarni tekshirish metodlariga mazmunan yaqin turadi.

Abu Nasr Forobiyning ilmiy-falsafiy qarashlarida esa bilish jarayonining mantiqiy asoslari, tushunchalarni tizimlashtirish va dalillardan umumiy xulosalarga kelish masalalari muhim o‘rin egallaydi. Uning ilmiy bilishga oid yondashuvlari

tarixiy manbalarni tahlil qilish jarayonida mantiqiy izchillikni ta’minlash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda dalillar asosida fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari tarixiy voqealarni izchil bayon etish va tarixiy shaxslar faoliyatini muayyan davr voqeligi bilan bog‘liq holda yoritish jihatidan ahamiyatlidir. Mazkur asar bilan ishlashda uning yaratilish sharoiti, muallifning tarixiy voqealarga munosabati va asarda aks etgan siyosiy qarashlarni ham hisobga olish zarur.

Alisher Navoiy asarlarida tarixiy shaxslar, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlarning badiiy-falsafiy talqini muhim o‘rin egallaydi. Uning asarlari tarixiy tafakkurni madaniy va ma’naviy kontekstda rivojlantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosini zamonaviy tarix ta’limi bilan bog‘liq holda o‘rganish tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, dalillarni tizimlashtirish va tarixiy hodisalarga turli nuqtayi nazardan yondashish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Maktab o‘qituvchilarida tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy tarix ta’limining dolzarb pedagogik muammolaridan biridir. Mazkur muammoning ahamiyati tarixiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini faktlarni eslab qolishga yo‘naltirilgan an’anaviy yondashuvdan dalillarga asoslangan, tanqidiy va mustaqil tarixiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuvga o‘tkazish zarurati bilan belgilanadi.

Tarixiy-pedagogik merosning tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarixiy manbalardan foydalanish, dalillarni tekshirish, turli ma’lumotlarni qiyoslash va ilmiy xulosalar chiqarish madaniyati uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Xaldun va boshqa Sharq mutafakkirlarining ilmiy qarashlari tarixiy bilishning metodologik asoslarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosi esa tarix ta’limini milliy ong, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq holda tashkil etishning tarixiy tajribasini namoyon qiladi. Ularning qarashlari zamonaviy tarix ta’limida milliy pedagogik meros va kompetensiyaviy yondashuvning uyg‘unligini ta’minlash uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хасанова Ш.Т. Тарихий обидалар билан таништириш жараёнида тарбияланувчиларда миллий ғурурни шакллантириш. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори диссертатсия автореферати. Т., 2022. 49 б.

2. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 2016. – 314 b.

3. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2021.

4. Yarmatov R.B., Shertaylakova G.B. The Problem of the Formation of Didactic Culture of Future Teachers of History in the Modern Educational System // International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology. – 2022. – Vol. 11, no. 3. – P. 2449–2453.

5. Yo‘ldoshev T. Milliy qadriyatlar va didaktik madaniyat. Toshkent: Sharq, 2020. –B. 92.

6. Юлдашев Ж.А. Тарихни ўқитиш жараёнида талабаларнинг аксиологик дунёқарашини ривожлантириш методикаси: пед. фанлари фалсафа доктори диссертатсияси автореферати. – Наманган, 2022. – 53 б.

7. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. f. d…diss. – T., 2003. –280 b.

“O‘ZBEKISTON TARIXI”NI O‘QITISHDA O‘QUVCHILAR VA TALABALARDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AYRIM MASALALARI

Xaydarov Yuldash Xazratovich,
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi
dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada “O‘zbekiston tarixi”ni o‘qitishda o‘quvchilar va talabalarda funksional savodxonlikni oshirishning ayrim masalalari tahlil etilgan. Bu borada o‘qitish jarayonidan yorqin misollar keltirilgan. Bu jarayonda dalil va tahlil kategoriyalaridan foydalanish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Funksional savodxonlik, modernizatsiya, innovatsiya, integratsiya, jamiyat, ma’naviyat, tarix, ilm, fan, zamon, talablar, ta’lim, tarbiya.

Аннотация: В статье анализируются некоторые вопросы повышения функциональной грамотности учащихся при преподавании курса «История Узбекистана». Приводятся яркие примеры из учебного процесса. Обсуждаются вопросы использования категорий доказательств и анализа в этом процессе.

Ключевые слова: функциональная грамотность, модернизация, инновации, интеграция, общество, духовность, история, наука, время, требования, образование, воспитание.

Annotation: The article analyzes certain issues regarding the enhancement of students' functional literacy during the teaching of "History of Uzbekistan." Vivid examples from the teaching process are provided in this context, with a focus on the use of evidence and analysis.

Keywords: Functional literacy, modernization, innovation, integration, society, spirituality, history, knowledge, science, contemporary era, requirements, education, upbringing.

Kirish. Keyingi yillarda yangi O‘zbekistonni bunyod etish borasida mamlakatimizda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xalq ta’limi tizimini isloh qilish, ilm-fan va jamiyatning o‘zaro ta’sirini kuchaytirish hamda bu jarayonlarni

modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanish sari keng yo‘l ochishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Fan va jamiyatning integratsiyasi, ularning o‘zaro ta’sirini ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlarni modernizatsiya qilish va innovatsion ta’lim usullarini yanada kengroq joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish va raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish ustuvor vazifa qilib belgilanganligi ham bu masalani muvaffaqiyatli hal etishni talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni bunyod etishga kirishganlarining sarchashmalaridayoq ta’lim tizimida, ta’lim muassasalari o‘quv reja va dasturlari va fanlarni o‘qitish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, quyidagicha xulosaga kelgan edilar: “Zamonaviy o‘quv reja va uslublarni joriy etish talab darajasida emas. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q. [1.45-46]

Bu konseptual vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘quvchilar va talabalarning funksional savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Funksional savodxonlik — bu shaxsning kundalik hayotda, ta’limda, mehnat faoliyatida va turli hayotiy vaziyatlarda egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan amaliy foydalana olish qobiliyatidir. Sodda qilib aytganda, funksional savodxonlik— o‘rgangan bilimini hayotda qo‘llay olish. O‘quvchi matnni o‘qiydi va mazmunini tushunadi. Bu — o‘qish savodxonligi.Ammo u o‘qigan matni asosida quyidagilarni bajara olishi kerak:

-kerakli ma’lumotni topa olishi;

-muammoni hal qilish uchun ma’lumotdan foydalana olishi;

-tanqidiy va kreativ fikrlashi hamda mustaqil qaror qabul qila olishi;

Matnni o‘qish, tushunish, tahlil qilish va undan kerakli ma’lumotni olish— o‘qish savodxonligi bo‘lib, “O‘zbekiston tarixi”ni o‘qitishda ham keng foydalanish mumkin.

Bugungi kunga kelib jamiyat a’zolarida yuksak ma’naviyatni shakllantirish, o‘quvchi-yoshlarning yurt taqdiriga daxldorlik hissini yanada kuchaytirish, ularni ona Vatan ravnaqi, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi yo‘lida fidoiylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish jarayonida ushbu fan sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va tarixini tushuntirishga yangicha tafakkur asosida yondashuvlar bilan o‘quvchi-yoshlarni tanishtirib borish lozim. Sho‘ro davrida “O‘zbekiston tarixi” ni o‘qitishdagi paradigmalar va mafkuralashtirishdan to’liq voz kechish talab etilmoqda. Shu maqsadda tarix fani o‘qituvchilari o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagilardan foydalanishini tasiya etamiz: VI sinfda “Tarix” fanini o‘qitishda mamlakatimiz hududidagi qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatlari haqida qisqacha ma’lumotlar beriladi, xalos. Darslikda davlatchiligimizning qadimiyligi, O‘rta Osiyo mintaqasining jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatidagi roli va o‘rni to‘g‘risida yetarlicha fikr yuritilmaydi. Buning sabablarini tarixchi olim, akademik Azamat Ziyoning ilmiy-tadqiqotlaridan bilib olamiz. Uning ta’kidlashicha: O‘zbekiston hududida, umuman, O‘rta Osiyo mintaqasida eng qadimgi zamonlardan kechgan davlatchilik tarixi masalasi ilgari maxsus o‘rganilmagan. Hech qachon shu tarzda mavzu va maqsad qilib qo‘yilmagan” [2,4].

Endilikda o‘zbek davlatchiligi tarixini birlamchi yozma manbalar va arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy ashyolar asosida ilmiy o‘rgangan taniqli olim, akademik Azamat Ziyoning 2000-yilda nashr etilgan “O‘zbek davlatchiligi tarixi” monografik tadqiqotidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu ilmiy asar “O‘zbekiston tarixi” fanida muhim yangilik bo‘lib, unda eng qadimgi davrlardan boshlab Rossiya bosqiniga qadar o‘zbek davlatchiligi tarixi tizimli bayon etilgan. Bu muhim monografik tadqiqotda keltirilgan ilmiy ma’lumotlar, o‘zbek davlatchiligining eng qadimiyligi va jahon davlatchiligi uchun andozaga aylangan. Somoniylar davri va Amir Temur davlatining o‘ziga xos jihatlarini o‘quvchilarga tushuntirish ularning jonajon Vatanimiz tarixini o‘rganguncha bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirishi bilan birga ularda faol fuqarolik mavqeini kuchaytiradi. Ularda

jahon sivilizatsiyasi beshigi bo‘lgan ona yurtimizdan yanada kuchliroq faxrlanish, uning kelajagi uchun, mamlakatimizda davom etayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida faollik ko‘rsatish, jamiyatning yuksak ma’naviyatli fuqarosi sifatida yanada faolroq bo‘lish his-tuyg‘ularini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘quvchi va talabalar tarixiy empatiyasida fanni o‘rganishga bo’lgan qiziqishi ortadi,ularda fanni chuqurroq o‘rganishga bo’lgan motivatsiya kuchayadi. Bu manbadan o‘qish savodxonligi puxta egallagan o‘quvchi va talabalar mahurat bilan foydalanadilar. Bunda o‘qish savodxonligining dalil va tahlil kategoriyalaridan unumli foydalanadilar.

Funksional savodxonlik — ta’lim jarayonida shakllantirilgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llash, muammolarni mustaqil hal etish, axborotni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi integrativ kompetensiyadir. Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi o‘qitiladigan “O‘zbekiston tarixi” fanida o‘qituvchilar “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” mavzusini VII va VIII sinflar uchun tavsiya etilgan “O‘zbekiston tarixi”da berilgan ma’lumotlar asosida maqsadga muvofiq tushuntira olmaydilar. Negaki, darsliklarda keltirilgan ma’lumotlar bunga imkon bermaydi. Bu xususda taniqli arxeolog olim, akademik Ahmadali Asqarov quydagilarni ta’kidlaydi: “... Keyingi yillarda o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi xususida mutaxasisligi tarixdan uzoq bo‘lgan ayrim ziyolilar, ham siyosiy, ham ilmiy-nazariy va ilmiy-metodologik jihatdan tushunishga ojiz “tarixchilar” internet saytlarida mahalliy matbuotda, hatto monografik kitob tarzida chuqur ilmiy asosga ega bo‘lmagan fikrlarni keng kitobxonlar ommasiga taqdim eta boshladi. Bunday ilmiy qarashlar o‘zbek xalqi etnogenezining tarixiy ildizlari va uning hozirda egallab turgan hududlar bilan azaldan bog‘liq ekanligiga soya solmoqda “ [3,3] Bu mavzuni ilmiy asoslangan va yangi ma’lumotlar asosida tushuntirish, ya’ni “O‘zbekiston tarixi” dan amalga oshirilgan fan yutuqlarini, ilmiy- tadqiqot ishlari xulosalarini dars jarayonida bayon qilish zarur bo‘ladi. Taniqli arxeolog olim, akademik Ahmadali Asqarovning 2015-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida nashr etilgan “O‘zbek

xalqining kelib chiqish tarixi” monografiyasi bu muammoni hal etishga xizmat qiladi. Bu yirik monografik tadqiqotda O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi haqidagi yozma manbalarda o‘zbek xalqining etnik asosi, turli tarixiy davrlarda O‘rta Osiyodagi etnogenetik jarayonlar, etnomadaniy rivojlanish, o‘zbek xalqining tarkib topish bosqichlari va uning xalq sifatida shakllanishi, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi kabi masalalar chuqur ilmiylik asosida bayon etilgan. Hozirgi paytgacha o‘zbek xalqining shakllanish masalasidagi noaniqliklar bartaraf etilib, monografiyada muallif Dashti Qipchoq o‘zbeklarining Movarounnahrga kirib kelishi va o‘zbek xonliklari davridagi etnomadaniy jarayonlarni ilmiy asosida bayon qilingan.Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib dars o‘tish o‘quvchi va talabalarning mavzuni chuqurroq anglab yetishiga imkon yaratadi. Funksional savodxonlikni puxta egallagan o‘quvchi va talabalar shu tariqa ta’lim jarayonida shakllantirilgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llaydilar. Muammolarni mustaqil hal etish, axborotni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi integrativ kompetensiyalarni namoyon etadilar.

“O‘zbekiston tarixi”ni o‘qitishda funksional savodxonlikdan foydalanish yoshlarning ona yurtimiz tarixini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zbekistonliklarning ikkinchi jahon urushidagi buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasini o‘rganishda tom ma’nodagi yangi davrning boshlanishi tashabbuskori bo‘ldilar…

Xulosa qilib aytganda, funksional savodxonlikning asosiy maqsadi — o‘quvchini faqat bilimli emas, balki o‘z bilimini hayotda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan va muammolarni hal qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir.

Uumumiy o‘rta ta’lim maktablari va oliy ta’lim tizimida “O‘zbekiston tarixi”ni o‘qitishda funksional savodxonligidan foydalanish fan sohasida erishilgan yutuqlarni, ya’ni ilmiy-tadqiqot natijalarini o‘quvchilar qalbi va ongiga singdirish orqali ularni jamiyatning faol, yuksak ma’naviyatli insonlari qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Muhtaram Prezidentimiz talab qilayotganlaridek, ilm-fan yutuqlarini

hayotga tadbiq qilish, tarix darslarida esa yoshlarga o‘rgatish ularning yurt taqdiriga daxldorlik his-tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi. Jahon standartlariga mos va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida olib borilayotgan keng qamrovli ishlarimizni yanada jadallashtirishga ko‘maklashadi. Yoshlarni yangi O‘zbekistonni bunyod etishda yanada faolroq bo‘lishga undaydi. “O‘zbekiston tarixi” dan yaratilgan yangi ilmiy- tadqiqotlar tariximizni xolisona va ilmiy asoslangan holda yaratilganligi sababli o‘quvchilarni yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017, 45-46- bet

2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T., 2000, 4-bet

3.Ahmadali Asqarov. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi T., “O‘zbekiston”, 2015, 3- bet

4. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan-XIII asr boshlarigacha). 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent. Respublika ta’lim markazi. 2022

O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xakimov Shuxrat Shodiyevich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
«Pedagogika, psixologiya, va ta’lim texnologiyalari» kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik ahami-yati hamda samarali metodlari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida interfaol yondashuvlar asosida o‘quvchilarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va muloqot kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-emotsional kompetensiya, SEL, empatiya, o‘zini boshqarish, pedagogik metodlar, interfaol ta’lim.

Abstract: Theoretical foundations, pedagogical significance, and effective methods for developing students’ socio-emo-tional competencies are analyzed. The issues of fostering emotional stability, social adaptation, and communication competencies through interactive approaches in the educational process are also highlighted.

Key words: socio-emotional competence, SEL, empathy, self-management, pedagogical methods, interactive learning.

Аннотация: Рассматриваются теоретические основы, педагогическое значение и эффективные методы развития социально-эмоциональных компетенций у учащихся. Освещаются вопросы формирования эмоциональной устой-чивости, социальной адаптации и коммуникативных компетенций учащихся на основе интерактивных подходов в образовательном процессе.

Ключевые слова: социально-эмоциональная компетентность, СЭК, эмпатия, саморегуляция, педагогические методы, интерактивное обучение.

KIRISH. Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning shaxs sifatida ijtimoiy va emotsional jihatdan rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Zamonaviy jamiyat shaxsdan yuqori darajadagi muloqot madaniyati, muammolarni samarali hal etish, o‘zini boshqarish hamda boshqalar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini talab etadi. Shu bois o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social Emotional Learning – SEL) o‘quvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqalarni tushunish va ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim darajasi bilan bir qatorda ularning ijtimoiy va emotsional yetukligi ham muhim mezon sifatida qaralmoqda. Shu sababli ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlan-tirish masalasi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar deganda o‘quvchining o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, empatiya namoyon etish hamda ijtimoiy muhitda moslashuvchan faoliyat yuritish qobiliyatlari tushuniladi.Ijtimoiy-emotsional rivojlanish o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur kompetensiyalar rivojlangan o‘quvchilar o‘qishda muvaffaqiyatliroq, jamoada faolroq hamda stressli vaziyatlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi. Shu sababli ta’lim jarayonida ushbu kompetensi-yalarni tizimli va izchil shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Mazkur metodika quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘zini anglash (self-awareness), o‘zini boshqarish (self-management), ijtimoiy ong (social awareness), munosabatlarni boshqarish (relationship skills) va mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making). Ushbu komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni kompleks rivojlantirish orqali o‘quvchilarda barkamol shaxs sifatlari shakllanadiMetodik jihatdan ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol usullar muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish mashg‘ulotlari, guruhli muhokamalar hamda refleksiya mashqlari samarali hisoblanadi. Masalan, rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarni his etib, empatiya va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, muammoli vaziyatlar esa ularni mustaqil fikrlashga va to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.Bundan tashqari, o‘qituvchining shaxsiy namuna ko‘rsatishi ham muhim omil hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘z xulqi, muloqot madaniyati va emotsional barqarorligi orqali o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, dars jarayonida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, har bir o‘quvchining fikrini hurmat qilish va ularni

rag‘bat-lantirish metodikaning muhim shartlaridan biridir.Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchining emotsional rivoji nafaqat maktabda, balki oilada ham davom etadi. Shu sababli ota-onalarni ushbu jarayonga jalb etish va ularga metodik tavsiyalar berish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu metodika asosida o‘quvchilar nafaqat bilimli, balki ijtimoiy jihatdan faol, emotsional jihatdan barqaror hamda turli hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaraladi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) o‘quvchining o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlan-tirishga qaratilgan tizimli yondashuv hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu kompetensiyalar shaxsning muvaffaqi-yatli ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va akademik natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Ijtimoiy-emotsional kompetensiya tushunchasi va tarkibiIjtimoiy-emotsional kompetensiyalar shaxsning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosa-batlarni boshqarish hamda mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi muhim komponentlardan iborat. Ushbu kompe-tensiyalar quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

o‘z his-tuyg‘ularini anglash va nazorat qilish, boshqalarni tushunish va empatiya namoyon etish, samarali muloqot qilish, ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchanlik hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish.

Mazkur ko‘nikmalar o‘quvchining nafaqat ta’lim jarayonidagi muvaffaqiya-tini, balki kelajakdagi ijtimoiy hayotdagi faolligini ham belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanida muhim

yo‘nalish sifatida keng o‘rganilmoqda. Zokirova O. I. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida talqin etilib, ularni shakl-lantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy asoslab berilgan. Muallif bu jarayonda ta’lim muhitining ijobiyligi, o‘qituvchi shaxsining namunaviy roli hamda tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi.Xalqaro ilmiy tajribada ham mazkur masalaga katta e’tibor qaratilgan. Xususan, Bisquerra R. tomonidan ishlab chiqilgan emotsional ta’lim konsepsiyasida ijtimoiy-emotsional rivojlanish shaxsning psixologik barqa-rorligi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining asosi sifatida izohlanadi. Muallif emotsional ong, empatiya va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, “Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) asoslari” manbasida ushbu kompetensiyalarni shakllantirishning tizimli modeli va amaliy mexanizmlari yoritilgan.Mahalliy pedagog olimlar, jumladan, Mavlonova R. va Sayidahmedov N. asarlarida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Ular pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot va ijtimoiy faol-likni rivojlantirishdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Azamov U. Y. esa ijtimoiy intellektni rivojlantirish orqali o‘quv-chilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslab beradi.So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, Nurmaxmatov Lutfulla tomonidan ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ishlarda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son1Qonunida ham ta’lim jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, jumladan, ijtimoiy-emot-

sional kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa mazkur yo‘nalishning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot jarayonida ma’lumotlar pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va suhbat usullari orqali yig‘ildi. O‘quv-chilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari darajasi maxsus diagnostik mezonlar asosida baholandi. Olingan natijalar qiyosiy va statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ularning o‘zgarish dinamikasi hamda samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.T

TAHLIL VA NATIJALAR. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning pedagogik ahamiyatiIjtimoiy-emotsional kompetensiyalar zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchining har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchining nafaqat bilim olish jara-yonidagi faolligini, balki uning shaxs sifatida shakllanishini ham belgilaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, ijti-moiy-emotsional rivojlanish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Avvalo, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu esa ularning o‘quv faoliyatida mustaqillik, mas’uliyat va intizom kabi muhim sifatlarning shakl-lanishiga xizmat qiladi. O‘z his-tuyg‘ularini anglay oladigan va ularni samarali boshqara oladigan o‘quvchi dars jarayonida faolroq ishtirok etadi, qiyinchiliklarga bardosh bilan yondashadi hamda o‘z maqsadlariga erishishda qat’iyatlilik namoyon etadi.Shuningdek, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar boshqalar bilan samarali muloqot qilish, o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash hamda suhbatdoshni diqqat bilan tinglash ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa jamoada ishlash, hamkorlikni rivoj-lantirish va o‘zaro hurmat

asosida munosabatlar o‘rnatishga xizmat qiladi. Natijada sinfda sog‘lom ijtimoiy- psixologik muhit shakllanadi.

Pedagogik jihatdan yana bir muhim jihat – ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning o‘quvchilarning emot-sional barqarorligini ta’minlashdagi o‘rnidir. Zamonaviy sharoitda o‘quvchilar turli stressli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari rivojlangan o‘quvchilar bunday holatlarda o‘zini tutish, muammolarni konstruktiv hal etish va emotsional holatini boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bu esa ularning psixologik salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.Bundan tashqari, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘quvchilarda empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Ushbu fazilatlar jamiyatda uyg‘un yashash, turli mada-niyat va qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan mazkur kompetensiyalar nafaqat individual rivojlanish, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega.Pedagogik jarayonda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish o‘qituvchining kasbiy mahorati bilan bevosita bog‘liq. O‘qituvchi dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishi, o‘quvchilarni qo‘llab-quv-vatlashi va ularning his-tuyg‘ulariga e’tibor bilan yondashishi zarur. Shu bilan birga, ta’lim jarayoniga interfaol metodlarni samarali joriy etish orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash mumkin.

Umuman olganda, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlani shida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ularni izchil shakllantirish orqali ta’lim jarayoni yanada samarali tashkil etiladi hamda o‘quvchilarning hayotga tayyorgarlik darajasi oshadi. Shu bois zamonaviy peda-gogik faoliyatda mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari rivojlangan o‘quvchilar dars jarayonida faolroq ishtirok etadi, o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi, ijtimoiy muhitga tez moslashadi hamda

turli nizoli vaziyatlarni samarali hal etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Shuningdek, ushbu kompetensiyalar o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish metodlariInterfaol ta’lim metodlari o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Xususan, “Aqliy hujum”, “Bahs-mu-nozara”, “Klaster” va “Insert” kabi usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi.Rolli o‘yinlar va dramatizatsiya o‘quvchilarda empatiya va ijtimoiy vaziyatlarni chuqurroq anglash ko‘nik-masini rivojlantiradi. Konflikt vaziyatlarini sahnalashtirish va turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarga moslashishni o‘rganadi.Guruhli va jamoaviy ishlar o‘quvchilarda hamkorlik, muloqot va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Tadqiqotlar guruhli faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Loyihaviy ta’lim (project-based learning) orqali o‘quvchilar muammolarni hal qilish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va real hayotiy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, “Bugun nimani his qildim?” yoki “Qanday xulosa chiqardim?” kabi savollar orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladi va rivojlanish yo‘llarini aniqlaydi.Tarbiyaviy tadbirlar va ijtimoiy loyihalar, jumladan, volontyorlik faoliyati, ijtimoiy aksiyalar va madaniy tadbirlar o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va empatiya tuyg‘usini rivojlantiradi.

Pedagogik shart-sharoitlarIjtimoiy-emotsional kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun o‘qituvchining yuqori metodik tayyor-garligi, ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda individual yondashuvni ta’minlash muhim hisoblanadi. Shuningdek, pedagoglarning interfaol metodlardan samarali foydalanishi mazkur kompetensiyalarning yuqori darajada rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil

hisoblanadi. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirish tizimli, uzluksiz va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi.Interfaol metodlar, rolli o‘yinlar, guruhli ishlar hamda loyihaviy faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishida samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.Kelgusida ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga yanada katta e’tibor qaratish, mazkur yo‘nalishda ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirish hamda amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zokirova O. I. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent, 2018.
2. Bisquerra R. Emotional Education: Theory and Practice. – Madrid, 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. Mavlonova R. Pedagogika. – Toshkent, 2020.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.
6. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) asoslari. – Toshkent, 2026.
7. O‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.
8. Azamov U. Y. Ta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirish texnologiyasi.
9. Abduxomid o‘g‘li, Nurmaxmatov Lutfulla. “O‘quvchilardagi tipik orfografik xatolarni aniqlash”. 2025.
10. Abduxomid o‘g‘li, Nurmaxmatov Lutfulla. “O‘quvchilardagi tipik orfografik xatolarni aniqlash”. 2025.
11. Nurmaxmatov Lutfulla. “Oliy ta’lim muassasasida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini tako-millashtirish (boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ishi yo‘nalishi misolida)”. Sharq uyg‘onishi: Innovatsion, ta’lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 2021, 1(5), 160–167

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Xakimov Shuxrat Shodiyevich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
«Pedagogika, psixologiya, va ta’lim texnologiyalari» kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy jamiyatdagi amaliy qo‘llanilish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning shakllanish tarixi, uning asosiy algoritmlari, mashinali o‘qitish, chuqur o‘rganish va neyron tarmoqlar kabi muhim tarkibiy qismlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellektning ta’lim, tibbiyot, sanoat, moliya va davlat boshqaruvi sohalarida qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar va muammolar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil hamda empirik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Natijalar sun’iy intellektning samaradorlikni oshirish, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va inson mehnatini optimallashtirishdagi rolini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, etik muammolar, ma’lumotlar xavfsizligi va algoritmik xatoliklar kabi dolzarb masalalar ham tahlil qilindi. Maqola yakunida sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali joriy etish uchun ilmiy, texnologik va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, neyron tarmoqlar, algoritmlar, avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya, chuqur o‘rganish.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы технологий искусственного интеллекта, этапы их развития и практическое применение в современном обществе. Рассматриваются история формирования искусственного интеллекта, ключевые алгоритмы, машинное обучение, глубокое обучение и нейронные сети. Также изучены возможности и проблемы применения искусственного интеллекта в образовании, медицине, промышленности, финансах и государственном управлении. В исследовании использовались методы теоретического анализа, сравнительного анализа и эмпирического наблюдения. Результаты показывают, что искусственный интеллект способствует повышению эффективности, ускорению процессов принятия решений и оптимизации человеческого труда. Наряду с этим анализируются этические проблемы, безопасность данных и алгоритмические ошибки.

Ключевые слова: искусственный интеллект, машинное обучение, нейронные сети, алгоритмы, автоматизация, цифровая трансформация, глубокое обучение.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of artificial intelligence technologies, stages of development, and practical applications in modern society. The study examines the historical development of artificial intelligence, key algorithms, machine learning, deep learning, and neural networks. It also explores opportunities and challenges arising from AI applications in education, healthcare, industry, finance, and public administration. The research applies theoretical analysis, comparative analysis, and empirical observation methods. The results demonstrate that AI significantly improves efficiency, accelerates decision-making processes, and optimizes human labor. At the same time, ethical concerns, data security issues, and algorithmic biases are critically discussed. The study concludes that improving scientific, technological, and legal mechanisms is essential for effective AI implementation.

Keywords: artificial intelligence, machine learning, neural networks, algorithms, automation, digital transformation, deep learning.

Kirish. So‘nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarda, xususan, ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga raqamli vositalar va aqlli tizimlarni joriy etib, ta'lim samaradorligini oshirish hamda individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa, bir tomondan, ta'lim samaradorligini oshirishga, ikkinchi tomondan, talabalar uchun interaktiv va individual yondashuv imkonini yaratmoqda. O'zbekistonda ham Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt sohasida rivojlanish kuzatilmoqda. Xususan, 2020-yilda "Sun'iy intellekt konsepsiyasi" tasdiqlanib, bu yo'nalishda qator ilmiy va amaliy chora-tadbirlar belgilab berildi. Shu bois, SI texnologiyalarining oliy ta'limga integratsiyalashuvi zamon talabi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda

sun’iy intellekt yordamida individual o‘quv yo‘nalishlari, avtomatik baholash tizimlari, raqamli murabbiylar va tahminiy tahlil imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu esa nafaqat texnologik yangilik, balki ta’lim tizimi transformatsiyasining muhim omiliga aylanmoqda.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lgan SI texnologiyalarining ta’lim tizimida joriy etilishi inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy kasb-hunar egallash va global raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda OpenAI, Google AI, Coursera, Duolingo kabi platformalar orqali SI asosidagi ta’lim xizmatlari jadal sur’atlarda ommalashmoqda. O‘zbekiston bu borada orqada qolmasligi, balki ilg‘or texnologiyalarni o‘z milliy ta’lim tizimiga mos shaklda joriy etishi zarurdir.

Dunyo hamjamiyati SI va ta'lim tutashuvida paydo bo'layotgan imkoniyat va xatarlarga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Xususan, UNESCO 2021-yilda ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha siyosat ishlab chiquvchilarga mo'ljallangan maxsus ko'rsatmalarni e'lon qildi. Ushbu hujjatda sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida to'laqonli foydalanish uchun ularni o'qituvchilar faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida ko'rish, lekin ularning o'rnini bosmaslik prinsipiga rioya etish lozimligi ta'kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi . Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonida turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Jumladan, mashinaviy o'rganish algoritmlariga asoslangan dasturiy tizimlar talabalarga moslashtirilgan topshiriq va tavsiyalar berishga xizmat qilmoqda, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari matnli topshiriqlarni avtomatik baholash va tahlil qilishda qo'llanilmoqda, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) platformalari esa laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy tajribalarni simulyatsiya qilish orqali o'quv jarayonini boyitmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) tahlili vositalari talabalarning o'zlashtirish darajasi va ehtiyojlarini aniqlash, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsatish imkonini bermoqda. Bu kabi yechimlar professor-o'qituvchilarga

dars jarayonini individuallashtirish, o'quv yuklamasini optimallashtirish va talabalar bilan muntazam teskari aloqani ta'minlashda ko'maklashadi.

So'nggi yillardagi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, COVID-19 pandemiyasi davrida o‘quv jarayonlari majburan onlayn shaklga ko‘chgach, sun’iy intellektga asoslangan vositalarga ehtiyoj sezilarli oshdi. Masofaviy va gibrid ta’lim sharoitida talabalarning o‘zlashtirishini kuzatish, ularga individual yondashuvni saqlash va onlayn muloqotda faol ishtirokini ta’minlash uchun AI texnologiyalari muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Bu davr tajribasi ko‘plab ta’lim muassasalarini sun’iy intellektga oid platformalar (masalan, avtomatik ravishda savollarga javob beruvchi chatobotlar, plagiatni aniqlovchi dasturlar, virtual laboratoriyalar) joriy etishga undadi. Ta'kidlash joizki,

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida SI texnologiyalaridan foydalanish hozircha ayrim loyihalar va tashabbuslar doirasidagina kuzatilmoqda (ayrim universitetlarda avtomatlashtirilgan test tizimlari, chatobot-assistentlar va boshqalar joriy qilinmoqda), ammo ular hali keng qamrovda tatbiq etilgani yo‘q. Jahon tajribasiga nazar tashlansa, ko'plab yetakchi oliy o'quv yurtlari SI yordami bilan ta'limni modernizatsiya qilishga erishayotgani kuzatiladi. Masalan, AQShning Georgia Tech universitetida sun'iy intellekt asosidagi virtual yordamchi (chatbot) talabalarga murabbiylik qilib, ularning savollariga javob beradi va o'quv jarayonida ko'maklashadi. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida esa bir qator universitetlar repetitor-chatbotlar, adaptiv o'quv tizimlari hamda bilim va ko'nikmalarni avtomatlashtirilgan baholash platformalarini amaliyotga tatbiq etmoqda. Ushbu ilg'or tajribalar sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonini boyitish, differensiallash va samaradorligini oshirish real amaliy natijalar berayotganini tasdiqlaydi. Shu ma’noda, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada mazkur jarayonning hozirgi holati, xorijiy tajriba va tendensiyalar tahlil qilinadi; milliy sharoitda yuzaga kelayotgan muammolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar va istiqbolli

yo‘nalishlar taklif etiladi. Adabiyotlar tahlili Sun'iy intellektning ta'lim sohasiga tatbiqi bo'yicha so'nggi yillarda ko'plab xalqaro ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy manbalarda SI texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi natijasida o'quv sifatini oshirish, ta'limni individuallashtirish va boshqaruv samaradorligini yaxshilash imkoniyatlari keng yoritilgan. Jumladan, St-Hilaire va hamkorlarining tadqiqotida sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'quv platformasi sinovdan o'tkazilib, an'anaviy usulga nisbatan talabalar natijalarini 2,5 barobar yaxshilagani aniqlangan. AI yordami bilan har bir talabaning ehtiyojiga mos o'quv mazmunini taqdim etish hamda ularga real vaqt rejimida teskari aloqa berish ta'limda teng imkoniyatlarni ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlanmoqda. Xususan, individual o'quv marshrutlarini avtomatik tuzib beruvchi tizimlar orqali ilg'or talabalar zerikib qolmasdan, qiynalayotganlarga esa qo'shimcha ko'mak berish imkoni yaratiladi. Shu bois ko'plab olimlar SI asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimlarini an'anaviy "barchaga bir xil" yondashuvga muqobil, adolatli ta'lim vositasi sifatida e'tirof etadilar. Sun'iy intellekt nafaqat o'quv jarayonini, balki ta'lim muassasalarining boshqaruv va xizmat ko'rsatish jabhalarini ham o'zgartirmoqda.

Masalan, oliy o'quv yurtlari qabul komissiyalari abiturientlar to'g'risidagi katta ma'lumotlarni tahlil qilib, AI yordamida ularning o'qish muvaffaqiyatini bashorat qilishga harakat qilmoqda. Xorijiy tajribada bu borada ijobiy natijalar kuzatilgan: AQSh va Kanada oliygohlari o'rtasida 2024-yilda o'tkazilgan so'rovnomada administrator va professoro'qituvchilarning 80% sun'iy intellektni joriy etish mehnat samaradorligini oshirishiga umid bildirishgan, 85% esa yaqin 2 yilda talabalar qabulini boshqarish va ularning muvaffaqiyatini kuzatishda prognozli AI modellari qo'llanilishini kutmoqda. Demak, dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari raqamli transformatsiyada AI imkoniyatlaridan foydalanishga tobora ko'proq intilmoqda. Huddi shunday, ta'lim texnologiyalari sohasidagi yetakchi kompaniyalardan birining rahbari L. Ipsen sun'iy intellektni oliy ta'limda "o'yinni o'zgartiruvchi" kuch sifatida e'tirof etib, AI yordamida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini optimallashtirish va har bir o'quvchiga shaxsiy yondashuvni ta'minlash

mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq, sun'iy intellektni ta'limga integratsiya qilishda qator muammolar ham mavjud. Eng avvalo, bu texnologiyalarni joriy etish jarayonida pedagoglarning rolini saqlash va ularni yangi sharoitga moslashtirish masalasi muhimdir.

Natijalar va muhokama. Xalqaro tavsiyalarda SI texnologiyalari o'qituvchini to'liq almashtirmasligi, balki uning ishini samarali qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. O'qituvchilarni AI vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning texnologiyaga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish talab etiladi. Aks holda, ta'lim jarayonida insan omilining qisqarib ketishi va talaba-o'qituvchi o'zaro aloqasi susayishi xavfi mavjud. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt tizimlarining xatolikka moyilligi, ularning qarorlari shaffof emasligi va ma'lumotlar bazalaridagi noxolislik tufayli yuzaga keladigan bias xavfi qayd etiladi. Masalan, AQSh oliy ta'lim tizimidagi mutaxassislar so'rovlarida respondentlarning 49% SI modellardagi tarafkashlikdan xavotir bildirgan, 59% esa ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi borasida tashvishda ekanligini aytgan. Ba'zi tadqiqotchilar sun'iy intellekt asboblari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va akademik halollikka putur yetkazishi mumkinligidan ogohlantiradi. Masalan, talabalarning o'zlari orasida ChatGPT kabi AI vositalaridan nojo'ya foydalanish holatlari kuzatilmoqda, bu esa baholashda akademik halollik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Shu bois, xalqaro darajada sun'iy intellektdan ta'limda axloqiy va mas'uliyatli foydalanish masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda (masalan, UNESCOning 2021-yilgi ko'rsatmalarida bu jihatlar aks ettirilgan). O‘zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda ta'limda raqamli va intellektual texnologiyalar bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda yuqorida tilga olingan global tendensiyalar milliy kontekstda ham o'z tasdig'ini topayotganini ko'rish mumkin. Masalan, Sodikova va Muxtorova (2025) o'z ishlarida O'zbekiston ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonini tahlil qilib, hududlar o'rtasida infratuzilma va raqamli savodxonlik darajasidagi tafovutlar ta'lim sifati va imkoniyatlariga ta'sir

ko'rsatayotganini qayd etganlar. Xususan, qishloq joylarda internet va kompyuter vositalari cheklangani bois raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati past, shaharlarda esa nisbatan yuqori bo'lib, bu nomutanosiblik raqamli tafovutni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ushbu tadqiqotda pedagog va talabalarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi ham asosiy muammolardan biri ekanligi qayd etilgan — ko‘plab o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yetarli malakaga ega emas. Ta’lim sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmi ham cheklangani bois, yangi texnologiyalarni joriy etish sur’ati sekinlashmoqda. Shu tariqa, mahalliy tadqiqotchilar sun'iy intellektni ta'limga joriy etishda infratuzilmani rivojlantirish, pedagoglar malakasini oshirish, sohaga yetarli investitsiya ajratish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozimligi haqida xulosa qilmoqdalar. Bundan tashqari, mahalliy olimlar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va SI yordamida ta'limni rivojlantirishga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, N. Sodiqova va Z. Muxtorova 2022–2025-yillarda chop etgan maqolalarida ta'limda iSpring kabi interaktiv dasturlarni qo'llash metodikasini ishlab chiqdilar hamda sun'iy intellektdan foydalangan holda talabalar kompetensiyasini oshirish usullarini taklif etdilar[22].

Shu bilan birga, Kendjayeva D.X. (2024) zamonaviy oliy ta’lim jarayonida raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tajribalarini umumlashtirib, ularning samarali joriy etilishiga doir tavsiyalar bergan. Bu kabi mahalliy tadqiqotlar sun'iy intellekt va raqamli innovatsiyalarni ta'limda qo'llash bo'yicha ilmiy asos va tavsiyalar bazasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda katta salohiyatga ega, ammo ularni joriy etishda texnologik, metodik va ijtimoiy muammolar majmuasiga kompleks yondashish talab qilinadi – ayniqsa, uni muvaffaqiyatli joriy etish uchun zarur infratuzilma va kadrlar salohiyatini shakllantirish, metodik ta'minotni rivojlantirish hamda tegishli huquqiy-me'yoriy bazani yaratish muhimligi alohida qayd etiladi.

Masalaning qo‘yilishi Oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy jihatdan imkoniyatlari keng bo‘lsa-da, amaliyotda O‘zbekistonda bu jarayon hali to‘liq shakllanmagan, natijada SI bo'yicha mavjud tashabbuslar hali yagona tizim shaklida emas, balki alohida loyihalar darajasida qolmoqda. Asosiy muammo shundaki, mavjud oliy ta’lim tizimi SI texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish darajasida transformatsiyadan o'tmagan.

Shu bois, mazkur tadqiqot doirasida quyidagi asosiy ilmiy savollarga javob izlanadi:

• O‘zbekiston oliy ta’limida SI texnologiyalaridan foydalanish darajasi qanday? Mazkur texnologiyalar qaysi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda va ayni paytda ularning tarqalganlik darajasi qanday?

• Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga joriy etishda qanday muammolar va to‘siqlar mavjud? Infratuzilma, kadrlar malakasi, til masalalari, huquqiy-me’yoriy baza hamda boshqa omillardan qaysilari asosan to‘sqinlik qilmoqda?

• Ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llari qanday? Chet el tajribasi va milliy sharoitdan kelib chiqqan holda qanday yechim va mexanizmlar eng ma'qul hisoblanadi?

• SI texnologiyalari yordamida ta’lim sifati va baholash tizimini qanday takomillashtirish mumkin? Mazkur texnologiyalar o‘quv jarayonining qaysi jihatlariga eng katta ta’sir ko‘rsatishi va natijadorlikni oshirishi mumkin?

Shuningdek, ushbu tadqiqot sun’iy intellektni joriy etish natijasida yuzaga kelishi ehtimoli bo‘lgan ijtimoiy, madaniy va pedagogik o‘zgarishlarni ham qamrab oladi. Sun’iy intellektning afzalliklari bilan birga, ta’lim jarayonida insoniy omilning kamayishi, talabalarning mustaqil fikrlash va akademik mas’uliyat darajasining pasayishi, shuningdek, raqamli tafovut tufayli intellektual tengsizlik kuchayishi kabi xavflar mavjud. Masalan, ayrim ekspertlar AI vositalaridan keng foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash va mas'uliyat hissini susaytirishi mumkinligidan ogohlantirmoqda. Xuddi shuningdek, jamiyatda raqamli imkoniyatlarga ega bo'lganlar va ulardan cheklanganlar o'rtasidagi tafovut kengayib,

bu intellektual tengsizlikni kuchaytirishi ehtimoli bor. Shunday ekan, sun'iy intellektni joriy etishda uning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini har tomonlama inobatga olish muhimdir. Aks holda, sun’iy intellektdan foydalanish tashabbuslari tizimli natija bermasligi va ta’lim sifatida kutilgan yutuqlarga erishilmasligi mumkin. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda yurtimizda olib borilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar juda kam. Mavjud ishlanmalarda sun'iy intellektning ayrim jihatlari yoki alohida tajribalar ko'proq yoritilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimi misolida masala hali to'liq o'rganilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va ahamiyatini belgilaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ–4749-sonli qarori. “Sun’iy intellektni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. UNESCO (2021). AI and Education: Guidance for Policy-makers.

3. Bakar, N. A., & Mohamed, N. (2022). AI-Driven Adaptive Learning in Higher Education. Journal of Learning Analytics.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ma’lumotlari (2023).

5. Bahromov A.A. (2022). Kompyuter animatsiyasi fanini o‘qitishda SCAMPER-kreativ metodidan foydalanish. Ilmiy-uslubiy konferensiya, Toshkent.

6. Bahromov A.A., Ibodullayev S.N. (2020). A Variety of Virtual Reality Implementations For Creative Learning and 5 Ways to Implement Virtual Reality in The Learning Process. IJEAIS, 4(9), 60-63.

7. Бекназарова С.С., Бахромов А.А., Ибодуллаев С.Н. (2019). Графовая модель описания процессов электронной торговой площадки. Social and Economic Aspects of Education in Modern Society, Vol.1, 25 May 2019, Warsaw, Poland.

8. Бекназарова С.С., Бахромов А.А., Ибодуллаев С.Н. (2019). Описание процессов электронной торговой площадки графовой моделью. Научные разработки: Евразийский регион, 20 May 2019, Москва.

9. Abdullaev Z., Kendjaeva D., & Khikmatullaev S. (2019). Innovative approach of distance learning in the form of online courses. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-3). IEEE. doi: 10.1109/ICISCT47635.2019.9011821.

10. Кенджаева Д.Х. (2024). Использование цифровых технологий и технологий искусственного интеллекта в современном образовании. Интернаука: электрон. научн. журн., 2024, № 6(323).

Internet saytlari:

www.ziyo.net

www.kutubxono.uz

MAXSUS TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALARDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Xasanova Irodaxon Ikromjon qizi

Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi

Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv ta’lim muhitida bolalarning individual psixologik xususiyatlari, ta’limiy ehtiyojlari va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini hisobga olish masalalari tahlil qilingan. Psixolog, pedagog, ota-ona va tengdoshlar o‘rtasidagi samarali hamkorlik bolaning ta’lim jarayoniga moslashuvi, muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchining ortishi hamda jamoaga integratsiyalashuvida muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, psixologik diagnostika, individual yondashuv, pedagogik korreksiya, ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvini samarali tashkil etish uchun kompleks psixologik-pedagogik yordam tizimini shakllantirish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maxsus ta’lim ehtiyojlari, ijtimoiylashuv, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, individual yondashuv, psixologik yordam, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, inklyuziv muhit, hamkorlik, kommunikativ ko‘nikmalar.

Аннотация. В статье рассматривается значение психолого-педагогической поддержки в процессе социализации детей с особыми образовательными потребностями. Анализируются вопросы учета индивидуально-психологических особенностей, образовательных

потребностей и возможностей социальной адаптации детей в условиях инклюзивного образования. Особое внимание уделяется взаимодействию психолога, педагога, родителей и сверстников как важному фактору адаптации ребенка к образовательной среде, развития коммуникативных навыков, повышения уверенности в себе и интеграции в коллектив. Раскрываются возможности использования психологической диагностики, индивидуального подхода, педагогической коррекции, социально-эмоциональной поддержки и современных педагогических технологий, основанных на сотрудничестве. Обосновывается необходимость формирования комплексной системы психолого-педагогического сопровождения для эффективной социализации детей с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, социализация, психолого-педагогическая поддержка, социальная адаптация, индивидуальный подход, психологическая помощь, педагогическая поддержка, социально-эмоциональное развитие, инклюзивная среда, сотрудничество, коммуникативные навыки.

Abstract. The article examines the importance of psychological and pedagogical support in the socialization of children with special educational needs. It analyzes the issues of considering children’s individual psychological characteristics, educational needs, and opportunities for social adaptation in an inclusive education environment. Particular attention is paid to cooperation among psychologists, teachers, parents, and peers as an important factor in children’s adaptation to the educational environment, development of communication skills, enhancement of self-confidence, and integration into the peer group. The article highlights the potential of psychological assessment, individualized approaches, pedagogical correction, social-emotional support, and collaborative educational technologies. The necessity of developing a comprehensive system of psychological and pedagogical support to ensure effective socialization of children with special educational needs is substantiated.

Keywords: inclusive education, special educational needs, socialization, psychological and pedagogical support, social adaptation, individualized approach, psychological assistance, pedagogical support, social-emotional development, inclusive environment, collaboration, communication skills.

Kirish. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning nafaqat ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, balki ularning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlashdan iborat. Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda bolaning individual psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, tengdoshlari bilan munosabatlari, pedagogik yondashuvlar hamda ta’lim muhitining imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari va munosabatlar tizimini o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, u o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his qilish, tengdoshlari bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish, o‘z fikrini ifodalash va turli ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda ushbu jarayon ayrim hollarda qo‘shimcha psixologik va pedagogik yordamni talab qiladi. Shuning uchun inklyuziv ta’lim sharoitida ta’lim berish bilan bir qatorda bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga ham alohida e’tibor qaratish zarur.

Asosiy qism. Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi bolaning mavjud imkoniyatlarini aniqlash, uning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni kamaytirish va ta’lim hamda ijtimoiy muhitga moslashishi uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Bunday qo‘llab-quvvatlash bir martalik yordam emas, balki bolaning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatib borish, ehtiyojlarini aniqlash, individual yordam strategiyasini ishlab chiqish va uning natijalarini baholashni nazarda tutuvchi uzluksiz jarayondir. Psixologik qo‘llab-quvvatlashning muhim

yo‘nalishlaridan biri bolaning emotsional holatini barqarorlashtirishdir. Ayrim bolalarda yangi muhitga moslashish, tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, o‘z fikrini bildirish yoki jamoaviy faoliyatda ishtirok etish bilan bog‘liq psixologik qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda psixologik suhbat, kuzatish, individual va guruhiy mashg‘ulotlar, kommunikativ treninglar hamda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash esa ta’lim jarayonini bolaning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashtirishni talab etadi. Bunda topshiriqlarning murakkablik darajasini moslashtirish, qo‘shimcha tushuntirish va ko‘rsatmalardan foydalanish, vizual materiallarni qo‘llash, topshiriqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish hamda bolaning kichik yutuqlarini muntazam rag‘batlantirish muhimdir. Pedagogning vazifasi faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, bolaning jamoaga qo‘shilishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi va o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi uchun qulay pedagogik muhit yaratishni ham qamrab oladi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida **individual yondashuv** psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy tamoyillaridan biridir. Har bir bolaning rivojlanish sur’ati, qiziqishlari, qobiliyatlari, muloqot imkoniyatlari va ta’limiy ehtiyojlari turlicha bo‘lishi sababli barcha bolalarga bir xil yondashuvdan foydalanish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Individual yondashuv orqali bolaning kuchli tomonlariga tayanish, mavjud qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish va mustaqil faoliyatga tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayonida **psixologik diagnostika** ham muhim vosita hisoblanadi. Kuzatish, suhbat, ota-onalar va pedagoglar bilan intervyu, bolaning faoliyat mahsullarini tahlil qilish hamda zarur hollarda psixologik metodikalardan foydalanish orqali bolaning emotsional holati, kommunikativ imkoniyatlari, ijtimoiy moslashuvi va rivojlanish dinamikasi haqida ma’lumot olish mumkin. Biroq diagnostika natijalari bolani cheklovchi yorliq sifatida emas, balki unga mos individual yordam strategiyasini belgilash vositasi sifatida qo‘llanishi

lozim. Samarali qo‘llab-quvvatlash tizimida **ijtimoiy-emotsional rivojlanish**ga alohida e’tibor berish zarur. Bola o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqa insonlarning emotsional holatini tushunish, empatiya bildirish va ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda munosabat bildirishni o‘rganishi uning jamoaga moslashuvini yengillashtiradi. Shu nuqtai nazardan, emotsiyalarni tanish, rolli o‘yinlar, vaziyatli mashqlar, hikoyalar asosida muhokama va hamkorlikdagi topshiriqlardan foydalanish ijobiy natija berishi mumkin. Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini oshirish uchun uni **bosqichma-bosqich model** asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda bolaning ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda individual psixologik-pedagogik yordam dasturi ishlab chiqiladi. Uchinchi bosqichda individual va guruhiy mashg‘ulotlar, pedagogik moslashtirish hamda ijtimoiy integratsiyaga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi. To‘rtinchi bosqichda bolaning rivojlanish dinamikasi baholanib, zarur hollarda qo‘llab-quvvatlash strategiyasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi. Shunday qilib, maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi faqat ularni umumiy ta’lim muhitiga jalb etish bilangina cheklanmaydi. Haqiqiy inklyuziya bolaning jamoada o‘zini xavfsiz va qadrli his qilishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi, ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi va o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olishini ta’minlashni nazarda tutadi. Buning uchun psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordamning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimini yaratish muhimdir.

Xulosa. Mavzudan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. **Individual qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.** Har bir bolaning psixologik, pedagogik va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, individual rivojlanish va qo‘llab-quvvatlash rejasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

2. **Psixologik diagnostikani tizimli tashkil etish.** Bolaning emotsional holati, kommunikativ ko‘nikmalari, ijtimoiy moslashuvi va rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatib borish hamda diagnostika natijalariga asoslangan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish lozim.

3. **Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish.** Ta’lim jarayoniga empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish, his-tuyg‘ularni anglash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus mashg‘ulotlarni kiritish tavsiya etiladi.

4. **Tengdoshlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.** Juftlik va kichik guruhlarda ishlash, jamoaviy o‘yinlar, rolli mashqlar va hamkorlikka asoslangan topshiriqlardan muntazam foydalanish orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mumkin.

5. **Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.** Ota-onalarga bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar berish, maslahatlar va treninglar tashkil etish zarur.

Bizning fikrimizcha, inklyuziv ta’limda maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish masalasiga faqat ta’lim berish jarayoni sifatida emas, balki bolaning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit psixologik-pedagogik jarayon sifatida yondashish zarur. Haqiqiy inklyuziya bola o‘zini jamoaning teng huquqli a’zosi sifatida his qilishi, tengdoshlari bilan erkin muloqot qilishi, o‘z fikrini ifodalashi va ta’lim jarayonida faol ishtirok eta olishi bilan namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmon. Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmon. Toshkent, 2023.

3. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. Paris: UNESCO, 2017.

4. UNESCO. Inclusion and Education: All Means All. Global Education Monitoring Report 2020. Paris: UNESCO, 2020.

5. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Paris: UNESCO, 1994.

6. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2002.

7. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

AMALIYOTCHI PSIXOLOG-O‘QITUVCHILARDA 4K KO‘NIKMALARI VA IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Xudoyberdiyeva Jumagul Amanovna
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada amaliyotchi psixolog-o‘qituvchilarda 4K ko‘nikmalari — tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan. 4K ko‘nikmalari va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning o‘zaro bog‘liqligi, ularni shakllantirishga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar tahlil qilingan. Malaka oshirish jarayonida muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar, guruhiy topshiriqlar, keyslar, ijodiy mashqlar va refleksiv faoliyatdan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Mazkur yondashuvlarning amaliyotchi psixolog-o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, samarali muloqoti, emotsional holatlarni anglash va boshqarishi hamda kasbiy hamkorligini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. 4K ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, ijtimoiy-emotsional kompetensiya, amaliyotchi psixolog-o‘qituvchi, malaka oshirish, kasbiy kompetentlik, funksional savodxonlik, refleksiya, interfaol metodlar.

Аннотация. В статье освещаются методические основы развития навыков 4К — критического мышления, креативности, коммуникации и сотрудничества, а также социально-эмоциональных компетенций у практикующих педагогов-психологов. Проанализирована взаимосвязь навыков 4К и социально-эмоциональных компетенций, а также педагогико-психологические факторы, влияющие на их формирование. Обоснованы возможности использования проблемных ситуаций, интерактивных методов,

групповых заданий, кейсов, творческих упражнений и рефлексивной деятельности в процессе повышения квалификации. Показано значение данных подходов в развитии самостоятельного мышления, эффективной коммуникации, способности осознавать и регулировать эмоциональные состояния, а также профессионального сотрудничества практикующих педагогов-психологов.

Ключевые слова: навыки 4К, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, социально-эмоциональная компетентность, практикующий педагог-психолог, повышение квалификации, профессиональная компетентность, функциональная грамотность, рефлексия, интерактивные методы.

Abstract. The article examines the methodological foundations for developing 4C skills—critical thinking, creativity, communication, and collaboration—as well as social-emotional competencies among practicing teacher-psychologists. The interrelationship between 4C skills and social-emotional competencies, along with the pedagogical and psychological factors influencing their development, is analyzed. The article substantiates the use of problem-based situations, interactive methods, group tasks, case studies, creative exercises, and reflective activities in the professional development process. It also highlights the importance of these approaches in developing independent thinking, effective communication, the ability to recognize and regulate emotional states, and professional collaboration among practicing teacher-psychologists.

Keywords: 4C skills, critical thinking, creativity, communication, collaboration, social-emotional competence, practicing teacher-psychologist, professional development, professional competence, functional literacy, reflection, interactive methods.

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida pedagog va psixolog faoliyatining mazmuni sezilarli darajada o‘zgarib, undan nafaqat nazariy bilim, balki murakkab kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, samarali muloqot o‘rnatish va

jamoa bilan ishlash qobiliyati ham talab etilmoqda. Ayniqsa, amaliyotchi psixolog-o‘qituvchi faoliyatida insonlar bilan bevosita ishlash ustuvor o‘rin tutgani sababli kasbiy bilimlarni amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash, o‘z emotsiyalarini boshqarish, suhbatdoshning hissiy holatini anglash va vaziyatga mos pedagogik-psixologik yondashuvni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan 4K ko‘nikmalari va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni bir-biridan ajratmagan holda rivojlantirish malaka oshirish jarayonining muhim vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Asosiy qism. 4K modeli tarkibidagi tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalari amaliyotchi psixolog-o‘qituvchining kasbiy faoliyatida o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi bilan bog‘liq muammoli vaziyatni hal etishda mutaxassis, avvalo, mavjud ma’lumotlarni tahlil qiladi, muammoning sabablarini aniqlaydi va turli yechimlarni taqqoslaydi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Muammoni hal etishning yangicha va individual usullarini ishlab chiqishda kreativlik, o‘quvchi, ota-ona va pedagoglar bilan samarali munosabat o‘rnatishda kommunikatsiya, murakkab vaziyatlarni hamkasblar bilan birgalikda hal etishda esa hamkorlik ko‘nikmasi namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar esa mazkur jarayonning psixologik asosini tashkil etadi. Mutaxassis o‘zining hissiy holatini anglamasdan yoki uni boshqara olmasdan turib, boshqa insonning emotsional kechinmalarini to‘g‘ri tushunishi va unga samarali yordam ko‘rsatishi qiyin. Shu sababli o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya, ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, munosabatlarni samarali tashkil etish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar 4K ko‘nikmalari bilan uzviy aloqada rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

4K va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi ketma-ketlikda ko‘rish mumkin: **vaziyatni anglash → tahlil qilish → hissiy holatni boshqarish → muqobil yechimlarni ishlab chiqish → samarali muloqot → hamkorlikda qaror qabul qilish → natijani baholash va refleksiya**. Ushbu jarayon amaliyotchi psixolog-o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi real vaziyatlarga mos keladi va funksional savodxonlikning amaliy mazmunini ochib beradi.

Muammoli vaziyatlardan foydalanish, ayniqsa, tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli qaror qabul qilishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, maktab psixologi oldiga o‘quvchining darsdagi faolligi pasaygani, tengdoshlari bilan muloqotida qiyinchilik kuzatilayotgani yoki ota-ona bilan pedagog o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgani haqida vaziyat qo‘yiladi. Tinglovchilar vaziyatning ehtimoliy sabablarini aniqlaydilar, muammoni hal etishning bir nechta variantlarini ishlab chiqadilar va har bir yechimning mumkin bo‘lgan natijalarini muhokama qiladilar. Bunday topshiriq bir vaqtning o‘zida tahliliy fikrlash, kreativ yondashuv, kommunikativ faoliyat va hamkorlikni talab qiladi.

Guruhiy ishlar ham 4K ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Guruhdagi har bir ishtirokchiga alohida vazifa berish, fikrlarni umumlashtirish va yakuniy qarorni birgalikda ishlab chiqish hamkorlik kompetensiyasini mustahkamlaydi. Bunday faoliyat davomida turli fikrlarni tinglash, o‘z nuqtayi nazarini asoslash, kelishmovchiliklarni konstruktiv tarzda hal etish va umumiy natijaga yo‘naltirilgan holda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, guruhiy faoliyat shaxslararo munosabatlarni kuzatish va ijtimoiy-emotsional holatlarni anglash uchun ham qulay sharoit yaratadi.

Kommunikatsiya ko‘nikmasini rivojlantirishda rolli mashqlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Masalan, “psixolog–o‘quvchi”, “psixolog–ota-ona”, “psixolog–o‘qituvchi” kabi rollar asosida tashkil etilgan mashqlarda tinglovchilar turli kasbiy vaziyatlarni modellashtiradilar. Bunda nafaqat verbal muloqot, balki tinglash, savol berish, suhbatdoshning hissiy holatini hisobga olish, ovoz ohangi va muloqot uslubini vaziyatga moslashtirishga ham e’tibor qaratiladi. Mashq yakunida ishtirokchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi kommunikativ ko‘nikmalarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Kreativlikni rivojlantirish uchun ochiq turdagi topshiriqlar, muqobil yechimlar ishlab chiqish, psixologik vaziyatga yangi yondashuv taklif qilish, mavjud metodni o‘zgartirib qo‘llash kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Bunday topshiriqlarda natijaning yagona shakli belgilanmaydi. Tinglovchidan muammoga noodatiy

nuqtayi nazardan qarash va o‘z taklifini asoslash talab etiladi. Bu esa kasbiy vaziyatlarda moslashuvchan fikrlash va yangi yechimlarni izlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishda refleksiya muhim o‘rin egallaydi. Mashg‘ulot yakunida “Men ushbu vaziyatda qanday hissiyotga ega bo‘ldim?”, “Qarorimga hissiy holatim qanday ta’sir ko‘rsatdi?”, “Suhbatdoshning holatini qanchalik to‘g‘ri angladim?”, “Keyingi safar nimani boshqacha amalga oshiraman?” kabi savollardan foydalanish tinglovchining o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi. Refleksiya orqali shaxs o‘zining kuchli va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini anglaydi hamda keyingi faoliyatini ongli ravishda rejalashtiradi.

4K ko‘nikmalari va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishda baholash jarayoni ham faqat nazariy bilimlarni aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida tinglovchining muammoni tahlil qilishi, dalillangan fikr bildirishi, yangi yechim taklif qilishi, muloqotga kirishishi, guruh bilan ishlashi va hissiy holatini boshqara olishi ham hisobga olinishi lozim. Shu ma’noda funksional savodxonlikni baholash kasbiy bilimning amaliy vaziyatda qanday qo‘llanayotganini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Amaliyotchi psixolog-o‘qituvchilarning funksional savodxonligi faqat o‘zlashtirilgan bilimlar hajmi bilan emas, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Muammoli vaziyatni to‘g‘ri anglash, zarur ma’lumotlarni ajratish, vaziyatga mos qaror qabul qilish, o‘quvchi yoki ota-ona bilan samarali muloqot qilish va natijani tahlil qilish ushbu savodxonlikning amaliy ko‘rinishlaridir. Shuning uchun malaka oshirish dasturlarida 4K va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni muntazam qo‘llash kasbiy tayyorgarlikning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda amaliyotchi psixolog-o‘qituvchilarda 4K ko‘nikmalari va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish bir-birini

to‘ldiruvchi jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Tanqidiy fikrlash vaziyatni tahlil qilishga, kreativlik yangi yechimlarni izlashga, kommunikatsiya samarali munosabat o‘rnatishga, hamkorlik esa umumiy maqsad asosida birgalikda faoliyat yuritishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar esa ushbu ko‘nikmalarning kasbiy faoliyatda samarali namoyon bo‘lishi uchun zarur psixologik asosni yaratadi. Shu sababli malaka oshirish jarayonini amaliy vaziyatlar, interfaol metodlar, guruhiy faoliyat, refleksiya va faol baholash asosida tashkil etish amaliyotchi psixolog-o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.A. **Ta’limda innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent: Iste’dod, 2008.

2. Muslimov N.A. **Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.** – Toshkent: Fan, 2007.

3. Redecker C. **European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu.** – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.

4. OECD. **The OECD Learning Compass 2030.** – Paris: OECD, 2019–2024

5. Griffin P., McGaw B., Care E. (eds.). **Assessment and Teaching of 21st Century Skills.** – Dordrecht: Springer, 2012.

6. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions // **Child Development.** – 2011. – Vol. 82, No. 1. – P. 405–432.

ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARDA NUTQIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

G‘aniyeva Mahliyo_ – *Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim tizimi yangi bosqichga ko‘tarildi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning muloqotga kirishishi va atrofdagi olamni anglashida

nutqning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy rivojlanishi uchun eng muhim va mas’uliyatli bosqich hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: pedagogik nazariya, nutqiy rivojlanish, maktabgacha yosh davri, nutqiy ko‘nikmalar

Аннотация. Сегодня, в результате реформ, проведенных в сфере образования, система дошкольного образования вышла на новый уровень. Роль речи в формировании ребенка как личности, его коммуникации и понимания окружающего мира несравнима. В частности, дошкольный период считается наиболее важным и ответственным этапом в развитии речи ребенка. Поэтому в современных дошкольных образовательных организациях особое внимание уделяется формированию речевых навыков у детей.

Ключевые слова: педагогическая теория, развитие речи, дошкольный период, речевые навыки

Abstract. Today, as a result of reforms implemented in the education sector, the preschool education system has reached a new level. The role of speech in the formation of a child’s personality, their ability to communicate, and their understanding of the world around them is incomparable. In particular, the preschool period is considered the most critical and significant stage in a child’s speech development. Consequently, modern preschool educational institutions place special emphasis on the development of children’s speech skills.

Keywords: pedagogical theory, speech development, preschool period, speech skills

Kirish. Respublikamizda maktabgacha ta’lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shu bois ta’lim tizimining ilk bo‘g‘iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi

hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o‘quv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafakkurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli'masalalar qamrab olingan. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasini fan sifatida shakllantirishga Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Flerina, O.I.Solovev, A.N.Govzdev va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. Yelizavetta Ivanovna Tixeyeva (1866-1944) talantli pedagog va yirik jamoat arbobi edi. Ye.I.Tixeyeva namunali insonni tarbiyalashga yordam berish va ilk yoshdan boshlab to keksalikka qadar insonni har tomonlama rivojlantirishni ta’minlaydigan pedagogik nazariyani yaratish ustida ishlagan. :::: Ye.I.Tixeyeva o‘z pedagogik faoliyatining dastlabki yillaridayoq bolalarni o‘qitishda ona tilining muhim ahamiyatga egaligiga e’tiborini qaratgan. K.D.Ushinskiy ta’limoti asosida inqilobgacha bo‘lgan davrdayoq ishlab chiqilgan oilada, maktabgacha ta’lim muassasasida, maktabda bolalarga ona tilini o‘qitish jarayonida ularning nutqini rivojlantirish metodikasi Ye.LTixeyevaning pedagogik nazariyasida markaziy o‘rin egallaydi. 1913-yilda Ye.LTixeyevaning «Ona tili va uni rivojlantirish yo‘llari» nomli asari bosilib chiqdi. Tixeyeva nutqni rivojlantirishning ahamiyati, yo‘llari va vositalariga oid muhim masalalami til madaniyatini umumiy rivojlantirish, bolalarda o‘z xalqiga, vataniga muhabbatni tarbiyalash bilan bog‘liqlikda o‘rgangan. Ye.I. Tixeyeva tilni o‘rgatishni ilk bolalik chog‘idan boshlash zarur, deb hisoblagan, chunki to‘g‘ri nutq ko‘nikmasi boshqa ko‘nikmalar singari oilada orttiriladi. Ye.LTixeyevaning fikricha, jviaktabgacha ta’lim muassasasi bolalaming oarcha qobiliyatlarini rivojlantirgan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim qobiliyatiga e’tibomi qaratishi darkor: «Chunki nutqni muntazam o‘rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog‘i lozim»

Nutq bola uchun asosiy muloqot vositasi bo‘lib, uning ijtimoiylashuvi, fikrlashi, his-tuyg‘ularini ifodalashi va atrofdagilar bilan aloqaga kirishishi uchun zarurdir. Bolaning nutqiy rivoji nafaqat lingvistik, balki psixologik, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi bilan ham chambarchas bog‘liq. Maktabgacha ta’lim muassasasining

Ye.I.Tixeyeva tomonidan olg‘a surilgan asosiy vaziiasi - bolalaming barcha qobiliyatlarini, shu jumladan nutqni egallash qobiliyatini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ayni paytda nutqni o‘rgatish bolalar bog'chasidagi butun tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog‘i zarur.

Ikkinchi vazifa - bolalar nutqining shakli, uning kichkintoy atrofdagilardan o‘zlashtirib oladigan narsalar tuzilmasi ustida ishlashidan iborat.

Uchinchi vazifasi - bolalar nutqini rivojlantirish vazifasini tarbiyachilar zimmasiga yuklagan holda pedagog Ye.I.Tixeyeva fikriga ko‘ra, bolalar nutqini rivojlantirishning eng yangi metodlarini o‘zlashtirishi, nafaqat metodik usullami bilishi, balki ulami bolalar bilan muloqot chog‘ida qo‘llay olishi ham darkor. Ye.I.Tixeyeva o‘z metodikasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlar mazmunini hamda nutqning rivojlanishi, og‘zaki nutq rivojlanishi ro‘y beradigan faoliyat turlarini aniqlaydi.

Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishning maqsadi

- Bolaning so‘z boyligini kengaytirish;
- To‘g‘ri va ravon talaffuzga o‘rgatish;
- Fikrini erkin, grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish;
- Muloqotga kirishish, tinglash va savol berish malakalarini rivojlantirish.

Zamonaviy yondashuvlar

Bugungi kundagi ta’lim jarayonida quyidagi yondashuvlar qo‘llanilmoqda:

- **Kompetensiyaviy yondashuv:** bolaning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.
- **Kommunikativ yondashuv:** bolani faol muloqotga jalb qilish orqali nutqiy faoliyatni faollashtirish.
- **Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv:** har bir bolaning qiziqishi, ehtiyoji va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ish yuritish.

Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari

a)Didaktik o‘yinlar:

"Kim tez aytadi?", "Nimani eshitding?", "Rangini top" kabi o‘yinlar orqali bolalar so‘z boyligini oshiradi, eshitganini qayta ifodalashga o‘rganadi.

b) Suhbat va hikoya qilish:

Tarbiyachi bolalar bilan mavzuga oid suhbatlar o‘tkazadi, savollar beradi, bolalar mustaqil fikr bildirishga undaladi.

c) Badiiy adabiyotlar bilan ishlash:

Ertak, hikoya va she’rlarni o‘qish, rollarga bo‘lib aytish bolada ifodali nutq, to‘g‘ri ohang va talaffuz ko‘nikmalarini shakllantiradi.

d) Rolli o‘yinlar va teatr sahnalashtirish:

Bu usul bolani obrazli fikrlashga, his-tuyg‘ularni nutq orqali ifodalashga, jamoada muloqot qilishga o‘rgatadi.

e) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:

Audio ertaklar, videodarslar, multfilmlar orqali bolalar nafaqat eshitish va tushunishni, balki kontekst asosida so‘z tanlashni ham o‘rganadilar.

Tarbiyachining roli

Tarbiyachi — bu nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning nutqiy rivojlanishini boshqaruvchi, unga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi va doimiy rag‘batlantiruvchi shaxsdir. Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, nutqiy mashg‘ulotlarni tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik

Bolalarning nutqiy rivojlanishida oilaviy muhit katta rol o‘ynaydi. Tarbiyachilar ota-onalarga quyidagi tavsiyalarni berishi mumkin:

- Bola bilan doimiy muloqotda bo‘lish;
- Ertak aytish va hikoya qilishga odatlantirish;
- Savol-javob o‘yinlari o‘ynash;
- Bolani tinglashga va fikr bildirishga rag‘batlantirish.

Xulosa

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. O‘yin, badiiy adabiyot, texnologiya, teatr va interaktiv metodlarning uyg‘unligi bolani har tomonlama rivojlantiradi. Natijada bola o‘z fikrini to‘g‘ri, ravon va erkin bayon eta oladigan, faol muloqotga kirishadigan shaxs sifatida shakllanadi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. - Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. - Maktabgacha ta’lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. - Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigan, ma’nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlami asta-sekin tevarakatrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zaxirasiga tayanib bilib oladi. «Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o‘zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari zarur. Til - hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bo‘lishi shart bo‘lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o‘zi nima, biz unda qanday so‘zlayapmiz, biz qanday qilib so‘zlashni o‘rganishimiz haqida esa unchalik ko‘p o‘ylab ham o‘tirmaymiz. Nutq madaniyati - bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya’ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zaxira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha, yoshdagi bolalami jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi. Maktabgacha katta yoshdagi bqlalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko‘tarish maktabgacha ta’lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalaridandir. -

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini. o‘stirishda nutqdialogik va monologik nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. —T., 2001.
2. Sodiqova Sh. A. «Maktabgacha pedagogika». -T.: Fan va taxnologiya, 2017.
3. Mo‘minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o‘rgatish dasturi. -T., 1996.
4. Mirjalilova S., To‘laganova R. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. -T., 2008.
5. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi .-T.,2022-yil 7-iyul.
6. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. –T.,2018-yil 18-iyun.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI

Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o‘g‘li
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari
kafedrasi v.b dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali funksional savodxonlikni rivojlantirishning psixopedagogik asoslari tahlil qilingan. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning o‘quvchilarning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, empatiya ko‘rsatish, samarali muloqotga kirishish, hamkorlik qilish, muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilish hamda ijtimoiy vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur kompetensiyalarning

funksional savodxonlikning amaliy, kommunikativ, muammoli vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashga yo‘naltirilgan jihatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Maqolada ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning refleksiv, faoliyatga yo‘naltirilgan, hamkorlikka asoslangan va vaziyatli yondashuvlari funksional savodxonlikni shakllantirishning muhim psixopedagogik shartlari sifatida ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlashi, muloqot qilishi, muammolarni tahlil qilishi va maqbul yechimlarni tanlashi funksional savodxonlikning muhim ko‘rsatkichlari sifatida tavsiflangan. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional rivojlanish va funksional savodxonlikni o‘zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-emotsional kompetensiya, funksional savodxonlik, psixopedagogik asoslar, emotsional intellekt, ijtimoiy ko‘nikmalar, empatiya, o‘zini boshqarish, muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat, qaror qabul qilish, refleksiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В статье анализируются психолого-педагогические основы развития функциональной грамотности посредством формирования социально-эмоциональных компетенций учащихся. Раскрывается значение социально-эмоциональных компетенций в развитии способности учащихся осознавать и регулировать собственные эмоции, проявлять эмпатию, эффективно взаимодействовать и сотрудничать с другими, принимать обоснованные решения в проблемных ситуациях и адаптироваться к различным социальным условиям. Обосновывается взаимосвязь социально-эмоциональных компетенций с функциональной грамотностью, предполагающей практическое применение знаний и умений в различных жизненных и учебных ситуациях. Рассматриваются рефлексивный, деятельностный, ситуационный и кооперативный подходы как важные психолого-педагогические условия формирования данных компетенций. Особое внимание уделяется развитию самостоятельного мышления, коммуникативных навыков, способности анализировать проблемные ситуации и находить эффективные решения. Сделан вывод о необходимости интеграции социально-эмоционального развития и формирования функциональной грамотности в образовательном процессе.

Ключевые слова: социально-эмоциональные компетенции, функциональная грамотность, психолого-педагогические основы, эмоциональный интеллект, социальные навыки, эмпатия, саморегуляция, коммуникация, сотрудничество, критическое мышление, проблемная ситуация, принятие решений, рефлексия, компетентностный подход.

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical foundations of developing functional literacy through the formation of students’ social-emotional competencies. It examines the role of social-emotional competencies in developing students’ ability to recognize and regulate their emotions, demonstrate empathy, communicate and cooperate effectively, make informed decisions in problematic situations, and adapt to different social contexts. The relationship between social-emotional competencies and functional literacy, which involves the practical application of knowledge and skills in various educational and real-life situations, is substantiated. Reflective, activity-based, situational, and collaborative approaches are considered as important psychological and pedagogical conditions for developing these competencies. Particular attention is paid to the development of independent thinking, communication skills, the ability to analyze problematic situations, and identify effective solutions. The article concludes that integrating social-emotional development with the formation of functional literacy is essential for organizing an effective educational process.

Keywords: social-emotional competencies, functional literacy, psychological and pedagogical foundations, emotional intelligence, social skills, empathy, self-regulation, communication, collaboration, critical thinking, problematic situation, decision-making, reflection, competency-based approach.

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki mazkur bilimlarni turli hayotiy va amaliy vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olishi, muammolarni tahlil qilishi, muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi hamda ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda qaror qabul qilishi muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, funksional savodxonlik shaxsning ta’lim jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayot sharoitlarida samarali qo‘llay olish imkoniyatini ifodalovchi muhim kompetensiyaviy ko‘rsatkich hisoblanadi. Funksional savodxonlikning rivojlanganligi o‘quvchining axborotni tushunishi, undan maqsadli foydalanishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi va kundalik faoliyatida mustaqil hamda mas’uliyatli harakat qila olishi bilan belgilanadi.

Hozirgi ta’lim amaliyotida funksional savodxonlikni rivojlantirish masalasiga faqat akademik bilimlarni o‘zlashtirish nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Chunki o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishi uning psixologik holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, hissiyotlarini boshqara olishi, boshqa insonlarning fikri va kechinmalarini anglay olishi, samarali muloqot qilishi hamda jamoada hamkorlik qila olish qobiliyatlari bilan ham uzviy bog‘liq. Shu jihatdan ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar funksional savodxonlikni shakllantirishning

muhim psixopedagogik omillaridan biri sifatida qaraladi. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish, empatiya namoyon etish, ijobiy munosabatlarni shakllantirish, samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat olib borish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmuini tashkil etadi. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchining nafaqat shaxslararo munosabatlarini, balki bilish faoliyati va o‘quv motivatsiyasini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini boshqara olish, vaziyatni xolis tahlil qilish va muqobil yechimlarni ko‘rib chiqish funksional savodxonlikning amaliy mazmunini to‘ldiradi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar bilan funksional savodxonlik o‘rtasidagi bog‘liqlik, avvalo, bilimni hayotiy vaziyatga ko‘chirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi muayyan axborotni tushunishi bilan bir qatorda, undan muloqot jarayonida foydalanishi, boshqalarning fikrini tinglashi, o‘z nuqtayi nazarini asoslay olishi, kelishmovchiliklarni konstruktiv hal qilishi va vaziyatga mos qaror qabul qilishi zarur. Demak, funksional savodxonlikning amaliy samaradorligi kognitiv jarayonlar bilan bir qatorda ijtimoiy va emotsional jarayonlarning ham rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni funksional savodxonlik bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish o‘quvchining hayotiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, rolli o‘yinlar, guruhiy muhokamalar, hamkorlikdagi loyihalar, refleksiv mashqlar va kommunikativ vaziyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodlar orqali o‘quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilishdan ko‘ra, uni tahlil qilish, baholash, amaliy vaziyatga tatbiq etish va tegishli qaror chiqarish faoliyatiga jalb etiladi. Shuningdek, funksional savodxonlikni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional holatini hisobga olish ta’lim samaradorligini baholashga nisbatan kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda faqat yakuniy natijani aniqlash emas, balki o‘quvchining muammoni anglash, axborotni tahlil qilish, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, o‘z faoliyatini baholash va qaror qabul qilish jarayonlarini ham kuzatish muhimdir. Shu sababli funksional savodxonlikni baholashda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning tegishli indikatorlarini hisobga olish ta’lim natijalarini yanada to‘liqroq aniqlash imkonini beradi.

Mazkur jihatlar ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish va funksional savodxonlikni rivojlantirish jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu asosda ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali funksional savodxonlikni rivojlantirishning

psixopedagogik asoslari, ularning o‘zaro bog‘liqlik mexanizmlari hamda ta’lim jarayonida mazkur jarayonni samarali tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish jarayoni faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan chegaralanmaydi, balki ularning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini izchil shakllantirishni ham talab etadi. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘quvchining o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarishi, boshqalarning kechinmalarini tushunishi, empatiya namoyon etishi, muloqot va hamkorlikka kirishishi, muammoli vaziyatlarda mas’uliyatli qarorlar qabul qilishi uchun zarur psixologik asosni yaratadi. Funksional savodxonlikning mazmuni o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi bilan belgilanar ekan, mazkur jarayonda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar muhim vositachi vazifasini bajaradi. Ayniqsa, muloqot, hamkorlik, o‘zini boshqarish, empatiya va refleksiya kabi kompetensiyalar o‘quvchining axborotni anglash, muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni baholash va amaliy qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida psixologik xavfsiz va hamkorlikka asoslangan muhitni yaratish, o‘quvchining mustaqil fikrlashi va o‘z fikrini erkin ifodalashi uchun sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiq etilgan yondashuvlar asosida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish va funksional savodxonlikni rivojlantirishni alohida jarayonlar sifatida emas, balki yagona pedagogik-psixologik tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Mavzuni o‘rganishdan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. **Ta’lim mazmunini ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar bilan integratsiyalash.** O‘quv dasturlari va dars mazmunida o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni muntazam qo‘llash.

2. **Hayotiy va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni ko‘paytirish.** O‘quvchilarga kundalik hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va o‘z qarorini asoslash imkonini beruvchi funksional topshiriqlardan foydalanish.

3. **Hamkorlikka asoslangan ta’lim metodlarini qo‘llash.** Guruhiy ish, juftlikdagi faoliyat, munozara, rolli o‘yin, loyiha va keys-stadi kabi metodlar orqali o‘quvchilarning muloqot, hamkorlik va nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

4. **Refleksiv faoliyatni tizimli tashkil etish.** Dars yakunida o‘quvchilarning “Men nimani o‘rgandim?”, “Qanday qiyinchilikka duch keldim?”, “Muammoni

qanday hal qildim?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qilishiga sharoit yaratish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish funksional savodxonlikning mazmuniy va amaliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir qatorda o‘quvchining o‘zini anglash, hissiyotlarini boshqarish, muloqot qilish, hamkorlik qilish va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarini izchil rivojlantirish funksional jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева Г.М. Социальная психология: учебник для высших учебных заведений. – Москва: Аспект Пресс, 2001.

2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Смысл; Эксмо, 2005.

3. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. Почему он может значить больше, чем IQ. – Москва: Манн, Иванов и Фербер, 2013.

4. Каримова В.М. Ижтимоий психология: дарслик. – Тошкент: Фан ва технология, 2012.

5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент: Sano-standart, 2015.

6. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2008.

7. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Financial Literacy and Creative Thinking. – Paris: OECD Publishing, 2023.

8. OECD. PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools. – Paris: OECD Publishing, 2024.

O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUV

Soliyev Mirzoxid Tursunxo‘jayevich
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat akademik bilimlarni egallashi emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, muammolarni mustaqil hal qilishi, boshqalar bilan samarali muloqot qilishi va o‘z faoliyatini boshqara olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan funksional savodxonlikni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning o‘rni alohida e’tiborni talab qiladi. Mazkur maqolada o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish va funksional savodxonlikni shakllantirish o‘rtasidagi psixologik-pedagogik bog‘liqlik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-emotsional kompetensiya, funksional savodxonlik, o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya, hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat, xalqaro baholash, PISA, refleksiya.

Аннотация. В современном образовательном процессе важное значение приобретает не только усвоение учащимися академических знаний, но и способность применять их в реальных жизненных ситуациях, самостоятельно решать проблемы, эффективно взаимодействовать с другими и управлять собственной деятельностью. В связи с этим особого внимания требует роль социально-эмоциональных компетенций в развитии функциональной грамотности. В статье анализируется психолого-педагогическая взаимосвязь между развитием социально-эмоциональных компетенций учащихся и формированием функциональной грамотности.

Ключевые слова: социально-эмоциональные компетенции, функциональная грамотность, самосознание, саморегуляция, эмпатия, сотрудничество, коммуникация, критическое мышление, проблемная ситуация, международное оценивание, PISA, рефлексия.

Abstract. In today’s educational process, not only students’ acquisition of academic knowledge but also their ability to apply knowledge in real-life situations, solve problems independently, communicate effectively with others, and regulate their own activities is becoming increasingly important. In this regard, the role of social-emotional competencies in developing functional literacy deserves particular attention. This article analyzes the psychological and pedagogical relationship between the development of students’ social-emotional competencies and the formation of functional literacy.

Keywords: social-emotional competencies, functional literacy, self-awareness, self-regulation, empathy, collaboration, communication, critical thinking, problem situation, international assessment, PISA, reflection.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchining bilimlarni qay darajada o‘zlashtirgani bilan bir qatorda, ushbu bilimlardan kundalik hayotda qanday foydalana olishi ham muhim mezonga aylanib bormoqda. Chunki real hayotdagi muammolar odatda tayyor algoritm asosida berilmaydi. Inson muammoni anglaydi, mavjud vaziyatni tahlil qiladi, kerakli ma’lumotlarni izlaydi, turli yechimlarni ko‘rib chiqadi, o‘z qarorini asoslaydi va uning oqibatlarini baholaydi. Bunday faoliyat esa faqat kognitiv bilimlarni emas, balki shaxsning ijtimoiy va emotsional imkoniyatlarini ham talab qiladi.

Funksional savodxonlik tushunchasining zamonaviy talqinida ham bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni hal qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish muhim o‘rin tutadi. PISA xalqaro baholash dasturi ham o‘quvchilarning bilimlarini oddiy qayta tiklashidan ko‘ra, ularni turli kontekstlarda qo‘llashga qodirligini aniqlashga yo‘naltirilgan. PISA 2022 doirasida

matematika, o‘qish, tabiiy fanlar bilan bir qatorda kreativ fikrlash ham alohida baholash sohasi sifatida kiritilgan [1].

OECDning Ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalar tadqiqotida ushbu ko‘nikmalar qatoriga vazifani bajarish bilan bog‘liq qat’iyat, mas’uliyat va o‘zini nazorat qilish, emotsional boshqaruv, boshqalar bilan munosabatga kirishish, ochiqlik va hamkorlik kabi yo‘nalishlar kiritilgan [2]. Tadqiqot natijalari ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning ta’limiy natijalar va boshqa hayotiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘quvchining o‘z hissiy holatini anglash va boshqarishi, boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini tushunishi, ular bilan samarali munosabat o‘rnatishi, hamkorlik qilishi hamda turli vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qila olishini ta’minlovchi ko‘nikmalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

OECDning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar bo‘yicha konseptual yondashuvida mazkur ko‘nikmalarning rivojlanadigan va ta’lim orqali shakllantiriladigan xususiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlanadi [3]. Ya’ni ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar tug‘ma va o‘zgarmas xususiyat emas, balki tegishli ta’limiy muhit, faoliyat va pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan kompetensiyalardir.

Funksional savodxonlikning shakllanishida, avvalo, **o‘zini anglash** muhim psixologik omillardan biridir. O‘quvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini, qiziqishlarini, emotsional holatini anglay olgan sari o‘quv faoliyatini maqsadli tashkil etish imkoniyati ortadi.

Masalan, murakkab matematik masalani yechish jarayonida o‘quvchi darhol javob topa olmasligi mumkin. Agar u muvaffaqiyatsizlikni “men buni umuman bilmayman” tarzida qabul qilsa, faoliyatdan voz kechishi ehtimoli ortadi. Aksincha, “qaysi bosqichda qiyinchilikka duch keldim?”, “menga qanday qo‘shimcha ma’lumot kerak?” kabi savollarni bera olishi o‘z faoliyatini tahlil qilish va keyingi harakatini belgilashga yordam beradi.

Shu jihatdan **o‘zini boshqarish** funksional savodxonlik bilan bevosita bog‘liq. Chunki real hayotiy vazifalarni bajarishda har doim ham tez va oson natijaga erishib bo‘lmaydi. O‘quvchi diqqatini saqlashi, vaqtini to‘g‘ri taqsimlashi, muvaffaqiyatsizlikdan keyin faoliyatni davom ettirishi va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishi kerak.

OECDning SSES tadqiqotlarida qat’iyat, mas’uliyat, o‘zini nazorat qilish va muvaffaqiyatga intilish kabi vazifani bajarish ko‘nikmalari alohida guruh sifatida ko‘rsatilgan [2]. Bu ko‘nikmalar o‘quvchining murakkab topshiriqlarni bajarish jarayonida faoliyatini davom ettirishiga xizmat qiladi.

Funksional savodxonlikni rivojlantirishda yana bir muhim component **empatiya**dir. Empatiya boshqa insonning holati va nuqtayi nazarini tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlarda o‘quvchi vaziyatga faqat o‘z nuqtayi nazaridan emas, boshqa insonlarning ehtiyojlari va manfaatlarini ham hisobga olgan holda yondashishi kerak.

Masalan, “maktabda chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha taklif ishlab chiqish” topshirig‘ida o‘quvchi faqat o‘ziga qulay yechimni taklif qilmasligi kerak. U o‘qituvchi, o‘quvchi, texnik xodim, ota-ona va maktab ma’muriyatining ehtiyojlarini ham hisobga olishi mumkin. Bunday yondashuv bilimlarni ijtimoiy vaziyatga ko‘chirish imkoniyatini kengaytiradi.

PISA 2022 kreativ fikrlash doirasida ham ijtimoiy muammolarni hal qilishda turli nuqtayi nazarlarni tushunish, boshqalarning ehtiyojlarini hisobga olish va innovatsion hamda funksional yechimlar ishlab chiqish muhim jarayonlar sifatida ko‘rsatiladi [4].

Shuningdek, **muloqot va hamkorlik** funksional savodxonlikning amaliy namoyon bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Real hayotdagi ko‘plab vazifalar individual emas, balki jamoaviy faoliyatni talab qiladi. O‘quvchi o‘z fikrini tushunarli ifodalashi, boshqalarning fikrini tinglashi, umumiy maqsadga erishish uchun vazifalarni taqsimlashi va kelishmovchiliklarni konstruktiv hal qilishi lozim.

Shu sababli funksional savodxonlikni shakllantiruvchi topshiriqlarni faqat individual testlar bilan chegaralash maqsadga muvofiq emas. Muammoli vaziyatlar, guruhli loyihalar, munozaralar, rolli o‘yinlar va amaliy vazifalar o‘quvchilarning bilimlarini ijtimoiy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bunda pedagogning roli ham o‘zgaradi. Pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashi, emotsional holatini boshqarishi va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etuvchi fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, darsda “Qaysi javob to‘g‘ri?” degan savol bilan cheklanib qolish o‘rniga “Nima uchun aynan shu yechimni tanlading?”, “Boshqa odam bu vaziyatga qanday qarashi mumkin?”, “Sizning qaroringiz qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?” kabi savollardan foydalanish o‘quvchining kognitiv va ijtimoiy-emotsional faoliyatini bir vaqtda rag‘batlantiradi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishda **refleksiya** alohida ahamiyatga ega. Refleksiya orqali o‘quvchi bajarilgan faoliyatni qayta ko‘rib chiqadi, o‘zining muvaffaqiyat va qiyinchiliklarini tahlil qiladi hamda kelgusidagi faoliyat uchun xulosa chiqaradi.

Shu o‘rinda funksional savodxonlik va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi ketma-ketlik orqali ifodalash mumkin:

O‘zini anglash → o‘zini boshqarish → vaziyatni anglash → boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish → hamkorlik → muammoni tahlil qilish → qaror qabul qilish → bilimni real vaziyatda qo‘llash → refleksiya.

Mazkur ketma-ketlik funksional savodxonlikning faqat bilimga emas, balki o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy imkoniyatlariga ham tayanishini ko‘rsatadi.

OECDning 2023-yilgi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar tadqiqotida 10 va 15 yoshdagi o‘quvchilarning turli ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari o‘rganilgan. Tadqiqotda vazifani bajarish, emotsional boshqaruv, boshqalar bilan munosabat, ochiq fikrlilik va hamkorlik kabi yo‘nalishlar qamrab olingan [5].

Mazkur yondashuv funksional savodxonlikni baholash jarayoniga ham muhim metodik xulosalar beradi. O‘quvchining bilimini faqat “to‘g‘ri-noto‘g‘ri” shaklida

baholash bilan bir qatorda, uning muammoni qanday tushungani, yechimni qanday asoslagani, turli variantlarni ko‘rib chiqqani va o‘z faoliyatini qanday tahlil qilganiga ham e’tibor berish mumkin.

Albatta, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni baholash akademik bilimlarni baholashdan farq qiladi. OECDning SSES baholash tizimi ham ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni alohida konseptual va metodik asoslar orqali o‘rganadi [6]. Shu sababli maktab amaliyotida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni baholashda faqat testlardan foydalanish bilan cheklanmasdan, kuzatish, o‘z-o‘zini baholash, tengdoshlar bahosi, refleksiv topshiriqlar, vaziyatli topshiriqlar va loyiha faoliyati natijalaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv o‘quvchining nafaqat “nima bilishi”, balki **“bilimini qanday qo‘llashi”, “muammoni qanday hal qilishi”, “boshqalar bilan qanday ishlashi” va “o‘z faoliyatini qanday boshqarishi”** haqida kengroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Xulosa. O‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, mazkur jarayonni faqat akademik bilimlarni oshirish bilan cheklab bo‘lmaydi. O‘quvchining real hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarini samarali qo‘llashi uning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya, muloqot, hamkorlik, mas’uliyatli qaror qabul qilish va refleksiya kabi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari bilan ham uzviy bog‘liq. Psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan funksional savodxonlikni shakllantirishning samarali sharti o‘quvchini tayyor javobni izlashga emas, balki muammoni anglash, savol qo‘yish, turli yechimlarni ko‘rib chiqish, boshqalarning fikrini hisobga olish, o‘z qarorini asoslash va natijani tahlil qilishga yo‘naltirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Creative Thinking and Financial Literacy. – Paris: OECD Publishing, 2023.

2. OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. – Paris: OECD Publishing, 2024.

3. Chernyshenko, O.S., Kankaraš, M., Drasgow, F. Social and Emotional Skills for Student Success and Well-being: Conceptual Framework for the OECD Study on Social and Emotional Skills. – Paris: OECD Publishing, 2018.

4. OECD. PISA 2022 Results. Volume III: Creative Minds, Creative Schools. – Paris: OECD Publishing, 2024.

5. OECD. OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023: Technical Report. – Paris: OECD Publishing, 2025.

6. Kankaraš, M., Suarez-Alvarez, J. Assessment Framework of the OECD Study on Social and Emotional Skills. – Paris: OECD Publishing, 2019.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Mashrabova Ma’mura Dilmurod qizi
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi,
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik mexanizmlari asoslangan. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi, o‘z-o‘zini samaradorlik konsepsiyasi va TPACK modeli asosida oltita mexanizm ajratilgan, ularni amalga oshirishning besh bosqichli modeli va pedagogik xavflar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy motivatsiya, bo‘lajak o‘qituvchi, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, pedagogik mexanizm, shaxsiylashtirilgan ta’lim, refleksiya, raqamli kompetensiya.

Аннотация: В статье обоснованы педагогические механизмы использования цифровых технологий и искусственного интеллекта в развитии профессиональной мотивации будущих учителей. Предложена пятиэтапная модель их реализации и рассмотрены педагогические риски.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, будущий учитель, искусственный интеллект, цифровые технологии, педагогический механизм, персонализация, рефлексия.

Abstract: The article substantiates pedagogical mechanisms of using digital and artificial intelligence technologies to develop pre-service teachers’ professional motivation. A five-stage implementation model and pedagogical risks are discussed.

Keywords: professional motivation, pre-service teacher, artificial intelligence, digital technologies, pedagogical mechanism, personalization, reflection.

Bugungi kunda ta’lim sifati o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kasbga bo‘lgan ichki munosabati bilan chambarchas bog‘liq. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan hujjatlar [1; 2] pedagogik ta’limni raqamlashtirish uchun huquqiy asos yaratdi. Biroq texnologik infratuzilmaning mavjudligi o‘z-o‘zidan bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy qiziqish va mas’uliyatni shakllantirmaydi. Shu sababli raqamli vositalar qanday pedagogik mexanizmlar orqali motivatsiyaga ta’sir ko‘rsatishini aniqlash dolzarb vazifadir.

Xalqaro tadqiqotlarda kasbiy motivatsiya o‘qituvchilik kasbini tanlash sabablari, kasbda qolish istagi va o‘quv faoliyatidagi ichki rag‘bat sifatida o‘rganiladi [3]. Sun’iy intellekt ta’limda qo‘llanilishi bo‘yicha sharhlar esa asosan o‘quvchilarni baholash, profillash va intellektual o‘qitish tizimlariga e’tibor qaratganini, pedagogik ta’lim talabalarining motivatsion rivojlanishi esa nisbatan kam o‘rganilganini ko‘rsatadi [4]. Mazkur bo‘shliq tadqiqot muammosini belgilaydi: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va SI texnologiyalari qaysi pedagogik mexanizmlar orqali samarali ishlaydi va ularni amaliyotga joriy etishning qanday shartlari mavjud?

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va SI texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik mexanizmlarini nazariy asoslash va ularni amalga oshirish modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, kasbiy motivatsiya raqamli muhitda alohida texnologik vositalarning yig‘indisi sifatida emas, balki talabaning

psixologik ehtiyojlari bilan bog‘langan yaxlit pedagogik mexanizmlar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Amaliy ahamiyati esa taklif etilgan modeldan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini loyihalashda hamda malaka oshirish tizimida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning nazariy asosini uchta yondashuv tashkil etadi: Deci va Ryanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (ichki motivatsiya avtonomiya, kompetentlik va bog‘lanish ehtiyojlari qondirilganda kuchayadi) [5], Banduraning o‘z-o‘zini samaradorlik konsepsiyasi [6] hamda o‘qituvchi tayyorgarligida texnologik, pedagogik va predmet bilimlarining uyg‘unligini ifodalovchi TPACK modeli [7].

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tahliliy usul va pedagogik modellashtirish qo‘llanildi. Ishda empirik natijalar keltirilmagan; taklif etilayotgan model keyingi bosqichda pedagogik eksperiment orqali sinovdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ilmiy farazdir.

1. Pedagogik mexanizm tushunchasi

Ushbu tadqiqotda pedagogik mexanizm deganda texnologik vosita, o‘quv faoliyati va motivatsion ehtiyoj o‘rtasidagi shunday izchil bog‘lanish tushuniladiki, unda vosita talabaning muayyan psixologik ehtiyojini qondiradi va kasbiy qiziqishning barqaror o‘sishiga olib keladi.

2. Shaxsiylashtirilgan o‘quv trayektoriyasi mexanizmi

Adaptiv o‘quv platformalari va SI-tahlil vositalari talabaning bilim darajasi va qiziqishlariga qarab topshiriqlar ketma-ketligini moslashtiradi. Bu mexanizm avtonomiya va kompetentlik ehtiyojlariga tayanadi: talaba tanlash imkoniga ega bo‘ladi, vazifalar esa uning yaqin rivojlanish zonasida qoladi.

3. Real vaqtdagi formativ fikr-mulohaza mexanizmi

SI yordamchilari dars rejasi yoki metodik ishlanma bo‘yicha zudlik bilan tahlil va tavsiya beradi. Muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi o‘z-o‘zini samaradorlik hissini kuchaytiradi [6], tezkor fikr-mulohaza esa xatoni tuzatiladigan bosqich sifatida qabul qilishga o‘rgatadi.

4. Simulyatsion pedagogik muhit mexanizmi

Virtual sinf, SI boshqaradigan “o‘quvchi” personajlari va video-tahlil vositalari real sinfga chiqishdan oldin mikro-dars o‘tkazish imkonini beradi. Simulyatsiya xavfsiz sharoitda o‘zlashtirish tajribasi yaratadi, amaliyotdan oldingi xavotirni kamaytiradi va kasbiy identiklikni shakllantiradi.

5. Gamifikatsiya va raqamli portfolio mexanizmi

Gamifikatsiya barqaror motivatsiya uchun mazmunli maqsadlarga bog‘lanishi kerak, shuning uchun u raqamli portfolio (dars ishlanmalari, videolavhalar, refleksiv yozuvlar) bilan birga qo‘llanadi. Portfolio rivojlanishning ko‘rinadigan dalili bo‘lib, kompetentlik hissini mustahkamlaydi.

6. SI-mentor yordamidagi refleksiya mexanizmi

SI-suhbatdosh talabaga savollar berib, dars tahlilida e’tibordan chetda qolgan jihatlarni ko‘rsatadi va muqobil yechimlar taklif qiladi. Bu ichki qadriyat va ijtimoiy foydalilik omillarini faollashtiradi [3]; shart – SI tayyor javob beruvchi emas, fikrni chuqurlashtiruvchi vosita bo‘lishi.

7. Mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligi

Ajratilgan mexanizmlar alohida emas, o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Shaxsiylashtirilgan trayektoriya talabaning avtonomiya hissini, tezkor fikr-mulohaza va simulyatsiya kompetentlik hissini, raqamli hamjamiyat esa bog‘lanish ehtiyojini qondiradi; portfolio va refleksiya bu tajribalarni yaxlit kasbiy identiklikka birlashtiradi. Shu sababli amaliyotda mexanizmlardan birini ajratib qo‘llash emas, ularni bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida loyihalash maqsadga muvofiq.

8. Mexanizmlarni amalga oshirish modeli

Mexanizmlarni izchil joriy etish uchun besh bosqichli model taklif etiladi. Diagnostik bosqichda talabalarning kasbiy motivatsiyasi va raqamli hamda SI savodxonligi darajasi aniqlanadi. Loyihalash bosqichida vositalar TPACK mantig‘iga muvofiq pedagogik maqsadlarga bog‘lanadi [7]. Amaliy bosqichda talabalar shaxsiylashtirilgan topshiriqlar, simulyatsiyalar va loyihalar bilan ishlaydi. Refleksiv bosqichda SI-mentor va o‘qituvchi yordamida faoliyat tahlil qilinadi,

portfolio yuritiladi. Baholash bosqichida ichki motivatsiya, o‘z-o‘zini samaradorlik hissi, kasbga sadoqat va raqamli kompetensiya ko‘rsatkichlari tajriba va nazorat guruhlarida solishtirilib, keyingi tsikl uchun tuzatishlar kiritiladi.

Modelning har bir bosqichida o‘qituvchi-mentor faol ishtirok etadi: u SI tavsiyalarini talabaning shaxsiy maqsadlari bilan uyg‘unlashtiradi, refleksiv suhbatlar o‘tkazadi va texnologiyadan foydalanishning axloqiy chegaralarini belgilaydi. Shu tariqa texnologiya pedagogik jarayonning markaziga emas, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita o‘rniga qo‘yiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda faqat pedagogik jihatdan asoslangan mexanizmlar orqali samara berishi mumkin. Ajratilgan oltita mexanizm shaxsiylashtirish, real vaqtdagi fikr-mulohaza, simulyatsiya, gamifikatsiya va portfolio, SI-mentor bilan refleksiya hamda raqamli hamjamiyat – talabaning avtonomiya, kompetentlik va bog‘lanish ehtiyojlarini qondirishga va o‘z-o‘zini samaradorlik hissini mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Taklif etilgan besh bosqichli model bu mexanizmlarni izchil amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli va SI texnologiyalarining motivatsion salohiyati ularning texnik imkoniyatlari bilan emas, balki pedagogik jihatdan qanchalik oqilona tashkil etilishi bilan belgilanadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda texnologik va pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Tavsiya o‘rnida aytish mumkinki, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida SI vositalarini qo‘llash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish; professor-o‘qituvchilarning raqamli va SI kompetensiyasini oshirish; SI vositalarini o‘qituvchi o‘rnini bosuvchi emas, uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida joriy etish; taklif etilgan modelni tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirish. Kelgusi tadqiqotlar mexanizmlarning uzoq muddatli ta’sirini va turli mintaqalardagi talabalar guruhlarida farqlarini o‘rganishga qaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son Qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

3. Watt H.M.G., Richardson P.W. Motivational factors influencing teaching as a career choice: Development and validation of the FIT-Choice scale // Journal of Experimental Education. – 2007. – Vol. 75(3). – P. 167–202.

4. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16, Article 39.

5. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55(1). – P. 68–78.

MUNDARIJA

T/r	Maqola muallifi	Bet
1	**So‘zboshi** **Xamidov Akmal Amrulloyevich** Til – millat ma’naviyati timsoli Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, p.f.b.f.d (PhD)	**4**
	1-SHO‘BA. **Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) va funksional savodxonlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.**	**7**
2	***Pardayeva Mehriniso Doniyarovna*** PISA 2025 natijalaridan pedagogik diagnostika va kasbiy rivojlanish vositasi sifatida foydalanish mexanizmlari	**8**
3	**Azizova Qizlarxon Mashrabovna** PISA, PIRLS va TIMSS mezonlari asosida funksional savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	**12**
4	**Astanov Rustam Vaxidovich** Xalqaro tadqiqotlar natijalari ta’lim sifatini oshirishda muhim omil	**18**
5	**Alimova Shaxlo Bafayevna** Xalqaro baholash mezonlari asosida o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	**28**
6	**Eshmurodova Baxtigul Saidmurodovna** **Saidmurodova E’zozaxon Baxramovna** Xalqaro baholash dasturlari vositasida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabatini rivojlantirish	**36**
7	**G‘afurov Mirzo Ulug‘bek Majidovich** TIMSS xalqaro baholash dasturi savodxonlikni rivojlantirishning metodologik asoslari	**43**
8	**Jumayeva Lola Ikromovna** Xalqaro baholash dasturlari va texnologiya ta’limi: kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari	**49**
9	**Mamatkulova Nilufar Boyzoq qizi** Xalqaro baholash tizimlarida akademik halollik tamoyillarining o‘rni: kompetensiyaga asoslangan baholash va ta’lim sifati kontekstida	**56**
10	**Odinayeva Mavluda Kobilovna**	**66**

	Raqamli ta’lim muhitida umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishda pisa, pirls va timss talablari hamda funksional savodxonlikning nazariy-metodologik asoslari	
11	**To‘ymurodova Nilufar Ismoil qizi** Xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish	**72**
12	**Xamrayeva Diyora Burxon qizi** Funksional savodxonlikni rivojlantirishda pisa, pirls va timss talablari va akmeologik yondashuvning integrativ imkoniyatlari	**82**
	2-SHO‘BA. **Filologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari**	**90**
13	**Ахмедов Баходир Яхшимурадович** Пути формирования и развития рецептивных видов речевой деятельности у детей-билингвов	**91**
14	**Abdulazizova Navro‘zaxon Maxammatovna** Filologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari	**96**
15	**Г. Т. Абдулхакимова, С. П. Анзорова** Подготовка будущих учителей русского и узбекского языков и литератур к формированиюфункциональной грамотности: содержание вузовской программы	**101**
16	**Bakayeva Rayxon Izatovna** Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishda matn bilan ishlash yo‘llari	**106**
17	**Bakayeva Rayxon Izatovna, Ortiqova Aziza Baxriddin qizi** Raqamli texnologiya vositasida ona tili darslarida o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishning ahamiyati	**113**
18	**А. В. Белозерцева** Потенциал школ выходного дня в обучении русскому языку детей соотечественников вне русскоязычной среды	**119**
19	**Baqoyeva Mubina** Funksional savodxonlikda PISA ning roli	**125**
20	**Gadoyev Zavqiddin Ibodovich** Xorijiy tillarni o’rgatish jarayonida o’quvchilarning savodxonligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish	**130**

21	**Кытина Наталья Ивановна, Кытина Виктория Викторовна** Лингводидактический потенциал предметно- языковой интеграции: международный опыт	**137**
22	**Karimberdiyev Qodir Komilovich** O‘qish savodxonligini rivojlantirishda xalqaro tajribalar: finlyandiya, singapur va kanada misolida	**148**
23	**Muqimova Gulnora Rashidovna** Adabiyot darslarida kritik yondashuv orqali funksional savodxonlikni oshirish	**152**
24	**Negmatova Latofat** Raqamli ta’lim vositalari asosida tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish: ‘‘aqlli uylar tizimi’’ mavzusi misolida. (5-ona tili)	**160**
25	**Ortiqova Aziza Bahriddin qizi** Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish orqali o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish: muammo va yechimlar	**166**
26	**Rahmonova Merjen Rajabturdiyeva** Filologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari	**172**
27	**Suvanova Mavjuda Xamrakulovna** Etnografizmlarning lisoniy tabiati va dialektal birliklar tizimidagi o‘rni	**177**
28	**Salimova Yulduz Ne’matovna** Filologik ta’limda funksional savodxonlikni oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	**181**
29	**Елена Николаевна Стрельчук, Евгения Олеговна Грунина, Наталья Александровна Носкова** Ошибки в русской письменной речи детей-инофонов, обучающихся в школах подмосковья	**190**
30	**Shabonova Guljamol Abdullo qizi, Bozorova Ra’no G‘aybullayevna** Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” asarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish (7e modelini qo‘llash)	**203**
31	**Tilavova Munisxon Alijon qizi** Sun’iy intellekt yaratgan matnlarni lingvistik tahlil qilish orqali 7–8-sinf o‘quvchilarining tanqidiy o‘qish savodxonligini rivojlantirish	**207**
32	**Хамидова Гулнара Юлдашбаевна** Использование современных технологий в повышении родной языковой и читательской грамотности в начальных классах	**213**

	3-SHO‘BA. **Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning raqamli va texnologik savodxonligini oshirishda sun’iy intellektning o‘rni: muammolar va samarali yechimlar**	**220**
33	**Ahmedov Sirojiddin** Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida noorganik kimyo fanini o‘qitishda raqamli va didaktik vositalar orqali talabalarning funksional savodxonligini rivojlantirish	**221**
34	**Avezov Tohir Ochilovich** Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (si)ning ta’lim sifat va samaradorligiga ta’siri	**226**
35	**Авезов Тохир Очилович** Межпредметная интеграция и применение STREAM технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процессах школьного образования	**233**
36	**Barakayev Murod, Ostonayev Elyor Egamberdiyevich** Milliy matematika darsliklaridagi topshiriqlarni PISA talablari asosida analitik fikrlash nuqtayi nazaridan tahlil qilish	**241**
37	**Boboyev Maqsud Mahmudovich** Fan metodistlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarish usullari	**246**
38	**Botirova Nigora Koyirovna** Onlayn ta’lim jarayonida generativ sun’iy intelekt vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, tendensiyalari va perspektivalari	**256**
39	**Djurayeva Charos Gulmuratovna** Matematika ta’limida differensial yondashuv asosida funksional savodxonlikni rivojlantirish	**262**
40	**Mashrabova Ma’mura Dilmurod qizi** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik mexanizmlari	**267**
41	**Soliyeva Moxigul Xayridinovna** Integrativ ta’lim muhitida talabalarning axborot-texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	**272**
42	**Teshayeva Mohidil Botirovna** Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning raqamli va texnologik savodxonligini oshirishda sun’iy intellektning o‘rni: muammolar va samarali yechimlar	**275**
43	**D.Xabibulloyev** Kelajak ta’limida individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishning sun’iy intellektga asoslangan mexanizmlari	**284**
44	**O‘tapov Ziyo Bakirovich**	**288**

	Globallashuv davrida milliy o‘zlik va ma’naviy immunitetning kiberbullingdan himoyalashdagi ahamiyati	
45	**Shrazov Adilbay Shamshetdinovich** Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni ta'lim sohasiga joriy etishda muammolar va to‘siqlar	**300**
	4-SHO’BA. **Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali funksional savodxonlikni rivojlantirish va uni baholash**	**306**
46	**С. П. Анзорова, М. З. Худойбердиева, С. К. Акбарова** Интеграция концепции 4К в методическую практику учителя РКИ и начальных классов	**307**
47	**Axmedov Ijod Narzikulovich** Ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish	**314**
48	**Alimova Shaxlo Bafayevna** O‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish — funksional savodxonlikni rivojlantirishning muhim omili (Davlat va huquq asoslari fani misolida)	**320**
49	**Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna** Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish orqali funksional savodxonlikni oshirish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari	**324**
50	**Bakayeva Zebiniso Izatovna** Boshlang‘ich ta’limda stem yondashuvining o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati	**328**
51	**Mubina Baqoyeva** Funksional savodxonlikda PISA ning roli	**335**
52	**Mubina Baqoyeva** Развитие функциональной грамотности через формирование социально-эмоциональных компетенций	**342**
53	**Farmonov Doston Amon o‘g‘li** Jadid ma’rifatparvarlari merosida oilaviy tarbiya muammolari va ularning zamonaviy talqinlari	**350**
54	**Farmonov Doston Amon o‘g‘li** Jadidlar oilaviy pedagogikasi vositasida yoshlarda zamonaviy hayotiy ko‘nikmalarni (soft skills) shakllantirish	**358**
55	**Farmonov Doston Amon o‘g‘li** Jadidlar pedagogikasi asosida zamonaviy yoshlarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik tizimi: tuzilmasi va funksiyalari	**366**
56	**Farmonov Doston Amon o‘g‘li**	**373**

	Jadidlar oilaviy pedagogikasining transformatsiyasi: tarixiy tajriba va zamonaviy amaliyot	
57	**Farmonov Doston Amon o‘g‘li** Yoshlar tarbiyasini takomillashtirishda jadidlar oilaviy pedagogikasiga asoslangan ijtimoiy-pedagogik model	**381**
58	**Gadayeva Munira Muxamedovna** Oila-maktab hamkorligi asosida o'smirlarning funksional savodxonligini, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish va egoistik tendensiyalarni transformatsiya qilish	**388**
59	**M.I. Gadoyeva** Tarbiya darslarida o’quvchilarda hissiy intellekt va empatiyani shakllantirish	**393**
60	**M.I. Gadoyeva** Tarbiya fanini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish	**404**
61	**U.A.Kosimov** Alisher Navoiy asarlarida bola tarbiyasida ijtimoiy hissiy ta’sir masalalari	**410**
62	**U.A.Kosimov** Xorijiy tilini o‘rganishda neyrolingvistik dasturlashning o‘rni	**418**
63	**U.A.Kosimov** Yosh avlodning kasbni oqilona tanlashi va kasbiy faoliyatda individual psixologik va ijtimoiy-psixologik emotsional xususiyatlarning roli	**422**
64	**Mamatqulova Zarifaxon Muxammadsoliyevna** Intellektual avlod va zamonaviy pedagogik innovatsiyalar	**430**
65	**Norova Nilufar Norbo‘ta qizi** Ijtimoiy-emotsional intellekt va funksional savodxonlikning o‘zaro bog‘liqligi: pedagogik-psixologik yondashuv	**435**
66	**Nurmanova Dilfuza Jamilovna, Nurmanova Feruza Jamilovna** O‘quvchilar jamoasini boshqarishda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar (boshlang‘ich ta’lim misolida)	**443**
67	**G.O.Ochilova** Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda foydalaniladigan usul va vositalar	**454**
68	**Rashidova Mehriya Muzafarovna** Boshlangich sinf ona tili darslarida jarangli va jarangsiz undosh tovush va harflarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan yangi innovatsion texnologiyalar	**463**
69	**Sh.Sadullayev** Maktab o‘qituvchilarida tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish	**432**

70	**Xaydarov Yuldash Xazratovich** “O‘zbekiston tarixi”ni o‘qitishda o‘quvchilar va talabalarda funksional savodxonlikni oshirishning ayrim masalalari	**479**
71	**Xakimov Shuxrat Shodiyevich** O‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	**485**
72	**Xakimov Shuxrat Shodiyevich** Sun’iy intellekt texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslari	**493**
73	**Xasanova Irodaxon Ikromjon qizi** Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali funksional savodxonlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	**502**
74	**Xudoyberdiyeva Jumagul Amanovna** Amaliyotchi psixolog-o‘qituvchilarda 4k ko‘nikmalari va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari	**508**
75	**G‘aniyeva Mahliyo** Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari	**514**
76	**Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o‘g‘li** Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali funksional savodxonlikni rivojlantirishning psixopedagogik asoslari	**519**
77	**Soliyev Mirzoxid Tursunxo‘jayevich** O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish asosida funksional savodxonlikni shakllantirish: psixologik-pedagogik yondashuv	**525**
78	**Mashrabova Ma’mura Dilmurod qizi** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik mexanizmlari	**531**